O‘qitishning mustaqil qismi bo‘lgan har qanday dars ta‘limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday darsning umumiy maqsadi “o‘quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo‘llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o‘quvchida komil shaxsga xos fazilatlarini shakllantirishdir [8].

Boshlang‘ich ta‘limga oid “Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartlari”da “O‘qish” darslari oldiga qo‘yiladigan didaktik talablar o‘quvchilar e‘tibori nimani o‘rganish va nimani esda saqlab qolish kerak ekanligiga qaratilishidan boshlanadi.


Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga,

matnni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildira olishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi.

7-9 yoshdagi bolalarda "yozma nutq ham shakllana boshlaydi... Yozma nutqni egallashi asosida ularda turli matnlar haqida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolalarda hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish ko'nikmasi yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Mustaqil ijodiy ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish ko'nikmasini hosil qiladi. Jummalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi" [8].

Ma'lumki, nutqda insonning fikrlari bilan birgalikda his-tuyg'ulari ham ifodalanadi. Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklarida keltirilgan badiiy matn namunalarini o'rganish orqali o'quvchilar ushbu jihatni ham o'zlashtiradilar. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasviriy imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi [9]. Shunday ekan, badiiy matn ustida ishlashda nutq o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Tadqiqotni olib borish davrida, shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish jarayonida ustuvor bo'lgan tamoyillar ham aniqlandi. Ular quyidagilardir (1-rasm):



1-rasm. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish jarayonining ustuvor tamoyillari

Yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili. Mazkur tamoyil matn ustida ishlash jarayonini tashkil etish, o'quv topshiriqlarini shakllantirish, o'quvchilarga individual topshiriq berishda ularning yosh xususiyatlariga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish: ularni ruhan, jismonan toliqishlarining oldini oladi; matn bilan ishlashning samarali kechishini ta'minlaydi; vaqtni tejaydi; o'quv maqsadiga erishishga imkon beradi.

Amaliy-faoliyatli yondashuv tamoyili. Ushbu tamoyil boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn bilan ishlash jarayoni, o'quv topshiriqlarining amaliy mashq, o'yin metodlariga asoslanishini ifodalaydi. O'quvchilar tomonidan mashqlarni bajarishda o'qish va yozish (ifodali o'qish, matn mazmunini aytib berish, reja tuzish, lug'at bilan ishlash, matn ustida mustaqil ishlash)ga oid amaliy harakatlarning tizimli, izchil tashkil etilayotgan faoliyat negizida amalga

o'shiriladi.

Hissiy-estetik yondashuv tamoyili. Bu tamoyil boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan va "O'qish kitobi" darsligiga kiritilgan matnlarning o'quvchilarda hissiy kechinmalarni uyg'otish, ularni estetik jihatdan zavqlantirishga xizmat qilishini tavsiflaydi. O'quvchilarda hissiy kechinmalarning uyg'onishi, estetik zavqning yuzaga kelishi ularda hissiyotni, borliqqa ijobiy munosabatni, estetik didni tarbiyalaydi.

Tizimlilik va davomiylilik tamoyili. Mazkur tamoyil boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashdan iborat o'quv-bilish faoliyatining tizimli va davomli kechishini anglatadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida dastlab kichik hajmli, o'quvchilarning kundalik faoliyatida uchraydigan, ular uchun yaxshi tanish bo'lgan mavzulardagi matnlardan foydalanilsa, asta-sekin tadrijiy (evolyusion) rivojlanish asosida ularni yangi bilimlar bilan tanishtirish, nutqni yangi so'zlar bilan boyitishga imkon beradigan matnlarga murojaat qilinadi.

Badiiylik va ifodaviylilik tamoyili. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn bilan ishlashda o'rganilayotgan matnlar badiiy qimmatga ega bo'lib, o'quvchilarda kitobga, kitob o'qishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyalarni rivojlantiradi. O'qituvchining dars jarayonidagi vazifasi matnning ifodali o'qitilishini ta'minlash bo'lib, o'quvchilarning urg'uni to'g'ri qo'yish, yarim va to'la to'xtalishlarga rioya qilish, nutq sur'ati va ohangiga e'tibor berish malakalariga ega bo'lishlariga olib kelad.

Natijalar. Hikoya va suhbat mohirona birlashtirilsa, darsning maqsad hamda vazifalarini amalga oshirish ham osonlashadi. Kuzatishlar o'quvchilarni o'qishga tayyorlashning ham o'ziga xos muammolari mavjudligini ko'rsatdi. Ayrim o'qituvchilar kirish suhbatini hajmini oshirib yuboradilar, tayyorgarlik ishiga 10-15 daqiqa vaqt ajratadilar, savollarni tartibsiz qalashtirib tashlaydilar. O'qish darslarida bevosita matn o'qish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ishlarni hisobga olganda, darsning katta qismi gap bilan o'tib ketadi. Binobarin, 30-35 daqiqa vaqt o'qishga ajratilishi lozim.

Suhbat va hikoyaning o'rinli hamda maqsadga muvofiqligi, savollar miqdori, ularning mazmuni va qo'yilish mantiqi, hikoya hajmi o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak. Odatda, o'quvchilarning hayotiy tajribasiga yaqin mavzularni o'qishda ko'pincha suhbatga zarurat sezilmaydi. Biroq o'qituvchining o'quvchilarni mavzuga yo'naltiruvchi kirish so'zi, albatta, zarur. Busiz o'quvchilarning asarni to'laqonli idrok qilishlariga erishish mushkul.

Matn o'qish va uni tahlil qilish. O'quvchilar matn o'qish jarayonida uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, asarda aks etgan voqealar bilan tanishadilar. Bunda asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, matn ifodali, sharhlab va rollarga bo'lib o'qitish mumkin. Badiiy matn o'qish muallif tasvirlagan manzaralarni aniq tasavvur etishga, asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

"Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to'g'ri va to'la idrok etishdan iborat" [10]. Tahlil o'quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo'llashning muhim omilidir. O'quvchilar tahlil jarayonida asarda tasvirlangan voqealarga o'z fikrlarini bildiradilar, notanish so'zlar ma'nosini bilib oladilar, matnning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetadilar. Aslida, "adabiy tahlilning bosh masalasi matn ustida ishlash orqali o'tkaziladigan tahlildir. O'quvchi mutolaa chog'ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida uning poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tagzaminidagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi".

O'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e'tibor uning mazmuniga qaratilsada, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o'quvchi matn mazmunini og'zaki hikoyalashda adashmaydi. O'quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe'l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo'lishiga

qaratish ularning nafaqat o'qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Matnlarda jumllararo aloqa alohida e'tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o'zaro aloqada bo'lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o'quvchilarga matn qismlarini o'qish yoki ko'chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma'lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Matndagi gaplar o'rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya'ni mazmuniy aloqa mavjud. Bu aloqa uni ifoda etuvchi leksik-grammatik vositalar orqali o'z aksini topadi. Har qanday so'zlarni gapga birlashtirib bo'lmagani kabi har qanday gaplarni ham bitta bog'lanishli matnga birlashtirib bo'lmaydi. Masalan, "Bolalar dam olishga ketishdi", "Gullar ochildi", "Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi" kabi gaplarni bir matnga birlashtirib bo'lmaydi. Ular turli mazmunga ega bo'lgani bois biror bir munosabatga ko'ra ham birlasha olmaydi.

Xulosa va munozara. Matnni qayta tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qayta tasvirlashdan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy manzaralarni o'quvchilarning aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'qituvchining kirish so'zi matnni o'qish oldidan tayyorgarlikning yetakchi bo'g'inlaridan biri bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan uning to'g'ri uyushtirilishiga bog'liqdir.

Adabiyotlar ro'yxati.

Mirziyoev Sh.M. O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir // <https://religions.uz/news/detail?id=1227>

Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasi / Mualliflar: Q.A.Abdullaeva, R.G'.Safarova, M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikbaeva, M.A.Zaynitdinova // Boshlang'ich ta'lim j. – T., 2018. № 6. – 12-18-b.

Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. – T.: "Fan", 2015. – 85-86-b.

Pedagogicheskiy ensiklopedicheskiy slovar / Gl. red. B.M. Bim-Bad. 3-ye izdanie, stereotipnoe. – M.: "Bolshaya Rossiyskaya ensiklopediya", 2019. – 528 s.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi / 12 jildli. 6-j. – T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 424-425-b.

G'aniyeva B.I. Kutubhonalarda o'quvchilar o'qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik rivojlanishi. Ped.fan.nomz.diss. – T.: 2018 yil. -161 b.

Djezheley O.V. O'qish va adabiyot // Dasturiy va uslubiy materiallar: O'qish. Boshlang'ich maktab / Comp. T.V. Ignatieva. – M.: Bustard, 2020. – B. 68-69.

Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muharrir A.M.Majidov. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2010. – 528 b.

Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: "Fan", 2018. – 160 b.

Usmonov S. Boshlang'ich sinflarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. nomzdiss. avtoref. – T.: 2014. – 24 b.

KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TA'LIMNI INDIVIDUALLASHTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLANISHI

*Arzikulova Surayyo Fayzullayevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.004>*

Annotatsiya. Maqolada ta'lim tizimi zimmasiga yuklatilayotgan zamonaviy talablar uni rivojlantirishda istiqbolli yo'nalish sifatida individuallashtirishning ahamiyatini tobora oshib borishi, individuallashtirish ta'lim olishning vazifalaridan biri, inson kapitalini rivojlantirishi, faoliyatni ongli tushunishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, ta'lim, kreativlik, faoliyat, muloqot, pedagog, kredit-modul, individuallashtirish.

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ КРЕДИТНО- МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

*Арзикулова Сурайё Файзуллаевна,
Шахрисабзский государственный педагогический институт, научный
сотрудник*

Аннотация. В статье описывается важность индивидуализации как перспективного направления ее развития в связи с современными требованиями, предъявляемыми к системе образования, индивидуализация является одной из задач образования, развития человеческого капитала, осознанного понимания деятельности.

Ключевые слова: Образование, воспитание, творчество, деятельность, общение, педагог, кредитный модуль, индивидуализация.

THEORETICAL JUSTIFICATION OF THE ORGANIZATION OF THE PROCESS OF INDIVIDUALIZATION OF EDUCATION UNDER THE CONDITIONS OF THE CREDIT-MODULE SYSTEM

*Arzikulova Surayyo Faizullayevna,
Shahrisabz State Pedagogical Institute researcher.*

Abstract. The article describes the importance of individualization as a promising direction in its development due to the modern requirements imposed on the educational system, individualization is one of the tasks of education, development of human capital, conscious understanding of activity.

Key words: Education, education, creativity, activity, communication, pedagogue, credit module, individualization.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmonining qabul qilinishi va u asosida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qitish metodikasini takomil lashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish

tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishni taqozo etmoqda [1].

Hozirda jahon ta'lim tizimida individuallashtirish va tabaqalashtirish tushunchalari keng ko'lamda tatbiq etilmoqda. Bunday yondashuv o'zbek xalqi ta'lim tizimida asrlar davomida mavjud bo'lgan. O'tmishda maktabxonalar ayniqsa, madrasalarda ta'lim oluvchilarga alohida yondashilgan holda, ularning qiziqishlari va intilishlarini hisobga olib ta'lim-tarbiya berilgan. Har bir ta'lim oluvchining muayyan mavzuni bilish imkoniyatlari va o'zlashtirish darajalari aniqlangan.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim muassasalarida yangicha innovatsion metodlar va yangicha yondashuvlar asosida ta'lim berish yo'lga qo'yilmoqda. Shunday samarali, zamonaviy va mazmunli yondashuvlardan biri shaxsga yo'naltirilgan bu ta'limni individuallashtirish hisoblanadi [2].

Pedagogika ensiklopediyasida "Individual yondashuv metodi – (lot.individium – bo'linmas) pedagogik jarayonni o'quvchining individual o'ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalar)ni e'tiborga olgan holda amalga oshirish metodi" sifatida talqin etiladi [3].

Ta'limni individuallashtirish g'oyasi pedagogik bilimlarni shakllantirishning umumiy ilmiy mantig'ida mos ravishda rivojlanganligi I.L.Chernyakova tomonidan o'rganilgan [4]. Uning izlanishlarini tahlillash va umumlashtirish asnosida individuallashtirish g'oyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini quyidagicha pog'onalash mumkin;

- nazariyagacha bo'lgan bosqich – falsafiy bilimlar doirasida inson individualligini tushunishning shakllanishi bilan ifodalanadi;

- klassik ratsionallik bosqichi – o'qitishning yetakchi tamoyillaridan biri sifatida o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olinishi bilan ifodalanadi;

Suqrot ta'lim inson va uning ruhi haqidagi bilimdan kelib chiqishi yoki asoslanishi kerakligini ta'kidlagan[5]. U har bir o'quvchini shaxsi o'z-o'zini axloqan takomillashtirishga bog'liq ravishda ta'lim insonni kamolotga olib keladigan, ichki tuyg'usiga asoslangan, bilimlarini qalban qayta ishlashga yo'naltirilgan jarayon deb hisoblaydi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishga oid turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan, mutaxassislar quyidagi talqinga ko'proq moyillik bildiradilar:

- Ta'limni individuallashtirish – bu o'quv jarayonini tashkil etish, uning yo'llari, usullari, o'qitish maromini tanlashda o'quvchilarning o'ziga xosligi, ularning rivojlanganlik darajasi va o'qish layoqatini hisobga olish demakdir.

- O'quv jarayonini tabaqalashtirish – o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarni muayyan o'ziga xos jihatlarga ko'ra alohida o'qitish imkonini beruvchi guruhlarga ajratish demakdir[6].

O'zbek xalqining tarixiy tajribalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'qitishning jamoaviy shaklidan ko'ra o'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish ko'p jihatdan samaralidir. Shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish bo'yicha xorijiy pedagoglarning nazariy yondashuvlari mavjud va ular alohida ahamiyatga molik.

Jumladan, AQSh ta'lim tizimida qo'llaniladigan barcha pedagogik shakl va metodlar o'quv jarayoniga o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tatbiq etilmoqda[7]. O'quv jarayonini individuallashtirishning bir qator strategiyalari mavjud bo'lib ular quyidagilar:

- o'qitishga bog'liq bo'lmagan holda eng kam sonli o'quvchilardan boshlab butun

guruh a'zolarining o'ziga xosliklarini hisobga olish;

- ta'limning turli variantlarini ishlab chiqish, jumladan, o'quvchilarga muayyan mavzuni o'rgatish maromi, maqsadlari, metodlari, o'quv materiallari, talab etilgan o'zlashtirilganlik darajalari kabilarni ko'p variantlarda taqdim etish;

- ta'limda individuallashtirishni qo'llash o'rgatiladigan barcha o'quv predmetlari, ularning muayyan qismlari, o'quv kurslari, o'quv materiallari va alohida o'quvchilarga nisbatan amalga oshiriladi.

Buning natijasida o'quvchilarning umumiy belgilariga asoslangan holda turli guruhlarni tashkil etish mumkin. Avstriyada o'quvchilarning bilish faoliyatini individual rivojlantirishga asoslangan dasturlarda o'quvchilarning o'ziga xos layoqatlariga asoslangan holda ularning mustaqil ishlarini takomillashtirishni nazarda tutadilar. Individuallik o'quvchilarning sinfdagi mustaqil ishlari, topshiriqlar, individuallashtirish esa, o'quv topshirig'i har bir o'quvchi uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida-alohida tanlan ganda vujudga keladi. Angliya maktablarida o'quv jarayoni tabaqalashtirish tamoyili asosida tashkil etilgan. O'quvchilar boshlang'ich ta'lim bosqichini o'tagandan keyin uch xil yo'nalishdagi maktablarga bo'linadilar. Ular: grammatik yo'nalishdagi maktablar, zamonaviy o'rta maktablar va texnika sohasidagi o'rta maktablardir.

Bu maktablarning har biriga o'quvchilar aqliy qobiliyatlari va umumiy rivojlanish darajalariga ko'ra taqsimlanadilar. Bugungi kunga kelib ta'lim jarayoniga bo'lgan yondashuvlar tubdan o'zgarimoqda. O'quv jarayoniga individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab amalga oshirilmogda. Ta'lim bosqichlarining har birida o'quv jarayonini individuallashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u o'ta murakkab pedagogik jarayon sifatida tavsiflanadi. Angliya maktablarida ikki turdagi individuallashtirilgan o'quv jarayoni amal qiladi:

- o'quvchilarning turli guruhlariga ta'lim berish, bunda ularning layoqatiga bog'liq holda turli darajaga ega bo'lgan turlicha bilimlar taqdim etiladi;

- bir qator o'quv predmetlari va ta'lim sohalaridan chuqurlashtirilgan bilim berish.

Umuman olganda, o'quv jarayonini individuallashtirishning mazkur shakllari qulay bo'lishi bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklarga ham ega. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda quyidagi qulayliklar mavjudligi kuzatiladi:

- o'qitish jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xosligini hisobga olish imkoniyati tug'iladi;

- o'quvchilarning o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishlari ortadi; mustaqil ishlarning ahamiyati oshadi; individual topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, pedagogika nazariyasi va tarixiga doir o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili ta'limda individuallashtirish konsepsiyasining qadimgi, antik, o'rta va hozirgi davrdagi tadrijiy taraqqiyotini tushunish orqali uning rivojlanish trayektoriyasini aniqlashga imkon beradi. Shuningdek, zamonaviy sharoitlarda ta'limni individuallashtirishning rivojlanishiga doir tahlillarni umumlashtirish, konsepsiyasini takomillashtirish, uning tarkibiy qismlarini muvofiqlashtirish mavjud vazifalarga uchun yetarlicha ilmiy-nazariy bilan asoslar paydo bo'lganligini ham qayd etish joiz bo'ladi.

Shuni ta'kidlashimiz mumkinki, rivojlangan xorijiy davlatlar pedagogikasidagi individuallashtirish sohasiga doir bilimlarning sezilarli darajada kengayib borayotganligi, yangi tajribalar bilan boyitilayotganligi, ta'limning fundamental tushunchasi sifatida

qaralayotganligi hamda barqarorlikka ega ekanligi natijasida erishilgan muvaffaqiyatlarni milliy pedagogikamizga singdirish mamlakatimizda ta'lim maqsadlariga erishish va sifatini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni.

2. Xujayarova N.S. Individual learning trajector in increase of educational effeciency. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 12, Issue 2, February (2024) <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5271>. Page 474.

3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild./ tuzuvchilar: Jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015, 368-b.

4. Anyon, Yolanda; Nicotera, Nicole; Veeh, Christopher A. Contextual Influences on the Implementation of a Schoolwide Intervention to Promote Students' Social, Emotional, and Academic Learning // CHILDREN & SCHOOLS Том: 38 Выпуск: Стр.:81-88 Опубликовано: APR 2016 <http://webofscience.com>.

5. Xudayberdiyeva Janona. "Ta'limda individuallashtirish g'oyasining rivojlanish genezisi". <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467003>.

6. Arziqulova S.F. Forming the methodology of self-personalization of students in the conditions of the credit module system. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. 708-710 bet. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=M7z9ytEAAAAAJ&citation_for_view=M7z9ytEAAAAAJ:UeHWp8X0CEIC.

7. Xujayarova N.S. Development of Creative Thinking Skills in Students Based on an Individual Learning Trajectory. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 02 Issue: 12 | 2023 ISSN: 2751-756X <http://innosci.org>. | Page 89

8. Arziqulova S.F. Kredit-modular tizimi bo'yicha talabalar tayyorlash jarayoni ta'lim tashkilotlari. Fan, innovatsiya, ta'lim: akut masalalar va zamonaviy jonlar. 154-158-bet. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=M7z9ytEAAAAAJ&citation_for_view=M7z9ytEAAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

9. Arziqulova S.F. Forming the methodology of self-personalization of students in the conditions of the credit module system. FARS International Journal of Education Social Science G Humanities.(FIJESH). Page 708-710. ISSN:2945-4492 VOL. 11 NO. 2 (2023): FIJESH. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/545>.

MUSTAQIL TA'LIMDA LOYIHALAR METODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Ashurova Laylo,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti assistenti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.005>

Annotatsiya. Maqolada kredit tizimda mustaqil ta'limni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish muammolari, mutaqil ta'limni tashkil etishda loyihalar metodidan foydalanish metodikasi, telekommunikatsiya o'quv loyihalarining samarali tashkil etishning asosiy talablari keltirilgan. Telekommunikatsiya o'quv loyihalarini tashkil etish himoya qilish tartibi hamda tashqi baholash metodlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar va iboralar: kredit tizimi, mustaqil ta'lim, loyiha metodi, telekommunikatsiya, o'quv loyiha, samaradorlik, himoya, tashqi baholash.

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДА ПРОЕКТОВ В САМОСТОЯТЕЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Ашурова Лайло,
ассистент Каршинского инженерно экономического института

Абстрактный. В статье представлены проблемы организации самостоятельного образования на основе цифровых технологий в кредитной системе, методика использования метода проектов при организации самостоятельного образования, а также основные требования к эффективной организации образовательных телекоммуникационных проектов. Разъясняется порядок организации и защиты образовательных телекоммуникационных проектов, методы внешней оценки.

Ключевые слова: кредитная система, самостоятельное образование, метод проектов, телекоммуникации, образовательный проект, эффективность, защита, внешняя оценка.

METHODOLOGY OF USING THE PROJECT METHOD IN INDEPENDENT EDUCATION

Ashurova Laylo,
assistant at Karshi Engineering and Economic Institute

Abstract. The article presents the problems of organizing independent education based on digital technologies in the credit system, the methodology for using the project method in organizing independent education, as well as the basic requirements for the effective organization of educational telecommunications projects. The procedure for organizing and protecting educational telecommunications projects and methods of external evaluation are explained.

Key words: credit system, independent education, project method, telecommunications, educational project, efficiency, protection, external assessment.

KIRISH. Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida kredit tizimining tadbiriq etilishi natijasida talabalarning mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratildi. Amalda talabani muayyan modul bo'yicha o'qish yuklamasining 40 foizi auditoriyada, 60 foizi mustaqil ta'limni tashkil etadi. Oldingi o'quv rejalarga nisbatan olganda, jami auditoriya soatlari 56 foizga kamaygan, talabani mustaqil ta'limiga ajratilgan vaqt 47 foizga ortgan. Lekin hozirda talabani auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limi talabalarga referat, taqdimot, mavzular

bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash topshirig'ini berish orqali an'anaviy usulda bajarilmoqda. Bu raqamli texnologiyalar o'quv jarayoniga keng tadbiiq etilayotgan hozirgi kun talablariga to'g'ri kelmaydi. Shu sababli, mustaqil ta'lim to'liq raqamlashtirilishi zarur. Bu o'rinda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini baholash tamoyiliga asoslangan hamda talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar metodi, telekommunikatsiya o'quv loyihalaridan foydalanish o'rinli hisoblanadi. Loyihalar uslubini o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi talabalardan tahlil qilish, taqqoslash, sintez (hodisalarni o'zaro bog'lab, tekshirish), fikran tadqiqot, oldindan baholash, ma'lumotlarni izlash, uni baholash va shu kabi bir qancha intellektual malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Asosiysi talabalar ma'lumotlarning turli manbalaridan foydalanish, jamoa tarkibida ishlash, muammo yechimining turli usullarini birgalikda muhokama qilish, nafaqat o'z fikrini ma'qullash, balki guruhdagi boshqa hamkorlar fikrini ham hurmat bilan tinglash, tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarishni ham bilishlari shart.

TADDIQOT METODLARI

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov va forsayt metodlaridan foydalanildi.

TADDIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALAR

Mustaqil ta'limni telekommunikatsiya o'quv loyihalari asosida tashkil etish talabalarning ilmiy-ijodiy kompetentliklarini rivojlantirishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi.

Telekommunikatsiya –bu axborotlarni uzatish va tez almashishni ta'minlovchi vosita hisoblanadi. Bu zamonaviy ta'lim jarayoni uchun o'ta muhimdir. Ushbu loyiha asosida yoshlarni bir-birini tushunishga, o'zgaralar fikrini hurmat qilishga, o'z fikrini erkin bayon qilishga va birgalikda muammolarni hal etishga o'rgatishga imkoniyat yaratiladi. Natijada loyiha asosida xalqaro yagona ta'lim sohasiga kirib boriladi.

AQSh Ogayo shtati Illinoysk universiteti professori V.Gezerud ko'p yillardan buyon tarmoq loyihasini olib boradi va unda 40 ga yaqin davlatlardan yoshlar ishtirok etishadi. Hozirgi vaqtda Internet tarmog'ida Kidlink dasturi va I Earm dasturi asosidagi xalqaro loyihalar ishlab turibdi. Ma'lumki, telekommunikatsion loyihalarda axborot almashinish yozma variantda olib boriladi. Bu talabalarga o'z fikri ustida yaxshi o'ylash, uni tahrir qilish imkonini ham beradi va uning bilish faoliyatida, muomala madaniyatini shakllanishida ijobiy rol o'ynaydi. Ushbu loyihada asosiy shart yoki to'siq chet tilini bilish darajasi hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-sonli qarori aynan chet tilini chuqur o'zlashtirishga keng yo'l ochib, yoshlarimizni xalqaro ta'lim saytlaridan, masofaviy va ochiq ta'lim turlaridan foydalanishlariga katta imkoniyatlar yaratdi.

Telekommunikatsion loyihalar o'tgan asrning 80-yillarida yuzaga keldi va fan hamda o'quv sohasida aloqaning qulay va tezkor usuli sifatida foydalanildi. Xalqaro tajribalarning ko'rsatishicha oddiy yozishma asosidagi telekommunikatsion loyihalarga nisbatan maxsus tashkil etilgan va aniq maqsadga qaratilgan loyihalar, Internet tarmog'ida talabalarning hamkorlikda ishlashi katta pedagogik natijaga olib keladi. Turli shaharlar, mintaqalar va davlatlar talabalarining tarmoqdagi birgalikdagi o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli o'quv telekommunikatsiya loyihalari hisoblanadi.

O'quv telekommunikatsiya loyihalari deganda kompyuterli telekommunikatsiya asosida tashkil etilgan, umumiy muammo, maqsad, kelishilgan uslublar va faoliyat usullariga ega, faoliyatning birgalikdagi natijasiga erishishga yo'naltirilgan talaba-hamkorlarning o'quv-bilish, tadqiqiy, ijodiy, ilmiy va o'yinli faoliyati tushuniladi.

Har qanday loyihadagi muammo yechimi integratsiyalashgan bilimni talab etadi. Telekommunikatsion loyihada, ayniqsa xalqaro loyihalarda ancha chuqurlashgan bilimlar integratsiyasini, nafaqat tadqiq qilinayotgan muammo yuzasidan fan bilimlari sohasini,

balki hamkorning milliy madaniyati xususiyatlarini, uning dunyoni bilishi va tushunishini, qarashlarini bilishni ham taqozo qiladi. Bu esa dialog madaniyatini tashkil etadi.

Chet tilida tashkil etiladigan telekommunikatsiya loyihalar (agar dasturda ko'rsatilgan bo'lsa) uchun loyiha mazmuni va tarkibiga mos holda chet tillar bo'yicha og'zaki nutq va o'qishni rivojlantirish kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar bunday loyihalar maxsus fanlardan yoki umumkasbiy fanlardan tashkil etilsa va undagi muammo matnlari chet tili dasturiga mos kelmasa, darsdan tashqari vaqtlarda shaxsan (individual) tashkil etilishi mumkin.

Pedagogika sohasida telekommunikatsiya loyihalarini samarali tashkil etish uchun quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

qo'yilgan muammoni yechish uchun tabiiy, fizik, ijtimoiy va boshqa hodisalar ustidan ko'p, tizimli, bir martalik yoki uzoq davomli kuzatish, turli mintaqalardan ma'lumotlar to'plash;

turli joylarda yuzaga keladigan hodisalar, dalillar, voqealarning aniq tendensiyasini aniqlash uchun taqqoslab o'rganish, qarorlar qabul qilish va takliflar ishlab chiqish;

loyiha qatnashchilarining madaniy, etnik, geografik shartlari o'rtasidagi farqlarni hisobga olgan holda bir muammo yoki masala yechimi yo'llarining (alternativ yoki turli usullarini) samaradorligini taqqoslab o'rganish;

o'ziga xos madaniy, an'anaviy, diniy xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy va madaniy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish;

birgalikda ma'lum bir muammoni hamkorlikda tadqiq qilish sharti bilan biror bir (amaliy, ijodiy, ilmiy va b.) ijodiy g'oyani ishlab chiqish;

qiziqarli sarguzashtli kompyuter o'yinlari va musobaqalarini o'tkazish va bunda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni madaniy, ta'limdagi an'analar, sport sohasi bilan bog'liq bo'lishiga qaratish.

Bunday xalqaro loyihalarga o'n yildan ortiqroq vaqtdan buyon Ogayo shtati Illinoysk universiteti professori V.Gezerud tomonidan tarmoqdagi IEARN (<http://www.iearn.org>) va KIDLINK (<http://www.kidlink.org>) dasturlari orqali tashkil etilib kelinayotgan «Shekspir seminarlari»ni misol qilish mumkin. Aynan mintaqaviy yoki xalqaro telekommunikatsion loyihalarda yashirin koordinatsiyadan foydalanish mumkin, ya'ni koordinator yoki koordinatorlardan biri loyihaning ishtirokchisi sifatida «yashirin» loyiha qatnashchilariga ishni (vazifani) jo'natib turadi.

Telekommunikatsion loyihalarni tashkil etish ma'lum darajada tayyorgarlik ishlarini talab etadi. Bunda, masalan, aniq bir muammoni o'rganish bo'yicha hamkorlarni qanday topish mumkin? - degan savol tug'iladi. Buning uchun yuqorida keltirilgan IEARN (<http://www.iearn.org>) va KIDLINK (<http://www.kidlink.org>) dasturlariga murojaat etib, chet davlatlardan hamkorlar topish mumkin. Yoki, o'qituvchilarning professional hamkorlik saytlari: Yevropa hamkorligi (<http://www.eun.org>) yoki Rossiya (<http://www.ioso.ru/distant/communiity>) saytlariga kirib loyihani ularga taklif etish mumkin. Albatta, har qanday holatda ham talabalar faoliyatini har ikkala tomondan o'qituvchilar tomonidan koordinatsiyalash talab etiladi. Bu yerda hamkorlarni tanishtirish ham muhim hisoblanadi. Buning uchun loyiha ishtirokchilari o'zlari to'g'risidagi qisqa ma'lumotlarni rasmlari bilan birgalikda saytdagi hamkorlar tanishishlari uchun yuborishlari mumkin. Chunki bunday muloqotda hamkorlarning qiziqishlarini, umuman kim bilan ishlayotganlarini bilish ham muhim rol o'ynaydi.

Chet ellik hamkorlar bilan ishlashda ularning o'ziga xos madaniy va an'anaviy qadriyatlarini bilish, unga hurmat bilan qarash talab etiladi. Shuning uchun dastlab off-line rejimida (elektron pochta yoki forum orqali) yoki on-line rejimida (chat) muloqat tiliga e'tibor berib, o'ta savodli tilda, hamkorga hurmat nuqtai nazardan qarab yozishmalar tashkil etish zarur. Ayniqsa, muloqot tili (chet tili) bo'yicha hamkor davlat vakillarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini va nutq madaniyatini hisobga olgan holda jiddiy dastlabki tayyorgarlikni tashkil etish talab

etiladi va bunda koordinator maslahati juda zarur bo'ladi.

Telekommunikatsiya loyihalarni nafaqat xalqaro, balki mintaqaviy yoki bir davlat doirasida tashkil etish ancha keng rivojlangan. Chunki bunda loyihani tashkil etishdagi til bo'yicha to'siq yo'q bo'ladi, lekin milliy va etnik, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini hisobga olish, ularga hurmat yuzasidan qarash sharti saqlanib qoladi.

Loyihaning himoyasi dastlab mashg'ulot vaqtida har bir hamkor o'quv muassasasida, keyin esa forumda yoki ta'lim muassasidan birining veb saytiga o'z taqdimot materiallarini joylashtirish orqali tashkil etiladi. Hamkorlar taqdim etilgan materiallar bo'yicha forumda savollar berishlari va tegishli javoblar olishlari mumkin.

Telekommunikatsiya loyihalarini tashqi baholashni o'z vaqtida, to'g'ri tashkil etish loyiha samaradorligi va olingan natijalarning amaliyligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki bu bilan ish jarayonida va loyiha himoyasi vaqtida kerakli tuzatishlar kiritish imkoniyati yaratiladi. Tashqi baholash xarakteri loyiha turiga, mavzusiga, uning mazmuniga hamda o'tkazish sharoitlariga bog'liq. Agar telekommunikatsiya loyihasi tadqiqiy loyiha bo'lsa va u turli bosqichlarda o'tkazilsa, loyihaning umumiy natijasi samaradorligi bosqichlarni qay darajada to'g'ri tashkil etilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bunda baholash aniq belgi orqali qo'yilishi shart emas. Agar loyiha mashg'ulot vaqtida tashkil etilayotgan bo'lsa, turli rag'bat usullari yoki yo'naltiruvchi ko'rsatmalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, «Hammasi to'g'ri, davom ettiring», «Bu yerda to'xtab, o'ylab ko'rish kerak», «Negadir mos kelmayapdi, maslahatlashib, muhokama qilib ko'ring» va boshqa shu kabi ko'rinishlarda. Ijodiy loyihalarda ko'pincha oraliq natijalarni baholash imkoniyati bo'lmaydi. Lekin, baribir ishni nazorat qilib borish zarur va talab etilgan taqdirda yordam va ko'rsatmalar berilishi kerak (albatta tayyor yechim sifatida emas, balki maslahat sifatida). Tashqi baholash oraliq yoki yakuniy tashqi baholash shaklida va ko'p omillarga bog'liq holda zarur hisoblanadi. O'qituvchi hamkorlikdagi loyiha jarayonining doimiy monitoringini olib borishi kerak. Loyiha himoyasi vaqtida uning natijalarini baholash maqsadida ushbu soha bo'yicha eng iqtidorli talaba yoki boshqa o'qituvchi tashqi ekspert sifatida tanlab olinadi. Yoki, loyiha boshida ushbu loyiha bo'yicha faoliyat olib borayotgan turli guruhlar ishini baholash hamda monitoringini olib borish uchun maxsus ekspertlar guruhi shakllantiriladi.

Loyihani tashqi baholashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- ilgari surilgan muammoning dolzarbligi va ahamiyati;
- o'rganilayotgan mavzularning bir-biriga mosligi;
- foydalaniladigan tadqiqot uslublari va olingan natijalarni qayta ishlash usullarining mosligi;
- har bir loyiha ishtirokchisining shaxsiy imkoniyatlariga mos holda faolligi;
- qabul qilinadigan qarorning jamoaviy xarakterda bo'lishi;
- muammoga yetarlicha va chuqur kirib borilganligi, boshqa fan sohasi bilimlaridan foydalanish imkoniyati;
- loyiha qatnashchilarini muomula va o'zaro yordam hamda o'zaro to'ldirish va tuzatishlari;
- qabul qilingan qarorlarning isbotlanishi, o'z xulosalari va natijalarini dalillar bilan asoslay olishi;
- loyiha natijalarini taqdim etish va bayon etish estetikasi;
- qatnashchilarni opponentlarning savollariga javob berish qobiliyatlari, javoblarning asoslanganligi va dalillar asosida isbotlanishi;
- qabul qilingan qarorlar oqibatlarini tasavvur qila olish qobiliyatlari.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, loyihalar uslubi yuqori pedagogik texnologiyalarga kiradi va u o'qituvchidan xam, talabadan xam katta tayyorgarlikni, talabani butun o'quv faoliyati bo'yicha jiddiy koordinatsiyasini talab etadi. Shu bilan bir qatorda loyihalar uslubi talabani intellektual rivojlantirishga, unda tanqidiy va ijodiy fikr-tuyg'ularni shakllanishiga yordam beradi. Bunday tizimli ravishdagi hamkorlikdagi faoliyat yoshlarda nafaqat mustaqillikni

shakllanishiga, balki ularda o‘z ishiga hamda guruh faoliyatiga javobgarlikni oshishiga xam olib keladi. Shu sababli loyihalar uslubini zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi qo‘yayotgan talablarga javob beruvchi ta’lim sohasidagi eng samarali uslublardan biri sifatida qarash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Polat Ye.S, Buxarkina M.Yu. *Sovremennyye pedagogicheskie i informatsionnyye texnologii v sisteme obrazovaniya*. M.: «Akademiya», 2008
2. Guliyans S.B. *Metod proektov v rabote so studentami*
3. Raximov O. D. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar: loyihalar uslubi ta’lim sifatini oshiruvchi texnologiya sifatida* //Qarshi, TATU Qarshi filiali, 2013y., 80b.
4. Kilpatrick W. H. *Education for a changing civilization*, 1926. New York, Macmillan. Rus. edition: *Vospitanie v usloviakh meniaiushcheisia tsivilizatsii*. Tr. from English by B. V. Babina-Korenia; foreword by A. P. Pinkevich. Moscow: Rabotnik prosveshcheniia, 1930. 88 p.
5. Rakhimov O. D. et al. *Klassifikatsiya pedagogicheskikh tekhnologiy i tekhnologiya problemnogo obucheniya* //Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya. – 2020. – T. 2. – №. 147. – S. 59-62.
6. Savenkov A. I. *Tvorcheskiy proekt, ili Kak provesti samostoyatelnoe issledovanie* // *Shkolnyye texnologii*. — 1998. — № 4. — S. 144—148.
7. Raximov O. D., Eshmuxamedov L. M., Ashurova L. *Mustaqil ta’limni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish texnologiyasi*: // *Obrazovanie i innovatsionnyye issledovaniya mejdunarodnyy nauchno-metodicheskiy jurnal*. – 2022. – №. 6.
8. Rakhimov O. D., Murodov M. O., Ruziev X. J. *Quality of education and innovative technologies* // *Monograph*. Tashkent: Science and Technology Publishing House. – 2016.
9. Serdyuk M.L. *Metod proektov kak sredstvo razvitiya tvorcheskix sposobnostey uchashixsya. (Na primere obrazovatelnoy oblasti «Texnologiya»)*: dis. ... kand. ped. nauk. Kirov, 2002.
10. Raximov O. D. i dr. *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari* //T.:“Fan va texnologiya nashriyoti. – 2013.

TALABALARDA SOG'LOM DINIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRUVCHI BADIY-DIDAKTIK MANBALAR

Atakulova Nargizaxon Alijonovna
Andijon davlat universiteti, 3-kurs doktoranti (DSc)
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.006>

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy didaktik manbalari yordamida talabalarda sog'lom diniy dunyoqarashni shakllantirish, komil inson tushunchasi, komil insonning ta'rif va tavsifi, komil insonga xos bo'lgan sifatlar, uning so'fiyona adabiyotda ifodalanishi, tasavvuf adabiyotining tarbiyaviy imkoniyatlari, mazkur adabiyot yordamida yoshlarda shakllantiriladigan ma'naviy sifatlar haqida fikr yuritilgan. Maqola ma'naviy estetik masalasi bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar, professor o'qituvchilar, talabalar va pedagogik jamoatchilik uchun manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sog'lom diniy dunyoqarash, badiiy didaktika, ma'naviy poklik, ruhiyat, qalb osoyishtaligi, siyrat va surat birligi, intuitsiya, pedagogik ta'limot, sufiyona adabiyot, mutafakkirlar, tafakkur, sog'lom e'tiqod, komil inson.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ДИДАКТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ, ФОРМИРУЮЩИЕ ЗДОРОВОЕ РЕЛИГИОЗНОЕ ВОЗЗРЕНИЕ У СТУДЕНТОВ

Атакулова Наргизахан Алиджоновна
Андижанский государственный университет, Докторант 3 курса (DSc)

Аннотация. В данной статье рассматривается формирование здорового религиозного мировоззрения у студентов с помощью художественно-дидактических источников, понятие совершенного человека, определение и описание совершенного человека, качества, характерные для совершенного человека, его выражение в суфийской литературе. , образовательные возможности суфийской литературы и духовные качества, которые можно сформировать у молодежи с помощью этой литературы. Статья служит ресурсом для исследователей, профессоров, студентов и педагогического сообщества, занимающихся проблемой духовной эстетики.

Ключевые слова: здоровое религиозное мировоззрение, художественная дидактика, духовная чистота, духовность, душевное спокойствие, единство характера и образа, интуиция, педагогическое учение, суфийская литература, мыслители, мышление, здоровая вера, совершенный человек

ARTISTIC AND DIDACTICAL RESOURCES FORMING HEALTHY RELIGIOUS VIEWS IN STUDENTS

Atakulova Nargizakhan Alijonovna
Andijan State University, 3rd year doctoral student (DSc)

Abstract. This article discusses the formation of a healthy religious worldview among students with the help of artistic and didactic sources, the concept of a perfect person, the definition and description of a perfect person, the qualities characteristic of a perfect person, its expression in Sufi literature. , the educational possibilities of Sufi literature and the spiritual qualities that can be formed in young people with the help of this literature. The article serves as a resource for researchers, professors, students and the teaching community dealing with the issue of spiritual aesthetics.

Key words: healthy religious worldview, artistic didactics, spiritual purity, spirituality, peace of mind, unity of character and image, intuition, pedagogical teaching, Sufi literature, thinkers, thinking, healthy faith, perfect person.

MAVZUNING DOLZARBLIGI. Sog'lom diniy dunyoqarashning asosini komil inson g'oyasi tashkil etadi. Komil inson deganda barcha dunyoviy hamda diniy bilimlarni o'zlashtirgan, ma'naviy jihatdan yuksalgan, qalbi pok, siyrati bilan surati o'zaro mutanosib,

ezgulikka moyil inson tushuniladi. Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy o'zining asarlarida o'zi ham qalbi pok kishilar haqida quyidagi fikrlarni aytgan:

“Foniy va sheki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi,
Xush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko‘zi” [2;B.114].

Komil inson tushunchasini o'sha davr mutafakkirlari va yozuvchi shoirlar odil, oqil, fozil kabi atamalar bilan ta'riflaganlar. Komil inson atamasida insoniyat orzu qilgan barcha ma'naviy xislatlar mujassamlashadi. Shoirlar uni muqaddas xilqat sifatida ta'riflaganlar. Jamiyatning osoyishtaligi yuksak ma'naviyatli insonlarga bog'liqligini mutafakkir ajdodlarimiz o'z asarlarida qayta-qayta e'tirof etganlar. Dunyoning boqiyiligi, jamiyatning ravnaqi ma'naviyatli, bilimli insonlar mehnatining mahsuli ekanligi haqidagi ta'limot sog'lom diniy dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi dono va oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq. Chunki ilohiy poklik, e'tiqod va tafakkur har bir insonni yomonlikdan, yovuzlikdan uzoqlashtiradi.

Tasavvuf ta'limoti naoyondalari haqiqat deb topgan yo'li bilan shu maqsad sari intilganlar va o'zlaridan keyingi avlodlarga ham ushbu yo'ldan yurish haqida ta'lim berganlar. Ular tomonidan ilgari surilgan komil inson g'oyasida xalqning orzu umidi aks etgan bo'lib, u adabiyot va san'atning yetakchi mavzusi hisoblangan. Ushbu yo'nalishdagi pedagogik ta'limotning ijodkorlari hisoblangan shoirlarning asarlarida, so'fiyona she'rlarda ezgulikni zulmga, xayrni sharrga, fazilatlarni nuqsonlarga, kaltafahmlik va nodonlikka qarshi kurashi aks etgan. Tasavvuf ta'limoti namoyondalari zulm va johilikka qarshi ma'rifat bilan kurashishga da'vat etganlar. Ular qalbni Ka'ba sifatida e'tirof etadilar. Dunyoni ko'ngil orqali biladigan va ko'ngilga sig'inadigan odam Allohni sevadi deb qayta-qayta ta'kidlaganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Alisher Navoiy o'zining «Nasoyim ul-muhabbat» asarida quyidagilarni alohida ta'kidlagan: “Shayx ul-islom debdurki, Ismoil Dabbos dedikim haj niyati qilib borurda Shyerozg'a yetishdim. Bir masjidqa kirdim. Shayx Mo'minni ko'rdumki, o'lturub, xirqasin yamaydur erdi. Salom qildim va o'lturdim. Mendin so'rdikim, ne niyating bor? Dedim: Haj niyatim bor. Dedi: Onang bor? Dedim: bor! Dedi: Yonib onang mulozamatig'a bor! Bu so'z menga xush kelmas erdi: Dedi: Ne to'lg'anasen? Men ellik haj qilibmen, bosh yalang, oyoq yalang va zodu hamrohsiz. Barchasin senga berdim. Sen onang ko'ngli shodlig'in menga ber!” [3; B.118] ko'rinib turibdiki shoir ona ziyoratini Haj ziyoratibilan tenglashtirgan. Uning fikrlari bugungi kunda ham talaba-yoshlarni ota-onaga nisbatan sadoqatli, muruvvatli, mehrlil bo'lishga chaqiradi. Mazkur qarashlar yoshlarni o'z o'zini tanishga, o'z qalbiga razm solish, xatti harakatlarini muntazam nazorat qilishga undaydi.

MAVZU MUHOKAMASI. O'zbekiston jamiyatining barqarorligi diniy qarashlar asosida shakllangan axloqiy me'yorlarga bevosita bog'liq. Bunday axloqiy me'yorlar yoshlar ongida san'at va adabiyot yordamida singdiriladi. Chunki din va san'atning asosiy g'oyasi yoshlarda yuksak axloq va tolerantlik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Din va san'at, adabiyotning yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantiruvchi, takomillashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'lishi hurfikrli insoniyat tafakkurining noyob kashfiyoti hisoblanadi. Ajdodlarimiz tafakkurida shakllangan tasavvufga oid ilmiy qarashlar, g'oyalar, axloqiy yuksaklikka undovchi ta'limotlar negizini diniy dunyoqarashni shakllantiruvchi bilimlar tashkil etadi. Diniy axloqiy qarashlar yordamida milliy ma'naviyatimizga xos bo'lgan sifatlar shakllanadi. [1; B.111].

Tasavvuf adabiyoti namoyondalari jamiyat a'zolarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ruboiy, g'azal kabi she'riy janrlardan unumli foydalanganlar. Ular sufyona g'oyalarga mos keladigan asarlar yaratganlar. Ba'zi hollarda xalq og'zaki ijodi namunalari va xalq orasida mashhur bo'lgan shoirlarning she'rlari yordamida talabalar bilan muloqotga kirishganlar. Tasavvuf ta'limoti namoyondalari o'z g'oyalarining ta'sirchanligini ta'minlash uchun badiiy ijod namunalari bilan foydalanganlar. Tasavvuf adabiyoti namoyondalari gumanist shoir va yozuvchilar sifatida baholanganlar. Unda pok va samimiy, ilohiy ishq, barkamollik haqidagi qarashlar tarannum etilgan. Tasavvufdagi ilohiy ishq mavzusi ta'sirchan konsepsiya sifatida aksariyat insonlarning ong ostiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishdagi asarlarda insonning dunyoqarashi, estetik kechinmalari bayon etilgan bo'lib, u jamiyat a'zolarini tarbiyalashda ko'p asrlar davomida o'ziga xos pedagogik ahamiyatga ega bo'lib

kelmoqda. Tasavvuf adabiyotida insonning kechinmalari, tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ladi. Insonni tarbiyalash, uni ezgulik sari undash, o'z o'zi va Haqni tanitish, turli rivoyat, hikmatlar yordamida amalga oshirilgan. Tasavvuf adabiyoti insonlarni go'zallik, ezgulik, yaxshilikka undash manbai bo'lib kelgan. Inson ruhiyatining go'zallikka, nafosatga intilishga moyilligi mazkur adabiyotning yetakchi g'oyalardan biri hisoblanadi. Yetakchi masalalardan yana biri go'zalikni anglash va uni qabul qilishdir. Go'zallik, poklik o'quvchilarni ezgu amallarni bajarishga undaydi. Tasavvuf adabiyotida real moddiy go'zallik ham tan olinadi va e'tirof etiladi. Dunyo va uning boyliklariga nisbatan salbiy munosabat ifodalandi. Qadriyatlarining barchasi ruhiyat va Alloh bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Ruhsizlik, hunuklik, o'tkinchi bo'lib, ular qimmatli hisoblanmaydi. Mazkur adabiyot inson ruhining abadiyatga dahldorligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Ezgulik insonni qalbiga nur va halovat olib kiradi degan g'oya tasavvuf adabiyoti namoyondalari qarashlarining asosini tashkil qilgan. Bugungi kunda ham mutafakkir ajdodlarimiz va tasavvuf adabiyoti namoyondalarining barkamol inson haqidagi g'oyalari o'z ahamiyatini saqlab yangicha mazmun mohiyat kasb etmoqda. Komil inson g'oyasi tasavvuf adabiyotining markaziy masalalaridan biri bo'lib, ba'zi hollarda bahs-munozaralarga ham sabab bo'lmoqda. Tasavvuf adabiyoti namoyondalari komil inson insonlarningeng mukammali, eng oqili va eng donosideb hisoblaganlar. Shuning uchun ham komil inson falsafasining asosini "aqli avval" tushunchasi tashkil etadi.

Komil inson ma'nai ilohiy hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan hamisha bedor shaxsdir. U kishilik jamiyatidagi mo'tabar zot sifatida barchaga o'rnak bo'la oladi. Bunday kishilar ma'naviy-axloqiy poklanish orqali kamolotga erishadi. Har bir pok axloqli shaxs komilikka erishishi zarurligi haqidagi pedagogik ta'limot sog'lom diniy dunyoqarashning asosini takshil etadi. Komillikning eng asosiy belgisi xalq va jamiyatga foyda keltirishdan iborat. Inson o'z so'zi, amaliy harakatlari, niyati bilan atrofdagilarga foyda keltirib, yomonlikni oldini olsa, boshqalargi tarbiyaviy ta'sir ko'rsatsa, shu qadar kamolga erishadi. Tasavvuf ta'limoti namoyondalarining asarlarida inson va koinot, inson va iloh, inson va mavjudotning o'zaro munosabatlari ta'sirchan vositalar yordamida bayon qilingan.

Hikmat va tasavvuf ahlining pedagogik qarashlariga ko'ra insonga o'z faoliyatini amalga oshirish imkoniyati berilgan, u tinmay harakat qilishi, mehnat orqali o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi ta'kidlangan. Hikmat ahli ilm o'rganganlarni komil inson sifatida baholaganlar. Ular uchun insonsevarli eng asosiy fazilat hisoblangan.

NATIJALAR

Mutafakkir ajdodlarimiz diniy dunyoqarash negizida komil insonning axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki birinchi hamda ikkinchi Renessans davridagi komil inson g'oyasi nisbiylik xarakteriga ega. Komil inson modelida bir tomondan insonning ruhiy ma'naviy qudrati, aql-zakovati va ijobiy sifatleri mujassamlashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan huddi shunday cho'qqiga intilib o'zligini anglagan shaxs qiyofasi namoyon bo'ladi. Mutafakkir ajdodlarimiz va tasavvuf adabiyoti namoyondalari tomonidan qo'llab quvvatlangan komil inson modeli bugungi kunda ham alohida ijtimoiy pedagogik ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish, ularda sog'lom e'tiqod va sog'lom diniy dunyoqarashni tarkib toptirishda o'ziga xos didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Chunki tasavvuf adabiyoti insonlarni qabih ishlar, nojo'ya qiliqlardan saqlanishga da'vat etadi. Ushbu adabiyot yoshlarda imon, e'tiqod va vijdon tuyg'usining shakllanishga xizmat qiladi. Chunki tasavvuf adabiyoti o'ziga xos uslub yordamida insonlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi. Unda boylikka hirs qo'ymagan, osoyishta qalb, chuqur mushohada, tafakkur va hayolot olami boy, koinot bilan muloqotga kirisha oladigan inson qiyofasi namoyon bo'ladi. Eng barkamol shaxslar sifatida tariqat ahli ulug'lanadi.

XULOSA.

Tasavvuf ahli qiyinchilik bilan erishiladigan sifatlar manmanlik, nafs va hirsni tark etish zarurligi, rostgo'ylik, halollik, sobitqadamlik, sabrlik, atrofdagilar va ota-onani rozi qilib yashash kabilarni ulug'laganlar. Jumladan, Alisher Navoiy mashhur «Nasoyim ul-muhabbat» asarida haqiqiy insonlarga xos bo'lgan quyidagi sifatleri ko'rsatib o'tgan: tavba qilish, halol luqma topish, muayyan kasb hunar bilan shug'ullanish, shariat qonun-qoidalariga rioya

qilish, tariqat odobini saqlash, kamtarinlik, hushmuomalalik, rahmdillik, sahiylik, mardlik, xushxulqlilik, yumshoq tabiatlilik, sadoqatlilik, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik kabilar.

Tasavvuf ta’limoti namoyondalari o‘z g‘oyalarini badiiy adabiyot, musiqa va tasviriy san’at namunalari orqali xalq, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ‘ib qilganlar. So‘fiylar va tasavvuf adabiyoti namoyondalari orasida ruhiy yaqinlik kuzatiladi. Tasavvuf ta’limotining g‘oyalarini shoirlar ko‘proq va chuqurroq idrok etganlar. Ular ma’rifat egallash silarini o‘z she’rlarida bayon qilganlar. Tasavvuf adabiyoti namoyondalari dunyoni bilish mumkinligi, mantiqiy tafakkurni tan olgan holda intuitsiyaga ustuvor ahamiyat qaratadi. Ular she’r va musiqa orqali inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishga harakat qilganlar. Natijada ko‘plab iste’dodlar tarbiyalandi. Sharq xalqlari uchun qimmatli bo‘lgan yetuklik ya’ni Renessans davriga xos bo‘lgan e’tiqod va sog‘lom diniy dunyoqarash vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Atakulova N.A. Talabalarda diniy dunyoqarashni shakllantirishda dunyoviy hamda diniy bilimlar integratsiyasining ahamiyati. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Toshkent: “Pedagogika”, 2023. – 330 b.

Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik O‘n beshinchi tom. – T.: Fan, 1999. – 224 b.

Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. – T.: «Yangi asr avlodi», 2018. - 232 bet

R.G.Safarova. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: “Science and innovation”, 2024. – 186 b.

Komilov N. Tasavvuf. – T.: «Movarunnaxr», 2009. – 448b.

MUSIQA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA UMUMADANIY KOMPITENSIYANI PIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Axmedova Farangiz Alisher qizi

Turkiston Yangi Innovatsiyalar universiteti musiqiy ta'lim 2-bosqich magistr

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.007>

Annotatsiya: maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti, pedagogik omillari, o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar va uning pedagogik mahorat darajasi, o'quvchida musiqiy madaniyat ko'nikmasini tarkib toptirish, jamoa bo'lib kuylash orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetentlikka egalik sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlanish haqida fikr-mulohazalar yuritilgan va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, jamoa bo'lib kuylash, musiqa tinglash, musiqiy madaniyat, umummadaniy kompetensiya, ko'nikma, shaxsiy sifat, badiiy matn, musiqiy tafakkur, musiqiy tasavvur, dunyoqarash, faxr-iftixor, qadriyat.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ВОСПИТАНИЯ ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ МУЗЫКОВЕДЕНИЮ

Ахмедова Фарангиз Алишеровна

*Туркестанский университет новых инноваций музыкальное образование
магистр 2-го курса*

Аннотация: В статье дидактическое обеспечение развития общекультурной компетентности учащихся посредством преподавания музыки в общеобразовательных школах, педагогические факторы, требования к личности учителя и уровень его педагогического мастерства, содержание навыков музыкальной культуры у учащихся, воспитание и развитие у учащихся качеств обладания общекультурной компетентностью посредством коллективного пения и др. даны рекомендации.

Ключевые слова: музыка, пение в команде, прослушивание музыки, музыкальная культура, мультимедийная компетентность, навыки, личностные качества, художественный текст, музыкальное мышление, музыкальное воображение, мировоззрение, гордость, ценность.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF BREWING UNIVERSAL COMPETENCE IN STUDENTS IN TEACHING MUSIC

Akhmedova Farangiz Alisher daughter

*Turkestan new Innovation University music education
Master of Stage 2*

Abstract: the article discusses didactic provision of the development of universal competencies of students by teaching music in schools of general secondary education, pedagogical factors, requirements for the personality of the teacher and his pedagogical skill level, content of musical culture skills in the student, education of the qualities of possession of universal competence in students by singing as a team, as well as

Keywords: music, singing as a team, listening to music, musical culture, undergraduate competence, skills, personal quality, artistic text, musical thinking, musical imagination, pride, value.

Kirish. Jahon umumta'lim tizimida o'quvchilarni musiqiy rivojlantirish, maktab repertuari vositasida ularning umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirish, musiqiy qobiliyatlarini,

kuylash va tinglash malakalarini oshirish, musiqaning badiiy mazmun, emotsional ta'sir imkoniyatlarini kengaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy-tadqiqot muassasalarida musiqiy idrok, musiqiy intonatsiya, tinglovchilik madaniyati, musiqaning kommunikativ imkoniyatlari, badiiy-estetik ta'sir xususiyatlarini o'zlashtirishda interaktiv texnologiyalarni joriy etishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, maktabda musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularda badiiy tasavvur va tafakkur qobiliyatlarini tarkib toptirish, o'qitishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ham zamonaviy yondashuv asosida alohida e'tibor berilmoqda.

Mavzuning dolzarbligi.

Hozirgi kunda musiqa madaniyati jamiyatimizda faqat badiiy hodisa emas, balki, ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida namoyon etilayotganligi undagi badiiy-estetik mazmuni anglagan holda munosabat ko'rsatishni taqozo etadi. Umumta'lim maktabi musiqa o'quv mashg'ulotlarida ko'p hollarda tinglash faoliyati talab darajasida amalga oshirilmaligi muammoni yanada dolzarblashtiradi.

O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishida ta'lim-tarbiyaga oid islohotlarning ijrosini sifatli ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi.

Yangi O'zbekiston strategiyasida tarixiy-ma'naviy omil, ya'ni xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyati asosida tarixiy ideallarga oid xolis munosabatni va dunyoqarashni shakllantirish va shu asosida "milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruxda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish, o'quvchi yoshlarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyani rivojlantirishga oida adabiyotlar o'rganilganida ta'lim-tarbiya jarayonlarida fanlarni o'qitishda o'quvchilar kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlariga oid tizimli izlanishlar olib borilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, o'zbekistonlik olimlardan M.Aripov, E.Yusupov, N.Komilov, X.O.Shayxova, V.Alimasov, M.Jakbarov, E.Umarov, A.Choriyev, A.Qodirovlarning asarlari, E.M.Izzetova, R.R.Burnashev va S.S.Agzamxodjayevaning dissertatsiyalarida ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli tarixiy obrazlar va milliy boyliklar haqida ma'lumot berish orqali ularda milliy iftixor tuyg'usini oshirish masalalari yoritilgan. O'quvchilarda madaniy kompetentlikni rivojlantirish borasida N.Abdumuratova, D.Nafasov; ma'naviy va badiiy qadriyatlarining axloqiy-estetik mazmun-mohiyati A.G.Abdunabiyev, B.Abduraximov, S.Sh.Alimov, A.Erkayev, F.A.Babashev, E.Umarov, M.Abdullayev, E.Xakimov, N.Y.Jurabayevlar tomonidan o'rganilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leontev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safayev, E.G'oziyev kabilar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida madaniy kompetentlikni ta'limga tatbiq etish, o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish masalasi T.B.Alekseyeva, G.M.Galutskiy, I.F.Isayev, Y.N.Shiyanov, V.Davidov, B.Lednev, S.K.Annamuratova, N.M.Egamberdiyeva, C.Z.Goncharova, V.L.Kraynik, N.Y.Shurkova va boshqalar tomonidan ilmiy asosda o'rganilgan.

Aynan, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida umummadaniy kompetensiyani rivojlantirish muammosi turli soha olimlari tomonidan ilmiy-pedagogik tadqiq etilgan bo'lsada, biroq musiqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Tahlil va natijalar.

Musiqqa fanini o'qitish orqali o'quvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda "nafosat", "badiiylik", "musiqqa", "rivojlanish", "tarbiyalash", "omil", "pedagogik ta'sir", "san'at", "milliy iftixor" va "milliy o'zlikni anglash" kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etishda bu tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olish taqozo etiladi.

Demak, o'qituvchilarning umumadaniy kompetentligi qadriyatlarga hurmatda bo'lish, qadrlash, o'z-o'zini tutish, o'zgalarga hurmat, madaniy savodxonlik, odob-axloq ko'nikmalariga egalik, shaxs sifatida o'z - o'zini rivojlantirishni bilish, anglash va ularga ega bo'lishni, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash ko'nikmalarga nisbatan aytiladi.

Adabiyotlarda umummadaniy kompetensiyaga berilgan ta'rifga e'tibor beradigan bo'lsak, umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi[2].

Rossiya gumanitar ilmiy fondi homiyligida amalga oshirilgan «Universal kompetensiyalar – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining tarkibiy qismi sifatida» nomli loyiha doirasida ishlab chiqilgan kompetensiyalar tasnifida umumadaniy kompetentlikka egalik mezonlari quyidagicha belgilangan:

- milliy va umuminsoniy madaniyat;
- insoniyat va inson hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari;
- oila, ijtimoiy hodisa va an'analarning madaniyatshunoslikka doir asoslari;
- inson hayotida fan va dinning rolini anglash va faoliyat tajribasini egallash hisoblanadi[3].

Biz, o'z tadqiqotlarimiz asosida musiqqa darslari orqali o'quvchilarda rivojlantiriladigan umummadaniy kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berishga harakat qildik. Demak, umummadaniy kompetentlik o'quvchining kelajakda muvaffaqiyatlarga erishishini ta'minlovchi, uning qadriyatlarga asoslangan shaxsiy hayoti davomida mazmunli yashashini kafolotlovchi ko'nikma hisoblanadi.

Musiqqa darslarida o'quvchilarning umumadaniy kompetentligini rivojlantirish asosida bugungi kunda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qadrlash bilan bog'liq ijtimoiy ongda muammolarni, madaniyatshunoslikdagi qadrsizlanish muammosini, fan va din o'rtasidagi munosabatlarni, ilmiy va diniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash jarayonida ko'zga tashlagnayotgan muammolarga o'z yechimini taklif qila oladigan, innovatsion yondashuvlar bilan qaray oladigan, umuman olganda ijtimoiy munosabatlardagi muammolarni tajriba asosida bartaraf eta oladigan mutaxxasislarni tayyorlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda musiqqa o'qituvchilarini tayyorlashning ilmiy metodik muammolari, pedagogik jarayonlarning didaktik ta'minotini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga kasbhunar kollejlari uchun ham zamon talabiga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini aniqlash, ularni ta'lim jarayoniga joriy qilishning ilmiy-metodik jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, insonning shaxs sifatida shakllanishida musiqqa san'atining beqiyos ahamiyatini, uning ilohiyligini, ruhiyat bilan bog'liqligini o'tmish allomalari doimo ta'kidlab kelganlar. Musiqqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, musiqqa fanining juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o'qituvchining

jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi darajasidir.

Tadqiqot rivojida musiqa darslarida o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish quyidagi imkoniyatlarni ochib berishga xizmat qiladi:

- ta'lim jarayoni mazmunini tanlash, rejalashtirish, loyihalash, tashkil qilish, amalga oshirish, boshqarish va sifatini nazorat qilish metodologiyasini takomillashtirish;
- ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, uni individuallashtirish;
- o'quv jarayonida ta'lim subektlari – pedagog va o'quvchi hamkorlik faoliyati mazmunining yangi shakllarini yuzaga kelishi;
- o'qituvchining musiqiy savodxonlik va mutaxassislik mahorati darajasining yuqori bo'lishiga erishish;

- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish metodikasini takomillashtirish.

Musiqa darslarida o'quvchilarning musiqiy tinglovchilik madaniyati tarkib toptirishda:

- intonatsion-eshitish tajribasining to'planishi;
 - asarni intonatsion-tahliliy eshitishni;
 - musiqiy obrazni idrok etish orqali badiiy mazmunni anglash bosqichlari amal qiladi[5].
- Anglash jarayoni orqali o'quvchilarning umummadaniy kompetentlik darajasini rivojlanadi.

Ushbu bosqichlar iyerarxiyasi asosida amalga oshiriladi. Dastlab tinglash tajribasi to'planadi, keyin tinglangan asar ongda musiqiy obrazlar tarzida aks etadi, o'rnatiladi, so'ngra musiqaning to'laqonli idrok etilishi asosida badiiy-estetik mazmuni anglanadi.

Tinglash faoliyati mazmuni quyidagilar:

- a) musiqiy obraz;
- b) estetik-axloqiy asos (bastakor faoliyat ko'rsatgan davr va estetik-axloqiy qarashlari);
- v) badiiy tasvir (tinglovchi tomonidan kodlangan va amalga oshirilgan ijodiy tajriba, fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi)dan iborat[5].

Shu bilan birga badiiy obraz musiqaning o'zida emas, balki uning tinglovchiga ongli ta'sirida namoyon bo'ladi. Tinglash faoliyatini samarali amalga oshirish darsning ajralmas qismi bo'lib, o'quvchiga musiqiy ijroning mohiyatini his qilishga, musiqani idrok etish, bilish va uni o'z faoliyatida tasarruf etishga qodir tinglovchi sifatida his qilishga yordam beradi.

Musiqiy tinglovchilik madaniyatining markaziy tushunchalaridan biri intonatsiyadir. Intonatsiya, musiqaning "ifodaviy mohiyatini", uning mazmunini ochishga ko'maklashadi, musiqiy ifodalilik vositalarini tanlash imkonini yaratadi, tinglovchilarga milliy san'at g'oyalarini, uning mazmunini yetkazadi. Mazkur jarayonda, aynan intonatsion yondashuvga tayangan holda tinglangan asarlarning badiiy-estetik mazmunini interaktiv muhitda, guruhliy diskussiya sharoitida o'quvchilarga yetkazish muhimdir.

Musiqani idrok qilishda shaxsning individualligi muhim rol o'ynaydi, ya'ni, har bir tinglovchi asar mazmunini o'zicha, individual tarzda anglaydi, shunga qaramasdan, umumiy jihatlar emotsional konstantalar - intonatsiyalar mavjud bo'lib, bular o'quv mashg'ulotlarida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning asosini tashkil etdi.

Musiqadagi intonatsiya – ijodkorning aytmoqchi bo'lgan fikri, obektiv mohiyat g'oyasidir.

O'quvchilarning musiqani faol idrok etishi musiqiy ta'limning asosiy vazifasi bo'lib, o'zining estetik, kognitiv va tarbiyaviy rolini bajaradi, ya'ni, o'quvchilar tinglash orqali fikrlashni o'rganadi. Musiqiy idrok eshitishning odatiy shakllaridan farq qiladi, bunda tinglovchi dastlab tovush ketma-ketligini emas, balki intonatsiyalarni ilg'aydi va baho beradi.

Musiqiy idrok - ifoda vositalari, tasavvurlar, musiqa tabiatining yaxlit aks etishi, ularning go'zalligini his qilish qobiliyatidir. Musiqani idrok etishning o'ziga xosligi shundaki, turli

balandlikdagi, davomiylidagi, kuchlilikdagi, tembrdagi tovushlar uyg'unligida yaxlit badiiy obrazlarni, ohanglar go'zalligi, ularning ifodaliligini eshitish o'quvchi-tinglovchida pozitiv emotsional kayfiyat va ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi.

Musiqani idrok etishning sifati:

idrok etishga dastlabki ustanovka mavjudligi;

idrok etuvchi uchun musiqaning jozibadorligi;

asarga nisbatan emotsional reaksiyaning kuchi;

asarda ifodalangan estetik axborotning yangiligi darajasi;

musiqiy-eshitish tajribasi va musiqiy nazariy bilimlar hajmi kabi omillarga bog'liq[5]

Tadqiqotimiz davomida o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar mavzular xususiyatiga ko'ra dialogik, faoliyatli, kompetensiyaviy, aksiologik, integratsiyalashgan va akmeologik yondashuvlar asosida amalga oshirishga harakat qildik.

Boshlang'ich sinflardan boshlab, musiqa darslarida o'quvchilarni jamoa bo'lib kuylashga o'rgatish usuli o'quvchilarni musiqa san'atiga faol jalb etishning eng ommaviy shakli bo'lishi bilan birga ularda zavqlanish va hamkorlik tuyg'usini oshiradi. Chunki musiqa kuylash bola uchun estetik ehtiyoj, hissiyat va kayfiyatni ifodalashning eng tabiiy va qulay vositasi hisoblanib, jamoa bo'lib kuylaganda ularda his-hayajon, zavq-shavq, ko'tarinlik, quvnoqlik, harakatchanlik kabi ijobiy tuyg'ular musiqadagi estetik vosita va badiiy so'zning birlashuvi natijasida ikki karra oshadi. Shuning uchun tajribali o'qituvchining qo'lida jamoa bo'lib kuylash – o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash faoliyati o'quvchilarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo'lgan bolalar jamoa bo'lib birlashadilar, ularda o'z ijrolarini va o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatish, birgalikda kuylashdan ilhomlanish, diqqat, kuzatuvchanlik, intizom kabi sifatlar tarbiyalanadi.

Shu bilan birga kuylash jarayonida o'quvchilarda ovoz apparati rivojlanadi, nafas chuqurlashadi, qon aylanishi yaxshilanadi, qomat tekislanadi, ya'ni jismonan ham bola rivojlanishi kuzatiladi.

Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchilarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga erishish jaranida bir qator vazifalarni hal etish muhim hisolanadi:

- bolalarda jamoa bo'lib kuylashga qiziqish va muhabbatni o'stirish;
- musiqaga hissiy ta'sirchanlikni tarbiyalash;
- badiiy didni tarbiyalash;
- qo'shiqchilik ovozini, ya'ni chiroyli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, diapazonni o'stirish;
- badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini rivojlantirish;
- musiqiy qobiliyatlarni o'stirish[5];
- do'stona munosabatda kuylash orqali bolalarning qoniqish hosil qilishini e'tiborga olish;
- o'z-o'zi va o'rtoqlarining kuylash qobiliyatiga baho berish;
- qo'shiq matni mazmunida berilgan tarbiyaviy qadriyatli so'zlarni faxr bilan kuyga solishdan zavqlanish;
- shaxs sifatida o'z faoliyatidan mamnun bo'lish va faxrlanish kabi psixologik holatlarni ta'minlash shart.

Musiqa darslarida o'quvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda eng samarali metodlardan biri – bu "Musiqani tavsiflovchi she'riy qiyoslar, metaforalar, epitetlar" metodidir. Metodning asosiy sharti o'quvchidan musiqani tinglab, u haqida fikr yuritishi, musiqani tavsiflovchi she'r, metafora, epitetlar keltirishi talab etiladi. Bu metod orqali o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalari rivojlantiriladi, ularda badiiy ijod, musavvirlik, haykaltaroshlik, duradgorlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, chevarchilik, oshpazlik, applikatsiyalar yasash ijodkorligi va boshqa sohalarga bo'lgan qiziqish va intilishlar amaliy

faoliyat kasb etishiga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida umumiy oʻrta taʼlimda musiqa taʼlimini oʻqitish jarayonida oʻquvchilarning umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, belgilangan maqsadning natijaga mosligini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa.

Umummadaniy kompetentlikka ega boʻlish har bir komil inson uchun muhim shartlardan biri hisoblanib, ushbu kompetensiyani egallashga qoʻyilgan talab barcha fanlar kesimida kichik maktab yoshidan oʻquvchi ongiga singdirib borilishi davlat taʼlim standartlarida ham belgilab berilgan.

Bugungi kun zamonaviy taʼlim oldida turgan vazifalardan biri taʼlim tizimini tubdan isloh qilish, uning mazmunini xalqaro dasturlar va milliy dastur talablarining integratsiyalashuvi asosida takomillashtirish, bugungi jamiyat uchun ehtiyojlarga asoslangan oʻzgarishlarga tayyor va moslashuvchan, yuksak madaniyat va maʼnaviyatga ega, kasbiy bilimlar bilan qurollangan mutaxassislar tayyorlashdan iborat

Foydalanilgan adabiyotlar:

Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni. 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda maʼqullangan. OʻRQ-637. 23.09.2021.

Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standarti. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori.

Oʻ.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005 y.-205 b.

Abdullin, E. B. Muzikalno-pedagogicheskie texnologii uchitelya muziki:uchebnoe posobie / E. B. Abdullin, Ye. V. Nikolaeva. – M.: Prometey, 2005. – 232 s.

Xoʻjayeva M. Umumtaʼlim maktablarida musiqa oʻqitish metodikasi 2-nashri Oʻquv qoʻllanma Toshkent 2008

MAKTABDA FIZIKA DARSIDAN TASHQARI HAMDA MUSTAQIL MASHG'ULOTLARDA O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Azimov Yusufjon,

O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali, Iqtisodiyot va turizm kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.008>

Annotatsiya: Maqolada fizika fanini o'qitish jarayonida darsdan tashqari hamda mustaqil mashg'ulotlarda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlanishi shart-sharoitlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kreativ fikrlash, darsdan tashqari mashg'ulot, ta'lim, ta'lim jarayoni, o'quvchilar, umumta'lim, tabaqalashtirish, differensial yondashuv, tizimli, epizodik.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ ВО ВНЕУРОЧНОЕ ВРЕМЯ И НА САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЯХ ПО ФИЗИКЕ В ШКОЛЕ

Азимов Юсуфжан,

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана, Старший преподаватель кафедры экономики и туризма

Аннотация: В статье рассматриваются условия развития креативного мышления учащихся во внеклассной и самостоятельной деятельности при обучении физике.

Ключевые слова: Креативное мышление, внеклассная деятельность, воспитание, учебный процесс, учащиеся, общее образование, дифференциация, дифференцированный подход, системный, эпизодический.

METHODS FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING DURING EXTRACURRICULAR HOURS AND DURING INDEPENDENT PHYSICS CLASSES AT SCHOOL

Azimov Yusufzhan,

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Senior Lecturer at the Department of Economics and Tourism

Abstract: The article examines the conditions for the development of creative thinking of students in extracurricular and independent activities when teaching physics.

Key words: Creative thinking, extracurricular activities, education, educational process, students, general education, differentiation, differentiated approach, systemic, episodic.

Umumta'lim muassasalarida fizika fanini o'qitishda, o'qituvchi ko'proq vaqtini mavzuni tushuntirishga sarflaydi. O'qituvchi mashg'ulot jarayonida o'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchilarga e'tibor qaratib, barcha o'quvchilar bilan to'laqonli ishlash imkoniyatiga ega emas. O'qituvchining bunday yondashuvi sayoz bilimli o'quvchilarga qiyinchiliklar paydo qilib, yaxshi o'qiydigan o'quvchilarni chalg'itishi mumkin. O'qituvchi o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish bilan mashg'ulotga tabaqalashtirilgan holda yondashganida, ko'zlangan maqsadga erishish samaraliroq bo'ladi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini hamda kreativ fikrlashini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari hamda mustaqil mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil qilish muhim hisoblanadi.

Hozirgi davrda maktab o'quvchilari ma'lumotlar dengizi bilan to'lib-toshgan muhitda ta'lim olishmoqda. Bu dengizda qanday suzish kerak, keraksiz narsalarni qanday qilib olib tashlash kerak, asosiy narsani qanday o'zlashtirish kerak? – degan savollar ko'ndalang turibdi. Ko'rinishidan, siz o'ylashni, taqqoslashni, xulosalar chiqarishni va hatto eng kichigini o'rganishingiz kerak, ammo bu yo'lda o'zingizning topilmangiz boshqa bironing donoligi jildlaridan ko'ra qimmatroqdir. Eng oddiy tajribalarni o'tkazishni, hunarmandchilik qilishni

o‘rganing, fizika asoslarini tushunishga aqlingiz bilan erishing, kuzating, tahlil qiling, mantiqiy fikrlang, shunda maktab donoligi endi o‘quvchi ongiga tartibsiz to‘plamda tushmaydi, balki osonlik bilan “qismlarga ajralib» tushadi [1].

Biroq darsning vaqt doirasi cheklanganligi, fizika kabinetidagi jihozlarning yetarli emasligi va dasturni to‘ldirish zarurati o‘quvchilarga qo‘shimcha laboratoriya ishlarini bajarishga imkon bermaydi. Shuning uchun o‘quvchilarning uyda tajriba va kuzatishlar o‘tkazishlari maktabda olib boriladigan barcha turdagi eksperimental va amaliy ishlar muhim qo‘shimcha bilim olish manbai hisoblanadi. O‘quvchilar uyda tajriba va kuzatishlarni, laboratoriya ishlarini va eksperimental topshiriqlarni uy vazifalarining boshqa turlariga qaraganda ancha ixtiyoriy va katta qiziqish bilan bajaradilar. Ularning bilimlari mazmuni boyiydi va chuqurlashib boradi, fizika va texnika fanlariga qiziqishi ortadi. Kuzatish, tajriba o‘tkazish, tadqiq etish va o‘z quli hamda aqli bilan biror bir jihoz yasash o‘quvchilarni keyingi ijodiy mehnatga, kreativ fikrlashga o‘rganishning tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy sharoitda maktabda ta‘lim va tarbiya jarayoni shunchalik murakkab va rang-barangki, o‘qituvchi uni faqat sinfda to‘liq va samarali amalga oshira olmaydi. O‘quvchilarda fanga barqaror qiziqish uyg‘otish, darsda olgan bilimlarini to‘ldirish va chuqurlashtirish, eng muhimi, ularning individual qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish va rivojlantirish uchun o‘quvchilar bilan sinfdan (darsdan) tashqarida ishlash zarur. Sinfdan tashqari ish jarayoni quyidagi noyob imkoniyatlarni beradi:

- bitta maktabdagi har bir o‘quvchiga differensial yondashuv;
- o‘quvchilarning texnik ijodkorligini shakllantirish va rivojlantirish;
- o‘quvchilarning shaxsiy bilim olish manfaatlarini qondirish;
- maktab o‘quvchilarini ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash.

Fizika fanidan maktab o‘quvchilari bilan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning qanday shakllari va usullari mavjud?

Pedagogik entsiklopediyada “sinfdan tashkari ish maktab ta‘lim jarayonining ajralmas qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri sifatida tariflanadi va mustaqil talimning har xil turlari sifatida tushuniladigan sinfdan tashqari ishlar tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Maktab o‘quvchilarining turli xil qiziqishlarini va ularning mustaqil, talim faoliyatiga bo‘lgan intilishlarini qondirishga qaratilgan maktab o‘quvchilarning faoliyati (joriy uy vazifalarini bajarish, hisobotlar, sinfda taqdimotlar uchun konspektlar tayyorlash, insholar, to‘garaklar, sinfdan tashqari mashgulotlar, texnik ijodkorlik bo‘yicha individual darslar) ularning tanlovi” – deb ta‘riflangan [2].

Fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarning maqsadlari bir qator muammolarni hal qilishni talab etadi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: fanga qiziqishini shakllantirish; maktab fanlarini hayot bilan bog‘lash; o‘rganilayotgan fanning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish; o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish; individual yondashuvni amalga oshirish; fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarni professional tashkil etish; axborot manbalaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarni oshirish. Shu bilan birga N.M.Verzilin ta‘kidlashicha, sinfdan tashqari ishlarning yakuniy maqsad va vazifalari o‘qituvchi tomonidan fanning o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiq aniqlanishi va o‘zgartirilishi mumkin [4].

Zamonaviy pedagogika fanining asoschisi chex pedagog-gumanisti Yan Amon Komenskiy: “Bizning didaktikamizning asosi: unda o‘quvchilarni kamroq o‘qitiladigan, biroq o‘quvchilar ko‘proq o‘qib o‘rganadigan usulni tadqiq etish bo‘lsin...” deb yozgan edi [5].

Hozirgi ta‘lim jarayoni o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun darsliklardan, adabiyotlardan, internet materiallaridan mustaqil ravishda darsdan tashqari vaqtlarda o‘qib o‘rganishlarini talab etadi.


1-rasmda keltirilgan mustaqil ishlarni asosiy didaktik maqsadga ko‘ra tasniflashda ularning mazmunini ko‘rib chiqaylik.

Yangi bilimlarni egallash va mustaqil bilim olish qobiliyatini o‘zlashtirish darslik bilan ishlash, kuzatishlar va tajribalar o‘tkazish, analitik va xisoblash xarakteridagi ishlar (formulalarni taxlil qilish, miqdorlar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik xarakterini o‘rnatish) asosida amalga oshiriladi, formulalarni taxlil qilish asosida kattaliklarning o‘lchov birliklarini

aniqlash, fizik kattaliklarning o'lchov birliklari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish va boshqalar [4].

1-rasm

Fizika fani bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish



Bilimlarni mustaxkamlashda tushunchalarning xususiyatlarini aniqlashtirish, ularni chegaralash, muhim xususiyatlarni muhim bo'lmaganlardan ajratish bo'yicha maxsus mashqlar tizimi yordamida erishiladi, jismlar va hodisalarning o'rganilgan xususiyatlarini taqqoslash orqali va xokazo shakllarda o'zlashtiriladi.

Bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirish har xil turdagi (sifat, xisoblash, grafik, eksperimental, chizma masalalari) muammolarini hal qilish, umumiy shakldagi masalalarni yechish, loyixalash va muxandislik ishlarini bajarish (loyixalash va ishlash printsipini tushuntirish), muqobil energiya va issiqlik mexanizmlari bo'yicha qurilmalar; qurilmadagi nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish; qurilma konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritish; qurilmalarning yangi dizaynini ishlab chiqish) tajriba ishlari va boshqalar orqali amalga oshiriladi [5].

Fizika darsdan tashqari mashg'ulotlarining turlari turli asoslarga ko'ra tasniflanadi:

- 1) Mashg'ulotlar vaqtiga ko'ra: tizimli, epizodik.
- 2) Sinfdan tashqari ish joyi bo'yicha: maktab, uy, maktabdan tashqari; masofaviy (texnik ijodiyot uylari, korxonalariga ekskursiyalar, masofaviy ta'lim markazlarida darslar va boshqalar).
- 3) O'quvchilarning ixtiyoriy yoki majburiy ishtiroki darajasiga ko'ra.
- 4) O'quvchilarning yoshi bo'yicha: boshlang'ich, o'rta, o'rta maktab uchun.
- 5) O'quvchilarning qiziqishlari yo'nalishiga ko'ra: texnik, tadqiqot, kasbiy yo'naltirilgan va boshqalar.

O'quvchilarning mustaqil uy ishi vazifalarini to'g'ri tashkil etish quyidagilarni beradi: kitob bilan mustaqil ishlash, kuzatishlar, tajribalar o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, o'quvchilarni muayyan masalani mustaqil tushunishga undaydi. Uy vazifalarini tizimli bajarish o'quvchilarni vijdonan ishlashga, o'z kelajagiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, vaqtini hisoblab, ishni rejalashtirishga, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Uyda o'quvchilar o'z tezligida ishlash imkoniyatiga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, barcha o'quvchilar vazifalarni bajara olmaydilar, shuning uchun o'quvchilarni ushbu vazifalarni bajarishga undash juda muhim, bu yaxshi baho yoki maqto'v bo'lishi mumkin [6].

Mustaqil ish o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirishga, kreativ fikrlashining rivojlanishiga hissa qo'shishi uchun, bajarilishi andoza (shablon) bo'yicha tayyor harakatlarni amalga oshirishga imkon bermaydigan vazifalar bo'lishi kerak. Ish yuqori qiyinchilik darajasida bajarilmasa, kutilgan natijani bermaydi. Mehnatga qiziqish, o'quvchilarning ijodiy hamda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki beradi. Bunday natijaga taklif etilayotgan vazifalarning yangiligi, mazmunining g'ayrioddiylik, taklif etilayotgan vazifa yoki o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan usulning amaliy ahamiyatini ochib berish orqali erishiladi.

Masalan, o'quvchi o'zini-o'zi nazorat qilishi uchun masalani yechishga yo'naltirilgan ma'lumotlarni va masalaning javobini berishni; o'quvchini ruhlantirish maqsadida masalani yechishdagi boshlang'ich qadamning to'g'riligini tasdiqlash yoki xatoliklarni ko'rsatish; masalaning javobini ko'rishga ruxsat berish; agar masalaning javobi bo'lmasa, masalaga taalluqli sxema va rasm ilova etish bilan, muammoni hal etish yo'llarini tanlash mumkin [1]:

1. Nima uchun gulxandan chiqayotgan tutun yuqoriga ko'tarilgan sari hatto shamol bo'lmaganda ham ko'zga ko'rinmay ketadi?

(Javob: konsentratsiya kamayib ketadi).

2. Nima sababdan singan chinni yoki sopol idishni yelim bilan yopishtirmasa ularni butun holga keltirib bo'lmaydi? Axir jism molekulari orasida tortishish kuchi mavjud-ku!

(Javob: g'adir-budirlik mavjudligi tufayli).

3. Savol: xonadagi nam daraxt va quruq daraxtga qo'l bilan teginishda nima ro'y beradi, nima kechadi? (Javob: xonadagi nam daraxtga qo'l bilan teginish sezilarli issiqlik uzatish bilan kechadi - issiqlik qo'ldan daraxtga o'tadi - qo'l issiqlik energiyasini yo'qotadi va salqinlik his qiladi. Quruq daraxtga teginish esa juda zaif issiqlik almashinuvi bilan birga kechadi, shuning uchun nam daraxt bilan solishtirganda, qo'l quruq daraxtni «iliq» dek his qiladi).

4. Agar cho'g'lanma lampochka yonganda, temperaturasi 17oC dan 360oC gacha ko'tarilsa, uning ichidagi gaz bosimi qanday o'zgaradi?

Берилган	Formula	Yechilishi
$t_1 = 17^\circ\text{C}$ $t_2 = 360^\circ\text{C}$ $\frac{p_2}{p_1} = ?$	$\frac{p_1}{p_2} = \frac{T_1}{T_2}$ $\frac{p_2}{p_1} = \frac{T_2}{T_1}$	$\frac{p_2}{p_1} = \frac{633}{290} = 2.2$

Natijada, o'quvchilar bitta masalani yechishgan bo'lsalar ham, ularga berilgan yo'llanma va maslahatlar turlicha farqlanadi. Qiyinroq masala va topshiriqlar, sinfning kuchliroq bilimiga ega o'quvchilariga taklif etiladi. Bilimi sayoz o'quvchilarni nazariy mashg'ulotlardan ko'ra, ko'proq amaliy mashg'ulotlar qiziqtirishi mumkin, bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarning xususiy kompetensiyasi shakllana boradi, kreativ fikrlashi esa olgan bilimiga mos ravishda rivojlanadi. Bu holatda, masala va topshiriqlar o'qituvchi tomonidan darslik, o'quv materiallari hamda internet saxifalarining mos ravishdagi dasturlaridan tanlab olinadi. O'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish maqsadida mustaqil ishlash uchun quyidagi uy amaliy ishlarini berish mumkin:

1. Gugurt qutisi va o'lchagichga ega bo'lgan holda, maydalangan tuz moddasining zichligi 800 kg/m^3 ekanligini bilib, gugurt qutisidagi tuzning massasini aniqlang.
2. Sovun bo'lagining zichligini aniqlang, uning massasi va o'lchamlarini bilib oling va sizning ixtiyoringizda o'lchagich bor.
3. Tarozni va o'lchagich yordamida qarag'ay to'rtburchak blokning zichligini aniqlang.
4. Qutida qum bor. O'lchagich va vaznli taroziga ega bo'lib, uning zichligini aniqlang.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qituvchi rahbarligi ostida o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishda hamda mustaqil bilim egallashlarida, o'quv materialining hajmi va vaqt jihatidan ham – bunday metodlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Sir emaski, har bir o'qituvchi faqat fizika faniga qiziquvchi, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni, har qanday konferensiya, olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rishni, ijodiy tadbirlar o'tkazishni xohlaydi. Iqtidorli o'quvchi – mashg'ulotning u yoki bu faoliyat turida yorqin, aniq, bazan ajoyib yutuqlari (yoki bunday yutuqlar uchun ichki shartlarga ega) bilan ajralib turadigan o'quvchidir. Maktabda ijodiy ish (va sinfdan tashqari ishlar) qiziqarli va hayajonli bo'lishi uchun bunday o'quvchilarni nafaqat izlash, balki maqsadli va tizimli ravishda tarbiyalashlari kerak bo'ladi.

Shunda, agar o'quvchiga boshqa fan o'qituvchisi, boshqa fan olimpiadasida qatnashishni taklif qilsa, o'quvchi g'urur bilan: «Men fizika bilan shug'ullanaman!» deb javob berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳақимова М., Файзуллаева Д.. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. ЎУМ. -Т.: Иқтисодиёт, 2016.-37 б.
2. Павлова М.С. Физический эксперимент – способ развития творческого мышления //Физика в школе, 2006, №1 – с 14 – 20.
3. Андреев, В. И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. – 2-э изд. – Казан: Центр инновационных технологий, 2000.
4. В.Ф.Шилов. Домашние экспериментальные задания по физике. 7-9 классы. М.: «Школьная пресса», 2003.
5. Коменский Я. А. Избранные педагогические сочинения: В 2-х т. М., 1982. Т. 1. 656 с
6. Браверман Э.М. Самостоятельное проведение учениками экспериментов //Физика в школе, 2000, №3 – с 43 – 46.

ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЯЗЫКА СОВРЕМЕННОГО МЕНЕДЖЕРА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

Абдуллаева Розанна Мирзатуллаевна

*доктор педагогических наук, профессор кафедры педагогики, психологии и языков
Ташкентской Медицинской Академии*
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.009>

Аннотация. В данной статье рассматриваются особенности профессионального языка, используемого профессиональными менеджерами в сфере здравоохранения, уникальность перевода экономических терминов с русского на узбекский. Целью данной статьи является исследование и анализ лингвистических особенностей перевода, с которыми сталкиваются менеджеры здравоохранения.

Ключевые слова: менеджер в здравоохранении, экономика, лингвистические особенности, аспект перевода, спектр терминов

FEATURES OF THE PROFESSIONAL LANGUAGE OF A MODERN HEALTHCARE MANAGER

Abdullaeva Rozanna Mirzatullaevna

*Doctor of Pedagogical Sciences, Professor of the Department of Pedagogy, Psychology
and Languages of the Tashkent Medical Academy*

Abstract. This article discusses the features of the professional language used by professional managers in the healthcare sector, the uniqueness of the translation of economic terms from Russian into Uzbek. The purpose of this article is to study and analyze the linguistic features of translation that healthcare managers face.

Key words: healthcare manager, economics, linguistic features, translation aspect, range of terms

ZAMONAVIY SALOMATLIK SAQLASH MENEJERINING KASB TILI XUSUSIYATLARI

Abdullaeva Rozanna Mirzatullaevna

*pedagogika fanlari doktori, Toshkent tibbiyot akademiyasi Pedagogika, psixologiya va
tillar kafedrasi professori*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog'liqni saqlash sohasida professional menenjerlar tomonidan qo'llaniladigan kasbiy til xususiyatlari, iqtisodiy atamalarning rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinishining o'ziga xosligi haqida so'z boradi. Ushbu maqolaning maqsadi sog'liqni saqlash menenjerlari duch keladigan tarjimaning lingvistik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilishdir.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash menenjeri, iqtisod, lingvistik xususiyatlar, tarjima aspekti, atamalar qatori.

Введение: Язык играет ключевую роль в жизни и является основой для развития всех областей науки, поскольку через него описываются сферы интересов, способствующие формированию научного мышления и определяющие границы научной деятельности.

В современном здравоохранении профессиональный язык менеджера включает широкий спектр терминов и понятий, связанных с организацией и управлением здравоохранением. В контексте глобализации экономики, где здравоохранение играет важную роль, важно изучать особенности использования этих терминов на разных языках.

Менеджеру в сфере здравоохранения, также, как и экономисту, важно освоить язык современной экономики. Этот язык включает в себя специализированную терминологию, которая обладает различными лингвистическими особенностями.

Основная часть: Экономические термины имеют свои уникальные значения и особенности в разных языках, поэтому для менеджера важно осознавать их значения и потенциальные результаты их применения. Методология анализа данных также обладает своей спецификой, и для менеджера крайне важно грамотно интерпретировать экономические данные с учетом контекста здравоохранения. Основными компетенциями менеджера должны быть глубокие знания финансовых процессов, умение эффективно управлять бюджетом, контролировать затраты и проводить финансовое планирование.

Особенности профессионального языка современного экономиста имеют большое значение для менеджера здравоохранения. Вот несколько причин:

1. Понимание экономических терминов: Управление в сфере здравоохранения тесно связано с финансами и экономикой. Менеджеру здравоохранения необходимо владеть основными экономическими терминами и концепциями, такими как спрос и предложение, инфляция, стоимость производства и другие. Это позволяет менеджеру анализировать финансовые показатели и оценивать экономические последствия принимаемых решений.

2. Коммуникация с экономистами: Взаимодействие менеджера здравоохранения с экономистами, консультантами и финансовыми аналитиками является обычным явлением. Более глубокое понимание профессионального языка экономиста существенно облегчит коммуникацию и сотрудничество между различными специалистами в сферах экономики и здравоохранения. Это способствует созданию эффективной команды для решения экономических проблем и разработки стратегий по улучшению финансовых показателей организации здравоохранения.

3. Анализ данных и отчетность: Экономические данные и отчетность играют важную роль в управлении здравоохранением. Менеджер в этой области должен обладать навыками анализа данных, проведения финансовых прогнозов и принятия обоснованных экономических решений. Особенности профессионального языка экономиста помогают менеджеру правильно интерпретировать и использовать данные, а также эффективно общаться результатами анализа с другими членами команды.

4. Понимание экономических вызовов: В настоящее время здравоохранение стало сложной и дорогостоящей отраслью, с которой связаны различные экономические вызовы. Менеджер здравоохранения должен понимать эти вызовы, такие как изменение структуры потребительского спроса на медицинские услуги, рост затрат на медицинские технологии и необходимость соблюдения ограниченного бюджета. Особенности профессионального языка экономиста помогут менеджеру здравоохранения разобраться в сложных экономических вопросах и разработать стратегические решения для эффективного управления финансами и ресурсами в организации здравоохранения.

Для менеджера знание экономических законов играет значительную роль в управлении здравоохранения. Понимание экономики как основного аспекта для менеджера здравоохранения в Узбекистане остается в стадии развития. Это объясняется тем, что данная специальность только начинает формироваться, и многие люди ещё не осознают её важность. Также существуют проблемы с переводом экономических терминов с русского на узбекский язык. Экономические понятия и термины зачастую переводятся дословно, что может привести к искажению их смысла из-за различий в грамматике и прагматике между языками. На русском языке термин может иметь одно значение, в то время как на узбекском его значение может измениться, что создает дополнительные трудности в понимании и использовании экономической терминологии. Например:

Экономика (от др.-греч. οἶκος — дом, хозяйство, хозяйствование и νόμος — ном, территория управления хозяйствованием и правило, закон, буквально «правила ведения хозяйства дома») — хозяйственная деятельность общества, а также совокупность отношений, складывающихся в системе производства, распределения, обмена и потребления.

Iqtisodiyot — yunoncha «νόμος» va «οἶκος» so'zlari birlashmasidan kelib chiqqan bo'lib, «ekonomika» qishloq xo'jalik asoslari haqida fan degan ma'noni anglatadi. «Ekonomika» so'zi ommaviy o'zbek lug'atiga o'tilganda «iqtisodiyot» atamasiga o'zgaradi. Iqtisodiyot

cheklanmagan ehtiyojlarni, cheklangan resurslardan samarali foydalanib boshqarishni o'rganuvchi fandır.

Активы — 1) учетная категория, включающая стоимость имущества рыночного субъекта плюс средства и запасы, предназначенные для уплаты задолженности; 2) принадлежащие предприятию, организации имущество, товары, ценные бумаги, денежные средства, включая суммы, не востребованные с других предприятий или иных должников; 3) составная часть баланса предприятия, где в активной части показываются все его средства, их размещение по стадиям воспроизводства, а в пассивной части отражаются источники средств, сгруппированные по их происхождению: собственные средства, привлеченные временно в оборот, заемные, целевое финансирование и т.п.

Aktivlar — 1) buxgalteriya toifasi, shu jumladan bozor sub'ekti mol-mulki qiymati, shuningdek qarzni to'lash uchun mo'ljallangan mablag'lar va zaxiralar; 2) korxonalar, tashkilotga tegishli mol-mulk, tovarlar, qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari, shu jumladan boshqa korxonalar yoki boshqa qarzdorlardan talab qilinmaydigan summalar; 3) faol bo'lgan korxonalar balansining tarkibiy qismi qismlar uning barcha vositalarini, ularning ko'payish bosqichlariga qarab joylashishini va passiv qismida ularning kelib chiqishi bo'yicha guruhlangan mablag'lar manbalarini aks ettiradi: vaqtincha muomalaga jalb qilingan o'z mablag'lari, qarz mablag'lari, maqsadli moliyalashtirish va boshqalar.

Аksiyyadorlik kapitali- ko'plab individual kapitalni birlashtirish va aktsiyalar va obligatsiyalarni sotish orqali kichik omonatchilarning pul mablag'larini jalb qilish yo'li bilan tashkil etilgan aktsiyadorlik jamiyatining kapitali. Aktsiyadorlik kapitali rasmiy ravishda birlashtirilgan kapitaldir, chunki u umuman aktsiyadorlik jamiyatining mulki bo'lib, uning alohida a'zolari emas. Aslida, nazorat paketi orqali ularni yirik egalari boshqaradi.

Анализ -система приемов и методов изучения конкретных экономических явлений.

Tahlil- aniq iqtisodiy hodisalarni o'rganish usullari va usullari tizimi.

Фонд оплаты труда — денежные затраты предприятия на оплату труда. Сформируется за счет двух источников: а) издержек производства и обращения; б) прибыли предприятия.

Ish haqi fondi- korxonaning ish haqi uchun pul xarajatlari. U ikkita manba hisobidan shakllanadi: а) ishlab chiqarish va tarqatish xarajatlari; б) korxonalar foydasi.

Фонды обращения — материальные ценности и денежные средства, однократно участвующие в процессах реализации: товары, денежные средства в кассе, на счетах, денежные документы, дебиторская задолженность, расходы будущих периодов и др.

Ish haqi fondi-korxonaning ish haqi uchun pul xarajatlari. U ikkita manba hisobidan shakllanadi: а) ishlab chiqarish va tarqatish xarajatlari; б) korxonalar foydasi.

Чистая прибыль — прибыль, остающаяся у предприятия после уплаты налогов и других платежей в бюджет. Поступает в их полное распоряжение.

Sof foyda-soliq va byudjetga boshqa to'lovlarni to'lashdan keyin korxonada qolgan foyda. Ularning to'liq ixtiyoriga kiradi.

1. Обучение основам творческого мышления и конструирования. Ученикам следует предоставлять знания и навыки, необходимые для успешного творческого и конструкторского процесса [1].

2. Стимулирование интереса к творчеству и конструированию. Преподаватели и родители могут помогать учащимся обнаружить и развить их увлечения и интересы в этой области.

3. Создание условий для самостоятельной работы. Учащимся нужно предоставлять время, пространство и доступ к необходимым материалам и оборудованию для того, чтобы они могли самостоятельно творить и конструировать [2].

4. Поощрение экспериментирования и ошибка. Ученики должны быть убеждены в том, что ошибки и неудачи – это часть процесса творчества и конструирования, и что они могут извлечь ценный опыт из своих ошибок.

5. Развитие коммуникативных навыков. Ученикам нужно учиться работать в команде, общаться и делиться идеями с другими, чтобы усилить свои творческие и конструкторские способности [3].

6. Проведение конкурсов мероприятий, посвященных творчеству и конструированию. Ученики могут проявить свои способности и получить мотивацию для дальнейшего развития в этой области.

7. Предоставление возможностей для самовыражения. Ученикам нужно давать свободу для выражения своих идей и видений через творческие проекты и конструкторские работы.

Для проведения практических занятий по развитию творческо-конструкторских способностей учащихся можно использовать различные методы и приёмы, которые способствуют активизации мыслительной активности и развитию креативности. Вот несколько идей для проведения таких занятий:

1. Мастер-классы по созданию различных конструкций из доступных материалов (например, конструкторы, пластилин, макеты из бумаги и т.д.) [4].

2. Задания на разработку нестандартных решений для решения конкретных задач или проблем.

3. Работа в группах над созданием коллективных проектов или моделей.

4. Проведение конкурсов и соревнований по разработке оригинальных конструкций [5].

5. Использование технологий в обучении, например, работа с 3D-принтером для создания объектов или моделей.

6. Проведение игровых мероприятий, направленных на поощрение творческого мышления и конструкторской активности.

Важно создать поддерживающую и стимулирующую атмосферу на занятиях, которая

будет способствовать свободному выражению идеи и развитию индивидуальных творческих способностей учащихся. Творческий-конструкторский способности учащихся на профориентации могут проявляться в следующих особенностях:

1. Идеи и креативность: учащиеся с высоким уровнем творческих способностей часто обладают богатым воображением и способностью генерировать новые идеи. Они могут предлагать нестандартные решения и подходы к решению задач.

2. Работа с материалами: такие учащиеся могут проявлять интерес к работе с различными материалами и инструментами. Они могут успешно создавать различные проекты, используя свои навыки и умения в конструировании [6].

3. Умение анализировать и синтезировать информацию: творчески одаренные учащиеся могут быстрее и эффективнее обрабатывать информацию, выделять главное и делать выводы. Они способны использовать полученные знания для создания новых продуктов и проектов.

4. Гибкость мышления: учащиеся с творческими способностями часто обладают гибким мышлением и способностью быстро адаптироваться к изменяющимся условиям и требованиям. Они могут успешно применять свои знания и навыки в различных областях профориентации.

5. Способность к сотрудничеству: творчески одаренные учащиеся часто обладают хорошими коммуникативными навыками и способностью эффективно сотрудничать с другими людьми. Это позволяет им успешно работать в команде и достигать поставленных целей [7].

Такие особенности творческих способностей учащихся могут быть полезными при выборе профессии или области деятельности, где требуется креативность, инновационный подход и способность к конструированию новых решений. Развитие творческо-конструктивных способностей учащихся играет важную роль в образовании, поскольку это способствует развитию креативного мышления, проблемного решения и инновационности. Вот несколько методов, которые могут помочь в этом:

1. Развивайте игровой подход к обучению: Используйте игры, задачи, головоломки и проекты, которые требуют от учащихся творчества и конструктивности для решения проблем.

2. Поощряйте воображение: Задавайте открытые вопросы, которые требуют нетрадиционного мышления и предлагайте возможности для самостоятельной работы над проектами, где ученики могут воплотить свои идеи.

3. Создавайте стимулирующую среду: Обеспечьте доступ к материалам и ресурсам для экспериментирования и творчества, а также поддерживайте атмосферу, где ошибки рассматриваются как часть процесса обучения.

4. Практикуйте многопредметный подход: Интегрируйте творческие задачи в различные учебные предметы, чтобы позволить учащимся видеть, как их знания могут быть применены в различных контекстах.

5. Поощряйте коллаборацию: Создавайте возможности для групповой работы, где учащиеся могут обмениваться идеями и строить на них, стимулируя таким образом творческий процесс.

6. Давайте свободу выбора: Предоставьте учащимся возможность выбирать темы для исследования и проектов, что повышает их заинтересованность и мотивацию.

7. Поддерживайте оценку на основе процесса: Оценивайте учеников не только по результатам, но и по их способности применять творческие и конструктивные подходы в решении задач и преодолении препятствий [8].

Комбинация этих методов поможет создать стимулирующую среду, которая способствует развитию творческо-конструктивных способностей учащихся.

Основываясь на наших наблюдениях и экспериментах, стоит отметить, что на уроках технологии могут возникать различные проблемы, затрудняющие развитие творческо-конструкторских способностей учащихся. Вот некоторые из них:

1. Отсутствие ресурсов: Недостаток материальных ресурсов и оборудования может

сильно ограничивать возможности учеников для творческого экспериментирования и конструирования.

2. Недостаточное обучение учителей: если учителя не обладают достаточными знаниями и навыками в области технологии и конструирования, они могут иметь трудности в создании стимулирующей учебной среды и руководстве учащимися.

3. Фокус на процессе производства, а не на творчестве: иногда уроки технологии слишком сосредоточены на технических аспектах производства, оставляя мало места для творчества и инноваций.

4. Отсутствие индивидуализации: Учитель может столкнуться с трудностями в адаптации уроков к различным уровням знаний, интересам и способностям учащихся, что может привести к упущению возможностей для развития творческого мышления.

5. Недостаток времени: Ограниченное количество времени на проведение урока может препятствовать проведению более глубоких исследований и проектной работы, что снижает возможности для творчества.

6. Отсутствие мотивации и поддержки: Учащиеся могут терять интерес к урокам технологии из-за недостатка мотивации или недостатка поддержки со стороны учителя или родителей.

Решение этих проблем требует комплексного подхода, который включает в себя обеспечение доступа к ресурсам, профессиональное развитие учителей, создание стимулирующей учебной среды, индивидуализацию обучения и поощрение творческого мышления и самовыражения учащихся.

Чтобы преодолеть эти проблемы, важно создать стимулирующую обучающую среду, в которой ученики могут развивать свои творческие и технические способности. Это может включать в себя улучшение доступа к ресурсам и оборудованию, обновление учебных программ с учетом творческих аспектов, проведение проектной работы с акцентом на инновационных идеях, а также профессиональное развитие учителей для обеспечения качественного обучения и поддержки творческого потенциала каждого ученика.

Используемые литературы

Бугакова Н. Д., Развитие творческих способностей учащихся в процессе обучения технологии в 5-8 классах. стр. 7-16.

Гусаковский М.А., Д.И. Губаревич, Е.Ф. Карпиевич, Т.И. Краснова, И.Е. Осипчик., Материалы пятой международной научно-практической конференции «Университетское образование: от эффективного преподавания к эффективному учению» (БГУ, Минск, 29-30 марта 2005 г.)

Плотникова Н.Ф., Командный подход в обучении (Учебно-методическое пособие), стр(26-45).

Махнёва Н. С., Проектирование модели урока технологии с элементами мастер-класса.

Голованова И.И., Е.В. Асафова, Н.В. Телегина., Практики интерактивного обучения.

Базуева А. А., Воспитание одаренных детей среднего подросткового возраста в образовательной организации. (Екатеринбург 2016).

Аввакумова Е. А., Методика кейс-стади при обучении русскому языку как иностранному (Алтайский государственный педагогический университет, г. Барнаул, Россия).

<https://www.britishcouncil.uz/ru/programmes/arts/creative-collaborations>

VOLEYBOL SPORT TURIDA SAKRASHNING TEXNIK KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI

*Boltayev A'zam Akramovich,
Oriental universiteti "Jismoniy tarbiya" kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)
O'zbekiston, Toshkent shahri
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.013>*

Annotatsiya: Maqolada voleybolchilarga hos sakrash qobiliyatini sakrab ijro etiladigan uchin usullariga mos tartibda shakllantirish zarurligi haqida fikr yuritilgan. Ushbu qobiliyatni qusima- vaziyatli uchin mashqlari yordamida takomillashtirishga qaratilgan uslubiy endoshuvlar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: sakrash, sakrovchanlik, sakrash chidamkorligi, sakrash qobiliyati, texnik-taktik usullar, portlovchi kuch, sakrash fazalari.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕХНИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПРЫЖКОВ В ВОЛЕЙБОЛЕ

Старший преподаватель (PhD) кафедры физического воспитания университета Ориентал Узбекистан, г. Ташкент

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы о необходимости развития прыжковой работоспособности у вoleyболистов в рамках соответствия её структуры координационному содержанию игровых навыков, выполняемых в прыжке. Определены методические подходы к совершенствованию этой способности с использованием сопряженно-ситуационных игровых упражнений.

Ключевые слова: прыжок, прыгучесть, прыжковая выносливость, прыжковая способность, технико-тактические приемы, взрывная сила, фазы прыжка

MECHANISMS OF FORMATION OF TECHNICAL SKILLS OF JUMPING IN VOLLEYBALL

*Boltayev A'zam Akramovich,
Senior Lecturer (PhD) of the Department of Physical Education at Oriental University
Uzbekistan, Tashkent city*

Abstract: In the article questions of need of development of hopping working capacity in volleyball players within compliance of its structure to the coordination maintenance of the game skills which are carried out in a jump are considered. Methodical approaches to improvement of this ability with use of the connected-situational game exercises are defined.

Keywords: jump, jumping ability, jumping endurance, jumping ability, technical and tactical techniques, explosive power, jump phases

Dolzartligi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach barcha soxalar kabi jismoniy tarbiya va sport ham tamomila yangicha yo'nalishda shakllanib, yuksak cho'qqi sari qanot yozmoqda. Darhaqiqat yurtboshimiz Sh. Mirziyoev tashabbusi bilan so'ngi yillarda jismoniy tarbiya va sport to'g'risida bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Ta'kidlash joizki, jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, sport mavqeini ko'tarishga ham jiddiy etibor qaratilmoqda.

O'zbek sportchilari Osiyo, Jahon va Olimpiya musobaqalarida yuksak natijalarga erishib, yurtimiz sharafini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda voleybol sport turi ham so'ngi yillarda ancha rivojlanib o'z mavqiyiga ega bo'lib bormoqda.

Xozirg kunda sakrash hayotiy zarur harakat ko'nikmalari tarkibiga mansub bo'lib, insonning turmush tarzida muhim ro'l o'ynaydi. Bolalarda sakrash ko'nikmalari turli harakatli o'yinlar davomida shakllanib boradi. Ushbu ko'nikmaning hayotiy zarur ekanligi favqulotda yuzaga

kelishi mumkin bo'lib havfli vaziyatlarni (biror-bir hayvon hujumidan qochib ariqdan sakrash yoki baland joyga sakrab chiqish va h.k.) bartaraf etish holatlari bilan izohlanadi.

Agar sakrash ko'nikmasining mantiqiy mohiyati va amaliy ahamiyati yanada chuqurroq hamda kengroq talqin etiladigan bo'lsa, unda sakrash – bu nafaqat insonning turmush jarayonida, harbiy xizmatda yoki favqulodli vaziyatlarda amalga oshiriladigan hayotiy zarur harakatdir, balki bir qator sport turlarida (sport o'yinlari, yengil atletika, gimnastika va h.k.) hal qiluvchi ahamiyatga loyiq harakat ko'nikmasidir. Ushbu malaka sakrab ijro etiladigan har bir sport turida qo'llaniladigan texnik usullar xususiyatiga qarab, hatto bir sport turida, masalan, voleybolda – zarba turlari, zarba berish zonalari, to'siq qo'yish, to'p uzatish, to'p kiritish va o'yinda yuzaga kelgan taktik vaziyat talablariga muvofiq koordinatsion, biomexanik va aerodinamik jihatlar bilan keskin farqlanadi (1,2,3,4,6,8).

Sakrash ko'nikmalarining tarkibiy tuzilishidan yoki yugurib kelib, bir yoki ikki oyoq bilan debsinish asosida tayanch holatdan notayanch holatga o'tib vertikal yoki diagonal-yoysimon yo'nalishda «uchib», yana tayanch holatga qo'nish fazalari bilan izohlanadi. Tayanch holatdan «uchib» yana tayanch holatga qo'nish vaqti qanchalik uzoq bo'lsa, shunchalik sakrash balandligi yoki uzunligi ko'p bo'ladi. Aksariyat murabbiylar sakrash balandligi yoki sakrash uzunligini, odatda, oyoqlarning portlovchi kuchiga bog'lashadi. Ammo ular sakrashning bunday natijalarini tana, gavda va qo'llarning aerodinamik harakati yoki boshqacha qilib aytganda tana, gavda va qo'llarning keskin-faol yoysimon harakati ta'sirida yuzaga keluvchi inersion-reaktiv kuch omiliga e'tibor qaratishmaydi. Aynan ana shu inersion-reaktiv kuch oyoqlarning portlovchi kuchi bilan bir qatorda, sakrash balandligi yoki uzunligini ta'minlaydi.

Ma'lumki, balandga yoki uzunlikka sakrash qobiliyati sakrovchanlik deb qabul qilingan. Sakrovchanlik – bu joydan yoki yugurib kelib, oyoqlarni optimal burchakda bukib, ya'ni tananing umumiy og'irlik markazini pastroq tushirib, bir yoki ikki oyoq bilan debsinish asosida gavda va qo'llarning faol yoysimon inersion harakati evaziga maksimal balandga yoki uzunlikka sakrash qobiliyatini anglatadi. Bunday sakrash qobiliyatini uzoq muddat davomida koordinatsion «nususini» saqlagan holda ko'p marta takrorlay olish imkoniyati sakrash chidamkorligi deb yuritiladi.

Sakrash ko'nikmasi, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi voleybolda ijro etiladigan aksariyat o'yin usullarining (zarba berish, to'siq qo'yish, to'p uzatish, to'p kiritish) samaradorligini ta'minlovchi poydevor omil sifatida ko'plab tadqiqotlarda o'z yechimini topgan, ularni shakllantirish uslublari va vositalari muvofiq darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarida ochib berilgan. Shu bilan bir qatorda, mazkur harakat sifatleri voleybolchining o'yin ixtisosligi (ampluasi), zarba berish usullari, zonalari, to'siq qo'yish va to'p kiritish kabi texnik-taktik usullar xususiyatiga qarab tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida deyarli o'rganilmagan.

Qayd etilgan har bir o'yin malakasi (texnik-taktik malaka), o'z navbatida, bir necha usullardan iborat bo'lib, ularni ijro etish zonasiga qarab sakrash koordinatsiyasi, biomexanikasi va aerodinamikasi bir-biridan keskin farqlanadi. Jumladan, 4- zonadan zarba berishda fazalari, aerodinamikasi va koordinatsiyasi quyidagi nusxa-mazmunda ifodalanadi: ikkinchi temp o'yinchisi hujum va yon chiziqlar kesishgan joy atrofida dastlabki tayyorgarlik holatini qabul qiladi; to'p yo'nalishi, baland-pastligi, to'pni to'rdan va antennadan uzoq-yaqinligini aniqlagandan so'ng 2–3 qadam keskin yuguradi va 4- qadamda hatlab-qo'nib, tizzalar optimal bukiladi va og'irlik markazi pastga tushiriladi, keyin debsinish bilan bir qatorda «orqada qolgan gavda va qo'llarni yoysimon yo'nalishda yuqoriga keskin harakatlantirib sakraydi (uchadi)»; sakrashning maksimal nuqtasida gavda va zarba beruvchi qo'l orqaga qisman bukilib, shu zahoti ularni keskin oldinga (to'pga nisbatan) harakatlantirish asosida to'pga zarba beriladi; undan keyingi faza qo'nish va muvozanatni saqlab qolish bilan yakunlanadi.

3-zonadan zarba berish birinchi temp hujumchisi ijrosida amalga oshiriladi. Bunda yugurish (1–2 qadam), hatlash-debsinish, sakrash va boshqa fazalar oraliq'i va vaqti qisqaradi; hatlab-debsinish vaqtida oyoqlar tizza bo'g'imidan qisman bukilib, portlovchi kuch bilan keskin yozilib, sakrash fazasi bajariladi (debsinish vaqtida gavda va qo'llarni orqadan yuqoriga keskin harakatlantirish amplitudasi ikkinchi temp o'yinchisining nisbatan kichik bo'ladi); sakrashning maksimal nuqtasida gavda va zarba beruvchi qo'lning orqaga bukilishi juda kichik

amplitudaga teng bo‘ladi, lekin zarba berish uchun bajariladigan harakat inersion-reaktiv jihatdan o‘ta keskin bo‘ladi; yakuniy fazada qo‘nish va muvozanat saqlash ko‘nikmalari bajariladi.

2-zonada zarba berishda ham qayd etilgan fazalar va gavda-qo‘llarning aerodinamik (inersion-reaktiv) harakati nisbatan qisqa bo‘ladi. 4,3 va 2- zonalarga uzatilgan to‘pni yon chiziqlar tomon burib zarba berishda tana, gavda va qo‘llarning harakat koordinatsiyasi ham o‘zgaradi.

Ma‘lumki, 1998 yildan boshlab musobaqa qoidalarining tubdan o‘zgarishi tufayli himoya zonalaridan hujum zarbalarini uyushtirish soni 9,6% dan 35% gacha ortdi (7). Himoya zonalaridan ijro etiladigan bunday hujum zarbalarining nusxasi, sakrash fazalari va ularning koordinatsion mazmuni tamomila boshqacha xususiyatga egadir. Jumladan, himoya zonalaridan zarba berishda yugurib kelish, hatlash, oyoqlarning tizza qismidan bukilishi va tezkor yozilishi, tana, gavda va qo‘llarning yoysimon harakati yanada shiddatli kechadi. Sakrash vertikal yo‘nalishda emas, balki diagonal–yoysimon yo‘nalishda ijro etiladi. Debsinish harakati hujum chizig‘ining ortidan boshlanib, qo‘nish fazasi o‘rta va hujum chizig‘i o‘rtasida yakunlanishi odat tusiga kirgan. Himoya zonalaridan tamomila yangicha koordinatsion nusxada sakrab ijro etiladigan hujum zarbalarini guruhli to‘siq bilan qaytarish imkoniyati nihoyatda chegaralangan bo‘lgani tufayli, bunday zarbalar samaradorligi tobora ortib bormoqda.


Muhokama etilayotgan mavzuning yana bir e‘tiborga loyiq joyi shundaki, vertikal (2,3-zonalarda) yoki diagonal–yoysimon yo‘nalishda (himoya zonalarida) sakrash uchun bajariladigan shiddatli yugurish texnikasi, hatto raqib tomonidan yo‘naltirilgan to‘pni qabul qilish uchun o‘ng yoki chap tomonlar bo‘ylab tezkor yonlama harakatlanishlar (yonlama yugurishlar) texnikasi ham ma‘lum darajada sakrash va hatlash elementlaridan iborat. M.A. Godikning (5) ta‘kidlashicha, yugurish texnikasi quyidagi fazalarni o‘z ichiga oladi; sportchi avval bir oyoq bilan debsinib (masalan chap oyoq bilan), bir qo‘lini (o‘ng qo‘lini) tirsak bo‘g‘imidan qisman bukkan holda oldinga, ikkinchi qo‘lini (chap qo‘lini) siltab orqaga keskin harakatlantirish evaziga tayanch holatdan aerodinamik qonuniyatga asosan “uchish» fazasiga o‘tadi (tayanchsiz holatga), so‘ng ikkinchi oyog‘iga (o‘ng oyog‘iga) qo‘nadi va shu sikl zarur miqdorda takrorlanadi. Oyoqlarning portlovchi kuchi qanchalik salmoqli bo‘lsa “uchish” fazasi shunchalik davomli bo‘ladi, binobarin, qo‘nish va qayta debsinish (boshqa oyoq bilan) nuqtasi ham uzoqroq bo‘ladi. Ushbu fazalar va debsinish–uchish–qo‘nish sikli qanchalik tez takrorlansa, belgilangan masofa shunchalik qisqa vaqt ichida o‘tilishi mumkin.

Voleybolga xos yonlama yugurish (oyoqlar yarim bukilgan holda sakrab yoki xatlab harakatlanish), ko‘krak balandligida bukilgan qo‘llarning baland-pastga keskin harakatlanishi bilan sakrab-siljib yoki xatlab-siljib amalga oshiriladi.


Sakrash uchun yugurib kelishda debsinish–uchish–qo‘nish fazalari oraliqlar bo‘yicha bir-biridan farqlanadi: birinchi qadam kattaroq, ikkinchisi – kichikroq, uchinchisi yoki debsinishga xatlab qo‘nish (sakrash uchun debsinish fazasigacha) zarba berish usuli va zarba beriladigan zonaga bog‘liq bo‘ladi.

Voleybol mashg‘ulotlarini vizual kuzatish, ilmiy va o‘quv adabiyotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, sakrab ijro etiladigan texnik-taktik ko‘nikmalarga dastlabki o‘rgatish amaliyotida «sakrash-texnik usul» turlari, fazalari, sakrash zonalari, tana, gavda, bosh, oyoq va qo‘llarning o‘zaro koordinatsion xususiyatlariga chuqur ahamiyat qaratilmaydi. Vaholanki, musobaqalarda ko‘pincha sakrash koordinatsiyasi ijro etiladigan texnik-taktik usulning (turli zonalardan zarba berish, to‘siq qo‘yish, to‘p uzatish, to‘p kiritish) maqsadi va taktikasiga muvofiq emasligi ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham, hatto a‘lo sakrovchanlikka ega voleybolchining hujum zarbasida yoki to‘siq qo‘yishida yetarli samaradorlik bo‘lmaydi. Binobarin, bugungi raqobatli voleybol amaliyotida, ayniqsa dastlabki o‘rgatish bosqichlarida yuqorida muhokama etilayotgan o‘ta dolzarb masalalarni e‘tiborga olish, sakrab ijro etiladigan texnik-taktik usullar turi va ijro etish joyiga (zonasiga) qarab sakrash fazalari, koordinatsiyasi, aerodinamikasi (tana, gavda, bosh va qo‘llar harakati)ni shakllantirish va shu orqali sakrovchanlik hamda sakrash chidamkorligini rivojlantirishga mo‘ljallangan mashqlar majmualarini ishlab chiqish va amalga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.


Biz ana shu fikrga asoslangan holda texnik usullar mazmuniga mos sakrash ko'nikmalariga o'rgatish jarayonida foydalaniladigan bir qator mashqlar andozalarini ishlab chiqdik (1,2,3,4-rasmlar).




1-rasm. Hujum zarbasiga xos sakrash turlariga o'rgatishda foydalaniladigan andoza bloki.



2- rasm. To'siq qo'yishga xos sakrash ko'nikmasiga o'rgatishda foydalaniladigan andoza bloki.



3-rasm. To'p uzatishga xos sakrash turlariga o'rgatishda foydalaniladigan andoza bloki.



4-rasm. To'p kiritishga xos sakrash ko'nikmasiga o'rgatishda foydalaniladigan andoza bloki.

Alohida shuni ta'kidlash joizki, voleybolga xos sakrash usullari, sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini erta yoshlikdan boshlab sakrab ijro etiladigan texnik-taktik malakalar turi hamda uning xususiyatlariga moslab, ixtisoslashtirilgan mashqlar yordamida shakllantirish foydali natijaga olib keladi. Sakrash fazalari – dastlabki tayyorgarlik holati, yugurish (2–4

qadam), debsinishga xatlash va oyoqlarni tizza bo'g'imidan optimal burchakda bukish, gavda va qo'llarning faol harakati yordamida debsinish, sakrash («uchish»), zarba beruvchi qo'lni orqaga harakatlantirish va keskin siltab xujum zarbasini taqlid qilish, qo'nish va muvozanat saqlash uzviy ketma-ketlikda mashqlantirilishi o'rgatish jarayonining o'ta muhim shartlaridan biridir. Ushbu jarayonda tavsiya etilayotgan andozalardan didaktik tartibda foydalanish sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini texnik usullar mazmuniga mos ravishda shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar:

Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: Fan va texnologiya. 2012, B.40 – 50.

Айрапетьянц Л.Р. Волейбол. // Учебник для высших учебных заведений. Т.: Zar qalam. 2006. – 240 с.

Беляев А.В., Савин М.В. Волейбол. М.: Фон, 2000. – 368 с.

Беляев А.В., Буликина Л.В. Прыжковая подготовка волейболистов в подготовительном периоде на основе анализа их соревновательной деятельности. // Теория и практика физической культуры. 2004, №3, С. 37–38.

Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. М.:Терра-Спорт. 2006. – 272 с.

Железняк Ю.Д. Волейбол: У истоков мастерства. М.: ФАИР-ПРЕСС. 1998.– 336 с.

Железняк Ю.Д., Шипулин Г.Я., Сердюков О.Э. Тенденции развития классического волейбола на современном этапе. // Теория и практика физической культуры. 2004, №4, С. 30–33.

Клещев Ю.Н. Волейбол. М.: Спорт Академ Пресс. 2003. – 189 с.

O'RTA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILARNING FIZIOLOGIK VA MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARI

Elquliyeva Feruza Dilmurod qizi

“Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi o'qtuvchisi. Buxoro davlat pedagogika instituti.
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.014>

Annotatsiya: jismoniy tarbiya va sport bugungi kunga kelib yurtimizda shiddat bilan rivojlanayotgan sohaga aylanib kelmoqda. Mazkur maqolada yengil atletikada o'rta masofaga yuguruvchi sportchilarning fiziologik va morfologik ko'rsatkichlari

Kalit so'zlar: yengil atletika, jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, yugurish texnikasi, yugurish tezligi, mashq, mashg'ulot, chaqqonlik

ФИЗИОЛОГО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ БЕГУНОВ НА СРЕДНИЕ ДИСТАНЦИИ

Элкулиева Феруза

*Преподаватель кафедры «Физическое воспитание и спорт»
учитель. Бухарский государственный педагогический институт.*

Аннотация: сегодня в нашей стране бурно развиваются физическое воспитание и спорт. В данной статье представлены физиологические и морфологические показатели бегунов на средние дистанции в легкой атлетике.

Ключевые слова: легкая атлетика, физическая подготовка, физические качества, техника бега, скорость бега, упражнения, тренировка, ловкость.

PHYSIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL PARAMETERS OF MIDDLE-DISTANCE RUNNERS

Elkulieva Feruza

*«Physical education and sports» department
teacher. Bukhara State Pedagogical Institute.*

Abstract: physical education and sports are rapidly developing in our country today. In this article, the physiological and morphological indicators of middle-distance runners in athletics are presented

Key words: athletics, physical training, physical qualities, running technique, running speed, exercise, training, agility

Hozirgi vaqtda yillik mashg'ulotni tashkil etishning mashg'ulot yuklamalarini to'g'ri rejalashtirish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yillik mashg'ulotlarning tuzilishi, bajarilish shiddati va maromi, dam olish sur'ati sportchini yaxshi natija ko'rsatishida keng imkon yaratadi. Dunyoning yetakchi sportchilari va murabbiylari mashg'ulot jarayonini rejalashtirishda sportchining funksional ichki imkoniyatlari, jismoniy tayyorgarligiga qarab mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirishning eng samarali natijaga erishishda asosiy omil deb hisoblashadi. Misol uchun Jahon chempioni va rekordchisi M. Klark yillik mashg'ulot uslubiyatini rejalashtirishda haftada ikki marotaba interval uslubdan foydalangan. Haftada bir marta 27-35 km. masofani bosib o'tgan, yuqori tezlikda yugurish usullarini o'z mashg'ulot uslubiyatida qo'llagan. U mashg'ulot jarayonida 8-10x200 m.ni 26-28 soniyada 200 m. engil yugurish bilan bosib o'tgan. Oraliq masofani 10x400 m.ni 60-63 soniya oraliq 400 m. engil yugurish bilan o'tgan (A.I. Polunin, 1990). 2004 yilda Afinada o'tkazilgan XXVII yozgi Olimpiada o'yinlarida 800 m. masofaga yugurishda Yuriy Borzakovskiy ajoyib tarzda o'z

raqiblarini ortda qoldirib Olimpiada chempioni bo'ldi. YUriy Borzakovski mashg'ulot jarayonida ham kross masofalarini juda tez bosib o'tishi bilan sportchilarni lol qoldiradi. Yuriy mashg'ulot jarayonida ko'proq intervalli usul, gohida fartlek usullarini ko'proq qo'llaydi. 5-8 km. Kross, 12x400 m., 10x200 m. ni almashlab yugurish 2x800 m. + 600 m. + 300 m., 4x100 m. masofalarga yugurish usullarini mashg'ulotlarda qo'llab boradi. V. Estaratov mashg'ulot uslubiyatini rejalashtirishda har gal har xil mashg'ulot uslubiyatini o'ylab topishga harakat qiladi (A.I. Polunin, 2003). Hozirgi kunda o'rta masofaga yuguruvchilar mashg'ulot jarayonini rejalashtirish uslubiyatini II o'quv mashg'ulot guruhidagilar uchun etakchi olimlar I.V. Ivochkin va boshqalar quyidagicha rejalashni tavsiya etmoqdalar. I.V. Ivochkin va boshqalar bo'yicha engil atletikachilar uchun mashg'ulot jarayonining asosiy tashkiliy shakli – guruh bo'lib yoki undan ko'proq davom etadigan mashg'ulot o'tkazishdir. Ozroq davom etadigan mashg'ulotlar ham bo'lishi mumkin. Asosiy mashg'ulotlarni harkuni ko'p kelmaydigan ertalabki mashg'ulot bilan to'ldirib turish mumkin. Asosiy mashg'ulotlarni to'ldiruvchi uy vazifalarini esa kunning boshqa vaqtida bajarish mumkin. Engil atletikachilar engil atletika mashg'ulotidan tashqari kross, chang'ida yurish basketbol va voleybol va shunga o'xshash mashqlar bajaradilar. Nihoyat sport musobaqalari ham mashg'ulot shakllaridan biri hisoblanadi. Sportchilar va murabbiylar mashg'ulotlarning hamma shakllarida quyidagi asosiy qoidalarga rioya etishlari kerak: mashg'ulotni asta sekin boshlab, keyin asosiy ish o'tkaziladi (bu erda kuch berish mashq turiga, kuch berish xarakteriga va hokozolarga qarab har xil, lekin mashg'ulot boshidagiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi). Mashg'ulot oxirida kuch berish kamaytiriladi, kuch kelishini bu tarzda o'zgartira borish mashg'ulot qaysi shaklda o'tkazilishidan qat'iyy nazar har qanday mashg'ulot uchun shartdir; Mashg'ulotlar qabul qilgan umumiy struktura bo'yicha tuzilib, to'rt (kirish, tayyorlov, asosiy, yakuniy) qismdan iboratdir. YUqori razryadli sportchilar ko'pincha uch qismdan, ya'ni (tayyorlov, asosiy, yakuniy) qismlarida mashg'ulotlarni olib borishadi. Mashg'ulotni maqsadli va mazmuniga, mashg'ulot davriga va asosan engil atletikachilarning tayyorgarlik darajalariga qarab birinchi yoki ikkinchi variantlar qo'llaniladi. Mashg'ulotning tayyorlov davrida o'tkaziladigan guruh mashg'ulotlari odatda to'rt qismdan iborat bo'ladi. Uch qisimli variantlar ko'pincha yuqori razryadli engil atletikachilar uchun ayniqsa, mashg'ulotning musobaqalashuv davrida qo'llaniladi. Mashg'ulotlarning mazmuni ko'p jihatdan engil atletikachilarning tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'ladi. O'quv mashg'ulot darsining ayrim qismlari vazifasi, mazmuni, kirish qismlarining mazmuni, vazifasi o'quvchilarni uyushtirishdan, ya'ni guruhni saflash, raport qabul qilish, davomatni tekshirish, dars vazifasi va mazmunini tushuntirish, guruhni mashq bajarish uchun qayta saflashdan iborat. SHuningdek, saf mashqlari, burilishlar, yurish va boshqalar ham kirish qismiga qo'shiladi. Chunki, guruhni uyushtirish, intizom o'rnatishda bularning ham ahamiyati katta. Kirish qismi 3-10 daqiqada davom etadi. Tayyorlov qismining vazifasi – shug'ullanuvchilarda umumiy badanni qizdirib olish qobiliyatini yaxshilash va engil atletika turlari, texnik elementlar bilan tanishtirish. Umum badan qizdirish tezlanishli yoki sportcha yurish (200-400 m.)dan boshlanib, sekin yugurishga (400-800 m.) o'tiladi. Tayyorlov qismining boshqa vazifalari snaryadlarda, snaryad bilan yoki ularsiz bajariladigan umumrivojlantiruvchi va maxsus tayyorlov mashqlari bilan xal etiladi. Yana tayyorlov qismda basketbol, voleybol kabi o'yinlarni ham qo'llash mumkin. Bu mashg'ulot vositasida yanada jadalroq keyingi ishga tayyorlansa bo'ladi. Yangi boshlaganlar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning tayyorlov qismiga oddiy umumrivojlantiruvchi mashqlar kiritiladi. Engil atleti-kachilarning tayyorgarlik darajalari o'sgani sari bu mashqlar murakkablasha boradi. Tayyorgarlik darajasi yuqori engil atletikachilar mashg'ulotning tayyorlov qismida umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlar teng miqdorda kiritiladi. Darsning tayyorlov qismiga mashg'ulotning tayyorlov davrida ko'proq va musobaqalashuv davrida kamroq vaqt ajratiladi. Darsning tayyorlov qismi qancha davom etishi, tanlangan engil atletika iurining xususiyatiga, atletlarning tayyorgarlik darajalariga va boshqalarga qarab (30daqiqadan 45 daqiqagacha) o'zgaradi. Tayyorgarlik darajasi ancha yuqori engil

atletikachilarda, xususan ularni individual mashg'ulotlarida, kirish va tayyorlov qismlari razminka bilan almashtiriladi. Razminka - sportchi organizmini bo'ladigan mashg'ulot ishiga tayyorlaydi. U kuch kelish asta sekin oshib boradigan qilib, maxsus tanlangan jismoniy mashqlar kompleksidan iborat bo'ladi. Agar razminka uchun mashqlar noto'g'ri tanlangan bo'lsa uning foydasi kam bo'libgina emas, balki salbiy ta'sir etishi ham mumkin. O'smirlarda muskulning kattalashishi tez bo'ladi. Muskulning cho'ziluvchanligi, asab regulyasiyasi faol rivojlanadi. Harakat tayanch apparati sezilarli darajada yuklamani ko'tara oladi. Qon tomir tizimi, asab tizimi garmonik rivojlanishi bir daqiqalik qon hajmi, yurak urish tezligi o'sish bilan barobarida yurakning kattalashishi kuzatiladi. Bu jarayonda irodaviy fazilatlarini rivojlantirish, umumiy va maxsus tezkor chidamlilikni rivojlantirish, ish faoliyatini oshiruvchi mashg'ulotlardan foydalanish tavsiya etiladi. SHu yoshdagi o'g'il balalar va qizlar o'zini tashqi ko'rinishiga juda katta e'tibor beradi. Bu davrda jismoniy ko'rinishini o'rtoqlarinikiga solishtirib ko'radi hamda har xil sport turlari bilan jismoniy ko'rinishini takamillashtirib, qiziqishini shakllantirib boradi. O'smirlar o'zining kuchini baholab boradi. Yugurish davrida yuqori tezlikda tez-tez yugurib turadi. Qizlar o'z kuchlarini bu davrga kelib baholamaydilar. O'zlariga ishonch bo'lmay, ular ko'proq xis-hayajonga beriladi. Har xil aerobik mashg'ulotlarini musiqa ostida o'tkazishni yaxshi ko'radi. Yuqori shiddatda uzaytirilgan mashg'ulot uslubiya'tini 80-85 % shiddatda o'tkazish tavsiya etiladi. Mushaklar ishlashi uchun energiya bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Katta quvvat zaxirasiga ega bo'lgan fosfat birikmalar (adinazintrifosfat, kreatinfosfat), shuningdek, uglevodlar (glyukoza, glikogen) va moylar eng muxim energiya manbalari hisoblanadi. Oqsillar energiya manbai sifatida ikkilamchi o'rinda turadi ammo, mushakning hajmi, bo'yini o'sishida ular birlamchi axamiyatga ega. Faqat ayrim holatdagina (ochlik, uzoq va ortiqcha urinishda) oqsillar aminokislotalar sifatida moddalarning energiya almashinuvida qatnashishi mumkin. Mushakda boy energiyaga ega bo'lgan fosfat birikmalari, glikogen va moylar to'planadi. Glikogen bilan moylar shuningdek, jigar va ter osti yog' to'qimalarida ham yig'iladi. Odamdagi 1 kg mushak og'irligida 3,5 dan 7,5 gacha mmol ATF, 16 dan 28 gacha mmol KrF keladi. Bu tananing ATFda, KrFda 15kJ. (3,6 kkal) atrofida xusu'iy quvvat zaxirasi bilan ta'minlanadi. Glikogen – mashq qilmagan odamda - 7,500 kJ (1,800 kkal), mashq qilgan odamda – 13000 kJ (3100 kkal). Bu miqdordan jigar glikogenga 2600 kJ (620 kkal) atrofida to'g'ri keladi. Mushak glikogeni samarali, tez energiya hosil qilishga kirishadi, shuning uchun uni dastlab qon aylanish tarmoqlari orqali ishlayotgan mushaklarga yuborish, so'ngra qabul orqali mushak to'qimasiga (mushak tolasiga) o'tkazish shart emas. Shuningdek, yana shuni hisobga olish kerakki, mushak tolasi unga qon tomirlari orqali yuborilayotgan glyukozani oson qabul qiladi va uni glikogen shaklida to'playdi. Ammo juda kam miqdordagi glikogenni boshqa kuch bilan ishlayotgan mushaklarga iste'mol uchun qaytaradi. Bundan tashqari, jigar glikogenni faqat qisman mushak faoliyati uchun foydalanishi mumkin. Negaki, bosh miyaning hayoti uchun zarur bo'lgan modda hisoblanadi. Shuningdek, yana shuni hisobga olish kerakki, mushak tolasi unga qon tomirlari orqali yuborilayotgan glyukozani oson qabul qiladi va uni glikogen shaklida to'playdi. Ammo juda kam miqdordagi glikogenni boshqa kuch bilan ishlayotgan mushaklarga iste'mol uchun qaytaradi. Bundan tashqari, jigar glikogenni faqat qisman mushak faoliyati uchun foydalanishi mumkin. Negaki, bosh miyaning hayoti uchun zarur bo'lgan modda hisoblanadi.

Yog'lar uzoq davom etadigan, uncha jadal bo'lmagan sport ishlarini bajarishiga tuganmas quvvat manbai (125000 dan 400000 kJ – 30000-100000 kkal) bo'lib xizmat qiladi. Yog' zaxirasini katta qismi teri osti yog' to'qimasida to'plangan bo'ladi.

Energiya ta'minoti tizimi: kislordsiz tizim – anaerob quvvat ta'minoti. Mushak tolalari uchun energiya ta'minotining bevosita manbai bo'lib, hamisha ATF kislotasi xizmat qiladi.

Anaerob imkoniyatlarni oshirishda ikki vazifani hal qilish kerak bo'ladi:

1. Fosfokreatin mexanizmining funksional imkoniyatlarini oshirish.

2. Glikolitik mexanizmni takomillashtirish. Vosita sifatida odatda tegishli intensivlikdagi siklik mashqlardan foydalaniladi.

Qaysidir tanlangan masofani maksimal yoki submaksimal quvvatda betamom o'tishdan tashqari masofaning qisqartirilgan bo'laklarida takroriy va o'zgaruvchan intervalli mashq qilishdan foydalanish tavsiya etiladi.

Kreatinfosfat mexanizmni takomillashtirishga qaratilgan yuklamalar qo'yidagi xarakteristikalar bilan farq qiladi:

1. Ishning intensivligi chegara darajadagi tezlikka yaqin, lekin bir oz undan pastroq bo'lishi ham mumkin. Katta xajimdagi ishni chegara tezlikda bajarish «tezlik to'sig'i» xosil bo'lishiga olib kelishi qayd qilingan edi. Tezlikni bir oz pasaytirish (aytaylik, maksimal tezlikning 90% gacha) bu havfdan qo'tilishga imkon beradi, hamda xarakat texnikasini kontrol qilishni osonlashtiradi, ayni vaqtda tezlikning bunchalik oz pasayishi metabolik protsesslarning intensivligiga amalda ta'sir etmaydi va binobarin, mashqlarning samaraliligiga xam ta'sir qilmaydi.

2. Bo'laklar uzunligi ish vaqti (1 martadagi) taxminan 3 – 8 sek. bo'lishini xisobga olgan holda tanlanadi (20 – 70 m yugurish, 8 – 20m suzish va x.k.)

3. Dam olish intervallari kislorod etishmasligining aloktat fraksiyasi juda tez «qoplanishini» hisobga olgan holda taxminan 2 – 3 daqiqaga teng bo'lishi kerak.

Biroq muskullardagi kreatin fosfat zahiralari juda kam bo'lganligi uchun, mashq 3 – 4 marta takrorlangandan keyin fosfokreatin mexanizmining imkoniyatlari tugaydi.

Shuning uchun mashg'ulotlarda rejalashtiriladigan ish xajmini har birida 4 – 5 marta takrorlanish bo'ladigan bir necha seriyalarga bo'lib yuborish maqsadga muvofiqdir. Seriyalar oraliq'idagi dam olish vaqti 7 - 10 daqiqa bo'lishi mumkin.

Bunda intervallar xosil bo'lgan sut kislotasining anchagina qismi oksidlanib ulgurishi uchun etarlidir, ayni vaqtda nerv markazlarining yuqori darajada qo'zg'aluvchan bo'lishi saqlanadi.

4. Dam olish oraliqlarini boshqa xizmat ko'rsatish opsiyalari bilan faqat takroriy tartiblar orasidagi tanaffus paytida to'ldirish ijobiydir. Asosiy isitmali birikmalarning emotsionalligini kamaytirmaslik uchun asosiy mashq paytida zo'riqish bo'lgan mushak guruhlariga kamroq kuchlanishli qo'shimcha xizmatni tashlash ijobiydir (masalan, sprinter pauza paytida emas, balki sekin yurishi kerak). o'tirish).

Takrorlashlarning ko'pligi qullikda ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi orqali aniqlanadi. Sinovning o'zida qisqa portlashlarda amalga oshiriladigan ushbu turdagi mashqlar tezlikni pasaytirmasdan ta'sirchan hajmdagi xizmat ko'rsatish imkonini beradi. (mashq qilingan sportchilar uchun 1500 m gacha).

Glikolitik mexanizmni takomillashtirishda nagruzkalar quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Xizmatning kuchlanishi mashq qilish uchun afzal qilingan masofaning uzunligi bilan belgilanadi. Oqimning tezligi bu masofada maksimal tezlikka yaqin bo'lishi kerak (maksimal tezlikning 90-95%). Mashqning ko'p takrorlanishidan va oxir-oqibat charchoqdan so'ng, shoshqaloqlik sezilarli darajada kamayishi mumkin, ammo bu tezlik tananing oqim holati uchun cheklangan tezlikka yaqin bo'lib qoladi.

2. Segmentlarning uzunligi 20 soniyadan keyin 2 ta taqillatishdan keyin ish vaqti benuqson davom etishi uchun afzallik beriladi (suzishda 50 dan 200 m gacha, yugurishda 200 dan 600 m gacha va hokazo).

3. Dam olish oraliqlari glikolitik jarayonlarning dinamikasi bilan belgilanadi. Bu qondagi qor kislotasi miqdoriga bog'liq.

Yuqoridagilarga o'xshash ishlarda, xizmat tugagandan so'ng, hayz paytida ko'p miqdorda laktat ko'pligi vaqt o'tishi bilan seziladi va bir daqiqadan so'ng va mashqni qayta boshlashga ko'ra, maksimal vaqt tugatish omiliga yaqinlashadi. Shuning uchun, bu holda, dam olish

oraliqlarini asta-sekin kamaytirish kerak. Masalan, 1-2-takrorlar orasida 5-8 marta, 2- va 3-takrorlar orasida 3-4 daqiqa, 3- va 4-takrorlar orasida 2-3 daqiqa.

4. Bularning barchasi bilan dam olish oraliqlarini boshqa ish variantlari bilan to'ldirish mantiqiy emas.

5. Dam olish oraliqlarining qisqarishi bilan ishda takrorlashlarning ko'pligi ahamiyatsiz bo'ladi (3-4 dan ko'p bo'lmagan), chunki charchoq tezda kuchayadi. 3-4 marta takrorlangandan so'ng, hayz paytida qor kislotasi to'planadi.

Amal qilish muddatini uzaytirish uchun glikolitik mexanizmning quvvati tugaydi va samaradorlikning energiya ta'minoti aerob reaksiyalariga topshiriladi. Harakat shiddati kamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Andris E.R., Qudratov R.Q. Yengil atletika. – T.: 1998. – 124 b.
2. Andris E.R. Upravleniye trenirovkoy v bege na 100 metrov. – T.: 1990. – 109 s.
3. Jilkin A. I., Kuzmin V. S., Sidorchuk Ye. V. Legkaya atletika (Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. zavedenii. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2009. - 464 s.
4. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg'ulotlari asoslari. – T.: 2008. – 72 b.
5. Abdukhamidov, R. N. (2021). IMPROVING PSYCHOPHYSIOLOGICAL TRAINING OF TEENAGE BOXERS WITH THE HELP OF IMPROVISED MEANS OF GAMES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
6. Абдухамидов, Р. Н. (2021). САМАРАЛИ ВОСИТА ВА УСУЛЛАР ЁРДАМИДА ЎСМИР БОКСЧИЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1).
7. Халмухамедов, Р. Д., Абдухамидов, Р. Н., Каримов, Ш. Қ., & Усмонхўжаев, С. Т. (2021). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СУДЕЙСТВА В БОКСЕ. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1)

XOTIN-QIZLAR GURUHI TALABALARIDA YENGIL ATLETIKA BO'YICHA CHIDAMLILIKNING GLIKOLITIK MEKANIZM IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ergasheva Ozoda Asqar qizi,

*Farg'ona davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti Jismoniy madaniyat kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.015>

Annotatsiya: Ushbu maqolada, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning yengil atletika bo'yicha to'g'arak mashg'ulotlarida chidamlilikning glikolitik mexanizm imkoniyatlarini rivojlantirish texnologiyasini tashkillash bo'yicha talaba qizlar guruhida o'tkazilgan test va fiziometrik o'lchov parametrlarining natijalari hamda uning o'ziga xos xususiyatlari asoslangan. Shuningdek, jismoniy yuklamani individual me'yorlashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan va shunga ko'ra mashg'ulot jarayoni tashkillangani haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar sporti, yuklama hajmi, shiddat me'yorlari, chidamlilik qobiliyati, o'ta kritik tezlik, fosfokreatin mexanizm, anaerob mexanizmi, glikolitik mexanizmi, me'yorlashtirish texnologiyasi.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ГЛИКОЛИТИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ВЫНОСЛИВОСТИ В ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКЕ У УЧАЩИХСЯ ЖЕНСКОЙ ГРУППЫ

Эргашева Озода Аскарвна,

*Факультет физической культуры Ферганского государственного университета
Независимый соискатель кафедры физической культуры*

Аннотация: В данной статье раскрыты результаты контрольно-физиометрических измерительных параметров и их специфические особенности, проведенные в группе студенток по организации Технологии развития возможностей гликолитического механизма выносливости на спортивных занятиях по легкой атлетике в высших учебных заведениях. Также говорится о том, что разработана технология индивидуального нормирования физических нагрузок и соответственно организован тренировочный процесс.

Ключевые слова: Женский спорт, объем нагрузки, нормы интенсивности, выносливость, сверхкритическая скорость, фосфокреатиновый механизм, анаэробный механизм, гликолитический механизм, технология стандартизации.

TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF GLYCOLYTIC MECHANISM CAPABILITIES OF ENDURANCE IN ATHLETICS IN WOMEN'S GROUP STUDENTS

Ergasheva Ozoda Asqar daughter,

*Fergana State University Faculty of Physical Culture Independent researcher of the
Department of Physical Culture*

Abstract: in this article, the results of the test and physiometric measurement parameters conducted in the student girl group on the organization of the technology for the development of the glycolytic mechanism capabilities of endurance in student athletics training in higher educational institutions and its specific features are based. Also, the technology of individual normalization of physical load was developed and, accordingly, the organization of the training process was mentioned.

Keywords: women's sports, load capacity, severity standards, endurance ability, super critical speed, phosphocreatine mechanism, anaerobic mechanism, glycolytic mechanism, normalization technology.

KIRISH. Yosh avlodni jismonan sogʻlom aqlan yetuk boʻlib oʻsishida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga boʻlgan eʼtibor ayniqsa, xotin-qizlar sportini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Olib borilayotgan ishlarning yorqin namunasi sifatida Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 5-mart PQ-5020-sonli

“Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini taʼminlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorining 3-bandida Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash davlat maqsadli jamgʻarmasining asosiy vazifalaridan biri sifatida ayollar sportini rivojlantirish bilan bogʻliq tadbirlarni moliyalashtirishga koʻmaklashish belgilangan. Shuningdek, 2020 yil 2-martdagi “Sogʻlom turmush tarzini keng tadbiriq etish va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5953-sonli farmoni ham Xotin-qizlarimiz sportini rivojlantirish uchun asosiy turtki boʻlib xizmat qilmoqda. Bu yoʻnalishda sportni rivojlantirish kelajak avlod salomatligi, sogʻlom turmush tarzini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega [1].

Xotin-qizlar guruhi talabalarining kelajakda davlat standartlariga mos malakali pedagog kadrlar hamda sogʻlom ona boʻlib yetishishlari uchun, jismoniy va funksional tayyorgarlik muammolari yechimini izlashda yengil atletika sport turining oʻziga xos muhim jihatlari mavjud [2].

Jamiyatimizda xotin-qizlarning salomatligini yaxshilash, amaliy-kasbiy tayyorgarligini davlat taʼlim standartlariga muvofiq rivojlantirish uchun jismoniy mashqlar hajmini optimal darajada belgilamay turib qoʻyilgan maqsadga erishib boʻlmaydi. Xotin-qizlar organizmiga xos jismoniy yuklama hamda rejalashtiriladigan yuklama hajmi va shiddat meʼyorlarining tayyorgarlik darajasiga, yoshiga mos optimallashtirish jismoniy tarbiya qonuniyatlarini belgilovchi bosh mezon boʻlib ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi: “Xotin-qizlar sporti” taʼlim yoʻnalishi, 21.47 guruh talaba qizlar guruhida chidamlilik qobiliyati bilan bogʻliq jismoniy yuklama va uning taʼsir mexanizmlarini, organizmda kechadigan funksional oʻzgarishlarni statistik tekshirish, muammo yechimi sifatida mashgʻulot texnologiyasini asoslash.

Talaba qizlar organizmining jismoniy va funksional holatini ilmiy tekshirishga asoslanib chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

Xotin-qizlarning funksional tayyorgarlik holatini jismoniy yuklamadan oldin, keyin va uch oylik mashgʻulot seriyasidan keyin testlash.

Test natijalariga matematik-statistik ishlov berish hamda xotin-qizlar organizmining funksional moslashuv xususiyatlarini tahlil etish.

Inson tomonidan harakatlanish shiddatini pasaytirmasdan turib yugura olishiga sarflangan vaqt chidamlilik mezonlaridan biri boʻlib hisoblanadi. Bu mezon negizida chidamlilik bevosita va bilvosita usullarda oʻlchanadi. Masalan, shugʻullanuvchiga muayyan tezlikda yugurish tavsiya etiladi va ayni tezlik shiddatining pasayishigacha sarflangan vaqt bevosita usul hisoblanadi. Bevosita usul taʼlim muassasalari amaliyotida doim ham qoʻl kelvermaydi. Shuning uchun aksariyat hollarda chidamlilikning bilvosita oʻlchov usuli qoʻllaniladi, yaʼni uzoq masofaga 400, 800, 1000 metr va hokazo yugurishga sarflanadigan vaqt [2,3,4,7].

Shugʻullanuvchilarda chidamlilikni talab qiladigan siklik xarakterdagi mashqlar jarayonida namoyon boʻladigan funksional imkoniyatlari hamda tegishli harakat malakalari, yugurish texnikasini egallash darajasi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan organizmning aerob va anaerob imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Yengil atletikaning 400 metr masofaga yugurish turi absolyut tezlanishiga koʻra oʻta kritik tezlik deb nomlanadi. Oʻta kritik tezlik bilan yugurishda organizmning kislorodga boʻlgan talabi shugʻullanuvchining aerob imkoniyatlaridan oshadi va bunday vaziyatda harakatlanish anaerob mexanizmi hisobidan davom etadi [3,4,5].

Anaerob imkoniyatlarni oshirish ikki usul bilan hal etiladi:

Fosfokreatin mexanizmining funksional imkoniyatlarini oshirish (3-8 soniya davom etadigan yuklama);

Glikolitik mexanizmni takomillashtirish (20 soniyadan 2 daqiqa davom etadigan yuklama). Glikolitik mexanizmlarni takomillashtirish vositasi sifatida tegishli shiddatli siklik mashqlar qo'llaniladi.

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqot vazifalari yechimini aniqlashda quyidagi tartibda tekshiruv metodlari qo'llanildi. 2023-2024 o'quv yilining sentabr, oktabr, noyabr oylarida 20 nafardan iborat tajriba guruhida, talaba-qizlarning quyidagi fiziometrik ko'rsatkichlari (jismoniy yuklamadan oldin, darhol va mashg'ulotlar seriyasidan keyingi holatlari arterial qon bosimi (tonometr asbobi yordamida N.S.Korotkov usulida yelka arteriyasida), yurak qisqarishlar soni (YuQS), o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TS, havoli spirometr asbobi yordamida), daqiqali nafas soni (sanash yo'li bilan) hamda 400 m. ga yugurish testi o'tkazildi, qayd etilgan ahamiyatli ko'rsatkichlarga matematik ishlov berildi (1 jadval).

NATIJALAR. Bugungi kunda Respublikamiz shaharlarida qiz bolalarning 49,4 foizi, qishloq joylarda esa 47,7 foizi sport bilan shug'ullanmoqda. Bu ko'rsatkich ham xotin-qizlar sportining mamlakatimizning barcha hududlarida shiddat bilan rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Sport-qizlar salomatligini mustahkamlash bilan birga ularning dunyoqarashini kengaytirib, tibbiy madaniyatini yuksaltirmoqda. Mashg'ulotlarda toblangan qizlar oila, jamiyat, Vatan oldidagi mas'uliyatini teran anglab, sog'lom va baxtli turmush qurmoqda.

Ko'plab qizlar professional sportchi bo'lib yetishib, mamlakatimiz, qit'a va jahon miqyosidagi musobaqalarda ulkan natijalarga erishmoqda. Xususan ko'plab qizlar sportdagi yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgani ayollar sportiga qaratilayotgan e'tibor namunasidir.

«Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturida bu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, ayollarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning salomatligini mustahkamlash bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilangan.

Hozirgi kunda yurtimizning barcha hududlarida turli sog'lomlashtirish aksiyalari, musobaqalar, turnirlar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish orqali jismoniy madaniyat va sport bilan shug'ullanishni xotin-qizlarning kundalik hayot tarziga aylantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Ayniqsa biz tadqiqotlarimiz davomida Jismoniy madaniyat fakulteti, xotin-qizlar organizmining glikolitik mexanizmini rivojlantirish uchun 400 metr masofaga yugurish jarayonida jismoniy yuklamani individual me'yorlashtirish texnologiyasi ishlab chiqildi:

1. Yugurish shiddati chegara tezligidan 90-95 %;
2. Mashg'ulot jarayonida qisqa yugurishlar 20 soniyadan 2 daqiqagacha davomiyligiga ko'ra tanlanadi;
3. Dam olish oralig'i glikolitik jarayonlarning dinamikasi bilan belgilanishi sababli, ishning yakuniga ko'ra asta-sekin intervallar davomiyligi qisqartiriladi (birinchi va ikkinchi yugurish oralig'ida 5-8 daqiqa, ikkinchi va uchinchi yugurish oralig'ida 3-4 daqiqa, uchinchi va to'rtinchi yugurish oralig'ida 2-3 daqiqa);
4. Dam olish oralig'ida passiv dam olishga qat'iy rioya etiladi.

Ushbu yuklamali mashqlar bilan endigina shug'ullanadigan talaba qizlar uchun har bir mashg'ulotda jami 2-3 seriyali yugurishlar hamda boshqa bir muncha kengroq ta'sir etadigan vositalar rejalashtirildi.

Jismoniy tarbiya sohasida o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar pedagogika yo'nalishida amaliy ahamiyatli va mohiyatan turlicha bo'lgan o'lchovlar bilan bog'liq bo'lib, faqat arifmetik amallar vositasida qanchalik haqqoniy natijalar olinganligini bilish mumkin [3,8].

Jismoniy yuklamadan oldingi va keyingi davrlarda qayd etilgan o'lchovli ma'lumotlar o'rtasida farqlanishlar haqqoniyliги studentning t - kriteriyasi bo'yicha aniqlandi.

Hisoblab chiqilgan farqlar o'rtacha xatoligi (t) va jadval bo'yicha topilgan sonlari, barcha nazorat bosqichlari (I-II-III) test va fiziometrik o'lchovlar bo'yicha alohida tartibda qiyoslanadi. Demak, bo'lganda haqqoniy, bo'lganda farqlanish tasodifiy deb hisoblanadi.

1 jadval

Talaba qizlar guruhida o'tkazilgan test va fiziometrik o'lchov parametrlari

Test va fiziometrik nazoratlar	\bar{X} n = 28			δ n = 28			$\bar{X} + m$ n = 28			t - student mezon, r = 0,05 bo'lganda		
	I	II	III	I	II	III	I	II	III	Hisoblangan I-II	Hisoblangan II-III	Jadvaldagi koeff.
400 metr ga yugurish (soniya)	-	106,2	99,8	-	5,44	4,96	-	1,03	0,95	-	4,14	2,05
Arterial qon bosimi, -sistolik	126,2	156,1	150,2	12,31	11,42	10,81	1,42	1,97	2,02	4,02	2,78	2,05
-diastolik (mm. simob ustuni)	74,1	82,4	81,2	3,57	3,21	3,02	1,50	1,99	2,12	4,44	2,32	2,05
Yurak qisqarish soni (zarb/daqiqqa)	72,4	113,4	104,2	3,00	2,72	2,80	1,32	1,48	1,41	3,00	2,55	2,05
O'pkaning tiriklik sig'imi (ml)	272,7	306,0	314,0	324,8	371,2	380,5	28,19	31,12	32,00	3,23	2,10	2,05
Nafas olish soni, (daqiqqa/marta)	17,8	30,4	27,2	2,94	2,11	2,10	0,77	0,62	0,58	7,22	6,04	2,05

O'tkazilgan tadqiqot natijalarini statistik tekshirish orqali talaba qizlar guruhida uch oylik maxsus rejalashtirilgan mashg'ulotlardan keyin 5 semestrda tekshirilgan barcha funksional parametrlar (400 m., qon bosimi, nafas olish chastotasi, o'pkaning tiriklik sig'imi) larining haqqoniy rivojlanishi tajriba asosida aniqlandi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Tajribaviy olingan qiymatlarning statistik haqqoniyliqi,

qo'llanilgan mashg'ulot texnologiyasining optimalligini asoslaydi. Ushbu texnologiya nafaqat yengil atletikada, balki boshqa sport turlari bo'yicha talabalarning maxsus chidamlilik (anaerob imkoniyatlarini) darajasini oshirishi mumkin. Shunga o'xshash boshqa pedagogik hodisalarda mazkur sport turlariga xos vositalarni tanlab texnologik zanjirni ishlab chiqish lozim.

Ayollarning sport bilan muntazam shug'ullanishi natijasida ular organizmning tuzilishi va funksiyasida ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelgani kuzatilgan. Jismoniy mashqlarni to'g'ri qo'llash, ularning hajmini to'g'ri belgilashda kuch, chidamlilik, harakat uyg'unligi takomillashadi. Gavda tarkibida yog' to'qimasi kamayadi, muskullar boylamlar rivojlanadi, o'pkaning tiriklik sig'imi ortadi, nafas olish tezligi kamayadi, yurak urishi sekinlashadi, energiya sarfi kamayadi, organizmning turli kasalliklarga chidamliligi ortadi. Agarda yuklama oldingi holatidagicha qolaversa, o'zgartirilmasa uning ta'siriga organizm o'rganib koladi va rivojlantiruvchi effektini yo'qotadi. Qayd qilingan sababga ko'ra jismoniy yukni asta-sekinlik bilan oshirib borish zaruriy talab hisoblanadi. Yosh o'tgan sari, ayollarda, kim jismoniy mashqlar bilan shug'ullanmagan bo'lsa, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari yomonlashadi: vazn oshadi (Ketle indeksi 377 dan 450 gramm/sm ga ko'payadi), ko'krak qafasining harakat, o'pkalarning hayotiy hajmi mushklar hajmi kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 2-martdagi Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5953-sonli farmoni;
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'zDJTI, 2005.-300 b;
3. Ашмарин Б.А. Теория и методика исследований в физическом воспитании: Учебное пособия для студ.аспир. и препод. ин-тов физ. культуры. М.,фис, 1978. – 223 с.
4. Абдуллаев М.Ж. Ёш энгил атлетикачиларнинг машгулот самарадорлигини оширишда ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикасини такомиллаштириш. п.ф.ф.д.(PhD) диссер... автореферати ,Т.: 2019, 72 бет.
5. Абдуллаев М.Ж. Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир энгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси // “Фан-спортга” илмий назарий журнал. – Тошкен, 2018, №2. 13-15 б. [13.00.00№16]
6. Абдуллаев М.Ж. О некоторых особенностях кинематики метания диска с места // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 7-10.
7. Абдуллаев М.Ж. Физкультурно-оздоровительные подходы в процессе физического воспитания студентов вузов // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 10-14.
8. Абдуллаев М.Ж. Swot-анализ в структуре информационных технологий физического воспитания // Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. Сб. науч. тр. VII Междунар. науч. - практ. конф., 2018, С. 14-18.
9. Абдуллаев М.Ж. Взаимосвязь физического и психического развития детей в процессе физического воспитания. // Журнал. Вестник интегративной психологии. Ярославл, 2018. №17. 10-13 б. [13.00.00№23].
10. Волков Л.В. Методические разработки по педагогическому контролю в физической подготовке школьников.-Киев,: МП Укр. 1979. 30 с.5. То'uchiboyev M.U. Sport biokimyosi.-Toshkent: Tafakkur-bo'stoni, 2012.-198 b;
- 11 Saidov V.M. Sport tibbiyoti.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.-479 b.
12. Семёнова Г.И., Городничева Н.Я. Развитие физических качеств: Учебно-методическое пособие. – Тобольск: ГПТИ им. Д.И. Менделеева, 2002. – 44 с.
13. Смирнов Ю.И., Полевшиков М.М. Спортивная метрология: Учеб.для студ. педвузов. – М.: Академия, 2000. – 232 с.
14. Салимов, Г.М., Холлиев, А.Э., Норбоева, У.Т., & Эргашева, О.А. (2015). Организация методов исследования через национальные подвижные игры. Молодой

MAGISTRATURA TALABALARINING KOMRETENTLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA VOSITALARI

Ganiyeva Gulrux Valijon qizi,
redagogika fanlari bo'yisha falsafa doktori RhD, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.016>

Annotatsiya. Maqolada magistr malakasini tashxislashning psixologik jihatlarini ko'rib shiqiladi. Magistrlar tomonidan uslubiy fikrlash asoslarini o'zlashtirishni ta'minlash keyingi ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatning muvaffaqiyati ushuncha zarur shartdir. Magistr malakasini tashxislash murakkab jarayon hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek, bu erda ham redagogik, ham psixologik tarkibiy qismlarni hisobga olish kerak. Shuning uchun hali ham universal, tayyor vositalar mavjud emas. Kompetensiyani o'lshashga urinishlar mavjud, ammo ular asosan BKMLarni (testlar, vazifalar, anketalar va boshqalar) o'lshashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: magistratura, kompetentlik, metod, ta'lim jarayoni, baholash mezonlari, zamonaviy usullari va vositalari.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ОЦЕНКИ КОМПЕТЕНЦИИ МАГИСТРАНТОВ

Ганиева Гулрух Валижон кизи,
PhD доктор философии по педагогическим наукам, Международная исламская
академия Узбекистана,

Аннотация: в статье рассмотрены психологические аспекты диагностики компетенции магистра. Обеспечение усвоения магистрами основ методологического мышления является необходимой предпосылкой для успешности последующей научно-исследовательской и практической деятельности. Диагностика компетентности магистра считается сложным процессом. Как мы видим, здесь необходимо учитывать как педагогические, так и психологические составляющие. Поэтому до сих пор нет универсальных, готовых инструментов. Есть попытки измерить компетентность, но в основном они направлены на измерение ЗУНов (тесты, задачи, вопросники и т.д.).

Ключевые слова: магистратура, базовая компетенция, компетентность, метод, модуль, образовательный процесс, оценка.

MODERN METHODS AND TOOLS FOR ASSESSING THE COMPETENCE OF MASTER STUDENTS

Ganieva Gulrukh Valijon kizi,
PhD Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, International Islamic Academy of
Uzbekistan

Abstract: the article deals with the psychological aspects of diagnostics of the master's competence. Ensuring the mastery of the basics of methodological thinking by masters is a necessary prerequisite for the success of subsequent research and practical activities. Diagnosing a master's competence is considered a complex process. As we can see, it is necessary to take into account both pedagogical and psychological components. Therefore, there are still no universal, ready-made tools. There are attempts to measure competence, but mainly they are aimed at measuring ZUN (tests, tasks, questionnaires, etc.).

Key words: magistrate, basic competence, competence, method, module, educational process, assessment.

Kirish. Jahon ta'lim muassasalarida kompetentlikka bog'liq yondashuv asosida magistratura mutaxassisligi talabasining bilim, ko'nikmalari, ta'lim faoliyati hamda zaruriy kasbiy shaxsiy sifatlarini baholashning 5 baholi, 100 ballik texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Bu esa o'z o'rnida bilimlarni baholashdan kompetensiyalarni baholashga o'tish bilan bog'liq

tadqiqotlarda “statik baholashdan rivojlanishga qaratilgan dinamik baholashga o‘tish, hamda, boshqa tomondan, magistratura mutaxassisligi talabasining ilmiy-ta’lim faoliyatlarini va kasbiy tajribasini baholash usullariga ehtiyoj darajasi magistratura ixtisosliklarida kasbiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirish” bo‘yicha amaliy ishlarni tizimli tatbiq etish bo‘yicha faoliyat olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gumanitar sohasi magistratura mutaxassisligi talabalarining kompetentligini baholash mezonlari va bosqishlarini aniqlashdan oldin kompetentlik(kompetensiya) tushunshasiga qisqasha to‘xtalib o‘tamiz.

Ilmiy-redagogik adabiyotlar tahlil qilinganda, shuni ko‘rish mumkinki, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunshalarini talqin qilishda ikki yondashuv mavjud bo‘lib: birinshisida ular bir ma’noni bildiradi, ikkinshisida - turli. Aksariyat hollarda kompetensiya va kompetentlik tushunshalari bir xil ma’noda ishlatiladi: kompetentlik(kompetensiya) ma’lum bir sohaga aloqador bo‘lmagan holda, bilimlarni kasbiy faoliyatda samarali qo‘llay olishi.

Bugungi kunda, kompetentlik (kompetensiya) tuzilmasi va mazmuni bo‘yicha ko‘rlab ilmiy ishlar bor bo‘lishiga qaramasdan, kompetentlik yondashuv bo‘yicha yagona va aniq fikrga kelinmagan. Ya’ni, kompetentlik(kompetensiya) tuzilishi, shakllanishi, baholash vositalari, rivojlantirish mexanizmlari kabi savollarga javoblar mavjud emas.

Ushbu muammo bo‘yicha xorijiy olimlar Dj. Raven, N.Xomskiy,

R.Uayt va boshq., MDH davlatlari olimlari V.I. Baydenko, I.A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, A.K. Markova, A.I. Sybbeto, Yu.G. Taty, A.V. Xytorskoy va boshq., hamda pedagog olimlarimiz R.X. Djuraev, A.X. Maxmudov, N.A. Muslimov, M.B. Urazova va boshqalarning ilmiy ishlarini keltirish mumkin.

Jumladan A.V.Xutorskoy kompetensiyalarni quyidagi guruhlariga bo‘lgan:

tayanch (barcha fanlar tarkibi uchun umumiy bo‘lgan metafanlarga asoslanadi);

umumfanlar doirasida (fanlarning to‘plami, ta’lim sohasi uchun integrasiyalashgan mazmun bo‘yicha amalga oshiriladi);

fan doirasida (alohida fanlar negizida shakllantiriladi).

I.A.Zimnyaya 10 ta tayanch kompetensiyalarni uchta katta guruhga birlashtiradi. Bundan tashqari kompetensiyalarni yana qator tasniflar mavjud, ammo ularning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning barchasi u yoki bu shaklda ikkita guruhni o‘z ichiga oladi: tayanch va maxsus (1-rasm). Tayanch kompetensiyalarning ta’rifi va mazmuni turlicha talqin qilinadi va turli elementlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Yevropa universitetlarning assotsatsiyasi taklif qilgan tayanch kompetensiyalarni tarkibiga instrumental, shaxslararo va tizimli kompetensiyalar kiradi. Rossiya olimlari tomonidan taklif qilingan tayanch kompetensiyalarni tarkibini: qadriyatli-semantik, umummadaniy, ta’limiy, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy mehnat va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari tashkil qiladi.

I.A.Zimnyaya va boshqa olimlar kompetensiyani o‘lchash o‘ta murakkab vazifa ekanligini e’tirof etishgan. Shakllangan kompetensiyani o‘lchash uchun, an’anaviy baholash vositalardan farqliroq baholash instrumentlarini, baholash o‘lchovlarini va mezonlarini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

1-rasm

Ta’lim jarayonining nazorat va baholash magistr shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, mas’uliyat, fidoyilik, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z-o‘zini tashkil qilish, o‘zini tuta bilish kabi professional sifatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi:

Magistratura ta’lim tizimida nazoratning ikkita asosiy turini ajratish mumkin: kognitiv va kompetentli.

Kognitiv nazorat o‘quv jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashda magistratura talabalarining ilmiy-kognitiv faoliyati samaradorligini aniqlashga qaratilgan va respublika oliy o‘quv yurtlarining o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladi.

Dissertasiyada asosiy e’tibor kompetentli nazoratga qaratilgan bo‘lsada kognitiv nazorat ta’lim sifatini ajralmas qismi bo‘lgan uchun unga xam to‘xtalib o‘tganmiz.

Kognitiv nazoratning asosiy maqsadi - magistratura talabalarining o‘quv jarayonida

bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha izchil va tizimli ishlarini faollashtirish va rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Buning uchun quyidagi metodologik mezonlarga bog'liq modul-kredit tizimi qo'llaniladi:

o'quv yili uchun ta'lim dasturining tuzilishi bir yoki bir nechta modullarni tashkil etgan ta'lim elementlaridan iborat bo'lib, oliy ta'lim muassasasi ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta'lim dasturi auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, ilmiy loyihalar, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lishi mumkin;

talabalarining ta'lim dasturini mukammal o'zlashtirishi, hamda talab etilgan malakaga ega bo'lishi mobaynida talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi orqali o'qitishning turli xil bosqichlarida belgilangan kreditlar oralig'ida yoki kreditlar miqdorida ifodalanishi mumkin.

o'quv jarayoni nazorat va o'quv tadbirlari majmuini o'zida mujassamlashtiradi. O'quv tadbirlarida hamma turdagi auditoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar va amaliyotning tashkil qilinishi e'tiborga olinadi. Nazorat tadbirlari ta'lim oluvchi talabalarining o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholash e'tiborga olinadi;

ta'lim dasturining tuzilishi uning har bir ta'lim elementiga mos tushadigan ta'lim olish natijalari (kamida 6 ta ko'rsatkich)ni ko'rsatgan holda bir akademik o'quv yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta'lim dasturida kreditlarning miqdori o'quv yuklamasi asosida ko'rsatiladi;

kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25 — 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba ma'lum bir fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi magistraturada - 30% - 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi;

semestr davomida talabalar tomonidan to'planishi kerak bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Majburiy fanlar tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Tanlov fanlari tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilanadi. Magistratura talabalari shaxsiy ta'lim traektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

Magistratura mytaxassisliklarida magistr talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida magistratura talabasi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Magistratura talabasi o'zining shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

NATIJALAR

Magistratura talabalarining kompetensiyalari baholash yuqorida keltirilgan indikatorlar va quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir: boshlang'ich, oraliq va yakuniy.

Boshlang'ich diagnostika (BD) magistratura talabalarining bakalavriat yo'nalishida shakllangan kompetensiyalarni baholashga qaratilgan bo'lib bunda test, og'zaki yoki yozma ish vositalardan foydalanish mumkin.

Oraliq diagnostika (OD) magistratura talabalarining magistratura o'qish jarayonida shakllangan kompetensiyalarni baholashga qaratilgan bo'lib bunda test, vaziyatli topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Oraliq nazoratda magistratura talabalarining o'quv, tadqiqot, hamda ijodiy faoliyati davomida kompetensiya darajasini rivojlantirish kuchini aniqlashga imkon beradi.

Yakuniy diagnostikasi magistraturaning oxirgi bosqichida amalga oshiriladi. Bunda magistratura talabalarida o'qish davrida rivojlangan kompetensiyalarni baholashga qaratilgan. Bunda vaziyatli topshiriqlar qo'llaniladi.

Barcha turdagi kompetensiya nazoratini amalga oshirishning asosiy usuli - magistraturada o'qitishning har bir bosqichida olingan kompetensiyalarning darajasini diagnostika qilish

(aniqlash) hisoblanadi.

Pedagogik diagnostika mazmuni va ularni amalga oshirish vositalarining xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich kompetensiya nazorati boshlang'ich diagnostika yordamida amalga oshiriladi, bu jarayonda har bir talabaga boshlang'ich darajadagi vaziyatli masalalarni hal etish taklif etiladi. Ushbu vaziyatli masalalar magistratura talabalaridan tegishli mutaxassislik bo'yicha kasbiy-amaliy masalalarni hal etish bo'yicha bilim, ko'nikma, ko'nikma va tajriba talab qiladi. Shunday qilib, ilk tahlil talabalarining bakalavr darajasida olingan kasbiy va ilmiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tadqiqot va uslubiy bilimlar orqali integrasiyalashgan xarakteridagi professional amaliy vazifalarni hal qilish tajribalari va ko'nikmalarini aniqlashga imkon beradi. Vaziyatli vazifalarni yechish asosida muvaffaqiyatini baholash har bir magistr talaba uchun magistraturada o'qishni boshlashdan oldin ma'lum bir kompetensiyalarning rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Boshlang'ich diagnostika natijalari har bir magistr talabasi uchun o'quv dasturini individual ravishda shakllantirish imkonini beradi.

Oraliq diagnostikada har bir magistrant turli myrakkabdagi vaziyatli topshiriqlarni echish kerak. Ularni hal etish uchun 1-darajali vaziyatli topshiriqlar Magistr talabalardan bilim, ko'nikma va malaka integrasiyasini va ta'limning

1-mavzusida o'rganilgan barcha o'quv fanlari bo'yicha vazifalarni hal etishni talab qiladi. 2-darajali vaziyatli vazifalarni hal etish uchun magistrantdan bir nechta mavzuga tegishli bilim va ko'nikmalar "talab qilinadi". 3-darajali vaziyatli topshiriqlar ham integrativ xususiyatga ega, chunki ularni hal etish uchun magistrant modul davomida to'plangan integrativ bilim, ko'nikma, malaka va tajribalardan foydalanishlari kerak.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, vaziyatli topshiriqlarning murakkabligi har bir topshiriqdan topshiriqqa qarab oshadi. Natijada, 3-darajali vaziyatli topshiriqlarni muvaffaqiyatli hal etish magistraturada o'qish davomida rivojlangan kompetensiyalarni darajasini aniqlash imkonini beradi.

Yakuniy nazorat magistratura davomida olingan kompetensiyalarni darajasini aniqlash imkonini beradi. Bitiruvchilarning "Psixologiya" mutaxassisligiga oid uslubiy, kasbiy, ilmiy va ijtimoiy-huquqiy tayyorgarlikdan o'tganligini va o'z professional sohasidagi muhim va istiqbolli vazifalarni mukammal hal qilishga tayyorligini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Kompetensiyalarni rivojlanish darajasini miqdoriy baholash quyidagi qoidalarga asoslanadi: har bir magistrant vaziyatli topshiriqlar majmuasini hal etishda kompetensiyalarini namoyish etishidan iborat bo'lgan faollik yondashuvi qo'llaniladi;

har bir to'plamda vaziyatli topshiriqlar soni 3 ta vazifaga teng;

topshiriqlarni baholash uchun 100 balli reyting shkalasi qo'llaniladi;

vaziyatli topshiriqlar murakkabligi va qiyinchiliklari tuzilishi intellektual faoliyatning psixologik jihatlarini hisobga olgan holda shakllantirilladi;

agar vaziyatli vazifalarni hal etishda magistratura talabasi 60 balldan yuqori natijaga erishsa (O'zbekistonda umumiy qabul qilingan kredit-modulli tizimga muvofiq) ko'rsatiladigan kompetensiya darajasi me'yoriy hisoblanadi.

Vaziyatli vazifalar to'plami har xil darajadagi 3 ta topshiriqdan iborat. Har bir to'plamda (kirish, oraliq va yakuniy diagnostikasi uchun) yengil topshiriq mavjud bo'lib, uning yechimi magistrantga qiyinchilik tug'dirmasligi kerak. O'rtacha murakkablikdagi topshiriqlarning mavjudligi yechimni faollashtirishga yordam beradi va magistrantning taklif qilingan topshiriqlarni belgilangan vaqt ichida hal etishiga ishonchini oshiradi. Murakkab topshiriqlarni yechish sifati, har bir magistrantda kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasiga baho berish imkoni beradi.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki, funksional nuqtai nazardan, oraliq tahliliy ta'lim, tarbiya, hamda shakllanish vazifalarini bajaradi, bu esa o'z navbatida bunday tahlilning bo'lg'usi magistratura talabalarini kompetensiyali tayyorlashda zarurligi va muhimligini ta'kidlaydi. Muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida oraliq diagnostikani amalga oshirish integrasiya, individuallik, izchillik, asoslilik va amaliyotga qaratilganlikning didaktik tamoyillariga bog'liq vaziyatli

vazifalar majmuasini yaratishni talab qiladi.

Tashkiliy jihatdan oraliq diagnostikani o'tkazish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: tayyorgarlik, amalga oshirish bosqichi, natijalarni tahlil qilish va chora tadbirlarni ishlab chiqish.

Tayyorgarlik bosqichida vaziyatli vazifalarni ishlab chiqish va shakllantirish.

Amalga oshirish bosqichi har bir talaba tomonidan normativ vaqt (2,0 – 2,5 astronomik soat) davomida ularni hal etish uchun vaziyatli vazifalar to'plamini taqdim etishdan iborat.

Bo'lajak magistrning kompetentlik darajasini yakuniy baholash vaziyatli vazifalar majmuasini hal etish natijalari asosida kredit-modul tizimiga (60 balldan kam qoniqarsiz, 60-69 – qoniqarli, 70-89– o'rtacha va 90-100 ball yuqori) muvofiq amalga oshiriladi. Vaziyatli vazifalarni hal etishda 60 balldan kam to'plagan Magistr talabalar oraliq diagnostikadan o'tmagan deb hisoblanadi, ular uchun maslahatlar tashkil etiladi, shundan so'ng ularga oraliq diagnostikani qayta topshirishga ruxsat etiladi.

Foydalanilgan manbaalar:

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarori. 2017 yil 20 aprel.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori. 2018 yil 5 iyun.

Ganieva G.V. Kompetentlik yondashuv asosida magistratura talabalarining ta'lim natijalarini baholashning nazariy-metodik muammolari // TDRU ilmiy axborotlari. - T., 2022. – 8-son. – B. 468-474. (13.00.00№32)

Ganieva G.V. Gumanitar mutaxassislik magistratura talabalarining kompetentligini baholash mezonlari va bosqichlari // TDRU ilmiy axborotlari. - T., 2022. – 9-son. – B. 297-302. (13.00.00№32)

Ganiyeva G.V. Modern tools for control and evaluation of achievements of educational standards // Science and Innovation. International scientific journal volume issue 8. UIF-2022:8.2 ISSN: 2181-3337. R. 2298-2303.

Майоров, А.Н. Теория и практика создания тестов для системы образования: Как выбирать, создавать и использовать тесты для целей образования / А.Н. Майоров - М.: Народное образование, 2000. - 352 с.

Savrasova, A.I. Otsenka obrazovatelnykh rezultatov v usloviyax modernizatsii obrazovaniya. : ucheb.-metod. posobie / Feder. agentstvo po obrazovaniyu, Murm. gos. ped. un-t ; A. I. Savrasova. - Murmansk: MGPU, 2008. - 168 s.

YOSHLARDA SOG'LOM DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

*Hakimova Sarvinoz Sharifjon qizi,
Farg'ona davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti 3-kurs talabasi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.017>*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО МИРОВОГО ОТНОШЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

*Хакимова Сарвиноз Шарифжан кызы
Ферганский государственный университет Факультет педагогики и психологии
студент 3 курса*

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF FORMING A HEALTHY WORLD ATTITUDE IN YOUTH

*Khakimova Sarvinoz Sharifjan kizi
Fergana State University Faculty of Pedagogy and Psychology 3rd year student*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishda psixologik va pedagogik omillari, e'tiqodning yoshlarning tarbiyasidagi ahamiyati, dunyoqarashning shakllanish bosqichlari o'rganilgan. Yoshlarni sog'lom e'tiqodli qilib tarbiyalash borasida diniy bilimlarning ta'siri haqida tavsilotlar yoritilgan. Bundan tashqari talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari va shaxsning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi, shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyati, yoshlarni tarbiyalashda, ularni axloq-odobli, tartib-intizomli qilishda ilmiy dunyoqarashning ijtimoiy-psixologik ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar tarbiyasi, axloqiy me'yorlar, jamiyat, ilmiy dunyoqarash, shaxs kamoloti, xulq-atvor, aqliy tarbiya, pedagogik va axborot texnologiyalar, tafakkur, madaniyat, tasavvur, ma'naviy-axloqiy fazilat.

Abstract: This article deals with the formation of a healthy worldview in young people psychological and pedagogical factors, the importance of faith in the education of young people, the stages of formation of the worldview were studied. Explanations about the influence of religious knowledge on raising young people to have healthy beliefs are explained. In addition, the psychological mechanisms of forming a scientific worldview in students and the ability of a person to have a scientific worldview, the ability to think independently, the socio-psychological importance of a scientific worldview in educating young people, making them moral and disciplined, are highlighted.

Key words: Youth education, moral standards, society, scientific outlook, personality development, behavior, intellectual education, pedagogical and information technologies, thinking, culture, imagination, spiritual and moral virtue.

Аннотация: В данной статье речь идет о формировании здорового мировоззрения у молодежи изучены психолого-педагогические факторы, значение веры в воспитании молодежи, этапы формирования мировоззрения. Даются разъяснения о влиянии религиозных знаний на воспитание у молодежи здоровых убеждений. Кроме того, рассматриваются психологические механизмы формирования научного мировоззрения у студентов и способность человека иметь научное мировоззрение, способность мыслить самостоятельно, социально-психологическое значение научного мировоззрения в воспитании молодежи, воспитании ее нравственности и дисциплинированности, выделены.

Ключевые слова: образование молодежи, моральные нормы, общество, научное мировоззрение, развитие личности, поведение, интеллектуальное образование, педагогические и информационные технологии, мышление, культура, воображение,

духовно-нравственная добродетель.

Kirish. Yoshlar tarbiyasi hamma davr, har qanday jamiyat uchun eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bugungi globallashuv jarayonida insoniyat oldidagi eng muhim masalalaridan biri yoshlarning odob-axloqi va ularning ta'lim-tarbiyasi masalasidir. Mamlakat rivoji, yurt ravnaqi o'sha mamlakatning ertasi, kelajagi bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. Bugungi kunda prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart."- degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan. [1] Yoshlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'usi ilk bor oilada, yashab turgan mahallasida shakllanadi. Eng yaxshi tarbiya bu zukko va komil ota-ona tomonidan o'z farzandiga berilgan tarbiyadir. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla farovon bo'ladi. Ota-ona oldidagi eng mas'uliyatli vazifa bu- farzand tarbiyasidir[2]. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari oilada farzand tarbiyasi va umuman oilaning ijtimoiy rolini ochib beradi. Avloniy tarbiya jarayonida oilaning va jamoatchilikning o'rnini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarni tarkib toptirishda oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega. Bolaning shaxs sifatlariga to'xtalib, unda oilaning rolini ko'rsatar ekan, "Qush uyasida ko'rganini qiladur" deydi. Bolani ham yoshligidan boshlab yaxshilab tarbiya qilinsa, go'zal axloqli, odobli etib o'stirilsa, u bola o'ziga, ota-onasiga baxt-saodat keltiradi, jamiyatning eng foydali a'zosiga aylanadi. Inson uchun ilm va odobdan ortiq najot yo'lini ko'rsatuvchi omil bo'lmas kerak. Bu dunyo va oxiratning baxt-saodati va bandaning najot topish yo'li har ikkisini mukammal va yetarli darajada egallash bilan bog'liqligini to'g'ri anglab olmoq lozim. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiya uzluksiz jarayon. Bolaga tarbiyaning har bir turi har qachon olib borilishi kerak. Xo'sh "Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?", degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davrida o'ziga xos va mos milliy, diniy qadriyatlarga asoslangan xalqimizning tarbiya borasidagi azaliy an'analari "ommaviy madaniyat", mentalitetimizga yod g'oya va qarashlar ta'sirida asl mohiyatini yo'qotib borayotgani barchamizni tashvishga soladi. Ushbu jarayonga, ya'ni tarbiya masalasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor qaratmasak, ertaga kech bo'lishi, tuzatib bo'lmas darajadagi oqibatlar olib kelishi mumkin. Zero, tarbiya borasida taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim. Bu kabi mazmunli so'zlar mohiyati o'tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kim fanda ilgarilab, axloqda oqsasa, u oldinga emas ko'proq orqaga ketadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq va odob kani fazilatlar ijtimoiylashuvi uchun muhim o'rin tutsa, ilm olishi va dunyoni bilishi uchun esa dunyoqarshi ahamiyatlidir[1]. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlanlantirish, sog'lom dunyoqarsh va ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri deb qarashgan. Dunyoqarash dunyoni bilish orqaligina shakllanadigan juda murakkab dialektik jarayondir. Bilish dunyoning turli tomonlari haqidagi turli fanlar bergan ishlar orqali amalga oshadi. Shuning uchun ilmsiz kishilarda dunyo to'g'risida ilmiy dunyoqarash bo'lmaydi. Dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «olamni idrok etish» kabi tushunchalar bilan ma'nodoshdir.

Asosiy qism. Dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy tasavvurlarning yig'indisidan iboratdir. Dunyoqarash ayrim kishilarning, ijtimoiy guruhning, sinf yoki umuman jamiyatning faoliyati yo'nalishini va voqelikka munosabatini belgilaydi. Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilgach, insonning yoki guruhning tevarak atrofidagi ijtimoiy va tabiiy borliqqa bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Madomiki, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq (aql) yo'li bilan bo'lar ekan. Demak, kishi hayot to'g'risidagi, o'tmishdagi mutafakkirlarning dono fikrlariga va o'zi to'plagan shaxsiy hayot tajribasiga, bilimiga tayanmog'i kerak[3].

Shaxsning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi, ilmiy bilimlarni o'zlashtirib borishi katta

ahamiyat kasb etadi. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan inson tabiat, jamiyatda ro'y berayotgan voqea, hodisalar mohiyatini to'g'ri talqin eta oladi, hech qachon dalillar bilan isbotlanmagan voqilik hodisalarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi. Shuningdek, ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, zamonaviy sharoitda inson ongini boshqarish ilinjida yurgan turli oqimlar, mistik g'oyalarga berilmaydi, shaxsning hayotida, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning muayyan qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi va ularni tabiiy qabul qiladi. U o'zining va jamiyatda sodir bo'layotgan salbiy hodisalarni o'tkinchi sifatida qabul qiladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi.

Muhokama va natijalar. Ma'lumki, keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyat yuritishni muayyan rejalashtirilgan tartibga soluvchi yondashuv sifatida pedagogik texnologiya nazariyasidan foydalangan holdagi pedagogik faoliyat e'tirof etilmoqda.

Ta'lim va tarbiyani doimo birga bermoq zarur, chunki ular bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o'ta dolzarb masalasi bo'lib kelgani ayni haqiqat. Tarbiya haqida Imom G'azzoliyning «Ihyou ulumud din» kitobida bunday deyiladi: «Bola – ota-ona qo'lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo'laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, saodatli bo'ladi. Ota-onasi hamda odob, ta'lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo'ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo'ladi». Buyuk vatandoshimiz shayxurrais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo'lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang'ich ta'lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kasb-hunar va san'atga moyilligiga qarab, uni shunga yo'llaymiz. Yoshlarni chuqur bilimli, yuksak salohiyatli, mehnatsevar, halol va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash bugungi globallashuv hamda texnika asrida har doimgidanda dolzarblashib bormoqda. Dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan turli xunrezliklar, janjal-to'polonlar, terrorchilik harakatlari, qonli to'qnashuvlarning asosiy ishtirokchilari bu – yoshlar ekanligi shubhasiz. Achinarlisi, ularning aksariyati qilayotgan ishining maqsadini ham, ayanchli oqibatlarini ham anglab yetmayotganidadir. Shu o'rinda, kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarimizni boshi berk ko'chaga boshlayotganlar ularni o'z domiga qanday ilintirmoqda? degan o'rinli savol tug'iladi. Buning yo'li, ayni internet zamonida anchayin osonlashgan. Bugun yoshlarning o'rtasida turli saytlardan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaydigani yo'q, mubolag'a bo'lmaydi. Ularning ko'pchiligi sodda, g'o'r, hali hayotning baland-pastini ko'rib, oq-qorani tanib ulgurmagani, hoyu havaslarga o'chligi esa nopok niyatli kimsalar uchun ayni muddao bo'lmoqda. Mana shunday murakkab va tahlikali zamonda yoshlarni o'z holiga tashlab qo'yish, ularni begonalar qo'lga topshirish, ertamiz egalarining dushman quroliga aylanishiga shart-sharoit yaratish, deganidir[4].

Yoshlarni sog'lom e'tiqodli qilib tarbiyalash vazifasi hamma vaqt jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan va u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu borada to'plangan boy tajribaga murojaat qilishimiz shart. Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqlli, halol, tarbiyali inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi[5].

Ma'nan komil inson avvalo oilada, maktabda, mahallada tarbiyalanadi va shakllanadi. Bunda maktab yetakchi rol o'ynab, buning uchun ma'naviyatning asosini sog'lom e'tiqodning asosini tayanchini tashkil etadigan halollik, adolat, oriyat, nomus, vijdon, diyonat kabi asosiy tushunchalar haqida tizimli uzluksiz ilmiy ma'lumot olmog'i hamda ularni hayotda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma odatlarni tarkib toptirish shart. Bu kabi diniy ma'naviy tushunchalar sho'rolar davrida o'quvchi yoshlar tarbiyasida hisobga olinmaganligi oqibatida pedagogik tizimda salbiy voqealarni keltirib chiqardi. Buning oqibatida jamiyat hayotining barcha jabhalarida pasayish ro'y berdi.

Sog'lom e'tiqodni shakllantirishda avvalo, ilm o'rganish, ta'lim olishning muhimligi haqida Abdulla Avloniy batafsil to'xtalib o'tgan: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdur. Zeroki, ilm bizga savobni gunohdan, halolni

haromdan, tozani murdordan ayirib berur, ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh urug'iga, yor do'stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tomonda tursin, o'z ustiga lozim bo'lgan ibodat va toatni ham lozim qila olmas." Sog'lom e'tiqodni shakllantirishning nazariy masalalarini ko'rib chiqish asrlar davomida shakllangan islom dinida e'tiqod tarbiyasining mazmuniga maxsus to'xtalish zarurligini taqozo qiladi. Islom dini tarqala boshlagach, ijtimoiy-iqtisodiy va diniy faoliyatni qamrab oluvchi axloqiy qonunlar majmuasini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Buning uchun Qur'on va sunna asos qilib olindi, natijada musulmonlarning moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga solib turuvchi tarbiya tizimi vujudga keldi[6].

Sog'lom dunyoqarshni shakllantirishda, uning psixologik, falsafiy talqinlari muhim ahamiyatga ega. E'tiqod muayyan g'oya, dunyoqarashga his-hayajonli yondashuv ma'nosida iymonga yaqin turadi. Ammo e'tiqod tushunchasida faqat ijobiy jihatlarnigina ko'rish to'g'ri emas. Ijobiy va salbiy mazmunga ega e'tiqod shakllari o'rtasida yana bir ma'naviy-ruhiy hodisa - e'tiqodsizlikning ham mavjudligini e'tirof etish lozim. U.Djems o'zining "E'tiqodga bo'lgan iroda" asarida irodani e'tiqod bilan bog'liqligini tushuntirib beradi. Ko'pgina faylasuf va psixologlar inson e'tiqodining asosini – hissiyot tashkil etadi deb hisoblaydi. Faylasuf va psixolog G.Geffding bu haqida shunday yozadi: "Hissiyot – hamma dinlarni va diniy qarashlarning asl mohiyatini, xususiyatlarini tashkil etadi. Unga nisbatan hamma tasavvurlar bo'ysunadi va bog'liq bo'ladi".

Sog'lom dunyoqarash aslini olganda, axloqiy me'yor hamdir. Shuning uchun, sog'lom dunyoqarshni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik, psixologik xususiyatlari, shaxsning o'ziga xosligi kabi jixatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, har bir inson oldida farzandlarni sog'lom e'tiqodli, bilimli qilish va ularni ilmga va ilimli kishilarga muhabbat ruhida tarbiyalash mas'uliyati turadi[8]. Uni bajarish esa, farzanlari tarbiyasi uchun qayg'urgan har bir ota-ona uchun muhim hisoblanadi. Yoshlarda din haqida holis bilimlarning shakllantirilishi dinning mohiyati va jamiyat hayotidagi o'rni, vazifalari to'g'risidagi ilmiy-nazariy qarashlarini sog'lom e'tiqod shakllanishi uchun asos bo'la oladi. Yoshlarni sog'lom dunyoqarshli qilib tarbiyalash vazifasi hamma vaqt jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan va u har bir davrda zamon talablaridan kelib chiqib hal qilingan. Farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashni xohlar ekanmiz, bu borada to'plangan boy tajribaga murojaat qilishimiz shart. aqiqatan ham, hozirgi zamonda geosiyosiy kuchlar o'rtasidagi raqobat o'z cho'qqisiga chiqdi va yoshlar geosiyosiy ta'sir ob'ektiga aylanib bo'ldi. Shuning uchun yoshlar ongini o'zgartirishga qaratilgan harakatlarni har qadamda uchratish mumkin. Bu nima degani? Bugungi kunda internet tarmoqlaridagi axborot oqimlari orqali yoshlar ongini zamonaviylashtirish bahonasida ularni milliy ijtimoiy-madaniy va ma'naviy qadriyatlardan "ozod etish" maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Ya'ni oila, ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug', Vatan, vatanparvarlik, mehr, ezgulik kabi qadriyatlarimizning asosi bo'lgan tushunchalar sekin-asta, sezdirmasdan yo'qotilib, o'rniga globalizmning "hayotda faqat sen va dunyo bor" tushunchasi va bu bilan bog'liq qadriyatlarni singdirishga kuchli harakatlar bo'lmoqda. An'anaviy ommaviy axborot vositalari o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Jamoatchilik, shu jumladan, yoshlar fikrini televidenie, radio va gazetalar o'rnini egallayotgan internet shakllantirmoqda. Eng yomoni, bunday xurujlarning oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonish, hamma narsaga loqayd bo'lgan manqurt shaxsga aylanishida namoyon bo'ladi. Insoniyat paydo bo'libdiki, eng dolzarb, eng mashaqqatli va eng qiyin vazifa – yoshlar tarbiyasi masalasi bo'lib kelgan. Barcha alloma, mutafakkirlar, millatning ziyolilari jamiyat rivoji, mamlakat farovonligi, tinchligu xotirjamligini yoshlar tarbiyasi bilan bog'laganlar. Bu bejiz emas. Qayerda tarbiya masalasini ta'lim bilan, milliy qadriyat, an'analar, mentalitet bilan uzviy bog'liqlikda hal etishga harakat qilingan bo'lsa, o'sha joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'lgan. Yoshlar ta'lim – tarbiyasiga e'tiborsizlik qilingan joyda esa inqirozlar, milliy o'pirilishlar sodir bo'lavergan. Ba'zida o'ylanib qolasan, bu kabi vaziyatda nima qilish kerak[7]. Avvalo "Ta'lim tarbiyasiz, tarbiya ta'limsiz bo'lmaydi", degan qoidaga rioya etgan holda, nafaqat oliy ta'limda balki maktab, maktabgacha ta'lim muassasalarida, xususan oilalarda qadriyatlar ruhidagi targ'ibotlarni kuchaytirish kerak. Deylik yosh bolaga ertak, o'rta yoshdagi o'smirga hurmatni, yoshlarga esa qadriyatlarning ahamiyatini tushuntirish

orqali Vatanga daxldorlik tuygʻusini shakllantirish orqaligina sogʻlom dunyoqarashli yetuk insonni kamol toptirish mumkin.

Xulosa: Biz farzandlarimizga ta'lim va tarbiyali va sogʻlom dunyoqarashli qilib tarbiyalamoqchi ekanmiz, avvalo, ularga hayotni yaxshi tushuntirishimiz, vatanni sevishni oʻrgatishimiz, xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalashimiz lozim. Vatanga nisbatan boʻlgan mehri esa uni xalqqa yetadigan ziyonidan saqlab, koʻproq uning foydasiga xizmat qilishga undab turadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, oʻzining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Oʻzining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular oʻz ota-bobolariga, oʻz tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq boʻlib kamol topishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent: O'zbekiston-2016
2. Islom Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi" 5-jild Toshkent: O'zbekiston 1997,
3. Abdulla avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asari T. O'qituvchi. 18-19-betlar.
4. Курбонова, М. Ф. (2020). Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари. Халқ таълими.
5. Абдусаматова, Ш. С., & Бурханова, М. Б. (2020). Куп фарзандли ота-оналарининг оиладаги муносабатларининг хусусиятлари.
6. Тожибоева, Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. Science and World, 1(77), 32-33.
7. Pedagogika M.X. To'xtaxodjayeva Toshkent 2010 280 bet.
8. Umumiy psixologiya P.I.Ivanov, M.E.Zufarova Toshkent-2008 355-bet .
9. Psixologiya E.G'oziyev Toshkent-2008 240-betlar.
10. Ijtimoiy psixologiya V. Karimova Toshkent -2002 159-bet

TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZIGA RIOYA ETISH KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Hidayatov Shuxrat Sharipovich

Buxoro davlat pedagogika instituti jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.018>

Annotatsiya: Maqolada talabalarda sog‘lom turmush tarziga rioya etish ko‘nikmalarini takomillashtirish va sog‘lom-turmush tarziga tayyorgarligini ilmiy-nazariy jihatdan adabiy manbalari bo‘yicha tahlil qilindi. Jismoniy tarbiya darslarida va o‘quv-tarbiya jarayonida har xil sport to‘garaklar orqali talabalarning jismoniy tayyorgarligi aniqlandi hamda pedagogik jihatdan asoslandi. o‘

Kalit so‘zlar: Jamiyat, sog‘lom turmush tarzi, talaba, ko‘nikma, jamiyat, kamolot, ma‘naviyat.

ПОВЫШЕНИЕ НАВЫКОВ ВЕДЕНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ

Hidayatov Shuxrat Sharipovich

*Бухарский государственный педагогический институт доцент кафедры
физического
воспитания и спорта*

Аннотация: В статье научно и теоретически на основе литературных источников проанализировано совершенствование навыков студентов по ведению здорового образа жизни и подготовка к здоровому образу жизни. На занятиях по физическому воспитанию и в учебном процессе физическая подготовленность студентов определялась и педагогически обосновывалась посредством различных спортивных секций.

Ключевые слова: Общество, здоровый образ жизни, студент, умение, сообщество, зрелость, духовность.

BUKHARA STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE ASSOCIATE PROFESSOR OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS DEPARTMENT

Hidayatov Shukhrat Sharipovich

*Bukharsky gosudarstvennyy pedagogichesky Associate Professor of the Institute of
Physical Sciences education and sports*

Abstract: in the article, the improvement of students' skills to follow a healthy lifestyle and preparation for a healthy lifestyle was analyzed scientifically and theoretically according to literary sources. In physical education classes and in the educational process, the physical fitness of students was determined and pedagogically justified through various sports clubs.

Key words: society, healthy lifestyle, student, skill, community, maturity, spirituality.

Sog‘lom avlod tarbiyasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab davlatimiz olib borayotgan siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Sog‘lom avlod-nafaqat jismoniy baquvvat yoshlarni, shu bilan birga, chuqur bilimga ega, ma‘naviy barkamol, dunyodagi tengdoshlari bilan bellashishga, ularga xalqimizning iste‘dodi va salohiyatini namoyish etishga qodir bo‘lgan avlodlarni tarbiyalash demakdir. Hozirgi zamonda jamiyatning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy, ma‘naviy va jismoniy komolotga yetkazishdir.

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta‘minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida sport sohasini rivojlantirish

borasida islohotlarda o'z aksini topmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining mustaqil yo'ldan borishi xalq ta'limi sohasini rivojlantirish mexanizmi va strategik yo'nalishlarni belgilab beruvchi 2017-2021 yillarda harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'limida katta ahamiyatlar qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risidagi farmoni ijrosini ta'minlash hamda talaba yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishi tizimini takomillashtirish iste'dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalar zahirasi shakllantirish maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Bugungi davr boksimizda mamlakatimiz bokschilarining individual texnik-taktik harakatlarni eng yaxshi deb berishimiz mumkin. So'nggi o'tkazilgan chempionatlarida mamlakatimiz bokschilarining faol qatnashishiga, ularning kattagina mahoratidan dalolat beradi. Bir uchrashuvdagi jamoaning umumiy texnik-taktik harakatlarining samaradorlik ko'rsatgichi 92-95% ni tashkil etilish, boks mutaxassislari tomonidan o'rganilib, tahlil qilingan.

Bokshi tomonidan mashg'ulot davomida bajargan umumiy harakatlar soni, kuzatishlarda shuni kursatadiki, yuqori malakali bokschilarning individual TTX optimal miqdorlari 600-800 TTX to'g'ri kelgan. Lekin bu kursatkich kanday raqib bilan jang qilayotganiga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan kuchsizroq raqibga qarshi jang qilsa, bu kursatkich o'z-o'zidan oshishi aniq. Chunki, asosan bunday vaziyatda mashg'ulot tizimini o'z qo'lga oladi, katta tashabbusga erishish yuli bilan muomala qilish vaqti kupayadi va o'z-o'zidan ITTX miqdoriy kursatkichlari o'sishi tabiiy. Aksincha bo'lishi xam mumkin. Uziga nisbatan kuchli raqibga qarshi ringga tushishganda aksari xollarda tashabbus boy beriladi, raqib bilan shunchaki muomala qilish vaqti kamayadi va ITTX miqdoriy kursatkichlari pasayib ketishi mumkin va 400-500 ITTX tashkil qilish mumkin:

Boks ringida: himoyada va hujumda jamoa bo'lib harakat qilishda mashg'ulotchilarning samarali ishtirokini taqozo etadi. Mashg'ulot mobaynida zarba va himoya uchun raqib bilan qattiq va muhosasiz kurash vaziyatida texnik-taktik harakatlarni (TTX) yuqori tezlikda bajara olish va bu qobiliyatni mashg'ulot oxirigacha yo'qotmaslik zarur bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yetakchi bokschilar mashg'ulotida 850-900 TTX bajarilib, bu harakatlarning bajarishda samaradorlik koeffitsienti 0,75- 0,85 ga teng.

Ma'lumki, harakatlarning ko'lami va sifati bir qancha omillarga, shu jumladan, raqib malakasining darajasi, raqib taktikasi, boksning chempionatda egallab to'rgan o'rni va hokazolarga bog'liqdir.

Bu yerda shuni takidlash joizki, bokschilarda (himoya, hujum) mashg'ulotchilariga optimal samaradorlik koeffitsienti turlicha bo'ladi. Himoyadagi mashg'ulotlarni meyoriy samaradorlik koeffitsienti 0,85%ni tashkil etish kerak.

Himoyada bu kursatkich 0,75% dan 0,85 % gacha tashkil etishi mumkin. Hujumlarda esa 0,68 dan 0,75 gacha tashkil kilishi mumkin. Bu tafovutlarni qo'yidagicha tariflash mumkin. Himoyalarda ko'pgina TTX o'z yaqinida bajarishadi va raqib bu holatga nisbatan kamroq qarshilik kursatishadi aksincha hujumlarni raqibning yaqinidagi harakatlarni katta qarshilik bilan kutib olinishi va bemaol hujumlarga zarba berish bilan izohlaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аллексеев В.А. Спортивное право. - М.: 2007.
2. Аллексеев В.А. Международное спортивное право. - М.: 2008
3. Баубекова Г.Д., Халикова Г.Т. Образование: опыт, проблемы, перспективы. – Т.: 2002.
4. Филимонов В.И. Моделные характеристики физической подготовленности боксеров // Алманах «Бокс-99». - М: ТЕРРА СПОРТ, 2006. - С. 82-85.
5. Джераян Г.О. Совершенствование техники и тактики боксера.-М., “Физкультура и спорт”, 2002, 196 стр.
6. Никифоров Ю.Б., Викторов И.Б. Построение и планирование тренировки в боксе. М.: Физкультура и спорт, 1978, 224 с.
7. Фарфел В.С.,Бахмалиев Р.М. Бокс. Ежегодник, 2002, с. 17
8. Бокс: Сборник статей. Сост. Худадов Н.А. – М., “Физкультура и спорт”, 2000, 48с
- Ostonov J. S., Ibragimov M. M. Bokschi sportchilarda psixologik muhofazaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1534-1539.
- Saliyev S. A., Ibragimov M. M. WAYS TO DEVELOP BOXERS' PHYSICAL SKILLS // International Scientific and Current Research Conferences. – 2022. – С. 98-102.
- Sattorov A. E., Ibragimov M. Methods and tools for the formation of special skills in the process of conducting individual lessons for boxing coaches //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1302-1307.
- Ибрагимов М. БОКСДА ТАКТИК ҲАРАКАТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ: 10.53885/edinres. 2022.26. 82.028 Ибрагимов М. Бухоро давлат университет 2 босқич магистранти //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 90-92.
- Mironshoh I., Sardor S. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БОЛАЛАР ЎЎСИМЧИЛИК ТАДҚИҚОТЛАРИ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 349-356.
- IBRAGIMOV M. M. BOXING AS AN IMPORTANT MEANS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN STUDENTS //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – Т. 4. – №. 4. – С. 77-79.
- Ilxanovich X. R., Muxammadovich I. M. Methods of Training Young Boxers According to the System of Tasks //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 153-159.
- Mukhammadovich I. M. The Main Methodological Instructions for the Development of Speed-Strength Qualities of Boxers //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 550-554.
- Ibragimov M. M. EDUCATION OF THE PHYSICAL QUALITIES OF A BOXER // Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 1726-1733.
- Ilkhanovich K. R., Mukhammadovich I. M. Ways to Build Endurance in the Beginning Boxing Training Group //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 277-280.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MUHIM KOMMUNIKATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI QO‘LLASH

Ibragimova Zarinabonu Nizomjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi 2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.022>

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonparvarlik tamoyili asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi ya’ni bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari alohida yoritilgan va chet el olimlarning pedagogik qarashlari bayon qilingan. Kommunikativ, lingvistik va pragmatik kompetensiyaning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslangan. Bundan tashqari, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi kommunikativ mashqlar va ularning ahamiyati ochib berilgan.. Ularni tayyorlash ta’lim jarayonining asosiy vazifasi bo‘lib, pedagogning kasbiy va psixologik tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan muhim masalalar yoritilgan .

Tayanch so‘z va iboralar: ta’lim, tarbiya, pedagog, kommunikativ, kompetentlik, kompetensiya, muloqot, munosabat, madaniyat, yondashuv, ta’lim oluvchi, o‘zaro ta’sir, pragmatik kompetensiya, lingvistik kompetensiya, o‘qish, gapirish, yozish, tinglash, kommunikativ mashqlar.

APPLICATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCES IN THE DEVELOPMENT OF IMPORTANT COMMUNICATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS

Ibragimova Zarinabonu
Shahrisabz state pedagogical institute 2nd year master in the field
of theory and history of pedagogy In the development of important communicative
qualities of future teachers-the application of communicative competencies

Abstract: This article examines the development of communicative competence of future pedagogues in the process of professional-pedagogical training based on the principle of humanitarianism, that is, the methodical foundations of the formation of communicative competence of future pedagogues are separately covered, and the pedagogical views of foreign scientists are described. The interdependence of communicative, linguistic and pragmatic competence is scientifically based. In addition, communicative exercises that serve to form communicative competence in students and their importance are revealed. Their preparation is the main task of the educational process, and important issues aimed at the formation and development of communicative competence, which is an integral part of the professional and psychological training of the pedagogue. illuminated.

Key words: education, pedagogue, communicative, competence, communication, attitude, culture, approach, learner, interaction, pragmatic competence, linguistic competence, reading, speaking, writing, listening, communicative exercises.

ПРИМЕНЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В РАЗВИТИИ ВАЖНЫХ КОММУНИКАТИВНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Ибрагимова Заринабону Низомжоновна
Магистрант 2 курса по специальности «Теория и история педагогики»
Шахрисабзского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие коммуникативной компетентности будущих педагогов в процессе профессионально-педагогической подготовки на основе принципа гуманизма, то есть отдельно освещаются методические основы формирования коммуникативной компетентности будущих педагогов, а также педагогическая изложены взгляды зарубежных ученых. Взаимозависимость коммуникативной, языковой и прагматической компетентности научно обоснована. Кроме того, раскрыты коммуникативные упражнения, служащие формированию коммуникативной компетентности у студентов, их значение, их подготовка является основной задачей образовательного процесса, а также важные вопросы, направленные на формирование и развитие коммуникативной компетентности, которая является неотъемлемой частью учебного процесса. Профессионально-психологическая подготовка педагога.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагог, коммуникативность, компетентность, общение, отношение, культура, подход, учащийся, взаимодействие, прагматическая компетентность, лингвистическая компетентность, чтение, говорение, письмо, аудирование, коммуникативные упражнения

O'sib kelayotgan yosh avlodning yetuk inson bo'lib kamol topishida pedagoglarning o'rnini beqiyosdir. Hozirda dunyoning oldi mamlakatlar ta'lim tizimiga oid tajribasini o'rganish, milliy ta'lim tizimimizga mos bo'lgan jihatlarni amaliyotga tatbiq qilish bizdagi ta'lim tizimini jahon standartlari darajasiga olib chiqish uchun juda muhimdir. Biz uchun taniqli bo'lgan rus pedagogi S.Suxomlinskiy shunday deb aytgan "Yaxshi murabbiy bo'lgan taqdiridagina yaxshi pedagog bo'lish mumkin. Pedagogning butun pedagogik madaniyati, bilimi tarbiyaviy ishda kor qilmasa befoyda yukka aylanib qoladi." Pedagogning tajribali mutaxassis sifatidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yosh avlodni mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini egallashlariga, sifatli ta'lim olishlariga yordam berishi kerak, ammo bunday vaziyatda eng muhimi shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarni tayyorlashdagi muhim muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Bo'lajak pedagoglarni amaliy, metodik, psixologik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan boyib bormoqda. Shu uchun ham pedagoglarni tayyorlash ta'lim jarayonining muhim vazifasi bo'lajak pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblangan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak Bundan tashqari kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan anglashimiz mumkinki, til ta'limiga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Biz quyida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasining paydo bo'lish tarixi, mazmuni va pedagog olimlarning fikrlariga to'xtalamiz. "Kommunikativ kompetensiya" atamasi ilmiy adabiyotga D.Xayms tomonidan kiritilgan. O'tgan asrning 60-70-yillaridan boshlab tilni o'rganishga doir dastlabki kompetensiyalar kiritila boshlandi. Bunda D.Xayms tomonidan 1972-yilda "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi kiritiladi. Kompetensiya/kompetentlik kategoriyalarini tilni, ayniqsa, ikkinchi (ona tilidan tashqari) tilni o'rganish nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda, rahbarlikda, menejmentda professionallik va muloqotni o'rganishda foydalanila boshlandi.

Kommunikativ kompetensiya – ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bugungi kunga qadar "kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga bir qanqa chet el va mahalliy pedagoglar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Pus pedagogi

S.A.Gilmanova o‘zining ilmiy faoliyatida nolingvistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko‘plab ta‘riflarni keltirgan. Pedagogika fanlari nomzodi E.I.Litnevskaya “kommunikativ kompetensiya” atamasiga “nutq faoliyatining barcha turlarini hamda og‘zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma‘lum bir yosh uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko‘nikmalari va malakalarini egallash» deb ta‘rif beradi. M.R.Lvovning ta‘kidlashicha, “Kommunikativ kompetensiya – til (ona tili va ona tili bo‘lmagan), uning fonetik xususiyatlari, leksik va grammatik birliklari, stilistikasi, nutq madaniyati, ushbu til vositalariga ega bo‘lish va nutq faoliyati turlarini – nutqni bilishni bildiruvchi tushunchadir. U kommunikativ kompetensiyaga tabiiy nutq faoliyati natijasida va maxsus tayyorgarlik natijasida erishiladi – deb ta‘kidlaydi. Bir qancha pedagog va lingvistlar kommunikativ kompetensiyani bir qancha tarkibiy qismlarga ajratishgan. I.L.Beam kommunikativ kompetensiyani quyidagilarga ajratadi:

- 1) lingvistik;
- 2) nutqiy;
- 3) ijtimoiy-madaniy;
- 4) kompensatsiya kompetensiyasi.

M.Z. Biboletova chet tillarini o‘rganish nuqtayi nazaridan kommunikativ kompetensiyaning quyidagi tarkibiy qismlarini taklif qiladi:

- nutqiy kompetensiya
- nutq faoliyatining to‘rtta asosiy turi (gapirish, tinglash, o‘qish, yozish) bo‘yicha muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- til kompetensiyasi
- o‘quv dasturiga muvofiq yangi til vositalarini (fonetik, imlo, leksik, grammatik) o‘zlashtirish;
- o‘rganilayotgan tilning lingvistik hodisalari, fikrni ona va chet tillarida ifodalashning turli usullari haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish;
- ijtimoiy-madaniy / madaniyatlararo kompetensiya;
- kompensatorlik kompetensiyasi - axborotni qabul qilish va uzatishda til vositalarining yetishmasligi sharoitida vaziyatdan chiqish ko‘nikmalarini rivojlantirish (o‘quvchini murakkab holatda vaziyatdan oson chiqish kompetensiyasidir).

Psixologik nuqtayi nazardan kommunikativ kompetensiya, eng avvalo, shaxsning nutq faoliyatini uning samarali shakllarida muloqot holatiga adekvat (tenglashgan, mos, aynan bir, o‘xshash) tashkil eta olish qobiliyatidir. Ko‘pgina adabiyotlarni tahlil qilganimizda shunga amin bo‘ldikki, ko‘pgina xorijiy tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra kommunikativ kompetensiyani shakllantirish vazifasi chet tillarini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi deb qaraladi. Shunday pedagoglardan biri I.A.Zimnyayadir. U kommunikativ kompetensiyani “shaxsning muloqotda kommunikativ faoliyati subyektini o‘ynash qobiliyati” deb belgilaydi. Bizning fikrimizcha esa, kommunikativ kompetensiya – bu o‘quvchilarning o‘zgarar nutqini tushunishi, o‘zining og‘zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo‘lishi, nutq vaziyatiga mos bo‘lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi. Kommunikativ kompetensiya nafaqat chet tillarini, balki ona tilini o‘rganish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biridir. Fikrimiz dalili sifatida shuni aytishimiz mumkinki, “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta‘lim tizimlarida ona tili fanining uzviyligini ta‘minlash konsepsiyasi”da ona tili fani orqali o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgarar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiya rivojlantirilishi ta‘kidlangan. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fikrlashga, o‘zgarar fikrini tushunishga, anglaganlarini tizimli ravishda og‘zaki hamda yozma shaklda qayta bayon qila olishga, boshqalarga aniq qilib yetkazib

bera olishga o'rgatish, ya'ni ularda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, mantiqiy, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'quvchilarning o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olishlari va ma'naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida o'sib ulg'ayishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish ona tili fanini yanada rivojlantirish maqsadlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar muloqot qilish natijasida dunyoni yanada kengroq anglab boradilar. O'quvchilarda kommunikativlik kompetensiyasini shakllantirishning yana bir muhim xususiyati shundaki, Milliy o'quv dasturiga ko'ra ona tilidan o'quvchilarda fanga oid lingvistik kompetensiyalarni tarkib toptirish lozimligi belgilangan. Lingvistik kompetensiya esa kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Shunday ekan, o'quvchilarning lingvistik malakalarini rivojlantirish kommunikativ kompetensiyaning shakllanishi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Lingvistik kompetentlikka ega bo'lgan o'quvchi pragmatik kompetensiyaga, ya'ni turli xil nutq vaziyatlaridan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kommunikativ kompetensiyaning zarur darajasi o'qitish bosqichi va maqsadi bilan belgilanadi. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta'limning har bir bosqichida alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning yoshi ulg'aygan sari ularning kompetentligiga qo'yilgan talab ham ortib boraveradi. Bundan tashqari dars jarayonidagi tillararo integratsiya kommunikativ kompetensiyani, ya'ni ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda xorijiy tilda muloqotga kirisha olish layoqatini yanada rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda bir qancha muammolar mavjud bo'lib, ularni hal qilmay turib natijaga erishish qiyin. Ular quyidagilar:

- o'quvchilardagi qo'rquv hissi. Qo'rquv hissi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ko'rsatishga halaqit beradi. Ichki qo'rquvga ega bo'lgan o'quvchilarni doimo "xato qilib qo'ysamchi?", "mening fikrim xato bo'lsachi?" kabi savollar qiynaydi.

- o'quvchining tortinchoqligi. Odatda, tortinchoq o'quvchilar muloqot jarayonida juda passiv bo'ladilar. Ularda tortinchoqlik bolalikda paydo bo'ladi. Agar bunday o'quvchilarda muloqotchanlik ko'nikmasi to'g'ri shakllantirilmasa, ularda tortinchoqlik uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

- o'quvchining darsdagi nafaolligi;

- o'quvchilarning o'z shevasida gapirishi.

Kommunikativ mashqlar nutq malakalarini shakllantirish va til bo'yicha amaliy bilimlarning eng yuqori darajasini ta'minlaydigan ijodiy mashq turi. hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun foydali bo'lgan yagona mashqlar kommunikativ mashqlar va xususan, ijodiy xarakterdagi kommunikativ mashqlardir.

Kommunikativ mashqlar ba'zi talablarga javob berishi kerak.

- mashqlar aniq nutq vaziyatini, tabiatda sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalashi kerak;

- mashq sharti tushunarli, topshiriq aniq bo'lishi kerak;

- mashqlar o'quvchilarni tezda charchatmasligi va davomiyligi 3-5 daqiqadan oshmasligi kerak.

Kommunikativ mashqlarni bir nechta turlarga bo'lish mumkin:

1. Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (matnni qayta so'zlab berish, matn yoki video ketma-ketlikni qayta aytib berish, aytilayotgan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, matnni davom ettirish va boshqalar).

2. Yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (berilgan tayanch so'zlar asosida matn tuzish, rasmlar asosida matn tuzish, aralash berilgan gaplardan matn tuzish va boshqalar).

3. O'quvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar (alohida so'z va so'z brikmalarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish, matnning ayrim qismlarini o'qishni mashq qilish, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, pedagogning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi uning kasbiy va shaxsiy xususiyati sifatida belgilanib, bu pedagogning pedagogik faoliyatini ta'lim

oluvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli insonparvarlik munosabatni shakllantirish asosida amalga oshirishga tayyorligida ifodalanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Milliy o'quv dasturlari. – Toshkent, 2021. -252 bet.
2. V.Suxomlinskiy. “Tarbiya haqida”. Toshkent.1977 yil.18-bet.
3. Азимова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
- 4.Eraliyeva D.O. Ta'limda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. Magistrlik dissertatsiyasi. – Namangan: 2019. -97 b.
5. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. –Челябинск, 2019. 147 с.
6. Пыркова Т.А. Формирование лингвистической компетенции студентов неязыкового вуза средствами театрализации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Екатеринбург, 2018. -166 с.
7. Юсупов А. Устные коммуникативные упражнения с использованием современных технологий в изучении иностранных языков. //O'zbekistonda xorijiy tillar ilmiy metodik electron jurnal. №2/2017.
- 8.A.R.Soxibov .”Umumiy pedagogika”.Darslik. Qarshi.”Nasaf” 2023yil. 22,0b.t
- 9.A.R.Soxibov .”Umumiy pedagogika”.O'quv qo'llanma. Qarshi.”Nasaf” 2023yil. 22,0b.t
- 10.A.R.Soxibov .”Pedagogik fikrlar taraqqiyoti”. Darslik. Qarshi.”Nasaf” 2023yil. 22,0b.t

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING VERBAL-KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ismoilov Temurbek Islomovich,
Namangan Davlat Universiteti professor v.b.
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.023>

Annotatsiya: ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning rolini o'rganadi. Muallif ta'lim sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun aloqa ko'nikmalarini samarali o'qitishning ahamiyatini muhokama qiladi va bu jarayonda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni taklif qiladi. Maqolada virtual haqiqat, onlayn tillarni o'qitish platformalari va kompyuter tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan o'qitish usullari kabi innovatsion yondashuvlar misollari ko'rib chiqiladi. Muallif kelajakdagi o'qituvchilarda nutq va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nuqtai nazaridan ushbu texnologiyalarning afzalliklarini tahlil qiladi va ularni o'quv jarayonida samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi. Ushbu maqola o'qituvchilar, tadqiqotchilar va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlariga qiziqqan ta'lim mutaxassisleri uchun foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, nutq va aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilar, ta'lim texnologiyalari, ta'limni raqamlashtirish, interaktiv ta'lim, virtual haqiqat, multimedia vositalari, elektron o'quv platformalari, aloqa strategiyalari, o'quv jarayonining samaradorligi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВО-КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Исмоилов Темурбек Исмолович,
и.о профессор Наманганского государственного университета

Аннотация: Данная статья исследует роль инновационных технологий в развитии речево-коммуникативных навыков у будущих учителей. Автор обсуждают значимость эффективного обучения коммуникационным навыкам для успешной карьеры в образовании и предлагают использование современных технологий в этом процессе. В статье рассматриваются примеры инновационных подходов, таких как виртуальная реальность, онлайн-платформы для обучения языкам и методы компьютерно-поддержанного обучения. Автор анализируют преимущества данных технологий в контексте развития речевой и коммуникативной компетенции у будущих учителей и предлагают рекомендации по их эффективному применению в учебном процессе. Эта статья будет полезна для преподавателей, исследователей и специалистов в области образования, интересующихся современными подходами к развитию профессиональных навыков будущих педагогов.

Ключевые слова: инновационные технологии, развитие речево-коммуникативных навыков, будущие учителя, образовательные технологии, цифровизация образования, интерактивное обучение, виртуальная реальность, мультимедийные инструменты, электронные платформы обучения, коммуникационные стратегии, эффективность образовательного процесса.

THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH AND COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE TEACHERS

Ismoilov Temurbek Islomovich,
professor of Namangan state university

Abstract: This article explores the role of innovative technologies in the development of speech and communication skills of future teachers. The author discusses the importance of effective communication skills training for a successful career in education and suggests

the use of modern technologies in this process. The article discusses examples of innovative approaches such as virtual reality, online language learning platforms, and computer-assisted learning methods. The author analyzes the advantages of these technologies in the context of the development of speech and communicative competence among future teachers and offers recommendations on their effective application in the educational process. This article will be useful for teachers, researchers and educational professionals interested in modern approaches to the development of professional skills of future teachers.

Keywords: innovative technologies, development of speech and communication skills, future teachers, educational technologies, digitalization of education, interactive learning, virtual reality, multimedia tools, electronic learning platforms, communication strategies, effectiveness of the educational process.

Kirish. Zamonaviy ta'lim dunyosida o'qituvchining roli kengayib bormoqda, bu nafaqat bilimlarni uzatishni, balki o'quvchilarning keng ko'lamli ko'nikmalarini, shu jumladan nutq va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishni talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchilar samarali muloqot qilish, o'quvchilarini ilhomlantirish va rag'batlantirish qobiliyatiga ega bo'lib, bu vazifaga tayyor bo'lishlari ayniqsa muhimdir. Zamonaviy ta'limda texnologiya asosiy rol o'ynaydi, o'quv jarayonini boyitadi va uning mavjudligini yaxshilaydi[1]. Innovatsion texnologiyalar kelajakdagi o'qituvchilarning nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy ta'lim sharoitida ishlashga tayyorlash uchun keng vositalarni taklif etadi.

O'qitishda texnologiyadan foydalanishning eng samarali usullaridan biri bu virtual ta'lim platformalaridan foydalanishdir. Bunday platformalar bo'lajak o'qituvchilarga nutqiy vaziyatlarda mashq qilish, darslarni modellashtirish, virtual o'quvchilar bilan muloqot qilish va tajribali o'qituvchilardan fikr-mulohaza olish imkoniyatini beradi. Multimedia resurslari nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Video darsliklar, audio materiallar, interaktiv taqdimotlar bo'lajak o'qituvchilarga nafaqat nazariyani, balki og'zaki bo'lmagan signallar, intonatsiya va boshqalar kabi muloqotning amaliy jihatlarini ham o'rganishga imkon beradi[2]. Ushbu dasturlar o'qituvchilar sinfda duch keladigan turli vaziyatlarni taqlid qilishi mumkin, masalan, muloqot qilish, nizolarni hal qilish va ota-onalar bilan muloqot qilish. Sun'iy intellekt nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ham foydali vosita bo'lishi mumkin. Nutqni aniqlash va matnni tahlil qilish tizimlari o'qituvchilarga o'z mahoratini baholashga va takomillashtirish sohalarini aniqlashga yordam beradi.

Zamonaviy dunyoda, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'lim paradigmalaridagi o'zgarishlar fonida bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu ko'nikmalar o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki ular pedagogik ta'sir va talabalar bilan o'zaro munosabatlarning samaradorligini aniqlaydi[3]. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko'rib chiqiladi. Texnologiyalar haqida gapirishdan oldin o'qituvchining nutq va muloqot qobiliyatlari nimani anglatishini tushunish muhimdir. Bu nafaqat tinglovchilar oldida gapirish yoki materialni tushuntirish qobiliyati, balki tinglash, savollar berish, sinfda o'zaro tushunish va hurmat muhitini yaratish qobiliyatidir. Bundan tashqari, zamonaviy o'qituvchi o'quv jarayonida samarali foydalanish uchun turli xil texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Virtual sinflardan foydalanish bo'lajak o'qituvchilarga virtual auditoriya oldida mashg'ulotlar o'tkazish imkonini beradi, bu esa o'ziga ishonchni rivojlantirishga va notiqlik mahoratini oshirishga yordam beradi. Talabalar bilan muloqot qilish holatlarini taqlid qiladigan ixtisoslashtirilgan dasturlar va dasturlarni ishlab chiqish kelajakdagi o'qituvchilarga sinfni boshqarish, nostandart vaziyatlarga javob berish va hissiy nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Interfaol taqdimotlar, video darsliklar, audio materiallar o'quv jarayonida turli xil aloqa shakllariga hissa qo'shadi va kelajakdagi o'qituvchilarga yangi o'qitish usullarini o'rganishga yordam beradi[4]. Ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim platformalari orqali bo'lajak o'qituvchilar tajriba almashishlari, hamkasblari va mutaxassislaridan fikr-

mulo hazalar olishlari mumkin, bu ularning kasbiy rivojlanishi va muloqot qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.

O'qituvchilarning nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kuchli vosita bo'lsa-da, bir nechta qiyinchiliklarni ta'kidlash kerak. Masalan, barcha talabalarga texnologiyadan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek o'qituvchilarni ushbu vositalardan foydalanishga o'rgatish zarurati[5]. Biroq, ushbu qiyinchiliklarga qaramay, ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash istiqbollari juda katta. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarda nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida butun jamiyat rivojiga yordam beradi.

Nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish kelajakdagi o'qituvchilarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Texnologiyalar o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan hozirgi zamonda, o'qitishda innovatsion yondashuvlar zaruradir. O'qitishda eng yangi texnologiyalardan foydalanish kelajakdagi o'qituvchilarda nutq va aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan samarali va interaktiv usullarni yaratishga imkon beradi. Ushbu sohadagi asosiy vositalardan biri virtual sinflar va onlayn platformalardir. Ular o'qituvchilarga darslarni interaktiv tarzda o'tkazish, talabalarni munozara va munozaralarda faol ishtirok etishga jalb qilish imkoniyatini beradi[6]. Video, audio va interaktiv taqdimotlar kabi multimedia materiallaridan foydalanish imkoniyati bilan talabalar o'rganilayotgan material haqida to'liqroq tushunchaga ega bo'ladilar va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Yana bir innovatsion yondashuv-bu o'rganishda virtual va kengaytirilgan haqiqatdan foydalanish. Ushbu texnologiyalar immersiv ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi, bu erda talabalar virtual ob'ektlar va stsenariylar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari mumkin. Masalan, ular virtual sinflarda darslar o'tkazishlari mumkin, bu erda turli xil ta'lim holatlari taqlid qilinadi, bu ularga moslashish va samarali muloqot qilish qobiliyatini talab qiladi. Innovatsion texnologiyalarning yana bir misoli-bu nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan onlayn o'yinlar. Bunday o'yinlar talabalarga chet tillarida muloqot qilish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va turli vaziyatlarda muloqot ko'nikmalarini oshirish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn forumlardan foydalanish nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Munozaralarda qatnashish, postlar va sharhlar yozish talabalarga argumentatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga, o'z fikrlarini aniq va asosli ifoda etishga va jamiyatning boshqa a'zolari bilan o'zaro aloqada bo'lishga yordam beradi[7]. Shunday qilib, o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kelajakdagi o'qituvchilarning nutq va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat o'quv jarayonini yanada qiziqarli va qiziqarli qiladi, balki talabalarga ta'lim sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun zarur malakalarni egallashga yordam beradi.

Virtual haqiqat faol va samarali o'rganishni rag'batlantiradigan immersiv ta'lim muhitini yaratish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Nutq va aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan VR turli xil kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilar virtual darslarga yoki dars berish, talabalar yoki ota-onalar bilan muloqot qilish va ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish bilan shug'ullanishlari mumkin bo'lgan vaziyatlarga shog'ishlari mumkin. Bu ularga amalda ishlashni boshlashdan oldin ham haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda tajriba va ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy multimedia texnologiyalari interaktiv o'quv materiallarini yaratish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Audio, video va grafik manbalar bilan bo'lajak o'qituvchilar ma'lumotni o'z o'quvchilari uchun yanada vizual va qulay tarzda taqdim etishlari mumkin. Ular taqdimotlar, videolar, audio yozuvlar va boshqa multimedia elementlaridan foydalangan holda darslar yaratishlari mumkin, bu nafaqat materialni yaxshiroq o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning turli xil ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar aloqa va ma'lumot almashish uchun ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Bo'lajak o'qituvchilar turli xil onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlardan ta'lim loyihalarini tashkil qilish, pedagogik masalalarni muhokama qilish, hamkasblar va talabalar bilan muloqot qilish uchun foydalanishlari mumkin. Bu ularga turli kontekstlarda va

tillarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarning o'qishi va taraqqiyoti to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish o'quv jarayonini har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga yanada samarali moslashtirishga imkon beradi. Innovatsion ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari bilan bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarning yutuqlarini, materialni o'zlashtirishdagi yutuqlarini kuzatishi va qo'shimcha e'tibor talab qiladigan sohalarni aniqlashi mumkin. Bu ularga o'z ishlarini yanada samarali rejalashtirish va o'qitish metodikasini muayyan guruhlar yoki individual o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarning nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish malakali o'qituvchilarni tayyorlashga samarali yondashuvdir. Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali o'qituvchilarni yuqori darajada o'qitish va ularga yangi avlodni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash uchun zarur vositalarni taqdim etish mumkin. Innovatsion texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarda nutq va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ulardan samarali foydalanish nafaqat texnik savodxonlikni, balki o'qitishning pedagogik tamoyillari va usullarini tushunishni ham talab qiladi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish zamonaviy o'qituvchini zamonaviy ta'lim muammolariga tayyorlashning asosiy elementiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati

Тихонова, Ксения Александровна. «Исследование вербально-коммуникативных навыков у детей с рас.» Образование 12: 169-174.

Рахманова, Елена Владимировна. «Формирование вербально-коммуникативных умений у слабослышащих младших школьников.» Редколлегия: кандидат педагогических наук, доцент, декан факультета специального образования БГПУ (2011): 206.

Рахманова, Е. В. «Роль вербально-коммуникативных умений в развитии коммуникативной компетенции лиц со слуховой депривацией.» ББК 81.2 Рус-923 Т 29: 44.

Юлдашева, Г. И., et al. «Опыт применения вербально-коммуникативных методов (стоматологического спектакля) для проведения первичной профилактики кариеса у детей младшего школьного возраста.» Стоматологическое здоровье детей в XXI веке. Евразийский конгресс. 2017.

Гаврик, Надежда Анатольевна, and Екатерина Равильевна Абдразакова. «Формирование вербально-коммуникативных умений у дошкольников в домашних условиях. Преемственность в работе ДОУ и школы.» Молодой ученый 4 (2019): 384-388.

Рахманова, Елена Владимировна. «Формирование вербально-коммуникативных умений у младших школьников с нарушением слуха.» (2008).

Рахманова, Е. В. «Теория и практика формирования вербально-коммуникативных умений у слабослышащих младших школьников.» Минск: Бестпринт (2009).

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INKORPORATSIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jo'rayeva Dilnoz Rahmidinovna,

Buxoro davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org.0009-0007-4008-2521>

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.024>

Annotatsiya: Mazkur maqola mohiyati texnologiya darslarini bir nechta fanlar bilan inkorporatsiya qilishga qaratilgan. Texnologiya fanini o'tish jarayonida o'qituvchi ta'lim, tarbiya beradi, o'quvchilarning qaysidir xususiyatini shakllantiradi. Aynan o'sha maqsadlarni amalda bajarish jarayonida bir nechta fanlarga murojaat qilinadi. O'zaro inkorporatsiya qilingan fanlar asosida o'quvchilarda axborot kompetentligi shakllanadi.

Kalit so'zlar: dars, texnologiya, inkorporatsiya, axborot, kompetensiya, boshlang'ich sinf, ta'lim, metodika.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНКОРПОРАЦИИ В ПОВЫШЕНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Жураева Дилноз Рахмидиновна,

Преподаватель кафедры начального образования Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: суть данной статьи заключается в интеграции уроков технологии с несколькими предметами. В процессе прохождения предмета технологии учитель дает образование, воспитание, формирует некий характер учащихся. Именно в процессе практического достижения этих целей обращаются к нескольким дисциплинам. На основе взаимно инкорпорированных предметов у учащихся формируется информационная компетентность.

Ключевые слова: урок, технология, инкорпорация, информация, компетенция, начальный класс, образование, методика.

THE ROLE OF USING NEGATION IN IMPROVING INFORMATION COMPETENCE IN STUDENTS IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES

Zhurayeva Dilnoz Rahmidinovna,

Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of primary education.

Abstract: the essence of this article is aimed at denigrating technology lessons with several disciplines. In the process of passing the subject of technology, the teacher provides education, upbringing, forms some characteristic of students. It is in the process of fulfilling those goals in practice that several disciplines are addressed. Information competence is formed in students on the basis of mutually rejected subjects.

Keywords: lesson, technology, negation, information, competence, primary class, education, methodology.

Kirish. Dunyo miqyosida ta'lim jarayoniga individual va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish, ularning didaktik asoslarini o'rganib, yangi usul, vositalarni ishlab chiqish metodikasini va metodologik asoslarini takomillashtirish, o'quvchilardagi ijodiy bilish faoliyatining reproduktiv va produktiv darajalarni modellashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijasida o'quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlash, atrofdagi voqe'likka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning moddiy-texnika bazasi yaratildi, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Intelektual salohiyatli o'quvchini

tarbiyalashda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratish bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism. Bugungi kunda yetarli bilimga ega bo'lgan, olgan bilimini amaliyotda qo'llay oladigan, har bir mavzuga mustaqil o'z fikrini bildira oladigan, yetarli axborot zaxirasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, o'quvchini mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi. O'qituvchi va o'quvchi birgalikda faoliyat yuritadi. Bugungi kunda o'quvchilar yetarli bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda uni amaliyotga qo'llay olishlari ham kerak.

Kompetensiya tushunchasi aynan shuni ifodalaydi. Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari deganda asosan zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. “Kompetentlik” – tushunchasi dastlab ta'lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo'lib, zamonaviy atama sifatida qo'llanilib kelinmoqda. “Competentia” lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjima qilinganda uning lug'aviy ma'nosi “yaxshi biladigan inson”, “tajribaga ega bo'lgan kishi” kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qo'l ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, raqobatdosh tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo'llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. U o'z ichiga nafaqat kognitiv tashkil etuvchini, balki qadriyatli yo'nalganlikning motivatsion, etik, ijtimoiy va axloqiy tizimlarini ham oladi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilar ko'p axborotlarni bilib oladilar va ko'p ma'lumotlarga ehtiyoj sezadilar. Buning oldini olish uchun o'quvchilarga yetarli axborotlar zaxirasi yetkazib berish kerak. Shu orqali o'quvchilarda axborot kompetentligi yaxshi rivojlanib boradi. Milliy dasturda tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarga axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi kiritilgan bo'lib uning mazmuni quyidagicha: fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborottelekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda bizga yangi tushunchalardan bo'lgan “inkorporatsiya” yordam beradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda umumta'lim fanlarining tarqoq holda o'rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda o'rgatilmasligi o'quvchilar bilimini to'la bo'lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to'sqinlik qilib, o'quvchilarda qiyinlik uyg'otadi. Olimlarimizning fikricha inkorporatsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Bunday tushuncha ta'lim tizimida inkorporatsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta'lim sistemasiga inkorporatsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Inkorporatsiya - bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori

ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayt etish kerakki, inkorporatsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Inkorporatsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Fanlararo bog'liqlik nazariyasini ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish, matematika, texnologiya darslari inkorporatsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Ayniqsa, texnologiya darslarida darsni inkorporatsiyasiz tashkil qilib bo'lmaydi. Chunki texnologiya darslarida boshlang'ich sinfda o'quvchilar ko'proq buyumlar yasaydilar, quradilar, loyihalar yaratadilar.

Fanlarni inkorporatsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
2. Fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.
3. Sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarining inkorporatsiya qilishning ahamiyati shundan iboratki, o'quvchiga bir dars orqali bir necha darsga doir ma'lumotlar beriladi. O'quvchida axborot zaxirasi oshadi, bilimi rivojlanadi, fikrlash jaroyoni tezlashadi. Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak inkorporatsiya qilishning naqadar kerakligini tushunamiz. 1-4-sinf texnologiya darsliklarida turli-tuman rang-barang kompozitsiyalar, buyumlar, o'yinchoqlar berilgan bo'lib, unda tabiat darslari bilan ham, matematika, rasm darslari bilan ham, boshqa barcha fanlar bilan bog'lanadigan masalalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, texnologiya darsligida baliqlar, qushlar, parrandalar va boshqa hayvonlarning shakllarini yasash juda ham ko'p uchraydi. Bu kompozitsiyalarni, o'yinchoqlarni yasashda o'qituvchi qush, baliq, hayvonlar haqida ma'lumot berib darsni tabiat fani bilan bog'lasa, shu hayvon yoki qush, baliqning rasmini chizishni o'quvchilarga vazifa berib darsni tasviriy san'at darsi bilan bog'lab o'quvchilarda bu jonivorlar haqida tasavvur hosil qiladi. Bundan tashqari, duradgorlik, tikuvchilik ishlari bilan bog'liq masalalar ham yetarlicha topiladi. Bu masalalarni tushuntirishda o'qituvchi matematika fanlari bilan inkorporatsiya qilibgina qolmasdan, o'quvchilarda kasbga muhabbatni ham shakllantirib boradi. Inkorporatsiya tushunchasi integratsiya kabi fanlarni bir-biriga bog'lash bilan bir qatorda, sohalarni ham bir-biriga bog'lashni anglatadi.

Muhokamalar va natijalar. Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarida bunday dars mashg'ulotlarni istagancha topish mumkin. Shuning uchun ham, asosan, texnologiya darslarida fanlarni inkorporatsiya qilish alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda zamonaviy pedagog har tomonlama bilimli, salohiyatli, o'z kasbining ustasi va, albatta, yartuvchan bo'lishi kerak. Aynan fanlarni inkorporatsiya qilish o'qituvchining yaratuvchanligi va bilim salohiyatiga bog'liqdir. Shu bois texnologiya darslarida har bir buyumni, o'yinchoqni, kompozitsiyani yasashda boshqa fanlar bilan bog'lash orqali o'quvchilarga yanada ko'p ma'lumot beriladi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf darsliklari yangi milliy dastur asosida yaratilgan. Boshlang'ich sinf texnologiya darslikdagi mavzulardan misollar keltiramiz. 3-sinf darsligidagi 20-darsda "Guldasta" mavzusida rangli qog'ozlardan guldasta yasash mavzusi berilgan. Bu mavzu orqali o'quvchilarni florist kasbiga qiziqish uyg'otish hamda shu kasbga yo'naltirish mumkin. Dars jarayonida tabiiy fanlar, matematika, rabotatexnika, geometriya, tarix, texnologiya, tasviriy san'at, chizmachilik fanlari bilan aloqadorlik hamda integratsiya qilib o'tiladi. 4-sinf darsligidagi 3-darsda "Parrandachilik fermasi" mavzusida o'quvchilar bilan qushlar uchun donxo'rak yasaladi. Bu mavzu orqali o'quvchilarni zootexnik, veterinar kasbga qiziqish uyg'otish hamda shu kasbga yo'naltirish mumkin. Dars jarayonida tabiiy fanlar, matematika, rabotatexnika, geometriya, tarix, texnologiya, tasviriy san'at, chizmachilik fanlari bilan aloqadorlik hamda integratsiya qilib o'tiladi. Quyidagi mavzuni boshqa fanlar bilan bog'lashda eng avval tabiat fani bilan bog'lanadi. Parrandalar haqida ma'lumot beriladi

va shakllari eslash orqali o'quvchilar geometriya fanini eslaydilar. So'ngra yasashdan oldin uning rasmi chiziladi va tasviriy san'at darsi bilan bog'lanadi, qog'ozni buklab shakllarni hosil qilish orqali texnologiya darsi bilan bo'g'lanadi. Bu orqali o'quvchilarda yangidan-yangi axborotlar shakllanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiya muhim ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi misollar asosida ko'rib o'tdik. Demak, har bir fanda o'rganiladigan kichik bir element o'quvchilardagi axborot xazinasini oshirishda katta ahamiyatga ega ekan. XXI asr axborot texnologiyalar asridir. Shu tufayli olamda tuganmas axborotlar manbai mavjuddir. Bu zaxira kundan-kunga oshib bormoqda. Shuning uchun ham yoshlarni tarbiyalashda XXI asrga mos avlodlarni shakllantirish pedagoglar oldidagi ulkan vazifadir.

Adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (texnologiya)
2. R.Ismoilova "Texnologiya" 1-sinf – Toshkent: Respublika markazi, 2023.
3. R.Ismoilova "Texnologiya" 2 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023
4. R.Ismoilova "Texnologiya" 3 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
5. R.Ismoilova "Texnologiya" 4 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
6. Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo'rayev "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" Buxoro-2020
7. Karimov I va boshq. Mehnat ta'limi darslarida fanlararo bog'lanishlar. T.:RTM, 2008.-37 b
8. Karimov I. Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyalari. -T.:2012
9. Raxmidinova, D. J. R. (2023). Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari. Conference, 12(12), 395-399.
13. Шоева, Ю. (2022). Общие принципы работы над задачами математики в младших классах. Science and Education, 3(9), 428-433.

**SAN'AT TARIXI USTO MO'MIN IJODI
(NIKOLAYEV ALEKSANDR VASILYEVICH 1897-1957 Y)**

*Jumayev Qoryog'di Jo'rayevich,
BuxDU dotsenti, San'atshunoslik fanlar nomzodi*

*Sulaymonova Muhiba Boltayevna,
BuxDU Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi o'qituvchisi
<https://orcid.org/0000-0003-3229-9134>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.025>*

Annatotsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston rangtasvir san'atining asoschilaridan biri, mohir rassom Aleksandr Vasilyevich Nikolayev (Usto Mo'min) ijodining muhim jihatlari, XX asr boshlaridagi murakkab ijodiy jarayon, o'zbek avangardining tasviriy san'atdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Usto Mo'min, avangrad, realizm, an'ana, mo'yqalam, musavvir, "Detgiz", badiiy studiya, miniatyura, personaj, obrazli ifoda, sokinlik, shukronalik, "Turkiston avangrad", Sharq ruhiyati.

**ИСТОРИЯ ИСКУССТВА РАБОТА УСТО МУМИНА
(НИКОЛАЕВ АЛЕКСАНДР ВАСИЛЬЕВИЧ 1897-1957)**

*Жумаев Қорёғди Жўраевич,
Бухарского государственного университета, Доцент, кандидат искусствоведения*

*Сулайманова Муҳиба Балтаевна,
Бухарского государственного университета Преподаватель кафедры
изобразительного и прикладного искусства*

Аннотация: В данной статье говорится о важных аспектах творчества одного из основоположников живописного искусства Узбекистана, мастера художника Александра Васильевича Николаева (Усто Мумина), сложном творческом процессе начала 20 века, роли и значении узбекского авангарда в изобразительном искусстве.

Ключевые слова: Усто Мумин, авангард, реализм, традиция, кисть, художник, «Детгиз», художественная мастерская, миниатюра, персонаж, образное выражение, тишина, благодарность, «Туркестанский авангард», восточный дух.

**HISTORY OF ART WORK BY USTO MOMIN
(NIKOLAEV ALEXANDER VASILIEVICH 1897-1957)**

*Qoryog'di Jumaev Jo'raevich,
Bukhara State University Associate Professor, Candidate of Art History*

*Muhiba Sulaymonova Boltaeyna,
Bukhara State University Lecturer, Department of Fine and Applied Arts*

Abstract: This article talks about important aspects of the work of one of the founders of the pictorial art of Uzbekistan, the master artist Alexander Vasilyevich Nikolaev (Usto Mumin), the complex creative process of the early 20th century, the role and significance of the Uzbek avant-garde in the fine arts.

Keywords: Master Mumin, avant-garde, realism, tradition, brush, artist, "Detgiz", art workshop, miniature, character, figurative expression, silence, gratitude, "Turkestan avant-garde", oriental spirit.

Kirish: Mohir rangtasvir va grafikachi rassom. Varonej (Rossiya)da tug'ilgan. Toshkentda vafot etgan. 1920 yildan O'zbekistonda yashagan. Varonejdagi Buchkurin (1916-1918y) Badiiy studiyasida o'qigan. Moskvada K. Malevichning ikkinchi Davlat ustaxonalari (1918-

1919y)da tahsil olgan. 1928-190 yillarida V.Lebedov rahbarligidagi Leningrad “Detgiz”ida ishlagan. 1938 yilda qatag’onga uchragan. 1941 yilda yana O‘zbekistonga qaytib kelgan va umrining oxirigacha shu yerda ijod qilgan.

“A.V. Nikolayev ijodi o‘zbek tasviriy san’ati tarixida alohida o‘ringa ega. O‘zbekistonni ikkinchi Vatani deb bilgan A.V.Nikolayevning dunyoqarashi Sharq o‘rta asrlar falsafasi bilan mutanosib keldi.” [1:88]

U musulmonchilikni qabul qildi va Usto Mo‘min taxallusini oldi. Rassom sharq san’atini, uning boy madaniy me’rosi an’alarini miniatyura, naqqoshlik va amaliy san’at sirlarini chuqur o‘rgangan. Usto Mo‘min ijodida Sharq, italyan Uyg‘onish davri va O‘rta asrlar Rus tasviriy san’ati (ikonolari) an’alari uyg‘unlashib ketgan.

1920 yilda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining yo‘llamasini bilan Moskvadan O‘zbekistonga bir gruppaga yosh rassomlar va me’morlar kelishgan. Ular orasida A.V.Nikolayev ham bor edi. U dastlabki besh yilda Samarqandda ishladi.

“Samarqandga kelishim bir necha yil davomida ijodimga katta ta’sir ko‘rsatdi. Meni Sharq o‘zining g‘aroyibotlari bilan hayratga soldi. Xalqning milliy urf-odatlarini maftun etdi, bezak naqsh san’ati bilan tong qoldirdi” [2:7] deb yozgan edi rassom.

Usto Mo‘min boshqa ba’zi rassomlarday Ko‘hna Sharqni, sharqona-afsonaviy, samoviy qilib tasvirlamadi. U O‘zbekiston tabiatini, xalq hayotini teran his etib, uning anvoyi go‘zalliklarini yorqin bo‘yoqlarda tasvirladi.

Rassom Sharqni o‘rganibgina qolmay, uni o‘ziga butunlay singdirib, o‘zini esa unga butunlay baxshida etdi.

Asosiy qism: O‘zbek rangtasvir san’atiga asos solgan taniqli mo‘yqalam sohiblari A.Volkov, M.Kurzin, Ye.Korovoy, O.Tatevosyan, P.Benkov, N.Karaxanlar tarixida muhim o‘rin tutadi. Qolaversa yuqorida nomlari keltirgan mohir rassomlar ichida A.V.Nikolayev o‘zbek xalqining urf-odatlarini, ananaviy san’atini, tabiatini mukammal o‘rganib, o‘zining ijodida o‘ziga xos uslubda ifoda eta olganligi bilan alohida hurmatga sazovordir.

U o‘z ijodida farahbaxshlik, aniqlik va musiqiylikni butun san’atga xos xususiyat deb hisoblaydi, dunyoni anglashi ham ravshanlashadi. Uning asarlarida zamonda davomiylik-zaminda cheksizlik o‘z ifodasini topgan. Bu esa, nozik sukunatning alohida holatidir. Usta Mo‘min asarlaridagi naqshlarning nozik nafisligiga nazar tashlar ekansiz, beixtiyor Uyg‘onish davrining buyuk rassomi Botticheli asarlarini, Eron va O‘rta Osiyo miniatyuralarini yodga solishini guvohi bo‘lasiz. Uning Sharq va G‘arbga murojati naqadar murakkab bo‘lsa, uning ijodidagi shartlilik va reallik ham shu qadar ilg‘ib bo‘lmas murakkabdir. Musavvir o‘z personajlari atrofida, piyola, choynak, Sharq gilamining bir chekkasini tasvirlashi bilan kartinada aks ettirilgan kishi bilan qo‘shilib ketgan eski hayotning muhitini tasvirlaydi.

“Usto Mo‘min butun ijod yo‘li davomida xayratlanish va obrazli ifodalarining o‘ziga xos jihatlari o‘rganishdan charchamagan. Xalq san’at asarlarining nafaqat shakliy-plastik jihatlari-rangdagi sipolik, kompozitsion tugallik, uslublarning ohangdorligi, shuningdek, ularga singdirilgan xalq hayoti va qadriyatlarini to‘g‘risida tasavvurlarni ham teran his qilgan. Natijada rassom Sharq va G‘arb san’atini umumlashtiruvchi, ammo ko‘proq Sharq madaniyatini ruhini aks ettiruvchi o‘ziga xos yo‘sinda to‘xtalgan.”[3:152]

Rassomning “Suv tashivchi bola”, “Dutor chalayotgan o‘zbek”, “Hayot yo‘li”, “Mo‘yna qalpoqli bola”, “Yosh o‘zbek yigiti portreti”, “Kuyov” va boshqa asarlari shukronalik, tugallanmaganlik, sokinlik kabi xususiyatlar bilan yaratilgan yetuk rangtasvir asarlari hisoblanadi.

XX asrning 20 yillarida O‘zbekistonda tasviriy san’at milliy maktabi shakllana boshladi. Bu davrda O‘zbekistonni ikkinchi vatani deb bilgan rossiyalik rassomlarning katta oqimi ko‘zga tashlanadi. Ularning aksariyati iste’dodli shaxs sifatida shakllangan edilar va o‘ziga xos o‘zbek rangtasviri, tasviriy san’atning qolgan turlari maktabining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Bu o‘n yillik “Turkiston avangradi”dek noyob yo‘nalishi vujudga kelishi bilan e’tiborga loyiq. Shu sababli ana shu rassomlar bu davrdagi ijodini umumlashtirib uni “O‘zbekiston avangard” san’ati deb nomlaydilar.

Ularning yirik vakillari A.Volkov, O.Tatevosyan, N.Karaxan, O.Tansiqboyev, A.Siddiqiy

va boshqalar safida A.Nikolayev (Usto Mo‘min) munosib o‘ringa ega. Ularning 1920 yillardagi ijodiy konsepsiyalari asosida an’anaviy she’riyatni teran tushunish, xalq san’ati va dastgohli rangtasvirning o‘zaro uyg‘unli va uni XX asrning ijodiy intilishlari bilan uyg‘unlashtirish mujassam bo‘lgan. Qaysidir jihatlar bilan jadidlar harakati bilan hamohang bo‘lganligini ko‘ramiz.

Usto Mo‘min butun ijod yo‘li davomida hayratlanish va obrazli ifodalarning o‘ziga xos jihatini o‘rganishdan charchamadi. Natijada uning o‘ziga xos noyob asarlari dunyoga keldi.

Hayotining ko‘p qismini O‘zbekistonda kechirgan buyuk musavvir o‘zidan katta meros qoldirdi. Unda nafaqat uslubiyat, balki Sharq ruhiyatining singib ketganini his etamiz. Musavvirning qoldirgan tasviriy san’at asarlari o‘zining g‘oyat jiddiy va qat’iyligi bilan alohida ajralib turadi.

Uning go‘zallikka havasi ulug‘vor va zamin bilan chambarchas bog‘langan.

U tabiatga nihoyatda sadoqatli bo‘lib qolgani holda, pokizalik, latofatli, mangu yoshlik va bahorning ideal obrazlarini yaratdi.

Usto Mo‘min rangtasvir asarlarini asosan tempera bilan chizgan, ammo moybo‘yq bilan oz, lekin juda sermazmun rasmlar chizgan. Bular uning “Eski maktab”, “Muzeyda”, “To‘qay”, “Xo‘ja Nasriddin bozorda” kabi kartinalari bo‘lib, bu asarlar rassom moybo‘yoq bilan rasm ishlash texnikasini mahorat bilan egallaganligini ko‘rsatadi.

Yuksak mahorat egasi, mo‘yqalam ustasi Usto Mo‘min xalqqa, o‘lkaga muhabbati, uning go‘zalliklarini chuqur idroq qilishi, obrazlar tiplarini yaxshi bilishi va xarakterlarni turlicha yuz-chehralarning aniq belgilari orqali aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Uning “Choyxonachi”, “Bedonaboz”, “Do‘stlik”, “Muhabbat abadiy” singari kartinalari shunday mahorat bilan ishlangan.

Xulosa: Usto Mo‘min ijodi ko‘pqirralidir. Devoriy rasmlarda ham, akvarelda ham, temperada ham, kitobiy san’at va kitob illyustratsiyasida ham, teatr bezaklari va polotnolari eskizlarida ham, rassomning dastxati sezilib turadi.

1930-1950 yillarda Usto Mo‘min A.Volkov, R.Kashina, O‘.Tansiqboyev, N.Karaxanlar qatori an’anaviy uslubga murojaat qilgan holda faqat avangard san’atining shartli uslubi tajribalarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki O‘rta Osiyo badiiy an’alarining uzilmas zanjirini davom ettirdilar. Ular ijodining avangarddan realizmga o‘tishi davomida, yetarlicha burilish davrini boshlaridan kechirdilar. Bu bir badiiy uslubdan ikkinchisiga shunchaki o‘tish bo‘libgina qolmay, aslida jamiyat, madaniyat, san’atdagi keskin meyoriy shakllarning qayta baholash bilan kechadigan murakkab jarayondir.

Ta’kidlash o‘rinliki, O‘zbekiston davlat san’at muzeyida Usto Mo‘min tavalludiga bag‘ishlangan ko‘rgazmaning ochilishida muzey fondida saqlanayotgan rassomning sara asarlari bilan birgalikda hali namoyishga qo‘yilmagan grafik asarlari ham ekspozitsiya asosini tashkil etadi. Rassomning O‘zbekiston tabiati, xalqiga bo‘lgan mehri tufayli Sharq an’alari va o‘zgacha ruhda yaratilgan 60 ga yaqin asarlari ko‘rgazmadan o‘rin egallagan.

O‘zbek tasviriy san’atining asoschilaridan biri Usto Mo‘minning yuksak badiiy qimmatga ega asarlari Respublikamizning markaziy muzeylari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi I.A.Savitskiy nomidagi davlat muzeyi va Rossiyaning yirik muzeylari to‘plamlaridan munosib o‘rin egallagan.

Yuksak iqtidor sohibi, betakror musavvir o‘zining noyob ijodi bilan O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan munosib o‘rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston madaniy merosi. Sharq xalqlari davlat muzeyi to‘plami. 1-tom. T.,2017.

O‘zbekiston madaniy merosi. Tretyakov davlat galeriyasi to‘plami 3-tom T.,2017.

O‘zbekiston madaniy merosi. I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston

Egamberdiyev A. (1989). Janravaya jivopis. T: O‘zbekiston nashriyoti.

Apuxtin O.K. (1965). Tasviriy san’at haqida suhbatlar. T: Fan nashriyoti.

Hakimov A.A. (2009). XX asr avangardi. T: Fan nashriyoti.

Yeremyan R.V. (2016). Usto Mo‘min (A.Nikolayev). T:

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM FAKULTETI 1-BOSQICH TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIK KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI

Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li
Buxoro davlat universiteti mustqil izlanuvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.026>

Annotatsiya: Yurtimizda bo'lajak harbiy mutaxasislarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, mamalakatimiz harbiy qudratini oshirish, yosh kursantlarning jismoniy sifatlari rivojlanganligini to'g'ri baholash va ular bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning samaradorligini oshirib borish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabalarining jismoniy tayyorgarlik darajalari ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha qabul qilingan pedagogik test natijalari va ularda jismoniy sifat ko'rsatkichlarining rivojlanish dinamikasiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy sifatlari, kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamkorlik, jismoniy tayyorgarlik, rivojlanish ko'rsatkichlari, Oliy harbiy ta'lim muassasalari, 400 metr ga yugurish, 10x10 m ga mokisimon yugurish.

ДИНАМИКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВНОСТИ СТУДЕНТОВ 1 КУРСА ФАКУЛЬТЕТА ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Жунайдуллаев Мэлс Аслиддин угли
Независимый соискатель Бухарского государственного университета

Аннотация: Улучшение физической подготовленности будущих военных специалистов в нашей стране, увеличение военной мощи нашей страны, правильная оценка развития физических качеств юных курсантов и повышение эффективности тренировок с ними остается одной из важнейших задач. В статье представлены результаты педагогического тестирования по определению показателей уровня физической подготовленности курсантов военно-воспитательного факультета 1 курса и данные о динамике развития физических качественных показателей.

Ключевые слова: Физические качества, сила, ловкость, гибкость, выносливость, физическая подготовка, показатели развития, Высшие военные учебные заведения, бег на 400 метров, челночный бег 10x10 м.

DYNAMICS OF PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF THE 1ST YEAR STUDENTS OF THE FACULTY OF MILITARY EDUCATION

Junaydullaev Mels
Independent researcher of Bukhara State University

Abstract: Improving the physical fitness of future military specialists in our country, increasing the military power of our country, correctly assessing the development of the physical qualities of young cadets and increasing the effectiveness of training with them remains one of the most important tasks. The article presents the results of pedagogical testing to determine indicators of the level of physical fitness of first-year students of the military educational faculty and data on the dynamics of the development of physical quality indicators.

Key words: Physical qualities, strength, agility, flexibility, endurance, physical fitness, development indicators, Higher military educational institutions, 400-meter run, 10x10 m shuttle run.

KIRISH: Hozirgi globallashtirish davrida barcha sohalar qatorida harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, mazkur tizimda zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zaruriyatga aylandi. Ayni vaqtda harbiy ta'lim tizimida milliy o'zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini

kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham davlatimizning doimiy e'tiborida. Qolaversa, mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish bo'yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Yurtimizda bo'lajak harbiy mutaxassislarni jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, mamalakatimiz harbiy qudratini oshirish bugungi kunda o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olib kelayotgan yosh kursantlarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini to'g'ri belgilash va ularning samarasini oshirib borish, rivojlanish hamda yuksalishning asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib kelmoqda[1,2,5]. Albatta bugungi kunda yurtimizda bo'lajak harbiy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash va ularni kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga a'lohida e'tibor va qulay imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakultetida tahsil olib kelayotgan 1-bosqich talabalarning amaliy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida o'tayotgan nazariy va amaliy darslari talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash, jismoniy sifat ko'rsatkichlarini o'sib borish siklogrammalarini shakillantirish imkoniyatini beradi. Jismoniy sifatlarning takomillashib borishi va rivojlanish darajalarini tekshirish maqsadida ko'plab olimlarimiz o'z taqqiqot ishlarini olib borishgan[2,3,4,5,7]. Ammo o'tkazildan tadqiqot ishlariga qaramay harbiy oliy ta'lim muassasalarida tahsil olib kelayotgan yosh talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajalarida sezilarli darajada yuksalish jarayonlari davomli bo'lmayotganligi aniqlandi. Bu esa yangi amaliyotlarning qo'llanilishi lozimligini anglatadi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining asosiy dolzarbligi Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta'lim fakultetida tahsil olib kelayotgan 1-bosqich talabalarning amaliy jismoniy tayyorgarlik darslarini tizimli tashkil etish masalalari, ulardagi funksional tayyorgarliklarini hisobga olgan holda kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlariga to'g'ri yo'naltirish zaruriyati borligi ahamiyatlidir. Jismoniy sifat ko'rsatkichlari jumladan kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamkorlik, egiluvchanlik kabi sifatlarning rivojlanish darajalarini aniqlash orqali kelgusida yuksak harbiy tayyorgarlik natijalarni qayd etish masalalari ko'zda tutilgan.

ISHNING MAQSADI harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olib kelayotgan 1-bosqich talabalarning jismoniy sifat darajalarini aniqlash va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash.

TADQIQOT METODLARI: Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, matematik statistik tahlil, anketa so'rovnomalari, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, psixologik nazorat.

NATIJALAR VA MUNOZARA: Ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi ko'plab omillar bilan ta'minlanadi, ular orasida jangovar tayyorgarlikning eng muhim predmetlaridan biri va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini jangovar takomillashtirish tizimining ajralmas qismi bo'lgan kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik alohida o'rin tutadi.

Harbiy xizmatchilarni jismoniy tarbiyalash asoslarini, jismoniy tarbiyani boshqarish mazmunini, jismoniy tayyorgarlikning tashkiliy asoslarini va jismoniy tayyorgarlikni ta'minlashda asosiy e'tibor nafaqat tarbiyaviy masalalarning mohiyatini chuqur tushunishga, balki harbiy ta'lim fakultetida jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni singdirish iborat jarayon bo'lib hisoblanadi.

Qo'shinlarning jismoniy tayyorgarligida harbiy xizmatchilarning jismoniy holatiga zamonaviy jangovar sharoitlarning doimiy o'zgarib turadigan talablari, tegishli mansabdor shaxslarning harbiy xizmatchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonini boshqarishdagi faoliyati va jismoniy mashqlarni bajarishning real imkoniyatlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar. Harbiy xizmat sharoitida shaxsiy tarkibni takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega [[4,5,7]].

Hozirgi vaqtda sport natijalarining jadal o'sishi mazkur sohada zamon talablariga javob beradigan o'quv-mashg'ulotlar tizimini optimallashtirishning zamonaviy vosita va usullarni izlab topish talabini qo'ymoqda.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti 1-boqich talabalarining jismoniy tayyorgarlik dinamikasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti talabalarining umumiy jismoniy tayyorgarligining rivojlanganligiga ko'ra quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Unga ko'ra 1-bosqich talabalarining Tezkorlik jismoniy sifati rivojlanganligini aniqlash uchun qabul qilingan 400 m. ga yugurish testi natijalari bo'yicha nazorat guruhining o'rtacha natijasi $2.15 \pm 5,54$ s. ni, tadqiqot guruhi esa $2.24 \pm 4,42$ s. ni tashkil qildi, mazkur 1-bosqich talabalarining tezlik sifati rivojlanishi qiyosiy solishtirilganda, ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi ($p > 0,05$) ga teng.

Bo'lajak harbiy talim mutaxassislarida chidamlilik jismoniy sifati rivojlanganligini aniqlash uchun o'tkazilgan 3 kilometr ga yugurish mashqida nazorat guruhining o'rtacha $14.1 \pm 4,24$ natijani qayd etgan bo'lsa $2.15 \pm 5,54$ s. ni, tadqiqot guruhi $14.6 \pm 2,15$ natijaga erishdi tashkil qildi, mazkur 1-bosqich talabalarining chidamlilik sifati rivojlanishi qiyosiy solishtirilganda, ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi ($p > 0,05$) ga teng.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabalarining chaqqonlik sifati rivojlanish dinamikasini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan pedagogik testlash natijalari quyidagicha bo'ldi.

Unga ko'ra 1-bosqich talabalarini 10×10 metr ga mokisimon yugurish (soniya) bo'yicha natijalari o'rtacha 14.3 ± 1.4 s. ni nazorat guruhi talabalarini qayd etgan bo'lsa, 14.1 ± 1.5 s. ni tadqiqot guruhi talabalarini qayd etgani aniqlandi. Ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi ($p > 0,05$) ga teng.

1-jadval

Buxoro davlat pedagogika instituti Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti talabalarining jismoniy

tayyorgarligi (1-bosqich)

№	Jismoniy tayyorgarlik testlari	NG (n=32)		TG (n=32)		Farqi %	t	P
		$\bar{Y} \pm \delta$	V %	$\bar{X} \pm \delta$	V %			
1	400 metr ga yugurish mashqi (Daq/son)	$2.15 \pm 5,54$	12.8	$2.24 \pm 4,42$	14.3	1,5	1,42	$> 0,05$
2	3 kilometr ga yugurish mashqi. (Daq/son)	$14.1 \pm 4,24$	25.1	$14.6 \pm 2,15$	17.3	8,2	1,93	$> 0,05$
3	10×10 m ga mokisimon yugurish (Kuper testi) (Soniya)	14.3 ± 1.4	21.5	14.1 ± 1.5	19.2	2,3	1,72	$> 0,05$
4	Turnikda tortilish (marta)	$12.4 \pm 4,2$	14.8	$13.8 \pm 5,1$	15.0	1,8	1,59	$> 0,05$
5	Kuch chidamliligini baholash (Kuper) testi: qo'llarni bukib yozish (marta)	$28.1 \pm 7,2$	17.3	$31.6 \pm 8,4$	15.0	2,3	1,82	$> 0,05$
6	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, m. (Santimetr)	$172.4 \pm 27,4$	18.4	$180.7 \pm 24,9$	15.3	3,1	1,62	$> 0,05$
7	Granata uloqtirish, m. Metr/ santimetr	$32.4 \pm 12,1$	27.3	$31.8 \pm 10,4$	21.3	6,0	1,88	$> 0,05$
8	Burslarda burchak bo'lib tayanish, (sek.)	$5.1 \pm 1,8$	16.1	$5.3 \pm 1,5$	15.4	1,3	1,84	$> 0,05$

Bo'lajak harbiy talim mutaxassisligi 1-bosqich talabalarining kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlari rivojlanganligini aniqlash uchun o'tkazilgan Turnikda tortilish pedagogik testlash natijalari mos ravishda o'rtacha nazorat guruhi talabalari $12.4 \pm 4,2$ tani, tadqiqot guruhi talabalari natijalari esa $13.8 \pm 5,1$ ta tashkil etdi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti 1-kurs talabalarining Kuch-chidamliligini baholash (Kuper) boyicha qabul qilingan qo'llarni bukib yozish testi nmatijalariga ko'ra nazorat guruhi talabalari $28.1 \pm 7,2$ ni, tadqiqot guruhi talabalari esa $31.6 \pm 8,4$ natijani qayd etdi.

1-kurs talabalarida portlovchi kuch jismoniy sifatining rivojlanganligini aniqlash uchun qabul qilingan Turgan joyidan uzunlikka sakrash testida nazorat guruhi talabalari 172.4 ± 27.4 ni, tadqiqot guruhi talabalari 180.7 ± 24.9 natijani qayd etdi.

Maxsus kuch jismoniy sifat ko'rsatkichlarini rivojlanganligini aniqlash uchun qabul qilingan granata uloqtirish testi natijalariga ko'ra nazorat guruhi talabalari $32.4 \pm 12,1$ m.ni, tadqiqot guruhi talabalari $31.8 \pm 10,4$ m.natijani qayd etdi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich talabalarining Burslarda burchak bo'lib tayanish testi bo'yicha nazorat guruhi talabalari 5.1 ± 1.8 natijani qayd etgan bo'lsa, tadqiqot guruhi talabalarining natijalari 5.3 ± 1.5 ni tashkil qilib, 1-bosqich talabalari orasidagi statistik farqlar ishonchliligi mos ravishda $p > 0,05$ ga teng bo'ldi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakultetida tahsil olib kelayotgan 1-bosqich talabalarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, rivojlanish darajalari, funksional holatlari, ularda kechayotgan psixologika jarayonlari yosh xususiyatlariga nisbatan sust darajada rivojlanib borayotganligi aniqlandi. Jismoniy sifat darajalarining pastligi mashg'ulot jarayonlarining noto'g'ri olib borilayotganidan dalolat beradi. Kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik dars mashg'ulotlari hamda sport to'garaklarida yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rgazmaliylik tamoyillari va qat'iy tizimlashtirilgan mashg'ulot usulublaridan foydalangan holda dars mashg'ulotlarining izchilligini saqlash, funksional jihatlarni hisobga olib mashqlarni bosqichma bosqich amalga oshirish, sport turlari elementlarini qo'llagan holda mashg'ulotlarni olib borish, shuningdek yangi innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanib mashg'ulot jarayonlarini tizimli joriy etish zaruriyati borligi aniqlandi.

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakultetlarida tahsil olib kelayotgan talaba yoshlarning kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini bosqichma bosqich jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari, jinsi, yoshi va psixologik holatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishning taminlanishi ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida asosiy vazifalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. д-ра. пед. наук. – Т., 2004. -22-26с.

Абдуллаев, М.Ж. (2018). Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир энгил атлетикачиларнинг жисмоний тайёргарлиги динамикаси. Фан-Спортга, (2), 13-15.

Abdullaev, M.J. (2020). Characteristicsages. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(11).

Abdullayev, M.J., Berdiyev, O.I., & Omonova, N. R. (2021). Methodology Of Organization Of» Physical Education And Sports» Lessons In Higher Educational Institutions. The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI, 3(02), 312-320.

Abdullaev M. J. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 8. – №. 11.

Abdullaev M. J. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 11.

Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Физическая культура: молодежь и современность // Теор. и практ. физ. культ, - Т., 1995.-2-7 б.

Богданова В.А. Дифференцированный подход в физкультурном образовании младших школьников. Автореф. дис. кан. пед. наук. Тюмень, 2001. - 22 с.

Губа В.П. Оценка физического развития детей по данным морфологических наблюдений // Теория и практика физической культуры, №3. – М., 1998. – С. 32-33.

Гужаловский А.А. Развитие двигательных качеств у школьников. – Минск: Нар. расцвета, 1978. – С. 88.

Лях В.И. Сенситивные периоды развития координационных способностей детей в школьном возрасте // Теория и практика физической культуры, -№ 3. – М., 1990. – С.15-17.

Tajibaev, S. S., Abdullaev, M. J., Niyazov, A. T., & YuNiyazova, O. (2020). This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(6), 2907-2914.

Усманходжаев Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Автореф. дис. д-ра пед. наук. – Т., 1995. – 42 с

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Kayumova Dilnoza Pathulla qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassisilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 13-00-08 maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi stajor tadqiqotchi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.027>

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga (maktabga) tayyorlashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: maktabgacha tarbiya, matematik tasavvur, maktabgacha yoshdagi bola, maktabgacha ta'lim tashkiloti

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Каюмова Дилноза Патулла кызы

Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций, 13-00-08 - стажер-исследователь специальности "Теории и методики дошкольного образования"

Аннотация: основной целью воспитания детей дошкольного возраста является воспитание подрастающего поколения как здоровой, всесторонне развитой личности на основе идеологии независимости и подготовка к школьному обучению. Основными задачами воспитания детей дошкольного возраста являются физическое, умственное и духовное развитие детей, подготовка их к систематическому обучению (школе) на основе национальных и общечеловеческих ценностей с учетом их врожденных способностей, интересов, потребностей и возможностей.

Ключевые слова: дошкольное образование, математическое воображение, дошкольник, дошкольная организация

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Kayumova Dilnoza Fatullaevna

Institute of Retraining and Advanced Training of directors and specialists of preschool educational organizations, specialty 13-00-08 theory and methodology of preschool education and upbringing intern researcher

Abstract: the main purpose of educating preschool children is to educate the younger generation as a healthy, comprehensively developed personality based on the ideology of independence and prepare for school. The main tasks of educating preschool children are the physical, mental and spiritual development of children, preparing them for systematic education (school) based on national and universal values, taking into account their innate abilities, interests, needs and opportunities.

Keywords: preschool education, mathematical imagination, preschooler, preschool organization

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi, maktabgacha yosh bolalarning ta'lim va tarbiya jarayoni tashkil etishda bir qancha me'yoriy huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'RQ 595-sonli Qonuni, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2019-yil

8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017-2021yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son Qarori va boshqa bir qancha tizimga oid hujjatlar asos bo‘la oladi. [1, 2,3]

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivojlanish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari” orqali nazorat qilinadi.

Davlat talablariga maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo‘lib, u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi.

Davlat talaba ko‘rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy sog‘lomligi, qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatlari, ya’ni bola shaxsining ustivorligidan kelib chiqilgan.

Ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlarida bolalarni jismoniy rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan.

Asosiy qism. Bolalarni jismoniy rivojlanishi. Bolalarni maktabga tayyorlashni belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri ularning jismoniy jihatdan rivojlanganlik darajasidir. Bolalar o‘z yoshlariga mos bo‘lgan harakatli, shu jumladan milliy o‘yinlar nomlarini, qoidalarini bilishi va ularda faol ishtirok eta olishi, yugurish va sakrash, yoshiga mos holda belgilangan me‘yorlarni bajarishi, chaqqon harakat qilish, chiniqtirish mashqlarini bajarish kabilarga o‘rgatish maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya mazmunining asosini tashkil etadi.

Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar.

Jismoniy rivojlanganlik darajasi:

- mustaqil holda jismoniy mashqlar bajara olish;
- buyruqqa (start) asoslanib yugurish;
- xoda ustida o‘tirib oldinga siljish;
- narvon yordamida tepaga chiqish va pastga tushish;
- 5 soniya davomida arqonga osilib turish;
- arg‘imchoq uchish;
- cheklangan sath va chiziq bo‘ylab yurish;
- qiya qo‘yilgan taxta ustidan yurib o‘tish;
- bir oyoqda “qaldirg‘och” bo‘lib turish;
- oyoq uchlari bilan buyumlarni qisib ko‘tarish, pastga tushirish va bir joydan boshqa joyga ko‘chirish;
- joyda turib 15-20 marta sakrash;
- 70 sm uzunlikka sakrash;
- 30 sm balandlikdagi to‘siqdan sakrab o‘tish;
- to‘xtamasdan 2-3 daqiqa davomida yugurish;
- 100 m masofani to‘xtamasdan yugurib o‘tish;
- 10 m masofani emaklab o‘tish;
- safda to‘g‘ri turish va safni buzmasdan yurish;
- saflanish va qayta saflana olish;
- musiqqa ohangiga mos holda harakat qilish;
- koptokni irg‘itish va ilib olish;
- ilon izi shaklida yurish;
- to‘p-to‘p bo‘lib, aylana bo‘ylab yurish;
- chiniqtirish mashqlarini bajarish;
- xalq o‘yinlari –“Kim chaqqon”, “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Avvalakam”, “Chittigul” kabi harakatli o‘yinlarda ishtirok eta olishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’limning tarkibi va mazmunini qayta kontsepsiyasi yangicha fikrlash,

o'zbek xalqining milliy an'analari, qadriyatlari, xalq ijodiyotining o'ziga xosligi, tilda o'z aksini topuvchi tafakkur xususiyatlari, xalq pedagogikasining ulkan tajribasi, milliy o'z-o'zini anglash masalasi alohida o'rin egallaydi.

“Maktabgacha tarbiya kontseptsiyasida” jismoniy tarbiya, gigiyena va salomatlikka alohida e'tibor berilgan.

Mehnat va ijodiy faoliyatga qodir, ijtimoiy vazifalarni to'laqonli bajaruvchi ham jismonan, ham ma'nan kishinigina sog'lom deyin mumkin.

Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalar jamoasida bo'lib, ta'lim va tarbiya dasturini egallaydi, xilma-xil o'yin, o'quv va mehnat faoliyatini amalga oshiradi. “Salomatlik” tushunchasining tarkibiy qismi bo'lgan jismoniy va ruhiy beshikastlik bolaning o'sish va rivojlanishining me'yorida ketishini nazarda tutadi.

Bolalarning gigiyenik va jismoniy sog'lomliklari ko'p jihatdan sog'liqni saqlash va xalq ta'limi tizimlarining hamkorlikdagi ishlariga bog'liq bo'ladi.

Bolalar jismoniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarni rivojlanish yosh xususiyatlarini o'rganishga yosh davrlariga katta e'tibor karatish lozim. Bolalarni yosh davrlariga bo'lishda bir qancha olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar. L.S. Vagotskiy, L.I. Bojovich, D.B. El'konin, A.A. Lyublinskaya, A.V. Petrovskiy o'zbek psixolog olimlaridan M. Vohidov, E. G'oziev, S.A. Axundjanova, M.Sh. Rasulova, R.I. Sunnatova va boshqalar yosh davrlarini turli yosh bosqichlariga yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shularga asoslangan holda yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- go'daklik davri–tug'ilgandan 1 yosh gacha;
- ilk bolalik davri – 1 yosh dan 3 yosh gacha;
- maktabgacha davr – 3 yosh dan 7 yosh gacha;
- kichik maktab yoshi davri – 7 yosh dan 11 yosh gacha;
- o'rta maktab yoshidagi bolalar –11 yoshdan 14 yoshgacha;
- katta maktab yoshidagi bolalar – 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Bolani ruhiy va jismoniy rivojlanishida go'daklikdan – maktabgacha bo'lgan davri eng muhim davr bo'lib hisoblanadi.

Bola hayotining dastlabki 7 yili barcha organ va tizimlarning intensiv rivojlanishi bilan harakterlanadi. Bola naslga xos biologik xususiyatlar, jumladan, asosiy asab jarayonlarining tipologik xususiyatlari (kuch, muvozanatlilik va harakatchanlik) bilan ham tug'iladi.

Biroq xususiyatlar farq jismoniy va ruhiy rivojlanishlarning asosini tashkil etadi, bola hayotining birinchi oylaridagi belgilovchi omil esa tashqi muhit va bola tarbiyasi hisoblanadi.

Shuning uchun bola hayotining ilk kunlaridan boshlab shunday shart-sharoit yaratish kerakki, bolaning tetik, ijobiy emotsional holati, jismoniy va ruhiy to'laqonli rivojlanishi ta'minlansin.

Bolalar bo'yining o'sishi va vaznining ortishi bilan bir vaqtda ko'krak qafasi aylanasi ham o'zgarishlar sodir bo'ladi, hayotining 4-yilida u 0,5-1 sm, 5-6 yoshda 2-2,5 sm ga ortadi. Ko'krak qafasi aylanasi kattaligi bolaning miqtiligiga, uning jismoniy rivojiga bog'liq bo'ladi.

Bola o'sar ekan, gavda proportsiyasi ham o'zgaradi. Masalan, hayotining 7-yilida oyoqlarining uzunliga yangi turilgan bolalarnikiga qaraganda uch hissadan, qo'llari - 21/2 xissadan ko'proq ortadi, tana esa 2 xissa uzayadi. Bu yoshda asosan bola organizmining suyaklar to'qimasi strukturasi shakllanishi tugaydi.

Umurtka pog'onasining bo'yin, ko'krak va bel bo'limlarida fiziologik kiyshaymalar paydo bo'lishi hayotining 1-yilidan boshlanadi va 6-7 yoshgacha davom etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning skeleti ma'lum darajada tog'ay to'qimalaridan iborat bo'ladi, shu sababli uning shakli noqulay ta'sirotlar (tananing noqulay vaziyatda bo'lishi, uzoq vaqt tik turish, o'tirish, o'rinning, mebelning noqulay bo'lishi) oqibatida osongina o'zgaradi. Ana shu xususiyatlar hisobga olinmasa va bola to'g'ri jismoniy tarbiya qilinmasa, uning qomatida o'zgarishlar paydo bo'ladi (bu qon aylanishi funktsiyasiga, nafasga yomoq ta'sir qiladi), suyaklar noto'g'ri o'sadi.

Hayotining 1-yilidan boshlab va maktabgacha tarbiya yoshidagi davr mobaynida oyoq, kafti gumbazi shakllanadi, uning to'g'ri shakllanishi uchun esa tegishli mashqlar qilish, faqat

poshnali poyabzal kiyish kerak. Maktabgacha tarbiya yoshida bo`g`imlarning bog`lam apparati ancha harakatchan bo`lib qoladi, bunga muskullar, bog`lamlar va paylarning kattalarnikiga qaraganda elastik bo`lishi sabab bo`ladi.

Maktabgacha ta`lim yoshidagi kichik bolalarda yozuvchi muskullar etarli rivojlanmagan va ancha nimjon bo`ladi, shu sababli bola ko`pincha noqulay vaziyatda turadi - boshini tushiradi, elkalarini qisadi, bukchayadi, ko`kragini ichiga tortadi, 5 yoshga borib muskulatura, xususan oyoqlar muskulaturasi ancha rivojlanadi. Muskullar baquvvat bo`lib qoladi, ularning mehnat qobiliyati ortadi.

Maktabgacha ta`lim yoshida bronx-o`pka apparati sifat jihatidan tez o`sadi va takomillashadi. Nafas tezligi minutiga 26-22 tagacha kamayadi, nafas olish, chuqurroq nafas chiqarish esa davomliroq bo`lib qoladi. Shu yoshdagi bolalarda qon aylanishi organlarida anchagina anatomik va funktsional o`zgarishlar paydo bo`ladi: yurak massasi ortadi, shu tufayli yurak qisqarishlari kuchi va yurak chidamliligi oshadi. Yurak qisqarishlari soni minutiga 85 dan 95 atrofida. Arterial bosim yosh katta bo`lishi bilan deyarli o`zgarmaydi: 3-4 yoshda 95/59 mm simob ustunida, 5-6 yoshda 95/58 mm simob ustunida, 7 yoshda 97/58 mm simob ustunida bo`ladi.

Maktabgacha ta`lim yoshida markaziy asab tizimi morfologik va funktsional jihatdan rivojlanishda davom etadi. Ikkinchi signal tizimi tez takomillashadi, uning yordamida so`zga shartli reflekslar paydo bo`ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda maktabgacha yosh bolalar tabiatdan tadqiqotchidirlar va bolalarda shartli reflekslar tez paydo bo`lishi bilan kattalardan ajralib turadilar, biroq bu reflekslar birdan mustaxkamlanmaydi va malakalar bolada dastlab barkaror bo`lmaydi, osonlik bilan yo`qoladi. Bosh miya po`stlog`ida qo`zg`alish va tormozlanish jarayonlari osonlik bilan tarqaladi, shu sababli bolalarning diqqati bekaror bo`lib turadi, javob reaksiyalari emotsional tabiatga ega bo`ladi va ular tez charchab qoladilar. Shu sababli, ma`lum harakat malakalari paydo bo`lishi uchun ta`sirotlarni tez-tez takrorlab turish kerak. Bolalarda harakatlarning rivojlanishiga ma`lum tartibda jismoniy mashqlar bilan shu g`ullanish yordam beradi. Bu yoshda yugurish, yurish, sakrash, narsa uloqtirish takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrda "Maktabgacha ta`lim va tarbiya to`g`risida" gi O`RQ 595-sonli Qonuni.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

8-maydagi "O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida" gi PQ-4312-son Qarori.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi PQ-2707-son Qarori.

"Ilk qadam" Davlat o`quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri.

"Tadqiqiy bilish va tajriba-tadqiqotchilik faoliyati" metodik qo`llanma. G.A. Omonova, G.G. Ismanova, M.P. Jumakova.

F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi». T., «Istiqlol», 2006.

Axmedjanov M.M., Xo`jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014

Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.

Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar / Ta`lim muassasalari o`qituvchi-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. - T.: «Iste`dod» jamg`armasi, 2008. - 180 b.

Sayfullaeva D. et al. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2647. – №. 1.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIK MUAMMO SIFATIDA

Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.028>

Maqolada kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti eng sodda aloqalardan murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy munosabatlarga tomon o'sib borish xususida fikr bayon etilgan. Agarda eng sodda aloqalar – ibtidoiy jamoa tuzumidagi urug' a'zolarining ko'p holatlarda bir-birlariga oziq-ovqat manbai, yuzaga kelayotgan xavf, harakatlarni tashkil etish yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni uzatishiga asoslangan bo'lsa, murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy munosabatlar – ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, sog'liqni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolik majburiyatlarini bajarish (masalan, soliq to'lash) jarayonida sub'ektlarning bir-birlari bilan kundalik hamda kasbiy faoliyatni tashkil etishda ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning to'g'ri, oqilona tashkil etilishi, birinchidan, hal qilinayotgan masalaning ijobiy yechimga ega bo'lishini, ikkinchidan, vaqtning tejalişini, uchinchidan, samimiy muloqot jarayonining yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: nutq o'stirish, matn ustida ishlash, og'zaki va yozma nutq, muloqot, so'z ma'nosi, nutq.

РАБОТА НАД ТЕКСТОМ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ КАК МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В статье излагается идея о том, что историческое развитие человеческого общества идет от простейших связей к сложным, многогранным общественным отношениям. Если простейшие связи – основаны на передаче членами клана в первобытнообщинном строе информации друг другу во многих случаях об источнике пищи, возникающей опасности, направлениях организации действий, то сложные, многогранные общественные отношения – о производстве, обслуживании, образовании, охране здоровья, обеспечении безопасности, выполнении гражданских обязанностей (например, налогообложение) проявляется в организации повседневной, а также профессиональной деятельности субъектов друг с другом в процессе налогообложения. Правильная, рациональная организация общественных отношений обеспечивает, во-первых, наличие положительного решения решаемого вопроса, во-вторых, экономию времени, в-третьих, появление процесса искреннего общения.

Ключевые слова: Развитие речи, работа над текстом, устная и письменная речь, общение, значение слова, речь.

WORKING ON THE TEXT IN READING LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL AS A METHODOLOGICAL PROBLEM

Kuchkarova Shakarjon Azimboy qizi

The article presents the idea that the historical development of human society goes from the simplest connections to complex, multifaceted social relations. If the simplest connections are based on the transfer of information by members of the clan in the primitive communal system to each other in many cases about the source of food, the emerging danger, the directions of organizing actions, then complex, multifaceted social relations – about production, maintenance, education, health, safety, performance of civil duties (for example, taxation) is manifested in the organization daily, as well as professional activities of subjects with each other in the process of taxation. The correct, rational organization of public relations ensures, firstly, the presence of a positive solution to the issue being solved, secondly, time savings, and thirdly, the emergence of a process of sincere communication.

Keywords: Speech development, work on text, oral and written speech, communication, word meaning, speech.

KIRISH. Har bir davlatning ta'lim sohasida bolalarda nutq o'stirish tizimining asosiy tarkibiy elementi sifatida e'tirof etilgan. O'zbekistonda ham uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlari – maktabgacha va boshlang'ich ta'lim davrida bolalarda nutqni o'stirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishi etib belgilangan. Global axborotlashuv va innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi, inson kapitalini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojning ortishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish, intellektual jihatdan rivojlantirish, bunda nutq imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Shaxs nutqini o'stirishda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlari boshlang'ich davr bo'lishi inobatga olinsa, ularning takomillashtirilishi, “boshlang'ich ta'lim mazmunini to'liq integrallashtirish, mazkur mazmunda ta'lim-tarbiya elementlari uyg'unligini ta'minlash” [1] ning naqadar dolzarb ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

METODLAR. Nutq faqat fikrni ifodalash, axborot almashish, til vositalaridan foydalanish jarayoni yoki uning hosilasi [2] gina emas, balki shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantiruvchi asos ham ekanligi psixologik va biologik nuqtai nazardan isbotlangan. Shu sababli yosh avlodda ilk bolalikdan nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

“Nutq”, “nutq o'stirish”, “matn ustida ishlash”, “matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish”, “boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish” kabilar tadqiqot muammosining muhim tayanch tushunchalaridir. Ularning mohiyatini yetarlicha anglash tadqiqotni olib borishda muammoning to'g'ri, oqilona yechimini topishga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Nazariy tahlil “nutq” tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko'rsatdi. Xususan, “Pedagogik ensiklopedik lug'at”da nutq “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo'lib, u fikrni ifodalash vositasi bo'lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi” [3], “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)” [3], deya e'tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq “odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki o'zaro aloqa o'rnatish yoki o'z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni” [4], deb ta'riflangan.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadi (u bog'lanishli nutq deb ataladi) [5];

2) og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi;

3) og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi;

4) shunga qaramay, og'zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so'z yuritiladi);

5) nutq muloqot chog'ida ishtirok etuvchilarning soniga ko'ra dialogik va monologik kabi turlarga bo'linadi;

6) dialog og'zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo'lib, ikki yoki bir necha shaxs o'rtasida kechadi;

7) og'zaki nutq, tabiatiga ko'ra, ko'proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmuni ifodalash uchun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko'ra bir qadar an'anaviylikka ega.

Nutq o'stirish ta'lim taraqqiyoti tarixida hamisha dolzarb masalalardan bo'lib kelgan. Jumladan, eski maktablarda qiroatxonlikning keng miqyosda yo'lga qo'yilishi hamda o'qitishda usuli tahajji, usuli maddiya, usuli savtiyaga amal qilinishi bevosita nutq o'stirish bilan bog'liq. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida usuli jadid maktablari uchun yaratilgan “Ustodi avval”, “Sabzazor”, “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Rahbari najot”, “Risolai asbobi savod”, “Qiroat kitobi”, “O'qish kitobi” darsliklarida ham nutq o'stirish yetakchi o'rin tutgan. “Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga

saboq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular rivojlanib borgan. Bu jarayon silliq kechgani yo'q. Ba'zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Chunonchi, XX asrning 20-yillarida maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlarni ta'minlamadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi. Keyinchalik 1931-yil 5-sentabr «Boshlang'ich va o'rta maktab haqida»gi, 1932-yil 25-avgust «Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida»gi qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi" [6]. Ko'rinadiki, nutq o'stirish va uning asosida turuvchi savod o'rgatish muammosi uzoq tarixga ega. U tabiiy sur'atda hamisha ilg'or fikrli ziyolilarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan.

Nutq o'stirish – shaxs tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini o'zlashtirish orqali unda tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalangan holda ravon so'zlash malakalarini rivojlantirishni ifodalovchi pedagogik jarayon. O'z mohiyatiga ko'ra nutq o'stirish shaxs, jumladan, o'quvchi tomonidan og'zaki va yozma badiiy til me'yorlari: to'g'ri talaffuz, urg'u, grammatika, so'zlarni to'g'ri qo'llash qoidalarini amaliy o'zlashtirish, tilning badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanish, ravon so'zlash malakalariga ega bo'lishini ta'minlovchi metod, usul, vositalar yordamida pedagogik qo'llab-quvvatlash, to'g'ri yo'naltirish, zarur o'rinlarda kerakli choralarni ko'rish hamda jarayonga rahbarlik qilishni anglatadi.

O'z mohiyatiga ko'ra "nutq o'stirish" tushunchasi ko'p holatlarda "nutqni rivojlantirish" tushunchasiga muqobil ("o'rnini almashtiruvchi", "javob bo'luvchi") sifatida qo'llaniladi. Ayniqsa, rus tilida olib borilgan tadqiqotlar, mazkur tilda yaratilgan adabiyotlarda maktabgacha tarbiyalanuvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'y-fikrlari, kechinmalari (ichki nutq) ni tashqi nutqqa aylantirish xususida so'z yuritilganda tayanch tushuncha sifatida "nutqni rivojlantirish" qabul qilingan. Ayni o'rinda "ichki nutq" tushunchasining mohiyatini ham yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir: ichki nutq – til yordamida ifoda etilmagan va yozilmagan fikriy nutq bo'lib, u shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan murojaatini ifodalaydi [5]. Har qanday nutqda bo'lgani kabi ichki nutq ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Xususan, ichki nutq "aniq grammatik shaklga ega bo'lmay, u tushuncha – alohida ma'noli so'zlar hamda yaxlit iboralar yordamida shakllanadi" [6].

Nutqni rivojlantirishning didaktik talablari, unga nisbatan metodik yondashuvlar xususida so'z yuritishdan avval "rivojlantirish" atamasi aynan qanday holatni yoritishga xizmat qilishini anglab olish navbatdagi amaliy harakat uchun yo'nalishni to'g'ri belgilashga imkon beradi.

"Rivojlantirish" tushunchasi (o'zak so'z "rivoj"; arabcha "tarqalish", "yoyilish", "kengayish") "bir sifat holatidan ikkinchi, yuqori sifat holatiga o'tish" [7] ma'nosini anglatadi. S.I.Ojegov hamda N.Yu.Shvedovalarning muallifligida tuzilgan "Rus tilining izohli lug'atida mazkur tushunchaga yana kengroq ta'rif berilgan: rivojlantirish – bir holatdan ikkinchi, yanada takomillashgan holatga o'tish jarayoni, eski sifat holatidan yangi sifat holatiga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqorida o'sib o'tish [8].

M.R.Lvovning tadqiqotlarida esa bevosita "o'quvchilarning nutqini rivojlantirish" tushunchasining g'oyaviy-nazariy tadqiqi quyidagicha bayon qilingan: o'quvchilar nutqini rivojlantirish – nutqni: til vositalari (fonetika, leksika, grammatika, nutq madaniyati, uslublari) hamda til mexanizmlari (tushunchalarni anglash, o'z fikrini ifodalash)ni o'zlashtirish jarayoni [8].

Pedagogik jarayonlarda ko'p holatlarda "nutqni rivojlantirish" deyilganda shaxs nutqini bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan metod va vositalar ham e'tirof qilinadi. Tadqiqot ishida "nutq o'stirish" tushunchasini nutqni rivojlantirishning yuqorida ta'kidlangan jihatlarini hisobga olgan holda tushunmoq lozim. Biroq, ayni o'rinda aytib o'tish lozim, shaxs, o'quvchilar nutqini o'stirish (rivojlantirish) bevosita jarayon sanaladi, rivojlantiruvchi metod va vositalar jarayonning o'zi emas, balki

uning samarali, muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi omillardan biri, xolos.

Darhaqiqat, ta'limiy g'oyalar taraqqiyoti tarixining barcha bosqichlarida ham shaxs nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, notiqlik san'atining eng yuksak bosqichlari – qadimgi Rim va Gresiyada yosh avlod nutqini rivojlantirish, ularda nutq, so'z kuchi yordamida ijtimoiy subyektlarga ta'sir ko'rsatish, hatto, ijtimoiy guruhlarni ta'sirchan, yuqori darajada hissiy-estetik bayon etilgan nutq yordamida boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lishiga erishilgan.

Nutq o'stirish "boshlang'ich ta'lim tizimida uzviylik asosida amalga oshiriladi, bir butun o'qish jarayoniga amaliy yo'nalish beradi va bolalarning ongli o'qish, uqanlarini tushunarli qilib so'zlab berish, savodli yozishga o'rgatadi. Bolalarning yosh xususiyatini va saviyasini hisobga olgan holda, ona tili va adabiyotdan boshlang'ich bilim beriladi va shular asosida ularning nutqi boyitiladi" [5].

Boshlang'ichsinfo'quvchilarnutqini o'stirish ta'limning keyingi bosqichlarimuvaffaqiyatini ta'minlashning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu bois, boshlang'ich ta'limga doir «Davlat ta'lim standarti», «O'qish» va «Ona tili» predmetlari bo'yicha yaratilgan dasturlar hamda bir qator ilmiy-metodik adabiyotlarda mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

"O'qish" fani boshlang'ich sinflarda asosiy o'quv predmetlaridan biri hisoblanadi. Zero, mazkur o'quv predmeti yordamida o'quvchilarning savodini chiqarishga erishiladi, harflarni tanish va o'qitish asosida kitobga, kitob o'qishga qiziqish uyg'otiladi, atrof-muhit haqidagi bilimlari boyitiladi. O'quv predmetining asosiy vazifalaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, uning malakaga o'sib o'tishini ta'minlashdir.

Tadqiqotchi L.Losevaning "Matn qanday tuziladi?" nomli tadqiqoti [8]da "matn" tushunchasi "lingvistik tadqiqotning eng murakkab ob'ektlaridan biri" sifatida e'tirof etilib, uning mohiyatini asoslovchi bir qator belgilar ko'rsatib o'tilgan: 1) axborotning yozma shaklda ifodalanishi; 2) mazmun jihatidan o'ziga xos tugallikka egalik; 3) o'quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatining mavjudligi.

Ko'rsatilgan belgilar asosida matnni mazmunan tugal va o'quvchida xabar qilinayotgan axborotga ma'lum munosabat uyg'otish bilan xarakterlanadigan yozma shakldagi axborot sifatida ta'riflash mumkin. Bizningcha, "matn" tushunchasining g'oyaviy-nazariy talqini yetarlicha yoritilmagan. Ayni o'rinda L.Losevaning matnni ifodalovchi belgilar borasidagi fikrini quyidagilar bilan to'ldirish mumkin: 1) axborotning yozma shaklda ifodalanishi; 2) mazmun jihatidan o'ziga xos tugallikka egalik; 3) o'quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatining mavjudligi; 4) kompozitsiya, syujet, tarkibiy tuzilmaga, shuningdek, tarkibiy elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka egalik; 5) muayyan sohaga taalluqli bo'lishi; 6) aniq mavzu bo'yicha axborot berishi; 7) o'ziga xos bayon uslubiga egalik; 8) aniq sub'ektgayo'naltirilganligi (masalan, o'quvchi yoki o'qituvchi uchun mo'ljallanganligi); 9) aniq maqsad uchun xizmat qilishi.

Matnni sintaktik jihatdan mazmuniga ko'ra va leksik-grammatik vositalar yordamida o'zaro bog'langan gaplar yig'indisi tarzida tushunish ham xato sanalmaydi. "Matn deganda murakkab sintaktik butunlik va erkin gaplardan iborat butunlikni tushunish kerak. Matnning sintaktik tahlili gaplar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish, matnni gapdan kattaroq sintaktik birliklarga, murakkab sintaktik butunlikka parchalashni o'z ichiga oladi" [8]. Nutq jarayonida gaplar guruhlanadi, mavzu jihatdan, qurilishi va ohangiga ko'ra birlashadi va alohida sintaktik birlik – murakkab sintaktik butunlik hosil qiladi. Biroq, matndagi barcha gaplar ham murakkab sintaktik butunlikka kirmaydi, ayrimlari uning tarkibiy qismi bo'lmaydi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur tadqiqot ishida matn mohiyatini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish emas, balki, matn ustida ishlash orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish metodikasini tadqiq qilish maqsad qilib belgilanganligi sababli masalaning ana shu jihati tahlil qilinadi.

Boshlang'ich sinfda matn ustida ishlashga o'quvchilarni jalb qilish o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik

talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang'ich sinf o'quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o'zlashtirish, ravon va ongli o'qish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, nutq boyiydi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o'quv dasturida ko'zda tutilgan talablar bajariladi.

«O'qish kitobi» darsliklarida berilgan matnlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni matn mazmunini to'g'ri tushunish, ongli va ifodali o'qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o'rganilayotgan materialning mazmuni, o'quvchilarning mavjud bilim, ko'nikma, malakalari darajasiga ko'ra amalga oshiradi. O'quvchilarni asar matnini o'qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g'oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e'tibor qaratiladi. O'qish faoliyati ham nutqning alohida ko'rinishi hisoblanadi.

O'quvchining o'z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to'g'ri ifodalay olishi uning o'quv-bilish faolligi darajasini, ko'nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O'qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o'zlashtirish yuzasidan qo'yilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni o'ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo'llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko'proq o'zi uchun yangi so'z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

Matnni o'qish ko'nikmasiga egalik, o'z navbatida, o'quvchi nutqini boyituvchi muhim omillardan biri sanaladi.

O'qitishning mustaqil qismi bo'lgan har qanday dars ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday darsning umumiy maqsadi "o'quvchilarga bilim berish va ular olgan bilimni amalda qo'llay oladigan darajaga yetkazishga erishish, har bir o'quvchida komil shaxsga xos fazilatlarini shakllantirishdir.

Boshlang'ich ta'limga oid "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari"da "O'qish" darslari oldiga qo'yiladigan didaktik talablar o'quvchilar e'tibori nimani o'rganish va nimani esda saqlab qolish kerak ekanligiga qaratilishidan boshlanadi.

Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarni ijodiy, mustaqil va mantiqiy mushohada yuritishga, matnni tahlil qilish va unga o'z munosabatini bildira olishga o'rgatish o'qituvchidan katta mahorat talab etadi.

7-9 yoshdagi bolalarda "yozma nutq ham shakllana boshlaydi... Yozma nutqni egallashi asosida ular turli matnlar haqida ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolalarda hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish ko'nikmasi yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Mustaqil ijodiy ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirish, reja tuzish ko'nikmasini hosil qiladi. Jummalarni to'g'ri tuzish, aynan shu mazmunga mos so'zlarni topish va ularni to'g'ri yozish, tinish belgilarini to'g'ri qo'yish, o'z holatlarini topa olish va to'g'rilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi".

Tarixiy mavzuga oid hikoyalarni o'qish oldidan o'qituvchi o'quvchilarning Vatan tarixi va uning shonli o'tmishidagi buyuk siymolar haqidagi bilimlarini aniqlaydi.

She'riy matnlarni o'qishdan oldingi tayyorgarlik ishlari ancha murakkab. Lirik asarlarni yaxlit idrok etish vazifasi shoir ruhiyatiga hamohang kayfiyat yaratish, o'quvchilarning shoir bilan birga quvonish, hayratlanish, qayg'urish tuyg'usiga turtki berishdir. Bunda o'qituvchining

kirish so'zi qisqa, maqsadga yo'naltirilgan hamda shoir dunyosiga kirishga ko'maklashadigan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'qituvchining kirish so'zi matnni o'qish oldidan tayyorgarlikning yetakchi bo'g'inlaridan biri bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan uning to'g'ri uyushtirilishiga bog'liqdir.

2. Matnni o'qish va uni tahlil qilish. O'quvchilar matnni o'qish jarayonida uning g'oyaviy-

badiiy xususiyatlari, asarda aks etgan voqealar bilan tanishadilar. Bunda asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, matnni ifodali, sharhlab va rollarga bo‘lib o‘qitish mumkin. Badiiy matnni o‘qish muallif tasvirlagan manzaralarni aniq tasavvur etishga, asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi.

“Tahlilning bosh maqsadi asarda aks etgan badiiy olam mohiyatini anglash, uning asl mazmunini to‘g‘ri va to‘la idrok etishdan iborat”. Tahlil o‘quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga yo‘llashning muhim omilidir. O‘quvchilar tahlil jarayonida asarda tasvirlangan voqealarga o‘z fikrlarini bildiradilar, notanish so‘zlar ma‘nosini bilib oladilar, matnning mazmun-mohiyatini to‘liq anglab yetadilar.

Aslida, “adabiy tahlilning bosh masalasi matn ustida ishlash orqali o‘tkaziladigan tahlildir. O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida uning poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tagzaminidagi ma‘noni chuqur o‘rganishga yordam beradi” [8].

O‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e‘tibor uning mazmuniga qaratilsada, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o‘quvchi matn mazmunini og‘zaki hikoyalashda adashmaydi. O‘quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe‘l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo‘lishiga qaratish ularning nafaqat o‘qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Matnlarda jumalalararo aloqa alohida e‘tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o‘zaro aloqada bo‘lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o‘quvchilarga matn qismlarini o‘qish yoki ko‘chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma‘lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.

Matndagi gaplar o‘rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya‘ni mazmuniy aloqa mavjud. Bu aloqa uni ifoda etuvchi leksik-grammatik vositalar orqali o‘z aksini topadi. Har qanday so‘zlarni gapga birlashtirib bo‘lmagani kabi har qanday gaplarni ham bitta bog‘lanishli matnga birlashtirib bo‘lmaydi. Masalan, “Bolalar dam olishga ketishdi”, “Gullar ochildi”, “Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi” kabi gaplarni bir matnga birlashtirib bo‘lmaydi. Ular turli mazmunga ega bo‘lgani bois biror bir munosabatga ko‘ra ham birlasha olmaydi.

3. Umumlashtirish va xulosalar chiqarish. Bu kabi ish turlari matn mazmuni yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish orqali unda aks ettirilgan masalalarni chuqur idrok etishga, mavzuning ochilmay qolgan qirralari haqida mulohaza yuritishga, o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.

Matn ustida ishlash jarayonida asar voqealari yuzasidan og‘zaki tasvirlash, qiyoslab hikoyalar tuzish, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlari, fe‘l-atvorlarini tavsiflash nutq o‘stirishning muhim vositasi sanaladi. Bu jarayonda o‘quvchilarda matnda ifodalangan jarayon, hodisa, shaxs yoki uning xatti-harakatiga nisbatan munosabat shakllanadi. Yaxshining nima uchun yaxshiligini, yomonning nima uchun yomonligini, asar qahramonlarining qilgan ishlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida matn tahlilining asosiy vazifasidir.

1-sinfda o‘quvchilarning “Alifbe” darsligidagi rasmlar mazmunini anglash, ular asosida izchil matn tuzish, gap, so‘z va bo‘g‘in, og‘zaki va yozma nutq haqida tushuncha hosil qilish, o‘quv yili yakunida esa matn ustida ishlash orqali “O‘qish kitobi”da berilgan asarlarning mavzu doirasini aniqlash, mazmunini tayyor reja asosida va ko‘rgazmalar asosida to‘liq qayta hikoyalash, qismlarga ajratish, asarda ishtirok etuvchi qahramonlarni tavsiflash, matndagi ba‘zi so‘z ma‘nolarini izohlash, o‘qilgan asar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish, shunga muvofiq bir daqiqada notanish matndan 25-30 so‘zni o‘qishlariga erishish ko‘zda tutiladi [7].

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi ta‘limning birinchi yilida nutq o‘stirish bo‘yicha ko‘zlangan natijaga erishilmasa, 2-sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish jarayoni qiyin kechadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchi tomonidan

barcha o'quv predmetlarining o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'qituvchining har bir darsni qat'iy reja asosida uyushtirishi taqozo qilinadi.

XULOSA. Matnni qayta tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qayta tasvirlashdan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy manzaralarni o'quvchilarning aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Metodika fanida matnning ikki xil yo'l bilan qayta tasvirlanishi qayd qilinadi. Bular:

a) so'z bilan tasvirlash; b) grafik tasvirlash.

So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, bunda asarda tasvirlangan voqea, qahramon yoki manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash ko'zda tutiladi. Bunday tasvirlash o'quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida so'zlarni to'g'ri tanlash va talaffuz qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Aminova F. H. O'quvchilarni muloqot matni yaratishga o'rgatishning didaktik asoslari: Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T.: O'zPFITI. 2007. – 22 b.

Aslonova O.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: Ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – QarDU. 2020. – 49 b.

Asqarova M., Matchonov S., Qodirova F., G'ulomova X., Boymatova A., Bozorova M., Muhamedova D. O'zbek tili mashg'ulotlarida nutq o'stirish. – T.: TDPU, 2000. – 58 b.

Babaeva D.R. Nutq o'stirish metodikasi (tevarak-atrofnii o'rganish misolida) – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 128 b.

Bakieva X.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi: Ped. fanl. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avtoref. – TDPU. 2019. – 47 b.

Bekniyazova N. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'quvchilar so'z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...diss. avtoref. – T.: 1998. – 22 b.

Bekniyazova N. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2012. – 160 b.

Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – T.: Fan, 2007.– 144 b.

9.Ziyodova T.U. Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish: Ped. fan. nomz. ...dis. avtoref. – T.: TDPI. 1995.– 19 b.

PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOVDAN FOYDALANISHDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING METODIK YONDASHUVI

*Kuranbayeva Husnora Abdullayevna,
Toshkent Amaliy Fanlar universisteti “Pedagogika” kafedrasida katta o‘qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.029>*

Annotatsiya. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda pedagogik tajriba-sinovdan foydalanish pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o‘ziga xos murakkab va mas‘uliyatlidir. Inson predmetida, ayniqsa, OTM boshlang‘ich ta‘limda tajriba-sinov o‘tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishi, dastur har tomonlama pedagogika-psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga olishi zarur. Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmunini belgilaydi.

Kalit so‘zlar; Traektoriya, lingvopedagogik kompetensiya, didaktik, sun‘iy intellekt, tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv); reproduktiv, muammoli taqdimot, qisman-qidiruv (xuaristik).

МЕТОДИЧЕСКИЙ ПОДХОД БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА-ТЕСТА

*Куранбаева Хуснора Абдуллаевна,
Старший преподаватель кафедры «Педагогика» Ташкентского университета
прикладных наук*

Аннотация. Использование педагогического тестирования опыта в методическом совершенствовании лингвopedagogических компетенций будущих учителей начальных классов само по себе сложно и ответственно. В человеческом предмете, особенно в начальном образовании высших учебных заведений, необходимо организовывать эксперименты и испытания на основе четкой программы, причем программа должна учитывать все педагогические и психологические закономерности и условия. Программа научных исследований определяет целенаправленное и последовательное выполнение экспериментальной работы.

Ключевые слова; Траекторная, лингвopedagogическая компетентность, дидактическая, искусственный интеллект, объяснительно-иллюстративная (информационно-рецептивная); репродуктивный, проблемный, частичный поиск (чуаристический).

METHODOLOGICAL APPROACH OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS IN USING THE PEDAGOGICAL EXPERIMENT-TEST

*Kuranbayeva Husnora Abdullayevna,
Senior teacher of the «Pedagogy» department of Tashkent University of Applied Sciences*

Abstract. The use of pedagogical testing of experience in the methodological improvement of linguistic and pedagogical competencies of future primary school teachers is in itself complex and responsible. In the human subject, especially in the primary education of higher educational institutions, it is necessary to organize experiments and tests on the basis of a clear program, and the program must take into account all pedagogical and psychological laws and conditions. The scientific research program determines the purposeful and consistent implementation of experimental work.

Keywords; Trajectory, linguo-pedagogical competence, didactic, artificial intelligence, explanatory-illustrative (information-receptive); reproductive, problematic, partial search (chuaristic).

Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmunini belgilaydi. Pedagogik tajriba-sinov dasturi, mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslashda metodik dastur yaratiladi. Tadqiqot nazariyasining amalda sinab ko'rish; tadqiqot ilmiy-amaliy imkoniyatini joriy etish, umumlashtirish; bir necha variantda har xil sharoitda tadqiqot natijasini tekshirib ko'rish; matematik statistik tahlil qilish va baholash kabi yo'nalishlardan iborat bo'ladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda pedagogik tajriba-sinovdan foydalanish Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish o'ziga xos murakkab va ma'suliyatlidir. Inson predmetida, ayniqsa, OTM boshlang'ich ta'limda tajriba-sinov o'tkazish aniq dastur asosida tashkil etilishi, dastur har tomonlama pedagogika-psixologik qonuniyatlar, shart-sharoitni hisobga oladi. Ma'lumki, amaliyot ilmiy bilishning mezonidir. Ilmiy tadqiqot fanning istiqbolini belgilovchi, mumtoz qonuniyatlarni yorituvchi yoki vaqtinchalik bo'lishi, ba'zan takror bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari ana shu imkoniyatlarni hayotda o'z ifodasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ilmiy farazlarni asoslashda tajriba-sinovlari muhim tarkibiy qismdir. Ilmiy farazlarga asosan tajriba-sinov ishlari tashkil etiladi, ilmiy farazlar amaliyotda sinalsagina nazariy g'oyaga aylanadi. Ilmiy farazlar tajribalarda asoslanmasa ilmiy tadqiqot yo'nalishi o'zgartiriladi, qayta tajriba o'tkaziladi. Ilmiy tadqiqotning konsepsiyasi muammoning o'rganilish tarixiy taraqqiyoti, hayotda tipik ko'rinishlari tajribada sinab ko'riladi. Amaliy tajriba tadqiqot nazariyasini asoslaydi to'ldiradi. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari dasturi ilmiy tadqiqotni izchil amalga oshirish tizimi, mexanizmdir. Tadqiqot nazariyasi tajriba-sinov ishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi falsafiy kategoriya tajriba-sinov ishlarining metodologik asosidir. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari ekspertiza vazifasini bajaradi. Ilmiy tadqiqotni argumentlash, g'oyaviy aksioma tajriba-sinov ishlarining har xil variantda, har xil sharoitda o'tkazilganiga bog'liq. Pedagogik tadqiqotlarni argumentlash tajriba-sinov ishlari dasturining tarkibiy qismidir. Bir necha variantda, shart-sharoitda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari tajriba va nazorat guruhlarida sinab ko'riladi. Uzoq muddatli tajribada har bir bosqichda bajariladigan kuzatish tajriba-sinov ishlar tartibi belgilanadi. Tajriba guruhlarini xususiyatiga ko'ra bir yoki bir necha bosqichli tajriba-sinov ishlari rejalashtiriladi. Tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirishda mantiqiy xulosalar bilan birga matematik statistik tahlil argumentli konsepsiyalar ishlab chiqiladi. Inson ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatar ekan u jamoa bilan muloqotga kirishish, ko'pchilikka o'zi fikrini yetkazib berish, hisobot berish, da'vat qilish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi zaruratga aylanadi. Shu ma'noda, boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'lim mazmuni o'quv predmeti asosida, o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi boshlang'ich ta'lim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'rifatli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda.

Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishi muhimligini ta'kidlash lozim. Jumladan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, shuning barobarida ularni o'quv topshiriqlarini, ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish bugungi ona tili ta'limining mazmuni va maqsadini tashkil etadi. Uni amalga oshirish adabiyot ta'limi oldiga zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish, innovatsion loyihalar yaratish muammosini ham qo'yimoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda OTM Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'qitishga oid o'quv materiallar asosida oquv topshiriqlari, mantiqiy fikrlash hamda o'z fikrini nutq sharoitiga mos holda to'g'ri va ravon ifodalash malakasini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab

ko'rish muhim pedagogik muammodir.

1. Tayyorlovchi bosqich. Mazkur tajriba-sinov ilmiy tadqiqotning eng sarmahsul usuli bo'lib, u kuzatishlar jarayonida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini belgilab beradi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv predmeti, xususan, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, shuning barobarida ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish, jozibali og'zaki va yozma nutqning asosi bo'lgan so'z boyligini oshirish ko'nikmasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga zamonaviy usullarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tajriba jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish asosida ona tili ta'lim mazmuniga oid darslik materiallarini o'zlashtirish imkoniyatlari aniqlandi va bu jarayonda ona tili o'quv predmeti bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda tushuntirish yuzasidan kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalari aniqlandi. bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining anketa, taqdim etilgan matn hamda mavzular asosida bilim darajalari aniqlandi. Yana quyidagilar ham ma'lum bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish muammolari aniqlanadi;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish uchun darslik va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklar aniqlanadi;

- Ona tili ta'limi mazmunida didaktikaga asoslangan mashq va topshiriqlarga nisbatan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining munosabatini aniqlash hamda fikrlarni umumlashtirish maqsadida anketa-savol javoblari o'tkazildi.

2. Ta'kidlovchi tajriba-sinov bosqichida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish usul, shakl va vositalari aniqlanib, Ona tili ta'limida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga asoslangan mashq va topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash hamda tanqidiy fikrlashga oid ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi.

Ijodiy izlanishga asoslangan o'qitishga doir topshiriqlar, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish ona tili ta'limi mazmunida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning pragmatik asoslarini takomillashtirish ko'nikmasini rivojlantirish orqali, avvalo, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining to'g'ri fikr yuritishga, matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rta qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mazmunli ifodalay olishiga e'tibor qaratildi. Zero, sanab o'tilganlarga nisbatan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ko'nikma rivojlantirish bugungi kundagi eng dolzarb va muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik rivojlantirish, dars mashg'ulotlari orqali shaxsiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri qo'llash malakalarini takomillashtirish talab etiladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko'rildi va o'z isbotini topdi:

- ona tili ta'lim mazmunida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik, rivojlantiruvchi topshiriqlar orqali takomillashtirish;

- ona tili ta'lim mazmunida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish jarayoni maxsus o'rganilib, undagi kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, bartaraf etish yo'llari va omillari ishlab chiqiladi;

- Ona tili ta'lim mazmunida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishning ahamiyati va didaktik imkoniyatlari anglangan holda metodik jihatdan to'g'ri tatbiq etildi;

Ona tili ta'lim mazmunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv topshiriqlarini

ishlab chiqish, lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishning mazmuni, shakl, usul va vositalari ishlab chiqildi;

– lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish maqsadida ijodiy tafakkurni rivojlantiradigan, o'z fikrini turli shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olish ko'nikmasini paydo qilishga yo'naltirilgan hamda samaradorlik darajasi aniqlangan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

3. Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida ishlarining maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajarildi:

– bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bilan tanishtirildi;

– ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar dars mashg'uloti jarayoniga to'liq tatbiq etildi;

– olingan natijalarga ko'ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar takomillashtirildi.

– ona tili ta'lim mazmunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, so'z zaxirasini boyitish, mustaqil o'quv topshiriqlari ustida ishlay olish ko'nikmalarini rivojlantirishning yoritilmagan qirralari aniqlandi va kelajakda olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga material bo'la oladigan tavsiyalar berildi.

OTM "Ona tili o'qitish metodikasi"ga oid darsliklarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlashga o'rgatishga oid o'quv materiallarining tarkibi va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish bugungi holatini aniqlash maqsadida dastlab tajriba-sinov maydonchalari aniqlab olindi.

Tajribaning dastlabki kunlarida nazorat guruhlaridan ham, tajriba guruhlaridan ham yozma ishlar olindi. Bizga ikkala guruhning ham dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajasi deyarli bir xil ekanligi ma'lum bo'ldi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishida uning ta'siri katta ekanligi barchaga ma'lum. Umuman, dars mashg'ulotini qanday metodik tashkil qilish bu OTM professor-o'qituvchilarining to'plagan malakasiga bog'liq. OTMda ona tili ta'lim mazmunida fonetik, leksik, morfemik, morfolofik, sintaktik tahlillarni o'qitilishida ona tili ta'lim mazmunini bilan bog'liq muammolarning metodik bir uchi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ham borib taqalmoqda. Tajriba-sinov jarayonida shunday holatlarga duch kelindiki, ayrim talabalarining ona tili ta'limi mazmunida o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha yetarli ko'nikma va malakaga ega emas. Hatto tajribali professor-o'qituvchilar ham dars mashg'ulotini interfaol usulda turli zamonaviy metodlarda qiziqarli tashkil eta olsalar-da, talabalarga ona tili o'qitish metodikasiga oid fandan, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish bo'yicha zarur ko'nikma va malakalarni bera olmayapti. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini darsga qiziqitira olish yaxshi, albatta, biroq shu qiziqitirish orqali talabani ijtimoiy hayotda doim asqotadigan bilim va malakalar bilan qurollantirish asosiy masala ekanligini doim esda tutish zarur. Ushbu holatning sababini aniqlash maqsadida OTM professor-o'qituvchilari orasida anketa-so'rov o'tkazilganda quyidagilar aniqlandi:

1. OTM professor-o'qituvchilar lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlari tuzish ko'nikmasini rivojlantiriladimi?

2. Mashq va topshiriqning farqini qanday izohlaysiz?

3. Siz dars o'tadigan guruhlarda nechta talaba matnli fikrdlay oladi?

4. OTM talabalarida kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha qanday savol va topshiriqlar berasiz?

5. Qaysi o'quv topshiriqlari talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmasini takomillashtiradi? Nega?

6. Ona tili o'qitish metodikasi darsliklaridagi savol va topshiriqlar sizni qoniqtiradimi? Nega?

7. Ona tili ta'lim mazmuniga oid dars mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda mashqlar

ham kerakmi?

8. Barcha darsliklar mazmunini ochib beruvchi muhim savollaringiz bormi? Odatda darsda qanday savollar berasiz?

9. Talabalarni ona tili ta'lim mazmunida o'quv topshiriqlari ishlashga o'rgatish uchun qanday topshiriqlar tuzish kerak? Misollar keltira olasizmi?

10. Ona tili ta'lim mazmuni, muallif g'oyasini ochib beruvchi savol va topshiriqlar qanday bo'ladi?

Yuqorida keltirilgan javoblardan ko'rinib turibdiki, ona tili o'qitish metodikasi dars mashg'ulotlarini tashkil qiluvchi, talabalarni tildan mohirona foydalanishga o'rgatuvchi mutaxassislar ona tilidan DTS malaka talablari va, eng muhimi, ona tili o'qitishning maqsadini aniq bilishmaydi. Ayrimlarning fikrlashi talabga javob bermaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga o'rgatishdan ko'zlangan maqsad ham ona tili ta'lim mazmuni, o'qitishning asosiy maqsadidan kelib chiqadi.

Ona tili ta'lim mazmunini yoritishda, "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish" mavzusi orqali talabalar kreativ fikrlashga doir qanday ko'nikma yoki malakaga ega bo'lishi kerak?", degan savol va topshiriqlarga mantiqli javoblar lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda, ba'zilar havola qilinadi. Ona tili ta'lim mazmuni darsliklaridagi savol va topshiriqlar sizni qoniqtiradimi? Nega?, degan savolga (darsliklardagi muammolarni bartaraf etilsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga Ona tili o'qitish metodikasi fani bilan bir qatorda "O'quv topshiriqlar metodikasi" fani joriy etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi) tarzda javob berilgan. Mavzular bir-biri bilan o'zaro aloqada, bog'liqlikda bo'ladi. Ayniqsa, ona tili ta'lim mazmunida, o'qitishda uni tilning boshqa birliklariga bog'lab tushuntirish katta natija beradi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf Ona tili darsligi yuasidan

bajarilishi shart bo'lgan vazifalar

T/r	Savol	Topshiriq	Mashq
1.	2023 yilda nashr etilgan 3-4 sinf Ona tili darsligida nega grammatik qoidalarni 2-3 marta tasvirlagan?	Darslikni tahlilga torting, afzaligi yoki kamchiligidan 4 ta fakt keltiring.	Darslikdagi Ona til 1-qism, 3 sinf 14-mashqni bajaring.
2	Berilgan vazifalar 45 minutda o'quvchi uchun ko'p emasmi.....	1.Darslikni soddalashtirish kerak 2.Darslik ustida metodik qayta ishlash kerak	2023 yil Ona tili 3 sinf darslikdagi 33-34 mashqlarni tahlil qiling

Talabalarining bu boradagi fikrlari va ko'nikmalarini bilish maqsadida anketaga quyidagi savol kiritilgan edi:

1. "Ona tili o'qitish metodikasi" darsliklarida keltirilgan savol va topshiriqlar mazmuni sizga tushunarlimi?

2. O'qituvchingiz ona tili ta'lim mazmunini yoritishda Sizga grammatik tahlil yoki muhokama qilishda ko'proq qanday savollar beradi?

3. lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish o'qish, matnlarni yod aytish mashqlari olib boriladimi? Qaysi topshiriqni olgansiz?

4. Professor-o'qituvchi Sizni baholashda qanday topshiriqlardan foydalanadi?

5. O'tilgan dars mashg'ulotni so'rashda o'qituvchingiz ko'proq grammatik tahlilga doir savollar beradimi, yoki matn tahlili haqidami?

6. O'qituvchingiz Sizga o'ylantiradigan savollar beradimi? Masalan, qanday?

7. Siz ona tili ta'lim mazmunini yoritishda dars mashg'ulotida ko'proq qanday topshiriqlar bajarishni istaysiz?

8. Mantiqiy fikrlash asosida turli davrdagi darsliklar o'rtasidagi bog'liqliklarni topish kabi o'quv topshiriqlariga munosabatingiz qanday?

9. Ta'limiy-nazariy tushunchalar, qoidalar qanday o'rganiladi?

10. BT Ona tili, Ona tili o'qish savodxonligi va uni o'qitish metyodikasi darslarida, asosan, qanday uy vazifalari beriladi? Bajarib bo'ladimi?

Mazkursavollartalabalarining onatili ta'lim mazmunida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq muammolarini aniqlashga yordam beradi.

Savollarni keltirishning boisi shuki, boshlang'ich ta'limning asosiy vositasi hisoblangan darsliklar mazmun-mundariyasi talab darajasida bo'lishi, o'quv materiallari boshlang'ich ta'lim maqsadi ro'yobiga xizmat qila olishi shart, aks holda ayrim OTM professor-o'qituvchilari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish bo'yicha zarur ko'nikma va malakaga ega emasligi muammoning manbasini ko'rsatadi.

"Ona tili o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" darsliklaridagi o'quv materiallarini o'rganish asnosida tuzilgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishga oid mashq va topshiriqlarni amaliyotda sinashdan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilar edi:

– ona tili ta'lim mazmunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, ko'nikmasini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish;

– ona tili ta'lim mazmunida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish orqali mustaqil o'quv topshiriqlarini ishlay olish, ijodiy yondashish, muntazam o'z so'z boyligini oshirib borish va shular zamirida o'z fikrini turli shakllarda to'g'ri va ravon ifodalay olishiga erishish;

– bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kelajakda o'quvchiga tavsiya etilgan mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida o'z kuchiga, o'zi mustaqil ishlay olishiga ishonirish usullarini o'rgatish;

– o'z nutqi orqali atrofdagilarga ta'sir ko'rsata olish;

– bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga doir mashq va topshiriqlar orqali, har bir nutq tovushini to'g'ri talaffuz qila olishiga, to'g'ri yoza olishiga, nasriy va she'riy matnlarni ifodali o'qiy olishiga, o'rta qo'yilgan muammo haqida shaxsiy fikrini og'zaki va yozma shakllarda mantiqli ifodalay olishiga erishish kabilar.

1. OTM boshlang'ich ta'lim metodikasi yo'nalishi talabalarida o'quv topshiriqlari tuzish ko'nikmasi rivojlantiriladimi? yo'q

2. Mashq va topshiriqning farqini qanday izohlaysiz? farqi yo'q

3. Dars mashg'uloti jarayonida talabalar lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik

takomillashtirish yuzasidan fikrdlay oladimi? yo‘q

4. OTM bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish bo‘yicha qanday takliflar berasiz? Ko‘proq talabalar amaliyotga jalb etilsa 4 kursdan ishlasak maktablarda, oxirida imtihon topshirishga kelsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

5. Qaysi o‘quv topshiriqlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish ko‘nikmasini rivojlantiradi? Nega? Koproq tilning grammatik qoidalari asosida o‘quv topshiriqlarini bajarish, mashqni topshiriqdan farqlashga oid metodik adabiyotlar yetishtirilsa.

6. Ona tili o‘qitish metodikasi darsliklaridagi savol va topshiriqlar sizni qoniqtiradimi? Nega? Darsliklar yetarli emas, qoniqtirmaydi.

7. Ona tili o‘qitish metodikasiga oid dars mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda mashqlar ham kerakmi? Albatta mashq bizni o‘z ishonchimizni yuksaltiradi.

8. Barcha ona tili ta‘lim mazmunnini ochib beruvchi muhim savollaringiz bormi? Odatda dars mashg‘ulotida qanday savollar kutasiz? O‘quv topshiriqlarni o‘rgatish fani joriy etilsa maqsadga muvofiq bo‘ar edi.

9. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda mustaqil o‘quv topshiriqlarini ishlashga o‘rgatish uchun qanday topshiriqlar tuzish kerak? Misollar keltira olasizmi? Topshiriq bilan mashqni farqlash uchun shunday o‘quv qo‘llanmalar yetarli bo‘lishi kerak, biz metodik tomondan o‘qituvchidan tashqari mustaqil o‘rganishimiz uchun.

10. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish mazmuni, muallif g‘oyasini ochib beruvchi savol va topshiriqlar qanday bo‘ladi? Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda o‘qituvchi tomonidan berilayotgan savol bilan topshiriqni faqlash kerak....

1. “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida keltirilgan savol va topshiriqlar mazmuni sizga tushunarlimi? Unchalik emas.

2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda darslik tahlil yoki muhokama qilishda ko‘proq qanday savollar beradi? Berilgan vazifani bajarishimizni talab qilishadi. Men savol bilan topshiriqni farqlay olmayman.

3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, ona tili o‘qitish metodikasiga oid darsliklarda qoidalarni yod aytish mashqlari olib boriladimi? Qaysi qoidalarni yod olgansiz? Barcha qoidalarni yaxshi yod olganman farqlay olaman.

4. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishga oid sizni baholashda qanday topshiriqlardan foydalanadi?

5. O‘tilgan dars mashg‘ulotini so‘rashda professor-o‘qituvchi ko‘proq grammatik tahlilga doir savollar beradimi, yoki matn tahlili haqidami? Matn tahlili.

6. Professor-o‘qituvchingiz sizga o‘ylantiradigan savollar beradimi? Masalan, qanday? Siz nima deb uylaysiz deganlarida javob berishga harakat qilaman.

7. Siz ona tili o‘qitish metodikasi dars mashg‘ulotlarida ko‘proq qanday topshiriqlar bajarasiz? Koproq grammatik tahlillar bajarishni istayman.

8. Kreativ fikrlash asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishga oid bog‘liqliklarni topish kabi o‘quv topshiriqlariga munosabatingiz qanday? Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘zi kreativ bo‘lish kerak.

9. Ona tili ta‘lim mazmunida ilmiy--nazariy tushunchalar, qoidalar qanday o‘rgatiladi? Chuqur o‘rgatilmaydi.

10. Ona tili ta‘lim mazmunini takomillashtirishda dars mashg‘ulotlarida asosan, qanday uy vazifalari beriladi? Bajarib bo‘ladimi? Biz OTMda bajaramiz lekin amaliyotga borib ko‘ryabmizki ona tili darsliklari 2023 yilgi, boshlang‘ich sinf uchun murakkab tuzilgan, ko‘p

vazifa yuklab tashlangan o'quvchi qiynalayapti.

11. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirishda darts mashg'ulotlarida quyidagi o'quv topshiriqlariga javob bering.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki darsliklardagi o'quv materiallari shunday tuzilishi kerakki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish asosida bilim olishga, mustaqil ishlashga avtomatik ravishda yo'naltirsin. Respublikaning OTMda faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar ona tili ta'lim ta'lim mazmunida lingvopedagogik kompetensiyalarini metodik takomillashtirish, o'quv topshiriqlarini rivojlantirish bo'yicha kerakli ko'nikma va malakaga ega bo'la olmayotganini inobatga olsak, barcha e'tiborni bu borada mukammal darslik, amaliy qo'llanmalar yaratishga qaratish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гулямов А. Методика развития учебно - познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Дис. док. пед. наук. –Т.: ТГПИ, 1991. – 37 б.

2. Axmedova M.E. (hammualliflar) Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik–Т., 2019. 5-б.(302)

3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslik. –Т., 2014. 96-б. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik qayta ishlangan, to'ldirilgan uchinchi nashr. –Т., 1992. 400 б.

4. Лернер. И.Я. Дидактические основы методов обучения. Текст. –М.: 1981.- 186 с.

5. Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики.-М.: Педагогика. 1984.- 96с.

6. Скаткин М.Н. Совещенствование процесса обучения.–М.: Педагогика. 1971.- 205с

7. Фуломов А., Неъматов Х. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. 9-б.

8. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т., 2010. – 184 б.

ПРИНЦИПЫ СОСТАВЛЕНИЯ ОЦЕНОЧНЫХ ТЕСТОВ

Казимбетова Зийуар Махсетбаевна,

Доктор философии по филологическим наукам (PhD) Докторант Нукусского государственного педагогического института им. Ажинияза

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.030>

Pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma'nalarda qo'llaniladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini rivojlantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlari va intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari va san'atning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy–axloqiy qiyofasi va estetik didini o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi [8].

Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Shunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki, axloqiy – ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlisha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga ushraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.


Tarbiya nazariyasining umumiy xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:



Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O'zbekistonda ta'xis etilgan yangi “Tarbiya” fani asoslarini tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o'rni, ahamiyati va amaliyoti odamlar tomonidan yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha 10 – 11 sinf o'quvchilari nazariy bilim, ko'nikma va dasturiy ta'limga oid amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak.

“Tarbiya” fani amalida quyidagi fanlarni qo'shish hisobiga tashkil etildi:

Buning natijasida yangi fan shakllantirildi. Ushbu “Tarbiya” fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:



Mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini takomillashtirish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

fanning asoslarini chuqur bilish;
 fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda AKTni egallash;
 tarbiya masalasiga doir ilmiy – tadqiqotlarni o'rganib borish,
 inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnini to'liq idrok etish,
 fan vositasida o'quvchilarini tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish, fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.

“Tarbiya” darsliklarida o'quvchini kreativ fikrlashga undaydigan quyidagi o'quv materiallari e'tiborga molikdir, ammo bu darslikda nisbatan kam berilgan, uni ko'paytirish yaxshi samara beradi: davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan odob – axloq, bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish; o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini takomillashtirish; umumta'lim fanlarini o'qitishning printsiplial yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash.

“Tarbiya” fanini o'qitishda 10–11–sinflarning dars jarayonidagi faolligini oshirishda ularni jamoaviy ishlashga, fikr almashishga undaydigan interfaol usullardan samarali foydalanish mazkur fanning sifat va samaradorligini oshiradi.

Tarbiya fani manbalari va ularni o'rganish o'quvchi uchun hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Mazkur o'rinda namuna sifatida ularning eng muhimlariga e'tiboringizni tortamiz. “Avesto” kitobida yosh avlodni Ezgu niyatli, Ezgu fikrli va Ezgu faoliyat (amal) li shaxslar sifatida voyaga yetkazish alohida ta'kidlangan [9]. Jahon xalqlari pedagogikasida bir qator tarbiyaga oid tajribalar shakllantirilgan. Mazkur o'rinda ularning eng muhimlariga e'tibor qaratiladi. Ghex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida yosh avlodni o'qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o'quv fanlarini o'qitish jarayoni bilan birga shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini rivojlantirishda, ta'lim jarayoni, ta'lim maqsadi va ta'lim natijasi asosida shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi. [10].

“Tarbiya” fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish va ularni o'zlashtirish zaruriyat hisoblanadi:

- Davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan odob – axloq, bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;
- O'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va kreativ tafakkur yuritish kompetentligini

takomillashtirish;

– umumta'lim fanlarini o'qitishning printsiptial yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash.

O'quvchilar tarbiyasida quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanish zarurat hisoblanadi:

- O'quvchi shaxsini hurmat qilish;
- O'quvchining imkoniyatlarini hisobga olish;
- O'quvchini yo'naltirish;
- O'quvchini ko'niktirish.

Bu pedagogik tamoyillar o'quvchilarning shaxsida mavjud bo'lgan tug'ma his – tuyg'ularni rivojlantirish bilan amalga oshiriladi. Mazkur o'rinda ushbu ko'nikmalarining quyidagi mazmuniga e'tibor bering:

a) O'quvchi shaxsini hurmat qilish: o'quvchiga xos xarakterni, qiliqlarni va intilishlarni tabiiy qabul qilish;

b) O'quvchini imkoniyatlarini hisobga olish: bunda o'quvchilarning jismoniy, aqliy, ruhiy va sensor xususiyatlarini bilish;

v) O'quvchilarni yo'naltirish: o'quvchilar fazilatlar, hislatlar va bilish jarayoni sari yo'naltirish;

g) O'quvchilarni ko'niktirish: o'quvchilarni tarbiya olish, bilimlarni egallash va o'zgaralar bilan ijtimoiy munosabatga kirishishga yo'naltirish.

10 – 11 – sinf “Tarbiya” darsliklarida kreativ fikrlashga o'rgatuvshi o'quv topshiriqlari quyidagi mavzu va o'quv topshiriqlari asosida berilgan:

Bunday yondashuvlar 10–11–sinf o'quvchilari tarbiyasida oqilona metodlarni tanlash imkonini beradi. Shu jihatdan bu o'rinda eng muhim metodlarning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

1. Ko'niktirish metodi. Tarbiya jarayoni asosan rag'batlantirish, ko'niktirish kabi usullarga tayanadi. Aksinsha, avtoritar usullar tarbiyaning sifat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda 10–11–sinf o'quvchilari jamoaparvarlikka, o'zgaralarni hurmat qilishga va o'zini tuta olishga ko'niktirib borilishi kerak. Shu tariqa ularning kelgusi faoliyati uchun bunday ko'nikma muhim o'rin tutadi. Ko'niktirish metodi tarbiya jarayonida ko'ndirish, tarbiyalanuvchini hurmat qilish va uni tinglash imkoniyatlarini beradi.

2. O'rgatish metodi. 10–11–sinf o'quvchilari tarbiyasida bu metod eng muhim yondashuvlarni beradi. Shu jihatdan 10–11–sinf o'quvchilari insoniylik, ezgulik, adolat kabi fazilatlarga o'rgatilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarda uchraydigan egoizm, tuchunmaslik, noto'g'ri tushunish kabi illatlar bosqichma–bosqich isloh qilib borilishi kerak. O'quvchilarni tuchunish ularni fazilatlarga o'rgatishning eng muhim yo'lidir. Buning uchun o'qituvchilar hamisha o'quvchilarni tushunishi taqozo etiladi.

3. Yo'naltirish metodi. Bu metodga ko'ra, o'quvchilar ideal maqsad va intilishlarga yo'naltirilishi kerak. Bilim to'g'ri berilsa, tarbiya jarayonida o'quvchilarda ana shunday intilishlar tarkib topadi. Keyingi paytlarda pedagogik ilmiy– tadqiqotlarimizda ideal maqsad va uning ahamiyatini tadqiq etish susaygan. Aslida ideal maqsad o'quvchilar ongida ta'limda shakllantirilishi kutilgan samarani beradi. O'quvchilarning qiziqishi, xohishi va istagi hisobga olingan holda ideal maqsadlarga yo'naltirilishi tarbiyaning sifatini oshiradi.

4. O'qitishning elektron–modulli texnologiyasi. Bu texnologiya an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarida kompyuter asosida o'qitishga tayanadi. Unga ko'ra, kompyuterda maxsus dastur vositasida o'qituvchi tomonidan dars materiallari to'liq tayyorlanadi va ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga qarab taqdim etib boriladi. Bu texnologiyada dars materiallarini yangi ma'lumotlar asosida yangilab borish va multimediyali axborotlarni berish imkoniyatlari mavjud.

5. O'qitishning masofaviy ta'lim texnologiyasi. Bu texnologiyaga ko'ra, “Tarbiya” fani onlayn tarzida o'qitiladi. Unda ta'lim oluvchilar bevosita virtual aloqaga kirishadi. Ayni paytda, mazkur texnologiyada mustaqil ta'lim topshiriqlari ko'p bo'lishi taqozo etiladi. Ta'lim oluvchilar aynan mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi bilan fanni o'zlashtiradi.

6. Ustoz–shogird texnologiyasi. Bu texnologiyaga ko'ra, har bir o'quvchi o'qituvchilariga biriktiriladi. Bunda har bir o'qituvchi o'z o'quvchisining tarbiyalanish jarayonini kuzatib boradi

va bu ishlarni “Tarbiya” fani o‘qituvchisi muvofiqlashtiradi. Mavjud ta’limga oid me‘yoriy hujjatlar asosida o‘quvchisining tarbiyalanganlik darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar, maktab rahbariyati tomonidan moddiy rag‘batlantirib boriladi. Mazkur texnologiya 5–6–sinfda “Tarbiya” fanini o‘qitishda eng muhim yondashuvlardan hisoblanadi. Hozirgi zamon oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitishning ana shu innovatsion texnologiyalari amalga kiritilmoqda. Shu sababli “Tarbiya” fanini o‘qitish ana shunday zamonaviy ta’lim– tarbiya texnologiyalarini tanlashga e‘tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bugungi tarbiya jarayoni rivolanayotgan texnik vositalarga asoslanishi bilan muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda texnik vositalarga asoslangan texnologiyalar asosida mazkur fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga diqqat qilish kerak:

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki Mediatexnologiya o‘quvchilarga kompyuter, mobil aloqa vositasi o‘qishning va tarbiya olishning tayanchi ekanligini tushuntirish, o‘quvchilarning texnik vositalardan bilim olish yo‘lida foydalanishga o‘rgatish, texnik vositalarning imkoniyatlarini baholashda ularning axborot manbaiga e‘tibor berish madaniyatini takomillashtirish. Buning natijasida texnik vositalarga asoslangan mediatexnologiyalardan “Tarbiya” fanini o‘qitishda oqilona foydalanish malakasiga ega bo‘linadi. E‘tibor berilsa, “Tarbiya” fani didaktikasi butunlay yangicha yondashuvlar, tamoyillar va texnologiyalarga asoslanadi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, mazkur fanning didaktikasi o‘ziga xos tarzda va pedagogik tajribalarning ilg‘or yondashuvlari asosida ishlab chiqilishi kerak. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak pedagogika yo‘nalishlari “Tarbiya” fani mutaxassislari tarbiya didaktikasi bo‘yicha tushuncha, bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 29 aprel
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.14-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021. 77-b.
4. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va unda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o‘qitishda didaktik o‘yinlar//Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.
5. Piaje J. Glavnie cherti logiki rebenka (1924)// Jan Piaje: Teoriya, eksperimenti, diskussii/ Pod red. L.F. Obuxovoy i G.V. Burmenskoy. M., 2001.
6. Beruniy Tanlangan asarlar –Toshkent. Fan, 1973. 44 b.
7. Sapayev V. Tarbiya fanini o‘qitishning ayrim dolzarb masalalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(8), August, 2023
- 8 .Musurmonova O., va boshq.Pedagogik atamalar logati.T.: Turon-iqbol.2019 844-b.
9. Axmedova M.E.Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg‘ulotlar– O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir 2011.136-b.
- 10.Axmedova M.E.va boshq. Umumiy pedagogika. T.: Darslik. 2024 yil. 390 b

MAKTAB TA'LIMI VA ISHLAB-CHIQRARISH INTEGRATSIYASINI INNOVATSION BOSHQARUV ASOSIDA TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI

Mexmonov Ismat Toshpo 'latovich

Mustaqil tadqiqotchi, pedagogik xizmalar markazi direktor o'rinbosari, A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.034>

МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ИНТЕГРАЦИИ ПРОИЗВОДСТВА НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА

Мехмонов Исмаи Тошпулатович

Независимый научный сотрудник, заместитель директора Центра педагогических услуг Национального научно-исследовательского института повышения квалификации педагогов и обучения новым методам им. А. Авлони

MECHANISMS OF ORGANIZATION OF SCHOOL EDUCATION AND PRODUCTION INTEGRATION BASED ON INNOVATIVE MANAGEMENT

Mekhmonov Ismat Toshpolatovich

Independent researcher, deputy director of the Center for Pedagogical Services, National Research Institute for professional development of pedagogues and training in new methods named after A. Avloni

Annotatsiya: Maqolada maktab ta'limi va ishlab-chiqarish integratsiyasini innovatsion boshqaruv asosida tashkil etish mexanizmlari, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ta'lim va ishlab-chiqarish integratsiyasini tashkil etishning tashkiliy xususiyatlari, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning zamonaviy shakllari ilgari surilgan. Zamonaviy dunyoda, inson kapitali ta'sirining o'sishi bilan bir qatorda, jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning eng muhim omili sifatida ta'limning ahamiyati ortib bormoqda. Ma'lumki, jahonda zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, shu bilan bir qatorda bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ushbu zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirish, yangi texnologiyalarni tizimga tadbiiq qilish malakali kasb-hunarga ega bo'lgan mutaxassis-kadrlarga bog'liq bo'lib qolmoqda. Dunyoda inson omili va kapitali, qobiliyati va salohiyatidan innovatsiyalar joriy qilish asosida samarali foydalanish raqamli boshqaruv tizimi va axborot kommunikatsiya vositalari shakllanayotgan bugungi kunda, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish va uni samarali boshqarish bo'yicha mutaxassis-kadrlar tayyorlashning pasayib borishi oqibatida davlatlarning rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, ta'limda ixtisoslashtirishning ilmiy asoslangan tizimi joriy qilinmaganligi, ta'lim tarmoqlarida moddiy-texnik va innovatsiya tizimining qoniqarsiz ahvolda ekanligi, kasbga yo'naltirishda innovatsion boshqaruv faoliyatining tashkiliy-metodologik asoslari to'liq ishlab chiqilmaganligi, oliy ma'lumotli professional pedagog kadrlar tayyorlaydigan OTM, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlovchi muassasalar o'rtasidagi integratsion munosabatlardagi muayyan muammolarning yuzaga kelishi natijasida xalq ta'limi tizimida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda innovatsion boshqaruv faoliyatining ahamiyati oshib bormoqda.

Kalit so'zlar: Kreativ boshqaruv, ta'lim va biznes, tadbirkor, ishlab chiqarish, innovatsiya, kompetensiya, investitsiya, intellektual mulk, ishlab chiqarish korxonalari, zamonaviy texnika va texnologiya, kichik texnologiyalar.

Аннотация: В статье представлены механизмы организации интеграции школьного образования и производства на основе инновационного менеджмента, организационные особенности организации интеграции образования и производства в профориентации

учащихся, современные формы профориентации учащихся. В современном мире, наряду с ростом влияния человеческого капитала, возрастает значение образования как важнейшего фактора формирования нового качества общества. Известно, что основой современной системы образования в мире является качественная и высокотехнологичная среда. Ее создание и развитие технически сложны, в то же время такая среда служит совершенствованию системы образования, внедрению информационных и коммуникационных технологий в учебный процесс. Формирование этой современной системы образования, применение в системе новых технологий зависит от специалистов и кадров квалифицированных профессий. Эффективное использование человеческого фактора и капитала, навыков и потенциала на основе внедрения инноваций в современном мире, когда формируются цифровые системы управления и средства информационных коммуникаций, особенно снижается подготовка специалистов и кадров для направления студентов в профессии и ее эффективного управления, в результате страны отстают в развитии. Также не внедрена научно-обоснованная система специализации в образовании, материально-техническая и инновационная система в отраслях образования находится в неудовлетворительном состоянии, организационно-методические основы инновационно-управленческой деятельности в профориентации не разработаны в полной мере. профессиональных педагогических кадров с высшим образованием В результате возникновения определенных проблем в интеграционных отношениях между учебными высшими учебными заведениями, учреждениями их квалификации и переподготовки, в народном образовании возрастает значение инновационной управленческой деятельности по ориентации студентов в профессию. система.

Ключевые слова: Креативный менеджмент, образование и бизнес, предприниматель, производство, инновации, компетентность, инвестиции, интеллектуальная собственность, производственные предприятия, современное оборудование и технологии, малые технологии.

Abstract: The article presents the mechanisms of organizing the integration of school education and production based on innovative management, the organizational features of organizing the integration of education and production in the career guidance of students, modern forms of career guidance of students . In the modern world, along with the growth of the influence of human capital, the importance of education as the most important factor in the formation of a new quality of society is increasing. It is known that the basis of the modern educational system in the world is a high-quality and high-tech environment. Its creation and development is technically complex, at the same time, such an environment serves to improve the educational system, to introduce information and communication technologies into the educational process. The formation of this modern education system, the application of new technologies to the system depends on specialists and personnel with qualified professions. Effective use of the human factor and capital, skills and potential based on the introduction of innovations in the world today, when digital management systems and information communication tools are being formed, especially the decrease in the training of specialists and personnel for directing students to the profession and its effective management as a result, the countries are lagging behind in development. Also, the scientific-based system of specialization in education has not been introduced, the material-technical and innovation system in educational sectors is in an unsatisfactory state, the organizational-methodological foundations of innovative management activities in vocational guidance have not been fully developed, the professional pedagogical staff with higher education As a result of the emergence of certain problems in the integration relations between training higher education institutions, their qualification and retraining institutions, the importance of innovative management activities in guiding students to the profession is increasing in the public education system.

Keywords: Creative management, education and business, entrepreneur, production, innovation, competence, investment, intellectual property, production enterprises, modern

equipment and technology, small technologies.

Maktablarda o'rgatish mumkin bo'lgan 50 ta kasb-hunar ro'yxati tuzilib, har biri bo'yicha o'quv va amaliyot dasturlari ishlab chiqiladi. Buning uchun maktablarda ustaxonalar tashkil etiladi va "Kasbiy ta'lim ustasi" lavozimi joriy etiladi.

Tadbirkorlar, usta va mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quvchilarning qiziqishidan kelib chiqib kasbiy ta'limga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkaziladi, kasb to'garaklari tashkil etiladi.

Maktabdagi bo'sh joylar tadbirkorlarga o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitish uchun tekin foydalanishga beriladi. Ularga soliq va boshqa bir qator imtiyozlar beriladi.

O'quv kursini tamomlab, imtihondan o'tgan o'quvchilarga malaka sertifikatini beriladi.

"Maqsadimiz - maktab bitiruvchisi hech bo'lmaganda bitta kasbni egallab katta hayotga qadam qo'ysin". [1]

Ta'lim menejmenti - bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o'ziga xos pogonaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta'lim oluvchilar jamoasi. Shunga ko'ra boshqaruvni turli xil modellar asosida amalga oshirish mumkin: integral model, birinchi pogona - pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish, ikkinchi pogona - o'quvchilar faoliyatini boshqarish.

Umuman olganda, ta'limda boshqaruv yondashuv va uning modelini yaratilishi ta'lim samaradorligini ifodalovchi, ishlab chiqarish va maktab ta'limi tizimi o'rtasidagi aloqalarni, maktab ta'lim tizimida o'quvchilarning nazariy tayyorgarligini amaliyot bilan bog'liqligini kuchaytirishi bilan bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadni amalga oshirish mexanizmlaridan biri umumta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv jarayonlarida ijodkorligini oshirish, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda zamonaviy rahbarlarning boshqaruv usullari va rahbar mas'uliyatini oshirishdan iborat. Shuningdek kreativ boshqaruv asosida yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati, mazmuni, innovatsion g'oyalarni shakllantirish, kreativ maqsadlarni amalga oshirish, ijodkorlik - ya'ni muammoni topish va aniqlash qobiliyati, katta loyiha va dastur g'oyalarni yaratish uchun funktsionallik boshqaruvni amalga oshirish. Shu asosida muassasada o'quvchilarning bilim olishlari va kasb egallashlarini uyg'unlashgan holda tashkil etish ishlarining mazmun mohiyati, zamonaviy va kelajak kasblarini tanlashda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlariga qarab kasbga yo'naltirishdan iborat. Maktablarda o'quvchilarning kasb tanlash va malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarida boshqaruvni to'g'ri yo'lga qo'yish, mehnat bozori talablarini o'rganish, maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasi hamkorligini yo'lga qo'yish bugungi zamon talablaridan biridir.

2023-yil TALIS tadqiqotlari natijalariga ko'ra maktab direktorlarining xizmat vazifalari ro'yxati juda keng va uzun. Butun o'quv yili davomida ular ma'muriy va boshqaruv funksiyalarini bajarishga o'z vaqtining uchdan bir qismini (39%) sarflaydi, bu qoidalar va ko'rsatmalarni ishlab chiqish, hisobotlarni tayyorlash, maktab budjeti, dars jadvallari, sinflarni shakllantirish va rasmiy ta'lim organlarining so'rovlariga javob beradi. Direktorlar ish vaqtining faqat beshdan bir qismi strategik faoliyatga, jumladan, uzoq muddatli rejalashtirish, maktabni rivojlantirish rejalarni ishlab chiqish va xodimlarni yollash kabi kadrlar masalalarini hal qilishga bag'ishlangan. Ularni xorijiy hamkasblari bilan solishtirganda, o'zbekistonlik maktab direktorlari o'quv va ta'lim bilan bog'liq faoliyatga kamroq vaqt sarflaydilar (shu jumladan, o'quv dasturlarini tayyorlash, dars o'tish, o'qituvchilarning darslariga kirish, ustoz-shogird amaliyoti, o'qituvchilar malakasini oshirish) - 13%. Lekin bunday faoliyat ko'pincha ta'lim jarayonini boshqarishning asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Singapur direktorlari bu muhim vazifalarga ish vaqtining beshdan bir qismini sarflaydi, PISA tadqiqotining boshqa yetakchi davlatlari ham shunga o'xshash natijalarga ega (19-ko'rsatkichga qarang). Direktorlar eng kam ish vaqtini (5%) mahalliy va hududiy jamoalar, tadbirkorlar va biznes hamda sanoat korxonalarini vakillari bilan o'zaro hamkorlikka sarflaydi. [2]

Iqtisodiy rivojlantirishning boshqaruvli g'oyasi amalga oshirishi nuqtai nazaridan milliy manfaatlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lishi shart. Shu bilan birga, ta'lim tizimidagi boshqaruvlarni loyihalashda, avvalambor, maqsadga muvofiqlik va samaradorlik talablari hisobga olinish bilan ajralib turadi. Boshqaruvni shakllantirish «rentabellik» bozor mexanizmiga asoslanishi va loyihalashda muhim omillar uning diversifikatsiyasi va innovatsionligi bo'lishi namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarishning zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimidagi vazifalaridan biri ta'lim va ilm-fanning turli shakllardagi integratsiyasini (muvaqqat ijodiy jamoalar, ishlab chiqarish majmualari, markazlari, texnoparklar, texnopolislar) rivojlantirish bilan bog'liqdir. Milliy dasturda ishlab chiqarishning zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimidagi mavqeini kuchaytirishning ta'minlanishi ta'limni korxonadagi unumli mehnat bilan, jumladan ishlab chiqarish amaliyoti jarayonidagi mehnat bilan qo'shib olib borish asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda birgalikda ilmiy- texnologiya ishlanmalarini olib borishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish, ta'lim oluvchilarni mehnat jamoalarida tarbiyalash (mehnat, ma'naviy va jismoniy tarbiyalash), ishlab chiqarishning talab ehtiyojlarini inobatga olib, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologiya muammolarini hal etish uchun maktab va ishlab chiqarish salohiyatini jalb etish, o'quvchilarning ilg'or texnologiyalar sohasidagi ko'nikmasini bevosita ishlab chiqarishda muntazam oshirib borish, ishlab chiqarishning yuqori malakali kadrlarini ta'lim jarayoniga va pedagogik faoliyatga jalb etish, ishlab chiqarish amaliyotini o'tish uchun ta'lim oluvchilarni ish joylari bilan ta'minlash kabilarni birgalikda olib borishdan iboratdir.

Mehnat intellektual salohiyatining o'sishi, yuqori texnologiyalar va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, shuningdek kasblarning chuqurlashtirilgan ixtisoslashuvi va xodim uchun zarur bo'lgan bilimlar hajmining o'sishi bilan bog'liq. Mavjud talab va iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlariga ko'ra jamiyatning rivojlanishi ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jarayonlarini mos holda takomillashtirishni taqazo etadi. Bu o'rinda ularning integratori kreativ boshqaruvdir. Boshqaruvlarning biron bir sababga yoki boshqa sabablarga ko'ra qoshilishi turli xil ilmiy, texnologik va ta'lim yangiliklarining o'z-o'zidan to'planishini emas, balki yangi bilimlarni, ishlab chiqarish va ta'lim texnologiyalarini tarqatishning ma'lum tizimini tashkil qiladi. Shu bilan birga, ilmiy, texnik, texnologik va pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqarishga samarali ravishda o'zgartirish va shu orqali uning raqobatdosh ustunliklarini yaratishning eng muhim sharti barcha boshqaruv a'zolari o'rtasida barqaror aloqalar tarmog'ini shakllantirish hisoblanadi.

Boshqaruvlarni o'rganishda turli xil yondashuvlar mavjud: ma'lum bir infratuzilma elementlari nuqtai nazaridan ushbu konsepsiyani ko'rib chiqadiganlar, ortiqcha qiymatni yaratish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan, ma'lum bir sohada faoliyat yuritadigan va bir-birini to'ldiradigan, ichki resurslardan samarali foydalanadigan va bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga hissa qo'shadigan tadqiqot institutlaridir. Kreativ boshqaruv va ularni tashkil etuvchi tashkilotlar hamda ularning ijtimoiy hamkorliklarini jadal, rivojlanishi esa tashkil etilish holati va mexanizmiga bog'liq.

Evropa mamlakatlarida boshqaruvlarni rivojlantirish tajribasi mintaqalar va munitsipalitetlarning raqobatbardoshligini oshirishda ularning yetakchi rolini ko'rsatdi. Masalan, strategik rivojlanish rejalarini shakllantirishga kreativ boshqaruv natijasida Finlyandiya raqobatbardoshlik reytingi bo'yicha Yevropada birinchi o'rinda turadi.

Adabiyotlar taxlili boshqaruvlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi va to'sqinlik qiladigan bir qator shartlarni aniqlashga imkon berdi. Boshqaruvlarning rivojlanishiga ijobiy sharoitlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: texnologik va ilmiy infratuzilmalarning mavjudligi aholining hamkorlikka psixologik tayyorgarligi; barqaror hududi boshqaruvni rivojlantirish strategiyasi; loyihani boshqarish usulini muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyati; ehtiyojlar, asbob-uskunalar va texnologiyalar bo'yicha boshqaruv sub'yektlari o'rtasida ma'lumot almashishsh ta'minlaydigan axborot texnologiyalarini rivojlantirish shular jumlasidan.

Ishlab chiqarish korxonaga negizidagi trening tadqiqot uchun «fan - ta'lim - ishlab chiqarish» integratsiyalashgan tizimidagi ichki elementlarning o'zaro tartibga solishi tufayli o'z-o'zini ko'rishga imkon beradigan faoliyatni tashkil qiladi. Bu zamonaviy sharoitda ishlab chiqarishning strategik maqsadlarini hal qilishga imkon beradi va shu bilan birga, bu ishlab chiqarish ichidagi o'z-o'zini kasbga tayyorlashda yordam beradi. Ishlab chiqarishda o'z-o'zini kasbga tayyorlash mehnat bozorida ta'lim sifatini oshirishda imkon beradigan kreativ boshqaruv mexanizmlarini yaratilishida ahamiyatlidir. Ma'lumki, maktab ta'limi tizimini modernizatsiyalash bo'yicha

olib borilayotgan tadqiqot va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish ta'lim jarayonini isloh qilish va rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega. Odatda, maktab ta'limini isloh qilish jarayonida 2 ta eng muhim ustuvor yo'nalish ilgari suriladi:

- maktab ta'limini moddiy-texnik bazasini shakllantirish;
- tadbirkorlar, usta va mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quvchilarning qiziqishidan kelib chiqib kasbiy ta'limga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkazish.

Bu har ikkala ustuvor yo'nalish maktab ta'limi tizimida ta'lim sifatini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashda alohida ahamiyatga egadir. Maktab ta'limi tizimini ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'lash va simbiotik aloqasi asosida integratsiyani tashkil etish yuqori malakali kadrlar tayyorlashning bosh mezoni bo'lib xizmat qiladi. Bunda maktab ta'limida tahsil olayotgan o'quvchi o'qish davomida ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi yoki amaliy mashg'ulotlar ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilsa, malaka va tajribasi ortishi bilan birga mavjud muammolar yechimiga qaratilgan kasb hunar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Jamiyatning rivojlanishida maktab ta'limi tizimi muhim rol o'ynaydi. Chunki davlatning eng yuqori boshqaruv organidan to'quygacha bo'lgan tizim uchun munosib kasb egalari maktablarda tayyorlanadi. Maktabning xalqaro miqyosdagi nufuzi eng avvalo tayyorlaydigan zamonaviy kadrlari salohiyatiga bog'liq.

Amerika, Yaponiya, Janubiy Koreya, Angliya, Germaniya kabi davlatlarning tajribalaridan ma'lumki, maktablarda shakllangan bilim va ishlab chiqarish jarayoni bilan kuchli hamkorlik yuqori malakali kasblar tayyorlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Shular singari, har bir maktab mintaqaviy sharoit va mavjud imkoniyatlar asosida yuqorida qayd etilgan maqsadga erishishga harakat qilishi kerak. Xalqaro darajada yuqori nufuzga ega bo'lgan ko'pgina maktablarning jahon miqyosida mashhur bo'lishiga sabab bir tomondan davlat siyosati bo'lsa, ikkinchi tomondan maktab ta'limi va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning qanday shakl va mazmunda tashkil etilishiga bog'liq.

Tabiiyki, bunda qator savollar paydo bo'ladi: ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini qanday amalga oshirish mumkin va uning samaradorligi qay darajada bo'ladi? Ta'lim va fan o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish va uni ishlab chiqarish hamda maktab ta'limi bilan integratsiyasining algoritmi qanaqa? Ishlab chiqarish jarayonini ilmiy jarayonni ajralmas bo'lagi sifatida tashkil qilish mumkinmi? Kreativ ta'limni o'zi nima?

Tarixiy manbalar asosida shuni qayd etish mumkinki, mamlakatni rivojlantirish bilan bog'liq holda fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqani tashkil etish va boshqarishni tahlil qilish mexanizmi, nazorat va baholash imkoniyatlari bo'lgan. Maktab ta'limi tizimida esa o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini bog'liqligini o'rganish, zamonaviy ilmiy bilimlarni qo'llash hamda ilmiy va amaliy metodlar asosida ish jarayonini tashkil qilish uchun har bir mutaxassislik bo'yicha ma'lum fanlar kompleksi tanlangan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish tuzilmasi fan-ta'lim tuzilmasini bozor iqtisodiyoti asosida tashkil etish iqtisodiyotni o'sishni ta'minlovchi tizimni shakllantira olmadi.

Innovatsion rivojlanish stansiyasining yuzaga kelishi ko'pgina davlatlar boshqaruvi oldiga ta'lim jarayonini isloh qilishning optimal modelini ishlab chiqarish vazifasini qo'ydi. Bunda innovatsion iqtisodiyot talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash mammosi eng asosiy vazifa sifatida rejadani joy oldi.

Fan va texnika jadal rivojlanayotgan bugungi kunda maktab ta'limi tizimida mustaqil ta'lim jarayonining rivojlantirish va "Ilm orqali bilim" texnologiyalariga asoslangan tizimni shakllantirish asosida "ta'lim-fan-ishlab chiqarish kompleksi"ni tashkil etish va uning o'rtasida innovatsion-integratsion mexanizmni takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, fanda ochilayotgan yangi-yangi kashfiyotlar asosidagi ilmiy axborotlarni o'quvchi qisqa muddatli o'qish davrida o'zlashtirish imkoniyatiga ega emas. Ikkinchidan, jamiyatdagi hayotiy talablar juda tez o'zgarayotgan bir paytda ishlab chiqarishda ham yangi-yangi muammolar yuzaga kelmoqdaki, bu esa yaratilayotgan ilmiy kashfiyot va ixtirolarga yanada jiddiyroq yondashishni talab etmoqda.

Shuning uchun maktabda ta'lim jarayonini hayotiy talab va muammolar yechimiga mos

holda takomillashtirib borish lozimki, toki o'quvchining imkoniyat va layoqati kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yechishga qodir bo'lsin. Ana shundagina ijtimoiy jamiyat va uning iqtisodiy barqaror rivojlanishiga asosli tarzda erishish mumkin bo'ladi. Chunki bugungi kun ish jarayonida qo'llanilayotgan texnologiya ertangi kun talabiga javob bermasligiga shak-shubha yo'q. Buning uchun maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish hamda ularning simbitoik kompleksini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shundagina ishlab chiqarishda jadal o'sish bo'ladi va iqtisodiy taraqqiyot ilgarilab boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda «Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 997-son qarori.
4. Pardabaev J.E. ““STEAM” - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852
5. Miraliev D. Jahon ta'lim tizimi. O'quv uslubiy majmua. T.: Iqtisodiyot., 2016 y., 30-bet
6. Sh.E.Ne'matov, O'.O.Tohirov, G.Yadgarova, N.Tashbaev. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzviyligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari.

FORSAYT TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA TALABALARNING TA'LIM JARAYONLARINI PEDAGOGIK LOYIXALASHTIRISH

*Muminov Komiljon Axmadjonovich,
Toshkent Amaliy Fanlar univristeti Informatika kafedrası tadqiqotchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.035>*

Annotatsiya. Ushbu maqola OTMning bakalavr ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalari hamda pedagogik oliy ta'lim professor o'qituvchilari, uchun mo'ljallangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalari asosida metodik takomillashtirishda ta'limning innovatsion tashkiliy-didaktik shakllarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari va sifat ko'rsatgichlari, axborot-didaktik ta'minoti tavsiflangan. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini Forsayt texnologiyalar asosida takomillashtirish metodikasi, innovatsion yondashuv asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Forsayt, texnika, innovatsion, markaz, menejment, monografiya, intellekt, transferi, markaz, akselerator, startup, biznes, inkubator.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ПРОЕКТИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ СТУДЕНТОВ ПО ФОРСАЙТНЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ

*Муминов Комилджон Ахмаджонович,
Ташкентский университет прикладных наук, научный сотрудник кафедры информатики*

Аннотация. Данная статья предназначена для студентов бакалавриата вуза и преподавателей высшего педагогического образования. Описаны педагогические условия и качественные показатели использования инновационных организационно-дидактических форм обучения в методическом совершенствовании творческих компетенций обучающихся на основе технологий предвидения, информационно-дидактического обеспечения. Освещен метод совершенствования творческих компетенций студентов на основе технологий Форсайт, инновационный подход.

Ключевые слова: Форсайт, техника, инновационный, центр, менеджмент, монография, интеллект, трансфер, центр, акселератор, стартап, бизнес, инкубатор.

PEDAGOGICAL DESIGN OF STUDENTS' EDUCATIONAL PROCESSES UNDER FORSITE TECHNOLOGIES

*Muminov Komiljon Akhmadjonovich,
Tashkent University of Applied Sciences, researcher, Department of Informatics*

Abstract. This article is intended for undergraduate students of the Higher Educational Institution and professors of higher pedagogical education. Pedagogical conditions and quality indicators of using innovative organizational and didactic forms of education in the methodical improvement of students' creative competencies based on foresight technologies, information and didactic support are described. The method of improvement of students' creative competences based on Forsayt technologies, innovative approach is covered.

Keywords: Forsite, technique, innovative, center, management, monograph, intelligence, transfer, center, accelerator, startup, business, incubator.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillapga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, Qaroridagi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlanish Konsepsiyasida" Oliy ta'lim o'quv yurtlarida ilmiy – tadqiqot ishlarini natijadorligini oshirish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini yaratish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilandi: oliy ta'lim muassasasida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar

natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish; oliy ta’lim o‘quv yurtlarida forsayt markazlari, texnopark, innovatsion texnologiyalar transferi markazlari, akselerator, startap, biznes inkubatorlar tashkil etish va ularni rivojlantirishning dolzarbligiga alohida e’tibor berila boshlandi.

Oliy ta’lim muassasalari va korxonalar hamkorligining asosiy talabi korxonalar talablari asosida bilim, ko‘nikma va malakali ega bo‘lgan kadr tayyorlashdan iborat. OTMlar va korxonalar birgalikda o‘quv rejalari ishlab chiqadilar, amaliy o‘rgatadilar va o‘qitadilar, ta’lim maqsadlarini aniqroq ko‘rsatadilar va o‘qitishda faqat nazariy ma’lumotlar bilan chegaralanishni kamaytiradi. Talabalar korxonalar talablariga rioya qilishlari va o‘rganish uchun tashabbus ko‘rsatishlari kerak. Iste’dodlarni tarbiyalash jarayonida innovatsion g‘oyalar va hamkorlikning yangi usullarini o‘rganishimiz, o‘qitishimiz, amaliyot va ishdagi maqsadlarimizni izchil saqlashimiz kerak.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarning ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishda fan dasturlari, o‘quv rejalari, raqamli darsliklar, osonlashtirilgan QR-kod orqali yuklab olishlar, multimediali dasturlar bilan birgalikda aynan korxonalaridagi ishlab chiqarishlar uchun mo‘ljallangan dasturlar xam qo‘llanildi. SolidWorks - dasturiy mahsuloti avtomatlashtirilgan dizayn (SAPR) va 3D modellash uchun ishlatiladigan eng keng tarqalgan dasturiy vosita hisoblanadi. Paket kelgusi 3D bosib chiqarish uchun tafsilotlarni yaratishga imkon beradi. Bu dizaynerni har qanday xatolardan himoya qiladi, bu muqarrar ravishda mahsulotning proyeksiyalarini qo‘lda chizish jarayonida paydo bo‘ladi.

Nx-CAD/CAM/CAE – Siemens PLM Software tomonidan ishlab chiqarilgan tizim bo‘lib, dastur parasolid geometrik modellash yadrosidan foydalanadi. NX UNIX va Linux, MacOS X, Windows kabi operatsion tizimlarda ishlaydi.

Plant Simulation – tizim va jarayonlarni simulyatsiya qilishning dasturiy ta’minoti hisoblanib, ishlab chiqarish tarmog‘idan individual chiziqlar va uchastkalariga loyihalashtirishning barcha darajalari uchun optimallashtirish, resurslarni yuklash, logistika va boshqaruv uchun mo‘ljallangan.

Koreya universitetlari ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikda eng yaxshi texnologiyalarni ishlab chiqish, tijoratlashtirish imkoniyatlari va infratuzilmasiga asoslangan tadqiqot modellarini yaratishgan. Shu jumladan, zamonaviy texnologik muammolar, texnologiyalar va nou-xau, texnologiya xolding kompaniyalari tizimi va sanoat kooperatsiyalari uchun kadrlar tizimini ishlab chiqishni tashkil etadilar. Ushbu imkoniyatlar va vazifalarga asoslanib, milliy sanoat raqobatbardoshligini oshirishga yordam berish uchun korxonalar, tadqiqot institutlari, hukumat va mahalliy hukumatlarni birlashtirgan sanoat-universitet hamkorlik tizimining yangi modeli yaratilgan.

Mamlakatimizda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti qoshida Akademik Innovatsiyalar Fondi grant loyihasi doirasida institut rektorining 28.06.2019 yildagi 661/m-sonli buyrug‘i asosida “Forsayt markaz” tashkil etildi, forsayt markaz uchun mebellar va kompyuter texnikalari xarid qilindi va markazning “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Forsayt loyihadagi ishtirok etuvchi mahalliy va xorijiy ekspertlar guruhi shakllantirildi.

“Oliy iqtisodiyot maktabi”ning Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Xalqaro “Forsayt markaz” (Rossiya) bilan aloqa o‘rnatildi, ularning ish tajribalari va forsayt uslublari o‘rganildi.

Mazkur Xalqaro Forsayt markaz tomonidan 2019 yil 20-22 noyabr kunlari tashkil etilgan “Форсайт и научно-техническая и инновационная политика” mavzusidagi Xalqaro anjumanda loyiha texnik koordinatori prof. O.D.Raximov va prof. I.Tursunovlar ishtirok etishdi.

2019 yil 30 oktabr kuni “O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida innovatsion siyosat va forsayt texnologiyalar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi va unga Respublikamizning 15 dan ortiq OTM hamda xorijiy OTMning Respublikamizdagi filillari ishtirok etishdi. Anjuman materiallari to‘plam shaklida chop etildi.

Hozirgi kungacha markaz tomonidan 30 dan ortiq forsayt texnologiyasiga oid ilmiy maqolalar chop etildi, shundan 14 tasi RINS va 4 tasi Skopus bazasida indeksatsiya qilinadigan

ilmiy jurnallarda nashr etilgan. "Forsayt menejment" fanidan o'quv qo'llanma nashr etildi (guvohnoma №429-239, 30.12.2022y.). "Rivojlantiruvchi ta'limda forsayt texnologiyalar" nomli monografiya "Intellekt" nashriyoti orqali nashr etildi. 2 ta pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi tayyorlandi.

"Menejment" ta'lim yo'nalishi 2022-2023 o'quv yili 3 kurs o'quv rejasining tanlov fanlar blokiga "Forsayt-menejment" fani kiritilgan va hozirgi kunda ushbu fan o'qitilmoqda. Fanning o'quv dasturi, ma'ruza matnlari to'plami hamda "Forsayt menejment fanini o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi va o'quv jarayoniga tadbiiq etilgan.

2023-2024 o'quv yilidan boshlab "Ekologiya" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tanlov fanlar blokiga "Ekologik forsayt" fani kiritildi.

Forsayt nisbatan yangi atama hisoblandi. Hozirgacha Forsaytning yagona ta'rifi mavjud emas. Forsayt texnologiya bilan shug'ullanuvchi har bir tadqiqotchi yoki ekspertlar guruhi o'zlarining ta'riflarini tavsiya etishgan va ularda forsaytning u yoki bu tomoni yoritilgan xolos.

Ta'limda prognozni ta'minlash uchun barcha aktsiyadorlarga ta'limning yanada yaxshi va rivojlangan kelajagini rivojlantirishga hissa qo'shish imkonini beradigan ilmiy va oqilona asosga ega bo'lish tavsiya etiladi. Nazariy asosga ko'ra, fyuchers tadqiqotlari va ta'lim uchun quyidagi asoslar taqdim etiladi. Bu doirada ko'rinib turibdiki, ta'limning kelajakdagi umumiy ko'rinishini tasvirlash, mumkin bo'lgan kelajakka tayyorgarlik ko'rish va ogohlantirishni erta idrok etish ta'limda oldindan ko'ra bilishning zarurati hisoblanadi. Prognoz bashorat qilishni talab qiladi, ammo prognoz - bu barcha ta'lim aktsiyadorlarining fyuchers tadqiqotlari imkoniyatlaridan foydalanish orqali tizimning kelajagini bashorat qilishda rol o'ynashi mumkin bo'lgan passiv faoliyat. Bashorat qilish (ikki haftagacha, oldindan va keyingi ko'rish) bosqichlarini olish uchun oldindan ko'rish modelini chizish kerak. Ushbu modelni xaritalash orqali fyuchers tadqiqotlari ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ba'zi tadqiqotchilar bashorat ta'sirini sifatli baholash uchun ichki mezonlarni (masalan, aktyorlar, jarayonlar, maqsadlar, kirishlar, natijalar) hamda atrof-muhit va tashqi omillarni tahlil qilishni taklif qilishdi.

Ko'pgina ta'lim sohalarida "Iqtisodiyot tamoyillari", "Ekologiya tamoyillari", "Muhandislik tamoyillari" va boshqalar sarlavhasida "tamoyillar" so'zi bo'lgan kirish darsliklari mavjud. Ushbu darsliklarda bayon etilgan tamoyillar o'n yillik ilmiy ishlar davomida paydo bo'lgan tegishli sohalar uchun asosiy birlashtiruvchi va tartibga soluvchi tushunchalardir. Prinsiplar hamma narsa qurilgan asosiy taxminlar va istiqbollarni ifodalaydi. Ular ushbu sohaga yangi kelgan va uni o'zlashtirish yo'lida ilk qadamlarni qo'yayotgan talabalar uchun muhim ma'lumotnoma bo'lib xizmat qiladi. Prinsiplar - bu qadimdan pedagogik yondashuv bo'lib, Aristotelning birinchi tamoyillarni narsa ma'lum bo'lgan birinchi asos sifatida ta'riflashiga borib taqaladi. «Prinsiplar» darsliklarining ko'pligi va ulardan ta'limda foydalanishning uzoq tarixi shuni ko'rsatadiki, birlashtiruvchi tamoyillarning aniq to'plami talabalarni murakkab mavzular va intizom asoslarini qanday samarali o'ylash va tushunishga o'rgatishning foydali usuli bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, taxlil qilishda fyuchers tadqiqot adabiyotlarini ko'rib chiqish va sintez qilish asosida Fyuchers tadqiqotlari uchun asosiy tamoyillar to'plamini muhokama qiladi. Printsiplar to'liq emas, lekin bu sohada eng ko'p ifodalangan asosiy g'oyalarni ifodalaydi.

Iqtisodiyot tamoyillari (masalan, odamlar rag'batlantirishga javob beradi, savdo hammaning farovonligini oshirishi mumkin, iqtisodiy tizimlar va ular qanday ishlaydi, jamiyat inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi qisqa muddatli kelishuvga duch keladi) kabi bizning kelajak haqidagi fikrimizni shakllantirish uchun ushbu tamoyillar mo'ljallangan.

Kelajak juda murakkab va ko'pincha paradoksal bo'lib, uni ta'lim tizimining barcha darajadagi talabalari uchun qiyin sohaga aylantiradi. Kelajak haqidagi tasavvurimizni cheklaydigan va buzib ko'rsatadigan ko'plab kognitiv noto'g'ri qarashlar, muhim o'zgarishlarni tasavvur qilish qobiliyatimizni cheklaydigan miyaning "qo'shimcha aloqasi" va, ehtimol, eng muhimi, aksariyat ta'lim tizimlarida bashoratli ta'limni e'tiborsiz qoldiradigan masalalarni yanada murakkablashtiradi. Dunyo bo'ylab ta'lim muassasalaridagi talabalarning katta qismi hech qachon kelajak haqida tanqidiy fikrlash yoki bashoratni rivojlantirish va takomillashtirish

strategiyalari haqida o'rgatilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Petit Jean, M., & Brunet, S. (2017). On the philosophical foundation of futures research. En Does anticipation matter for public administration? The case of the Walloon Region (Belgium). *Foresight*, 19(3), 280-290. Doi: 10.1108/FS-10-2016-0049],
2. González, F., y Vátimo, S. (2012). Procesos de inteligencia colectiva y colaborativa en el marco de tecnologías web 2.0: conceptos, problemas y aplicaciones. *Anuario de Investigaciones*, XIX, 273-281. Argentina: Universidad de Buenos Aires.]
3. Medina, J., y Ortegón, E. (2006). Manual de prospectiva y decisión estratégica: bases teóricas e instrumentos para América Latina y el Caribe (Manual 51). Santiago de Chile, Chile: Ilpes-Cepal-ONU.
4. Popper, R. (2011). Metodología de la prospectiva (pp. 85-138). En L. Georghiou, J., Cassingena Harper, M., Keenan, I., Miles, y R. Popper, Manual de Prospectiva Tecnológica. Conceptos y práctica. México: Flacso
5. Popper, R., Georghiou, L., Keenan, M., y Miles, I., (2010). Evaluating Foresight: Fully-Fledged Evaluation of the Colombian Technology Foresight Programme (CTFP). Cali, Colombia: Universidad del Valle. Retrieved from <http://community.iknowfutures.eu/pg/file/popper/view/2204/evaluating-foresight-fullyfledged-evaluation-of-ctfp>.
6. Shuff, P. V., y González, L. (2018). La vinculación entre los estudios prospectivos y el proceso de elaboración de políticas públicas. *Aprendizajes del ejercicio CNIA-INTA. Revista de Estudios Políticos y Estratégicos*, 6(1), 32-47.
7. <https://www.adlittle.com/en/insights/viewpoints/technology-foresight-anticipating-future-impact>.
8. Raximova Dilrabo Oktyabrovna. BO‘LAJAK MENEJERLARDA FORSAYT KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA “FORSAYT METODLARI” DAN FOYDALANISHNING ZARURIYATI. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5 th April, 2023 ISSN: 2835-5326 Website: econferenceseries.com.
9. Andersen va Andersen, 2014; Bas va Guillo, 2015; Coates, 2010; Dator, 1998; Durance, 2010; Godet, 2007; Godet, 2010; Hatem, 1993; Keenan va boshqalar, 2003; Martin, 2010; Miles, 2010; Rohrbeck va boshqalar, 2015).
10. A.D. Andersen et al. Innovation system foresight *Technol. Forecast. Soc. Chang.*(2014)], [E. Bas et al. Participatory foresight for social innovation. FLUX-3D method (forward looking user experience), a tool for evaluating innovations *Technol. Forecast. Soc. Chang.*(2015)], [J. Coates. The future of foresight—a US perspective *Technol. Forecast. Soc. Chang.* (2010
11. R. Vecchiato, C. Roveda. Strategic foresight in corporate organizations: handling the effect and response uncertainty of technology and social drivers of change. *Technol. Forecast. Soc. Chang.*, 77 (2010), pp.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARINING DIZAYNERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Murodova Nafisa San'atjonovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, 13.00.02 – ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti
<https://orcid.org/0009-0006-5080-4228>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.036>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ijod”, “Ijodiy qobiliyat”, “Ijodkorlik” va “Ijodiy faoliyat” va “Dizaynerlik qobiliyati” tushunchalari tahlil qilinib, oliy ta'lim muassasalari talabalarining dizaynerlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ijod, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, dizaynerlik qobiliyati, ijodiy faoliyat, talabalar, rivojlantirish, bosqich, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchi, ijodiy shaxs, bilim berish.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ДИЗАЙНЕРСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Муродова Нафиса Санъатжоновна
Бухарский государственный педагогический институт, Докторант первого курса
по специальности 13.00.02 – Теория и методика образования и обучения

Аннотация: В данной статье проведен анализ понятий “Творчество”, “Творческий способность”, “Творческая деятельность” и “Дизайнерская способность” а также описано этапы формирования и развития дизайнерских способностей студентов высших образовательных учреждений.

Ключевые слова: творчество, творческие способности, креативность, дизайнерские способности, творческая деятельность, студенты, развитие, этап, будущий учитель технологии, творческая личность, образование.

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING DESIGN SKILLS IN UNIVERSITY STUDENTS

Murodova Nafisa Sanatjonovna
Bukhara State Pedagogical Institute, first-year doctoral student in specialty 13.00.02 –
Theory and methodology of education and training

Abstract: This article analyzes the concepts of “Creativity”, “Creative ability”, “Creative activity” and “Design ability” and also describes the stages of formation and development of design abilities of students of higher educational institutions.

Keywords: creativity, creative abilities, design abilities, creative activity, students, development, stage, future technology teacher, creative personality, education.

Kirish. Mamlakatimizda oliy ta'limni isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, talabalarning zamonaviy bilimlarni egallashi, yetuk mutaxassis bo'lishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib yetishishlari, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda. Biz “Texnologik ta'lim” yo'nalishlarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash va ularning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolarini o'rganar ekanmiz, “Ijod”, “Ijodkorlik» va «ijodiy qobiliyat», “Ijodiy faoliyat”, “Dizaynerlik qobiliyati” tushunchalari yoritilgan ilmiy adabiyotlarga manbalarga murojaat qilib, olimlarning va tadqiqotchilarning ta'riflarini va fikrlarini tahlil qildik.

Asosiy qism. Ijod – intuitsiya, intellektual qobiliyat, doimiy izlanish, ko'tarinkilik, yutuqlar quvonchi, ilhomlanish va to'lqinlanishlar hamda intilish bilan bog'liq bo'lgan ongli faoliyat bo'lib faqat ijodkor shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

T.Kudryavseva ijodning ikkita shaklini ajratadi:

- ijodkorlik «o'zi uchun kashfiyot» sifatida

- ijodkorlik «boshqalar uchun kashfiyot sifatida» [1].

Ijod shaxsdagi yaratuvchilik faoliyati sifatida shakllangan intellektual qobiliyat, kreativligi, ijodiy fikrlash, nostandart fikrlash, intuitsiya, mustaqillik kabi qobiliya va fazilatlarining mavjudligi bilan uzviy bog'liqdir. Shunga o'xshash ko'plab fikrlar va ta'riflarni umumlashtirsak: Pedagogik adabiyotlardagi berilgan tushuncha va fikrlarda "ijod" bu amaliy faoliyat bo'lib, uning natijasi yangi g'oya, buyum, mahsulot sifatida namoyon bo'ladi, shuningdek moddiy olam yoki ma'naviy madaniyatni o'zgartirishning yangi metodlarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ijod natijasi haqiqiy yangi, bu yangilik obyektiv va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda ijod – insonning faoliyat turi bo'lib, unga ijodiy vazifa hamda ijod uchun obyektiv sharoitlar mavjudligi; ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatliligi; ijod uchun shaxsiy sifatlar – bilim, ko'nikma, malakalar va ijodiy qobiliyatlar mavjudligi; ijod natijasining yangiligi va originalligi kabi xususiyatlar keltirilgan. Ilmiy adabiyotlarda ijodiy qobiliyatlar motivatsiya, temperament va aqliy qobiliyatlar bilan bog'liq bo'lgan guruhlariga ajratiladi. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga intellektual faoliyat emas, balki yetarli bilim asosida bajariladigan amaliy faoliyat ko'maklasha oladi.

A.N.Luk fikricha, «ijodiy qobiliyatlar o'z-o'zidan ijodiy yutuqlarga aylanib qolmaydi. Natijaga erishish, ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritish uchun fikrlash mexanizmini ishga tushiradigan «dvigatel» yoki «yurgizish kamari» kerak. Boshqacha aytganda, hoxish va iroda zarur, «motivatsion asos» kerak» [2].

Ijodiy qobiliyat faqat amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Demak, ijod, ijodiy faoliyat shaxsdan ijodiy faollikni talab etadi. Ijodiy qobiliyat rivojlanishi uchun shaxs o'z-o'zini takomillashtirib borishi lozim. Talabalarda ijodkorlikni shakllantirish uzluksiz ta'lim va tarbiyaning barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa oliy ta'limda turli sohalarining taraqqiyotini ta'minlaydigan malakali mutaxassislarini tayyorlanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim bo'lib, ular kelajakda maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchisi hamda ijodkorlikka undovchisi hisoblanadi. «Ijodkorlik» esa - ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat, yaratuvchilik [3] kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Ijodkor shaxsda ijodga barqarorlik, ijodiy faollik, faoliyatning bir necha turida ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli ijodiy natijalarga erishish imkonini beradigan motivatsion-ijodiy yo'nalganlik namoyon bo'ldadi. Ijodkor sifatida shaxsning oldinga doimiy intilishi unga berilgan genetik sifatlarining rivojlanishiga, yangi ijtimoiy o'zgarishlarga tez moslashishiga va o'z o'zini doimiy rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Bugungi kunda axborotning tez kirib kelishi, bilimlarning tez yangilanishi, texnika va texnologiyalarning o'zgarishi aynan ijodkor shaxsga, ya'ni yangicha fikrlashga, o'z oldiga qo'yilgan vazifani mustaqil hal qilishga, nostandart yechimlarni topishga, kreativ fikrlashga, muammolarni mustaqil hal qilishga umuman olganda «yangilik yaratuvchisiga»ga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj kelmoqda.

Bizning fikrimizcha oliy ta'lim muassasasida tayyorlanadigan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi o'zida ijodiy qobiliyatni shakllantirgan, kreativ fikrlaydigan, tashabbuskor, yangi g'oyalarni ilgari surishga qodir, qiziquvchan, o'zini ijodiy faoliyat natijasini namoyon qila oladigan, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik sifatlarini egallagan ijodkor shaxs sifatida shakllangan bo'lishi lozim.

O'tkazilgan izlanilar shuni ko'rsatdiki, shaxs ijodiy qobiliyati faqat aqliy faoliyat emas, balki ko'p qirrali amaliy faoliyatda shakllanadi hamda rivojlanadi, namoyon bo'ladi. Bunda tug'ma iqtidor, temperament, xarakter hal qiluvchi rol o'ynamaydi.

Oliy ta'limda ijodiy faoliyatni amalga oshirishda talabalarining ijodga va ijodkorlikka qiziqishi, intilishi, irodaligi, maqsad sari intilishi, kayfiyati, ilhomi va o'z ijodiy ishi natijasidan faxrlanishi muhim hisoblanadi.

"K.A.Abulxanova-Slavskayaning "Shaxs faoliyati va psixologiyasi" nomli ilmiy ishida yozishicha, ijodiy faoliyat bu faoliyat subyektlarning obyektga va bir-biriga nisbatan faol, ta'sir vositalari va dasturlar bilan vositalangan munosabatlarining o'z-o'zini rivojlantiradigan tizimi" [4].


“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha talabalarga kelajakda maktabda “texnologiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarda tikuvchilik hamda rang tasvir bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish nazarda tutiladi. Bunda talabalarda dizaynerlik qobiliyatlarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

M.N.Marchenkoning fikricha dizaynerlik qobiliyati shaxsning dizaynerlik faoliyatni yuritishda namoyon qiladigan individual sifatlaridir [5].

S.N.Zemelyov esa dizaynerlik qobiliyati shaxsning fikrlash, tasavvur qilish, xotira kabi individual-psixologik xususiyatlarni hamda ijodiy ko‘nikma va malakani o‘z ichiga olgan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kompleks sistema sifatida qaraydi [6].

M.I.Belyayevaning fikricha talabalarining dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim muhitini yaratish lozim [7].

Bizning fikrimizcha oliy ta’lim muassasalarida “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabalarining dizaynerlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun rivojlantiruvchi muhit yaratilishi lozim (1 rasm).



1-rasm. Talabada dizaynerlik qobiliyatni shakllantirish bosqichlari

Birinchi bosqichda guruhdagi talabalarining dastlabki ijodiy qobiliyatlari darajalari aniqlanadi. Bunda talabalar ijodiy qobiliyatiga qarab past, o‘rta va yuqori darajalarga ajratiladi. Har bir darajadagi talabalar bilan alohida o‘rgatuvchi va rivojlantiruvchi tadbirlar amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda aniqlangan darajalarga qarab dizaynerlik qobiliyatni shakllantirishga qaratilgan ishlar amalga oshiriladi. Bu jarayon darsda va darsdan tashqari faoliyatlarda tashkil etiladi. Talabada dizaynerlik qobiliyati shakllangunga qadar bu jarayon olib boriladi. Albatta bunda talabada motivatsiya uyg‘otish muhim hisoblanadi. Uchinchi bosqichda talabalarga mustaqil topshiriqni bajartirish orqali o‘z iqtidorini namoyon qilishga imkon beriladi. To‘rtinchi bosqichda talabaning o‘z o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan master klass va treninglar tashkil qilinadi.

Xulosa. Buning uchun quyidagi didaktik shart sharoitlar amalga oshirilish lozim: jihozlangan amaliyot xonalari va kerakli uskunalar bilan ta’minlash; talabalarining dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish; loyihali topshiriqlar ishlab chiqish, amaliy topshiriqlarning murakkablik darajasini to‘g‘ri hisobga olish, dizaynerlik qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan ilg‘or shakllari, faol metodlardan foydalanish, talabalarni faol izlanishli faoliyatiga yo‘naltirish; talabalarni mustaqil ijodiy ishlashga yo‘naltirish, ijodiy ish

natijasini rag‘batlantirish kabilar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirish ularning ta’lim jarayonidagi faolligini va ijodkorligini oshirishda ham muhim sanaladi.

Foydalanilgan manbalar

Кудрявцева Т.В. Формирование педагогической компетенции социального работника: технологический подход. // Т65 Трансформация научных парадигм и коммуникативные практики в информационном социуме: сборник научных трудов. Томский. – 2010 г. – С 233.

Лук А. Н. Юмор, остроумие, творчество -М.: «Искусство», 1977 - 184 с.

Ҳасанбоев Ж., Х.Тўракулов, М.Хайдаров, О.Ҳасанбоева, Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, - 388 бет. 672 б.

Абульханова - Славская К. А. Деятельность и психология личности - М: Наука,- 1980.-335 с.

Марченко М.Н. Влияние дизайнерской деятельности на развитие способностей обучающихся к творчеству // Международный журнал экспериментального образования. 2013. № 11-3. С. 201-203. 11.

Земелёв С.Н. Развитие дизайнерских способностей в учебной деятельности слушателей системы повышения квалификации // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И.Герцена. 2008. № 32 (70). С. 66-71.

М.И.Беляева. Развитие дизайнерских способностей студентов — будущих учителей технологии. Вестник новгородского государственного университета 2015 №88.

San’atjonovna M. N. Use of infographics method in teaching students design science // Sustainability of Education, socio-economic science theory. – 2023. – Т. 1. – №. 11. – С. 88-91.

San’atjonovna M. N. The importance of developing special skills in preparing students for design activity //International journal of scientific researchers.

Murodova N. Talabalarning texnik ijodkorligi kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 39-41.

Murodova N. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatining mohiyati //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 19-21.

Olimov Q. T. Advanced foreign experiences in modern education and innovative technologies //Bukhara-2015.-81.

Sayfullayeva D. A. Methodology of using autocad software in developing technical creativity of students. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) № 10.2022. – В-661-671

INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Musaeva Amina Karomatovna
Buxoro shahar Osiyo Xalqaro Universiteti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.037>

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning dolzarbligi, shaxs kamolotida kommunikativlikning ahamiyati, kommunikativ kompetentsiyaning nazariy asoslari, zamonaviy o'qituvchiga qo'yilgan talablar, ta'lim jarayonida samarali usullarni qo'llash orqali kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga erishishni ta'minlash, yondashuvlarga asoslangan holda samarali metodikalarni ishlab chiqish va joriy etish, talaba bilan do'stona munosabatlarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini yaratib, kommunikativlikni oshirishning yangi strategiyalarini izlab topishga oid ma'lumotlar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ, kompetentsiya, integratsiya, konstruktiv, metodologiya, innovatsiya, mulqot, madaniyat, nutq, munosabat, do'stona muhit, ta'lim sifati

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ

Мусаева Амина Кароматовна.
Азиатский международный университет Бухары

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальность развития коммуникативной компетентности учащихся на основе инновационных подходов, значение коммуникативности в созревании личности, теоретические основы коммуникативной компетентности, требования, предъявляемые к современному педагогу, обеспечение достижения развития коммуникативных способностей посредством применения эффективных методов в образовательном процессе, разработка и внедрение эффективных методик на основе подходов, основанных на дружеских отношениях с обучающимся создавая инновационную образовательную среду, даны данные и рекомендации по поиску новых стратегий повышения коммуникативности.

Ключевые слова. коммуникативное, компетентностное, интеграционное, конструктивное, методологическое, инновационное, коммуникативное, культурное, речевое, реляционное, дружественное окружение, качество образования.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS BASED ON INNOVATIVE APPROACHES

Musaeva Amina Karomatovna
Asian International University of Bukhara

Abstract. In this article, the relevance of the development of communicative competence of students on the basis of innovative approaches, the importance of communicativity in personality maturation, theoretical foundations of communicative competence, requirements for a modern teacher; ensuring the achievement of the development of communicative abilities through the use of effective methods in the educational process, developing and introducing effective methodologies based on, information and recommendations have been made regarding the search for new strategies to increase communicativity.

Keywords. communicative, competence, integration, constructive, methodology, Innovation, communication, culture, speech, attitude, friendly environment, quality of Education

Kirish. Bugun mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, har tomonlama kompetentli, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni jahon andozalari

darajasiga olib chiqish muammolariga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta’lim sohasidagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta’lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o‘zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog‘liq. Ta’lim-tarbiyadagi sifat o‘zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta’limda sifat va samaradorlik ta’minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “... Yosh avlodni barkamol, ma’naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustakil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bulib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”[1], degan fikrlari yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, pedagogika sirlarini o‘rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta’lim jarayonida ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Mavzu muhokamasi.

Ko‘rinib turibdiki, bugungi kun ta’limi oldida turgan asosiy vazifa bu ta’lim oluvchilarga bilim berish bilan birga ularda hayotiy ko‘nikmalarni tarkib toptirish hamda zaruriy kompetentlikka ega bo‘lishlarini ta’minlashdan iborat. Ushbu talablarni sifatli amalga oshirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir zamonaviy sifatli ta’lim avvalo insonda kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligi bilan baholanadi. Demak, ta’lim jarayonida o‘qituvchining mahorati asosida o‘quvchi bilan kommunikativ munosabatlarni yangi bosqichga o‘tishi quyidagilarni talab etadi:

- o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan kommunikativligini ta’minlash;

- o‘qituvchi va o‘quvchilardagi kommunikativ munosabatlar uzluksiz ta’lim tizimining alohida bir pog‘onasi ekanligini bilish;

- tezkor axborotlar hajmining uzluksiz kengayib borishi o‘qituvchi bilan o‘quvchilar kommunikativ munosabatlar shakllariga o‘zgartirishlar kiritishga ehtiyojni e’tiborga olish;

- o‘qituvchining shaxsiy sifatleri, kasbiy bilimdonligi, pedagogik mahoratiga qo‘yiladigan mezon va talablarni bilish va o‘z ustida muntazam ishlash;

- o‘quvchilarning dunyoqarashi, qiziqishi va qobiliyatini, ehtiyojlarini inobatga olib ish jarayonini tashkil etish;

- ta’lim samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar kommunikativ munosabat usullariga ilmiy asoslangan holda o‘zgartirishlar kiritib borish;

- o‘qituvchining nutq madaniyati, muomala odobi, shaxslararo muloqotga kirishishi, o‘z-o‘zini boshqarishi, muammoli vaziyatlarda yechim topa olishi, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabilar.

Ushbu talablardan kelib chiqib, ta’lim oluvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish samarali natija beradi.

Kommunikativ kompetensiya til o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi va turli kontekstlarda samarali muloqot qilish uchun zarurdir. Kommunikativ kompetensiya nafaqat fe’llaringizdan o‘z otlaringizni bilish, balki haqiqiy hayotda samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Buni “olma” so‘zini bilish bilan chet elda och qolganda so‘rash o‘rtasidagi farq deb o‘ylab ko‘ring. Bugungi globallashtirilgan dunyoda o‘z fikrini aniq ifoda eta olish va boshqalarni tushuna olish juda muhim. Ish suhbatlaridan tortib chet elda do‘stlar orttirishgacha, kommunikativ qobiliyat eshiklarni ochadi va madaniy bo‘shliqlarni yopadi. Xomskiyning “Umumjahon grammatikasi”dan tortib, Krashenning “Kirish gipotezasiga” qadar tilni o‘zlashtirish nazariyalari bizga qanday qilib muloqot qilishni o‘rganayotganimizni va nima uchun ba’zi usullar boshqalardan ko‘ra yaxshiroq ishlashini tushunishga yordam beradi.

Muloqot - bu inson sifatida biz bir-birimiz bilan muloqot qilish va dunyo bo‘ylab sayohat

qilish uchun tayanadigan asosiy qobiliyatdir. O'rta maktab o'quvchilari sifatida biz har kuni tengdoshlarimiz, o'qituvchilarimiz va oila a'zolarimiz bilan doimiy muloqotdamiz. Bizning kommunikativ qobiliyatimizni rivojlantirish bizning fikr va g'oyalarimizni samarali etkazish, shuningdek, boshqalar bizga etkazishga harakat qilayotgan xabarlarini tushunishimiz uchun juda muhimdir. Biz o'rta maktab o'quvchilari sifatida rivojlanishimiz uchun zarur bo'lgan kommunikativ kompetentsiyaning bir jihati bizning fikr va g'oyalarimizni aniq va aniq ifodalash qobiliyatidir. Bu bizdan tilni, jumladan, lug'at, grammatika va sintaksisni yaxshi bilishimizni talab qiladi. So'z boyligimizni kengaytirib, grammatika qoidalariga oid bilimimizni takomillashtirish orqali biz yozma va og'zaki muloqotda o'zimizni yanada samarali ifodalay olamiz.

Lingvistik kompetentsiyadan tashqari, biz muloqotni boshqaradigan ijtimoiy va madaniy me'yorlarni tushunishimizga ishora qiluvchi sotsiolingvistik kompetentsiyani ham rivojlantirishimiz kerak. Bunga tilimiz va muloqot uslubimizni turli auditoriya va kontekstlarga moslashtirishni bilish kiradi. Misol uchun, do'stimiz bilan gaplashganda, o'qituvchi bilan gaplashganda ohangimiz va so'z boyligimizni o'zgartirishimiz kerak bo'lishi mumkin. Kommunikativ kompetentsiyaning yana bir muhim jihati strategik kompetentsiya bo'lib, u tushunishdagi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish uchun aloqa strategiyalaridan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu bizning xabarimizni aniqlashtirish uchun imo-ishoralar yoki ko'rgazmali qurollardan foydalanishni yoki biror narsani tushunmasak, ma'ruzachidan tushuntirish so'rashni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu strategiyalarni qo'llash orqali biz turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatimizni oshirishimiz mumkin.

Kommunikativ kompetentsiyamizni rivojlantirish uchun biz o'rta maktab o'quvchilari sifatida sinfda ham, sinfdan tashqarida ham faol muloqot qilishimiz muhim ahamiyatga ega. Bu sinf muhokamalarida qatnashish, taqdimotlar qilish, munozaralar klubiga a'zo bo'lish yoki hatto tengdoshlarimiz bilan oddiy suhbatlarda qatnashishni o'z ichiga olishi mumkin. Muloqot ko'nikmalarimizni muntazam ravishda mashq qilish orqali biz o'zimizni aniq va ishonchli ifodalash qobiliyatimizni yaxshilashimiz mumkin. Bundan tashqari, yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni aniqlash uchun muloqot qobiliyatlarimiz haqida fikr-mulohazalarni izlash biz uchun juda muhimdir. Bu o'qituvchi yoki sinfdoshidan taqdimot bo'yicha fikr-mulohazalarini so'rashni yoki o'z muloqotimiz natijalarini aks ettirishni va o'zgartirishlar kiritishimiz mumkin bo'lgan sohalarni aniqlashni o'z ichiga olishi mumkin. Fikr-mulohazalarga ochiq bo'lish va yaxshilash yo'llarini faol ravishda izlash orqali biz vaqt o'tishi bilan kommunikativ qobiliyatimizni yaxshilashimiz mumkin.

Bizning kommunikativ qobiliyatimizni rivojlantirishning yana bir muhim omili - bu turli xil muloqot uslublari va vaziyatlariga ta'sir qilishdir. Bu kitoblar, filmlar va yangiliklar maqolalari kabi ommaviy axborot vositalarining turli shakllari bilan shug'ullanish, shuningdek, turli kelib chiqishi va madaniyatiga ega bo'lgan shaxslar bilan muloqotni o'z ichiga olishi mumkin. O'zimizni turli xil muloqot uslublari bilan tanishtirish orqali biz tilning turli kontekstlarda qanday ishlatilishi va talqin qilinishi haqidagi tushunchamizni kengaytirishimiz mumkin. Bundan tashqari, texnologiya o'rta maktab o'quvchilari sifatida qanday muloqot qilishimizni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, xabar almashish ilovalari va videokonferensaloqa vositalari kabi platformalar bizning kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi, bu bizga real vaqtda va uzoq masofalarda boshqalar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Texnologiyadan aloqa vositasi sifatida foydalanish orqali biz raqamli asrda o'zimizni samarali ifoda etish qobiliyatimizni yanada rivojlantirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, biz kommunikativ kompetentsiyamizni rivojlantirishda davom etar ekanmiz, samarali muloqot bilan bog'liq axloqiy fikrlarni yodda tutishimiz muhimdir. Bunga boshqalarning nuqtai nazari va fikrlarini hurmat qilish, shuningdek, so'zlarimiz va harakatlarimiz atrofimizdagilarga ta'sir qilishi mumkinligini bilish kiradi. Muloqotimizda empatiya va e'tiborlilikni qo'llash orqali biz kuchliroq munosabatlar o'rnatishimiz va yanada ijobiy va inklyuziv muloqot muhitini yaratishimiz mumkin.

Bu faqat grammatika va lug'at haqida emas - kommunikativ kompetentsiya shuningdek, qachon gapirishni bilish, qanday faol tinglash va tilingizni turli kontekstlarga moslashtirish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Chang bosgan darsliklar bilan xayrlashing va til ilovalari,

virtual sinflar va AI repetitorlariga salom ayting. Til o'rganishda texnologiyani integratsiyalash uni dinamik, interaktiv va biz aytishga jur'at etmaymiz, qiziqarli qiladi! Eslab yodlashni unuting - vazifaga asoslangan o'rganish sizni kofe buyurtma qilish yoki sayohatni rejalashtirish kabi haqiqiy vazifalarga olib keladi.[2]

Kommunikativ kompetensiya turli kontekstlarda xabarlarini samarali etkazish va tushunish qobiliyatini anglatadi. U lingvistik, sotsiolingvistik, nutqiy va strategik kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish juda muhim, chunki u odamlarga mazmunli muloqot qilish, ijtimoiy o'zaro munosabatlarni boshqarish va akademik va professional sharoitlarda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Til o'rganishdagi innovatsion yondashuvlar qiziqarli va immersiv o'quv muhitini yaratish uchun texnologiya, interfaol faoliyat va vazifalarga asoslangan metodologiyalardan foydalanadi. Ushbu yondashuvlarni integratsiyalashgan holda, o'qituvchilar faol ishtirokni rag'batlantirishlari, haqiqiy muloqotni rivojlantirishlari va mazmunli til amaliyoti uchun imkoniyatlarni taqdim etishlari mumkin, natijada talabalarning kommunikativ kompetensiyasini oshiradilar.

Innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar resurslarning cheklanganligi, o'zgarishlarga qarshilik va o'qituvchilarning doimiy malakasini oshirish zaruriyatini o'z ichiga olishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni yengish uchun strategik rejalashtirish, ta'lim muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlash va til ta'limida innovatsion amaliyotlarning muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlash uchun malaka oshirishga intilish talab etiladi. Pedagoglar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va summativ baholash usullarining kombinatsiyasi orqali baholashlari mumkin. Bu samaradorlikka asoslangan vazifalarni, portfelni baholashni, tengdoshlarni baholashni va o'z-o'zini baholashni o'z ichiga olishi mumkin. Turli baholash vositalaridan foydalangan holda, o'qituvchilar o'quvchilarning til bilimlarini o'lchashlari, muvaffaqiyatlarini kuzatishlari va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli fikr-mulohazalarni taqdim etishlari mumkin. Ikkita o'quvchi bir xil emas, shuning uchun ularning maqsadlari, qiziqishlari va qiyinchiliklarini tushunish qo'lqop kabi mos keladigan metodologiyani loyihalashning kalitidir. Bu til mushaklari uchun mashq rejasini sozlash kabi. Retsept uchun kerakli ingredientlar to'g'ri tartibda bo'lishi kerak bo'lgani kabi, yaxshi ishlab chiqilgan o'quv dasturi va dars rejalari ham samarali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning asosidir. Buni ravonlik uchun yo'l xaritasi deb o'ylab ko'ring, yo'lda bir nechta qiziqarli aylanmalar. Til o'rganishni sevimli seriialaringizni tomosha qilish kabi qiziqarli qilish uchun qidiruvga kirishing. Guruh muhokamalari, rolli o'yinlar va bahslar haqida o'ylab ko'ring - bu o'rganishni kamroq vazifa va qiziqarli kechaga o'xshatib qo'yadigan yaxshi narsalar.[3]

Tasavvur qiling-a, bu dunyoda xatolar ko'ngil qo'ymaydi, balki mahorat sari qadam sifatida nishonlanadi. Konstruktiv fikr-mulohazalar va yumshoq tuzatishlar lingvistik buyuklikka yo'l ochadigan noma'lum qahramonlardir. Pop viktorinalaridan tortib to katta baholargacha taraqqiyotni kuzatish juda muhim. Formativ baholashlar sizni oyoq ostingizda ushlab turadi, summativ baholash esa sizning til qobiliyatingizni namoyish etadigan katta finalga o'xshaydi. Zerikarli rubrikalar va standartlashtirilgan testlar kunlari o'tdi. Portfel baholarini kiriting - o'sish va ijodkorlik shou yulduzlari bo'lgan tildagi g'alabalarizning shaxsiy ko'rgazmasi. Superqahramonlar o'zlarining o'quv montajlariga muhtoj bo'lgani kabi, o'qituvchilar ham doimiy mahoratni oshirish va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. O'qituvchilarga kommunikativ kompetensiyaning to'liq potentsialini ochish uchun vositalar va strategiyalar bilan ta'minlang. Resurslar ba'zan noyob Pokemonga o'xshab ketadigan dunyoda ijodkorlik sizning eng katta boyligingizga aylanadi. Past texnologiyali yechimlardan innovatsion xakerlargacha, zukkolik va qobiliyat bilan resurs labirintida harakatlaning. Chiroqlar, kamera, harakat - imni ochish vaqti keldi. sizning kommunikativ kompetensiya sayohatingiz shartnomasi. Yorqin kelajakni yaratish uchun qiyinchiliklardan saboq olib, g'alabalarni tahlil qiling, moslang va nishonlang. Doimiy rivojlanib borayotgan ta'lim landshaftida kommunikativ kompetensiyaga intilish chegara bilmaydi. Innovatsiyalar va lingvistik mukammallikka intilish bilan ta'minlangan doimiy takomillashtirish ruhini qabul qiling.[4]

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish doimiy harakat va amaliyotni talab qiladigan uzluksiz jarayondir. Lingvistik, sotsiolingvistik va strategik kompetentsiyalarga e'tibor qaratish, muloqot faoliyatida faol ishtirok etish, fikr-mulohazalarni izlash, turli xil muloqot uslublari va vaziyatlariga duchor bo'lish, texnologiyadan foydalanish va axloqiy muloqotni qo'llash orqali biz o'zimizni samarali ifoda etish va murakkabliklarni boshqarish qobiliyatimizni oshirishimiz mumkin. Innovatsion yondashuvlarga asoslangan kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish metodologiyasi talabalarning til ko'nikmalarini oshirish va samarali muloqotni rivojlantirish uchun istiqbolli yo'lni taklif etadi. Interfaol faoliyatni o'z ichiga olish, texnologiyadan foydalanish va maqsadli fikr-mulohazalarni taqdim etish orqali o'qituvchilar kommunikativ kompetentsiyani rivojlantiradigan dinamik o'rganish tajribasini yaratishi mumkin. Oldinga qarab, ushbu yondashuvlarning ta'sirini doimiy ravishda baholash va kasbiy rivojlanishga sodiqlik kommunikativ kompetentsiya pedagogikasini rivojlantirish va til o'rganishda barqaror taraqqiyotni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Pedagoglar til o'rganuvchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishga intilishar ekan, innovatsion strategiyalarning integratsiyalashuvi, shubhasiz, kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish kelajagini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T: O'zbekiston, 2016
2. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: darslik / mualliflar jamoasi; ed. Bordovskoy N.V. - 2-nashr, o'chirilgan - M.: KNORUS, 2011. - 432 b.
4. Zaxarova, I.G. Ta'limda axborot texnologiyalari: oliy ta'lim uchun darslik. darslik muassasalar / I.G. Zaxarov. - M.: «Akademiya», 2008., 338-bet.
5. Oliy ta'limda faol va interaktiv ta'lim texnologiyalari (darslarni o'tkazish shakllari): darslik / komp. T.G. Muxin. - Nijniy Novgorod: NNGASU, 2013. - 97 p.
6. Musaeva Amina Karamatovna. (2024). Formation of Students Communicative Competence. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation* (2993-2777), 2(1), 156–164. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/AJLISI/article/view/2817>
7. Karamatovna, M. A. (2024). Oliy ta'lim jarayoni sifatini innovatsion yondashuvlar asosida oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.
10. Мусаева А. (2023). Инновацион технологияларнинг қўлланилиши орқали университет талабаларида касбий коммуникатив компетенцияни шакллантириш. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 51–58. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/24044>
14. Musaeva Amina Karamatovna. (2023). Formation of Professional Communicative Competence in University Students through the Use of Innovative Technologies. *International Journal on Orange Technologies*, 5(11), 1-5. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/4915>

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARINI NAZORAT QILISH HAMDA BAHOLASH USULLARI

Musayev Jaxongir Payazovich,

pedagogika fanlari doktori, dotsent,

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.038>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish hamda baholashning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. O'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish va baholashning amaldagi tartibi tahlil qilingan hamda ayrim muaamolar ketirib o'tilgan. Shuningdek, o'quvchilarning ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar berilgan. Og'zaki tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish kabi baholash usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari bayon qilingan. O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda e'tiborni qaratish lozim bo'lgan jihatlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: baholash, ta'lim maqsadi, o'quv faoliyati, o'quv topshiriqlari, geografik tasavvur, o'quv ishi natijalari, savol-javob usuli.

МЕТОДЫ КОНТРОЛЯ И ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Мусаев Жахонгир Паязович,

доктор педагогических наук, доцент,

Заместитель начальника управления Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье освещены особенности контроля и оценки знаний и умений учащихся в процессе преподавания географии в общеобразовательных школах. Проанализирован существующий порядок проверки и оценки учебной деятельности учащихся и приведены решения некоторых проблем. Также приведены педагогические требования к проверке и оценке образовательных результатов учащихся. Описаны такие методы оценки, как устный экзамен, экзамен на основе выполнения практических заданий, выявлены их преимущества и недостатки. Отмечены аспекты, на которые следует обратить внимание при учете результатов обучения учащихся школ.

Ключевые слова: оценка, цель образования, учебная деятельность, учебные задачи, географическое представление, результаты учебной работы, метод вопросов и ответов.

TECHNIQUES FOR MONITORING AND ASSESSING THE KNOWLEDGE AND ABILITIES OF STUDENTS IN GEOGRAPHY LESSONS

Musayev Jahongir Payazovich,

Doctor of Pedagogical Sciences, Associate Professor,

Deputy Head of Department of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The characteristics of tracking and evaluating students' knowledge and abilities during the secondary school geography teaching process are highlighted in this article. An analysis of the current process for monitoring and evaluating students' academic work is done, and several issues are resolved. Additionally, the pedagogical requirements for testing and assessing of the students' educational results are also given. The benefits and drawbacks of various assessment techniques, including oral exams and exams based on practical assignments, are discussed. Aspects that should be paid attention to when taking into account the learning

outcomes of school students are noted.

Key words: assessment, purpose of education, educational activities, educational objectives, geographical representation, educational outcomes, and technique of questions and answers.

O'quvchilar bilim va ko'nikmalari nazorat qilish hamda baholash ta'lim jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Demak, tekshirish va baholashning mazmuni ta'lim maqsadiga hamohang o'zgarishi mumkin. Shuning uchun ham bu masala yuzasidan izlanishlar doimiy olib borilmoqda.

Geografiya darslarida baholash masalalari ko'pgina metodist-geograf olimlar A.Ye.Bibik, V.Darinskiy, G.P.Gerasimova, M.K.Kovalevskaya, I.S.Matrusov, L.M.Pancheshnikova, M.V.Rijakov, O.A.Mo'minov, X.X.Xasanov, P.G.Musayev, P.G'ulomov va boshqalar asarlarida o'z ifodasini topgan.

Tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, umuman olganda baholash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Talim-tarbiya jarayonini ham, ma'muriy boshqaruv ishlarini ham tashkil etishda o'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish va baholash ma'lumotlariga asoslaniladi. Ta'lim maqsadiga muvofiq keladigan tekshirish, avvalo, o'qituvchining, shuningdek, o'quvchining kelgusi dars jarayonidagi faoliyatining tarkibi va mazmuniga o'zgartish kiritadi, ya'ni o'quvchi geografiya darslarining qay jihatini o'rganishda ulgurmayotganini payqab tursa, o'qituvchi esa qaysi o'quvchiga qanday yondashish maqbulligini belgilab oladi.

O'quvchining o'qishga va hatto o'qituvchiga bo'lgan munosabati ham ko'p jihatdan uning o'quv faoliyatini naqadar ob'yektiv tekshirilishi va baholanishiga bog'liq. Chunki tekshirish va baholash o'quvchini rag'batlantirish vositasi hamdir. Bular tekshirish va baholashning asosiy funksiyalari sanaladi. Shu bilan birga, maktab ma'muriyati va hatto vazirlik, uning hududiy boshqarmalari ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatini qanday boshqarish maqbulligini belgilashda o'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish va baholash natijasidan foydalanadilar. Demak, tekshirish va baholashning qanchalik ob'yektiv bo'lishi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ishning to'g'ri tashkil etilishiga muayyan ta'sir o'tkazadi [7,9].

Ta'lim xususidagi suhbatlarda, ommaviy axborot vositalarida "o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash" iborasini ko'p eshitamiz va uchratamiz. Bu, ularning tekshirish yoki baholashning tor ma'nosini anglatishiga ko'pincha e'tibor bermaymiz. Ayrim mutaxassislar bilan muloqotda yohud ilmiy ishlarida "o'quvchining bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash" iborasini ham kuzatamiz. Bu oldingiga nisbatan tekshirish va baholashning ko'p qirrali ekanini bir qadar mukammal anglatga-da, lekin u ham to'liq emas. Chunki, tekshirish o'quvchining tarbiyalanganligi – e'tiqodini aniqlash va baholashni ham nazarda tutadiku. Bizningcha, "o'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish va baholash" iborasigina asl maqsadni to'la va mukammal ifodalaydi [1].

O'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish va baholashga qarab, o'qituvchi maktab geografiyasining maqsadi va vazifasini qanchalik tasavvur etishini ham bilsa bo'ladi. Darvoqe, maktab geografiyasining maqsadini to'g'ri va to'liq tasavvur etmay turib, ta'lim-tarbiyada to'la muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

O'quv dasturlariga muvofiq, maktab geografiyasi o'quvchilarga o'rta geografik ma'lumot berishga davat etiladi. O'rta geografik ma'lumot zamirida esa o'quvchilarni muayyan geografik tasavvur va tushunchalar bilan qurollantirish, ularda mustaqil geografik bilim egallash taqozo etgan ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, geografik mushohada yuritish quvvati – salohiyatni o'stirish va nihoyat, tarbiyalash vazifalari yotadi [8].

O'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish va baholashning amaldagi tartibi o'quvchilar saviyasini umumlashgan holda mavhum ifodalaydi, xolos. Zero, sinf jurnalidagi "4", "5" yoki "2" bahodan o'quvchilar o'quv dasturi talabining qaysi jihati (qirrasini) yaxshi, qaysinisi a'lo yoki yomon bilishligini anglab bo'lmaydi. Chunki, o'quvchilar javobiga qo'yilgan har qanday ("3", "4" yoki "5") bahoda:

birinchidan, faktik materiallardan nechtasi qanchalik o'zlashtirilgani, bu faktik material kuchli xotira sharofati bilan yodlanganmi yoki xarita, jadval, transparant, rasm kabi bilim manbalaridan tahliliy o'rganish orqali idrok etilgani;

ikkinchidan, xaritaning o'qish, jadval, diagrammalarni tahlil etish, raqamli ma'lumotlardan

xulosa chiqara bilish kabi ta'limiy ko'nikma va malakalar qay darajada tarkib (kamol) topganligi, voqea hamda hodisalarning ichki va tashqi aloqadorliklarini anglay bilishi qay darajadali;

uchinchidan, geografik jarayon hamda hodisalar rivojini ko'ra olish, aniqrog'i, geografik mushohada yurita olish qobiliyati kabilar yashirin bo'ladi.

Buning ustiga har bir bahoda narsa va hodisalardagi sabab-oqibat bog'lanishlari, geografik ko'nikma va malakalarning naqadar tarkib topganligi, shuningdek, sub'yektning qanchalik tarbiyalanganligi kabilar bilimdonlik darajasini belgilashini har bir o'quvchi anglab yetmas ekan, u faqat faktik materialni, nomenklaturani yodlash bilan cheklanaveradi. Sir emaski, ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchidan faktik ma'lumot (nima, qayerda, qancha kabi)larni bilishnigina talab etuvchi savollarga javob olish bilan qanoatlanadilar.

Kuzatishlardan yana shu narsa ma'lumki, o'quvchilarning bilimi, malakasi qanchalik zaif bo'lsa, ularda qiziqarli xabarlar, topshiriqlar va viktorinalarga qiziqish shunchalik kuchli bo'ladi. Aksincha, xulosa chiqarish, sabab-oqibatni izohlash, asoslash kabi tafakkurni peshlab, fikrni charxlaydigan topshiriqlarni esa xush ko'rmaydilar. Darhaqiqat, pedagogik psixologiya hamda geografiya metodikasi xulosasiga muvofiq, malakaning tarkib topishi faktlarni o'zlashtirishdan ko'ra qiyin kechadi [10].

Faktlar, nom va terminlar muayyan tushuncha, jarayon, qonun, prinsip, g'oya kabi ilmiy kategoriyalarni idrok etish, izohlash va foydalanishga xizmat etmas ekan, ular o'quvchiga ortiqcha yukdir.

Darvoqe, ilg'or o'qituvchilar shunga amal qilib faktlar va terminlarda qanday jarayon yoki aloqadorlik "yashiringan"ini aniqlashga undovchi savol va topshiriqlarni ham nazardan qochirmaydilar. Ammo, bahoda shunday savol yoki topshiriqning javobi bilan faktik ma'lumotni qanday bilishni anglatuvchi javob qorishib ketadi.

To'g'ri, pedagogika, shuningdek, xususiy metodikaga oid adabiyotlarda o'quvchi bilimini tekshirib, so'ngra baholashda javobni sharhlash tavsiya etilsa-da, amalda bunga yetarli e'tibor berilmaydi yoki e'tibor berilsa-da, muayyan o'quvchi javobiga tegishli sharh boshqasidan farqlanishini o'qituvchi hamma vaqt eslab qololmaydi.

Afsuski, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tekshirish va baholashda har bir maktabda va hatto har bir sinf uchun alohida-alohida mezon ixtiro qilinganligi kuzatilmoqda. Aytaylik, muayyan maktabdagi 3 ta VIII sinfdan bittasidagi o'quvchilarning bilimi qolgan ikkitasiga nisbatan zaifroq bo'lsa-da, shu sinfdagi boshqalardan biroz ajralib turadigan bir-ikki o'quvchini a'loga mezon qilib (aslida haqiqiy a'loga loyiq bo'lmasa-da), boshqa o'quvchilarning o'quv faoliyati natijasini shularning saviyasiga nisbatan baholaydilar. Natijada butun sinf o'quvchilarining javobi oshirib baholanadi. Rasmiyatchilikning bu ko'rinishi birmuncha niqoblanganligidan uning oqibatini faqat oliy ta'lim muassasalariga kirish testlarida payqash mumkin. Shu sababli geografiya darslarida ta'lim olganlikni natijalarini tekshirish va baholash tamoyillarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O'quvchilarning ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yiladigan pedagogik talablar (buni P.A.Sorokin ta'rifida berishni ma'qul deb topdik) ta'lim nazariyasi va amaliyotida quyidagicha belgilangan [13]:

Har bir o'quvchining o'quv faoliyatini nazorat qilishni talab etadigan, sinf yoki guruhning o'quv ishi natijalari o'quvchining shaxsiy natijalarining o'rnini almashtirishga yo'l bermaydigan nazoratning individual tavsifi;

Nazoratni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida: boshlang'ich idrok etishdan to bilimlarni amalda qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarida o'quvchilarning o'quv faoliyatlarining boshqa tomonlari bilan birgalikda olib borishning tizimlili;

Nazoratning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini hal etadigan, uni olib borishga o'quvchilarni qiziqtiradigan turli shakllari;

O'quv dasturining barcha qismlarini qamrab olgan, o'quvchilarning nazariy bilimlari, intellektual hamda amaliy ko'nikma va malakalarini tekshirishdan iborat nazoratning keng ko'lamliligi;

O'quvchilarni har jihatdan bilib olmasdan turib, o'qituvchining xato xulosalar chiqarish,

sub'yektiv munosabatda bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, shuningdek, o'zlashtirish natijalarini baholashda baho mezonlariga qat'iy rioya qilishni talab etadigan nazoratning xolisligi (ob'yektivligi);

Yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilish orqali nazoratning ishonchliligi ortadi va o'quv jarayonida o'z vazifalarini hal qilishga imkon yaratiladi.

O'quvchilarning faoliyatini hisobga olish metodlari og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Og'zaki tekshirish. Mazkur metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi.

Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni qismlarga bo'lib ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq, o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda bilimni mustahkamlash uchun oldingi mavzuni to'laligicha so'rashi mumkin. Masalan, o'quvchilarning "O'zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari" mavzusini qanday o'zlashtirganliklarini tekshirishda ana shunday yo'l tutish mumkin. Ular o'z javoblarini isbotlash uchun misol keltiradilar. Xaritadan O'zbekistonning daryolari, ko'llari, suv omborlarini ko'rsatadilar.

Shuningdek geografiya darslarida og'zaki tekshirish geografik mashq, masalalar va amaliy topshiriqlarni amaliy ko'nikma va malakalar baholash maqsadidan kelib chiqib hal etiladi.

O'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda og'zaki tekshirishni ayrim kamchiliklarga ham ega. Jumladan, uni qo'llash jarayonida:

nisbatan ko'p mehnat sarflanadi;

dars mobaynida 3-4 nafar o'quvchiningina bilimni tekshirish mumkin.

Shu bois o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun turli shakllardan foydalaniladi.

Og'zaki ommaviy tekshirish o'quvchilardan og'zaki so'rash bo'lib, mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchilarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo o'quvchilarning nutqini o'stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so'rashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo so'rashning bu shaklida guruhdagi boshqa o'quvchilarning to'laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin.

Kombinatsiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda o'qituvchi bir necha o'quvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og'zaki javob beradi, 3-4 nafar o'quvchi esa xarita bo'yicha topshiriqlarni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo'lib, o'qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma o'quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Geografiya fani bo'yicha bajarilayotgan amaliy topshiriqlarning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Bu usul o'quvchining dars davomidagi nazorat qilish, tekshirishning maxsus turi bo'lib, u o'quvchining darsdagi ishtiroki uchun ball qo'yish bilan yakunlanadi. Bu o'quvchini doimo harakat qilishga va faollikka undaydi.

Geografiya darslarida ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi [4]. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'yektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat ta'limning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.

Tashhishlash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashhishlash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan

boyitilgan baho o‘tmishda o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lgan ta‘limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting – shaxsning jamiyatdagi mavqeyi ko‘rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi [2].

Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan marafon yuguruvchilarda qondagi adrenalini va noadrenalinlarning miqdorini aniqligi Machon va boshqalar tomonidan aniqlangan. Bu natijani Qishki marafon yuguruvchilarda va 40 km ga chang'ichilarda aniqlagan. Uzoq davom etadigan jismoniy ishlar davomida katexolaminlarning ajralib chiqishini oshirish organizmning maxsus reaksiya tipi (giperakbivasiya) bu uning charchaganligidan dalolat beradi. Xayvonlarda xam katexolaminlarning aktivlashishi ularning shug'ullanganlik darajalariga bog'liq ekanligi, kalamushlarni suvda 90 minutlik suzish yuklamalarini muntazam berish orqali Galbo va boshqalar tomonidan aniqlangan. Hokfelt va Goroxovlar tomonidan shu narsa aniqlanganki, jismoniy ish bilan shug'ullanish natijasida jigar va miokartda noadrenalinning miqdori oshganligini aniqlashgan. Bu esa bevosita buyrak usti bezlarining ushbu gormon bilan ta'minlab turishi natijasida sodir bo'ladi. Xuddi shuningdek jismoniy ish ta'sirida miokard va jigarda adrenalinning miqdori xam oshganligi aniqlangan, bu xam bevosita buyrak usti bezining faolyati ekanligi bilan bog'liq. Sportchilarning trinerovkasi davrida yoki musobaqasi paytida siydikda katexolaminlarning almashinuv reaksiyasi oxirgi maxsulotlari bo'lishi va niyainmindal kislotaning miqdorini oshishi bundan dalolat bermoqda. Bu xolatni sportchilar veloergometrda mashg'ulot olib borgan xolatlarida xam kuzatishimiz mumkin ekanligini Payu tomonidan aniqlangan.

Bizga ma'lumki organizmda uglevod va yog'lar zaxirasini boshqarishda oshqozon osti bezi ma'lim axamyatga ega bo'lib hisoblanadi. Buni bezdagi α -xujayralar gormoni glyukogen va β -xujayralar gormoni insulin bajaradi. Shuning uchun xam, yuqori quvvatli jismoniy yuklama xar ikki gormonlarning kundagi miqdorini o'zgarishiga olib keladi.

Muskul ishini bajarish davomida qondagi glyukogenning miqdori asta-sekinlik bilan oshib boradi va uning tugashiga eng yuqori darajaga ko'tariladi. Bu xolat ishning darajasiga bog'liq bo'lib 3-marta 20 minutli sportchini yugurishini tashkil etilgandagina nisbatan, bu jarayonni 4 marta bajarilganda gormonning qondagi miqdori ko'proq oshishi vujudga kelishini Sulton va boshqalar tomonidan aniqlangan. Shunday xolatni Vetkech va boshqalar tomonidan aniqlangan bo'lib, sportchi 100, 1500 va 10000 km ga yugurganda qondagi glikogenlar miqdori ozgina oshishi, ammo u 25000 km yugurganda esa juda katta miqdorda oshib ketganligini ilmiy jixatdan aniqlangan. Bu xolat bajarilayotgan ishning davomiyligi va shiddatiga bog'liq ekanligi xam aniqlangan, ularni 90 minut davomida suzdirlganda, oldindan muntazam shug'ullantirib borilayotgan bunday xayvonlar qonida glyukogenni konsentrasiyasi o'zgarmagan xolda oldin suzdirlmagan yosh kalamushlar qonida uning miqdori keskin oshib ketganligini Galbo va boshqalar tomonidan kuzatildi. Vinder va uning xodimlarini ko'rsatishicha, qisqa muddatli veloergometrda 90 minut shug'ullanish qondagi glyukogenning miqdorini o'zgartirmaydi, ammo va shug'ullanishni muntazam amalga oshirib borilsa uning miqdorini oshib ketishiga olib keladi degan fikrni bildiradi.

Glyukogen gormonining ajralib chiqishini boshqarish simpatik nerv sistemasiga bog'liqdir. Immunosim patoektomiyani amalga oshirish qonga glyukogonni konsentrasiyasini muskul faolyati ta'sirida oshishini to'liq yo'qotishi tajriba natijasida aniqlangan. Bu bevosita β -adrenergik retseptorlarining ish faolyatini yo'qolishi bilan bog'liq bo'lib, buni Ushbu repseptorlarni blokada qilish orqali xam amalga oshirish mumkinligi kalamushlarda tajriba olib borish natijasida aniqlangan. Qonda glyukogen miqdorini oshishi to'qimalarda glyukoza miqdorini kamayib ketishiga konsentrasiyasini oshishiga olib keladi. Buyrak usti bezining mag'iz qismini buzish natijasida glyukogonni qondagi konsentrasiyasini oshishini xam miqdorda o'zgarishiga sabab bo'ladi. Jismoniy ish vaqtida glyukogonni qondagi konsentrasiyasini oshishiga muxum axamyatni alanin aminokislota bajarishligi Feldt va boshqa olimlar tomonidan aniqlangan.

Jismoniy mashq ta'sirida faqatgina glyukogen oshmasdan, balki insulin xam oshadi degan fikrga xar bir kishi keladi. Ammo tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, kishi vaqtida qondagi insulinning konsentratsiyasi kamayishi aniqlandi.

Tredbanda 6,4 km/soat tezlik bilan shug'ullanganda birinchi 30 minut davomida insulinning qondagi miqdori sezilarli darajada o'zgaradi, ammo 1 soat shug'ullangandan so'ng u kamaygan xolda bo'lib, 2 soat shug'ullanish uni yanada kamayib ketganligini Hunter va Sukkarlar tomonidan aniqlangan. Bunday xolatlarini organizmning kislorodga bo'lgan talabini xar xil xolatlardagi bajarilgan ishlar vaqtida xam aniqlangan. Bu ishlar Pruett tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, 6 soatli past darajadagi (organizmning kislorod extiyoji 50 va 70 % bo'lgan) ishlar ta'sirida qondagi insulin miqdori tadqiqot boshidan, uning oxiriga qarab kamayib borishligi aniqlandi va tadqiqot oxirida juda konseptrasiyaga tushib qoldi. Yoqori kislorod extiyoji talab qilinadigan ishlarda (85-90 %) birinchi 10 minut davomidagi ishda uning miqdori bir oz oshdi, undan keyingi ishni bajarish davomida uning qondagi miqdorini kamayib borishi kuzatildi. 10000 m ga yugurgandan keyin Lavine va boshqalarning ma'lumotiga ko'ra insulinning qondagi miqdorini kamayishi kuzatiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, qondagi insulinning kamayishi 15 minut xattoki 10 minut jismoniy ish bajargandan keyin sodir bo'lishligini ilmiy jixatdan asoslab borishgan. Jismoniy ish vaqtida insulin ishlab chiqarilishini kamayib ketishini bevosita β -adrenergik repseptorlarga bog'liq bo'lib bu xolinerjik retseptorlarga bog'liq emasligini Galbo va Luisx kabi olimlar tomonidan aniqlangan.

Kimyoviy yoki immunologik simpatoektomiyani amalga oshirish qonda insulin gormonining katta miqdorda kamayib ketish xolatini yo'qotishligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

Kalamushlarda tiklanish davrida insulinning ishlab chiqarishni oshganligi kuzatilgan bo'lib, bu xolatni spotchilarda olib borilgan tajribalar tasdiqlaganligini Hrynievieski va boshqalar tomonidan olib borilgan ishlar natijasida ko'rsatdi. Niyozmuxammedov M.B. va Yakovlev N.N lar tomonidan muskul ishi vaqtida insulin gormonining aktivligini tormozlanish xodisasi kuzatilganligini ilmiy jixatdan asoslab berishdi.

Somototropin gormonining qondagi konsentrasiyasini shunchi oshishini ilk bor Roth xamda Hunter, Grunwood ishlarida o'z ifodasini topdi. Keyingi ishlar Shephard, Stdney lar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Ularning kuzatishlaricha spotchilarning 2 soatlik veloergometriyadagi mashg'ulotlari yoki 60 km li chang'ida uchish davrida gipofiz bezining faqatgina somatotropin gormonigina uzoq davom etgan yuklamani sezib uning qondagi konsentrasiyasini oshishi mumkinligini aniqlashgan. Xudi shunday tadqiqot ishlarini Viru va uning xamkasblari tomonidan xam olib borilgan. Veloergometrda kichik quvvatli 300-600 kg m/min 20 minutli shug'ullanish somatotropinning qoldig'i konsentrasiyaga ta'sir etmagan xolda kata quvvatli shug'ullanishlarda uning oshib borishiga bog'liq xolda bu gormonning miqdori xam oshib borganligini aniqlangan. Uning konsentrasiyasini eng yuqori darajada oshganligi mashg'ulot oxirida xamda mashg'ulot tugashiga 20 minut qolganda boshlab toki u tugallanguncha kuzatiladi. Shug'ullanmagan kishilar uzoq muddatki mashg'ulotni bajarishsa ularning qonidagi somatotropin gormonining konsentrasiyasi ish oxiridagi miqdori kamayib ketishligi aniqlangan. Sutton va uning xodimlarining ko'rsatishisa, marafon yugurgandan keyin somatotropin gormonning qondagi miqdori o'zgarmagan. Somotronning yuklamaga bo'lgan reaksiyasi tashqi muxit xarorati 0 - 4° S bo'lganda pasayib ketishiga Viskler tomonidan aniqlangan. Jismoniy yuklamalar tugatilgandan keyin somototronin gormonining qondagi miqdori tezda oldingi me'yoriy xolatga qaytadi. Jumladan shug'ullangan kishilarning 30 minutli yugurishlaridan keyin uning qondagi konsentrasiyasi dastlabki xolatga 90 minut ichida qaytsa, bu xolat shug'ullanmagan kishilarda faqatgina 120 minutdan keyin sodir bo'lishini ilmiy jixatdan asoslangan. Shug'ullanmagan kishilar qonidagi somatotropin konsentrasiyasi butun mashg'ulot davomida saqlansa, bu bu xolatni shug'ullanmagan kishilarda sodir bo'lmasligi Sutton ishlarida o'z ifodasini topdi.

Sportchilar kunduzi trinerovka mashg'ulotlarini bajargandan keyin ular qonidagi samototronin gormonining konsentrasiyasi kechasi oshishi sodir bo'lishini Adamson va boshqalar tomonidan aniqlandi. Somatotronin gormonining ajralib chiqishini ikkita gipotalamusni gormonlari somotoliberin (somatotropin ajralib chiqishini kuchaytiradi) va somatostatin (uning ajralib chiqishini kamaytiradi) tomonidan boshqarilib turadi. Muskul ishi

paytida shug'ullanayotganda somatostatin gormonini organizmga yuborilsa bu gormonning ya'ni somatotronning qon plazmasidagi miqdori keskin kamayib ketishini Aniqqladi.

Qalqonsimon bez gormonlarining muskul ishi bajarish vaqtida organizmning yuklamaga nisbatan adaptatsiyasini vujudga keltirishda muxim ekanligini ilmiy dalillar asosida isbotlangan. Bu bezning funksiyasini o'rganishda radiaktiv yodni ushbu bez tomonidan o'zlashtirish xolatini jismoniy i shvaqtida kamayib ketishligi ilmiy tadqiqot ishlarida aniqlangan. Qalqonsimon gormonlarning konsentrasiyasi qondagi miqdorini radioimmumologik taxlil qilish usuli yordamida aniqlash xam shuni ko'rsatadiki, jismoniy mashg'ulotlar ta'sirida ularning miqdori oshishligi aniqlandi. Gormonlarning miqdorini oshishi sportchilarning mashg'ulotlarning davomiyligi va quvvatiga bog'liq ekanligini ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra aniqlandi. Shiddatli jismoniy mashg'ulotlarni veloergometrda bajarish davrida qondagi tiroksin va triyodtironin gormonlarining miqdori oshishini aniqlangan. Ammo bu gormonlarning qondagi miqdori sekin bajarilgan 3 soat davomida amalga oshirilgan ishda kamayishini aniqlangan. Afar tomonidan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan velosepedlarda 25 km masofani bosib o'tgandan keyin ularning qonidagi triyodtironin miqdori keskin oshganligini, ammo tiroksin gormonining o'zgarmaganligini aniqladi. Xuddi shuningdek tiroksinning qondagi konsentrasiyasi 90 km li chang'ili marafon davrida xam oshishini Kirkebiy va Soralts lar tomonidan aniqlangan. Saralis va boshqalarning ko'rsatishicha qondagi erkin tiroksinning miqdori birinchi navbatda uzoq vaqt jismoniy ish bilan shug'ullanganda oshadi, kam quvvatli jismoniy ish bilan shug'ullanuvchilarning qonidagi tiroksin va triyodtironin miqdori dengiz qirg'og'ida bajarilganda o'zgarmasligini aniqlangan. Xuddi shuningdek ishini tog' sharoitida (3650 m) bajarilganda xam qondagi tiroksin konsentrasiyasi oshganligini aniqlangan. Organizm tog' sharoitida moslashganda ushbu xolat ro'y bermasligini, ya'ni qondagi tiroksin konsentrasiyasi o'zgarmaganligi kuzatiladi. Shunday qilib aniqlangan ma'lumotlardan shu narsa aniq bo'lmoqdaki, jismoniy mashq ta'sirida qondagi teriod gormonlarining miqdorini aniqlash mumkinligini aniq ma'lumotlar asosida isbotlangan.

Jismoniy ish bajarishda (xuddi shuningdek sportchi faolyatida) buyrak usti bezi gormonlarining axamyati kattadir. Sportchini kuch quvvatini oshirishda, energiya va modda almashinuvini boshqarishda buyrak usti bezi gormonlarining sinishi ularni qon va siydikda ko'payishiga olib keladi. Jigar va muskulda fermentativ jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni bu bez gormonlari fermentlar aktivligini oshiradi. Yetarli miqdor, tezlik va davomiy jismoniy og'irliklar adrenokortikal aktivlikni oshiradi. Yaxshi tayyorgarlik ko'rgan yuguruvchilar qonida marafon yugurishdan keyin adrinokortikal aktivlikni oshishi kuzatiladi. Dessupris va boshqalar ko'rsatishicha tayyorgarlik ko'rgan marafonchilarda finishga etganda qonida kortizol miqdori oshib ketadi. Yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan yoki 15 km li masofani bosib o'ta olmaydigan sportchilar qonida esa kartizol konsentrasiyasi kamayishi kuzatiladi.

Erkaklar qonidagi testosiyron konsentrasiyasini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, qisqa vaqtli mashqlar gormonning qondagi miqdorini oshishini, uzoq muddatli mashqlar esa uning miqdorini kamayishiga olib keladi. Ammo bu mashqlar qisqa vaqt davomida faqat tez bajarilgandagina kuzatiladi. Adlersreulz va boshqalar, Dessurris va boshqalar tomonidan aniqlandiki testosteron gormonini qonda konsentrasiyasini kamayishi marafon yugurishdan so'ng va soatiga 40 km tezlikdagi velosipeda 2 soat uchishdan keyin kuzatiladi.

Ayollarda aniqlanganki, shiddatli jismoniy mashqdan so'ngi ekstrojenlar, progesteron va follitropinni qondagi konsentrasiyalarini oshishi va lyutrin miqdorini o'zgarmasligi kuzatilgan.

Shunday qilib yuqoridagi ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki yetarli tez bajarilgan va uzoq davom etgan muskul xarakterlari organizmda gormonlarga ularni qondagi konsentrasiyalarini oshirish (adrenalin, noadrenalin, glyukogen, somatotropin, kortikotropin, al'dosteron) va kamaytirish (insulin) kabi ta'sir ko'rsatmoqda. Organizmda energiya almashinuvi anaerob (kislorodsiz), aerob (kislorodli) va boshqa yo'llar orqali xosil bo'lgan. Energiya xisobiga amalga oshadi. Anaerob oksidlanishini asosiy substrati bo'lib 6-uglerodli qand xisoblanadi. Bunda birinchi glyukoza egallaydi. Tez bajarilgan ishlarda, qachon kislorodni maksimal ishlatilishi 90% dan yuqori bo'lganla ishlayotgan muskuldagi kerakli substrat bo'lib glyukogen xisoblanadi. Glyukogenning muskuldagi konsentrasiyasi 80-100 mm glyukoza 1 kg

og'irlikda tirik muskulga to'g'ri keladi. Odamdagi muskul massasiga bu kattalikni (25-30kt) olsak, muskulda 400-500 g glyukoza bor ekan. Muskuldan energiya almashinuvini gormonlar xam xuddi nerv sistemasi kabi boshqarib turadi. Bunda buyrak usti bezi po'stloq qismi gormonlari va Oshqozon osti bezi gormonlari ayniqsa faol qatnashadilar. Masalan buyrak usti bezini xayvonlarda olib tashlash jiga rva muskullarda glikogenni parchalanishini adrenalin (noadrenalin) va glikogen tomonidan kuchaytirish xususiyatlarini kamaytiradi. Bordi-yu shunday xayvonlarga glikokortikoidlar yuborilsa adrenalin, noadrenalin va glikogenni glikogen parchalash xossaoari tiklanadi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish natijasida qondagi glyukozani miqdori buyrak usti bezi gormonlari katexolaminlarni ko'payishi xisobiga oshadi. Oshqozon osti bezi gormoni insulin ishlab chiqarishi jismoniy mashq ta'sirida kamayadi.

Xuddi shuningdek jismoniy mashq bajarganda muskulning ish faolyatini yog'lar almashinuvi bilan xam bog'liq. Ayniqsa uzoq muddatli muskul ish faolyatida energiyani asosiy omili bo'lib, erkin yog' kislotalari xizmat qiladi. Bular esa muskullararo va plazmadagi uchgliserideardan xosil bo'ladi. Bu uchgliseridlarni parchalovchi ferment mepoprotein-lipazalar aktivligi gormonlar tomonidan boshqariladi. Insulin ta'sirida bu fermentlar aktivligi pasayadi. Uzoq muddatli muskul ishi faolyatida glikogen, katexolaminlar (adrenalin, noadrenalin), kortikostiroidlar, somatotropin va tireotropinlarning qondagi konsentrasiyasi oshishi insulinni esa kamayishi kuzatiladi.

Vendsalu xamda Haggendal kabi bir gurux tadqiqotchilarni ko'rsatishlaricha muntazam ravishda trinerovka bilan shug'ullanganlarda kam trinerovka bilan shug'ullangan sportchilarga nisbatan noradrenalinning qondagi konsentrasiyasi kam bo'ladi. Ammo bu farq adrenalning nisbatan sezilmaydi. Ushbu natija erkaklarda statistik jixatdan xaqiqatga yaqin, lekin ayollarda esa xaqiqatga yaqin emasligi yuqoridagi olimlar tomonidan aniqlangan. Trinerovka qildirilgan va trinerovka qildirilmagan kalamushlarning qonida insulinning konsentrasiyasi Virth, Richter kabi olimlar va ularni xamkasblari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularni aniqlashlaricha trinerovka qildirilgan kalamushlar qonidagi insulin konsetrasi, trinerovka qilinmagan xayvonlarga nisbatan kam bo'ladi. Richter va uning xamkasblari tomonidan aniqlangan yuqonidagi tajribani buyrak usti bezini buzib tashlagan kalamushlarda olib amalga oshirilganda trinerovkani ushbu ta'sir mexanizmi yo'qoladi. Rene, Johnson lar odamlar qonida insulin gormonini konsentrasiyasini kamaytirishni trinerovka qilgan sportchilarda aniqladi, trinerovka qilmagan sportchilarda esa aksincha xolat yuz bergan. Bu olimlar tomonidan trinerovka ta'sirida qondagi somotropin gormonining konsentrasiyasi kamayishini xam aniqlangan. Trinerovka qilgan odam xayvonlarning qonidagi umumiy terioid gormonlarni miqdori trenirovka kilmaganlarga nisbatan kam ekanligini Xoliyakova, Erez va Irvine lar tomonidan aniqlangan.

Chidamlilik xosil qilish uchun trinerovka qilayotgan sportchilarda ular siydigida kartikostiroidlarni ajralib chiqish miqdorini kamayishi kuzatiladi. Jumladan yuqori darajadagi kurashchilarda siydikdagi kortikoidlarni ajralib chiqish darajasi yangi shug'ullana boshlagan kurashchilarga nisbatan kam miqdorda ajralib chiqa boshlagan. Bu trinerovka bilan oldindan shug'ullangan sportchilarda endi shug'ullanuvchilarga nisbatan organizm jismoniy og'irlikka yaxshi moslasha olishi va organizmni gumaral sistemasida barqaror reaksiya sodir bo'layotganligi bilan ifodalanadi. 6-xafta davomida chidamlilik trinerovkasini olib borilgan sportchilarda qondagi umumiy testosteron va uning erkin ajralmalarini olishi kuzatilgan.

Kuch talab qiladigan trinerovka bilan 8 hafta davomida erkak va ayol sportchilarni shug'ullanishlari ularni qondagi adrogenlarni miqdoriga ta'sir ko'rsatmaydi. Shunday qilib qonda gormonlarni o'zgarishi sportchilarni trinerovka bilan shug'ullanganlik darajasiga bog'liq. Demak organizm qancha shug'ullangan bo'lsa qondagi gormonlar konsentrasiyasi shunchalik kam o'zgaradi, shug'ullanmaganlarda esa oshadi. Suttonning tekshiruvlari shuni ko'rsatadiki 750 kgm/min quvvatli ishni bajarish trinerovka bilan shug'ullanganlar bilan 40% organizmning kislorodga bo'lgan maksimal extiyoji (MPK) amalga ohsa, trinerovka bilan shug'ullanmaganlarda esa bu 86% MPK ga to'g'ri keladi. Vinder va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra odamlarda birinchi 3 hafta davomida 5 minutli chidamlilik mashqlari bilan shug'ullanish, ularni qonidagi katekolaminlarni kamayishi dastlabki 95 % li organizmning

maksimal kislorod extiyoji xisobiga amalga ohsa, keyinchalik bu extiyoj butunlay yo`qolib ketadi. Xuddi shuningdek reaksiyani Vinder va uning xamkasblari tomonidan shu narsa aniqlandiki, qonda katexolaminlar (adrenalin va noadrenalin) va glyukogenni o`zgarishi analogik natija berib 90 minutli test bajarganda 58 % MKE (maksimal kislorod extiyoji) xisobiga amalga ohsa, 3 xaftalik trinerovkadan so`ng esa ushbu gormonlarni o`zgarilishi kuzatilmagan.

Demak uzoq muddat davomida muskul ishi bajarilganda ya`ni trinerovka qilishda organizmda ushbu ta`sirga nisbatan moslashish vujudga keladi, yoki dastlabki xolladagi organizmni muskul faolyatidagi gormonlarni qon va siydikda oshish reaksiyasi trinerovka bilan muntazam ravishda shug`ullanish ichki seketsiya bezlarida xech qanday reksiyani vujudga keltirmaydi.

Organizmni muskulga berilgan jismoniy og`irliklarga nisbatan moslashishi xar-xil yo`llar bilan amalga oshadi. Bunda ichki serketsiya bezlarining strukturasi qaytadan tuzilishi muxum xisoblanadi, bu xisobiga ichki seketsiya bezlarining massasi oshadi. Jumladan sistemali ravishda, kalamushlarning ichki seketsiya bezlari massasining trinerovka ta`siriga o`rganish shuni ko`rsatadiki 90 kun davomidagi trinerovka qildirish buyrak usti bezining erkak kalamushlarda 14,3 % (Urg`ochi kalamushlarda 47,6 %) gipofiz bezi 18,9 % (4,4 %) qalqonsimon bez 6,1 % (16,1 %) jinsiy bezlar 9,5 % (32,7 %) oshishi aniqlangan va bu jarayon 125 kundan so`ng dastlabki xolatga Donalsin ayniqsa trinerovkani buyrak usti beziga ta`siri ko`proq o`rganilgan. O`rganishlar shuni ko`rsatadiki trinerovka ta`sirida asosan buyrak usti bezining po`stloq qismini massasi oshadi. uning mag`iz qismini massasini o`zgartirish uchun juda katta og`irlikdagi trinerovkani amalga oshirish lozim. Trinerovka jarayonida qalqonsimon bezning massasini ko`zga ko`rinarli oshishi mo`njallanmoqda. Lekin ayrim ma`lumotlarda esa trinerovka ta`sirida ushbu bezning massasi oshishi aniqlangan. Itlarda trinerovka ta`sirida oshqozon oti bezining gormon ishlab chiqaradigan bo`limlari xujayralari massasi oshishrilishi aniqlangan. Trinerovka ta`sirida insulinning aktivligini pasayishi aktivlanadi.

Xozirgi zamon ta`savuriga ko`ra trinerovka qilinganlik asosida xujayralarda aktiv ishtiron etuvchi oqsillarning tuzilish va fermentlarni xosil qilishda ishtirok etishini tezlashishi tushuniladi. Shu tufayli to`qima organ va organizmning kuch-quvvatini oshishi yotadi. bunda qarama-qarshi ta`sir qiluvchi fermentlarning aktivligi oshadi uning asosida esa boshqaruvni egiluvchanligi va chidamliligi oshadi.

Xozirgi paytda sportchilarning sun`iy ravishda kuch-quvvatini oshirish maqsadida organizmda assemiyasiya prosessini kuchaytiruvchi gormonlarni qo`llash juda keng rivoj topdi. Ammo bu moddalar 1973 yil «Halqaro Olimpiya qo`mitasining» ko`rsatmasiga asoson dopinglarga kiritilgan va ularni qo`llanilishi sportda taqiqlangan. Chunki bu moddlar ta`sirida modda almashinuvi jarayoni buziladi, muskul sktrukturasi o`zgaradi va organizm shu moddalarga nisbatan o`rganib qoladi. Xamda erkak va ayol sportchilar organizmda jinsiy bezlarni funksiyasi buziladi. Anabolik steroidlarni sportda qo`llash adabiyot ma`lumotlarining ko`rsatishicha 50 –yillarda rivojlandi. oldin og`iratletika va kultirislarda so`ngra esa yengil atletikani disk otish va yadro Irg`itish kabi turlarida keng rivojlandi.

Yuqorida ko`rsatib o`tganimizdek steroidlarni qo`llash xujayra sitoplazmasida oqsil sintezini kuchaytiradi va uning usishini tezlashtirib (xujayrani) assimilyasiyani kuchaytirib dissimilyasiya (parchalashni) sekinlashtiradi yoki anaballik ta`sir ko`rsatadi.

Sportda qo`llanilayotgan xamma anabolik steroidlar ikkita katta guruxga bulinadi: a) androston xosilalari va b) 19-norandroston xosilalari

Androston xosilalariga sportda ko`p qo`llaniladigan metilandrostendiol, metadrostenolon, stenzolol va boshqalar bo`lsa, 19-norandroston xosilalariga esa 19-nortestosteron, fenilpropinay, 19-nortestosterondekanoat, retabolil va boshqalar kiradi.

Anabolik steroidlarga xozirgi paytda keng qo`llanilishi sportchilar va ularning murabbiylarining shaxsiy intilishlari asosida sodir bo`lmoqda. Bizga musobaqalaridan ma`lumki ko`pchilik sportchilarni anabolik gormon preparatlarni qavbul qilishlari ularni ushbu musobaqalardan xaydab chiqarishiga olib kelmoqda chunki sportdagi g`alaba bu organizmning tabiiy kuchidir, u sun`iy ravishda oshirilgan kuch maxsuli emas.

V.A.Rogoznin ko`rsatib o`tgani, kalamushlarga anabolik steroid nerobolni kiritilishi ular

organizmda DNK ga bog`liq bo`lgan RNK polimerazaning aktivligini oshiradi. Doimiy jismoniy og`irlik (xar kuni kalamushga 6 minut davomida uning og`irligiga nisbatan 10 % ortiqchayu k bilan dumidan vertikal xolatda osib qo`yish) muskuldagi RNK 14S-erot kislotasining qo`shilishini kamaytiradi. Nerobal RNK sinteziga ta`sir qilish bilan birgalikda, bu gormon 14S-misining sarkoplazmatik oqsilga birikishini xam oshiradi. Bu xolat oqsil sintezini oshishi bilan birga sarkoplazmatik ferment-aspottataminotranseraza va miotoxondrial ferment sitoxromonsidazalarni oshishi xam ko`rsatadi. Tekshirish natijasida shunday xulosaga kelindiki, nerobol va boshqa anobalik steroidlar skelet muskuli sitoplazmasidagi maxsus retseptorlarga birikadi va bu kompleks yadroga uzatiladi, xamda yadroda u transkripsiyani kuchaytiradi va shunday qilib oqsil sintezini tezlashtiradi. Organizmda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, androgen xosilalari muskulda orginaza fermenti aktivligini, oshiradi. Natijada argeninning orgetik va moxavinaga aylanishi oshiradi. N.N Yakovlev shuni aniqladiki jismoniy ishdan sung muskullarda ornitinning dekarbonsillanishi natijasida sperling va spermedinning xosil bo`lishi ko`paygan. Poliaminlarning tarkibiy qismini oshishi organizmning tiklanish davrida oqsil sitezini boshqarilishini aniq axamyatini belgilaydi. Anabolik steroidlar ta`sir mexanizmiga bog`liq bo`lmagan xolda balkim ko`plab fermentlarni sinteziga xam ta`sir qiladi. aniqlanganki retabolinin sistemali ravishda 1mg/kg suzish trinerovkasi davrida erkak kalamushlarga yuborib turish organizmni submaksimal og`irlikka nisbatan mosloshishini yaxshilaydi. Natijada bu xayvonlarni ish qobilyati tayyorgarlik ko`rmagan xayvonlarga nisbatan 2,8 marotaba oshadi. Bunga retabolil yuborilmagan xayvonlarda trinerovka vaqtida ularning ish qobilyati 1,9 marta oshadi xolos. Anabolik steroidlarni ijobiy tasiri tiklanish davrida sintetik prosesslarni kuchaytirishdan iborat buladi. Shu narsa aniqlanganki retabolilni organizmga yuborish jiga rva skelet muskuliga glikogen miqdorini oshishiga imkoniyat tug`dirdi. Bundan ko`rinib turibdiki gormon ta`sirida glikogen sintetazani aktivligi oshadi. Retabolilni trinerovka vaqtida vaqtida qo`llanilishi uning organizimining xolatida qo`llanilishiga nisbatan aniqlika egadir. og`irliklar paytida retabolilni qo`llash muskuldagi glikogenni tejamkorlik Bilan sarflashni amalga oshiradi. Kalamushlari 70 minut suzdirish vaqtida ular organizmda energiya xosil bo`lishini uglevodni parchalanishidan xosil bo`ladigan bevosita yog`larni parchalanishidan xosil bo`lishiga o`tadi. Bu xolat 5 ta ayolda blanabal gormonini olgandan so`ng 3 glisiridlarni metabolizmni kinetikasini o`rganish natijasida shu narsa aniqlandiki ushbu gormon 3 glisiridlarni qondagi darajasini oshirdi. Xuddi shuningdek bu gormon 3 glisiridlarni qon plazmasidan chiqishini xam tezlashtiradi. Bu jarayon natijasida aniqlanganki 3 glisiridlar maxsulotining oshishi xolistirin almashinuvini buzadi. Bu esa o`z navbatida ateroskleroz rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqarii yuqorida ko`rsatib o`tilgan fermentlarga anabolik sretoidlarni ta`siridan tashqarii ular muskuldagi turli-tuman fermentlarni aktivligiga xam o`z ta`sirini ko`rsatadi Bu steroidni organizmga yuborish fermentlar sintezlanishini aktivlashishiga va katexolaminlarni jigar, yurak va skelet muskuli va miyada O-mitellaninni yo`li bilan parchalanishini xamda oksidlanish va dizaminlanish jigarda tezlashtiradi. Retabolilni organizmga yuborish muskul faolyatini yaxshilaydi, buyrak usti bezida katexolaminlarni xosil bo`lishini kuchaytiradi. Xozirgi vaqtda munozarali masalalardan biri bo`lib, androgenlar va testosteron xosilalarini ayrim retseptorlari mavjudli degan savol tug`iladi. maxsus A-norprogesteron ingibirotni tajribalarda qo`llash natijasida 2 xil turdagi maxsus retseptorlar mavjudligi aniqlandi. Shunday qilib A-norprogosterin to`liq testosteron propionatni ta`sirini yo`qotdi. lekin metandronstenolonni emas. Bu gormon yuqori ko`rinishli anabolik ta`sirga ega u deksametazondan farq qilib antilandrogen ta`sirga ega bo`lib u 2 ta gormonning xam prstata bezida va urug`donda blakada qiladi. Deksalitazon boshqa tomondan oqirlikni sezilarli darajada kamaytiradi. Steroid retseptorlarni xar-xiligani aniq ma`lumotdan iborat. Olingan ma`lumotlarning taxlili shuni ko`rsatmoqdaki skelet muskullarda oqsilli makramolekulalar mavjud bo`lib, ular tesdosteronni o`zida biriktirib oladi. Bu bog`lanishni dissasiasiya konstantasi juda kichik bo`lib 5×10^{-9} m ga teng. Bunday kichik dissasasaiya dalolat bermoqdaki bunday oqsilni bog`lovchi gormon bilan yuqori darajada uxshash ekanligidan darak bermoqda. Skechardovski taxlili ma`lumotlariga asosan skelet muskullaridagi androgen bog`lovchi oqsillar konsentrasiyasi kichik bo`lib u (3 fentamol /

mg ga teng) aniq tajriba tormozlanishni ko'rsatadiki anabolik ta'sirga ega bo'lgan steroid-19-nortestotron maxsus oqsil bilan juda shu joyda birkadi. Tajribalar ko'rsatdiki testasteron glyukokortikoid retseptori bilan xam birlashadi, ammo bu bog'lanish 2 marta diksametazonga nisbatan past bo'ladi. Testasteron katta dozalarda glyukokortikoidlar ta'sirini tormozlantirishi mumkin. Bu miokard va skelet muskullarida sodir bo'ladi. Shunday qilib anabolik steroidlar 2 borabor yuqori konsentrasiyada glyukokortikoidlarni biologik ta'sirini to'sadi. Bunda asosiy glyukokortikoidlar inson organizmida kartizon xisoblanadi. U sitoplazmatik retseptor bilan kuchsiz dikzometazonga nisbatan bog'lanadi. Natijada metallangan xujayralarda Yana kichik dozalik anabolik steroidlar fizalogik natija beradi. Skelet muskullarida maxsus androgen retseptorlar mavjudligi isbot etilganligiga qaramasdan bu natija anabolik steroidlarni yuqori dozada glyukokortikoid retseptorlari orqali ta'sir qilinishini va bu to'qimalarda glyukokortikoidlarni kotabalik ta'sirini kamaytirish aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda ichki sekressiya bezlari insoniyat faoliyatida biologik aktiv moddalarni ishlab chiqarib, asab tizimi kabi organizmni boshqarishda muxim ahamiyat kasb etadi. Bu bezlar orqali organizmning boshqarilishini gormonlar yordamida boshqarish yoki gumaral boshqarish deyilib, ularni birgalikda esa neyro-gumaral boshqarilish deb nomlanadi. Ammo gumaral boshqarilishning ustidan ham hokimlik nazoratini asab sistemasi o'z nazoratiga oladi.

Sportchi faoliyatida ichki sekressiya bezlari ishlab chiqqan gormonlarning ahamiyati juda katta bo'lib, bu mashg'ulot, trinerovka va musobaqalar davrida undagi imkoniyatlarning vujudga kelishida hamda berilayotgan yuklamalarga nisbatan organizmning moslashtirishda asosiy vazifani bajaradi. Lekin gormonlar bevosita dopinglarga kirganligi sababli ulardan musobaqalardan foydalanishga Xalqaro Olimpiyasi qo'mitasi tomonidan ruxsat berilmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Агаржаниян Н.А Марагев А.Т., Бобков Г.А. Экологичикая физиология человека. М. Игд. сепр АКАДЕМИЯ, 1998

Кнорре Д.Г. Музина С.Д. Биологичиская химия. М. Академия, 2000

Назаренко Л.Д. Физиология физического воспитания и спорта. Ульяновск, Университет, 2000

Nuriddinov E.N Odam fiziologiyasi. T.Aloqachi, 2005

Общий курс физиологий человека и животных (подред А.Д. Наздрогева). М. 1991. кн:1

Ратов И.П Двигательныйвозможености человека Минск 1994.

Raximov X, Mirzaev S, Jismoniy tarbiya va sportda ilmiy uslubiy faolyatni matematik-statistik asoslari. Namangan 2004.

Raxmatov N.A. Maxmudov T.M, Mirzaev S. Biokimyo. T. Ta'lim, 2009.

WWW eurosport/rou

KICHIK YOSHDAGI MAKTAB O'QUVCHILARIDA KOGNITIV FAOLLIKNI RAG'BATLANTIRISH VA UNING PSIXOLOGIK SHARTLARI

Nurqulova Gavhar

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.043>

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimini rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirishda kognitiv ta'limiy faoliyatni shakllantirish va uni rag'batlantirishda maktab psixologining vazifalari, kognitiv faoliyat texnologiyasining nazariy asoslari haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, bilim, rivojlantirish, kognitiv ta'limiy faoliyat, ta'lim samaradorligi, kognitiv faoliyat texnologiyasi, nazariy asos.

STIMULATION OF COGNITIVE ACTIVITY IN YOUNG SCHOOLCHILDREN AND ITS PSYCHOLOGICAL CONDITIONS

Nurqulova Gavhar-Teacher of Termez State University

Abstract: Development of cognitive activity of students of primary school age is one of the urgent problems in modern education. This article describes the tasks of the school psychologist in the development of the knowledge of primary school students, the formation of cognitive educational activity in increasing the effectiveness of education and its stimulation, and the theoretical basis of the technology of cognitive activity.

Key words: primary education, student, knowledge, development, cognitive educational activity, educational efficiency, technology of cognitive activity, theoretical basis.

СТИМУЛЯЦИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ И ЕЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СОСТОЯНИЯ

Нуркулова Гавхар

Преподаватель Термезского государственного университета

Аннотация: Развитие познавательной активности учащихся младшего школьного возраста является одной из актуальных проблем современного образования. В данной статье описаны задачи школьного психолога по развитию знаний младших школьников, формированию познавательной учебной деятельности в повышении эффективности обучения и ее стимулированию, а также теоретические основы технологии познавательной деятельности.

Ключевые слова: начальное образование, учащийся, знания, развитие, познавательная учебная деятельность, эффективность обучения, технология познавательной деятельности, теоретическая основа.

KIRISH. Kognitiv faoliyat - bu idrok, fikrlash, xotira, e'tibor, nutq kabi aqliy jarayonlar yordamida atrofdagi voqelikni bilishga qaratilgan ongli faoliyat. Kognitiv faoliyat-bu o'qituvchi tomonidan qo'yilgan o'quv muammolarini hal qilish jarayonida bilim va harakat usullarini o'zlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish faoliyati. U nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga, balki subyektning (talabaning) o'zi uchun ham ijtimoiy tajribani (axloqiy, madaniy, amaliy, ijodiy va boshqalar) maqsadli o'zlashtirish tufayli uning shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish, rivojlantirishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarning ta'lim jarayonida kognitiv faoliyati uchta o'zaro bog'liq bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqichda o'rganilayotgan materialni idrok etish, tushunish va yodlash yoki nazariy bilimlarni o'zlashtirish sodir bo'ladi.

2. Ikkinchi bosqichda ushbu bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha ko'nikma va ko'nikmalar

ishlab chiqiladi, bu maxsus o'quv mashqlarini tashkil qilishni talab qiladi.

3. Uchinchi bosqichda o'rganilayotgan material bo'yicha bilimlarni yanada mustahkamlash va chuqurlashtirish, ularni birlashtirish va amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish amalga oshiriladi.

Kognitiv faoliyatni rivojlantirish muammosi kichik maktab o'quvchilari- bolalar psixologiyasidagi eng dolzarb masalalardan biri, chunki insonning tashqi dunyo bilan o'zaro ta'siri uning faoliyati tufayli amalga oshishi mumkin. Faoliyat insonning aqliy fazilatlarini, uning mustaqilligi va tashabbuskorligini shakllantirishning ajralmas shartidir.

Kognitiv faoliyat pedagogik hodisa sifatida ikki tomonlama o'zaro bog'liq jarayondir: bir tomondan, kognitiv faoliyat o'quvchining o'zini o'zi tashkil etishi va o'zini o'zi anglash shaklidir; ikkinchi tomondan, kognitiv faoliyat o'qituvchining o'quvchining bilish faoliyatini tashkil etishdagi alohida harakatlarining natijasi sifatida qaraladi.

Shuning uchun, kognitiv faoliyatni belgilashda biz kognitiv faoliyatning qaysi turi yoki qaysi tomoni haqida gapirayotganimiz haqida tasavvurga ega bo'lishimiz kerak. Shu bilan birga, shuni unutmasligimiz kerakki, o'qituvchining sa'y-harakatlarining yakuniy natijasi o'quvchining maxsus tashkil etilgan faoliyatini mustaqil faoliyatga, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylantirishdir. Shunday qilib, kognitiv faoliyatning ikkala turi ham bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bir qator tadqiqotlarda kognitiv faoliyatni o'rganish muammosi ijodkorlik kontekstida ko'rib chiqildi.

F. Xarlamov kognitiv faoliyatni «o'quvchining o'rganishga intilishi, aqliy zo'riqish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ixtiyoriy harakatlarning namoyon bo'lishi bilan tavsiflangan faol holati» deb talqin qilgan.

I. Shchukina kognitiv faoliyatni «o'quvchining o'ziga xos holatini va uning faoliyatga munosabatini ifodalovchi», «o'quvchining maktab yillarida jadal shakllangan qimmatli va murakkab shaxsiy ta'limi» deb hisobladi.

Kabanova-Meller kognitiv faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning samarali o'quv faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan o'quv ishining umumlashtirilgan usullarini shakllantirish tizimini ko'rib chiqadi.

Kognitiv faoliyat usullari - bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ularni mustaqil qo'llash va faol o'zgartirishni ta'minlaydigan aqliy mehnat usullaridan ijodiy foydalanish unumli xarakterdagi mustaqil ishlash ko'nikmalari, umumlashtirilgan ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, bu tushunchalarni bir-biridan ajratish kerak, chunki «aqliy faoliyat» atamasi ko'proq aqliy operatsiyalarni o'zlashtirishning ma'lum darajasini tavsiflaydi va kognitiv faoliyat natijasidir. «Kognitiv faoliyat» ga kelsak, u to'liq emas va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'z ichiga oladi.

Qiziqishlar bolaning nazariy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojining psixologik sharti bo'lib xizmat qiladi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari o'rtasida ta'lim faoliyatiga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish jarayonida u turli xil motivlarda konkretlashtiriladi, bu esa bolalarning o'zini tutishini talab qiladi. Ushbu assimilyatsiya usulini amalga oshirish kognitiv faoliyatni maxsus faollashtirishni nazarda tutadi. U o'quv materialini o'zgartirishga, eng fundamental, asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsatish orqali o'quvchini bilimlarning kelib chiqishi bilan tanishtirishga asoslanadi.

Kognitiv faoliyat, har qanday shaxsiy xususiyat va o'quvchi faoliyatining motivi kabi, faoliyatda va birinchi navbatda o'qitishda rivojlanadi va shakllanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitish sohasidagi fundamental tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligini shakllantirish jarayonini ochib beradi va ta'lim mazmunidagi o'zgarishlarni, o'quv faoliyatining umumlashtirilgan usullarini va mantiqiy fikrlash usullarini shakllantirishni belgilaydi.

NATIJALAR. O'quvchilarning bilim olishda bilish faolligini shakllantirish ikki asosiy kanal orqali, bir tomondan, o'quv fanlari mazmunining o'zida bu imkoniyatni o'zida mujassam

etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning bilish faoliyatini muayyan tashkil etish orqali amalga oshishi mumkin. Maktab o'quvchilari uchun kognitiv qiziqish mavzusi bo'lgan birinchi narsa - bu dunyo haqidagi yangi bilimlar egallashdan iborat. Shuning uchun ham o'quv materialining mazmunini chuqur o'ylangan holda tanlash, ilmiy bilimlar boyligini ko'rsatish, o'rganishga qiziqishni shakllantirishning eng muhim bo'g'inidir.

Ma'lumki, kichik maktab yoshi - bu eng umumiy qobiliyatlarning shakllanish va rivojlanish davri bo'lib, ular bola ulg'aygan sari takomillashib, rivojlanib boradi. Eng muhim qobiliyatlardan biri bilish qobiliyatidir.

Bolaning o'sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti, jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Kichik maktab yoshi davri 1 - 4 sinf o'quvchilarning yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola psixikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin. O'quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarining ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatleri va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida psixologik qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgan. Birinchidan, o'quvchilar o'qish, yozish, va hisoblash malakasini egallashlari, arifmetika, onatili, tarix, geografiya va tabiyatshunoslikdan geometriyaning elementar asoslaridan ancha katta hajmda bilimni orttirishlari kerak. Ikkinchidan, bolaning bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi hamda rivojlanadi. Uchinchidan bilim jarayonlarining taraqqiyoti, aqliy rivojlanishi yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topadi va nihoyat o'qishga bo'lgan yo'nalish, o'qishga nisbatan ma'suliyatli munosabat hissi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlari va ularning faoliyatida bir qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin: Jumladan, bola idrokining o'tkirligi, sofligi bilan farq qiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy xususiyati sifatida esa uning ixtiyoriy zaifligini keltirish mumkin. Shuningdek, aynan shu yoshda diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira jarayoni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu davrda so'z mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi.

MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'lim jarayoni 7-11 yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish va ularni amalga oshirishga qaratilgan. Bola bilan o'zaro munosabatlarni shunday tashkil qilish kerakki, u kognitiv qiziqish, kognitiv mustaqillik va tashabbusni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Kognitiv rivojlanishga hissa qo'shadigan o'zaro ta'sirning asosiy shakllari:

Bolani turli tadbirlarga jalb qilish;

Didaktik o'yinlardan foydalanish;

Ijodiy tasavvurni, fikrlashni, xotirani, nutqni rivojlantirishni boyitishga qaratilgan o'qitish usullarini qo'llashdan iborat.

O'quv jarayonini tashkil etuvchi o'qituvchilar uchun faoliyatning tuzilishini bilish muhimdir. Uning asosiy tarkibiy qismlari: motivlar, maqsad, vazifalar, mazmun, vositalar, shakllar, usullar va natija. Demak, o'qituvchi turli vositalar yordamida o'quvchilar shaxsining emotsional-motivatsion, aqliy, amaliy sohasiga ta'sir ko'rsatishi kerak. Shuningdek, o'qituvchilar maktab o'quvchilari ishtirok etadigan asosiy faoliyat turlarini bilishlari muhimdir. Ular quyidagilar; o'quv-kognitiv, ijtimoiy, mehnat, o'yin, estetik, sport va dam olish. Ushbu faoliyatni o'zaro bog'lash juda muhimdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ko'p jihatdan o'quvchilarning kognitiv mustaqil faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. Kognitiv ta'lim hozirgi vaqtda variant dasturlari, tabaqalashtirilgan usullar, ijodiy uy vazifalari, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning sinfdan tashqari shakllari orqali erishiladi. Psixologlarning kognitiv ta'lim bo'yicha zamonaviy tadqiqotlari, tadqiqot muammolarini hal qilishda o'quvchilarning kognitiv faolligi standartlashtirilgan muammolarni hal qilishdan farq qilishini ishonchli isbotlaydi.

Kognitiv faoliyat kichik yoshdagi o'quvchilarning yangi bilim, ko'nikma, ichki maqsadga

muvofiglik va bilimlarni to'ldirish, bilimlarni kengaytirish va ufqlarini kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanishga doimiy ehtiyojini aks ettiradi. Kichik maktab yosh davrida kognitiv rivojlanish - bu atrof-muhit ta'siri ostida, shuningdek, maxsus tashkil etilgan o'quv va tarbiya ta'siri va bolaning o'z tajribasi bilan bog'liq bo'lgan fikrlash jarayonlarida yuz beradigan sifat va miqdoriy o'zgarishlarning yig'indisi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi bir qator ijtimoiy va biologik omillarga bog'liqdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, kognitiv faoliyat o'quvchining o'zi mavqei, jamiyatda yangi mavqega ega bo'lish istagini o'rganishga tayyorligini, ishtiyoqini belgilaydigan muhim faoliyatdir. O'quv faoliyatida bola o'qituvchi rahbarligida ilmiy tushunchalar bilan ishlaydi, ularni o'zlashtiradi. Natijada o'quvchining o'zida, uning rivojlanishida o'zgarishlar yuz beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv ta'limiy faoliyatini shakllantirish, qiziqishlarini rivojlantirish, mehnatga faol munosabatni tarbiyalash, eng avvalo, darsda sodir bo'ladi. O'quvchi darsda qiziqish bilan ishlaydi. Buning uchun har qanday darsning har bir bosqichida o'quvchilarning bilish faolligini faollashtirish va o'rganishga qiziqishni oshirish, turli xil usullar, shakl va ish turlaridan foydalanish va uni rag'batlantirib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

E.N Mojar, Maktab o'quvchilarining o'quv va kognitiv faoliyati talabalar va talabalarni tarbiyalash sifatida (Tug'ilgan kunning 85 yilligiga): Respublika materiallari. ilmiy amaliy konf. (Gomel, 2005 yil 23-24 iyun). I qism / Tahrir: F.V.Kadol, V.P.Gorlenko va boshqalar; vazirlik arr. RB, GSU im. F.Skarina. - Gomel: GSU im. F.Skarina, 2005. - P.165-168.

Щукина Г.И. Усиление когнитивной активности в процессе образования. – М., Образование, 2005 год.

Kognitiv faoliyat darajalari: darslik / T.I. Shamov. - M.: Ta'lim, 2005. - 286 b.

Azizov, D. (2023). KOGNITIV KOMPETENTLAR KLASTERINING TUZILISHI. Interpretation and Researches, 1(9). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1026>

Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi.: Nasaf, 200. – 80b.

Utemov V. V., Zinovkina M. M., Gorev P. M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. - Kirov: ANOO «Hududlararo CITO», 2013. - 212 p.

Sidorchuk T.A. «Syujetli rasm asosida bolalarning ijodiy hikoyalarini chizish» Nashriyotchi: M.: ARKTI Nashr qilingan yil: 2010

Eysenck M., Keane M. Cognitive Psychology: A Student's Handbook. New edition 2009.

UMUMUTA'LIM MAKTAB JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI HARAKATLARGA O'RGATISH VAZIFALARI

Nurullayev Abdurashid Ro'zimboyevich

“Sport nazariyasi va metodikasi” kafedrası o'qituvchisi. Buxoro davlat universiteti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.044>

Annotatsiya: maqolada umumuta'lim maktab jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilarni harakatlarga o'rgatish jismoniy tarbiya darslarining maqsadi o'quvchilarni sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlantirish va xar tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash o'quvchilarga individual yondashish fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, dars, jismoniy tarbiya, dars, faoliyat, mashg'ulot, sog'lom, harakat.

ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ДВИЖЕНИЮ НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ВУЗОВСКОЙ ШКОЛЫ

Нуруллаев Абдурашид Рузимбаевич

Преподаватель кафедры «Теория и методика спорта».
Бухарский государственный университет

Аннотация: в статье целью занятий по физическому воспитанию является подготовка учащихся к движению на уроках физкультуры в общеобразовательной школе, оздоровление учащихся, развитие их физической подготовленности, воспитание из них всесторонне зрелых людей.

Ключевые слова: физическое воспитание, урок, физическое воспитание, урок, деятельность, упражнение, здоровое, движение.

TASKS OF TEACHING STUDENTS TO MOVE IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS OF UNIVERSITY SCHOOL

Nurullaev Abdurashid Ruzimboevich

Teacher of the «Sports Theory and Methodology» department.
Bukhara State University

Abstract: in the article, the purpose of physical education classes is to train students to move in general school physical education classes, to make students healthy, to develop their physical fitness, and to educate them as all-round mature people.

Key words: physical education, lesson, physical education, lesson, activity, exercise, healthy, movement.

Umumuta'lim maktab jismoniy tarbiya darslari asosiy shakli jismoniy tarbiya darslaridir. Darslarni to'g'ri o'tkazish jismoniy rivojlanishning muvaffaqiyatini va o'quvchilarning malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlaydi. Darslarda, o'quvchilarni mashg'ulot paytigacha o'tkaziladigan gimnastika, tanaffus va jismoniy tarbiya darslarida foydalaniladigan mashg'ulotlar materiali bilan tanishtiriladi. Shunday qilib, darslar o'quv kuni tartibidagi jismoniy tarbiya tadbirlarining ham asosi hisoblanadi. Jismoniy madaniyat darslari o'z mazmuni va tashkil etilishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlariga ega. Ular zalda, maydonchada o'tkaziladi, bunday joylarda bolalar harakati kamroq cheklangan bo'ladi, bu esa bolalarni uyushtirish va dars o'tkazishda alohida sharoit yaratadi. Jismoniy tarbiya darslari amaliy ahamiyatga ega bo'lib, jismoniy mashqlar ichida hayotiy zarur bo'lgan harakat malaka va ko'nikmalari asosiy qismni tashkil etadi. Bunday harakatlardan o'qish, mehnat va dam olish sharoitlarida foydalanish ko'rsatmalarini dars davomida o'rganadilar.

Jismoniy tarbiya darslarining maqsadi o'quvchilarni sog'lomlashtirish, jismoniy rivojlantirish va xar tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdir. Jismoniy tarbiya darslarining vazifalari esa shu darsda o'rgatiladigan jismoniy mashqlar va harakatlar texnikasini va taktikasini

egallash bo'ladi. Shuning uchun har bir dars maqsadi o'zgarib ham dars vazifasi o'zgarib boradi. Jismoniy tarbiya darslarining xususiyatlari shuki, o'quvchilar dars jarayonida jismoniy amaliy harakatlarda bo'lishib, buning uchun ular maxsus sport kiyimlarida bo'lishlari hamda mashg'ulotlar maxsus joylarda va zaruriy jihozlar bilan o'tkazilishi ta'minlanadi. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarning faqat jismoniy fazilatlarini tarbiyalanmay, balki ularning ahloqiy sifatlarini o'zaro hamkorlik, jamoatchilik, tashabbuskorlik, faollik, botirlik va qo'rqmaslik xislatlarini tarbiyalanadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarda Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish kerak.

O'quvchilar jismoniy rivojlanishi, jismoniy qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari xilma-xil bo'lganligi uchun o'qituvchilardan mashg'ulotlarni tashkil etish va boshqarishda o'quvchilarga individual yondashish hamda kasbiy pedagogik va amaliy tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lishligini talab etadi.

Jismoniy tarbiya darslariga qo'yiladigan talablar: jismoniy tarbiya darslari yoshlarni tarbiya jarayoni hisoblanib bir qator pedagogik, psixologik, tibbiy biologik va amaliy talablarga rioya qilinishi kerak. Shuningdek, har bir jismoniy tarbiya darsi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Muayyan-umumiy va xususiy vazifaga ega bo'lishi lozim.

Umumiy vazifalar barcha dars yoki darslar turkumi jarayonida, xususiy vazifalar esa alohida olingan bir dars mobaynida bajarilishi kerak;

2. Dars uslubiy jihatdan to'g'ri loyihalangan bo'lishi lozim;

3. Oldingi mashg'ulotlarni izchil davom ettirishi va yaxlit va tugallangan bo'lishi zarur; shu bilan birga u ma'lum darajada bo'lg'usi darsning vazifalari va mazmunini ko'zda tutishi lozim;

4. Dars mazmuniga ko'ra o'quvchilarning muayyan yoshiga, jinsi, jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligiga muvofiq bo'lishi kerak;

5. Dars o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularni faol harakatga jalb etishi lozim;

6. Har tomonlama jismoniy rivojlanishga, sog'likni mustahkamlashga, qad-qomatni shakllantirishga yordam beruvchi mashqlar va o'yinlar bo'lishi lozim;

7. O'quv kun tartibidagi boshqa darslar bilan to'g'ri qo'shib olib borilishi kerak;

8. Tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi zarur.

Jismoniy tarbiya darslarining vazifalari: Jismoniy tarbiyadagi pedagogik jarayon natijalari darslarda olib boriladigan o'quv va tarbiya ishining sifatiga bog'liq. Bunga har bir dars mazmunidagi vazifalarni hal etibgina erishish mumkin. Jismoniy tarbiya darslari ta'lim, tarbiya va sog'lomlashtirish vazifalariga ega. Jismoniy tarbiyada ta'lim berish vazifalari jismoniy tarbiya dasturida ko'rsatilgan mashqlarni o'rganishga, takomillashtirishga, harakat malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda jismoniy harakatlar va mashqlarni qo'llash taktikasini egallash hisoblanadi. Bu vazifalarni izchil o'rganish dasturdagi o'quv materiallarini sistemali va mustahkam egallashga olib keladi. Jismoniy mashqlar o'z xususiyatlariga ko'ra deyarli uzoq muddat o'rgatiladi. Lekin ba'zi bir harakatlar texnikasini bir darsning o'zida o'rganish mumkin.

Ta'lim vazifalariga, bolalarning jismoniy madaniyat va sport, sog'likni saqlash, kundalik tartib, to'g'ri nafas olish, chiniqish, jismoniy mashqlarni to'g'ri bajarish xaqida bilim olishlari ham kiradi. Ta'lim vazifalari tarbiya va sog'lomlashtirish vazifalari bilan birga olib boradi. Jismoniy tarbiya darslarida tartib intizom, diqqat, iroda, saranjomlik, do'stlik, hamkorlik, jamoatchilik, tashabbuskorlik, mustaqillik hamda qiyinchiliklarni engishda botirlik va qo'rqmaslik sifatlarini tarbiyalanadi. Ahloqiy sifatlarni tarbiyalash uchun albatta shu fazilatlar talab etiladigan jismoniy mashqlar, harakatlar yoki o'yinlar va musobaqalar tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik hissi sifatlarini tarbiyalashda katta e'tibor qaratiladi. Bu tadbir milliy qahramonlar, o'zbek mashhur sportchilari hayoti, O'zbekistonning sport bo'yicha jahon hamjamiyatida tutgan o'rni haqida suhbatlar, uchrashuvlar, o'tkazilib amalga oshiriladi. Tarbiya vazifalarini hal etishga bag'ishlangan maxsus darslar bo'lishi xam mumkin. O'qituvchi bolalarda qat'iylik va qiyinchiliklarni engalish xususiyatini tarbiyalash maqsadida, mashqlarni yoki ularni bajarish sharoitlarini

murakkablashtirib, ba'zi qiyinchiliklarni vujudga keltiradi.

Sog'lomlashtirish vazifalari xam tarbiyaviy vazifalar kabi har bir darsda hal etilishi lozim. Jismoniy madaniyat darslarini to'g'ri uyushtirish va o'tkazish, tegishli kiyimlarda shug'ullanish, mashg'ulot joyida zarur sanitariya-gigiena holati saqlanishi, darslarning ochiq havoda o'tkazilishi-bularning barchasi sog'lomlashtirish vazifalarini hal etishda qulay sharoit yaratadi. Sog'lomlashtirish vazifalari o'quvchilarni tabiat omillari yordamida dars davomida yoki mustaqil chiniqtirib borish muolajalari orqali hal etiladi. Chiniqtirish muolajalari organizmni jismoniy rivojlanishini ta'minlab, kasalliklarga chidamliligini orttiradi. Shu bilan birga ishchanlik qobiliyatini saqlanishi yoki ortib borishi ta'minlaydi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Маҳкамжонов К.М. Тайёрлов синфларида жисмоний тарбия дарслари. – Т.:«Ўқитувчи», 2011. -94-б.
2. Насриддинов Ф.Ҳ., Шатерников Э.К. Инсон омилини шакллантиришда жисмоний тарбия ва спорт. – Т.: «Ўқитувчи», 2003. -102-б.
3. Pedagogik atamalar lug'ati. // Tuzuvchilar: jamoa. – Т.: Fan, 2008. –В. 144.
4. Ма'муров В.В. Во'лажак о'қитувчиларда акмеологик yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish. Monografiya.– Т.: Fan, 2017. –144 б.
5. Клименко Б. А. Здоровый образ жизни: алгоритм поиска отечественных статей и их анализ в Российском индексе научного
6. Ro'zimboyevich N. A. МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA QO'LLANILADIGAN TA'ЛИМ METODLARI: 10.53885/edinres. 2022.59. 98.066
7. Nurullayev Abdurashid Ro'zimboyevich “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasida o'qituvchisi. Buxoro davlat universiteti //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 886-889.
8. Abdurashid N. Classification of Healthy Factors and Healthy Exercises in the Process of Physical Education //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 103-105.
9. Нуруллаев А. Р., Рузимбоев М. JISMONIY TARBIYA DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKIL QILISHDA TA'ЛИМ METODLARINING AHAMIYATI: Nurullayev Abdurashid Ro'zimboyevich, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti” kafedrasida o'qituvchisi. Buxoro davlat universiteti Ro'zimboyev Murodjon, Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot instituti 1-kurs talabasi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 176-178.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING O'QUV-BILISH FAOLIYATINI LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Rashidov Abduaziz Abduvali o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.045>

Annotatsiya: mazkur maqolada bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat yaxshi mutaxassis sifatida, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda sohaga oid ilg'or tajribalarni o'zlashtirgan va kasbiy faoliyatida keng foydalana oladigan ijodkor mutaxassis bo'lishi haqida va bo'lajak o'qituvchilarni o'quv-bilish faoliyatini loyihalashdan maqsad — pedagogning yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilingan.

Tayanch so'z va iboralar : oliy ta'lim muassasasi, bo'lajak o'qituvchilar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, innovatsion ta'lim, kasbiy faoliyat, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar.

THEORETICAL PRINCIPLES OF DEVELOPING THE COMPETENCE OF DESIGNING EDUCATIONAL ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS

Rashidov Abduaziz is the master of
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: in this article, the future teachers of the higher educational institution today are not only good specialists, but also creators who have mastered information and communication technologies, innovative educational technologies, and best practices related to the field and can widely use them in their professional activities. about becoming a specialist and the purpose of designing educational activities for future teachers is to form the pedagogue's desire for innovation, the ability to work independently, using new pedagogical technologies, interactive methods, in and out of class an attempt was made to develop proposals and recommendations for improving the training qualification.

Key words and phrases: higher education institution, future teachers, information and communication technologies, innovative education, professional activity, pedagogical technologies, interactive methods.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Рашидова Абдуазиз Абдуваливич магистрант
Шахрисабзского государственного педагогического института.

Аннотация: в данной статье будущие преподаватели высшего учебного заведения сегодня являются не только хорошими специалистами, но и творцами, овладевшими информационно-коммуникационными технологиями, инновационными образовательными технологиями, лучшими практиками, связанными с данной сферой, и способными широко использовать их в своей деятельности. профессиональной деятельности. о становлении специалиста и целью проектирования образовательной деятельности будущих учителей является формирование у педагога стремления к новаторству, умения работать самостоятельно, с использованием новых педагогических технологий, интерактивных методов, на занятиях и вне занятий была предпринята попытка разработать предложения и рекомендации по повышению квалификации

специалистов.

Ключевые слова и фразы: высшее учебное заведение, будущие учителя, информационно-коммуникационные технологии, инновационное образование, профессиональная деятельность, педагогические технологии, интерактивные методы.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan - yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan - yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda zamonaviy kadrlarni tayyorlash tizimining sifat darajasini ortishi, xalqaro standartlarga muvofiq ravisha malakali karlar tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni ishlab chiqish, oliy ta'lim tashkilotlari bilan dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni o'rnatishga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni [1], 2019 yil 8 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sonli Farmonlari va 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 6 iyundagi PQ-3775 sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faolishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi oliy ta'lim muassasalariga ta'luqli Farmon, Qarorlar, shu asosda, so'ngi yillarda qabul qilinayotgan ta'limga oid bir qator hujjatlarda ta'lim jarayoniga oid bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlari, o'quv-metodik, mobil-didaktik materiallarni keng joriy etgan holda, talabalar hamda ilmiy-pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlar bilan rivojlantira olish qobiliyati, oliy ta'lim o'quv mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan samarali qo'llash masalalari oliy ta'lim darajasini bugungi sifat jihatidan takomillashtirish hamda ta'limni tubdan rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanib kelinmoqda. Shuni inobatga olgan holda, ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda zamonaviy kasbiy ta'lim jarayonini modernizatsiyalash, kompetentlikka asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantira olish, oliy ta'limda talabalarining loyihalash kompetentligini takomillashtirishga oid pedagogik mexanizmlarni yanada oshirish ehtiyojini yuzaga chiqishiga sabab hisoblanadi, buni amalga oshirish ma'lum pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

N.A. Muslimovning tadqiqotlarida kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi ilmiy masala sifatida talqin etib, uning nazariy-metodologik asoslari bilan birgalikda tarkibiy tuzilmasi ham asoslab berilgan. Tadqiqotchining ta'kidlashicha, ta'lim texnologiyalarning xislati shundan iboratki, unga qo'yilgan maqsadga erisha olish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtira olinadi hamda amalga oshiriladi. Shuningdek, mashg'ulotning muvaffaqiyatli o'tishini 80 foizi o'quv jarayoni to'g'ri loyihalashtirilishi, o'quv jarayonini tashkil etish hamda uni amalga oshirish bilan bog'liqdir.

O'quv jarayonini loyihalashtirish uch bosqichdan iboratdir bular:

- o'quv maqsadlari hamda natijalarini belgilay olish;
- natijalar asosida nazorat topshiriqlarini hamda baholash mezonlarini yaratish;
- o'quv jarayonining texnologik xaritasi (dars ishlanmasi xaritasi)ni tayyorlash.

Z.K. Ismailova ilmiy tadqiqot ishilarida talabalarining kasbiy pedagogik malakalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, metodlari o'rganilgan, har bir bo'lajak mutaxassis ta'lim tizimini isloh eta olishning zaruriyligini tushunib yetishi hamda uning amaliyotda ta'lim tashkilotlari innovatsion jarayonlariga qo'shila olishdagi ahamiyatini anglashi hamda ishlab chiqish imkoni mavjud bo'lgan innovatsion maydonda o'zini ko'rishini eng muhimi yangiliklarni o'zlashtira olishdan iborat ekanligi yoritilgan.

M.B.Urazova pedagogning kasbiy kompetentligi tuzilmasida loyihalashtirish jarayonining yangi bilimni loyiha shaklida individual mahsullashga yo'naltira oladigan original fikrlash salohiyatini takomillashtirganligini ochib beradigan refleksiya, pedagogning mustaqilligini taminlab beruvchi ijodiy darajalari aniqlangan. O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'limning mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilay olish, ta'lim metodlari, shakllari, vositalarini to'g'ri tanlay bilish, talabalarining bilim, ko'nikma, malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan yaratilgan, mashg'ulotga ajratilgan ma'lum vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshira olish, bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

O'quv mashg'uloti maqsadining aniq belgilanishiga erishish uchun pedagogdan quyidagilarga e'tibor qaratishi ta'lab qilinadi:

- 1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;
- 2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Ta'lim maqsadlari talabalarining harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanishi masalalari atroflicha muhokama qilingan.

Q.T.Olimovning ilmiy-tadqiqotlarida maxsus fanlardan zamonaviy o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishning nazariy, amaliy asoslari kasbiy ta'lim jarayonini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar keltirib o'tilgan. Shu asosida ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi omillar bo'yicha mutaxassislarining turlicha qarashlari mavjud ekanligini, bilim oluvchilarning saviyasi, pedagoglarning bilimi va mahorati, ta'lim jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, jarayon monitoringining to'g'ri tashkil etilishi, natijalarning tahlili va shu kabi ko'pgina omillarni aytish mumkinligini, mazkur omillar har bir oliy ta'lim muassasasining rivojlanish strategiyasining o'quv va ilmiy jarayonlar bilan bog'liq qismlarida aks etishi, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida bo'lishiga erishish, real mehnat bozori talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashga yo'naltirilganligi, ilmiy faoliyat jarayoniga yosh avlodning ehtiyojni kuchaytira olish, oliy malakali ilmiy pedagogik mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro hamkorlikni takomillashtirish, kasbiy ta'limga yo'naltirish lozimligi asoslangan.

D.O.Ximmataliev o'zining ilmiy ishida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika etishda pedagogik- texnik bilimlar integratsiyasi, pedagogik hamkorlik masalalarini tahlil qilgan. Pedagogik hamkorlik jarayoniga, quyidagi talablar keltirib o'tilgan: talabani o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi:

talabaning dars davomida befarq bo'lmasligi, mustaqil fikrlashni, ijod etishi va izlanishga majbur etishi:

talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi:

pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishi.

J.A.Hamidov o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini ishlab chiqish hamda foydalana olish texnologiyasi masalalari ko'tarilgan bo'lib, har bir o'quv mashg'ulotining mavzusi, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi mavjud, ya'ni o'quv jarayonidagi ta'lim texnologiyasi - bu yakka tartibdagi jarayondir, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqib ma'lum bir maqsadga

yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan hamda kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayonligi aytilgan .

Loyiha pedagogik jarayon sifatida e'tiborni ma'lum bir muammoli masalaga hamda uning keyingi yechimiga qaratadi, shu bilan birga, to'plangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni ko'zda tutadi, bu esa faoliyat jarayonini yoritadi.

Qator manbalarda "loyiha" tushunchasiga ta'riflar berilgan:

1. Webster lug'atida: loyiha (inglizcha - loyiha) – rejalashtirib olingan korxonalar: o'qish vaqtida bir guruh o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan maxsus yaratilgan tadqiqot, topshiriq, vazifa ko'rinishida bo'lishi mumkin.

2. Pedagogik atamalar lug'ati: "loyiha – bu muayyan vaqt davomida pedagogik tizimni maqsadli ravishda o'zgartirish bo'yicha, belgilangan natijalar sifatiga qo'yiladigan aniq talablarga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq tadbirlar majmuidir". .

3. Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarining umumiy kompetensiyasiga qo'yiladigan milliy talablarga ko'ra: "loyiha – bu noyob mahsulot yoki xizmatni yaratish uchun mo'ljallangan vaqtinchalik xarakterdagi maqsadli faoliyatdir". .

4. Loyiha - bu muayyan talablarga javob beradigan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan vaqt, xarajatlar va resurslar cheklovlarini o'z ichiga olgan boshlanish va tugash sanalari bilan muvofiqlashtirilgan va nazorat qilinadigan tadbirlar majmuidan iborat noyob jarayondir .

5. Loyiha - bu belgilangan davrlar, xarajatlar, samaradorlik parametrlari bilan aniq belgilab olingan maqsadlarga erishish uchun shaxs yoki tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan, belgilab olingan boshlanish hamda yakuniy nuqtalarga ega bo'la olgan yagona muvofiqlashtira olingan harakatlar to'plamidir .

6. AQSh, Project Management instituti (PMI): "loyiha – bu noyob mahsulot va xizmatlarni olishga qaratilgan vaqtinchalik korxonalar".

7. Avstraliya Loyiha boshqaruvi instituti (ALBI): «loyiha - bu umumiy maqsadga muvaffaqiyatli erishish uchun mo'ljallangan, aniq boshlanish va tugatish sanalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan noyob tadbirlar majmuasidir» .

8. V.I. Voropaev: «Loyiha - bu natijalar sifatiga qo'yiladigan talablar, mablag'lar va resurslarni sarflashning mumkin bo'lgan chegaralari va ma'lum bir tashkilotga qo'yiladigan vaqt bilan cheklangan, maqsadli ravishda alohida tizimni o'zgartirish» .


1.1.1-jadval. Loyihalash tizimini tashkil qilishning asosiy omillari

Tamoyillar	Mazmuni
Izchillik tamoyili	loyiha jarayonini bo'lajak muhandislik ta'limi talabalariga mos ravishda shaxsiy yo'nalish hamda loyihalarning shaxsiy ahamiyatini asoslab tarkib topgan tizim ko'rinishida belgilay olish, shu bilan birga, bo'lajak kasbiy faoliyat talablarini inobatga olgan va unga yo'naltirilgan loyihalalar
Murakkablik tamoyili	o'quv jarayoni materiallarining o'zaro bog'liqligida kuzatilishi mumkinki, fanlarning o'quv dasturining modullari, ta'limning maqsadi, uning o'zaro bog'liq bo'lganligini aks ettira oluvchi muhandislik ta'lim yo'nalishlarining bo'lajak kadrlarining loyihalash kompetentligini oshirishga qaratilgan.

Belgilangan tamoyillarga asosida, «boyitish» atamasi bu - birinchi tashkiliy-pedagogik

shartning mohiyati to'liq aks ettiriladi. Boyitish ta'limning mazmunini sifat jihatidan qayta tashkil etish bo'yicha harakatlarning ketma-ketligini o'z tarkibiga oladi, bunda u talabaning shaxsiy o'sishi maqsadiga to'liq javob bera oladi hamda ushbu holatda loyihalash kompetentligining takomillashishiga ko'maklashadi.

Yuqoridagi aytib o'tilganlarga tayanib, biz kasbiy yo'naltirish tamoyilini keltirib o'tamiz.



3.1.1-rasm. Talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatini loyihalash algoritmi

Tuzib chiqilgan tashkiliy-pedagogik shart sharoit 3.1-rasmda ko'rsatib chiqilgan talabalarining loyihalash kompetentligini oshirishga qaratilgan auditoriya hamda auditoriyadan tashqari bo'lgan loyihalash jarayonini integratsiyalashning algoritmidagi o'z aksini topadi.

Xulosa qilib aytganda, loyihalar tizimini ishlab chiqishda e'tiborga molik bo'lgan asosiy boshlang'ich nuqtalarni ajratib ko'rsatishimiz lozim: o'quv materialini idrok etishga tayyorlikni shakllantira olish; ijodiy izlanish jarayonlarini ishlab chiqish; dizayndagi shaxsiy ahamiyatni shakllantira olish; loyihani amalga oshirish jarayonida o'qitish talablari hamda operativ nazoratni taqdim qilish; kasbiy yo'nalishdagi masalalarga e'tiborni qaratish; muvaffaqiyatga turtki bo'lishi lozim bo'lgan xatti-harakatlarni inobatga olish.

Talabalik vaqtining yosh xususiyatlarini tahlil etib chiqish jarayonidan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy tajribani o'zlashtira olgan yoshlar shaxsning shakllanishida uning ichki dunyosi, ichki mavqei o'zgarishi orqali ruy beradi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, to'plangan tajriba, agar u insonning o'zi uchun qadri bo'lsa, unda ahamiyatli bo'ladi. Shu munosabat bilan, loyiha faoliyatida ishtirok etish zarurati va buning natijasi, ya'ni loyiha kompetensiyasining rivojlanish darajasi, shaxsning o'zi uchun qadriyatga aylanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasi to'g'risida" 07.02.2017 y., PF-4947, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son 448-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 20.04.2017 y., PQ-2909, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.

4. Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. - 48 bet.

5. Adolf, V.A., Programma adaptatsii budущих injenerov k uchebnoprofessionalnoy deyatelnosti v vuze / V.A. Adolf, A.K. Dashkova, F.V. Zander // Vestnik Krasnoyarskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta im. V.P. Astafeva. – 2019. – № 2(48). – С. 69–76.

6. Adolf, V.A. Prognozirovaniye stanovleniya professionalnoy kompetentnosti vьpusknika vuza: monografiya / V.A. Adolf, A.N. Savchuk. – Krasnoyarsk: KGPU im. V.P. Astafeva, 2014. – 349 s.

7. Aksenova, G.I. Kriterii i indikatorы sub'ektnosti studenta i kursanta vьsshego uchebnogo zavedeniya / Aksenova G.I. // Ugolovno-ispolnitelnoe pravo – 2015. – №1 – S.102–106.

8. Alferov, P.A. Trexurovnevaya rossiyskaya instrumentalnaya model upravleniya proektami (RIM-III) [Elektronnyy resurs] / P. A. Alferov // URL: <https://rim-iii.postach.io/post/opredeleniia-proekta.html>

9. Soxibov A.R. "Ta'limning interfaolusullari". O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi-2020. -175 b.

10. Soxibov A.R. «Инновационные технологии в повышении качества образования». «Педагогическое творчество преподавателя и его роль в модернизации страны». Сборник тезисов международной научной научно-практической конференции. Ташкентский государственный экономический университет. Ташкент-2012. 246-248-бетлар

OMMAVIY SPORT OILADAN BOSHLANISHI KERAK VA BUNDA JISMONIY TARBIYA – BARKAMOLLIKA ELTUVCHI YO‘LDIR

*Rashidov Xurshid Karimovich,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.046>*

МАССОВЫЙ СПОРТ ДОЛЖЕН НАЧИНАТЬСЯ С СЕМЬИ, И В ЭТОМ ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ – ПУТЬ К СОВЕРШЕНСТВУ

*Рашидов Хуршид Каримович,
доктор философии по педагогическим наукам PhD, доцент кафедры социальных наук и физической культуры Навоийского государственного горно-технологического университета*

MASS SPORT SHOULD START WITH THE FAMILY, AND IN THIS PHYSICAL EDUCATION IS THE WAY TO PERFECTION

*Rashidov Khurshid Karimovich,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences PhD, Associate Professor, Department of Social Sciences and Physical Education, Navoi State Mining and Technological University*

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya, badantarbiya – sog‘liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg‘un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko‘rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg‘ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Bundan tashqari, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo‘shib olib boriladi. Jismoniy tarbiyaning keng tarmoqli tizimi: oilaviy-maktabgacha davr (chaqaloqlikdan boshlab bog‘cha yoshidagi), maktab yoshi, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim davri hamda katta yoshdagi (erkak va ayollar) badan tarbiyasini o‘z ichiga oladi. Jamiyatimizning taraqqiyoti, yosh avlodning porloq kelajagi uchun muhim bo‘lgan bu tizimni rivojlantirishda oila va ta‘lim muassasalari birdek mas‘uldir.

Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat, tarbiya, sog‘lom turmush, oila, tizim, barkamol avlod, sport, targ‘ibot.

Аннотация: Физическое воспитание, бодибилдинг – составная часть общего воспитания, направленная на укрепление здоровья, гармоничное развитие организма человека. Один из показателей, обозначающих состояние физической культуры в обществе. Основные средства физического воспитания: физические упражнения, закаливание организма, гигиена труда и быта. Он также сопровождается умственным, нравственным, трудовым и эстетическим воспитанием. Разветвленная система физического воспитания включает: семейно-дошкольный период (от младенчества до детского сада), школьный возраст, период среднего специального и высшего образования, а также физическое воспитание во взрослом возрасте (мужское и женское). Семья и образовательные учреждения в равной степени несут ответственность за развитие этой системы, которая имеет решающее значение для развития нашего общества, светлого будущего подрастающего поколения.

Ключевые слова: Физическая культура, образование, здоровый образ жизни, семья, система, зрелое поколение, спорт.

Abstract: Physical education, bodybuilding is an integral part of general education, aimed at improving health, harmonious development of the human body. It is one of the indicators denoting the state of physical culture in the society. The main means of physical education: physical exercises, hardening of the body, hygiene of labour and everyday life. It is also accompanied by mental, moral, labour and aesthetic education. The branched system of

physical education includes: the family and preschool period (from infancy to kindergarten), school age, the period of secondary specialised and higher education, and physical education in adulthood (male and female). Family and educational institutions are equally responsible for the development of this system, which is crucial for the development of our society, the bright future of the younger generation.

Key words: physical culture, education, healthy lifestyle, family, system, harmonious generation, sport, propaganda.

KIRISH. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oldimizga mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalarni qo'ydilar. Jismoniy tarbiya va sportga qiziqish, e'tibor qaratish, sportning biror-bir turi bilan shug'ullanish mantiqan fikrlash, xotira va diqqatni charxlaydi, bo'g'imlarning harakatchanligi yaxshilanib, kuch, tezlik, chidamlilik va qobiliyatni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, yuqori yelka kamari, oyoq-qo'llar mushaklari ishi faollashib, organizmning hamma a'zolari va tizimlari ishi rag'batlantiriladi. Insonga ana shunday bebaho imkoniyatlarni beradigan sportga bolalarni qiziqtirish, ularni sport bilan mashg'ul qilish, avvalambor, oiladan boshlansa, maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, oilada ota-onalar o'zlari jismoniy tarbiya bilan shug'ullanib, oilada chiniqtirish ishlarini tashkil etib va ertalab bajariladigan jismoniy daqiqalarni zaruriy va odatiy mashg'ulotga aylantirsalar, farzandlariga o'zlari shaxsiy namuna bo'lgan holda eng to'g'ri tarbiyani bera boshlagan bo'ladilar. Vaholanki, qush uyasida ko'rganini qiladi, deb bejizga aytilmagan.

Ibtidoiy davrdan boshlab jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Dastlab u jismoniy mashqlar, turli o'yinlar, mehnat jarayonlari, ovchilik, harbiy harakatlarga o'xshagan musobaqalar va sinovlar shaklida mavjud bo'lgan, turli marosimlarni aks ettirgan. Keyinchalik yoshlarni qilichbozlik, chavandozlik, kamondan o'q otish, yakkama-yakka kurash mahoratga o'rgatish jamiyatning asosiy vazifalaridan biriga aylana borgan. Uyg'onish davrida jismoniy tarbiyaga e'tibor yanada kuchaydi. Badantarbiyaga o'rta asrlarda oilaviy tarbiya va maktabdagi pedagogik jarayonning muhim qismi sifatida qarala boshlandi. J.J.Russo "Emil yoki tarbiya to'g'risida" deb atalgan pedagogik risolasida jismoniy tarbiya bolalarning aqliy kamoloti va mehnat tarbiyasidagi ahamiyatini ta'kidlagan.[5] Chunki ommaviy sportni rivojlantirishning negizi oilada bajariladigan, hech qanday mablag' talab etilmaydigan yoki ortiqcha muammolar keltirib chiqarmaydigan oddiy ertalabki badantarbiyaning o'zginasidir. Jismoniy tarbiya mashqlarini bajarish faqatgina instruktor yoki trener rahbarligida, uning ko'rsatmalari asosida emas, balki har bir inson o'zining fiziologik imkoniyatlaridan kelib chiqib, ongli ravishda amalga oshirishi zarur. Bu narsa insonning ham jismoniy, ham tibbiy ham estetik madaniyati saviyasini belgilaydigan mezondir. Zero, jismoniy tarbiya va sport – tengsiz go'zallik va bebaho boylik hisoblangan salomatlikning garovi ekanigini farzandlarimiz ongiga bolalikdan singdirsakkina ezgu maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

USLUBLAR

Barkamol avlod tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila sog'lom avlodni voyaga yetkazuvchi muhim omil hisoblanadi. Demak, inson salomat yashashi uchun boshqa omillar bilan birga sog'lom oilaviy muhit ham lozim. Bunday muhit oila a'zolarining bir-birini tushunishga, oilaviy munosabatlarning to'g'ri o'rnatilishiga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, barkamol avlod tarbiyasi uchun sog'lom muhitni yaratish ota-onaning bosh vazifasidir. Mustaqil O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi tub o'zgarishlar ham oilada yangilanish, o'zgarishni amalga oshirishni taqozo etadi. Azal-azaldan oilada inson tarbiyasi va komil farzand tarbiyalash muhim jarayon hisoblangan. Sog'lom avlodni barkamol tarbiyalash oila zimmasiga tushadi. Eng avvalo, oilada sog'lom ma'naviy muhit, oila a'zolari o'rtasida o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarni shakllantirish, ma'naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish asosiy vazifamiz bo'lib qolmog'i lozim.

Aytish joizki, kun tartibiga amal qilish sog'lom turmush tarzi asosidir. Kun tartibi insonning dunyoga kelgan kundan boshlab amalda bo'luvchi doimiy jarayon sanalib, shaxsning turli mazmundagi faoliyatlarni — mehnat qilish, dam olish, ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va hokazolarni muayyan vaqtda, tartib bilan ketma-ket bajarishidir. Tabiiyki, kun tartibi hamma uchun bir xil emas va u shaxsning yoshi, sog'lig'i, ish qobiliyati va maishiy turmush sharoitiga muvofiq tuziladi. Uning umumiy talablariga amaliy mehnat bilan jismoniy mehnatning to'g'ri taqsimlanishi, o'z vaqtida dam olish, har kuni muayyan vaqt va meyorda ovqatlanish, ma'lum vaqtda uyquga yotish va barvaqt uyg'onishga odatlanish, ochiq havoda sayr etish kabilar kiradi. Insonning sog'lom yoki nosog'lom turmush tarzi ham kun tartibining to'g'ri yoki noto'g'ri uyushtirilganiga bog'liq. To'g'ri tuzilgan kun tartibi organizmning har tomonlama to'g'ri rivojlanishi, irodaning mustahkamlanishi, mehnat unumdorligi yuqori bo'lib, ishlash qobiliyatining uzoq vaqt yaxshi saqlanishi, kasallanishining oldini olishda muhim o'rin tutadi. Sog'lom turmush tarzi omillaridan yana biri — ozodalikdir. Ushbu tamoyilni, asosan, oila muhitida shakllantirish va unga amal qilishni o'rgatish joizdir.

Oilalarda ma'naviy-axloqiy muhit jismoniy tarbiya orqali mustahkamlashga va sog'lomlashtirishga ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida munosabati darajalari bo'yicha statistik tahlil ishlarini Fisher kriteriyasi orqali tahlil qilamiz.

Ota-onalar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarida olingan natijalar bo'yicha statistik tahlili Fisher kriteriyasi empirik qiymatini hisoblovchi formulasidan, ya'ni $\varphi_{emp} = \sqrt{2 \arcsin \sqrt{\frac{p_1}{n_1} - \frac{p_2}{n_2}}}$ foydalanildi. Bu yerda p_1, p_2 tajriba boshi va tajriba oxiridagi ota-onalarning ijobiy o'zlashtirish ko'rsatkichlari, n_1, n_2 lar mos ravishda tajriba boshi va tajriba oxiridagi ota-onalarning soni, $\varphi_{krit} (0.05) = 1.67$

H_0 gipoteza sifatida $\varphi_{emp} \leq \varphi_{krit}$, ya'ni olingan natijalarda farq yo'q, H_1 gipoteza sifatida esa $\varphi_{emp} > \varphi_{krit}$ ya'ni olingan natijalarda farq mavjud va u samaradorlikka ega deb olamiz. [2,127-b]

Tajriba boshi va tajriba oxiridagi ota-onalarning oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni jismoniy tarbiya orqali mustahkamlashga va sog'lomlashtirishga munosabati darajalari statistik tahliliga ko'ra tajriba boshi va tajriba oxiridagi olingan natijalarda farq mavjud bo'lib, $\varphi_{emp} > \varphi_{krit}$ bo'lgani uchun H_1 gipoteza qabul qilinadi, bu esa ota-onalarning oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni jismoniy tarbiya orqali mustahkamlashga va sog'lomlashtirishga munosabati darajalari ekanligini bildiradi.

Ushbu formulalar asosida yuqorida olingan natijalarning statistik tahlilini quyidagi jadvallarda keltirildi(1-jadval).

1-jadval.

Mamlakatimizdagi uch viloyatning uch hududida o'tkazilgan tajribaning statistik tahlili

Viloyatlar, tumanlar	Ota-onalar soni	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Olingan natijalar farqi	Tajriba sinfi ijobiy	Nazorat sinfi ijobiy	Fisherning empirik qiymati	Fisherning qritik qiymati	Kriteriya xulosasi
Navoiy viloyati Navoiy shahar	52	46,2%	63,5%	17,3%	0,462	0,635	3,58	1,67	H1
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani	51	49,0%	66,7%	17,6%	0,490	0,667	3,68	1,67	H1
Samarqand viloyati Paxtachi tumani	53	43,4%	66,0%	22,6%	0,434	0,660	4,70	1,67	H1
Jami	156	46,2%	65,4%	19,2%	0,462	0,654	3,99	1,67	H1

Shunday qilib, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhit jismoniy tarbiya orqali mustahkamlanganligi va sog'lomlashtirilganligi matematik-statistika metodlariga murojaat etilganligida o'z ifodasini topdi.[2,128-b]

Chunki nolinchi gipoteza yuqori darajali qiymatda rad qilinmoqda, bu tajriba-sinov guruhi va nazorat guruhi chastotalari farqi statistik ishonchli ekanidan dalolat beradi.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tajriba-sinov boshida $\alpha=0,05$ darajada oilalarda ma'naviy-axloqiy muhit mustahkamlanganligi va sog'lomlashtirilganligi jismoniy tarbiya natijasida sezilarli ko'rsatkichlarni berdi.

Tajriba-sinov davrida oilalarda ma'naviy-axloqiy muhit jismoniy tarbiya orqali mustahkamlanganligi va sog'lomlashtirilganligi ko'rindi. [2,128-b]

Unutmang! Sog'lom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir. Sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasida, mehnat jamoasida, umuman, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o'tish, hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslikka o'rganadi. Yana bir gap! Sog'lom turmush tarzi qoidalari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir bo'lishi amrimahol. Ularni ertaga qoldirmasdan, hoziroq amalga oshirishni boshlash bilan sog'lom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan bo'lamiz. Sog'lik bu insonning birinchi muhim ehtiyoji bo'lib, uning ishga yaroqliligini, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Sog'lom va ma'naviy rivojlangan kishi baxtlidir. U o'zini yaxshi his etadi, o'z ishidan qoniqadi, yoshlikning so'nmas hissiyoti va ichki go'zalligi ila ilm olishga intiladi. Sog'lom turmush tarzi qoidalari inson sog'ligini ta'minlashda xizmat qiladi, kasalliklarning boshlang'ich profilaktikasi, sog'likning muhim omili sifatida tan olingan. Sog'lom turmush tarzining eng ustuvor yo'nalishi – bu harakatlar tartibidir. Uning asosini to'g'ri ovqatlanish hamda tizimli jismoniy mashqlar, sport bilan shug'ullanish tashkil etadi. Sport – umrimiz oxiriga qadar sog'lom hayot kechirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning ko'rinishlari, shakllari, usullari ko'p. Yoga, piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, raqs, gimnastika, futbol va hokazolar. Istaganingizni tanlang, jismonan faol bo'lsangiz kifoya. Har kuni emas, kunora 30-60 daqiqa sport bilan shug'ullansangiz, sog'lom bo'lishingiz uchun yetarli. Kamroq o'tirish va ko'proq harakatlanish kerak. Agarda kasbingiz o'tirib ishlashni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffus qiling va bu vaqtda turli yengil mashqlarni bajarib, yelka, bel va oyoqlar chigilini yozing. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sportni rivojlantirishga va yosh sportchilarni xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish, jismoniy salohiyati yuqori, ruhiy tetik sportchilarni tayyorlashga katta e'tibor ko'rsatib kelinmoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi barcha umumta'lim muassasalarida sport bilan shug'ullanish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Maktablarda muntazam ravishda o'tkaziladigan “Quvnoq startlar”, sport musobaqalarining o'tkazilishi yosh avlodning jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Yoshlikdanoq farzandlarimizni jismoniy tayyorgarlikka mos ravishda tarbiyalashimiz davr taqozosidir. Sport shunday bir ulkan kuchki, barcha yutuqlarni dunyo miqyosida namoyish eta oladi. O'zbekiston ham o'zining chempionlari bilan dunyo minbarida o'z nufuziga egadir. Bizning mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportga juda kata e'tibor berilgan. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat natijasida sport yuqori pog'onaga ko'tarildi. Ibn Sino bobomiz aytganidek: “Tarbiyaning ajratib bo'lmaydigan bir tarkibi jismoniy tarbiyadir”. Inson salomatligining 10%-tibbiyot, 15%-irsiy belgilar, 20%-atrof muxit, 55%-turmush tarzi belgilab beradi. Demak, ming yillar oldin ham jismoniy tarbiya va inson harakati orqali yetuklikka, sog'lom hamda ruhan tetik yashashga erishilgan.[1]

NATIJALAR. Ma'lumki, insonning ruhan tetik bo'lishi uning salomatlik darajasi bilan birga jismoniy faolligiga uzviy bog'liq. Bejizga: “To'xtaganni o'tirgisi, o'tirganni yotgisi, yotgan odamni uxlagisi keladi”, – deyishmagan. To'xtab qolgan har qanday narsada yomon o'zgarish sodir bo'lgani kabi, ya'ni oddiygina oqar suv ham to'xtashi natijasida aynigani kabi harakatsizlik ham inson organizmi uchun bora-bora zararli oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha bir qancha meyoriy hujjatlar qabul qilinib, ijrosi yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday bir sharoitda sportning ommaviy turlari bilan muntazam shug'ullanishni targ'ib qilish orqali yosh avlodni jismonan sog'lom voyaga yetishini ta'minlash bilan birgalikda yurt ravnaqi va jamiyat taraqqiyoti uchun ham o'z hissamizni qo'sha olamiz.

Buning uchun quyidagilarni muntazam amalga oshirib borish lozim bo'ladi:

1. Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini tom ma'noda oshirib borish.
2. Doimiy va izchil targ'ibot.
3. Shaxsiy namuna.
4. Moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

Targ'ibot uchun ta'sirchan va turli-tuman usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Maktabda o'tkaziladigan sport musobaqalari oldidan, albatta, bu musobaqalarning ahamiyati to'g'risida ko'rgazmali, og'zaki, yozma targ'ibot olib borilishi, musobaqalar jarayoniga turli kasb egalari tashrifi va ularning faol ishtirokini ta'minlash yaxshi samara beradi. Ommaviy sport turlarining inson salomatligini mustahkamlashdagi roli, ulug' allomalar va dunyoga mashhur shaxslarning jismoniy tarbiya va sport haqidagi fikrlari aks etgan tarqatma materiallar, ko'rgazmali burchaklar ham yaxshi targ'ibot vositasi bo'lib xizmat qiladi.[6] Bundan tashqari, tarixiy shaxslar va tarixiy sanalarga bag'ishlab o'tkaziladigan turkum tadbirlar doirasida sport o'yinlari salmoqli joy olishi zarur. Shu o'rinda milliy sport o'yinlarini o'tkazib borish, "Alpomis va Barchinoy" kabi milliy timsollar nomi bilan bog'liq mavsumiy o'yinlarni yo'lga qo'yish lozim. Biologiya, odam va uning salomatligi darslarining mazmunida jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlarini targ'ib qilish alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir mavzu mazmuniga bog'langan holda tushuntirilgan, ko'rgazmali yoki amaliy bajarib ko'rsatilgan mashq o'quvchi ongiga yaxshiroq yetib boradi, qalban anglab yetadi. Zero, har qanday bilim qalban anglab yetilmas ekan, u shunchaki bilimligicha qoladi, amaliy ahamiyat kasb etmaydi. Maktab o'qituvchilarining, birinchi navbatda, jismoniy tarbiya o'qituvchilarining qat'iy tartib-intizomga ega bo'lishi, kun tartibini to'g'ri rejalashtirish bo'yicha o'quvchiga aniq tavsiyalar bera olishi, lozim bo'lganda shaxsiy namuna ko'rsatishi avval o'quvchilarning kichik guruhida, keyinroq ko'proq o'quvchini o'ziga tortadigan magnitga aylanishi mumkin. Bunda har bir tavsiya aniq isbotlangan fikr bilan mustahkamlanishi lozim bo'ladi. Masalan: odamning kechki 22:00 dan 2:00 oralig'ida uyquda bo'lishi organizmning normal o'sishi va rivojlanishi uchun xizmat qiladigan moddalar yetarli miqdorda ishlab chiqilishi uchun muhim ekanligi, sutkaning hech qaysi boshqa vaqtidagi uyqu bunday natija bermasligini anglatish kerak.[3] Shuningdek, ertalabki badantarbiyaning muntazam bajarilishi, yugurish vaqtida baxt gormonlari ajralishi, jismoniy va aqliy faoliyatni navbatlash, yetarli va sifatli uyqu shartlari, ommaviy sport turlari bilan muntazam shug'ullanishda irodaviy sifatlarning tarbiyalanib borishi, g'alaba va mag'lubiyatni oson qabul qila olish kabi jarayonlar haqida asosli ma'lumotlar berib borish muhim.

MULOHAZALAR

Insonning ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanishida moddiy yoki ma'naviy manfaatdorlik yaxshi motivatsiya beradi. Shu ma'noda maktabda sportning bir yoki bir necha turi bilan muntazam shug'ullanib, natijalarga erishgan o'quvchilarni rag'batlantirib borish va boshqalarga namuna sifatida ko'rsatishdan erinmaslik lozim. Oilalarda esa ota-ona shaxsiy namuna ko'rsatishi lozim bo'ladi. Buning uchun alohida sharoit yaratish, katta sport maydoni yaqinida yashash shart emas. Oila boshliqlari avvalo o'z kun tartibini to'g'ri tashkil qilgan holda, har kuni ma'lum bir vaqtda uyquga yotish va ertalab aniq vaqtda uyg'onish tartibini joriy qilishlari, xonani shamollatish, ertalabki badantarbiya mashqlarini uy sharoitidan kelib chiqib bajarish, suv muolajalarini o'tkazishda farzandlariga ibrat bo'lishlari lozim. Og'izda tartib haqida gapirib, o'zi rioya qilmagan holda boladan talab qilish befoyda, hattoki yaxshigina ruhiy zarar keltirishi mumkin. Bu holat bolada ikkiyuzlamachilik, ota-onaga, kattalarga ishonchsizlik va behurmatlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi. "Bolalaringizni tarbiyalayman deb urinmang, ular baribir sizga o'xshashadi" iborasi bejizga aytilmagan. Oiladagi doimiy sog'lom muhit esa odat tusiga kirib, bir necha avlodlar uchun tarbiyaviy andoza vazifasini o'taydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, inson kimnidir o‘zgartirmoqchi bo‘lsa, buni avvalo o‘zidan boshlamog‘i lozim chunki biz o‘zgalarning, hattoki farzandlarimizning tanasiga egalik qila olishimiz mumkin, ammo qalbiga to‘g‘ridan to‘g‘ri egalik qila olmaymiz. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilgan ota-ona erishgan yutuqlariga qarab, ularga ergashgan farzandlarning ham kelajagi, albatta, buyuk bo‘ladi. Sog‘lom tanda sog‘ aql bo‘lishi ham hayotiy haqiqatdir aslida. Hozirgi kunda yo‘lga qo‘yilgan maktab o‘qituvchilarining ertalabki badantarbiya mashqlari bilan shug‘ullanishlari, salomatlik kunlari kabi tadbirlarni yanada takomillashtirib borish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Sh. Mirziyoyev Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori. 05.06.2017yil

Rashidov X.K. Oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni jismoniy tarbiya orqali mustahkamlash va sog‘lomlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. (Monografiya). – Navoiy. “Navoiy”, 2023. - 145 bet.

Rashidov X.K. Jismoniy chiniqtiruvchi mashqlar yordamida oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish “Uzlyuksiz ta‘lim” Ilmiy-uslubiy jurnal. Toshkent 2021. 82-85 bet.

Rashidov X.K., Urinov Sh.R. “The Importance of Sport Games in Creating a Healthy Environment in the Family”// Indonesian Journal of Public Policy Review. Vol 18 (2022): April, 10.21070/ijppr.v18i0.1167 Environmental Policy.

Russo J.J. “Emil yoki Tarbiya to‘g‘risida” (“Emile ou del Educftion”// Fransya.

Rashidov X.K., Urinov Sh.R. “Oilada sog‘lom muhitni yaratishda sport bilan shug‘ullanishning ahamiyati”// Fan, ta‘lim, madaniyat va innovatsiya [Jild: 01 Nashr: 01 (2022)]

RUS TILI DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Raxmanova Vazira Kaimovna

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.047>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf rus tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi, ahamiyati, kichik yoshdagi o'quvchilarni rus tili fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish orqali ularni rus tilida erkin va ravon so'zlash, mustaqil ravishda o'z fikrini bayon qilish, rus tili darslarida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning til ko'nikmalarini tarkib toptirish tamoyillari, usullari, tilni o'rganish strategiyalari, rus tilida so'zlash qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan bir qator samarali usullarni qo'llash natijadorligi, o'quvchilarning bir-birlari bilan muloqot qilish va o'z ma'lumotlarini almashishga imkon beruvchi "peer-to-peer" ta'lim modelidan foydalanishning afzalliklari aqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: til kompetentligi, rus tili, kommunikatsiya, kompetentsiya, metodologiya, strategiya, innovatsiya, integratsiya, faol ta'lim, hamkorlik, do'stona muhit, motivatsiya, mezon, baho, amaliy mashq, dialog, suhbat metodi, rolli o'yin, muloqot, nutq madaniyati, ravon so'zlash.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Рахманова Вазира Каимовна

исследователь Бухарского государственного университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальность, значимость развития коммуникативных компетенций учащихся на уроках русского языка в начальных классах, принципы, методы, стратегии изучения языка, способы формирования языковых навыков учащихся посредством интерактивных методов на уроках русского языка, воспитания у младших школьников интереса к изучению предмета русский язык, воспитания у них свободного и свободного владения русским языком, самостоятельного выражения своего мнения, результативность применения ряда эффективных методов, направленных на совершенствование навыков владения русским языком, преимущества использования одноранговой модели обучения, которая позволяет учащимся общаться друг с другом и обмениваться информацией, заключаются в вероучении.

Ключевые слова: языковая компетентность, русский язык, коммуникация, компетентность, методология, стратегия, инновации, интеграция, активное обучение, сотрудничество, дружественная среда, мотивация, критерий, оценка, практическое упражнение, диалог, метод беседы, ролевая игра, общение, культура речи, беглость речи.

METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE LESSONS OF THE RUSSIAN LANGUAGE

Rakhmanova Vazira Kaimovna

Bukhara State University researcher

Abstract. In this article, the relevance, importance of the development of communicative competencies of students in elementary grade Russian lessons, the effectiveness of applying a number of effective methods aimed at increasing the interest of younger students in learning Russian to speak them fluently and fluently in Russian, independently express their opinion, content the language skills of students through interactive methods in Russian, the benefits of using a peer-to-peer educational model that allows students to interact with each other and share their information are informed.

Keywords: language competence, Russian language, communication, competence, methodology, strategy, innovation, integration, active education, cooperation, friendly environment, motivation, criterion, Assessment, practical exercise, dialogue, conversation method, role play, Communication, Speech culture, fluency.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari o‘quv tarbiya jarayonidan boshlab xalqaro tajribalarga asoslangan holda bir necha tillarni o‘rgatish metodikalari ta‘limga joriy etila boshlandi. Tillarni o‘rgatish metodikasida samarali ta‘lim texnologiyalari, ilg‘or yondashuvlar, pedagogik va axborot texnologiyalari keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Ushbu ta‘lim metodlarining asosiy vazifasi fanni o‘rgatish bilan birga o‘quvchi shaxsida zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishi dolzarb hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini rivojlantirishning 2030-yilgacha bo‘lgan Konsepsiyasida ta‘lim tizimining strategik maqsadlarida umumta‘lim tizimida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi, ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta‘lim olish imkoniyatlarini yaratish; inson kapitalini mehnat bozorida va umuman mamlakatda o‘quvchining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi asosiy omil sifatida rivojlantirish, uzluksiz ta‘lim tizimini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta‘lim jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich amalga oshirish; xalq ta‘limi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish...» vazifalari belgilangan bo‘lib, ular eng dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Yuqoridagi dolzarblik nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiqot ishimizda kichik maktab yoshidan boshlab rus tili darslarida zamonaviy ta‘lim yondashuvlariga asoslangan innovativ va integrativ ta‘lim metodlarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning rus tilini bilish darajasini bosqichma-bosqich oshirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashq topshiriqlari, kreativlikni ta‘minlovchi rolli o‘yinlar, og‘zaki va yozma nutqni takomillashtirishga qaratilgan noan‘anaviy usullardan foydalanishga oid o‘z tavsiyalarimizni berishni lozim deb hisobladik.

Boshlang‘ich sinf rus tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini tizimli rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu o‘quvchining ta‘limning keyingi bosqichlarida sifatli ta‘lim olishini ta‘minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kommunikativ kompetentsiya - bu ma‘noni yetkazish va muloqot maqsadlariga erishish uchun real hayotiy vaziyatlarda tildan samarali foydalanish qobiliyati bo‘lib, ushbu ko‘nikma rus tilini o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun juda muhim. Chunki bu ularga ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish, madaniyatlarini tushunish va turli til kontekstlarida harakat qilish imkonini beradi. Ta‘limning dinamik manzarasida kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, ayniqsa, kichik maktab o‘quvchilari uchun rus tilini o‘qitish sohasida katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf rus tili darslarida o‘qituvchilarning mavzuga mos metodlarni qo‘llagan holda o‘quvchilarning rus tilida samarali muloqotlarini rivojlantirish, ehtiyojlarga asoslangan interfaol faoliyatga asoslanish, og‘zaki hikoya qilish va ijodiy yozma topshiriqlar, rolli o‘yinlar va simulatsiyalardan foydalanish, ta‘lim metodlarini integratsiyalash, tengdoshlar bilan hamkorlikni rag‘batlantirish, taraqqiyotni kuzatish va ota-onalarning yordamini jalb qilish muhimligini o‘rganish orqali kommunikativliklarini rivojlantirishni ta‘minlaydilar.

Kichik maktab yoshidan boshlab o‘quvchilarda kommunikativlikni rivojlanishning ahamiyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta‘limda tilni bilishning hal qiluvchi roli,
- interfaol o‘qitish usullari,
- motivatsiya strategiyalari
- amaliy sinf yondashuvlari
- shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish
- kommunikativ muhitni yaratish
- bilimlarni taqdim etish kabilar shular jumlasidandir.

Yuqori kasbiy kompetentlik va pedagogik mahoratga ega o‘qituvchi tomonidan rus tili

darslarida yaratilgan innovatsion ta'lim muhiti o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrlarini rus tilida ishonchli tarzda ifodalashga, dialog va savol-javoblarda faol bo'lishga, o'z tengdoshlari bilan til orqali aloqa o'rnatishga, o'yin orqali mavzuni puxta va oson o'zlashtirishga, ijodkorlikka, tengqurlariga yordam berishga, hamkorlikda ishlashga o'rganishlarini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflardan boshlab rus tili darslarida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi interfaol ta'limga asoslangan usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning faolligi va qiziqishi ortib, o'z o'rnida rag'batlantirib borish ularning ijodkorligini, qobiliyat va izlanishlarini motivatsion tarzda rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf rus tili darslarida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish:

-kommunikativ tilni o'rgatish strategiyalari,

- ta'lim texnologiyalari,

-madaniy tadbirlar,

-tabiiy materiallar,

-hamkorlikda o'qish va o'rganish,

- ko'nikmalarga egalik darajasini aniqlovchi turli baholash usullarini o'z ichiga olgan tizimli yaxlit yondashuvni talab qiladi. O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarni erta rivojlantirish nafaqat ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, balki tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish va madaniyatni qadrlash uchun ham zamin yaratadi. Rus tili darslarida innovatsion o'yinga ta'lim olishni ta'minlaydigan dinamik elementlarni kiritish natijasida o'qituvchilar o'z o'quvchilarining darsda faol ishtirok etishlariga va o'zaro ishtiyok bilan muloqot qilishlariga imkoniyat yaratadi.

Ushbu metodlar nafaqat o'quvchilarni rus tilida gapirishga undaydi, balki hamkorlik, ijodkorlik va til o'rganishga o'ynoqi yondashishni ham rivojlantiradi. Rus tili darslarida hikoyalar to'qish orqali o'quvchilar nafaqat eshitish qobiliyatini oshiradi, balki o'z fikrlarini ravon va ijodiy ifodalashni ham o'rganadi. Bu muloqot qobiliyatini oshirish va so'z boyligini kengaytirishning ajoyib usuli. O'quvchilarni rus tilida o'z fikrlarini yozishga undash orqali o'qituvchilar ularning yozish qobiliyatlarini rivojlantirishlari va fikrlarni grammatik jihatdan to'g'ri tuzgan holda imloviy xatoliklarsiz, aniqlik va kreativlik bilan ifodalashlariga yordam beradilar.

Rus tili darslarida rolli o'yinlarni o'ynash orqali o'quvchilarni amaliy suhbatlar va bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga jalb qilishda ularni madaniy ko'nikma va samarali muloqot qilish uchun ishonchini rivojlantiradi. Ularga o'zlarini samarali ifoda etish, mazmunli suhbatlarda qatnashish va rus tilini akademik va hayotiy vaziyatlarda qo'llash malakasini tarkib toptiradi.

O'qituvchilar rus tili darslarida interfaol va qiziqarli o'qitish usullarini qo'llagan holda ijobiy natijadorlikni ta'minlash, erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash, faol muloqotni qadrlaydigan va rag'batlantiradigan qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish orqali o'quvchilarni rag'batlantirishlari mumkin. O'qitishning interfaol usullari, masalan, rolli o'yinlar, tengdoshlar o'rtasidagi mashg'ulotlar va real hayotni simulatsiya qilish nafaqat o'rganishni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarga o'z til ko'nikmalarini qo'llash, ravon so'zlash hamda o'z tillariga bo'lgan ishonchini oshirish uchun amaliy imkoniyatlar yaratadi.[1]

Rus tili darslarida kundalik vaziyatlarni taqlid qilish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni haqiqiy hayotdagi suhbatlarni osonlikcha va malakali boshqarish ko'nikmalari rivojlantiradi. Til ko'nikmalarini rivojlantirish haqida gap ketganda, texnologiya ishonchli yordamchi bo'lishi mumkin. Interfaol til ilovalaridan tortib, onlayn manbalargacha, kichik maktab o'quvchilari uchun til o'rganishni jadallashtirishni kutayotgan texnologik vositalar xazinasini mavjud.

Har bir o'qituvchi dars jarayonida til o'rganish amaliyotini oson va qiziqarli qilish uchun mo'ljallangan interfaol ilovalar va vositalar yordamida ushbu muloqot ko'nikmalarini oshirishga tayyor bo'lishi shart. Ushbu manbalar o'quvchilarga nutq, tinglash va yozish qobiliyatlarini qiziqarli va interaktiv usullarda rivojlantiradi. Tengdoshlar bilan hamkorlikni rag'batlantirish o'quvchilarga o'zaro ta'sir va umumiy o'rganish tajribasi orqali til ko'nikmalarini oshirishga yordam berishda ta'lim metodlarini vaziyatga asoslanib o'zgartirish, unga yangilik kiritish, o'quvchi g'oyasiga tayanish ham mumkin. Dars jarayonida tashkil etiladigan kichik guruhlarda ishlash usullari o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun kuchli ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Guruh suhbatlari va munozaralarda qatnashish orqali

o‘quvchilar turli nuqtayi nazarlarni o‘rganib, muloqot qilish ko‘nikmalarini takomillashtirib boradilar.

Rus tili darslarida rolli o‘yinlar va mini-prezentatsiyalar kabi faol ta’lim metodlaridan foydalanishga yo‘naltirilgan o‘quvchilar bilimini va kommunikativlik darajasini ijodiy baholash usullari yordamida o‘qituvchilar ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdagi yutuqlarini qiziqarli hamda tushunarli tarzda baholashlari mumkin. Darsda berilgan topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarning muloqot qilish ko‘nikmalari va erishgan yutuqlarini kuzatib borib, o‘qituvchilar doimiy ravishda o‘z ustida ishlagan holda mazkur metodlarni takomillashtirib, ta’lim strategiyalarini mavzuga moslashtirib qo‘llashlari natijasida o‘quvchilarda til darajasining o‘sishini ta’minlashga erishadilar.

Bundan tashqari, ota-onalarning o‘z farzandlarini til o‘rganish faoliyatiga jalb qilishlari, rus tilidan uyga berilgan topshiriqlarni bajarish, birgalikda yod olish, suhbatni mashq qilish yoki til resurslarini birgalikda o‘rganish o‘quvchilar uchun uzluksiz ravishda tilni puxta o‘zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Ta’lim olishda ota-onalarning faol ishtiroki o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Ota-onalarning sinfdan tashqari jarayonlarda o‘z farzandlari bilan rus tilida suhbat qurishlari, dialog tuzishlari, ayrim masalalarni muhokama qilishlari kabi til amaliyoti va muloqotni qadrlaydigan qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishlari orqali o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Rus tili darslarida yaxlit va interaktiv yondashuv orqali kichik maktab o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning nafaqat til egallashga oid bilimlarini, balki o‘zaro suhbatlarda samarali ishtirok etish, fikrlarini ravon ifodalash va real muloqot stsenariylarida ishonch bilan harakat qilish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Ushbu ko‘nikmalarni erta tarbiyalash orqali o‘qituvchilar yosh o‘quvchilarni globallashtirish dunyoda samarali muloqotchilarga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir jamiyatda til – asosiy muloqot vositasi bo‘lib, o‘quvchilarda kommunikativlikni rivojlanishida hayot tarzida ham doimiy muloqotda bo‘lishning ahamiyati juda katta. O‘quvchilarning kommunikativligini oshirishda, ularga o‘z fikrini ifoda qilish va boshqa kishilar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi.[2]

O‘quvchilarning dars jarayonida rus tiliga oid yangi so‘zlarni o‘rganishlari, o‘zlashtirilgan bilimlarini mustaqil topshiriqlarni bajarishda qo‘llashlari, rolli o‘yinlarni o‘ynashda foydalanishlari o‘quvchilarda kommunikativlikni yanada rivojlantiradi.

O‘quvchilarning bir-birlari bilan muloqot qilish va o‘z ma’lumotlarini almashishga imkon beruvchi “peer-to-peer” - «tengdosh - tengdosh» - ya’ni o‘quv ierarxiyasining bir bosqichida turgan insonlar ishtirok etadigan o‘zaro o‘quv tizimiga asoslanish shart. Unda “o‘qituvchi” yoki “ustoz” kabi tushunchalar mavjud bo‘lmaydi. Peer-to-peer-ta’lim bilan ta’lim modelini to‘g‘ri o‘rgatish (inglizcha so‘z peer teng degan), ya’ni odamlar tajriba, bilim va axborot almashish – ham aloqalarni shakllantirish, qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro yordam tamoyillariga asoslanadi. Bunda o‘qituvchi yoki trener bunday ta’limga yangi bilim manbasi sifatida emas, balki odamlarning o‘zlari o‘qitadigan ta’lim muhitini yaratuvchi va fasilitator rolida ishtirok etadi. Ya’ni peer-to-peer – bu faol ta’lim turidir.

“Peer-to-peer” – ta’lim yondashuvi o‘quv jarayoni ishtirokchilarining motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Shu bilan birga o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, bir-birini tushunish, tinglash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, muloqot qilish kabi ko‘nikmalarini tarkib topishida samarali hisoblanadi.

Rus tili darslarida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning asosiy usullaridan biri bu kommunikativ tilni o‘rgatish strategiyalaridan foydalanishdir. (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Tilni o'rganish strategiyalari

Strategiyalar	Mazmun-mohiyati
Takrorlash	Tilni o'rgangan vaqtingizni ko'praq keltirish uchun uni qayta-qayta takrorlash muhimdir.
Tilni markazga olish	Tilni o'rgangan vaqtda uningga markazga tegishli ma'nolarni berishga urunglang.
Tilni muhofaza qilish	O'rganilgan tilni qayta yodlash va uni saqlash uchun muhofaza qilish kerak.
Amaliy faoliyatda ishlatish	Tilni o'rgangan vaqtda uni amaliyotda qo'llash muhimdir. O'quvchilar bilan muloqot va amaliy mashg'ulotlar orqali tilni me'yorli qo'llab-quvvatlash kerak.
Muloqot qilish	Tilni o'rgangan vaqtda uni ishlatib ko'rish, yozish, so'zlash va eslatish orqali oshirish kerak.

Yuqorida tavsiya etilayotgan rus tilini o'rganish strategiyaga amal qilgan holda o'quvchilarga rus tilini o'rgatish ularda yangi so'zlarni eslab qolish, mazmunini tushunish, so'z boyligini oshirish, nutq ravonligi, erkin suhbatlashish, so'zlarning sinonimlarini bilish va ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish imkoniyatini beradi.

Rus tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan darslarni to'g'ri loyihalash ham o'ziga ahamiyatga ega bo'lib, bunda o'qituvchi dars mazmundorligini oshiruvchi va samaradorligini ta'minlovchi turli omillarga ham e'tibor qaratishi kerak. Jumladan,

- o'quvchilarning tili va madaniy kelib chiqishi;
- o'quvchilarning tilni bilish darajalari;
- kursning til o'rganish maqsadlari;
- o'quvchi ehtiyojlari;
- tashqi va ichki imkoniyatlar;
- mavzuning imkoniyatlari;
- onlayn manbalar, interaktiv tadbirlar va multimedia materiallaridan foydalanish kabilarni.

Sinfda va sinfdan tashqari fanga oid va madaniy tadbirlarni tashkil etish jarayonida ham o'quvchilar matn, she'r, qo'shiqlarni yodlash, sahnalashtirilgan asarlarda rollar o'ynash orqali ham rus tilida so'zlash va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirib borishadi. O'quvchilarni rus musiqasi, filmlari, adabiyoti va an'analari bilan tanishtirishda o'qituvchi nafaqat o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini oshiradilar, balki o'quvchilarga rus tili va uning madaniy kontekstini chuqurroq tushuntirib bera olishlari uchun qo'shimcha materiallarni o'qib, o'rganib, izlanishlari jarayonida o'z kompetentliklarini yanada oshirishga muvaffaq bo'lishadi.[3]

Rus tili darslarida kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning yana bir muhim jihati - bu haqiqiy materiallar real vazifalardan foydalanish. Gazetalar, maqolalar, reklamalar boshqa haqiqiy manbalardan foydalangan holda, o'qituvchilar o'quvchilarni haqiqiy hayotda ishlatiladigan til bilan tanishtirishlari mumkin. Bu o'quvchilarga til ko'nikmalarini kontekstda mashq qilish turli sharoitlarda samarali muloqot qilishni o'rganish uchun qimmatli imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bundan tashqari, rus tili darslarini hamkorlikda o'qitish ta'lim texnologiyasidan foydalanib tashkil etganda, bolalarning kichik guruh, juftlik va jamoa bo'lib ishlashlariga asoslangan o'quv topshiriqlarini bajartirish orqali ularning til kompetentligini rivojlantirish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilarning darsda juftlik yoki kichik guruhlarda ishlash orqali o'zaro mazmunli suhbatlar o'tkazishlari, gapirish, tinglash ko'nikmalarini mashq qilishlari hamda

til o'rganish sayohatlarida bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari ham pedagogik ham psixologik muhitga e'tibor berish orqali ijobiy imkoniyatlarni ta'minlaydi.

Rus tili darslarida mavzuni o'rganishga oid mashq va topshiriqlarni o'zaro do'stona muhitda, hamkorlikda bajarish o'quvchilarda ishonch, kelishuv, tushunish, taqqoslash, tahlil qilish, fikrlarni asoslash, isbotlash, taqdimot qilish, liderlik qobiliyatlarini oshiradi. Ularda e'tibor, rahm-shafqat, empatiya, mehr, g'amxo'rlik, yordam berish, kabi tuyg'ularini ham rivojlantiradi.[4]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf rus tili darslarida o'qituvchilarning o'quvchilarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadini asosiy o'ringa qo'yishda birgalikdagi sa'y-harakatlari, kommunikativ qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish orqali o'quvchilarning so'z boyligi va nutqini turli innovatsion va integratsion texnologiyalardan foydalangan holda rivojlantirishga erishishlari ularda rus tilida erkin so'zlashuv, turli sharoitlarda samarali muloqot qilish, internet ma'lumotlaridan foydalana olish, o'z fikrini og'zaki va yozma bayon etish kabi hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptiradi.

Dars jarayonida o'quvchilarning rus tilidan kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodlari, yondashuvlaridan maqsadli va samarali foydalanish natijasida o'quvchilarda rus tili fanidan sodda yo'riqnomalarni tushuna olish va ularga amal qilish; savol va ta'kidlovlarini, tanish matndagi autentik nutqni tushunish; sodda savollar tuza olish va ularga javob bera olish; yashash joyi, oilasi, do'stlari va tanishlari haqida ma'lumot bera olish; o'zini tanishtira olish, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalari haqida so'zlab bera olish; tanish mavzularda qisqa xabar bera olish; bir daqiqada 30 - 35 ta so'zni ovoz chiqarib to'g'ri o'qiy olish; shaxsiy sodda xabarlarini yoza olish; shaxsiy ma'lumotlar bilan sodda so'rovnomani to'ldira olish; she'r va hikoyalar, qo'shiqlarni, tanish matndagi autentik nutqni tushuna olish kabi nutqiy kompetensiyalar hamda rus tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz qila olish; muloqot vaziyatlarida mantiqiy urg'u, intonatsiya modellarini farqlash, oddiy grammatik shakllar va sintaktik tuzilmalardan to'g'ri foydalana olish; voqea va hodisalarni tasvirlashda, hikoyalarni bayon qilishda gaplarni to'g'ri ketma-ketlikda bog'lay olish; kommunikativ vaziyatlarda lug'atlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish; baynalmilal so'zlar va boshqa tildan olingan o'zlashtirma so'zlarni tushuna olish va o'z o'rnida ishlata olish kabi lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Barinova E.A., Bojenkova L.F., Lebedev V.I. Rus tili metodologiyasi. M., 1994.
2. Babkina N.V. O'quv jarayonida rivojlanayotgan o'yinlar va mashqlardan foydalanish // Boshlang'ich maktab-1998 № 2
3. Vlasenkov A. I. Rus tilini o'qitishni rivojlantirish. — M., 1993.
4. Bondarenko S. M. Maktabda rus tilini o'qitish metodikasi. — M., 1999.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHIDA JISMONIY TARBIYA VOSITALARINING AHAMIYATI

Rustamov Akbar Askarovich

BDPI "Jismoniy tarbiya va sport" kafedrasi o'qituvchisi

Quvondiqov Jo'rabek

Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.048>

Annotatsiya: Maqolada bolalarning har tomonlama kamol topishida, jismoniy rivojlanishida va ularning salomatligini mustahkamlashda, jismoniy mashqlar; tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari, gigiyenik omillarning ijobiy ta'sir natijalari asoslab berilgan. Jismoniy tarbiya vositalarining bolalar tana a'zolarini chiniqtirishda, asosiy harakat turlariga o'rgatishda, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda jismoniy yuklamalar berish va toliqishlarining oldini olishga qaratilgan tabiiy omillar orqali bolada ro'y beradigan o'zgarishlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, rezerv, jismoniy mashqlar, sog'lomlashtiruvchi kuchlar, gigiyenik omillar, texnika, shaxs, qobiliyatlar, yuklama, toliqish, ta'lim tizimi, chiniqish, ko'nikma.

ЗНАЧЕНИЕ СРЕДСТВ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ВСЕСТОРОННЕМ РАЗВИТИИ ДОШКОЛЬНИКОВ

Рустамов Акбар Аскарлович

преподаватель БГПИ

кафедры "физического воспитания и спорта"

Кувондиқов Журабек

Студент факультета физической культуры

Аннотация: В статье обоснованы результаты положительного влияния физических упражнений, оздоровительных сил природы, гигиенических факторов на всестороннее развитие, физическое развитие детей и укрепление их здоровья. Показаны изменения средств физического воспитания, происходящие у ребенка через природные факторы, направленные на закаливание органов детского организма, обучение основным видам движений, обеспечение физических нагрузок с учетом возрастных особенностей и предупреждение утомления.

Ключевые слова: физическая культура, физические качества, резерв, физические упражнения, оздоровительные силы, гигиенические факторы, техника, личность, способности, нагрузка, утомляемость, система воспитания, закаливание, тренировка.

THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION TOOLS IN THE COMPREHENSIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Rustamov Akbar Askarovich

BGPI «physical education and sports»

teacher of the department

Quvondiqov Jurabek

Student of the Faculty of Physical Culture

Abstract: the article is based on the results of the positive impact of physical exercise, the Healing Forces of nature, hygienic factors on the comprehensive maturation of children, their physical development and strengthening their health. The changes that occur in a child through natural factors aimed at giving physical loads and preventing their exhaustion, taking into

account their age characteristics, are indicated when training children's body parts, teaching them to the main types of movements.

Key words: physical education, physical qualities, Reserve, exercise, health-improving forces, hygienic factors, technique, personality, abilities, loading, exhaustion, educational system, conditioning, training.

Bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi. Chunki, jismonan sog'lom organizm aqlan ham sog'lom bo'la olishi olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlarda o'z aksini topgan. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish bolada yuqoridagi sifatlarning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda jismoniy tarbiya vositalari ham bolalarning har tomonlama kamol topishida, jismoniy rivojlanishida va ularning salomatligini mustahkamlashda bevosita asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy holatini yaxshilashda gigiyenik omillar, tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari va jismoniy mashqlardan doimiy ravishda foydalanish yaxshi samara beradi. Har xil turdagi faoliyatlarga kiruvchi (qo'l mehnati, musiqa asboblari chalish, loy yoki plastilindan buyumlar yasash, rasm chizish, kiyinish, yuvinish va boshqalar) xilma-xil harakatlar bolaning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. To'laqonli jismoniy tarbiyaga barcha vositalar, umumiy qo'llanilganda erishiladi, chunki ularning har biri kishi organizmiga har xil ta'sir qiladi. Gigiyenik omillarga quyidagilar kiradi:

- Mashg'ulotlar rejimi;
- Dam olish va ovqatlanish;
- Uyqu;
- Kiyim-bosh;
- Poyabzal;
- Jismoniy tarbiya jihozlari va maydonchalari

Ular jismoniy mashqlarning shug'ullanuvchilar organizmiga ta'siri samaradorligini oshiradi. Masalan, jismoniy mashg'ulotlar suyak va muskul tizimining rivojlanishiga yaxshi yordam beradi. Xonalar, jismoniy tarbiya jihozlari, atribut, o'yinchoqlar, bolalar kiyimlari va poyafzalining tozaligi har xil kasalliklarning oldini oladi. Gigiyena talablarini o'z vaqtida bajarish bolalarda ijobiy emotsiya uyg'otadi va jismoniy mashqlarni o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Gigiyenik omillar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

1. Umumiy madaniy gigiyenik omillar.
2. Shaxsiy madaniy gigiyenik omillar.

Umumiy madaniy gigiyenaning omillariga barcha bolalar uchun umumiy bo'lgan talablar: xona kengligi, dizayni, jihozlanishi va yoritilishi, shkaflarning, stol, stul, yuvinish xonasi, yotoqxonada kravatlarining bolalar yoshiga, bo'yiga mosligi kiradi.

Shaxsiy madaniy gigiyenik omillarga esa bola shaxsi bilan bog'liq bo'lgan gigiyena, yani bolaning tozaligi, kiyimlarining o'ziga mosligi, tirnoqlarining olinganligi, qo'l yuzlarining tozaligi, dastro'molchalarining borligi, o'z shkafi, o'z sochiqlari, kravati, o'zining o'rni bo'lishi kiradi. Gigiyena omillari barcha organ va tizimlarning normal ishlashiga yordam beradi. Masalan, doimiy va sifatli ovqatlanish ovqat hazm qilish organining faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o'z vaqtida yetib borishini ta'minlaydi, shuningdek bolaning normal rivojlanish va o'sishiga ham yordam beradi. Normal uyqu asab tizimiga dam beradi, toliqishlarning oldini oladi va ishchanlik qobiliyatini oshiradi. Yorug'likning to'g'ri taqsimlanishi ko'z kasalliklari (shabko'rlik va boshqalar)ning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymaydi, bolalarning maydonchada harakat qilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Kundalik rejimiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi.

Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari:

- Quyosh;
- Havo;
- Suv;

Ushbu uchta omil inson bolasining har tomonlama sog'lom va baquvvat bo'lib kamol

topishida hamda chiniqishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda suzish bilan bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi, ayrim organlar va organizm tizimlarining funksional imkoniyatlari oshadi hamda modda almashinuvi kuchayadi. Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirish, uning yuqori va past haroratga moslashuv qobiliyatini oshirish uchun foydalidir. Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga keladi, ya'ni kishi organizmi meteorologik omillarning xilma-xil o'zgarishlariga o'z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi. Bunda tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlarini jismoniy mashqlar bilan birga qo'shib olib borish chiniqish samaradorligini oshiradi. Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan mustaqil vosita sifatida ham foydalanish mumkin. Suv terini kirdan tozalash, kishi tanasiga mexanik ta'sir etish uchun qo'llaniladi. O'rmon, bog'lar, xiyobonlardagi shifobaxsh moddalarga boy havo mikroblarni yo'qotishga yordam beradi, qonni kislorodga to'yintiradi, kishi organizmiga yaxshi ta'sir qiladi. Quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va kishini turli kasalliklardan (raxit va boshqalardan) saqlaydi. Organizmga har tomonlama ta'sir ko'rsatish uchun tabiatning barcha sog'lomlashtiruvchi kuchlarini qo'llash, ularni oqilona tarzda birga qo'shib olib borish zarur. Shuningdek tabiatning barcha sog'lomlashtiruvchi kuchlarini qo'llashda ma'lum bir me'yorni ham nazaradan chetda tutmaslik zarur. Jumladan quyosh vannalarini qabul qilishda ham ertalabgi soat 10-00 dan keying muolaja inson salomatligi uchun zararli hisoblanadi, chunki ultra binafsha nurlari to'g'ridan to'g'ri o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jismoniy mashqlar- jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi bo'lib, har tomonlama ta'sir etuvchi asosiy o'ziga xos shaklidir. Ulardan jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini hal etishda foydalaniladi: aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, ko'plab kasalliklarni davolashda vosita hisoblanadi. Musiqa jo'rliqidagi raqs mashqlari organizmning barcha tizimlariga ta'sir qiladi, jismoniy qobiliyatlar (chaqqonlik, tezkorlik va boshqalar)ni rivojlantiradi, shuningdek, harakatlar nafis, erkin, ifodali bo'lib boradi, ijobiy emotsiyalar paydo qiladi, to'g'ri qomatni shakllantirishga yordam beradi. Xilma-xil faoliyat turlari (mehnat, rasm chizish, va narsa yasash boshqalar)ga kiruvchi harakatlar, agar qomatni to'g'ri tushirishga rioya qilinsa, shuningdek, jismoniy yuklamalar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, jinsi, sog'lig'ining ahvoli, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini hisobga olgan holda berilsagina bola organizmiga ijobiy ta'sir etishi mumkin. Teri analizatorlarining o'tkazuvchi yo'llari bola tug'ilguncha yuzaga keladi, shuning uchun yangi tug'ilgan chaqloq teri retseptorlari orqali bo'ladigan tashqi ta'sirni ko'proq qabul qiladi (bolalarda 6 oygacha teri yuzasidagi retseptorlar nisbatan ko'p bo'ladi). Massaj qon tomiri tizimiga ham ta'sir qiladi. Terida asab kuchlari ta'siriga javob tariqasida tomir reflekslari yuzaga keladi, kapillarlar kengayadi, qon aylanishi kuchayadi, issiqlik chiqarish ortadi. Massaj ta'sirida yog' va teri bezlarining sektor funksiyasi yaxshilanadi, muskullarda oksidlanish-qaytarilish jarayoni kuchayadi va ularning qisqarish qobiliyati ortadi. Massaj limfa tizimiga ta'sir qilib, suyuqlik oqimini tezlashtiradi. Bola hayotining birinchi kunlaridanoq namoyon bo'ladigan shartsiz (tug'ma) reflekslar uning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Agar bola qorni bilan yotqizilsa, u boshini ko'taradi va buradi, chalqancha yotganda oldinga oladi. O'ngga yonboshlatilganda chapga, chapga yonboshlatilganda o'ng tomonga buriladi. Shunday qilib, shartsiz reflekslar muskullar qisqarishini yuzaga keltiradi va ulardan bola hayotining birinchi haftasida, hali jismoniy mashqlarni qo'llash mumkin bo'lmagan (qo'l va oyoqlarni bukuvchi muskullar gipertoniyasi tufayli) paytda rivojlantirish va umuman organizmga ta'sir etishda foydalanish mumkin. Sog'lomlashtirish ta'limiy, tarbiyaviy vazifalarni to'la hal etishning majburiy sharti: jismoniy tarbiyaning yuqorida sanab o'tilgan barcha vositalaridan umumiy tarzda foydalanish hisoblanadi. Turli yosh bosqichlarda ko'rsatib o'tilgan vazifalarning amalga oshirish samaradorligi asosiy va qo'shimcha vositalarni to'g'ri qo'shib olib borgan taqdirdagina oshadi. Chunonchi, bolaning dastlabki uch oyligida gigiyena omillari, tabiatning tabiiy kuchlari, shartsiz reflekslar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bola bir yoshga to'lganida massaj, sust, sust-faol mashqlar, asosiy harakatlar (emaklash va boshqalar) dan foydalaniladi. Yoshi katta bo'lgan sari gigiyenik omillar, tabiat tabiiy kuchlarining roli kamaymaydi, biroq uyqu, ovqatlanish va boshqalarga, ozroq vaqt sarflanadi va birmuncha murakkab jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zamin yaratiladi. Jismoniy mashqlardan

samarali foydalanish bolaning o‘shishi va rivojlanishida asosiy vosita hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida jismoniy tarbiya bo‘yicha bajariladigan ishni to‘g‘ri rejalashtirish va o‘tkazish uni samarali hal etishda nihoyatda muhimdir. Kun davomida turli xil mashg‘ulotlarni jismoniy mashq va harakatli o‘yinlar bilan qo‘shib olib borilishi, bolaning to‘g‘ri harakatini ta‘minlashga yordam beradi. Mashg‘ulotlar to‘g‘ri tashkil etilsa, qiziqarli, ibratli jihatlari oshirilsa, bolalar o‘z vaqtida dam olishlariga e‘tibor berilsa, shundagina mashg‘ulot samaradorligi ortadi. Mashg‘ulotda eng muhimi mashq va o‘yinlarning to‘g‘ri taqsimlanishidir. Bunda mashg‘ulotning asosiy vazifasini ajrata olish lozim, uning mazmuni ko‘zda tutgan maqsadni hisobga olib, bola tanasining ma‘lum qismlariga har tomonlama ta‘sir o‘tkazishi zarur. Shu jumladan, mashg‘ulotlar unumdorligini oshirish maqsadida turli mashqlarni bir-biri bilan bog‘lash ham muhimdir. Mashg‘ulotlarni rejalashtirishda guruhning sharoiti, mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan jihozlarning mavjudligi hisobga olinadi. Ochiq havodagi mashg‘ulotlar mazmuni yil fasllariga, ob- havoga muvofiq ravishda tanlanadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bolalarning har tomonlama kamol topishida, jismoniy rivojlanishida va ularning salomatligini mustahkamlashda, jismoniy mashqlar, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari, gigiyenik omillarning ta‘siri beqiyosdir. Bolaning dunyoga kelishi bilan uni yuqorida keltirib o‘tilgan tabiiy sog‘lomlashtiruvchi kuchlar orqali chiniqtirib borsak, bola nafaqat sog‘lom balki, har xildagi kasalliklar, vitamin yetishmasligi, immunitetining sustligi kabi holatlardan xalos bo‘ladi hamda ortiqcha muammolarga ehtiyoj sezilmaydi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va o‘tkazishda asosiy harakat va o‘yin mashqlari, bir xildagi mashg‘ulotlardan tortib turli xildagi, ya‘ni harakatli o‘yinlar, xalq o‘yinlari, ochiq havoda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Kunning turli paytida bolalarning harakat faolligini hisobga olish, shunga ko‘ra, harakat ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish uchun harakat sifatlarini o‘stiradigan mashqlarning turli usullari tavsiya etiladi. Bu esa har tomonlama sog‘lom va baquvvat yoshlarning kamol topishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.X.Tadjiyeva, S.I.Xusanxodjayeva “Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”. Toshkent. “Iqtisod-moliya” 2017

4. Rustamov A. A., Ikromboyev A. Methodology for Teaching Preschool Children to the Main Types of Movement in the Medium of Action Games //International Journal of Formal Education. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 103-107.

5. Rustamov A. A. Development Chronology of Three-Level Sports Competitions in the System of Continuous Education in Uzbekistan //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 34-39.

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI TALABALARINING DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARIDA BASKETBOL VOSITALARINI QO'LLASHNING SAMARALI USULLARI

Sabirova Nasiba Rasulovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsent, O'zbekiston, Buxoro

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.048>

Anotatsiya. Maqolada basketboldan foydalangan holda asosiy va tayyorgarlik qismlarida talabalar uchun «Basketbol» to'garaklari o'quv dasturining mazmuni va ularni amalda qo'llash metodikasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: basketbol, o'quv dasturi, talabalar jismoniy tarbiyasi.

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БАСКЕТБОЛЬНОГО ИНВЕНТАРЯ ВО ВНЕУЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Сабирова Насиба Расуловна

Доцент, Бухарский государственный

педагогический институт, Узбекистан, Бухара

Аннотация: В статье говорится о содержании учебных программ кружков «Баскетбол» для школьников в основной и подготовительной частях с применением баскетбола и методике их практического применения.

Ключевые слова: баскетбол, учебная программа, физическое воспитание студентов.

EFFECTIVE METHODS OF USING BASKETBALL EQUIPMENT IN EXTRA-CURRICULAR ACTIVITIES OF STUDENTS OF THE FACULTY OF PHYSICAL CULTURE

Sabirova Nasiba Rasulovna

Associate Professor, Bukhara State

Pedagogical Institute, Uzbekistan, Bukhara

Abstract. The article talks about the content of the curriculum of «Basketball» clubs for students in the main and preparatory parts using basketball and the methodology of their practical application.

Key words: basketball, curriculum, physical education of students.

Kirish. Zamonaviy basketbol o'zining serqirraligi, ham ilmiy jihatdan, ham amaliy jihatdan mukammalligi, kishining ijodiy ravnaq topishining asosiy vositasi sifatida, shuningdek dunyoda basketbol maktabining yuqori mavqeini saqlab qolish va jahon sportida mahoratli basketbolchilarni tayyorlash uchun dunyo olimlari, nazariyotchilari, amaliyotchilarining shu sohadagi bilimlarni umumlashtirishni, yangi g'oyalar ustida ishlashni talab qildi. Bu sport turi o'zining ohangraboligi bilan hammani o'ziga jalb qilsa-da, uzoq muddatli sportchilarni tayyorlashga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan, muvaffaqiyatga erishishda har tomonlama jismoniy va aqliy imkoniyatlarni o'sishiga xizmat qiladigan jarayondir. Ilmiy-metodik adabiyotlar va sport mashg'ulotlari jarayonlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yosh va mahoratli basketbolchilarni tayyorlash nazariy va amaliy jihatdan xilma-xillikni, bir xillikdan qochishni talab qiladi. Maydonda harakatlanayotgan sportchining harakatlar xilma-xilligi, ularni amalda qo'llay olish darajasi, umuman olganda basketbol jamaosining maxsus tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Har bir harakat murakkablik va mushaklar faoliyatining intebnsivligi bilan amalga oshiriladi. Bu jarayon har bir basketbolchining tayyorgarlik darajasiga yuqori talab qo'yadi va bevosita raqib bilan o'ynashga majbur qiladi. Mashg'ulotlarning davomiyligi uzoq muddatni talab qiladi va bu dastlabki bosqichga asoslanadi. Ayni vaqtda muvaffaqiyatning kaliti o'quv mashg'ulotlari va amaliyot bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda shug'ullanuvchining aqliy

faoliyati, to'p uchun yakkakurashlarda g'oliblik, har qanday shitdan qaytgan yoki har qanday to'pni yuqori tezlik bilan halqaga tushurish, yuqori mahoratga asoslanadi. (A.I. Valtin, 1983; A. Ya. Gomelskiy, 1985; E.R. Yaxontov, 1985; L. B. Andrgoshchenko, 1988; O. M. Vatseb, 1993 va b.)

O'quv mashg'ulotlari qiyinchilik darajasiga qarab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlabki vazifalar keyinchalik o'yin holatlariga qarab qo'shilishi uchun ajratilgan.

Bugungi kunda turli yoshdagi turli sport turlariga sportchilarni tayyorlash haqida ko'plab nashrlar mavjud. (Abdulrazak, Al Anssari Zaxid Sbx 2017, Borisenko, O.V, 2018, Gorskaya, I.YU 2013, Zereg, F.2017, Issurin V.B.2019, Losin, B.YE. 2010, Poperekov, V.S 2015, . Gamble, P 2013, Hirtz, P 2007, Sekulic, D. 2017). Ushbu adiblarning ishlarida asosan qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan omillar, turli xil koordinatsion qobiliyatlarni oshirish usullari, shuningdek basketbolchilarning yosh ko'rsatkichlariga qarab qobiliyatlarni o'stirish yo'llari haqida so'z boradi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy qoidasi yuqori tezlik hamda kuchli tayyorgarlikni talab etadi. Bu vazifalar ko'p yillik mashg'ulotlarning dastlabki (asosiy) bosqichida rejalashtiriladi. Aynan ushbu bosqichda to'g'ri tashkil qilingan mashg'ulotlar, kelajakdagi muvaffaqiyatlarning kaliti bo'lishi aniq. Mana shuning uchun ham barcha sport turidan zahiralarni tayyorlashda dastlabki tayyorlash tizimini takomillashtirmasdan turib, yuqori toifali musobaqalarda jamoa ustidan barqaror g'alabaga erishib bo'lmaydi. Agar adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, olimlar orasida yosh basketbolchilarni boshlang'ich o'rgatish uslublari va tayyorlash tizimining takomillashtirish yo'llari va shakllari haqida aniq, qolipga solingan tavsiyalar, ma'lumotlar yo'q. Ayrim olimlar bolani tanlashda genetik jihatdan aniqlangan omillar bo'yi, temperamenti asosiy o'rinda deb, hattoki iqtidorlari yuqori darajada bo'lmasada, ajoyib natijalarga erishishlari mumkin deb sanasalar, (A.Nikolich, V.Paranosich, 1984, D.Vuden, 1987, V.Z.Babushkin, 1991) ayrimlari esa basketbolchining ephilligini rivojlantirishga bog'laydilar. Biz bilamizki basketbolda yuqori natijaga, ko'rsatkichlarga erishish, asosiy motorik xususiyatlarning rivojlanishiga bog'liq. Mualliflar basketbolchilarni sportga tayyorlash masalalariga bag'ishlangan oldingi tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, basketbol yetarli darajada jismoniy faollik, mashg'ulot vositalari va usullarini to'g'ri tanlash, tezlik-kuch, vosita qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasidir.[3] Yurak-qon tomir tizimining muvofiqlashtirish va moslashish xususiyatlarida ham basketbol vositalaridan o'rni ahamiyatlidir. Basketbol mashg'ulotlari o'quvchilarda muvaffaqiyatga ishonch hissini, ijtimoiy-psixologik xavfsizlik hissini rivojlantirishga yordam beradi va hissiy nevroitik buzilishlar, nizolar va psixosomatik kasalliklarning oldini oladi.[4] Shunday qilib, basketbolni talabalar uchun jismoniy tarbiya vositasi sifatida ko'rib chiqsak, ularning psixofizik qobiliyatlariga ta'sirining quyidagi asosiy jihatlarini aytib o'tishimiz mumkin:

umumiy rivojlantiruvchi – jismoniy sifatlarni uyg'un rivojlantirishga qaratilgan umumiy jismoniy tayyorgarlik;

maxsus rivojlantiruvchi - basketbol o'yinining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan maxsus jismoniy va shaxsiy fazilatlarini, vosita ko'nikmalarini, bilimlarni va texnik-taktik elementlarni o'zlashtirishni shakllantirishga qaratilgan harakat;

rekreatsion (psixo-relaksatsiya) - psixo-emotsional ortiqcha yuk va stressli vaziyatlarning oldini olish uchun basketbol vositalaridan foydalanish;

Ijtimoiy va kommunikativ – tashkil etilgan sport mashg'ulotlarida va sport musobaqalarida ijtimoiylashuv, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish;

madaniy-ma'rifiy – yangi bilimlarni o'zlashtirish va umumiy madaniy qadriyatlar, milliy an'analar va jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yutuqlar bilan tanishish, oliy ta'limlar o'rtasidagi va xalqaro aloqalarni kengaytirish.

Basketbol texnik-taktik jihatdan qiyin sport turi ekanligi hech kimga sir emas. Oliy ta'limda yil boshida boshqa ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan yoki sport yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning texnik va jismoniy tayyorgarligining yetarli darajada bo'lmaganligi basketbol o'yinini o'quv jarayonida keng qo'llashda texnik jihatdan harakatlarning yetarli darjada mahorat bilan bajarishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qitishning didaktik tamoyillarini hisobga olgan holda dasturiy ta'minot va uslubiy yordamni

yaratish kerak:

- mavjudlilik,
- bosqichma-bosqichlik,
- aniqlik.

Bizning fikrimizcha, tegishli o'quv dasturidan foydalanish asosiy va tayyorlov o'quv bo'limlarining o'quv jarayonida basketboldan foydalanishdan maksimal samaradorlikka erishishga, darslarning xavfsizligini va ularning talabalarning tayyorgarlik darajasiga muvofiqligini ta'minlashga imkon beradi.

Ishning maqsadi basketbol mashg'ulotlarida asosiy va tayyorgarlik qismlarida talabalar uchun «Basketbol» mashg'ulotlarini olib borish va o'tkazish bo'limlari mazmunini ishlab chiqishdir.

O'rganish usullari va tashkil etilishi. Tadqiqot 2022-2023 o'quv yilida Buxoro davlat pedagogika instituti basketbol mashg'ulotlarida ishtirok etayotgan asosiy, tayyorgarlik va jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalar bilan mashg'ulotlar jarayonida o'tkazildi.

Natijalar va muhokama. Basketbol vositalarining shakllantiruvchi ta'sirining sanab o'tilgan yo'nalishlari uni «Basketbol» mashg'ulotlarining o'quv dasturining quyidagi bo'limlariga kiritishni aniqladi:

1-jarayon:

Basketbol yordamida tezlik jismoniy sifatlarni kuchaytirish qobiliyatlarini rivojlantirish (14 soat):

Hujumda to'psiz harakatlarni bajarish, turli boshlang'ich pozitsiyalardan yugurish, siltanishlar, turli masofalarga tezlanish, sakrashlar (tik turgan, bir oyoqda, ikki oyoqda sakrashlar, yugurishlar), to'xtashlar va burilishlar.

Himoyadagi harakat: himoya pozitsiyasi, himoya holatida harakat qilish, qaytarilgan to'p uchun kurash. Hujum va himoyadagi harakatlarni mustahkamlash (juftlik, uchlik mashqlari, to'p bilan va to'psiz harakatli o'yinlar).

Basketboldan foydalangan holda muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish (14 soat):

To'pni olib yurish texnikasi (o'ng va chap qo'llar holatini o'zgartirib, to'g'ri chiziqda harakat qilish, trayektoriyani o'zgartirish). To'pni olib yurishda to'xtash va burilishlarni bajarish.

To'pni joyida va harakatda uzatish texnikasi (ko'krakdan o'ng va chap qo'l bilan, ikki qo'l bilan, polda burchak ostida uzatish). Harakatda to'pni qabul qilish va to'xtash (sakrash, ikki qadam). Juftlikda va uchlikda mashq bajarish.

Turgan joydan, sakrab tashlash texnikasi (yaqin, o'rta va uzoq masofalardan, erkin to'plardan). Harakatda otish texnikasi. Ikki qadamda savatga tashlash texnikasi.

2-jarayon

Basketbol yordamida harakatni muvofiqlashtirishni rivojlantirishning uslubiy asoslari (20 soat):

to'pni o'ng va chap qo'llar bilan turli holatda, ko'rishni nazorat qilmasdan, himoyachi qarshiligida to'pni olib yurish.

to'pni boshqarish va himoyada qarshi turish texnikasi (hujumchidan to'pni olib qo'yish va ilib olish) to'pni turli boshlang'ich pozitsiyalarda, harakatda, himoyachi qarshiligida uzatish va qabul qilish.

O'tish paytida to'pni olib qo'yish va yoki to'pni o'yindan chiqarib yuborish texnikasi.

To'pni halqaga tashlash paytida qo'llar, oyoqlar va gavdaning muvofiqlashtirilgan harakatlari. Halqaga sakrab tashlashni himoyachi qarshiligi bilan bajarish. To'pni halqaga tashlash paytida to'pni berkitish, urib chiqarish va to'pni olib qo'yish texnikasi.

Basketbol mashqlaridan foydalangan holda tezlik va kuch sifatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari (20 soat)

Raqib jamoasidan oldin hujum qilish. Individual tarzda raqib o'yinchilari bilan ishlash (pressing). Mashqlarni juftlikda va uch kishi bo'lib bajarish. Hujum taktikasi (individual va jamoa bilan). Harakatlarni tezlikni, yo'nalishni o'zgartirish. O'yinda yakkama-yakka o'ynash. Shitdan qaytgan to'pni o'zlashtirish.

Jismoniy sifatlarni va harakatlar tizimini basketbol mashqlari orqali takomillashtirish va

o'z-o'zini nazorat qilish asoslari .(12 soat)

Maxsus chidamlilikni oshirish (energiya ta'minotining aerob-anaerob turi): juftlik, uchlik o'yin mashqlari; sonli ustunlikni amalga oshirish (2x1, 3x2, 4x3, 5x4).

Kuch chidamliligini oshirish: 3x3 mashq o'yini; medbol to'pi bilan to'pni yuqoriga tashlash xuddi halqaga tashlayotganday imitatsiya qilish va to'pni sherigiga uzatish.

Tezlik qobiliyatlarini takomillashtirish: maksimal tezlikda texnik harakatlarni (to'pni olib yurish, uzatish va halqaga tashlash) bajarish; ikki kishi, uch kishi bo'lib to'pni uzatishlar, to'psiz basketbol o'ynash yoki to'p yordamida to'pni tez uzatishlarni qo'llab harakatli o'yinlar o'ynash

Tezkorlik-kuch qobiliyatlarini yaxshilash: sapchib qaytgan to'p uchun kurash, tezkor hujum, sakrab to'pni tashlashlar va uzatishlar

Koordinatsion qobiliyatlarini takomillashtirish: aldamchi harakatlar bilan to'pni uzatish, harakat yo'nalishi va tezligini o'zgartirib to'pni olib yurish.

O'z-o'zini nazorat qilishning asosiy usullarini amaliy o'zlashtirish: qon bosimini o'lchash, pulsometriya, dinamometriya, spirometriya, tana vazni va tarkibini aniqlash, funktsional testlar. Jismoniy tayyorgarlik va texnik va taktik harakatlar sifatini tekshirish metodikasi. O'z-o'zini nazorat qilish kundalik shakli.

Basketboldan foydalanib, tezlik va tezlik-kuch qobiliyatlarini yaxshilash. Mashqda kuch va tezlik xususiyatlarining optimal kombinatsiyasi asoslari

Cheklangan dribling bilan 1v1 o'yin. Cheklangan miqdordagi o'tishlarga ega 2v2 o'yin. O'rta va uzoq masofadan zarbalar. Shaxsiy himoya paytida harakatlarni takomillashtirish. Cheklangan dribling bilan 3x3 va 5x5 mashg'ulot o'yini.

3-jarayon

Kelajakdagi kasb kontekstida aqliy va psixofizik stressni kamaytirish uchun mustaqil jismoniy mashqlar ko'nikmalarini oshirish (8 soat):

Harakatda erkin zarbalar, o'rta va uzoq masofadan zarbalar, 1 va 2 bosqichli zarbalar aniqligini oshirish. Dribling 1, 2 to'p, joyida va harakatda o'tkazish, aldamchi harakatlar, 1, 2, 3 to'p bilan devorga o'tish.

Ommaviy sport va jismoniy tarbiya va dam olish tadbirlari faol dam olish vositasi sifatida (20 soat):

Ommaviy sport tadbirlarida (fakultet, institut, shahar va respublika ligalari jamoalari tarkibida) ishtirok etish. Basketbol bo'yicha respublika va xalqaro musobaqalarga tashrif buyurish va tomosha qilish.

4-jarayon:

Jamoaviy sport turlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. Musobaqalarni tashkil etish asoslari (8 soat):

Rasmiy basketbol qoidalari. Hisob varaqalarini yuritish va hakamning maydondagi ishini amaliy o'zlashtirish. Hakamlar hay'ati tarkibida ishlashni o'rgatish.

5-jarayon:

Yoshi, jinsi, funktsional holati va jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda tezlik va kuch qobiliyatlarini oshirish (4 soat):

Himoyachining qarshilik ko'rsatgan holda o'rta va uzoq masofadan to'p tashlashi, qaytgan to'p uchun kurash.

Yosh, jins, funktsional holat va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda harakatni muvofiqlashtirishni yaxshilash (6 soat):

To'pni dribling qilishda moki yugurish. To'pni uchlikda uzatish («Sakkiz» mashqi). 2x2, 3x3, 5x5 o'yinlarini guruh va jamoaviy taktik o'zaro ta'sirlardan foydalangan holda o'tkazish.

6-jarayon.

Sport va ochiq o'yinlar orqali jismoniy fazilatlar va vosita mahoratini oshirish (6 soat):

Maxsus chidamlilikni oshirish (energiya ta'minotining aerob-anaerob turi): o'yin mashqlari 3x3, 5x5 Kuchga chidamlilikni oshirish: juftlik, uchlik mashqlari, medbol to'pi yordamida harakatli o'yinlar o'ynash.

Tezlik qobiliyatini oshirish: 1 va 2 to'pni dribling bilan estafeta poygalarini; maksimal

tezlikda yaqin, o'rta va uzoq masofalardan uloqtirishlar.

Tezlik va kuch qobiliyatlarini yaxshilash: erta va pozitsion hujumga o'tish bilan to'pni qaytarish uchun kurashish.

Xulosa. Basketbol sporti vositalari, xususan, bu sport turi o'quvchilarning jismoniy tarbiyasidagi muammolarini hal qilishda yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi. Jismoniy rivojlanish, jismoniy qobiliyatlarni uyg'un tarbiyalash, vosita ko'nikmalarini shakllantirish, shaxslararo o'zaro munosabatlarni o'rgatish, psixo-emotsional kasalliklarning oldini olish. charchoq va stressli sharoitlarni bartaraf etishda o'zining beminnat yordamini beradi. Basketbol to'garaklari o'quvchilarni respublika va xalqaro miqyosdagi ommaviy sport tadbirlarida ishtirok etish orqali yoshlarning umumiy madaniyatini yuksaltirish, milliy sport an'analari bilan yaqindan tanishtirishga xizmat qilmoqda.

“Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi”, (basketbol) “Basketbol nazariyasi va uslubiyoti” fanidan o'quv mashg'ulotlari tarkibida basketboldan quyidagi yo'nalishlarda foydalanish tavsiya etiladi:

- jismoniy sifatlar va harakat qobiliyatlarini takomillashtirish;
- o'z-o'zini nazorat qilish asoslarini o'rgatish;
- mustaqil jismoniy mashqlar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni takomillashtirish;
- aqliy va psixofizik stressni kamaytirish, o'ziga ishonchni oshirish, hayotga umid bilan boqish, faol dam olishni tashkil etish usullarini amaliy ishlab chiqish;
- musobaqalar va sport tadbirlarini tashkil etish asoslarini o'rgatish va ularni amalda qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аль Кхатиб Ахмад Начальное обучение юных баскетболистов на базе скоростно-силовой подготовки : автореф. дисс. ... канд.пед.наук / Аль Кхатиб Ахмад. – Волгоград, 2000. – 24 с.1.
2. Metzler M.W. Instructional Models for Physical Education: Holcomb Hathaway: Scottsdale, AZ, USA 2011
3. Новицкий, Д.Э. Социально-психологический аспект деятельности тренера студенческой баскетбольной команды / Д.Э. Новицкий, А.А. Парфианович, В.И. Новицкая, В.А. Маклаков // Здоровый образ жизни: сб. ст. Вып. 9 / редкол.: В.М. Киселев (отв. ред.) [и др.]. – Минск: БГУ, 2011. – С. 133-138.
4. Новицкий, Д.Э. Влияние занятий баскетболом на психофизическое состояние студентов и их социализацию / Д.Э. Новицкий, В.И. Новицкая, А.А. Парфианович // Вопросы физического воспитания студентов вузов: сб. науч. ст. вып. 11 / редкол.: В.А. Коледа (отв. ред.) [и др.]. – Минск: БГУ, 2014. – С. 152 – 158.
5. Новицкий, Д.Э. Комплексный контроль в управлении спортивной подготовкой баскетболистов студенческих команд / Д.Э. Новицкий, В.И. Новицкая // Вестник Полоцкого государственного университета. – 2018. - № 5. – С. 187-192.
6. Парфианович, А.А, Д.Э. Новицкий, В.И. Новицкая. Анализ компетентности баскетболистов студенческих команд в вопросах здоровьесбережения // Оптимизация учебно-воспитательного и тренировочного процесса в учебных организациях высшего образования. Здоровый образ жизни как фактор профилактики наркомании: матер. всеросс. научно- практ. конф. (19 мая 2018 г.) / отв. ред. Е.В. Панов. – Красноярск. СибЮИ МВД России, 2018. Режим доступа: <https://сибюи.мвд.рф/>. – С. 1293 – 196.
7. Rasulovna S. N., Rasulovna S. M. Advantages of Using Action Games in Teaching the Sport of Basketball //Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 44-48.
8. Rasulovna S. N., Rasulovna S. M. BASKETBOL SPORTINI O'RGATISHDA TA 'LIM PRINSIPLARI //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 11. – №. 8. – С. 51-56.
9. Rasulovna S. N. The Mechanism of Improving the Primary Training Methods of Basketball Sports, Training Skilled Basketball Players. – 2022.

GEOMETRIYA O'QITISHDA AMALIYOTGA YO'NALTIRISH

Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich
Amaliy matematika kafedrasi dotsenti, p.f.n
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.050>

ПРАКТИЧЕСКОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ ГЕОМЕТРИИ

Саипназаров Шайловбек Актамович
к.п.н., доцент кафедры Прикладная математика

PRACTICAL DIRECTION IN TEACHING GEOMETRY

Saipnazarov Shailovbek Aktamovich
Ph.D. Associate Professor,
Department of Applied Mathematics

Annotatsiya. Bu maqolada geometriya o'qitishda amaliyotga yo'naltirish masalasi sifatida iqtisod masalasi qaralgan.

Matematik fanlarning kelib chiqishi, shubhasiz, iqtisod ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan. Ishlab chiqarishning taraqqiyoti va mirakkablashishi bilan iqtisodning matematik hisoblarga, uni optimal yechish metodlariga bo'lgan ehtiyoji ortib borganligini hisobga olib amaliyotga yo'naltiruvchi masalalarni yechish namunalari qaralgan.

Tayanch so'zlar. Matematik iqtisod, iqtisodiy omillar, geometric interpretatsiya, optimal yechim, iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Abstract. In this article, the issue of economy is considered as an issue of practical guidance in teaching geometry.

The origin of mathematical sciences was undoubtedly related to the needs of the economy. Taking into account the fact that the economy's need for mathematical calculations and methods of its optimal solution has increased with the development and complication of production, examples of solving problems that lead to practice have been considered.

Key words. Mathematical economics, economic factors, geometric interpretation, optimal solution, economic indicators.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическая задача в качестве задачи практического направления при обучении геометрии.

Зарождение математических наук, несомненно, было связано с потребностями экономики. С учетом того, что потребность экономики в математических расчетах и методах ее оптимального решения возросла с развитием и усложнением производства, рассмотрены примеры решения практических задач.

Ключевые слова. Математическая экономика, экономические факторы, геометрическая интерпретация, оптимальное решение, экономические показатели.

Kirish. Pedagogik tadqiqotlarda amaliyotga yo'naltirish deganda matematika kursini mazmun jihatdan amaliyot bilan bog'lanishi tushuniladi. Pedagogik adabiyotlarda amaliy masalalar haqidagi tushuncha turlicha talqin qiladi. Ba'zi tadqiqotchilar (G.G.Maslova, N.L.Tixonov, S.S.Vardaiyan, G.M.Voznyak, Nguen Van Chang va b.q.) amaliy masalalarni tabiiy tildan matematika tiliga o'tish deb hisoblaydilar. Boshqa tadqiqotchilar (N.Gaybullaev, Ya.A.Korol, G.M.Morozov va b.q.) amaliy masala deganda qo'yilgan masalani yechish metodi amaliyotda kelib chiqadigan masalaga yaqin bo'lishini tushunadilar.

Bizning fikrimizga amaliyot masalasi – bu matematika tashqarisida qo'yilgan masala va matematik metodlar yordamida yechiladigan masaladir.

Amaliyotga yo'naltirish masalalaridan biri bu iqtisod masalasidir. Matematik fanlarning kelib chiqishi, shubhasiz, iqtisod ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, qancha maydonga don sepish, oilani to'q tutish uchun zarur ekin maydonini qanday qilib o'lchash va olinajak hosilni chamalab baholash zarur bo'lgan.

Ishlab chiqarishning taraqqiyoti va murakkablashishi bilan iqtisodning matematik hisoblashlarga bo'lgan ehtiyoji ortib bordi. Hozirgi ishlab chiqarish – ko'plab korxonalarining qat'iy muvozanatga solingan faoliyatidan iboratki, u behisob matematik masalalarni yechish bilan ta'minlanadi. Bu ish bilan iqtisodchilar, reja tuzuvchilar va buxgalterlarning bir butun armiyasi mashg'ul, minglab elektron hisoblash mashinalari esa hisob – kitoblar bilan band. Bunday masalalar qatoriga ishlab chiqarish rejasini tuzish ham, qurilish ob'ektlarining eng afzal joylashuvini aniqlash ham, yuk tashishning eng tejamli marshrutlarini tanlash ham

kiradi.

Bunday turdagi masalalarni yechish bilan matematik iqtisod fani shug'ullanadi. Matematik iqtisod, shuningdek, avvaldan ma'lum iqtisodiy hodisalarning modellashtirilgan matematik tavsifi, iqtisodiy hisob – kitoblardagi turli gipotezalarning tahlili, ularni ifodalovchi matematik munosabatlar bilan ham shug'ullanadi.

Matematik iqtisodning murakkab muammosi – nazariyani amaliyot bilan taqqoslash: iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'lchash anchayin qiyin, axir ular laboratoriya sharoitida o'lchamaydi, kuzatuvlarni olib borish uchun esa kamdan – kam holda imkon bor (aholi ro'yxati), qolaversa, ular har xil sharoitlarda o'tkaziladi va qator noaniqliklarga ega bo'ladi. Shu boisdan bu sohada boshqa fanlarda to'plangan o'lchamlar tajribasidan foydalanish dargumon bo'lib, maxsus metodlar ishlab chiqish taqozo etiladi.

Matematik iqtisodning taraqqiyoti “Matematik programmashtirish” degan umumiy nom bilan birlashtiriluvchi bir necha matematika sohalari paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

Geometriya o'qitishda talabalarning iqtisodiy tarbiyasi

Talabalarning iqtisodiy tarbiya deganda biz iqtisod mazmunidagi masalalarni yechish jarayonida iqtisodiy omillar va ularning geometrik interpretatsiyasini ko'rsatishdan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, akademik litsey va kasb – hunar kollejarini talabalariga matematik programmashtirishning ayrim metodlari bilan tanishtirish lozim. Matematik programmashtirish metodlari chegaralangan resurslardan oqilona foydalanishni talab etadi.

Ushbu misolni qaraymiz.


$$\begin{cases} 2x_1 + 5x_2 \leq 10 \\ 2x_1 + x_2 \leq 6 \\ x_1 + x_2 \leq 3 \\ x_1 \geq 0, x_2 \geq 0 \end{cases}$$

Shartlarni qanoatlantiruvchi shunday x_1 va x_2 larni topish kerakki, bunda $F(x_1, x_2) = 2x_1 + 3x_2$ funksiya maksimal qiymatga ega bo'lsin.


Keltirilgan masalaning joiz yechimi deb, shunday juftlik sonlarga aytiladiki, bunda bu ikki o'zgaruvchi masalaning barcha cheklovlarini qanoatlantiradi.

Optimal yechim deb F funksiya eng katta qiymat qabul qiladigan yechimga aytiladi.

Masalaning joiz yechimlar to'plamini topamiz (1 – rasm).



1 – rasm



2 – rasm

Bu soha $OM_1 M_2 M_3$ to'rtburchakdan iborat. Biz $OM_1 M_2 M_3$ sohadan shunday x_1 va x_2 larni topishimiz kerakki, bunda $F(x_1, x_2) = 2x_1 + 3x_2$ funksiya maksimal qiymat qabul qilsin.

Aytaylik, $2x_1 + 3x_2 = 0$, bundan $x_2 = -\frac{2}{3}x_1$. Bu funksiya grafigini chizamiz. Buni OX_2

yo'nalishi bo'yicha parallel ko'chirishimiz (bu $2x_1 + 3x_2$ v ifodaning qiymatini oshishiga olib keladi). Uning eng chetki nuqtasi M_2 bo'ladi. U $2x_1 + 5x_2 = 10$ va $x_1 + x_2 = 3$ to'g'ri chiziqlarni kesishish nuqtasidir.

$$\begin{cases} 2x_1 + 5x_2 = 10 \\ x_1 + x_2 = 3 \end{cases}$$

Sistemaning yechib, $x_2 = \frac{4}{3}$, $x_1 = \frac{5}{3}$ hosil qilamiz.

$$F(x_1, x_2) = F\left(\frac{5}{3}, \frac{4}{3}\right) = 2 \cdot \frac{5}{3} + 3 \cdot \frac{4}{3} = \frac{22}{3}$$

Amaliy masalalarda F funksiya maqsad funksiya $OM_1 M_2 M_3$ ko‘rinishdagi ko‘pburchak esa cheklovlar ko‘pburchagi (yechimlar ko‘pburchagi) deb yuritiladi.

Ba’zi iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ular orasidagi bog‘lanishlarni kiritamiz. Agar foyda π , R – rentabellik, X – xarajat, n – mahsulot miqdori, P – mahsulotning borlik narxi, C – tannarx bo‘lsa, u holda

$$\pi = p \cdot n - X;$$

$$R = \frac{\pi}{X} = \frac{p \cdot n - X}{X} = \frac{p \cdot n}{X} - 1 \quad (1)$$

$$C = \frac{X}{n} \quad (2)$$

bo‘lganligidan

$$R = \frac{p}{C} - 1 \quad (3)$$

hosil qilamiz.

(3) formula ko‘rgazmali geometrik interpretatsiyaga (talqin) ega (2-rasm).

(3) formuladan tannarxni minimallashtirish rentabellikni maksimallashtirishga ekvivalent bo‘ladi. Agar,

- 1) $C < p$ bo‘lsa, u holda (korxonalar rentabel),
- 2) $C = p$ bo‘lsa, u holda $R = 0$,
- 3) $C > p$ bo‘lsa, u holda $R < 0$ (korxonalar norentabel).

Demak, foydani maksimallashtirish uchun yuqoridagi masalani yechish kabi amalga oshiriladi, ya’ni chiziqli programmashtirish masalasi yechiladi. Rentabellikni yoki gektariga olinadigan foydani maksimallashtirish uchun esa kasr chiziqli funksiyani maksimallashtirish qoidasidan foydalaniladi.


Geometriya va uning metodlari abstrakt bo‘lishiga qaramay uning ko‘pgina tarmoqlari amaliy tadbiq qilinadi va insonga tabiatning murakkab qonunlarini egallashda yordam beradi. Tadqiqotchi ilmiy abstraksiyadan foydalanib, tabiat va borliq hodisalarni chuqur hamda har tomonlama o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Matematika bilan odam masalasining, agar bu masala murakkab, shu bilan birga, qiziq yechimi standart bo‘lmasa yechimni topishda erishgan muvaffaqiyatidan olgan zavqi bundan keyingi ishi uchun va olg‘a qilib harakat qilishi yaxshi omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ijobiy emotsiyaning tug‘ilishi miyaning ishida samarali natija berar ekan va matematik faoliyatining yanada kuchliroq rivojlanishiga imkon yaratadi ekan, o‘qituvchining vazifasi bu ichkoniyatlarni oldindan ko‘rish, ulardan bilimlarni tushunish va berish maqsadlarida foydalanishdan iboratdir. Biz talabalarga ularning go‘zallikni his etishni, iqtisodga qiziqish va zavqlanish tuyg‘ularini his etishni o‘rganishlariga, go‘zal narsalarni payqashlariga, qadrlashlariga va uni yaratishlariga yordam berishimiz kerak. Geometriya darsida talabalarining iqtisodiy bilimlarini shakllantirishda masalani shunday tanlashimiz kerakki, bu masala iloji boricha hayotdan olingan bo‘lishi lozim. Gap natijasining ahamiyatini uni hosil qilishning sodda va original uslublari bilan birgalikda ifodalovchi yechim haqida borganda, biz ko‘pincha “go‘zal yechim” yoki “ajoyib isbot” degan so‘zlarni aytamiz va eshitamiz. Bunday uslublar kishida zavq uyg‘otadi, aqlning kuchini va fikrning go‘zalligini his etishga yordam beradi.

Akademik litseylar geometriya kursida, maktab va oliy o‘quv yurtlarida nuqtalarning geometrik o‘rinlarini topishga doir masalalar qaraladi va ular tekshiriladi. Quyidagi sodda masalani qaraylik. Faraz qilaylik, xaridor 2 xil molni sotib olishni afzal ko‘rsin. Xaridorning berilgan vaqt ichidagi, daromadi d bo‘lsin. Xaridor berilgan vaqt ichida d pul birligidan

yuqori pul sarflashi mumkin emas. U holda $ax + by = d$ (1) ($d_1 \leq d$) shartni qanoatlantiruvchi $(x; y)$ mollar to'plamidan xarid qilish mumkin. Mollar to'plamini to'g'ri burchakli koordinata (mollar tekisligida) grafik ravishda tasvirlash uchun (1) tenglikdan foydalanish qulay (bunda x – molning narxi a – molning narxi b). (1) tenglama bilan aniqlanadigan chiziq iqtisod kursida budjet (narz) chizig'i deb yuritiladi.

$$y = \frac{d_1}{b} - \frac{a}{b}x \quad (2)$$

Ko'rinishda yozish mumkin. d_1, a, b o'zgarmas kattaliklar bo'lgani uchun (2) tenglama to'g'ri chiziqni ifodalaydi, bunda $\frac{d_1}{b}$ ozod had, $\frac{a}{b}$ esa x o'zgaruvchi oldidagi koeffitsient. Budjet chizig'i grafikda AB to'g'ri chiziqdan iborat. A va B nuqtalarning koordinatalari budjet chizig'i bilan koordinata o'qlarining kesishgan nuqtalari.



3 – rasm

A nuqta ordinatasi $y_A = \frac{d_1}{b}$ xaridorning faqat x molni xarid qilishini, B nuqta absissasi $x_B = \frac{d_1}{a}$ esa xaridor faqat y mol uchun o'z daromadini sarflaganligini bildiradi. $C(x_C, y_C)$ nuqta esa xaridor o'z daromadining X va Y mollar uchun sarflanganligini bildiradi. OAB uchburchak xaridorning molni sotib olish imkoniyatlar to'plami.

Uchburchak ichiga tegishli bo'lgan K va L nuqtalar xaridorning x va y mollarni sotib olishga imkoni borligini bildirsa, D va E nuqtalarda x va y mollarni sotib olishga imkoni bo'lmasligini bildiradi. Agar xaridorning daromadi d_1 dan d_2 gacha ortsa va narxlar o'zgarmay qolsa, u holda yangi budjet chizig'ining tenglamasi


$$y = \frac{d_2}{b} - \frac{d_1}{b}x \quad (3)$$



ko'rinishga ega bo'ladi. Haqiqatan, $d_2 = d_1 + \alpha$ ($\alpha > 0, \alpha \in R$) bo'lganligi uchun

$$y = \frac{d_2 + \alpha}{b} - \frac{d_1}{b}x = \frac{d_1}{b} - \frac{d_1}{b}x + \frac{\alpha}{b}$$

$$x = \frac{d_1 + \alpha}{a} - \frac{b}{a}y = \frac{d_1}{a} - \frac{b}{a}y + \frac{\alpha}{a}$$

formulalar hosil bo'ladi. Bu formulalar parallel ko'chirish formulalari bo'lganligi uchun budjet chizig'i daromad o'sganda budjet chizig'ining yuqoriga, daromad kamayganda esa pastga parallel ko'chirishini ko'rsatadi.





Endi faqat bitta mol narxini o'zgartirishni α gacha tekshiraylik. Aniqlik uchun x molning narxi a kamaygan bo'lib, y molning narxi va xaridorni daromadi o'zgarmay qolsin. Bunday holda budjet chizig'i

$$y = \frac{\alpha}{b} - \frac{a}{b}x$$

ko'rinishda bo'ladi.

Shunday qilib, x mol narxining kamayishi budjet chizig'ini soat strelkasi yo'nalishiga teskari yo'nalishda budjet chizig'ining Oy o'qi bilan kesishgan nuqtasi atrofida burishga olib kelar ekan, x mol narxining o'sishi yuqoridagiga o'xshash soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha buriladi.

Masala: Xaridor 2 xil (2; 5) yoki (4; 3) juftliklardagi mollar to'plamini sotib olish ma'lum bo'lsa, budjet chizig'i qanday ko'rinishga ega bo'ladi? Agar birlik narx 100 000 so'm bo'lsa, xaridorning daromadi necha so'mni tashkil etadi?

Yechish. Bu iqtisodiy masalani matematika tilida quyidagicha bayon qilamiz. Berilgan ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi tuzilsin. To'g'ri chiziq tenglamasini $ax + by = c$ ko'rinishda izlaymiz. To'g'ri chiziq (2; 5) va (4; 3) nuqtalardan o'tganligi uchun ushbu sistemani yechamiz:

$$\begin{cases} 2a + 5b = c \\ 4a + 3b = c \end{cases}$$


Sistemani yechib, $a = b, c = 7b$ ekanligini topamiz. Demak, budjet chizig'i $x + y = 7$ ko'rinishda bo'ladi.

Endi iqtisodiy masalaga qaytamiz. Mollarning narxlari teng birinchi, ikkinchi mol narxlarining qiymati 100 000 so'm tashkil etadi. Xaridorning daromadi esa 700 000 so'mdan iborat. Bunday turdagi masala talabning faqat iqtisodiy tafakkurinigina emas, balki geometrik fikrlashni ham o'stiradi.

Matematik fanini o'qitishda asosiy e'tirof uni amaliyot bilan uzviy bog'langan holda olib borishga qaratilishi zarur. Ayniqsa, iqtisodiyot, qurilish, arxitektura va boshqa yo'nalishlar negizida matematika yotganligini har bir tinglovchi o'quv jarayonida tadbiiq etishi kerak. Shu o'rinda, bir amaliy masala keltirib, uni yechishni tavsiya qilaylik.

Qirg'og'i to'g'ri chiziq shaklidagi kanalning bir tomonida ikkita yashash punkti bo'lib, ularni toza ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan havza qurish talab etilsin.

Havza kanalning qaysi joyiga qurilsa, yashash punktlariga o'tkaziladigan quvurlarga sarflanadigan xarajat eng kam bo'ladi.



D


K

6-rasm.

Masalani matematik modelini tuzaylik. Kanalni K to'g'ri chiziq, aholi punktlarini A va B , havza qurilish lozim bo'lgan nuqtani D bilan belgilasak, masala quyidagi ko'rinishni oladi:

K to'g'ri chiziqqa yotuvchi shunday D nuqta topingki, bu nuqtadan A va B nuqtalargacha bo'lgan masofalar yig'indisi eng kichik bo'lsin (6-rasm).

Bu masalani yechish uchun B nuqtaga K to'g'ri chiziqqa nisbatan simmetrik bo'lgan B_1 nuqta olib, AB_1 kesmani hosil qilamiz. Shu kesmani K to'g'ri chiziq bilan kesishgan D nuqtasi izlanayotgan nuqta bo'ladi (7-rasm).



7-rasm.

Haqiqatan, K to'g'ri chiziqda yotuvchi, D dan farqli ixtiyoriy D_1 nuqta uchun

$$AD_1 + D_1B_1 = AD_1 + D_1B > AB_1 = AD + DB$$

eng kichik qiymat AB_1 kesmaning uzunligi ekanligi ravshan. Bu qiymatni va D nuqtani aniq topish uchun koordinatalar metodidan foydalanamiz. Agar K ni Ox o'qi sifatida OA kesmani o'z ichiga oluvchi o'qni Oy sifatida olsak, A, B va D nuqtaning koordinatalari:

$$A(0, a), B(d, b), D(x, 0)$$

kabi aniqlanadi. Bu yerda a, b, d ma'lum. D nuqtaning absissasi noma'lum. Shuningdek,

B_1 nuqta koordinatalari $B_1(d; -b)$, izlanayotgan AB_1 kesma $AB_1 = \sqrt{d^2 + (a+b)^2}$ bo'ladi. Endi, bu qiymatga x ning qaysi qiymatida erishishini topamiz.

$\overline{AD} = (x; -a)$, $\overline{DB_1} = (d-x; -b)$, hamda \overline{AD} va $\overline{DB_1}$ bir xil yo'nalishda bo'lgani uchun

$$\frac{x}{d-x} = \frac{a}{b}, \quad x = \frac{db}{a+b}$$

topish qiyin emas.

Shunday qilib, havzani qaysi joyga o'rnatish aniqlandi. Bu bir tomondan tatbiqiylikni namoyish etsa, ikkinchi tomondan ba'zi ekstremal masalalarni shu usul bilan imkonini beradi. Haqiqatan, deylik

$$\sqrt{x^2 - 6x + 13} + \sqrt{x^2 - 14x + 58}$$

Ifodaning eng kichik qiymatini topish talab etilayotgan bo'lsin, masalaning yechish uchun berilgan ifodani

$$\sqrt{(x-3)^2 + 4} + \sqrt{(x-7)^2 + 9}$$

Ko'rinishda ifodalasak, uni yuqorida ko'rilgan masala modeliga o'xshash ekanligini ko'ramiz.

$$A(x; 0), B(3; -2), C(7; 3) \text{ deb}$$

$$AB = \sqrt{(x-3)^2 + 4}, \quad AC = \sqrt{(x-7)^2 + 9}$$

bo'lib, izlanayotgan qiymat $BC = \sqrt{41}$ bo'ladi, bu qiymatga u \overline{AB} va \overline{AC} bir xil yo'nalishga ega bo'lganda erishadi.

$$\overline{AB} = (3-x; -2), \quad \overline{AC} = (7-x; 3) \text{ ekanligidan,}$$

$$\frac{3-x}{7-x} = -\frac{2}{3} \quad \text{bundan,} \quad x = 4,6.$$

Demak, analiz masalasining yechishda geometrik metod yordam berdi, ba'zi hollarda geometrik masalani yechishda algebra yoki analiz formulalari, qoidalari yordam beradi.

Geometrik talqin yordamida yechish mumkin bo'lgan ekstremal masalalarga misollar keltiramiz.

Ushbu

$$f(x, y) = ax + by \quad (1)$$

chiziqli funktsiyani markazi koordinata boshida bo'lgan birlik aylanada qaraylik. Umuman olganda (1) ni $\overline{m}(a; b)$ va $\overline{\lambda}(x, y)$ vektorlarning skalyar ko'paytmasi sifatida qarash mumkin. Agar $\overline{\lambda}(x, y)$ vektorning oxiri aylanaga tegishli bo'lsa, uning uzunligi o'zgarmaydi hamda uning $\overline{m}(a; b)$ vektor bilan skalyar ko'paytmasi o'zining maksimal qiymatiga o'zaro kollinear bo'lganda biror (x_0, y_0) nuqtada erishadi va

$$(x_0, y_0) = \left(\frac{a}{\sqrt{a^2 + b^2}}; \frac{b}{\sqrt{a^2 + b^2}} \right)$$

bo'ladi. Mos skalyar ko'paytma esa $(x_0, y_0) \cdot (a, b) = \sqrt{a^2 + b^2}$ bo'ladi. Demak, chiziqli funktsiyaning aylanadagi minimal qiymati

$$\min(ax + by) = \sqrt{a^2 + b^2} \quad (2)$$

bo'lar ekan. Endi shu xossaning bir tatbiqi xususida to'xtalamiz. Deylik,

$$f_1(x, y) = a_1x + b_1y$$

$$f_2(x, y) = a_2x + b_2y$$

$$f_n(x, y) = a_nx + b_ny$$

bo'lsin. U holda (2) natijaga ko'ra

$$\begin{aligned} & \min f_1(x, y) + \min f_2(x, y) + \dots + \min f_n(x, y) \leq \\ & \leq \min(f_1(x, y) + f_2(x, y) + \dots + f_n(x, y)) = \\ & = \sqrt{(a_1 + a_2 + \dots + a_n)^2 + (b_1 + b_2 + \dots + b_n)^2} \end{aligned} \quad (3)$$

$$\sqrt{a_1^2 + b_1^2} + \sqrt{a_2^2 + b_2^2} + \dots + \sqrt{a_n^2 + b_n^2} \leq \sqrt{(a_1 + a_2 + \dots + a_n)^2 + (b_1 + b_2 + \dots + b_n)^2}$$

tengsizlikka kelamiz. Bu tengsizlik yordamida shartli ekstremum masalalariga oid bo'lgan biroq klassik usullar bilan yechib bo'lmaydigan ayrim masalalarni yechish mumkin.

Masalan ushbu

$$\sqrt{x_1^2 + y_1^2} + \sqrt{x_2^2 + y_2^2} + \dots + \sqrt{x_n^2 + y_n^2} \rightarrow \max$$

$$x_1 + x_2 + \dots + x_n = 1$$

$$y_1 + y_2 + \dots + y_n = 2\sqrt{2}$$

shartli ekstremum masalasini qaraylik. Bu masalaning yechimi yuqoridagi (3) tengsizlikdan bevosita kelib chiqishini ko'rish qiyin emas


$$\sqrt{x_1^2 + y_1^2} + \sqrt{x_2^2 + y_2^2} + \dots + \sqrt{x_n^2 + y_n^2} \leq \sqrt{(x_1 + x_2 + \dots + x_n)^2 + (y_1 + y_2 + \dots + y_n)^2} = \sqrt{1 + 8} = 3$$

ya'ni irratsional ifodaning joiz maksimal qiymati 3 ga teng. Bunday misol va masalalarni qo'plab keltirish mumkin.

Yana masalaga murojaat qilamiz. x, y, z musbat sonlar uchun $x + y + z = 1$ shart bajarilganda

$$\sqrt{1 + x^2} + \sqrt{1 + y^2} + \sqrt{1 + z^2} \rightarrow \min$$

ekanligini geometrik metod yordamida yechamiz. Bu masalani yechishning boshqa usullari mavjud. Ammo biz uni yechishning geometrik usulini tanladik.



8-rasm

8-rasmga e'tibor bering.

AA_1A_2B yopiq siniq chiziq uchun

$$AA_1 + A_1A_2 + A_2B \geq AB, \quad AC = 1, \quad BC = 3$$

$$AA_1 = \sqrt{1 + x^2}, \quad A_1A_2 = \sqrt{1 + y^2}, \quad A_2B = \sqrt{1 + z^2},$$

$$AB = \sqrt{1^2 + 3^2} = \sqrt{10} \text{ demak,}$$


$$\sqrt{1 + x^2} + \sqrt{1 + y^2} + \sqrt{1 + z^2} \geq \sqrt{10}$$

$$\min(\sqrt{1 + x^2} + \sqrt{1 + y^2} + \sqrt{1 + z^2}) = \sqrt{10}$$

ixtiyoriy x va y lar uchun

$$\sqrt{9 + x^2} - 3\sqrt{3}x + \sqrt{x^2 + y^2 - xy\sqrt{3}} + \sqrt{16 + y^2 - 4\sqrt{3}y}$$

ifodaning eng kichik qiymatini topish talab etilsin.



Yechish. ABC to'g'ri burchakli uchburchakni qaraymiz. Uning katetlari $AC = 3, BC = 4$ (9-rasm).

To'g'ri burchakni teng uch bo'lakka bo'lib, hosil bo'lgan nurlardan $CM = x, CN = y$ (agar x va y manfiy bo'lsa, ular qarshi tomonga qo'iladi).

Kosinuslar teoremasiga ko'ra,

9-rasm

$$AM = \sqrt{9 + x^2 - 3\sqrt{3}x}, \quad MN = \sqrt{x^2 + y^2 - xy\sqrt{3}}, \quad NB = \sqrt{16 + y^2 - 4\sqrt{3}y}$$

$$AM + MN + NB \geq AB, \quad AB = \sqrt{3^2 + 4^2} = 5$$

$$\min\left(\sqrt{9 + x^2 - 3\sqrt{3}x} + \sqrt{x^2 + y^2 - xy\sqrt{3}} + \sqrt{16 + y^2 - 4\sqrt{3}y}\right) = 5$$

$X = CM$, ACN uchburchak bissektrisasi, $y = CN$, BCM bissektrisasi bo‘lganligi sababli

$$X = \frac{3y\sqrt{3}}{3+y}, \quad y = \frac{4x\sqrt{3}}{4+x}$$

oxirgi sistemani yechib,

$$X = \frac{24}{3+4\sqrt{3}}, \quad y = \frac{24}{4+3\sqrt{3}}$$

Xulosa. Shunday qilib, biz bu maqolada masalalar yechish orqali talabanning iqtisodiy tarbiyasini shakllantirish, fanga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, matematikadan masalalar yechish tajribasini takomillashtirish mumkinligi haqida so‘z yuritdik.

Bu turdagi masalalardan talabanning iqtisodiy bilimlari matematika fanlarining o‘zaro bog‘liqligini mukammal o‘rganishga bog‘liqligi kelib chiqadi.

Foydalingan adabiyotlar

1. В.В.Трофимов. “Царевна Дидона, изопериметры и мыльные пленки” // Квант 1985, №5. 22-25 betlar.
2. В.Тихомиров. “Геометрия или анализ” Квант 1992, №2. 11-17 betlar.
3. А.Рахимов, Ш.Саипназаров. “Планиметрик masalalarni yechishda aylananing roli” // Pedagogik ta’lim, 2012, №2. 49-53 betlar.
4. А.Савин. «Зеркальная симметрия» // Квант 1992, №3. 40-41 betlar.
5. В.Смилга «Как начиналась геометрия» // Квант 1992, №2. 11-17 betlar.
6. Д.В.Фомин «Криминальная геометрия или дело принципа» // Квант 1989, №8. 47-51 betlar.
7. И.Ф.Шарыгин «Задачи по геометрии» (планиметрия) М.: «Науки» 1986.
8. Sh.Saipnazarov, A.Raximov. «Математикани o‘qitishda masalalar yechishni o‘rganish metodi haqida» // Pedagogik ta’lim, 2010 y., №4. 58-62 betlar.

YOSH FUTBOLCHILARNI TESTLAR YORDAMIDA SARALASH VA QOBILIYATLILARINI TANLANGAN SPORT TURIGA YO'NALTIRISH

Salaydinov Botir Meyliyevich

Qarshi davlat universiteti, "Sport faoliyati" kafedrasi katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.051>

Annotatsiya. Mazkur maqola ko'p yillik tayyorlov tizimida yosh futbolchilarni saralash va ularni sport turiga yo'naltirishga bag'ishlangan. Maqolada keltirilgan tajriba natijalaridan yosh, iqtidorli futbolchilarni futbol bilan shug'ullanishlari uchun BO'SM, maxsus sinflar va tayyorlov guruhleri murabbiylari tomonidan tanlab olishda va tanlangan sport turiga yo'naltirishda samarali foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Futbol o'yini, ko'p yillik tayyorlov tizimi, saralash jarayoni, sport turiga yo'naltirish.

ОТБОР ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ С ПОМОЩЬЮ ТЕСТОВ И НАПРАВЛЕНИЕ СПОСОБНЫХ К ВЫБРАННОМУ ВИДУ СПОРТА

Салайдинов Ботир Мейлиевич

Старший преподаватель кафедры «Спорт фаолияти» Каршинский

государственный университет

Аннотация. Данная статья посвящена отбору молодых футболистов по многолетней системе подготовки и ориентации их по виду спорта. Результаты эксперимента, представленные в статье, могут быть эффективно использованы тренерами секций, специальных классов и подготовительных групп для отбора и направления молодых талантливых футболистов к занятиям футболом.

Ключевые слова: футбольная игра, многолетняя система подготовки, сортировочный процесс, спортивная ориентация.

SELECTION OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS THROUGH TESTS AND REFERRAL OF THOSE CAPABLE OF THE CHOSEN SPORT

Salaydinov Botir Meyliyevich

Senior lecturer of the department of «Sports faoliyati» Karshi State University

Abstract. This article is devoted to the selection of young football players according to a long-term training system and their orientation by sport. The results of the experiment presented in the article can be effectively used by coaches of sections, special classes and preparatory groups to select and direct young talented football players to football classes.

Keywords: football game, long-term training system, sorting process, sports orientation.

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va hukumatimiz tomonidan sportga qaratilayotgan katta e'tibor tufayli qilinayotgan olamshumul ishlar, islohatlar hammamizning ko'z o'ngimizda namoyon bo'lmoqda. Sportning yurtdoshlarimiz, ayniqsa, o'smir bolalarimiz o'rtasida ommaviylik darajasi juda yuqoridir [1].

Yuksak sport yutuqlarining mavqei xalqaro musobaqalarda raqobatdoshlikning keskinlashishi, hamda mamlakat milliy terma jamoalari sportchilari avlodlarining almashishi qonuniy jarayoni hozirgi davrda sport saralashi va istiqbolli yoshlarni tayyorlashning ilmiy asoslangan tizimlarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi. Shunday holatda biz jahon sport musobaqalarida munosib qatnasha olamiz. Hozirda ham mashhur, tan olingan o'zbek sportchilarimiz bor. Albatta, ular bizning faxrimiz, lekin bizda yaxshi sportchilar kam, iqtidorli yoshlar esa juda ko'p.

Sport bilan shug'ullanish uchun bolalarni saralash va futbolga yo'naltirish boshqa ko'rsatkichlar bilan birgalikda, nafaqat jismoniy rivojlanganlik, balki jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari kabi shaxsiy sifat va xususiyatlarini aniqlash ham alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda [2,3].

Sport tanlovi uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u o'quvchilarning individual xususiyatlarini obyektiv baholashni talab qiladi, bu ko'rsatkichlar to'plamiga asoslanishi kerak, chunki sport natijalariga e'tibor har doim ham uning bashoratini oqlamaydi. Sport tanlovidagi kompleks metodologiya pedagogik, tibbiy-biologik, fiziologik va psixologik usullardan iborat bo'lib, tanlovning barcha bosqichlarida asosiy usul shaxsiy yondashuv bilan mustaqil xususiyatlarni umumlashtirish usuli bo'lishi kerak.

O'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lgan sport tanlovi organik ravishda taqdim etilishi, asoslanishi va ishlab chiqilishi kerak. Bu murabbiylar obyektiv mezonlar bo'yicha sportni tanlash imkoniyatlaridan kelib chiqib, shug'ullanuvchilarning texnik va funksional tayyorgarligini yaxshilash istiqbollari to'g'ri bashorat qilishlari uchun zarurdir. Qayd etilganidek, iqtidorli yosh futbolchilar o'quv-mashg'ulot bosqichida yo'qolmasliklari va yuqori tezlikni zabt etish uchun yuqori malakali katta futbolchilariga aylanishlari kafolati bo'lishi mumkin.

Iste'dodli yosh futbolchini saralash va sport turiga yo'naltirish jarayonini takomillashtirishga yordam bera oladigan yangicha yondashuvlar, samarali vositalar va uslublarni ilmiy izlash zaruriyati yuzaga keladi va ushbu ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Futbolda qobiliyatli bolalarni saralab olish va sport turiga yo'naltirishda samarali uslubiyatlarni o'rganib chiqish va tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifasi. Yosh, kelajagi porloq futbolchilarni BO'SM, maxsus sinflar va tayyorgarlik guruhlari rahbarlari tomonidan ixtisosli ravishda tanlab olish va saralashning samarali uslublarini takomillashtirish va qo'llanilishi bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, tanlab olish va saralash bo'yicha testlar yig'ish, tahlil qilish, saralash, pedagogik tajriba.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Futbolchilarni tanlash o'quv-mashg'ulot jarayonining muhim va uzviy qismidir, chunki u sport tayyorgarligining asosiy vazifasini hal etishga – yuqori sport natijalariga erishishga yordam beradi.

Futbolda tanlash faqat natijalarning ancha yuqori darajada bo'lishigina emas, balki shug'ullanuvchilarning bir xil tarkibda bo'lishini ham ta'minlaydi, bu esa o'qitish-o'rgatish natijalariga ijobiy ta'sir etadi. Tanlashga yetarlicha baho bermaslik yoki uning uslublarining mukammal bo'lmasligi, odatda, tuzatib bo'lmaydigan zarar keltiradi. Ko'pchilik bolalarning bolalar-o'smirlar sport maktablarini tashlab ketishi (bu o'qitishning turli bosqichlarida sodir bo'ladi) bunga misol bo'la oladi.

Tabiiy tanlash o'rinbosarlar tayyorlash muammosini hal qilmaydi. Bu holda qobiliyatsiz bolalar bilan bir qatorda qobiliyatli, ya'ni, odatda, maxsus sifatlar bo'yicha yetarlicha tayyorlanmagan, lekin yuqori potensial (imkoniyat)larga ega bo'lgan bolalar ham futbol maktabini tashlab ketadi.

Ko'pgina murabbiylar eng qobiliyatli bolalarni tanlab olish uchun turli mezonlardan foydalanadilar, biroq bu mezonlar ko'pgina hollarda bir tomonlama yoki subyektiv holatdada bo'ladi. Shu bilan birga, tanlash ishi umuman stixiyali ravishda olib boriladi yoki ko'pincha, murabbiylar bolalarning nazorat o'yinlarida ko'rsatadigan va avvalda qaror topgan texnik-taktik malaka va ko'nik-malariga qarab ish yuritadilar. Bolalarning tezlik-kuch sifatleri va harakatlar koordinatsiyasi, tez fikrlashi, irodaviy sifatlarining yuqori darajadaliigi, shuningdek, yangi materialni tez o'zlashtirib olishiga asoslangan imkoniyatlari hisobga olinmaydi.

Yosh futbolchilarni tanlash ishi boshidan oxirigacha yaxshi tashkil etilgan bo'lishi kerak. Dastlab bolalarni jalb qilish va ularning sport maktablariga ommaviy ravishda kelishini ta'minlash choralarini ko'rish lozim. Eng avvalo, nomzodlarni yaqin orada joylashgan turar joy hududlari va maktabdan tanlash maqsadga muvofiqdir, shunday qilinganda, ko'p yillik tayyorlash jarayonini tashkil etish va tekshirib turish oson bo'ladi. Xohlovchilarni qabul boshlanishidan ancha oldin bu haqda xabardor qilish kerak. Biroq faqat gazetada e'lon qilish yoki radio orqali axborot berish zarur samarani bermaydi. Murabbiylarning maktablarga kelishi va tanlash ishi boshlanishidan 4-5 kun oldin bolalarni xabardor qilishi eng yaxshi vositadir.

Yosh futbolchilarni tanlashda ularning umumiy va maxsus qobiliyatiga ahamiyat beriladi. Texnik tayyorgarlik darajasiga, ya'ni «o'ynashni bilishiga» eng kam e'tibor qaratiladi. Bu

mezon yosh futbolchining musobaqaga tayyorgarligini hisobga olmaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shunday bolalar borki, futbol bo'limiga kirganda texnik va o'yin ko'rsatkichlari unchalik baland darajada bo'lmaydi, lekin jismoniy va psixologik omillari yuqori darajada bo'lganligi sababli, ularning texnik-taktik mahorati tez o'sadi.

Biz birinchi tanlovda qo'llash mumkin bo'lgan kompleks ko'rsatkichlarni tanladik.

1. Muhimi, ko'pincha tug'ma hisoblangan yugurish tezligi. Tezkorlik sifatlarini baholash uchun 30 metrga yugurish tavsiya qilinadi.

2. Qobiliyatni rivojlantirishda tezlik-kuch imkoniyatlari katta rol o'ynaydi. Buni yugurib kelib, ikki oyoqda depsingan holda yuqoriga sakrashning balandligi orqali baholash mumkin.

3. Muhim sifatlardan biri bu epchillikdir. Uning 12-13 yoshdan keyin rivojlanishi qiyin bo'ladi. Tanlashda umumiy va maxsus epchillikni hisobga olish kerak.

4. Maxsus koordinatsiya dribling orqali baholanadi (5 ta doirani aldab o'tish).

5. Eng muhim ruhiy sifatlardan biri o'yinni idrok eta bilish va mo'ljal olishdir.

6. Tanlashning oxirgi bosqich ko'rsatkichi bu – «o'yin shiddati va jangovarlik sifati».

Shunday qilib, birinchi bosqichda 6 ta test va ko'rsatkichlar o'yin paytida baholandi.

Bu tanlash dasturini 30-50 ta boladan kirish imtihonlarini qabul qilishga mo'ljalladik.

Yosh futbolchilarning yiqqan ballari soni aniqlanib, ularning bahosi quyidagi baholash meyorlari jadvali orqali keltirildi.

Qabul imtihonlari natijalari tahlil qilinganidan so'ng baholar e'lon qilindi. Ijobiy baholarga erishgan bolalardan guruh tanlab olindi. Ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'lib, ammo sinovdan o'ta olmagan futbolchilar nomzodlar guruhiga olindi. Ularga uy vazifasi yarim yilga yoki bir yilga beriladi, so'ngra ular qayta ko'rikdan o'tishlari mumkin. Shuning bilan birinchi bosqich yakunlandi.

1-jadval

Boshlang'ich ixtisoslik bosqichida testlash natijalari baholar gradatsiyasi

Testlar va ko'rsatkichlar	Mashg'ulot boshlangunga qadar (10 yosh)			Bir yillik mashg'ulotdan so'ng (11 yosh)			Ikki yillik mashg'ulotdan so'ng (12 yosh)		
	Yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz			Yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz			Yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz		
30 m ga yugurish	5,3- 5,5	5,6- 5,8	5,9- 6,1	5,0- 5,2	5,3- 5,6	5,7- 5,9	5,0- 5,2	5,3- 5,5	5,6- 5,8
Sakrovchanlik	31-34	30-26	25-22	36-33	32-28	27-24	40-37	36-31	30-27
Umumiy epchil-lik kompleksi	23-24	25-27	27-29	21-23	23-25	26-28	20-21	21-23	23-25
5 ta doirani aldab o'tish	10,5- 12,0	12,1- 13,0	14,0- 15,7	9,8- 10,7	10,8- 12,4	12,5- 13,5	8,6- 9,6	9,7- 10,8	10,9- 12,0
O'yinni idrok etish	4	3	2	4	3	2	4	3	2
O'yinda shiddatlilik	4	3	2	4	3	2	4	3	2

Ilova: Alohida ko'rsatkich bo'yicha natijalar «4» gradatsiyasidan oshiq bo'lsa,

«5» baho qo'yiladi, agar «2» gradatsiyasidan kam bo'lsa «2» baho qo'yiladi.

2-jadval Natijalar o'lishini baholash gradatsiyasi

Test va ko'rsatkichlar	Mashg'ulot boshlangunga qadar (10 yosh)			Bir yillik mashg'ulotdan so'ng (11 yosh)			Ikki yillik mashg'ulotdan so'ng (12 yosh)		
	Yaxshi, qon-li, qoniqarsiz			Yaxshi, qon-li, qoniqarsiz			Yaxshi, qon-li, qoniqarsiz		
Uzoq masofaga zarba berish	22-20	19-16	15-13	26-23	22-18	17-15	28-26	25-22	21-19
To'pni olib yurish, aldash o'tish, zarba	10,6-11,1	11,3-13,3	13,4-15,0	8,7-10,7	10,8-12,3	12,4-13,4	8,0-8,9	9,0-10,9	11,0-12
Doiralarni «aldab» o'tish, slalom	10,5-12,0	12,1-13,9	14,0-15,7	9,8-10,7	10,8-12,4	12,5-13,5	8,6-9,6	9,7-10,5	10,9-12,0
O'yin sharoitida tezkor fikrlash, xotirlash	3,8-3,3	3,2-2,8	2,7-2,2	3,8-3,4	3,3-2,7	2,6-2,2	4,0-3,8	3,7-3,2	3,1-2,7
300 m ga yugurish	67-72	73-79	80-85	64-67,5	68-71	71,5-74	57-60	61-65	66-69

Tanlashning ikkinchi bosqichida yosh futbolchilar ichidan iqtidorlilari ajratib olinadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun birinchi bosqichdagi testlar ijobiy samara bermaydi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, qobiliyat rivojlanishini baholash uchun birmuncha boshqacharoq doira ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

1. To'pga oyoq bilan uzoq masofaga zarba berish – 3 marta. Eng yaxshi natija hisobga olindi.

2. Texnika uchun test. Burchakdan jarima maydonining markazigacha to'pni olib yurib, bir-biridan 3 m uzoqlikda joylashgan to'siqlarni «aldab» o'tib, darvozaga zarba berish. Chap va o'ng burchakdan ikkitadan imkoniyat beriladi. To'p darvozaga kirishi lozim. Eng yaxshi natija hisobga olindi.

3. Maxsus koordinatsiya uchun test. To'p bilan doira-larni kam vaqt sarflab «aldab» o'tish. Ikki imkoniyatdan yaxshi natija hisobga olindi.

4. Umumiy chidamlilikni baholash 300 metrga yugurish bilan amalga oshirildi.

5. O'yin faoliyatini baholashda psixologik va fiziologik tadqiqotlarda qo'llanadigan usullardan foydalaniladi. O'rtacha natija 10-12 urinishdan keyin aniqlandi.

Xulosa. Birinchi bosqichdan so'ng, tanlab olingan bolalarning ko'rsatgan natijalarini qo'shimcha testlandi. So'ng oltita test natijalari orqali ballar yig'indisi hisoblandi. Keyinchalik bir, ikki yillik mashg'ulotlardan so'ng taqdim etilayotgan mashqlar kompleksi orqali testlash o'tkazildi va yana ballar yig'indisi aniqlandi.

O'sish templari yig'ilgan ballarning farqiga qarab mashg'ulotlardan oldin va mashg'ulotlardan bir yoki 2 yil so'ng aniqlanadi. Sport takomillashtiruvda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar ko'pincha ruhiy tomondan kuchlirok bo'ladi. Shuning uchun murabbiy tomonidan ularning mehnatsevarligiga va tirishqoqligiga katta e'tibor berish talab etiladi.

Sportchilarni saralash kasbiy tanlovdan farq qiladi. Sport maktablari uchun sportchilarni saralash istiqboldagi 6-10 yil davomida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish bashoratini nazarda tutgan holda amalga oshirildi. Yoshga monand rivojlanish va maxsus tayyorgarlikka ta'sir etuvchi ko'plab omillarni hisobga olish zaruriyati bunday bashoratni qiyinlashtirdi va sportda saralash talabi sportchilarni aniqlashga qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. 2017, 67-b.

Akramov R.A., Tolibjonov A. "Yuqori malakali futbolchilarni tayyorlash". Toshkent – 1994 y., 142-b.

Futbol. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. R.A.Akramovning umumiy tahriri ostida. T., 2006 y., 134-b.

INVESTIGATING SEVERAL TEACHING METHODS FOR ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE (EFL) LEARNERS

Sobirova Asilabonu,

Student of the 3rd English language faculty, Uzbek State University of World Languages
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.052>

Abstract. This study investigates novel approaches to teaching English as a foreign language, employing a library research methodology. It draws data from reputable national and international journals and then qualitatively analyzes it. The findings underscore the effectiveness of student-centered learning strategies, where students actively construct their knowledge. These innovative methods aim to equip students with the skills necessary for success in the digital and globalized world. Notably, they offer diverse advantages in language acquisition. Commonly employed strategies include “Direct method”, “Grammar translation method”, “Blended learning”, “Total physical response”, “Silent way”, “Suggestopedia”, “Audio-lingual method”.

Keywords: language learners, a welcoming learning environment, “Direct method”, “Grammar translation method”, “Blended learning”, “Total physical response”, “Silent way”, “Suggestopedia”, “Audio-lingual method”.

ИССЛЕДОВАНИЕ НЕСКОЛЬКИХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ (EFL) ДЛЯ ИЗУЧАЮЩИХ

Собирова Асилабону,

Студентка 3-го факультета английского языка Узбекского государственного
университета мировых языков

Аннотация. В этом исследовании исследуются новые подходы к преподаванию английского языка как иностранного с использованием методологии библиотечного исследования. Он собирает данные из авторитетных национальных и международных журналов, которые затем подвергаются качественному анализу. Результаты подчеркивают эффективность стратегий обучения, ориентированных на учащихся, при которых учащиеся активно участвуют в формировании своих знаний. Эти инновационные методы направлены на то, чтобы вооружить студентов навыками, необходимыми для достижения успеха в цифровом и глобализованном мире. Примечательно, что они предлагают разнообразные преимущества в овладении языком. Обычно используемые стратегии включают “Direct method”, “Grammar translation method”, “Blended learning”, “Total physical response”, “Silent way”, “Suggestopedia”, “Audio-lingual method”.

Ключевые слова: изучающие язык, доброжелательная среда обучения, “Прямой метод”, “Метод грамматического перевода”, “Смешанное обучение”, “Тотальный физический отклик”, “Беззвучный путь”, “Суггестопедия”, “Аудиолингвальный метод”.

INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘RGANUVCHILAR UCHUN TURLI O ‘QITISH USULLARINI TADQIQ ETISH

SOBIROVA Asilabonu,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3-Ingliz tili fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot kutubxona tadqiqoti metodologiyasidan foydalangan holda ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishning turli yondashuvlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. U nufuzli milliy va xalqaro jurnallardan olingan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi, keyinchalik ular sifat jihatidan tahlil ham qilinadi. Natijalar talabalar va ustozlar uchun ta’lim strategiyalarining samaradorligini ta’minlaydi. Ushbu usullar talabalarni raqamli va globallashgan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlashga qaratilgan.

Shunisi e'tiborga loyiqki, ular tilni o'zlashtirishda turli xil afzalliklarni taklif qiladi. Ko'p qo'llaniladigan strategiyalar "To'g'ridan-to'g'ri usul", "Grammatika tarjima qilish usuli", "Aralash o'rganish", "To'liq jismoniy javob", "Tinch usul", "Suggestopedia", "Eshitish usuli"larni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: til o'rganuvchilar, o'quv muhiti, "To'g'ridan-to'g'ri usul", "Grammatika tarjima qilish usuli", "Aralash o'rganish", "To'liq jismoniy javob", "Tinch usul", "Suggestopedia", "Eshitish usuli".

“A thousand teachers, a thousand methods”
Chinese Proverb

INTRODUCTION. English has risen as the dominant language in business, science, and diplomacy, intensifying the demand for individuals worldwide to master it. Consequently, universities, including those that stand at the top according to QS ranking, are altering their admission criteria, often requiring proof of English proficiency. This shift highlights a growing need for proficient English as a Foreign Language (EFL) teachers in France, who must possess a diverse skill set, including familiarity with effective teaching methodology and an understanding of students' specific learning needs.

By the decision of the President of the Republic of Uzbekistan, “On measures to bring the activities of popularization of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level”, dated May 19, 2021 No. PQ-5117, special attention is paid to teaching foreign languages in our republic [1]. The incorporation of English into educational establishments' curricula can be attributed to various factors, with one of the key motivations being the acknowledgment of its significance for academic and professional advancement in the contemporary world. Daniel Brooker, an expert in this field, has emphasized the crucial role of English as the predominant language for global communication. He contends that English is frequently recognized as an integral component of the 21st-century skill set' and deemed essential for engaging in the global knowledge economy [2].

Primary approaches of language acquisition are as follows:

Direct method – a teaching approach that prioritizes the use of the target language (in this case, English) as the primary medium of instruction. It aims to immerse learners in the language through real-life situations, visual aids, gestures, and demonstrations rather than relying on translation or the learners' native language. This method emphasizes active participation, meaningful communication, and developing listening and speaking skills before introducing reading and writing. Often associated with language immersion programs, the Direct Method is widely considered adequate for teaching communicative competence in a language [3].

Grammar translation method – a conventional way of teaching languages, which highlights the direct teaching of grammar rules and translating texts between the target language and the native language. It usually includes tasks such as memorizing vocabulary, learning grammatical principles, and practicing translation exercises. This approach prioritizes the development of reading and writing abilities over speaking and listening skills. While it was once prevalent in language education, especially for teaching classical languages like Latin and Greek, it has faced criticism for its narrow focus on grammar and translation, neglecting communicative fluency and authentic language usage.

Blended learning – an integration conventional classroom teaching with online learning components, enabling students to participate in both in-person classes and digital activities. Through the use of digital tools or educational software, students enjoy flexible and customized learning experiences, accessing resources and finishing tasks online according to their own pace. Despite the online aspect, students maintain direct interaction with instructors and classmates during face-to-face sessions. The goal of blended learning is to optimize the advantages of both traditional and online teaching methods to improve student engagement, collaboration, and overall learning achievements [3].

Total physical response – a language teaching technique created by Dr. James J. Asher, which

highlights the integration of physical actions to support language acquisition. In this method, students react to instructions provided by the teacher by engaging in physical movements, like standing or sitting or interacting with objects, exhibiting comprehension of vocabulary and grammar concepts [4].

Silent way – a language teaching method developed by Dr. Caleb Gattegno in the 1960s. In this approach, instructors limit verbal communication and utilize gestures, cues, and physical objects to assist students in understanding language concepts autonomously. Learners are encouraged to actively engage with the language and rectify their own mistakes, fostering self-sufficiency and enhancing their confidence in language acquisition [5].

Suggestopedia – an innovative teaching method developed by the Bulgarian psychologist and educator, Dr. Georgi Lozanov, in the 1970s. It is based on the idea that the mind can learn and retain information more effectively when the learning environment is relaxed and conducive to learning. Suggestopedia utilizes a variety of techniques to create this environment, including positive suggestion, music, relaxation, and rich sensory experiences. One of the key features of suggestopedia is its emphasis on creating a positive and supportive atmosphere for learning. Learners are encouraged to relax and remain passive during the learning process, allowing information to be absorbed more readily. The method also incorporates elements such as background music, art, and visualization to engage multiple senses and enhance learning [6].

Audio-lingual method – also referred to as Audio-lingualism, emerged in the mid-20th century, particularly during the 1950s and 1960s. It is rooted in behaviorism and structural linguistics, focusing on oral proficiency through repetitive exercises and pattern drills to ensure accurate pronunciation and grammatical structures. Key elements of this method involve extensive listening and speaking tasks, including drills and dialogues, to internalize language patterns. Learners are encouraged to mimic and repeat model sentences for precise pronunciation and intonation. Language structures are systematically presented, and learners practice using them across various contexts for reinforcement [7].

RESEARCH METHODOLOGY.

The research was conducted using a library research methodology (book, journals, archives, library catalogues, databases etc.). It aims at methodological theories and educational approaches to thoroughly evaluate the effectiveness of teaching methods. Furthermore, the qualitative information was acquired from language teachers and students via paper materials on incorporating novelty into language instruction.

ANALYSIS AND RESULTS.

The results section summarizes the key insights obtained from both theoretical data and the literature review. It emphasizes the importance of utilizing a variety of teaching methods, enabling instructors to customize lessons and evaluations to suit the specific learning needs of EFL students. It highlights the importance of multisensory approaches in enhancing understanding through interactive activities. Additionally, it discusses how these diverse strategies can be incorporated into the teaching process.

DISCUSSION.

The findings highlight the importance of using diverse instructional methods to create a welcoming and supportive learning environment for English as a Foreign Language (EFL) students. By incorporating a range of learning approaches, student engagement is enhanced, and educators are better able to recognize and address individual strengths and weaknesses in the educational process. The methods provided above improve productivity of teachers and students.

CONCLUSION.

In summary, the paper summarizes the main findings of the study, emphasizing the significance of utilizing varied instructional techniques to address the requirements of students in English as a Foreign Language (EFL) classrooms. The primary objective is to create a welcoming learning atmosphere conducive to effective learning and academic advancement. The summary stresses the ongoing need for further study and innovation in language education to develop strategies and approaches.

REFERENCES:

<https://lex.uz/docs/-5431845>

Brooker, D. (2018). English for development: A review of research into the role of English as a driver for socioeconomic development. UCLES.

Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

Asher, J. J. (1982). Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook. Sky Oaks Productions, Los Gatos, CA.

Gattegno, C. (1972). Teaching Foreign Languages in Schools: The Silent Way. Educational Solutions Worldwide Inc.

Lozanov, G. (1979). Suggestology and outlines of suggestopedy. Gordon & Breach Science Publishers.

Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARINING TAHLILIIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Sulaymonova Nilufar O'tkir qizi
 Shahrissabz davlat pedagogika instituti
Математической основой САЭ является метод конечных элементов, а также другие методы, специфичные для отдельных дисциплин (объемы в конечной гидродинамике, высокочастотный электромагнетизм. На технологической основе используются программные комплексы с возможностью мультифизических расчетов. В первом десятилетии текущего столетия используются Наиболее быстро развивающиеся технологии относятся к методу конечных элементов. Системы компьютерного моделирования, использующие методы конечных элементов, достигли высокого уровня развития. Предлагается, чтобы компьютерное проектирование сосредоточилось на основах моделирования методом конечных элементов (иногда трудно достижимых), цель которого заключается в создании адекватной компьютерной модели проектируемого устройства [3]. Это модель, где можно задать актуальные вопросы и получить обоснованные ответы. Другими словами, это имитация естественных экспериментов и испытаний. Очевидно, что только мультифизическая модель может достичь этой цели.

Понимание проблем мультифизики. Зачастую задачи теоретического расчета процесса в физике имеют многофизическую природу. Это означает, что дифференциальные уравнения, описывающие состояние технической системы и относящиеся к различным областям физики, требуют взаимного решения. Например, результаты электромагнитных расчетов в виде источников тепловой энергии передаются в тепловые расчеты, где также получаются результаты вентиляционных расчетов в виде необходимых при расчете расходов воздуха или жидкости. Основная цель компьютерного моделирования, позволяющая подойти к задачам мультифизики во всем их многообразии, - максимально заменить эксперименты вычислительным моделированием изделия, по крайней мере, на этапе поиска конструктивных расчетов, основной положительный эффект от замены моделирование с помощью компьютера позволяет значительно увеличить разработку новых конкурентоспособных методов. [4]

Классификация межзадачных отношений. Мультифизика или связанные с ней проблемы были предметом изучения многих исследователей за последние 30 лет. В

конец первого десятилетия интенсивных исследований отдельных задач мультифизики впервые была предпринята попытка изучить смежные задачи как отдельную задачу классификации и расчета. Было выдвинуто определение совместных проблем, данное многими учеными. «Связанные проблемы — это системы или постановки задач, определенные в разных, возможно, пересекающихся физических областях и использующие неустраняемые переменные на уровне уравнений» понятие понимается гораздо шире, чем сочетание уравнений в разных областях физики. К таким задачам также предлагается отнести следующие модели и схемы расчета:

Уравнения процессов различной физической природы решаются совместно в геометрических областях, полностью или частично совпадающих друг с другом.

Уравнения одной природы решаются одновременно в областях пространства с практически разными свойствами, например, для сокращения времени вычислений.

Для описания физического явления одновременно используются различные математические модели или схемы дискретизации. Например, двумерное ограничение можно комбинировать при термическом анализе электрической машины. [5]

Особый случай возникает, когда взаимосвязанные физические процессы имеют существенно разные постоянные времени, что позволяет использовать или квазииспользовать разные схемы дискретизации времени в разных подзадачах. Анализ переходного периода, в котором нестационарный анализ используется для медленного (теплового) процесса, а быстрый (электромагнитный) процесс моделируется как плавно меняющееся стационарное решение.

По способу организации процесса расчета все перечисленные виды смежных задач делятся на следующие виды связи:

Вычислительные свойства задач мультифизики формулируются в полевых условиях, т. е. в виде уравнений в частных производных, а большое количество физических явлений описывается уравнениями, имеющими одинаковую математическую природу, а иногда и идентичными обозначениям. Например, уравнение Пуассона описывает состояние стационарного тепла, устойчивого ламинарного течения жидкости, электростатического поля, магнитостатического поля. Примерно с начала 2000 года большое внимание стало уделяться исследованиям в области мультифизики и многомасштабных исследований. Так, в 2004 году в США был опубликован отчет [1] по итогам серии из трех конференций по некоторым аспектам задач мультифизики. В докладе подчеркивается важность и актуальность темы мультидисциплинарных многомасштабных задач, характеризующихся наведением моста между результатами математического моделирования в масштабе микромира и космических процессов, с одной стороны, и миром, населенным человеком, с другой. Сформулирована задача ускоренного развития математических методов и компьютерных программ для совместного моделирования физических процессов, протекающих в различных пространственных или временных масштабах. [4]

Оценка погрешности расчета и контроль ее распространения, в том числе:

Количественная оценка степени близости модели к реальности;

Измерение ошибок дискретизации, интегрирования и других основных алгоритмов;

Определение степени распространения ошибки и неопределенности в физических явлениях и пересечения пространственных границ – временных диапазонов.

Определение степени детализации и дискретизации гибкого выбора показателей.

Методы решения мультифизических задач.

Особое внимание в докладе [1] уделено развитию системы математических методов решения мультифизических задач. На ранней стадии развитие математических методов, применяемых к различным физическим процессам, например механике сплошной среды, термодинамике или квантовой электронике, подчеркивается как обладающее сильными свойствами. Семейство хорошо известных численных процедур еще не представляет собой единого математического аппарата, достаточно абстрактного от лежащего в его основе принципа. Задача состоит в том, чтобы построить единый аппарат численных методов для процессов различной физической природы и масштабов, чтобы обеспечить

более плавный и предсказуемый перенос информации между уровнями этой единой мультифизической модели. Развитие аппаратуры численной математики в направлении мультифизических многомасштабных моделей должно привести к соответствующему развитию программного обеспечения.

Рассмотрены следующие типы мультифизических программ:

Единая модель, равномерно многомасштабная.

Единая модель (система уравнений) рассматривается на одной дискретной сетке для всех масштабных уровней.

Единая модель, неоднородная по масштабу (Единая модель, Неоднородная многомасштабный). Для модельных зон (пространственный или временной) сильный в разных масштабах используются отдельные модели с разной дискретностью, но с одинаковыми уравнениями. Как правило, границы между областями с разной дискретностью заранее не известны и определяются динамически.

Несколько моделей, не идентичных по масштабу (Несколько моделей, Неоднородный множественный масштаб). Используются несколько моделей не иначе не только дискретизацией, но и у-разрешимыми уравнениями. Передача данных между отдельными моделями осуществляется через границы доменов или через местоположение.

В отчете и нескольких других специальных публикациях по теме мультифизических задач дается классификация численных методов решения мультифизических и многомасштабных задач: Примеры: многосеточный, алгебраический многосеточный, многомасштабный анализ и многомасштабный. геометрический анализ. Длительная история развития вычислительной математики дала множество надежных оценок погрешности, вопросы распространения ошибок за пределы разных областей физики или в существенно разных масштабах остаются открытыми. Еще до применения компьютеров для решения задач математической физики был разработан ряд численных методов, использовавших замену непрерывного уравнения в частных производных тем или иным дискретным аналогом. К каждому из основных методов относятся метод конечных разностей, метод конечных элементов, метод граничных элементов, методы, основанные на численном решении интегральных уравнений и т. д. Большинство из этих методов разрабатывались десятилетиями, и каждый из них имеет свои уникальные применения. [2]

Характерной особенностью метода конечных элементов является относительная сложность его программной реализации. Строго говоря, сложность является характеристикой не численного метода, а характеристикой современного зрелого этапа разработки внутрикорпоративных, открытых (публичных) и коммерческих программных продуктов, реализующих МКЭ. Объективным фактом является относительно высокая «стоимость входа», то есть минимальный набор алгоритмов, который необходимо реализовать для решения задачи. Эти алгоритмы и программные компоненты включают в себя:

Важным компонентом решения мультифизических задач являются алгоритмы расчета интерфейсных переменных и переноса их в соответствующие задачи. Если межзадачная связь заключается в обмене уравнениями поля с симулятором системы (на основе эквивалентных электрических схем или других моделей системы), к вышеперечисленным добавляются алгоритмы получения параметров эквивалентных схем из модели поля.

Целью моделирования зачастую является не одиночный расчет, а поиск оптимальной точки в определенном пространстве параметров, разработанный МКЭ снабжен программой оптимизации системы, часто включает в себя анализ чувствительности элементарной модели. Эластичный метод конечных элементов появился как метод изучения стрессового состояния, поэтому появились первые и наиболее развитые программные комплексы, специализирующиеся в этой области. Например, в исследовании рынка [4] упоминаются только пять крупнейших компаний-производителей ФЭМ, программы которых: MSc Software Corp. (МКС Настрэн - Механические проблемы, Марк. мультифизика анализ: в основном оснащен возможностью решения задач прочности, а также магнитостатики

и электростатики для расчета механических нагрузок, а также теплопередачи, акустики и т. д.)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение следует отметить, что наиболее адекватными численными моделями технических устройств и физических процессов являются модели, учитывающие взаимосвязанные процессы в разных областях физики. Такие модели называются мультифизическими или связанными задачами. Другой отличительной особенностью соответствующих задач, помимо основных физических уравнений, является используемая схема расчета. К смежным задачам относится решение уравнений одной области физики, но для повышения эффективности вычислений необходимо сочетать два или более различных численных метода, например, метод конечных элементов со схемными уравнениями. Многие физические (связанные) задачи имеют специфические вычислительные особенности, которые требуют специального изучения – многоэтапные, многомасштабные движения, такие как значительная разница во времени, а также значительная разница в пространственных измерениях, требуют большого внимания. Основным методом решения мультифизических задач является метод конечных элементов, который может сочетаться с рядом других численных схем. Несмотря на наличие внутрикорпоративных и исследовательских проектов, разрабатывающих собственный элементный код, большинство задач моделирования решаются с использованием небольшого количества высокоразвитых коммерческих программных комплексов.

Использовал книги.

М. Ф. Хорстемейер Многомасштабное моделирование: обзор. - в книге «Практические аспекты вычислительной химии: методы, концепции и приложения», редакторы: Ежи Лешинский, Маной Шукла. – Спрингер, 2009, с. 87-137

А. Горбань Н.К. Казанцис·И.Г. Кеврекидис·Х.К. Оттингер·С. Методы редукции модели Теодоропулоса и грубые подходы к многомасштабным явлениям. – Спрингер 2007, 561 с.

З.Д. Расулова «Технологии» наука в преподавании инновационный педагогический технологии «Образовательно - методическое комплекс 2020

С. Зайнобиддинов, М. Тулькинов, Б. Кучкаров. (2022). «Разработка эффективных методов обучения теоретическая электротехника». Сеть ученых: Международный журнал научных исследований, 3 (10), 431–437.

А. Горбань Н.К. Казанцис·И.Г. Кеврекидис·Х.К. Оттингер·С. Методы редукции модели Теодоропулоса и грубые подходы к многомасштабным явлениям. – Спрингер 2007, 561 с.

П. Летбридж Мультифизический анализ. - Промышленный физик, №4, 2004. с. 26-29 б. Компьютерная техника: учеб. пособие / А. Я. Боровков [и др.]. — СПб. : Изд-во Политехника. Ун-та, 2012. — 93 с.

Современное инженерное образование: учеб. пособие / А. Я. Боровков [и др.]. — СПб.: Изд-во Политехник . ун-та, 2012. — 80 с.

Ikromjonovich, S. A. (2020). The Purpose, Objectives And Status Of Training School Teachers Using An Online Platform. JournalNX, 6(09), 67-71.

Ikromjonovich, S. A. (2020). Development of Study Skills in the Development of School Teachers on the Basis of Public Online Open Courses. International Journal on Orange Technologies, 2(11), 10-13.

“O‘ZBEKISTON TARIXI” FANINI METODIK TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA TALABALARNING IJTIMOYIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Teshayev Azizbek To'ynor o'g'li
Buxoro davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida doktoranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.057>

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompetensiya tushunchasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasining mazmun-mohiyati, zamonaviy yondashuvlar asosida O'zbekiston tarixi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning dolzarbligi, talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini O'zbekiston tarixi fanini o'qitish jarayonida tarkib toptirish usullari, “O'zbekiston tarixi” asosida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda ularning tanqidiy fikrlash, fuqarolik faolligi va axloqiy ongini tarbiyalovchi samarali metodikalardan foydalanishning muhim ahamiyatga egaligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: “O'zbekiston tarixi” fani, iftixor, g'urur tuyg'usi, tarixdan saboq olish, tarix ilmi, tarixiy tafakkur, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, tarixiy-madaniy meros, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, tarixiy an'ana, interfaol ta'lim, jamoatchilik, fanlararo yondashuv, raqamli vositalar, manbalar, axloqiy mulohaza, loyihaviy ta'lim.

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕТОДИЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНА»

Тешаев Азизбек Туйнор углы,
Бухарский государственный университет Докторант кафедры методики начального образования

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие компетенции, сущность общественно активной гражданской компетенции, актуальность совершенствования методики преподавания исторической науки Узбекистана на основе современных подходов, методы формирования общественно активной гражданской компетенции студентов в процессе преподавания исторического предмета Узбекистана, критическое мышление студентов в развитии социально активной гражданской компетенции на основе «Истории Узбекистана», использование эффективных методик воспитания гражданской активности и нравственного сознания.

Ключевые слова: предмет «История Узбекистана», чувство гордости, гордости, извлекать уроки из истории, исторической науки, исторического мышления, общественно активной гражданской компетенции, историко-культурного наследия, национального самосознания, высокой духовности, исторической истории, интерактивного образования, общественности, междисциплинарного подход, цифровые средства, источники, моральное мышление, проектное образование.

DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CIVIL COMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF METHODOLOGICAL IMPROVEMENT OF THE SUBJECT” HISTORY OF UZBEKISTAN»

Teshayev Azizbek Toynor Oglu,
Bukhara State University Doctoral student of the Department of primary education methodology

Abstract: This article discusses the concept of competence, the essence of socially active civic competence, the relevance of improving the methodology for teaching historical science of Uzbekistan on the basis of modern approaches, methods of forming socially active civic competence of students in the process of teaching a historical subject of Uzbekistan, the critical thinking of students in the development of socially active civic competence based on

the «History of Uzbekistan,» the use of effective methods of education of civic activity and moral consciousness.

Key words: subject «History of Uzbekistan,» a sense of pride, pride, to learn lessons from history, historical science, historical thinking, socially active civic competence, historical and cultural heritage, national identity, high spirituality, historical history, interactive education, public, interdisciplinary approach, digital means, sources, moral thinking, project education.

Kirish. Dunyo hamjamiyatida fan va innovatsion faoliyatning yutuqlaridan samarali, ijtimoiy jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Fransiya, Rossiya, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda yuqori darajadagi kasbiy va shaxsiy kompetentlikka ega raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish orqali ularni jamiyatda o'z o'rnini topish, o'z-o'zini faol fuqaro sifatida rivojlantirish masalasiga asosiy yo'nalishi sifatida qaralib, ta'limda innovatsiyalarni, shu jumladan, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etilishi ta'minlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida Oliy ta'lim jarayonlarida talabalarda nazariy bilimlardan kasbiy sohalarida muvaffaqiyatli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, o'z tashabbuslarini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratuvchi ta'lim muhitini joriy qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning dolzarbligi.

Jahonda bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy pedagogik markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda globollashuv sharoitida tarix fanini o'qitishga qo'yilgan davlat talablarida belgilangan talabalarda ijtimoiy jamiyatda shaxs sifatida o'z o'rnini, mavqeiga egalik, qadriyatli yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida tarix fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish orqali ularda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish, innovatsion ta'lim muhitida Milliy va xalqaro ta'lim dasturlaridan integrativ tarzda foydalanib, mazkur kompetentlik ko'nikmasining rivojlanganlik darajasini baholash mezonlarini pedagogik jihatdan ilmiy tadqiqot etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Respublikamizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida kreativ fikrlaydigan, milliy g'oyalarga sodiq, ma'nan va jismonan sog'lom, shaxsiy sifatlarga ega, fuqarolik burch va huquqlarini biladigan, unga rioya qilish, kasbiy mavqeining o'sishiga intilish bilan jamiyatga xizmat qilish kabi hayotiy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni qo'llashga qaratilgan islohotlar natijasida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, ularning mustaqil shaxs sifatida o'z harakatlari uchun javobgarlik, erkin va ijodiy fikrga egalik, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik hamda irodaviylik sifatlarini tarkib toptirishni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan raqobatbardosh ta'lim muhitini tashkil etishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 23-sentabrdagi 75 sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'htalar ekan: «mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit - qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda». O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqiraman» - degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda[1]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida yoshlarimiz faolligi, tashabbuskorligi va ularning ilmiy-ijodiy g'oyalarini qo'llab quvvatlash ishlarini olib borilishi jamiyat ertangi kuni farovonligidan dalolat beradi. Shuning uchun, oliy ta'lim jarayonida O'zbekiston tarixi fanini o'qitish asosida talabalarining ijtimoiy fol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish yoshlarda adolat, huquqiy tenglik, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo'lida eng muhim tashabbuskor omil

hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik, xalqparvarlik, komil inson g'oyalari, jamiyat taraqqiyotida adolat haqidagi qarashlariga oid mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning metodologik asosi sifatida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Homid G'azzoliy, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning pedagogik ta'limotlarida o'z aksini topgan.

Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy - falsafiy masalalari A.Begmatov, A.Mavrulov, G.Tulenova, J.Tulenov, M.Kahharova, E.Yusupov va boshqalarning izlanishlarida tadqiq qilingan. Talaba-yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik masalalari yuzasidan pedagog va psixolog olimlardan B.Adizov, B.Raximov, G.J.Tulenovalar, D.Ro'ziyeva, D.Sharipova, Z.Ismailova, Q.Q.Quranboyev, M.Quronov, M.Maxmudova, N.A.Muslimov, N.Ortiqov, N.Egamberdiyeva, O.Jamoldinova, O.Musurmonova, R.Djurayev, O'Q.Tolipov, U.Mahkamov, X.I.Ibragimov, B.Xodjaye, Sh.Mardonov, Sh.Sharipov, Sh.Akramova, D.Mamatqulov, Sh.Shodmonovalarlarning ilmiy izlanishlarida talabalarda g'oyaviy - mafkuraviy kompetentlikni shakllantirishning nazariy masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Mazkur muammo yuzasidan xorijlik olimlardan A.Amutio, A.Smit, A.Yolanda, K.Franco, L.Breeman, R.Sears, R.O.Rene tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Turli soha olimlari tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish muammosi yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan O'zbekiston tarixi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish asosida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi alohida tadqiq etilmagan.

Mavzu muhokamasi.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitish metodikasi fan dasturi mazmunini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakasini motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida takomillashtirish orqali talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston tarixi fanini o'rganish talabalarni ajdodlarimizning ming yillik madaniy-ma'naviy merosi, jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanishtiribgina qolmasdan, buyuk ajdodlarimiz nomlarini hurmat bilan tilga olish va ular bilan faxrlanish, milliy iftixor va g'urur tuyg'usini singdirishda ham muhim o'rin tutib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur. Buning uchun, avvalo, O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini samarali amalga oshirishimiz lozim.

"O'zbekiston tarixi" fanini o'rganish orqali talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ularga nafaqat tarixiy bilimlar beradigan, balki tanqidiy fikrlash, fuqarolik faolligi va axloqiy ongni tarbiyalovchi samarali metodikalarni ham o'z ichiga oladi. Ushba jarayon tarkibiga O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini oshirish mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida 2017-yil 30-iyunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Mazkur Jamoatchilik kengashida bir qator asosiy vazifalar ijrosini ta'minlash belgilab berildi.

Birinchidan, O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlarini muvofiqlashtirish;

Ikkinchidan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning “o‘zbek modeli” mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bog‘rikenglikni saqlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni, hozirgi dunyoda O‘zbekistonning roli va o‘rnini chuqur o‘rganish va yaqqol ochib berish;

Uchinchidan, ilmiy, o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O‘zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O‘zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqishni ta‘minlash;

To‘rtinchidan, O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha ilmiy, o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, o‘quv dasturlari monitoringini olib borish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot, o‘quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish;

Beshinchidan, fuqarolarda tarixiy xotira, milliyo‘zlikni anglash, yuksak ma‘naviyat, xalqning tarixiy an‘analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko‘maklashish;

Oltinchidan, O‘zbekiston tarixi bo‘yicha zamonaviy chet el ilmiy va o‘quv adabiyotlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hozirgi O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi, sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar to‘g‘risidagi xolis axborotni keng xalqaro jamoatchilikka yetkazish.

Talabalarning ijtimoiy faol fuqarolik malakasini oshirish uchun O‘zbekiston tarixini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda quyidagilarga asoslanish samarali natija beradi:

Birinchi, interfaol ta‘lim: debatlar, rolli o‘yinlar, simulatsiyalar va tarixiy jonlantirishlar kabi interfaol va tajribaviy ta‘lim faoliyatini o‘z ichiga olgan holda an‘anaviy ma‘ruzalar va darsliklardan tashqariga chiqish lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarning tarixiy voqealar bilan faol shug‘ullanishiga va o‘zlarini tarixiy shaxslar o‘rniga qo‘yib, tarixiy ongini rivojlantirishga yordam beradi.

Darslar jarayonida interfaol usullardan foydalanish o‘z mohiyatiga ko‘ra subektiv xususiyatiga ega, ya‘ni har bir tarix fani o‘qituvchisi ta‘lim va tarbiya jarayonini o‘z ustida ishlash, kasbiy mahoratini muntazam oshirgan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda interfaol metodlarga asoslangan darsning turli shakl va vositalaridan foydalanib tashkil etish quyidagi:

- pedagogik faoliyat (ta‘lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- o‘quvchilar tomonidan bilimlarning puxta egallanishini ta‘minlash;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning ehtiyojlarga asoslangan ta‘lim muhitini tashkil etish orqali o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart- sharoitlarni yaratish;
- ta‘lim-tarbiya jarayonida demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlash zarur.

Ikkinchidan, so‘rovga asoslangan ta‘lim: tarixiy voqealar va ularning zamonaviy muammolarga aloqadorligini chuqurroq anglash uchun talabalarni savollar berishga, tadqiqot o‘tkazishga va asosiy manbalarni tahlil qilishga undash kerak. Bu tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va o‘quvchilarga o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishga imkon beradi.

Uchinchidan, jamoatchilik ishtiroki: tarixiy joylar, muzeylar va madaniy tadbirlarga sayohatlar kabi jamoatchilik asosidagi ta‘lim tajribalarini o‘quv dasturiga integratsiyalash lozim. Ushbu tadbirlar talabalarga o‘zlarining madaniy merosi bilan bevosita tanishish imkonini beradi va uni saqlash va targ‘ib qilish uchun g‘urur va mas‘uliyat hissini uyg‘otadi.

To‘rtinchidan, fanlararo yondashuv: tarixiy voqealarning ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatlarini o‘rganish uchun uni sotsiologiya, siyosatshunoslik va antropologiya kabi boshqa fanlar bilan bog‘lash kerak. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarga murakkab tarixiy jarayonlar

va ularning jamiyatga ta'siri haqida yaxlit tushunchani shakllantirishga yordam beradi.

Beshinchidan, raqamli vositalar va manbalar: Tarixni o'qitish va o'rganishni yaxshilash uchun raqamli texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanish zarur. Tarix darslarini talabalar uchun yanada qiziqarli tarzda olib borish uchun multimedia taqdimotlari, interaktiv vaqt jadvallari va raqamli arxivlardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ularga turli nuqtayi nazarlar va axborot manbalarini o'rganish imkonini beradi.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda innovatsion – integratsion yondashuvlarga asoslangan usullarni qo'llash natijasida talabalar ongi va qalbiga milliy istiqloq mafkurasini singdirish, ularga o'tmish tariximiz, umumbashariy qadriyatlarimiz, avlod-ajdodlarimiz haqida puxta bilim berish, mustaqil Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va kamol toptirishni ko'zda tutadi.

Jamiyatimiz va uning ijtimoiy taraqqiyoti O'zbekiston tarixi fani asosini tashkil etib, shu fanning obyekti etib belgilanadi, uning predmeti esa o'tmishda ro'y bergan voqea-hodisalar bo'lib, ular o'zining betakrorligi bilan alohida xususiyatga ega. O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda talabalar ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxlit manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati ham o'ziga xos o'ringa ega.

O'qituvchi o'z mahorati va fanga oid bilimlarga puxta egalik ko'nikmasi asosida talabalarga fanni o'rgatish jaryonida shunday yutuqqa erishishi kerakki, u tomondan bayon qilingan har bir tarixiy fakt, geografik nom va shaxs hayoti, ijodi yoki faoliyati obrazli bo'lishini ta'minlashi shart.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitishda obrazlilik usulidan foydalanish talabalarning yurtimiz tarixi haqida o'zlashtiradigan bilimlarini ilmiy va puxta bo'lishining zarur shartlaridan biridir. Tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish omili, yoshlarni fanga va o'z navbatida yurt tarixiga qiziqishini uyg'otish, tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishning muhim vositasi hisoblanadi.

Tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini talabalar aktiv suratda idrok etishiga qaratilgan usullardan foydalanadi. O'qituvchi hikoyasining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi, darslik matnidagi, tarixiy hujjatlardagi voqealar va tasviriy elementlar, badiiy adabiyot asarlari o'quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, axloqiy mulohaza: tarixiy talqin, xotirlash bilan bog'liq axloqiy masalalar bo'yicha munozaralarni birlashtirish lozim. Talabalarni tarixiy ma'lumotlardagi ba'zi noto'g'ri qarashlar, stereotiplar va kamchiliklarni tanqidiy ko'rib chiqishga va o'z talqinlari va tasavvurlarining axloqiy oqibatlarini ko'rib chiqishga undash zarur.

Yettinchidan, loyihaga asoslangan ta'lim: Talabalardan tarixiy bilimlarini real dunyo kontekstida qo'llashni va zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal qilishni talab qiladigan loyihalarni amalga oshirish lozim. Masalan, talabalar hozirgi siyosiy qarama-qarshiliklarning tarixiy ildizlarini o'rganishlari yoki tarixiy voqealarning madaniy o'ziga xoslik va ijtimoiy uyg'unlikka ta'sirini tahlil qilishlari mumkin.

Sakkizinchidan, global istiqbol: O'zbekiston tarixi fanini o'rganishni boshqa mintaqalar va madaniyatlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirgan holda kengroq global kontekstda olib borish lozim. Bu talabalarga global nuqtayi nazarni rivojlantirishga, dunyo tarixining o'zaro bog'liqligini anglashga, madaniyatlararo tushunish va empatiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Bugungi kunda yurtimiz yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishlarida ularning jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy faol fuqaro sifatida faollashuvi muhim o'rin tutadi. Fuqaro, faol fuqarolik tushunchalari mazmun mohiyati to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq yondashuvlar, turli darvlarda turlicha talqin qilingan. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish ta'limining maqsadi, doimo insonni jamiyatda faol faoliyatga, davlatning ijtimoiy – siyosiy hayotida ishtirok etishga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga intilish bo'lgan. Shunga qaramay, inson hayotida davlat va jamiyatning roli turlicha talqin etilgan.

O'zbekiston tarixi fanini o'qitish metodikasini talabalarning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlariga asoslangan holda innovativ usullar yordamida takomillashtirish orqali: yoshlarni

tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi –ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish;

- talabalarga ijtimoiy demokratik jamiyat qurish g‘oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta’minlash;
- ularda millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g‘oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta’minlash;
- ularni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish;

ular da ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishi «Sen tarixni bilasanmi», «Yangi O‘zbekiston fuqarosi», «Komillik tizimi sizda mavjudmi?» kabi ta’lim loyihalarida faol ishtirokini ta’minlash orqali oshirib borish;

- talabalarni oliy ta’lim muassasalaridagi, «Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish» jarayonida ularda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Talabalar oliy ta’lim muassasasi ijtimoiy hayotida, tashabbuskor va volontyorlik guruhlar, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jamoat tashkilotlari, «Iqtidorli yoshlar» fan klublari faoliyatida jumladan, talabalar, ota-onalar kengashlari faoliyatini rivojlantirish orqali «ta’lim muassasasi talabalari va ota-onalar» o‘rtasida faol hamkorlik muhitini yaratish orqali ko‘zlangan maqsadga yetish mumkin.

O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish jarayonida talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishda ob’ektiv - ta’lim muassasasining demokratik hayot tarzi, uning tarbiyaviy tizimining ochiqligi, ta’lim va tarbiya texnologiyalari hamda sub’ektiv - ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi va pedagoglarning shaxsiy sifatlari kabi sharoitlar orqali rivojlanadi. Ammo, talabalarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish darajasini aniqlash mezonlarini takomillashtirish, jumladan ularda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishni baholovchi bir qator ko‘rsatkichlar, ya’ni:

- inson o‘z hayot faoliyati maqsadini aniq bilishi;
- fuqarolik jamiyatini qadrlashi va ahamiyatini anglashi;
- ijtimoiylashuv ko‘nikmasiga ega bo‘lishi;
- o‘z jamiyatining faol a‘zosi bo‘lishi;
- uning shakllanishi va rivojlanishida faol ishtirok etishi;
- sevimli kasbi va qiziqishlari bo‘lishi;
- funksional kompetensiyalarni egallashi;
- shaxslararo muloqotga kira olishi;
- o‘zining shaxsiy faol fuqarolik pozitsiyasiga asoslangan qobiliyati va tayyorgarligi natijasida kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlay olishi kabi zamonaviy talablarni kiritishni talab etadi.

Xulosa.

Yurtimizda barcha sohada inson qadriga bo‘lgan e’tiborga asoslangan ijtimoiy jamiyatda yoshlarning mustaqil tarzda ijtimoiy, siyosiy qiziqishlari doirasida ularning ijtimoiy faolligi tub islohotlar negizida fuqarolik faoliyatida ishtirok etish va unda o‘z o‘rnini topa olishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga egalik insonning jamiyat hayotida ishtirok etishi zarurligini, jamiyatda o‘z o‘rni va o‘z ovozi borligini to‘g‘ri tushunishi va anglab yetishidir. Zero, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasiga ega bo‘lgan har bir shaxs xususiy va umumiy tarzda atrof-muhitga nisbatan o‘z munosabatini namoyon qila olish ko‘nikmasi va imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston tarixi fanini zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida metodik takomillashtirish orqali fanni o‘qitish natijasida, talabalarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish, ularning madaniy merosga pozitiv munosabatda bo‘lish, tarixiy xotirani saqlash, o‘z yurti tarixi bilan faxrlanish, uni kelajak avlodlarga yetkazishda hissa qo‘shishda faol ishtirok etishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim jarayonida talabalarda faol ijtimoiy fuqarolik kompetentligini tarkib toptirish ularda ijtimoiy qadriyatlarni amalga tatbiq etishga yo‘naltirilgan faoliyat tarzini egallab, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishlari uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalq so'zi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 23 sentyabrdagi BMT 75 sessiyasidagi nufuzi. 2017 y. 24 sentyabr soni

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.–Toshkent: O'zbekiston, 2018.–252-b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2021. -B. 288

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 30.06.2017 yildagi PQ-3105-son. <https://lex.uz/docs/-3251707>

G.Fuzailova. Tarix o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari. Darslik.T.-2020. -B.210.

A. Sagdiyev, G. Fuzailova, M. Hasanova. Tarix o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -Toshkent-2008. -B.24.

Tojiboeva X.M. "O'quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi" diss. 2018 y.

Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T., 2019 y. – 14-b.

Quronboev Q.Q "Talabalarning ma'naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)": Ped.f.n...diss. – T.: O'zPFITI, 2000 y.

Teshayev A. Tarix fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali o'qitish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023/7. ISSN 2181-1709 (P) 4 bet

Teshayev A. Bo'lajak pedagoglarda tarix fanini o'qitish orqali milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish texnologiyalari. Golden brain. ISSN: 2181-4120 volume 1 | issue 26 | 2023

JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARNI TASHKIL QILISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

*Tojiboyev Muzaffar Marufovich
Toshkent tibbiyot akademiyasi assistenti*

*Yunusova Dildora Salixidinovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.058>*

Annotasiya. Maqolada jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda harakatli o‘yinlarning tashkil qilish va o‘tkazishva jismoniy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim o‘yinlarning ahamiyati haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan

Kalit so‘zlar. Jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, metodika, harakatli o‘yinlar, jarayon, tarbiya, xissiyot, tayanch-harakat apparati, mashgulot, o‘yin, harakat, musobaqa, analizatorlar.

METHODOLOGY OF ORGANIZING AND CONDUCTING ACTIVE GAMES FOR THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES

*Tojiboyev Muzaffar Marufovich
Assistant of the Tashkent Medical Academy*

*Yunusova Dildora Salixidinovna
Associate Professor of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

Abstract. The article provides information about the importance of organizing and holding active games in the development of physical qualities in the process of physical education and the importance of important games that serve to educate physical qualities.

Keywords. Physical education, physical quality, methodology, outdoor games, process, musculoskeletal system, classes, movements, competitions, analyzers.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ПОДВИЖНЫХ ИГР ДЛЯ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ

*Тожибоев Музаффар Маруфович
Ассистент Ташкентской Медицинской Академии*

*Юнусова Дильдора Салихидиновна
Доцент Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами*

Аннотация. В статье представлена информация о значении организации и проведения подвижных игр в развитии физических качеств в процессе физического воспитания и значении подвижных игр, служащих воспитанию физических качеств.

Ключевые слова. Физическое воспитание, физическое качество, методика, подвижные игры, процесс, опорно-двигательный аппарат, занятия, движения, соревнования, анализаторы.

Jismoniy sifatlar (tezlik, kuchlilik, chidamlilik, egiluvchanlik va h.k) tushunchasi jismoniy tarbiya mutaxassislari, shu sohadagi talabalar hamda ko‘pchilik sport ixlosmandlariga ma’lum. Shu tufayli ularga batafsil to‘xtalishga hojat bo‘lmasa kerak.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim o‘yinlarning ahamiyati haqida dalillar keltirish maqsadga muvofiqdir.

Tezlikni tarbiyalashga xos o‘yinlar: To‘pli estafeta o‘yinlari, to‘siqliklardan tez sakrab yoki yugurib o‘tish o‘yinlari (“quvnoq startlar” televizion o‘yinlariga e’tibor bering),

“quvlashmashoq”, “bekinmashoq”, “kim tez”, “to‘p kapitanga” kabi harakatli o‘yinlarda tez yugurish talab etilib, burilish, to‘xtab yana yugurish kabi harakatlar ko‘p takrorlanadi. Natijada esa shug‘ullanuvchilarning ko‘rish, eshitish sezgi a‘zolari hamda butun gavda a‘zolaridagi suyak, mushak tizimlarining harakatchanligini ishga soladi. Shu orqali jism tezlik bilan harakat qilishga qodir bo‘ladi. Bunda o‘yinlarni tanlash, tashkil qilish jarayonlarida shug‘ullanuvchilarning yoshi, salomatligiga qarab o‘yin joylariga ham e‘tibor berish kerak.

Kuch sifatini tarbiyalashga doir o‘yinlar: Harakatli o‘yinlar tarkibida kuchni talab etuvchi va bu sifatni tarbiyalovchi o‘yinlar ham ko‘p. Masalan: “yelka urishtirish”, “yelkaga minib tortishish”, “piyoda ko‘pkari”, “arqon tortishish”, “arqonda osilib chiqish”, “yuklarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘tarib o‘tkazish”, “tez o‘tirib turish” kabi o‘yinlarda tezlik va kuchlilik sifatlarining birgalikda ishlatilishini talab qilinadi. Bunda shug‘ullanuvchilarning og‘irlik vazni, jismoniy tayyorgarligi va jinsiga qarab o‘yinlar tanlanadi. Og‘ir va murakkab mashq-harakatlarning ishlatilishi asosan mushaklar va suyak (bug‘inlar) tizimining amaliy faoliyatini kuchaytirish bilan belgilanadi.

Ta’kidlash lozimki, harakatli o‘yinlar orqali kuch sifatlarini tarbiyalashning asosiy maqsadi shundaki, bu barcha yoshdagi kishilarning ijtimoiy mehnat va turmush sharoitida zarur bo‘lgan yumushlarda faol harakat qilishga qaratilishi bilan muhim ahamiyatga egadir. Chunki kuch hayotiy zaruriyatdir.

Chaqqonlik sifati tezlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Shunday bo‘lsada chaqqonlik (epchillik) sifatining hayotiy zaruriyatlari o‘zgacha bo‘ladi. M: to‘p o‘yinlarida ilib olish, yuritish, uzatish, uloqtirish kabi hislatlar shug‘ullanuvchini chaqqon-epchil bo‘lib, harakat qilishga da’vat etadi. Shuningdek, ba’zi to‘siqli joylardan sakrab (irg‘ib), burilishlardan surinmay, yiqilmay o‘tish, tennis to‘plarini uzoqqa otilganda tez ilib olish, ularga etib olish kabi harakatlarda ham epchil-chaqqon bo‘lishlar ko‘rinadi.

Bu sifatni tarbiyalash maqsadida uyushtiriladigan harakatli o‘yinlarni ham shug‘ullanuvchilarning yoshi, jismoniy holati va jinsiga qarab tanlash maqsadli bo‘lishi lozim.

Joylarni tayyorlash, asbob-uskunalardan foydalanish va o‘yinlarni o‘tkazishda shikastlanish, jarohat olish kabi jarayonlarni avvaldan ko‘zda tutish talab qilinadi. Shu sababdan talabalar o‘quv amaliyoti (praktika) jarayonlarida bunday tarbiyaviy xususiyatlarni ko‘ra bilishi va amalda qo‘llay bilishi lozim.

Chidamlilik sifatlarini tarbiyalovchi harakatli o‘yinlar tarkibidagi “eshak mindi”, “chillik” (zuv-zuv), “oq suyak”, “kim kuchli”, “tirmashib chiqish”, “narvonlarda osilish va oshib tushish” kabilarni ko‘rsatish mumkin. Umuman olganda deyarlik barcha harakatli o‘yinlarda bu xususiyat mavjuddir. Ya’ni nafas olishni chuqurlashtirish, tez nafas olayotganda uni sekinlashtirish, tana a‘zolarining charchashi yoki urilish natijasida og‘riqlar paydo bo‘lishida chidash, bardosh berish muhim ahamiyatga egadir. Bunda gavda harakatlari (qo‘llarni yozib, ko‘tarib nafas olish va nafas chiqarish, gavdani egib turish, o‘tirish va h.k) hamda og‘riq joylarni siypalash kabi faoliyatlardan foydalanish chidamlilikni oshirishga yordam beradi.

Chidamlilikni talab etuvchi harakatli o‘yinlarni kichik bolalar (I-II sinf) bilan o‘tkazishda juda ehtiyotkorlik talab etiladi yoki o‘tkazmaslik zarur.

Chidamlilik ham hayot ehtiyoji hisoblanib, u yoki bu sabablar orqali og‘riqlar paydo bo‘lganda yoki ko‘p o‘ynab charchaganda seziladi. Shu sababdan jismoniy jihatdan chiniqtirish yo‘lida chidamlilikka doir maxsus o‘yinlarni tanlash, to‘g‘ri tashkil etish va ular doimo nazoratda bo‘lishi kerak. Ya’ni shug‘ullanuvchilarning o‘yinlar jarayonida shikastlanishi, jarohat olishiga yo‘l qo‘ymaslik zarurdir. Aks holda shug‘ullanuvchilar, ayniqsa o‘quvchi-yoshlar va jismonan zaifroq talabalarda (qizlar ko‘proq uchraydi) o‘yinlardan chetlashish, xohish bildirmaslik hollari yuz beradi. Bu o‘z navbatida jismoniy tarbiya darslari yoki o‘yin jarayonlaridagi musobaqalarning saviyasini pasayishiga sabab bo‘lishi aniqdir. Shu sababdan talabalar ruhiy tetiklik, har qanday sharoitda ham chidash-bardosh berish yo‘llarini chuqurroq o‘zlashtirishlari ma’qul bo‘ladi.

Egiluvchanlik sifati qayishqoqlik xususiyatiga egadir. Ya’ni, gavda bug‘inlari hamda mushaklarning cho‘zilishi va tortilishi juda murakkab jismoniy mashqlarni bajarishni ta’minlaydi. O‘z navbatidayesa tezlik, kuchlilik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarini o‘z ichiga oladi. Masalan: barmoqlarni qisish, tirsak va tizzalarni bukish, orqa va oldinga egilish,

oyoqlarni keng yozib (shpagat) o'tirish kabi harakat-mashqlarda egiluvchanlik, qayta tortilish (tik turish) kabi holatlar ustun turadi. Bunday harakatlar juda ko'p o'yinlar mazmunidan joy olganligi ma'lumdir. Masalan: o'tirg'ichda (gimnastika skameykasi) yotgan holda to'plarni sherigiga uzatish, emaklab yoki qorinda yotgan holda oldinga tortilish kabi estafetali o'yinlarda mazkur jismoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi.

Ta'kidlash lozimki, haraktli o'yinlarda mushaklarning ortiqcha cho'zilishi va bir-biriga to'qnashishi yoki biron joyga urib olishi oqibatida shikastlanish, jarohatlanish hollari yuz berishi mumkin. Shu sababdan bu sifatlarga doir mashqlar-o'yinlarni to'g'ri tanlash, ularni shug'ullanuvchilarning salomatligi, yoshi, jinsiga qarab yuklama (nagruzka) berish lozim. Qiz bolalarda egiluvchanlik xususiyati kuchliroqdir. Shunday bo'lsada yosh bolalarning o'yinlarida nazorat, tegishli yordamlar bo'lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahimqulov K.D., Usmonxo'jayev T.S. «Jismoniy tarbiyadan bolalar va o'smirlar uchun 1000 mashq hamda harakatli o'yinlar. 2001y.
2. Usmonxo'jayev T.S., Xo'jayev F. «1001» o'yin. T.: 1990 y
3. Raximqulov K.D. «Kichik yoshdagi bolalarning qaddi qomatini rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlar va harakatli o'yinlar» 2001 y
4. Harko Brown. Traditional Maori Games. - Copyright © 2006 ear.
5. Maxkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Toshkent-2010
6. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. o'quv qo'llanma O'zDJTI, Toshkent., 2005 yil - 300 b.
7. Xo'jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B «Sport va harakatli o'yinlar va o'qitish metodikasi» (harakatli o'yinlar) O'quv qo'llanma. Toshkent 2008 yil.
8. Adam Goodes. Yulunga: Traditional Indigenous Games. - Sydney 2009 ear.
9. Xojayev P, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B. «Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi» Cho'lpon nashriyoti T.: 2010 y.
10. Active schools. Kori ki te Kura. Games sport New Zealand 2012 ear.
11. Мадалиев Т.А. Особенности взаимосвязи показателей физической подготовленности и физического развития у детей 5 – 6 лет -Казакстан Республикаси билим жене тилим министрлиги. Эдистемелик курал. Шимкент 200 ж.21с.
12. Сейтхалилов Э.А. Педагогические основы оздоровительной на направленности учебно-воспитательного процесса в общеобразовательных школах Узбекистана: Автореферат монография...докт пед наук.- Тошкент 2000 – 60 С.
13. Yunusova D.S. 5-6 Yoshli bolalarni jismoniy tarbiya mashguloti jarayonida harakatli o'yinlar orqali jismoniy sifatlarni hamda jismoniy rivojlanishni ilmiy asoslash Monografiya.- Toshkent 2019 yil 2.3. b.t.

MAKTAB O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI SHAXMATNI O'QITISH JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH VA UNING TAJRIBA-SINOV METODIKASI

Toshev Murodjon Xalilovich

“Sport faoliyati” kafedrası o'qituvchisi. Buxoro davlat universiteti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.059>

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxmatni o'rni, uning oziga xos pedagogik va psixologik didaktik jihatlari tajriba-sinov ishlarida o'rganilib, olingan natijalar tahlil qilingan hamda taklif va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, intellekt, shaxmat, pedagogik, psixologik, didaktik, tajriba-sinov.

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ НАВЫКОВ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ШАХМАТАМ И ЕГО МЕТОДИКА ЭКСПЕРИМЕНТА И ТЕСТИРОВАНИЯ

Тошев Муроджон Халилович

Преподаватель кафедры «Спортивное деятельность»

Бухарского государственного университета

Аннотация: В статье в экспериментальных работах изучаются роль шахмат в развитии интеллектуальных способностей учащихся младших классов, ее уникальные педагогические и психолого-дидактические аспекты, анализируются полученные результаты, высказываются предложения и замечания.

Ключевые слова: шахматы, интеллект, способности, педагогические, психологические, дидактические, проверка опытом.

DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN THE PROCESS OF TEACHING CHESS AND ITS METHODS OF EXPERIMENT AND TESTING

Toshev Murodjon Khalilovich

Teacher of the department «Sports activities» Bukhara State University.

Abstract: The article deals with the role of chess in the development of intellectual abilities of primary school students, its specific pedagogical and psychological didactic aspects in the experimental work, analyses the obtained results, makes suggestions and comments.

Keywords: chess, intelligence, ability, pedagogical, psychological, didactic, verification by experience.

Jahonda xorijiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning negizida o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni maktab ta'lim tizimiga keng ko'llamda tadbiiq etish yotadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxmatni o'ziga xos pedagogik va psixologik didaktik jihatlari mavjudligi ko'plab tadqiqotlarda o'z aksini topgan [4, 551- 559].

Dunyoda shaxmat o'yining bolaning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishiga ta'siri bo'yicha bir qator yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: kognitiv qobiliyat va shaxmat mahorati o'rtasidagi bog'liqlik; maktablarda shaxmatni o'rganish jarayonida egallangan ko'nikmalar matematika, o'qish va umumiy bilim ko'nikmalariga ijobiy o'tishi; shaxmat mashg'ulotlarining maktab o'quvchilarining akademik ko'rsatkichlariga, xususan xotiraga, doimiy e'tibor va ijodkorlikka ta'siri; shaxmat tasavvurni, tahlilni, fikrlash va diqqatning maxsus shakllarini rivojlantirishi va boshqalar bularga misol bo'ladi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar har bir o'quvchining intellektual va ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun eng qulay psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishga asoslangan yangi zamonaviy ta'lim yondashuvlarni va texnologiyalarni, shu jumladan shaxmatni boshlang'ich ta'lim dasturiga bosqichma va bosqich olib qirishga qaratilgan. Bunga Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev tomonidan imzonlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4954-son[1.] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3906-son[2] qarorlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu qarorlarda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, "Maktabda shaxmat" loyihasini amalga oshirish[3], uning doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun shaxmatga o'qitish tizimini yanada rivojlantirish orqali qamrovni yilma-yil oshirib borish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shular bilan bir qatorda, maktabda ta'lim sifatini oshirishda shaxmat fanining nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqishni jadallashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda.

R.G.Safarova inson bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, uning aqliy faoliyatining tajribasi shunchalik mukammallikka ega. U shunchalik ko'p hal etilmagan muammolarni ko'ra oladi, ongidan shunchalik tez echimni talab etuvchi fikriy vazifalar yuzaga keladi, deb aqliy rivojlanishni bilimlarni chuqurlashtirishga bog'laydi. Aqlning muhim sifatlaridan bo'lgan tafakkurga alohida urg'u berib, uning yordamida sezgi, idrokka berilmagan va umuman kuzatish imkoniyati bo'lmagan hodisalarni aqlan hal qilish mumkinligini ta'kidlaydi. [5.240b.]

SH. Sharipov o'z ishlarida zehn, iste'dod aqliy taraqqiyot yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan. Hatto bu borada bank tuzishga ham muvaffaq bo'lgan. «Intellektual potensialni boyitish aqliy zakovatni shakllantirishning ommaviy va shu bilan birga an'anaviy, hech kimning e'tiroziga sabab bo'lmaydigan turlariga diqqatni ko'proq qaratish, imkon darajada ular moddiy-moliyaviy tomonlarini kuchaytirish, ma'lum yutuqqa erishayotgan yoshlarni kengroq rag'batlantirish, ularga tegishli moliyaviy va madaniy muhit yaratish juda katta ahamiyatga ega. [6.307b.]

Rus olimi B. T. Lixachev o'z tadqiqotlarida intellektual rivojlanish - bu intellektual faoliyatning har xil turlarini (nazariy, amaliy, ijodiy, empirik) o'zlashtirish qobiliyati ekanligini ko'rsatib o'tgan[7.607b.]. Psixolog olim Vigotskiy L. S. bolaning intellektual rivojlanishida ikkita darajani ajratdi - hozirgi, shakllangan daraja (aktual doira), yaqin rivojlanish sifati (rivojlanish doirasi). Yaqin rivojlanish doirasi bu bola hali mustaqil bajara olmaydigan, lekin kattalar yordamida uddalay oladigan faoliyat turlari. L. S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiya jarayoni bolaning aktual darajasiga asoslangan bo'lib, bevosita rivojlanish doirasi darajasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak[8.130b.].

YU. K. Babanskiy intellektual ko'nikmalar bolada quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi: fikrni bir joyga jamlagan holda ma'lumotni qabul qilish, o'quv materialini mantiqiy ravishda o'ylash, mustaqil ravishda vazifalarni bajarish, o'zini o'zi boshqarish va boshqalar[9.432b.].

YE. N. Kabanova-Mellerning nuqtai nazari, intellektual rivojlanishning muhim xususiyati aqliy faoliyatning ratsional usullaridan foydalanishdir[10.288b.]. Intellektual rivojlanishning o'ziga xos xususiyati - bu intellektual ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Ularni ikkita guruhga ajratish mumkin: umumiy va maxsus. Umumiy intellektual qobiliyatlarga fikrlarni ifoda etish, tinglash, o'qish, yozish, adabiyot bilan ishlash qobiliyatlari kirs, maxsus ko'nikmalarga matematik fanlar sohasidagi hisoblash qobiliyatlari, musiqa tinglash va notalarni o'qish qobiliyati va shunga o'xshash kiradi. Psixolog olimimiz E. G'oziyevning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida idrok maqsadga muvofiq pertseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada, o'quvchida kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati rivojlanadi. Idrokning rivojlanishi o'qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshadi. Idrokni rivojlantiradigan muhim vositalaridan biri - narsa va hodisalarning o'xshash hamda alomatlarini ajrata olish ko'nikmalarini tarkib toptirishdir[11.224b.].

B. S. Gershunskiy o'zining ilmiy ishlarida «Shaxmat va pedagogika» muammosini, uning

o'ziga xos vazifalarini ko'rib chiqadi va kerakli ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini bayon etadi [12.311b.].

Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda, shaxmat bo'yicha amaliy mashg'ulotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, bunday mashg'ulotlarga o'quvchilar katta qiziqish bilan va faol qatnashadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish darslarni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish, kompyuter texnikasidan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda shaxmatga bo'lgan qiziquvchanlikni rivojlantirish imkonini beradi. Kompyuter dasturlarini metodik qo'llashning, uning psixologik va didaktik jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmatni o'qitish metodikasi davlat ta'lim standartida belgilangan talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi kerak, u quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlashga mo'ljallangan:

- o'quvchi shaxsining rivojlanishi, uning ijodiy qobiliyati, o'qishga bo'lgan qiziqishi, o'rganish istagi va qobiliyatini rivojlantirish. Metodika boshlang'ich sinf o'quvchilarida xotirani mustahkamlash, mantiq, fazoviy fikrlashni rivojlantirish va kognitiv qiziqishni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan o'quv kompyuter dasturlari majmuini o'z ichiga oladi;

- axloqiy va estetik fazilatlarni tarbiyalash, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan ijobiy va estetik sifatlarni tarbiyalash;

- o'quvchining turli faoliyat turlari sub'ekti sifatida shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlashtirish. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv turli toifadagi o'quvchilar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Asosiy bilimlar tizimi darsliklar ichidagi talablar va mazmunga mos keldi. Shu bilan birga, o'quv materialini boshqa o'quvchilarga nisbatan tezroq o'zlashtiradigan faol o'quvchilar uchun qo'shimcha vazifalar va mashqlar to'plami ko'zda tutilgan;

- o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash. Tegishli sanitariya me'yorlari va qoidalaridan ko'chirmalar, maktab o'quvchilarining kompyuter texnikasidan foydalanishda hatti-harakatlarining namunaviy qoidalari va boshqa qoidalar berilgan;

- o'quvchining individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash. O'quv dasturida o'quvchida xolis niyat, raqibga hurmat, ota-ona va sinfdoshlarga muhabbat, fuqarolik vatanparvarligi va boshqalar kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan o'quv materiallari mavjud.

Dastlabki bosqichda maktab o'quvchilarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'ynashga o'rgatishda asosiy o'rinni o'yinning o'zi egallaydi. Maktab o'quvchilarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'ynashga o'rgatish metodikasini ishlab chiqishda deyarli boshidanoq qarama-qarshilik elementlariga, ya'ni raqobatbardoshlikka ega bo'lgan o'yin faoliyatining xususiyatlari hisobga olingan.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan «Qadam va qadam» o'quv kursi kompyuter dasturlaridan foydalangan holda bir o'quv yili davomida 34 soat o'qitish uchun mo'ljallangan. Kurs ikkinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Shaxmat asoslarini o'rganishni istagan o'rta maktab o'quvchilari uchun o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga mos holda tuzilgan dasturlar mavjud. O'quv yilining birinchi choragida, asosan, o'quvchilarning reproduktiv (RT) tayyorgarligi rejalashtiriladi. Ushbu chorakdagi ma'lumotlar umumiy material miqdorining 20 foizini tashkil qiladi. Ikkinchi va uchinchi choraklarda reproduktiv o'qitish hajmi mos ravishda 60 va 40 foizgacha kamayadi va faol (samarali) o'qitish ulushi ortadi. To'rtinchi chorakda passiv (reproduktiv) ta'lim ulushi 20 foiz bo'ladi va faol (samarali) ta'lim ulushi 80 foizga oshadi. Quyidagi jadvalda ta'limning reproduktiv (passiv) va produktiv (faol) o'qitish usullarini choraklar bo'yicha taqsimoti.

1-jadval.

Ta'limning reproduktiv va produktiv o'qitish usullari

O'quv choragi	Reproduktiv ta'lim	Produktiv ta'lim
I	80%	20%
II	60%	40%
III	40%	60%
IV	20%	80%

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuterda ishlash vaqti, «Sanitariya-gigiena normalari va qoidalari» tavsiyalariga ko'ra, yigirma daqiqadan ortiq bo'lishi mumkin emas. «Qadam va qadam» shaxmat kursi quyidagi bosqichlar(qadamlar)ga bo'linadi:

«Qadam va qadam» kursining mazmunli rejasi 2 jadval.

Ta'lim dasturining asosiy mazmuni	Amaliy ko'nikmalar	Intellektual qobiliyatlarning indikatorlari
1. Shaxmat taxtasi bilan tanishuv. Oq va qora katakchalarning joylashuvi. Oq va qora hududlar. Shaxmat taxtasini shartli bo'lish. Vertikallar, gorizontalalar va diagonallar. Maydon manzili	Shaxmat doskasini to'g'ri joylashtirish. Shaxmat taxtasidagi chiziqlar bilan ishlash ko'nikmalari. Katakalar bilan ishlash ko'nikmalari.	Diqqat, tezkor xotira, yordamchi vositalardan foydalanish, tasavvur,
2. Donalarning nomlanishi va belgilanishi. Oq va qora donalar nomi. Shaxmat taxtasida oq va qora katakchalar. Donalarning dastlabki joylashuvi.	O'yin oldidan donalarni to'g'ri joylashtirish	Diqqat, tezkor xotira, yordamchi vositalardan foydalanish, tasavvur,
3. Donalar yurishi va ularni olish. Piyoda, shox, rux, fil, ot. Piyoda, shox, rux, fil, ot bilan olish.	Donalar bilan yurish va ularni olish ko'nikmalari	Rejalashtirish, tezkor xotira, mantiqiy fikrlash, tasavvur,
4. Donalarning nisbiy qiymati. Donalar qiymati. Donalarning nisbiy qiymati. Donalarning joylashuviga (doska cheti, doska markazi) bog'liq holda donalarning nisbiy qiymati.	Donalarning nisbiy qiymati aniqlash bo'yicha ko'nikmalar	mantiqiy fikrlash, rejalashtirish, mustaqil bajarish
5. Piyodaning imkoniyatlari. Piyodaning o'ziga xos yurushlari. Piyodani boshqa sipohga aylanishi. Piyodani yo'lakda yurishi.	Piyodani yurish, olishi va boshqa sipohga aylanishi bo'yicha ko'nikmalarning shakllanishi	Rejalashtirish, basharot qila olish, mantiqiy fikrlash, tasavvur
6. O'yin mazmuni va maqsadi. Yutuq, durang yoki mag'lubiyat. Nima uchun donalarni siljitish kerak? Raqibni qanday yutish kerak, shoxni qanday asirga olish mumkin? Yutuq, durang, mag'lubiyat nimani anglatadi? Durang	har bir dona bilan alohida va boshqa donalar bilan hamkorlikda o'ynash ko'nikmalarini	Rejalashtirish, basharot qila olish, mantiqiy fikrlash,

7. O'yin boshlanishi. Debyut. Debyutning asosiy tamoyillari. Markaz roli. Yengil va og'ir Donalar tushunchasi. Markazning piyoda va yengil donalarini nazorat qilish. Debyutda yurishlarning tartibi. Debyutning asosiy tamoyillari. Donalarning rivojlanishi. Yengil donalarning rivojlanishi. Yengil donalarning maqsadga yo'naltirilgan chiqishi. Markazning foydali ochilishi. O'yin boshida tempni yo'qotish tushunchasi. Birinchi harakat va tashabbusning afzalligi. Debyutda faollik. Markazni egallash,

figuralarni rivojlantirish,
rokirovkani bajarish
(uzun va qisqa), Rejalashtirish,
tezkor xotira,
basharot qila olish,
o'z - o'zini boshqarish,

mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash

8. O'yinning oxiri. Endshpil'. O'yinning oxiri nima? Endshpilning maqsadi va vazifasi. Endshpilda asosiy harakatlar. O'yin oxirida shohning faolligi. Piyodani farzga olib kelish. Yolg'iz qolgan shohni turli Donalar bilan taslim qilish.- shox e'lon qilish;

- mot qilish;
- pot (durang) qilish.
- bir yurishda mot.

Rejalashtirish,

tezkor xotira,

basharot qila olish,

o'z - o'zini boshqarish,

mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash

Yakuniy natija «FIDE qoidalari bo'yicha shaxmat donalari bilan yurishni bilish». Buning natijasida quyidagi

ko'nikma va malakalar shakllanadi:

- shaxmat doskasini to'g'ri joylashtirish;
- shaxmat doskasida donalarni to'g'ri joylashtirish;
- donalar bilan to'g'ri yurish;
- o'yinni to'g'ri boshlash;
- shohga mot qo'yish – partiyani boshidan oxirigacha o'ynash;
- shaxmat doskasida qoidalariga rioya qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda o'quvchilar diqqatini shaxmat donalarning hozirgi holatiga emas, balki ularning munosabatlariga va shaxmat taxtasida harakat qilish imkoniyatlariga qaratilishi muhim. Shu bilan birga, har bir pozitsiyada o'yinning eng kuchli, eng samarali davomini topish vazifasi qo'yiladi.

Shaxmat o'yinida o'quvchilar tomonidan ko'p uchraydigan xatolar quyidagicha: donalarni almashtirib qo'yish, o'z donalarni himoyasiz qoldirish, donalarning kuchini yetarlicha baholamaslik, xavf xatarni to'g'ri baholamaslik, yurish variantlarini ko'ra olmaslik va boshq.

Bularning barchasi nafaqat fazoviy tasavvurni takomillashtirish, balki maktab o'quvchilarining boshqa ruhiy fazilatlarini: tezkor xotira, diqqat va mantiqiy fikrlashi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

«Qadam va qadam» kursi shaxmatni o'zlashtirishning birinchi darajasi hisoblanib, shaxmat o'yinining asosiy tushunchalari bilan tanishtirishga mo'ljallangan. Ta'lim shaxmat o'yinini endi o'ynashni boshlovchilar uchun mo'ljallangan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxmat o'yini tushunchalari bilan tanishishadi.

Barcha didaktik o'yinlar va topshiriqlar shaxmat taxtasida o'ynashda shaxmatchilar duch keladigan u yoki bu real vaziyatni o'quvchilar uchun qulay tarzda modellashtiradi. Shu bilan birga, barcha o'yinlar va vazifalar ko'ngilochar va tarbiyaviy bo'lib, mantiqiy fikrlash va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga samarali yordam beradi.

Boshlang'ich darajadagi o'qitish quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan: o'yin qoidalarini bilish, o'yin maqsadini tushunish va o'ynay olish (barcha donalarning harakatlanishi, mumkin bo'lmagan harakat, figura olish, shaxmat o'yinining maqsadi, shaxmat o'ynash qobiliyati).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Гершунский Б.С. Шахматы - школе будущего // Образователно-педагогическая прогностика: Теория, методология, практика. - М.: Флинта: Наука, 2003. - С. 298 – 311.

2. Тошев М. Х. Мактаб ўқувчиларини шахматга тайёрлашнинг шакллари: 10.53885/edinres. 2021.44. 19.065 MX Тошев БухДУ таянч докторанти //Научно-практическая конференция. – 2021.

3.Halilovich T. M. The role of chess in the development of intellectual abilities of secondary school students (based on computer technology) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1254-1258.

TALABALARNI EVRISTIK FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TABIATDA KUCHLAR VA ULAR TA'SIRIDA JISMLARNING HARAKATI

Toshev Salimjon Nurboboyevich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti fizika o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.060>

Annotatsiya: Tabiatning to'rtta asosiy kuchi koinotdagi har qanday o'zaro ta'sirning negizidir. To'rtta asosiy kuch har kuni bizga ta'sir qiladi, biz buni sezamizmi yoki yo'qmi. Basketbol o'ynashdan tortib, koinotga raketa uchirishgacha, muzlatgichingizga magnit yopishtirishgacha – har kuni biz boshdan kechiradigan barcha kuchlarni tanqidiy to'rtlikka tushirish mumkin: tortishish, kuchsiz kuch, elektromagnetizm va kuchli kuch. Bu kuchlar koinotda sodir bo'layotgan hamma narsani boshqaradi. Koinotdagi har bir atomning ichida ulkan sir yashiringan.

Tabiatning to'rtta asosiy kuchi - tortishish kuchi, zaif yadro kuchi, elektromagnit kuch va kuchli yadro kuchi. Zaif va kuchli kuchlar faqat juda qisqa diapazonda ta'sir qiladi va faqat subatomik zarralar darajasida hukmronlik qiladi. Gravitatsiya va elektromagnit kuch cheksiz diapazonga ega. Keling, ularning har birini batafsil ko'rib chiqaylik.

Tayanch so'z va iboralar: Gravitatsion kuch, tortishish kuchi, zaifyadro kuchi, elektromagnit kuch, kuchli yadro kuchi, tashqi kuch ta'sirida jismlarning harakati, kuchlarning teng ta'sir etuvchisini aniqlash, Kuchlarni x va y o'qlardagi proyeksiyasini aniqlash.

FORCES IN NATURE AND MOVEMENT OF BODIES UNDER THEIR INFLUENCE IN DEVELOPING THE HEURISTIC ACTIVITY OF STUDENTS

Toshev Salimjon,
Shahrisabz State Pedagogical Institute's physics teacher

Abstract: The four fundamental forces of nature are the basis of every interaction in the universe. Four fundamental forces affect us every day, whether we realize it or not or not. From playing basketball to launching rockets into space to attaching magnets to your refrigerator, all the forces we experience every day can be reduced to a critical four: gravity, the weak force, electromagnetism, and the strong force. These forces control everything that happens in the universe. Inside every atom in the universe lies a great secret.

The four fundamental forces of nature are gravity, the weak nuclear force, the electromagnetic force, and the strong nuclear force. The weak and strong forces act only over a very short range and dominate only at the level of subatomic particles. Gravitational and electromagnetic forces have an infinite range. Let's look at each of them in detail.

Key words: Gravitational force, gravitational force, weak nuclear force, electromagnetic force, strong nuclear force, movement of bodies under the influence of an external force, determining the equal effector of forces, determining the of forces on the x and y axes.

СИЛЫ В ПРИРОДЕ И ДВИЖЕНИЕ ТЕЛ ПОД ИХ ВОЗДЕЙСТВИЕМ В РАЗВИТИИ ЭВРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Тошев Салимжон Нурбобоевич,
преподаватель физики Шахрисабзского
государственного педагогического института

Аннотация: Четыре фундаментальные силы природы лежат в основе любого взаимодействия во Вселенной. Четыре фундаментальные силы влияют на нас каждый день, осознаем мы это или нет. От игры в баскетбол до запуска ракет в космос и крепления магнитов к холодильнику — все силы, с которыми мы испытываем каждый день, можно свести к критическим четырем: гравитация, слабое взаимодействие, электромагнетизм и сильное взаимодействие. Эти силы управляют всем, что происходит во Вселенной. Внутри каждого атома во Вселенной скрыта великая тайна.

Четыре фундаментальные силы природы — это гравитация, слабое ядерное взаимодействие, электромагнитное взаимодействие и сильное ядерное взаимодействие. Слабые и сильные взаимодействия действуют только на очень коротком расстоянии и доминируют только на уровне субатомных частиц. Гравитационные и электромагнитные силы имеют бесконечный диапазон. Давайте рассмотрим каждый из них подробно.

Ключевые слова : Гравитационная сила, гравитационная сила, слабое ядерное взаимодействие, электромагнитная сила, сильное ядерное взаимодействие, движение тел под действием внешней силы, определение равнодействия сил, определение проекции сил на x и y топоры.

Fizika darslarida fizik jarayonlarni vizuallashtirish asosida talabalarning evristik faolligini rivojlantirish metodikasi uchun uslubiy shart-sharoitlar yaratish muammosiga bag'ishlangan. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy o'quv jarayoni talabalarning evristik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uslubiy ishlanmalar bilan etarli darajada ta'minlangan, ammo zamonaviy universitumlarda fizika darslarida evristik qobiliyatlarni rivojlantirishga amalda e'tibor berilmaydi. Evristik ta'lim aniq tayyor bilimlarni rad etishni, shuningdek ularni qayta ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi; hamma narsa zamonaviy hayot va ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida tezda eskirib ketadigan har qanday ma'lumotni olish va qidirishga asoslangan. Shunga ko'ra, shaxsga shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi talablar qo'yiladi, shuning uchun talabalar unga jamiyat talablariga javob berishga yordam beradigan fazilatlarni, ya'ni zukkolik, tashabbuskorlik, tez, ammo to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak; bu fazilatlarning barchasi ishga ijodiy yondashish qobiliyatisiz mumkin emas. Zamonaviy universitet zamonaviy dunyoning rivojlanish sharoitlarining o'zgaruvchanligiga aniq javob berishi kerak, chunki u talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan va ularda faol, doimiy pozitsiyani singdirishga yordam beradigan resurslarni yaratishga turtki berishi mumkin.

Tabiatning to'rtta asosiy kuchi koinotdagi har qanday o'zaro ta'sirning negizidir. To'rtta asosiy kuch har kuni bizga ta'sir qiladi, biz buni sezamizmi yoki

yo'qmi. Basketbol o'ynashdan tortib, koinotga raketa uchirishgacha, muzlatgichingizga magnit yopishtirishgacha – har kuni biz boshdan kechiradigan barcha kuchlarni tanqidiy to'rtlikka tushirish mumkin: tortishish, kuchsiz kuch, elektromagnetizm va kuchli kuch. . Bu kuchlar koinotda sodir bo'layotgan hamma narsani boshqaradi. Koinotdagi har bir atomning ichida ulkan sir yashiringan.

Tabiatning to'rtta asosiy kuchi - tortishish kuchi, zaif yadro kuchi, elektromagnit kuch va kuchli yadro kuchi. Zaif va kuchli kuchlar faqat juda qisqa diapazonda ta'sir qiladi va faqat subatomik zarralar darajasida hukmronlik qiladi. Gravitatsiya va elektromagnit kuch cheksiz diapazonga ega. Keling, ularning har birini batafsil ko'rib chiqaylik.

To'rtta asosiy kuch va ularning kuchli tomonlari

Gravitatsion kuch zaif, lekin ta'siri juda uzoq masofaga ega. Bundan tashqari, u har doim o'ziga tortadi. U koinotdagi har qanday ikkita materiya bo'lagi orasida harakat qiladi, chunki massa uning manbai.

Gravitatsion kuch

U koinotdagi har qanday ikkita materiya bo'lagi orasidagi kuch



Gravitatsiya - bu massa yoki energiyaga ega bo'lgan ikkita jism o'rtasidagi tortishish, bu ko'prikdan toshni tushirishda, yulduz atrofida aylanayotgan sayyora yoki okean to'lqinlarini keltirib chiqaradigan oyda ko'rinadi. Gravitatsiya, ehtimol, asosiy kuchlarning eng intuitiv va tanishi, ammo uni tushuntirish eng qiyinlaridan biri bo'lgan. Isaak Nyuton birinchi bo'lib gravitatsiya g'oyasini ilgari surgan, go'yoki olma daraxtdan tushganidan ilhomlangan. U tortishish kuchini ikki jism o'rtasidagi so'zma-so'z tortishish deb ta'riflagan. Asrlar o'tib, Albert Eynshteyn o'zining umumiy nisbiylik nazariyasi orqali tortishish tortishish yoki kuch emasligini aytdi. Buning o'rniga, bu ob'ektlarning fazo-vaqt egilishining natijasidir. Katta ob'ekt fazo-vaqt bo'yicha ishlaydi, xuddi varaqning o'rtasiga qo'yilgan katta to'p bu materialga qanday ta'sir qiladi, uni deformatsiya qiladi va varaqdagi boshqa kichikroq narsalarni o'rtaga tushishiga olib keladi. Gravitatsiya sayyoralar, yulduzlar, quyosh tizimlari va hatto galaktikalarni bir-biriga bog'lab tursa-da, u asosiy kuchlarning eng zaifi bo'lib chiqadi, ayniqsa molekulyar va atom miqyosida. Buni shunday o'ylab ko'ring: to'pni erdan ko'tarish qanchalik qiyin? Yoki oyog'ingizni ko'tarish uchunmi? Yoki sakrash uchunmi? Bu harakatlarning barchasi butun Yerning tortishish kuchiga qarshi turadi. Va molekulyar va atom darajasida tortishish boshqa asosiy kuchlarga nisbatan deyarli ta'sir qilmaydi.

Zaif yadroviy kuch

Zaif kuch radioaktiv parchalanish va neytrinolarning o'zaro ta'siri uchun javobgardir. Bu juda qisqa diapazonga ega va nomidan ko'rinib turibdiki, u juda zaif. Zaif kuch Beta-parchalanishiga olib keladi, ya'ni neytronning proton, elektron va antineytrinoga aylanishi. Zaif yadroviy o'zaro ta'sir deb ham ataladigan kuchsiz kuch zarrachalarning parchalanishi uchun javobgardir. Bu subatomik zarralarning bir turining boshqasiga tom ma'noda o'zgarishi. Masalan, neytronga yaqin joylashgan neytrino neytronni protonga, neytrino esa elektronga aylanishi mumkin.

Fiziklar bu o'zaro ta'sirni bozonlar deb ataladigan kuch tashuvchi zarralar almashinuvi orqali tasvirlaydilar. Bozonlarning o'ziga xos turlari zaif kuch, elektromagnit kuch va kuchli kuch uchun javobgardir. Kuchsiz kuchda bozonlar W va Z bozonlari deb ataladigan zaryadlangan zarralardir. Protonlar, neytronlar va elektronlar kabi subatomik zarralar bir-biridan 10^{-18} metr yoki proton diametridan 0,1% masofaga kelganda, ular bu bozonlarni almashishlari mumkin. Natijada, subatomik zarralar parchalanib, yangi zarrachalarga aylanadi. Zaif kuch quyoshni quvvatlaydigan va Yerdagi ko'pgina hayot shakllari uchun zarur bo'lgan energiyani ishlab chiqaradigan yadro sintezi reaksiyalari uchun juda muhimdir. Aynan shuning uchun arxeologlar uglerod-14 dan qadimgi suyak, yog'och va boshqa ilgari tirik bo'lgan artefaktlarni aniqlash uchun foydalanishlari mumkin. Uglerod-14 oltita proton va sakkiz neytronga ega; bu neytronlardan biri protonga parchalanib, yetti proton va yetti neytronga ega azot-14 hosil qiladi. Bu parchalanish prognoz qilinadigan tezlikda sodir bo'lib, olimlarga bunday artefaktlar qancha eski ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Elektromagnit kuch

Elektromagnit kuch elektr va magnit ta'sirlarni keltirib chiqaradi, masalan, elektr zaryadlari o'rtasidagi itarilish yoki tortishish o'zaro ta'siri. U uzoq masofali, lekin kuchli kuchdan ancha zaifroq. U faqat elektr zaryadini o'tkazuvchi materiya qismlari orasida harakat qiladi. Elektr, magnit va yorug'lik bu kuch tomonidan ishlab chiqariladi. Lorents kuchi deb ham ataladigan elektromagnit kuch zaryadlangan zarralar, masalan, manfiy zaryadlangan elektronlar va musbat zaryadlangan protonlar o'rtasida ta'sir qiladi. Qarama-qarshi zaryadlar bir-birini tortadi, xuddi zaryadlar esa qaytaradi. Zaryad qancha ko'p bo'lsa, kuch shunchalik katta bo'ladi. Va tortishish kuchi kabi, bu kuchni cheksiz masofadan his qilish mumkin (garchi bu masofada kuch juda, juda kichik bo'lsa ham). Nomidan ko'rinib turibdiki, elektromagnit kuch ikki qismdan iborat: elektr quvvati va magnit kuch.

Dastlab, fiziklar bu kuchlarni bir-biridan alohida ta'riflashdi, ammo keyinchalik tadqiqotchilar ikkalasi bir kuchning tarkibiy qismlari ekanligini tushunishdi. Elektr komponenti zaryadlangan zarrachalar o'rtasida harakat qiladi yoki harakatsiz bo'ladimi, bu zaryadlar bir-biriga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan maydon hosil qiladi. Ammo harakatga kelgandan so'ng,

bu zaryadlangan zarralar ikkinchi komponent - magnit kuchni ko'rsata boshlaydi. Zarrachalar harakatlanayotganda atrofida magnit maydon hosil qiladi. Shunday qilib, elektronlar kompyuteringizni yoki telefoningizni zaryad qilish yoki televizoringizni yoqish uchun simni kattalashtirganda, masalan, sim magnitlangan bo'ladi. Elektromagnit kuchlar zaryadlangan zarralar o'rtasida yorug'likning zarracha komponentlari bo'lgan fotonlar deb ataladigan massasiz, kuch-tashuvchi bozonlarning almashinuvi orqali o'tkaziladi. Zaryadlangan zarralar o'rtasida almashinadigan kuch-tashuvchi fotonlar fotonlarning boshqacha ko'rinishidir. Noksvilldagi Tennessi universiteti ma'lumotlariga ko'ra, ular virtual va aniqlanmaydi, garchi ular texnik jihatdan haqiqiy va aniqlanishi mumkin bo'lgan versiya bilan bir xil zarralardir. Elektromagnit kuch eng ko'p uchraydigan hodisalar uchun javobgardir: ishqalanish, elastiklik, normal kuch va qattiq jismlarni ma'lum bir shaklda ushlab turadigan kuch. U hatto qushlar, samolyotlar va hatto Supermen uchish paytida boshdan kechiradigan tortishish uchun javobgardir. Bu harakatlar zaryadlangan (yoki neytrallangan) zarralarning bir-biri bilan o'zaro ta'siri tufayli sodir bo'lishi mumkin. Kitobni stol ustida ushlab turadigan oddiy kuch (tortishish kuchi o'rniga kitobni yerga tortadi), masalan, jadval atomlaridagi elektronlarning kitob atomlaridagi elektronlarni qaytarishining natijasidir.

Kuchli yadroviy kuch

Kuchli o'zaro ta'sir juda kuchli, lekin juda qisqa masofada ta'sir qiladi. U atomlarning yadrolarini birga ushlab turish uchun javobgardir. Kuchli kuch glyuonlar deb ataladigan zarralar tomonidan «tashiladi»; ya'ni ikkita zarracha kuchli kuch orqali o'zaro ta'sirlashganda, ular buni glyuonlarni almashish orqali amalga oshiradilar. Shunday qilib, protonlar va neytronlar ichidagi kvarklar kuchli yadroviy kuch almashinuvi orqali bir-biriga bog'langan.

Eslatma: Ular bir-biriga yaqin bo'lganda, kvarklar juda zaif kuchga ega, lekin ular bir-biridan ajratilganda, ular orasidagi kuch tez o'sib, ularni bir-biriga tortadi. Ikki kvarkni to'liq ajratish uchun har qanday mumkin bo'lgan zarracha tezlatgichi berishi mumkin bo'lganidan ancha ko'proq energiya talab qilinadi.

Taxminlarga ko'ra, dastlab koinotda harorat juda yuqori bo'lganida (Plank shkalasi) barcha to'rtta kuch yagona kuchga birlashgan. Keyin harorat pasayganda, birinchi navbatda tortishish, keyin esa qolgan 3 ta kuch ajralib chiqdi. Shunda ham kuchsiz, elektromagnit va kuchli kuchlar yagona kuchga birlashtirildi. Harorat pasayganda, bu kuchlar bir-biridan ajralib chiqdi, birinchi navbatda kuchli kuch ajralib chiqdi, keyin esa hali ham pastroq haroratda elektromagnit va kuchsiz kuchlar ajralib, bizni hozirgi koinotimizda ko'rib turgan 4 ta aniq kuch bilan qoldirdi. Kuchlarning bir-biridan ajralish jarayoniga o'z-o'zidan simmetriya buzilishi deyiladi.

Kuchli yadro kuchi

Kuchli yadroviy kuch, shuningdek, kuchli yadroviy o'zaro ta'sir, tabiatning to'rtta asosiy kuchining eng kuchlisidir. HyperPhysics veb-saytiga ko'ra, bu tortishish kuchidan 6 ming trillion trillion (bu 6dan keyin 39 nolga teng!) marta kuchliroqdir. Buning sababi shundaki, u materiyaning asosiy zarralarini bir-biriga bog'lab, kattaroq zarrachalarni hosil qiladi. U proton va neytronlarni tashkil etuvchi kvarklarni birga ushlab turadi va kuchli kuchning bir qismi atom yadrosining proton va neytronlarini ham birga ushlab turadi. Kuchsiz kuchga o'xshab, kuchli kuch faqat subatomik zarralar bir-biriga juda yaqin bo'lganda ishlaydi. Ular bir-biridan 10-15 metr masofada yoki taxminan proton diametrida bo'lishi kerak. Kuchli kuch boshqa asosiy kuchlardan farqli o'laroq, subatomik zarralar bir-biriga yaqinlashganda zaiflashadi. Fermilab ma'lumotlariga ko'ra, zarralar bir-biridan eng uzoqda bo'lganda, u aslida maksimal kuchga etadi. Glyuonlar deb ataladigan massasiz zaryadlangan bozonlar diapazonga yetib borgach, kvarklar orasidagi kuchli kuchni uzatadi va ularni bir-biriga «yopishib» turadi. Qoldiq kuchli kuch deb ataladigan kuchli kuchning kichik bir qismi protonlar va neytronlar o'rtasida harakat qiladi. Yadrodagi protonlar o'xshash zaryad tufayli bir-birini itaradi, ammo qoldiq kuchli kuch bu itarilishni yengib o'tishi mumkin, shuning uchun zarralar atom yadrosida bog'lanib qoladi.

To'rtta asosiy kuchlar haqidagi eng muhim savol shundaki, ular haqiqatan ham koinotning yagona buyuk kuchining namoyon bo'lishimi yoki yo'qmi? Agar shunday bo'lsa, ularning har biri boshqalar bilan birlasha olishi kerak va buning mumkinligiga dalillar allaqachon mavjud.

Garvard universiteti fiziklari Sheldon Glashov va Stiven Vaynberg va London Imperial kollejidan Abdus Salam 1979 yilda elektromagnit kuchni kuchsiz kuch bilan birlashtirgani

uchun fizika bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lishdi. Katta birlashgan nazariyani topish ustida ishlayotgan fiziklar modellar bashorat qilgan, ammo tadqiqotchilar hali kuzatmagan elektron yadroviy kuchni aniqlash uchun elektrozaif kuchni kuchli kuch bilan birlashtirishga harakat qilmoqdalar. Jumboqning yakuniy qismi hamma narsaning nazariyasini, butun koinotni tushuntira oladigan nazariy asosni ishlab chiqish uchun tortishish kuchini elektron yadro kuchi bilan birlashtirishni talab qiladi. Ammo fiziklar mikroskopik dunyoni makroskopik dunyo bilan birlashtirishni juda qiyin deb topdilar. Katta va ayniqsa astronomik miqyoslarda tortishish kuchi ustunlik qiladi va Eynshteynning umumiy nisbiylik nazariyasi tomonidan eng yaxshi tasvirlangan. Ammo molekulyar, atom yoki subatomik miqyosda kvant mexanikasi tabiiy dunyoni eng yaxshi tasvirlaydi. Va hozirgacha hech kim bu ikki dunyoni birlashtirishning yaxshi usulini o'ylab topmagan. Kvant tortishishini o'rganuvchi fiziklar kuchni kvant olami nuqtai nazaridan tasvirlashni maqsad qilgan, bu esa birlashtirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvning asosi tortishish kuchining nazariy kuchini ko'taruvchi bozon bo'lgan gravitonlar kashf etilishi bo'ladi. Gravitatsiya fiziklar hozirda kuch-tashuvchi zarrachalardan foydalanmasdan tasvirlay oladigan yagona asosiy kuchdir. Ammo boshqa barcha asosiy kuchlarning tavsifi kuch-tashuvchi zarralarni talab qilganligi sababli, olimlar gravitonlar subatomik darajada mavjud bo'lishi kerak deb hisoblashadi - tadqiqotchilar bu zarralarni hali topa olishmadi. Hikoyani yanada murakkablashtiradigan narsa - koinotning taxminan 95% ni tashkil etadigan qorong'u materiya va qorong'u energiyaning ko'rinmas sohasi. Qorong'u materiya va energiya bitta zarradan yoki o'z kuchlari va xabarchi bozonlariga ega bo'lgan butun zarrachalar to'plamidan iboratmi, aniq emas. Hozirgi qiziqishning asosiy xabarchi zarrasi ko'rinadigan va ko'rinmas olam o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarda vositachilik qiladigan nazariy qorong'u fotonidir. Agar qorong'u fotonlar mavjud bo'lsa, ular qorong'u materiyaning ko'rinmas dunyosini aniqlashning kaliti bo'lardi va beshinchi asosiy kuchning kashf etilishiga olib kelishi mumkin. Biroq, hozircha, qorong'u fotonlar mavjudligi haqida hech qanday dalil yo'q va ba'zi tadqiqotlar bu zarralar yo'qligi haqida kuchli dalillarni taqdim etdi.

Tashqi kuchlar ta'sirida jismlarning harakati

1. Jarayonni anglab tushunib olib tasavvurda shakllantirish va chizmasini chizib olish

Zaif kuch


Zaif kuch quyoshni quvvatlaydigan va Yerdagi ko'pgina hayot shakllari uchun zarur bo'lgan energiyani ishlab chiqaradigan yadro sintezi reaksiyalari uchun juda muhimdir



Elektromagnit kuch


Elektromagnit kuch elektr va magnit ta'sirlarni keltirib chiqaradi

U faqat elektr zaryadini o'tkazuvchi materiya qismlari orasida harakat qiladi.



Kuchli yadroviy kuch

Yadrodagi protonlar va neytronlar ichidagi kvarklar kuchli yadroviy kuch almashinuvi orqali bir-biriga bog'langan.



Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

Andreev, V. I. Ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun pedagogik evristika [Matn] / V. I. Andreev. - Qozon: Innovatsion texnologiyalar markazi, 2015. - 288 p.

Xutorskoy, A.V. Talabalarning evristik qobiliyatlari tuzilishi [Matn] / A.V. Xutorskoy // Qobiliyatlar psixologiyasi: Hozirgi holat va tadqiqot istiqbollari: ilmiy materiallar. konf., bag'ishlangan V.N.Drujinin xotirasiga. – M.: "RAS Psixologiya instituti" nashriyoti, 2005. –

B.72-75.

Xutorskoy, A.V. Talaba bilim manbai sifatida: evristik faoliyatni tashkil etish texnologiyasi [Matn] / A.V. Xutorskoy // Talabalar va maktab o'quvchilarining kognitiv faolligini rag'batlantirish: Universitetlararo ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari / ch. ed. I.P.Andriadi. – M.: MGPU, 2002. – B.12-16.

Xutorskoy, A.V. Evristik usullar innovatsion o'qitish vositasi sifatida [Matn] / A.V.Xutorskoy // O'rta maktablarda innovatsiyalar. O'qitish usullari. Ilmiy ishlar to'plami / ch. ed. A. V. Xutorskoy. – M.: GNU ISMO RAO, 2006. – B.108-118.

Xutorskoy, A. V. Evristik ta'lim o'quvchilarning ijodiy o'zini-o'zi anglash texnologiyasi va ularning hayotdagi muvaffaqiyatining zaruriy sharti sifatida [Elektron resurs] // «Eidos» Internet jurnali. 2006. URL: <http://www.eidos.ru/journal/2006/0829.htm> (kirish sanasi: 03/18/2018).

Xutorskoy, A.V. Evristik ta'lim: nazariya, metodologiya, amaliyot [Matn] / A.V.Xutorskoy. – M.: Xalqaro Pedagogika Akademiyasi, 1998. – 266 b.

Soxibov A.R.-“Ta'limning interfaol usullari”. O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi-2020.-175 b.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Toshpulatova Aziza Toyirovna

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.061>

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalar talabalarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik psixologik xususiyatlari, talabalarni tayyorlashda innovatsion muhit tizimining didaktik-tashkiliy aspektlari hamda zamonaviy usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, yoshlar, innovatsiya, texnologiya, kompetensiya, pedagogik vosita.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБЩИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

Ташпулатова Азиза Тойировна

Преподаватель Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов физического воспитания и спорта

В данной статье затронуты педагогические и психологические особенности развития общекультурных компетенций студентов высших учебных заведений, дидактико-организационные аспекты системы инновационной среды в обучении студентов, современные методы.

Ключевые слова: образование, молодежь, инновации, технологии, компетентность, педагогический инструмент.

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Toshpulatova Aziza Toyirovna

Teacher of the Samarkand branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Physical Education and Sports Specialists

In this article, pedagogical and psychological features of the development of general cultural competences of students of higher educational institutions, didactic-organizational aspects of the system of innovative environment in training students, and modern methods are mentioned.

Key words: education, youth, innovation, technology, competence, pedagogical tool.

Kirish. O'zbekistonda zamonaviy oliy ta'limi tizimi islohot bosqichidadir: uzluksiz yagona kasbiy ta'lim tizimni yaratish, mahalliy va xalqaro ta'lim xizmatlari bozori integratsiyasi va oliy ta'lim muassasasi (OTM) ning innovatsion salohiyatini rivojlantirish hisoblanib, bular birgalikda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. OTM faoliyatining yakuniy natijasi, mobil kasbiy-komponentli, mintaqa, mamlakat va xorijdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda qanday harakat qilishni biladigan malakali mutaxassisni tayyorlashdir. Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti (DTS) ni amalga oshirish, an'anaviy oliy ta'limdan komponentli ta'lim va tarbiyaning modeliga o'tishga qaratilgan, shuningdek kasbiy ta'lim sifatini o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu masalalar ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlari orqali ko'rib chiqiladi:

standartlar va dasturlar;

ta'lim sifatini nazorat qilish tizimlari;

ilmiy va pedagogik kadrlarning malakasi, ta'lim xizmatlari sifati, ta'lim sharoitlari, talabalarining o'z-o'zini rivojlantirishi va ta'lim natijalaridir.

Rivojlanayotgan va o'zgarayotgan dunyoda milliy ta'lim tizimlarining holati texnologiyalarni tinimsiz yangilashni, innovatsiyalarning tezlashtirib o'zlashtirishni, dinamik

tarzda o'zgarayotgan olamning ehtiyojlari va talablariga tez moslashishni talab qiladigan global raqobatning markaziy elementiga aylandi. Ushbu holat mamlakatning raqobatbardoshligini saqlab turishning muhim omili va innovatsion iqtisodni shakllantirishning zarur sharti bo'lgan holda ta'lim jamiyatning dinamik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim shartiga, davlatning farovonligi va xavfsizligining sharti, garoviga aylanib borayotganligi bilan shartlangan. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'limida ta'lim xizmatlarining sifati va (oson, bepul) foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish an'analari va yondashuvlari shakllanganligi faktini tan olgan holda, mamlakatimiz ta'limining rivojlanganlik darajasi mamlakatimizning innovatsion ijtimoiy yo'naltirilgan taraqqiyoti talabalariga muvofiq kelmasligini ta'kidlash lozim. Ko'ppog'onali ta'lim tizimiga o'tish davlat ta'lim standartlarining mazmunini tubdan o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasasidan fundamentallik bilan birga kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida tuzilgan oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga rioya qilishni talab qiladigan o'qitishga yangi yondashuvlarni joriy qilish talab qilinadi. O'z-o'zidan ayonki, pedagogni kasbiy jihatdan shakllantirishni uning shaxsiy rivojlanishidan ajratib bo'lmaydi, chunki kasbiy kompetentlik, professionalizm, mahorat, ustalik, individual ijodkorlik va boshqa kabi hosilalarning uchun dastlabki timsol va fundamental tarkibiy qism sifatidagi umummadaniy kompetensiyalar uning shakllanishining asosiy omillari bo'lishi shart. Umummadaniy kompetensiyalar inson bilan uning ular asosida o'zining yangi kasbiy professional siyosini quradigan, butun umri davomida birga boradigan asosiy kompetensiyalardir. Shu munosabat bilan, ta'lim jarayonida shakllantiriladigan umummadaniy kompetensiyalarni aniqlab topish, fikrlab tushunish, va ularning ilmiy tavsifi tasvirini taklif etish, ularning samarali rivojlanishiga yordam beradigan hissa qo'shadigan shart-sharoitlar, metodlar va texnologiyalarni aniqlash vazifasi qad ko'taradi. Axborotning eksponensial o'sishi va faoliyat texnologiyalarining tobora oshib borayotgan o'zgaruvchanligi almashuvchanligi munosabati bilan kasbiy kompetensiyalar uzoq muddatli bo'lmashligi mumkin, umummadaniy kompetensiyalarning tabiati esa barqaror va o'zgarmas hisoblanadi, insonning tafakkurini moslashuvchan, butun umri davomida yangi narsalarni o'zlashtirishga qodir qiladi va bu esa shaxsning kasbiy o'sishi uchun asos sifatida qaralishi mumkin. Ta'limning yangi ustuvor masalalari oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tizimli tashkil etishdan muhitga asoslanib tashkil qilishga o'tishni shartladi. Bunday tashkil etishda bo'lajak bakalavrning kasbiy, jumladan umummadaniy kompetentligi uning rivojlanishi va mustaqil rivojlanishini kafolatlaydigan ta'lim muhiti sharoitlarida shakllantiriladi. [1].

Mavzuga oid manbalar tahlili. Kasbiy va kasbiy-pedagogik ta'limda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish konsepsiyasi pedagogik nazariya va amaliyotda keng aks ettirilgan (V.A.Slastyonin, L.S.Podimova, S.Y.Batishev, E.F.Zeyer, N.V.Kuzmina, L.M.Kustov va boshqa).

OTMning talabalarni tayyorlashda innovatsion muhit tizimining didaktik-tashkiliy aspektlarining rolga kelsak, tadqiqotlarda OTMning aynan ta'limi muhiti ta'lim sifatini oshirishning asosiy sharti va bosh resursi, OTM bitiruvchisining kasbiy o'sishining manbai va rivojlanish vositasi bo'lib xizmat qiladi deb ko'rsatiladi, chunki innovatsion ta'lim muhiti shaxsning ijtimoiy moslashuv adaptatsiyada, kasbiy shakllanishi va rivojlanishida, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligida zarur bo'lganda butun umri davomida ta'lim olishni davom ettirish imkoniyatiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan.

Afsuski, ko'pincha, talabani kasbiy shakllanishi u sodir bo'ladigan ta'limi muhiti va uning komponentlarining xususiyatlarini hisobga olmasdan kechadi. Barcha sa'y-harakatlar bo'lajak kasbiy faoliyat kontekstida o'qitishga, tahsil oluvchini bilishning aktiv subyekt sifatida belgilashga, mustaqil ta'lim olish va mustaqil rivojlanishga, talabalarning subyektiv tajribasiga tayanishga, uning individual xususiyatlariga, kommunikativ qobiliyatlariga va boshqa jihatlariga qaratilishi zarur bo'lgan bir vaqtda, hali hanuz, asosiy e'tibor nazariyaga qaratiladi.

OTM muhitining kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi potensialini keng miqyosda amalga oshirishni qiyinlashtiradigan hal qilinmagan bir qator muammolarning mavjudligi ko'rsatiladi, ushbu muammoni hal qilish yo'llari taklif qilinadi. Bir vaqtning o'zida, ta'lim

muhitini, umummadaniy kompetentligini rivojlantirish omili sifatida o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar deyarli yo'q. [2].

Tadqiqot metodologiyasi. O'tkazilgan tahlil zamonaviy ta'lim tizimida quyidagilar orasida ziddiyatlar yuzaga kelganini qayd etish imkonini beradi:

oliy kasbiy ta'limning kadrlarni pog'onali daraja asosida tayyorlash tizimiga o'tishi va OTM ta'lim tizimi muhitini tashkil etish muammosining yetarlicha nazariy ishlab chiqilmaganligi orasida;

oliy maktab amaliyotiga kompetentlikka asoslangan yondashuvni keng miqyosda joriy qilish zarurligi va talabaning umummadaniy kompetentligini shakllantirishning tegishli adekvat modelining yo'qligi orasida;

OTM muhitining bo'lajak bakalavrlarning umummadaniy kompetentligini shakllantirishga bo'lgan potentsiali va kasbga tayyorlash kasbiy ta'lim jarayonida OTMning inovatsion ta'lim muhitining integrativ shart-sharoitlari va resurslariga yetarlicha tayanmaslik orasida.

Shu bilan birga, nafaqat kasbiy mustaqil rivojlanish va amaliy masalalarni yechishni, balki ta'lim subyektlarining mahsuldor kasbga yo'naltirilgan o'zaro faoliyatiga yo'naltirilgan shaxsiy rivojlanishni, umummadaniy kompetentlikni shakllantirishni maqsad qilgan, yo'naltirilgan pedagoglarni tayyorlashga bo'lgan zarurat o'z-o'zidan ayon. Bunda, ushbu loyihalashtirish faoliyatida tizimli ta'lim jarayonidan yaxlit ta'lim jarayonini muhitga asoslangan tashkil etish paradigmasiga o'tish amalga oshirilishi muhim hisoblanadi. [3].

Innovatsion ta'lim muhitini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarning butun to'plami yig'indisini (ta'lim jarayonining texnologik, ijtimoiy- madaniy, axborot tarkibiy qismlari; ta'lim sifatini boshqarish (menejment) tizimi, ta'lim jarayonini monitoring qilish va hok.) o'z ichiga oladigan integral yondashuv talab qilinadigan bir vaqtda, ommaviy amaliyotda va ilmiy tadqiqotlarda, asosan, ta'lim muhitini rivojlantirishning o'quv jarayonini texnologiyazatsiya qilish ma'nosida yo'nalishlarini ishlab chiqishning hukmronligi kuzatiladi.

Ilgari surilgan ziddiyatlarning mavjudligi muammoning mavjudligiga ishora qiladi va bu muammoning mazmuni umummadaniy kompetentlikning shakllantirish jarayonining, bakalavrlarni tayyorlashning samaradorligini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar, tegishli texnologiyalarning yetarlicha nazariy asoslanmaganligidan, OTMning bitiruvchilarning umummadaniy kompetentligini shakllantirishni ta'minlaydigan innovatsion ta'lim muhitini loyihalashtirishning ilmiy asoslangan konsepsiyasini o'z ichiga olgan tizimli tadqiqotlarning yo'qligidan iborat bo'lib, bu holat ushbu tadqiqotni o'tkazish zarurligini belgiladi.

Talabalar umummadaniy kompetentligini shakllantirish jarayoni quyidagi shart-sharoitlar bajarilganda samarali bo'ladi:

talabani kasbga tayyorlashning (kasbiy ta'lim berishning) umumiy tizimida umummadaniy kompetentlikning o'rni aniqlangan bo'lsa;

OTM innovatsion ta'lim muhitining talabalar umummadaniy kompetentligini shakllantirishning sharti sifatida amal qilishi nazariy asoslab berilgan bo'lsa;

OTMning innovatsiyalarga yo'naltirilgan (mo'ljallangan) makoniga xos mavjud metodlar, vositalar va shakllar tizimlashtirilgan bo'lsa va yangilari ishlab chiqilgan bo'lsa;

talabaning umummadaniy kompetentligining OTMning innovatsion ta'lim muhitining potentsialidan foydalanishga mo'ljallangan maqsadli, mazmun va natija bloklaridan iborat modeli taklif qilingan bo'lsa;

talabalar umummadaniy kompetentligini shakllantirishning OTMning innovatsion ta'lim muhitining samaradorligini aniqlash imkonini beradigan mezon-tashxis (kriterial-diagnostik) asosi bazasi aniqlangan bo'lsa;

Kasbiy-faoliyatli yondashuv bo'lajak pedagogning raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda kasbiy faoliyatdagi resurslar, sharoitlar va harakatlar zanjirini aniqlashtiradi. Kompetentli yondashuv esa raqamlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish ta'lim metodlari, izlanishlar, analiz va sintez vositalarini ishlab chiqish usullari to'plamini aniqlaydi. Bu yondashuvda bo'lajak pedagoglarning raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha qobiliyatlarini belgilaydi.

Raqamlashtirish ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda ta'limning tashkiliy shakllari muhim rol o'ynaydi..

Barcha fan yo'nalishlarida, ma'ruza, seminar, laboratoriya, mustaqil ish, ilmiy-tadqiqot, amaliy mashg'ulotlar va darslardan tashqari mashg'ulotlar-bular mashg'ulot turlari bo'lib, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazishda guruxiy, kichik guruxlarda ishlash, juftlikda va individual ishlash shakllarining to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biz mashg'ulotlarni raqamlashtirish ta'lim muhitida qanday tashkil qilish to'g'risida to'xtalamiz.

1.On-line ma'ruzlar. Ma'ruza mashg'ulotlari "On-line" ma'ruza ko'rinishida o'tkazish orqali nazariy o'quv materialini hajmini oshirish, boshqa universitetlar olimlarini jalb qilish, ma'ruza o'tish vaqtini erkin belgilash, taqdimotlar va illyustratsiyalarini taqdim etish imkoni yaratiladi. Ma'ruzalarni video fayl shaklida platformaga joylashtirish mumkin.

2.Seminar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya mashg‘ulotlarini “On-line” kurslar, “On-line” treninglar, vebinar, “On-line” laboratoriya shaklida o‘tish imkonini yaratadi. Shuningdek, laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual stendlar orqali o‘tkazish orqali talabalarga murakkab texnologik ob‘ektlar va jarayonlar haqida real tasavvur hosil qilishi mumkin.

3.Mustaqil ishlash talabaning masofadan turib biron bir topshiriqlarini metodik yordamini maslahat ko‘rinishida bajarish jarayonidir. Topshiriqlar pedagog yordamisiz ham talaba tomonidan mustaqil bajarilishi mumkin.

Talabalarni mustaqil ishlashga faolligini oshirish uchun quyidagi ta’lim metodlarini va shakllarini qo‘llash talab etadi.

- Moodle maxsus platforma orqali “On-line” o‘qitishni kiritish;
- Google, HTMIS, On-line Dokument hujjatlari bilan ishlash;
- Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash (Telegram, Instagram, Face book);
- On-line so‘rov (Tovushli, test);
- Interaktiv grafiklar va jadval bilan ishlash.
- On-line monitoring platformalari bilan ishlash.
- Ta’limiy saytlar bilan ishlash.

Talabalar ilmiy tadqiqot ishlari bu dastlabki malakalarni shakllantiradigan ta’lim shakli hisoblanadi. Talabalarda ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish quyidagi mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi.

-Ilmiy amaliy konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlarda.

-Kichik guruhlarda hamkorlikda loyihalarni bajarish, laboratoriya mashg‘ulotlari, guruhiy ilmiy izlanishlar.

-Kurs ishi, referat, ma’ruza, va ijodiy topshiriqlarni bajarish.

O‘qitishning ta’limiy shakllari orqali raqamlashtirish ta’lim muhitida yaratish ta’lim jarayonida o‘zgartirishlarni talab etiladi. Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarni raqamli ta’lim muhitida ishlashga o‘rgatish ta’limni yangi sifat darajasiga ko‘taradi. Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish quyidagi texnologiyalar orqali amalga oshiriladi: loyihali, muammoli, faol, elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalari shular jumlasidandir. Raqamli ta’lim muhitida o‘quv-kasbiy faoliyatni maqsadi va mazmunini loyihalash quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1.Ilmiylik-raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni tayyorlashda o‘quv predmeti va ilmiylik orasidagi bog‘liqlik o‘rnatish.

Bunda quyidagi talablar qo‘yiladi:

-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogika fani nazariyasi va qonunlari tushunchalari va ilmiy dalillar bilan talabalarni tanishtirish;

-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogika ilmi texnologiyalari va metodlarini o‘rganish;

-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida kasbiy masalalarni echishda ilmiy dalillar, qonunlar va nazariyalardan foydalanish.

-On-line dasturlar bilan ishlash, kerakli ma’lumotlarni izlab topishi va keraklisini tanlash, adabiyotlarni tahlil qilish, taqdimotlar va ilmiy maqolalar tayyorlash.

2 Yaxlitlik. Raqamli ta’lim muhitida nazariy va amaliy integratsiyasini ta’minlash.

Bunda quyidagi talablar bajarilishi kerak.

-Raqamli ta’lim muhitida kasbiy masalalarni echish masalasi shakllantiriladi.

-Raqamli ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga amalga oshirish ritmi bo‘yicha tayyorgarligini ta’minlash.

-Raqamli ta’lim muhitida ta’lim tizimiga yangi talablar kiritiladi.

-Bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta’lim muhitida kasbiy pedagogik faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha o‘z-o‘zini rivojlantirishi.

3.Raqamli ta’lim muhitini yaratish orqali o‘quv tabiiy jarayonida shaxsga kompleks ta’sirini tashkil qilish.

Bundan quyidagi talablarni bajarish lozim:

-Raqamli ta’lim muhitida bo‘lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirilishi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

-Dars va darsdan tashqari faoliyatda talabalar bilan olib boriladigan kompleks tadbirlar.
-Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarda muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish darajasini aniqlash bo'yicha kompleks tadbirlar.

4 Tizimlilik. Raqamli ta'lim muhitida ishlash sharoitida pedagogik nazariya bilan amaliyoti orasida aloqadorlikni o'rnatish.

Bunda-nazariy va amaliy o'quv materialining mantiqiy ketma ketlikda tuzilishining bayon etilishi, nazariy va amaliy mashg'ulotlarini orasidagi integratsiya o'rnatilishi lozim.

5 Kasbiy pedagogik faoliyatlilik.

Bu tamoyilga diagnostika, tashxislash, monitoring, loyihalash, dasturlash kiradi.

Xulosa qilib aytganda pedagoglik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, balki, kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo'yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo'ladi. Bo'lajak pedagoglar ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qarotilishi zarurdir.

Bizni fikrimizcha raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlar - raqamli ta'lim muhitida pedagog faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan kompleks sifatlar majmuidir. Bo'lajak pedagoglarning raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish-bu ta'lim jarayoni sub'ektlarining maqsadga yo'naltirilgan kasbiy-pedagogik faoliyat bo'lib, raqamlashtirish sharoitida o'quv-kasbiy faoliyat maqsadi va mazmunini loyihalash hamda bo'lajak pedagoglarning raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishni ta'minlashga yo'naltiriladi. Bo'lajak pedagoglarning raqamli ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayonining asosiy komponentlariga ijtimoiy pedagogik, motivatsion-emolsional, gnostik, madaniy-ma'rifiy, loyihalash, raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonlik ekanligi asoslab berildi.

Bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarini shakllantirish mezonlari qilib motivatsion ehtiyojli, gnostik, jarayonli va o'z-o'zini baholash guruxlari tanlanib har bir mezon ko'rsatkichlari belgilandi. Biz tomondan ishlab chiqilgan mezonli baholash apparati asosida izlanishlar doirasida bo'lajak pedagoglarning muhim kasbiy sifatlarining past darajada ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. SH.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsesiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni.

2.SH.M.Mirziyoyev «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-sonli qarori 2019 yil 11 iyul.

3.Achilov Nurbek Norboy o'g'li (2020). Pedagogical and psychological fundamentals of formation of space imagination and creative ability in students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8 (4), Part II, 38-40.

4.Mavlonov A. Barkamol inson tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995. – 150 b.

5.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000. – 46 b.

6.Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari /Seminar trening materiallari (trenerlar uchun qo'llanma). – T.: O'MKHTM, 2002. – 181 b.

7.A.R. Sakhilov. «Modern methodological bases of higher education management in the era of digitization» *Educational and innovative studies. International scientific and methodical magazine*. 2022 No. 10 pp. 169-176.

8.A.R. Sakhilov. «Innovative competences of the heads of higher education institutions and the main directions of their development» «Pedagogical skills» *scientific-theoretical and methodical magazine*. 2022, No. 5. Bukhara. Bukhara 2022. S. 23-28.

9.A.R. Sakhilov. «The role of foreign experiences in the innovative management of the modern higher education system». *Education and innovative research. International scientific-methodical magazine*. 2023 No. 6, pp. 254-262.

10.Soxilov A.R.-"Ta'limning interfaol usullari". O'quv-uslubiy qo'llanma. Qarshi-2020.-175 b.

BOSHLANG'ICH MAKTABDA TABIIY FANLARNI O'QITISH UCHUN O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Uzoqboev Xojiakbar Qobiljon o'g'li,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.065>

Аннотация. Мақоллада бoshlang'ich maktabda tabiiy fanlarni o'qitish kontekstida o'yin texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqiladi. Zamonaviy ta'limda o'quvchilarni jalb qilish va rag'batlantirish qobiliyati tufayli o'yinni o'rganish tamoyillariga asoslangan usullar faol rivojlanmoqda. Muallif o'yin texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashning turli jihatlarini, masalan, interaktiv ilovalar, virtual laboratoriyalar va ta'lim o'yinlaridan foydalanishni tahlil qiladi. Ushbu yondashuvning afzalliklari, jumladan, o'quvchilarning qiziqishini oshirish, o'quv jarayonini faollashtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari o'yin texnologiyalarining boshlang'ich maktabda tabiiy fanlarni o'qitish samaradorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, bu ularning innovatsion ta'lim vositasi sifatida salohiyatini tasdiqlaydi.

Калит so'zlar: o'yin texnologiyasi, fanni o'qitish, boshlang'ich maktab, ta'lim o'yinlari, interaktiv o'rganish, o'quvchilarni jalb qilish, faol o'rganish, ta'lim texnologiyalari, o'rganish motivatsiyasi, o'quv samaradorligi, ta'lim innovatsiyasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Узюкбоев Хюжюакбар Кюбилжюсон углы,
Исследователь Наманганского государственного университета

Аннотация: Статья рассматривает эффективность использования игровых технологий в контексте обучения естественным наукам в начальной школе. В современном образовании активно развиваются методы, основанные на принципах игрового обучения, в связи с их способностью увлечь и мотивировать учащихся. Автор анализирует различные аспекты применения игровых технологий в учебном процессе, такие как использование интерактивных приложений, виртуальных лабораторий и образовательных игр. Особое внимание уделяется преимуществам такого подхода, включая повышение заинтересованности учащихся, активизацию процесса обучения и развитие критического мышления. Результаты исследования свидетельствуют о положительном влиянии игровых технологий на эффективность обучения естественным наукам в начальной школе, что подтверждает их потенциал в качестве инновационного образовательного инструмента.

Ключевые слова: игровые технологии, преподавание естественных наук, начальная школа, образовательные игры, интерактивное обучение, вовлечённость учеников, активное обучение, технологии в образовании, мотивация к обучению, эффективность обучения, инновации в образовании.

THE USE OF GAMING TECHNOLOGIES IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN ELEMENTARY SCHOOL

Uzoqboev Xojiakbar Qobiljon o'g'li,
researcher of Namangan State University

Abstract: The article examines the effectiveness of the use of gaming technologies in the context of teaching natural sciences in elementary school. In modern education, methods based on the principles of game learning are actively developing, due to their ability to engage and motivate students. The author analyzes various aspects of the use of gaming technologies in the educational process, such as the use of interactive applications, virtual laboratories and educational games. Special attention is paid to the advantages of this approach, including

increasing student interest, enhancing the learning process and developing critical thinking. The results of the study indicate the positive impact of gaming technologies on the effectiveness of teaching natural sciences in primary school, which confirms their potential as an innovative educational tool.

Keywords: game technologies, natural sciences teaching, elementary school, educational games, interactive learning, student engagement, active learning, technologies in education, motivation to learn, learning effectiveness, innovations in education.

Kirish. Zamonaviy dunyoda ta'lim tobora interaktiv bo'lib, o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilmoqda. O'quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashgan asosiy usullardan biri bu o'yin texnologiyasidir. Xususan, boshlang'ich maktabda tabiiy fanlarni o'qitishda o'yinlardan foydalanish talabalar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham katta foyda keltiradi. O'yin texnologiyalari o'quvchilarni qiziqtirish va rag'batlantirish uchun noyob qobiliyatga ega. Bolalarni ilmiy mavzularga zerikarli munosabatda bo'lishiga olib keladigan an'anaviy yondashuv o'rniga, o'yin ilovalari interaktiv va immersiv tajribani taklif qiladi. Bolalar o'ynash orqali o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa materialni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi va fanlarni o'rganish motivatsiyasini oshiradi.

O'yin texnologiyasi o'quvchilarga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va o'yin stsenariylari xavfsiz va boshqariladigan muhitda ilmiy tushunchalar bilan tajriba o'tkazish imkoniyatini beradi[1]. Bu bolalarga mavhum tushunchalarni yaxshiroq tushunishga va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

O'yin texnologiyalari o'quv jarayonini har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. Ko'pgina o'yin dasturlari shaxsiylashtirilgan yondashuvni taklif qiladi, bu esa o'quvchilarga materialni o'z tezligida va ularning mahorat darajasiga qarab o'rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, boshlang'ich maktabda juda muhimdir, bu erda o'quvchilarning bilim va mahorat darajasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Ko'pgina o'yin ilovalari hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar g'oyalar va strategiyalar almashish orqali muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlashlari mumkin. Bu nafaqat ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, balki bolalarni maktabda ham, hayotda ham kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim bo'lgan guruhda samarali ishlashga o'rgatadi.

O'yin texnologiyasi nafaqat o'quvchilarga ilmiy tushunchalarni o'rganishga yordam beradi, balki ularga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini ham o'rgatadi. Bugungi raqamli dunyoda kompyuterlar va dasturiy ta'minotdan foydalanish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'yinlar bolalarga raqamli savodxonlik va texnik qurilmalardan foydalanish ishonchini rivojlantirishga yordam beradi[2]. Zamonaviy dunyoda texnologiya ta'limda muhim rol o'ynaydi, ayniqsa boshlang'ich maktabda fanni o'qitish haqida gap ketganda. O'yin texnologiyasi o'quvchilarni ilm-fanga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish va ularga asosiy tushunchalar va ko'nikmalarni o'rgatish orqali o'quv jarayoniga jalb qilish uchun kuchli vositaga aylanadi. Ushbu maqolada biz o'yin texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich maktabda fanni o'rganish samaradorligini qanday oshirishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Boshlang'ich maktabda fanni o'qitishning asosiy muammolaridan biri bu o'quvchilarning e'tiborining etarli emasligi va ularning motivatsiya darajasining pastligi. O'yin texnologiyalari ilmiy tushunchalarni o'rganishning interaktiv va qiziqarli usullarini taqdim etish orqali ushbu muammoni hal qilishni taklif qiladi. O'yin dasturlari va dasturlari o'quvchilarga jumboqlarni echish, tajribalar o'tkazish va virtual modellar bilan o'zaro aloqalarni o'z ichiga olgan turli xil vazifalarni taklif qilishi mumkin. Bunday vazifalar nafaqat o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarga o'quv jarayonida faol ishtirok etishga imkon beradi, bu esa materialni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. O'yin texnologiyasi, shuningdek, fanni o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi[3]. Masalan, muammolarni o'ynoqi tarzda hal qilish talabalardan analitik fikrlash, mantiqiy fikrlash va jamoada ishlash qobiliyatini talab qiladi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ilmiy bilimlarni

muvaffaqiyatli o'zlashtirish, balki keyingi akademik va kasbiy faoliyat uchun ham muhimdir.

O'yin texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri bu o'quv materialini har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatidir. Ko'pgina o'yin dasturlari o'qituvchilarga har bir talabaning bilim darajasi va qobiliyatiga mos keladigan o'quv dasturlarini yaratishga imkon beradigan shaxsiylashtirilgan yondashuvni taklif qiladi. Bu, ayniqsa, boshlang'ich maktabda juda muhim, bu erda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidagi farq sezilarli bo'lishi mumkin[4]. O'yin texnologiyalari o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga ham yordam beradi. Ko'pgina o'yinlar o'z loyihalari yoki tajribalarini yaratish imkoniyatini taklif qiladi, bu esa o'quvchilarga o'z bilimlarini amalda qo'llash va o'zlarining noyob ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Boshlang'ich maktabda fanni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish samarali va istiqbolli yondashuvdir. Ular o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilishga, asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'limda o'yinlar shunchaki o'yin-kulgi bo'lishni to'xtatadi va o'quvchilarning rivojlanishi va ta'lim sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochib, kuchli ta'lim vositasiga aylanadi.

Kompyuterlar va gadjetlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan zamonaviy dunyoda boshlang'ich maktabda o'qitish yangi shakl va usullarga ega bo'ladi. Bu, ayniqsa, tabiiy-ilmiy tsikl mavzulariga tegishli. So'nggi yillarda o'quv jarayoniga o'yin texnologiyalarini faol joriy etish tendentsiyasi kuzatilmogda[5]. O'yinlardan foydalanish nafaqat samarali o'quv vositasi, balki o'quvchilarni rag'batlantirish usuliga aylanadi.

Boshlang'ich maktabda fanni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri bu o'qitishning qiziqarli va interaktivligidir. Darslikni o'qish va qog'ozdagi vazifalarni bajarish kabi an'anaviy usullardan ko'ra, talabalar virtual olamlarga sho'ng'ishlari mumkin, bu erda bilim o'yin orqali olinadi. Bu ularga materialni yaxshiroq tushunish va o'quv materialini yanada samarali yodlash imkonini beradi. O'yin texnologiyasi, shuningdek, o'quvchilarning muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va aloqa kabi asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Axir, ko'plab ta'lim o'yinlari talabalardan vaziyatlarni tahlil qilishni, qaror qabul qilishni va boshqa ishtirokchilar bilan o'zaro munosabatlarni talab qiladi. Bu ularga nafaqat ma'lum bir materialni o'zlashtirishga, balki hayotda foydali bo'lgan universal ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Boshlang'ich maktabda fanni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan muvaffaqiyatli foydalanishning misoli ixtisoslashtirilgan o'quv dasturlari va dasturlarini ishlab chiqishdir. Bunday ilovalar interaktiv vazifalar, tajribalar, viktorinalar va simulyatsiyalar bo'lib, o'quvchilarga o'yin tajribasi orqali tajriba o'tkazish, o'rganish va o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'yin texnologiyalari interaktiv doskalar yoki virtual haqiqatlar kabi maxsus jihozlar yordamida o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilinishi mumkin. Bu o'quvchilarga tom ma'noda o'rganilayotgan materialga sho'ng'ish imkonini beradi, bu esa darslarni yanada esda qolarli va qiziqarli qiladi. Biroq, o'yin texnologiyasidan me'yorida va ta'lim maqsadlariga muvofiq foydalanish kerakligini yodda tutish kerak. O'yinlardan tez-tez foydalanish o'quvchilarning e'tiborini yo'qotishiga va ularni asosiy materiallardan chalg'itishiga olib kelishi mumkin[6]. Umuman olganda, boshlang'ich maktabda fanni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish yangi o'rganish imkoniyatlarini ochadi va darslarni yanada qiziqarli va interaktiv qilish imkonini beradi. Bu materialni yaxshiroq o'zlashtirishga va o'quvchilarning asosiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ushbu yondashuvni zamonaviy ta'limning muhim elementiga aylantiradi.

Zamonaviy ta'limda texnologiyalarni joriy etish ta'limning ajralmas qismiga aylanadi. Bu, ayniqsa, keyingi ta'lim quriladigan bilim va ko'nikmalar asoslari shakllantiriladigan boshlang'ich maktabda juda muhimdir[7]. O'yin texnologiyasi o'quv jarayonida, ayniqsa tabiiy fanlar bilan bog'liq fanlarda muhim rol o'ynaydi. O'yin texnologiyalari o'rganishga innovatsion yondashuv bo'lib, u o'quv vazifalarida turli xil o'yin elementlari va texnikasidan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ular kompyuter o'yinlari, interaktiv dasturlar, simulyatorlar, shuningdek stol va rolli o'yinlarni o'z ichiga olishi mumkin.

O'yin texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari

1. Motivatsiya va sevimli mashg'ulot
Vazifalar, yutuqlar, ballar va darajalar kabi o'yin elementlari o'quvchilarni rag'batlantirishi va o'quv jarayonini yanada qiziqarli va hayajonli qilishi mumkin.

2. Interaktivlik
O'yin texnologiyalari o'quvchilar material bilan o'zaro aloqada bo'lishlari va tezkor fikr-mulohazalarni olishlari mumkin bo'lgan interaktiv muhitlarni yaratishga imkon beradi.

3. Vizual va audio effektlar
Grafika, animatsiya va ovoz effektlaridan foydalanish materialni yaxshiroq yodlashga va tushunchalarni tushunishga yordam beradi.

4. Ta'limni individuallashtirish
O'yin texnologiyasi o'quv materialini har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi, shu bilan birga shaxsiylashtirilgan o'quv tajribasini taqdim etadi.

Boshlang'ich maktabda fanni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish

1. Virtual laboratoriyalar
Kompyuter simulyatsiyalaridan foydalangan holda talabalar sinfdan chiqmasdan tajriba va tadqiqotlar o'tkazishlari mumkin, bu ayniqsa resurslari kam bo'lgan maktablar uchun juda muhimdir.

2. Ta'lim o'yinlari
Talabalar tabiiy fanlar bilan bog'liq muammolar va muammolarni hal qiladigan o'yinlar ularga o'quv materialini yaxshiroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.

3. Mavhum tushunchalarni vizualizatsiya qilish
Interfaol dasturlar va animatsiyalardan foydalanish diffuziya, magnetizm va elektr energiyasi kabi murakkab tushunchalarni tasavvur qilishga yordam beradi.

4. Rolli o'yinlarni yaratish
Talabalar olimlar yoki tadqiqotchilar rolini o'ynaydigan rolli o'yinlar ularga ilmiy hamjamiyat qiyofasiga kirishga va ilmiy uslub tamoyillarini tushunishga imkon beradi. So'nggi o'n yilliklarda ta'lim dunyosi o'qitish uchun texnologiyadan foydalanishda inqilobga guvoh bo'ldi. O'yin texnologiyalari, xususan, o'quvchilar e'tiborini jalb qilish va samarali o'rganish uchun kuchli vositaga aylanib, alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Bilim va ko'nikmalar asoslari shakllanadigan boshlang'ich maktabda tabiiy fanlarni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish bolalarning fanga qiziqishini rag'batlantirish va ularning asosiy vakolatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari duch keladigan asosiy muammolardan biri bu bolalarning e'tiborini jalb qilish va o'quv jarayonini qiziqarli va qiziqarli qilishdir. O'yin texnologiyalari ushbu muammoni hal qilish uchun turli xil vositalarni taqdim etadi. Maxsus o'rganish uchun mo'ljallangan o'yinlar orqali talabalar interaktiv va qiziqarli stsenariylarga sho'ng'ishlari mumkin, bu erda ular nafaqat yangi tushunchalar va faktlarni o'rganadilar, balki ularni amalda qo'llaydilar, muammolar va muammolarni hal qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich maktabda fanni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ilmiy tushunchalarni tushunishni yaxshilashga, balki o'quvchilarning hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammoli echimlarni rivojlantirishga yordam beradigan samarali va innovatsion yondashuvdir. Ushbu yondashuv har bir bola o'z imkoniyatlarini ishga solishi va ilm-fan olamiga qiziqishi mumkin bo'lgan qiziqarli va rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratishga imkon beradi. Boshlang'ich maktabda fanni o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish samarali va innovatsion yondashuv bo'lib, o'quvchilarning faol ishtirok etishiga, ko'nikmalarini rivojlantirishga va fanlarni o'rganish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Ushbu usul nafaqat o'rganishni yanada qiziqarli va hayajonli qiladi, balki bolalarni texnologiya tobora muhim rol o'ynaydigan zamonaviy raqamli dunyoga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Рудакова, Светлана Александровна. «Использование игровых технологий в период обучения в начальной школе.» Проблемы педагогики 5 (44) (2019): 19-21.

Даминова, Аделя Ильдаровна, and Елена Вениаминовна Головнева. «Использование игровых технологий в начальных классах.» Научный альманах 4-2 (2016): 106-108.

Муромцева, Ольга Васильевна. «Игровые технологии в начальной школе.» Молодой ученый 10 (2016): 1252-1254.

Холикова, Дилобархон Махситовна, and Зулфия Тиллавождиевна Холматова. «Эффективность Игровых Технологий В Начальной Школе.» Школа будущего 4 (2019): 236-245.

Худайкулов, Абдулла Эшкувватович, and Зилола Шавкатовна Журакулова. «Применение игровых технологий в обучении английскому языку в начальной школе.» Педагогика и психология в контексте современных исследований проблем развития личности. 2015.

Александрова, Лилия Минихаевна, and Ксения Ильдусовна Филатова. «Использование игровых технологий на уроках изобразительного искусства в начальной школе.» Символ науки 4-2 (2016): 72-73.

Анисимова, Алена Анатольевна. «Использование игровой технологии как средства билингвального обучения.» Муниципальное образование: инновации и эксперимент 3 (2012): 49-51.

MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI FANINI O'QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH

Xamedova Nilufar Azimovna

pedagogika fanlari nomzodi, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida dotsenti. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.066>

Annotatsiya: maqolada Boshlang'ich ta'lim bakalavriati yo'nalishi talabalarining mustaqil faoliyatini "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" fanini o'rganish jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish orqali tashkil qilish tajribasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: grafik organayzerlar, arifmetik amallar, nomanfiy butun sonlar, boshlang'ich ta'lim, matematika o'qitish metodikasi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГРАФИЧЕСКИХ ОРГАНИЗАТОРОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МЕТОДИКЕ МАТЕМАТИКИ

Хамедова Нилуфар Азимовна,

кандидат педагогических наук, доцент кафедры методики дошкольного и начального образования. Ташкентский международный университет имени Кимё

Аннотация: в статье рассматриваются вопросы из опыта использования графических органайзеров при чтении курса «Методики преподавания математики в начальных классах» на направлении бакалавриата «Начальное образование» для организации самостоятельной деятельности студентов во время занятий.

Ключевые слова: графические органайзеры, арифметические действия, целые неотрицательные числа, начальное образование, методика преподавания математики.

USING GRAPHIC ORGANIZERS WHEN TEACHING MATHEMATICS

Khamedova Nilufar Azimovna

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of Methods of Preschool and Primary Education. Tashkent International University named after Kimyo

Abstract: the article describes issues from the experience of using graphic organizers when teaching the course "Methods of teaching mathematics in primary grades" in the bachelor's degree program "Primary Education" how to organize students' independent activities during classes.

Key words: graphik organizers, arithmetic operations, non-negative integers, primary education, methods of teaching mathematics.

Har qanday o'quv predmeti ma'lum bir bilimlar tizimini bayon qilib qolmay, balki talabalarining o'rganilayotgan bilimlarga nisbatan mushohada yuritib, uning muhim xususiyatlari va munosabatlari, kelib chiqishi va o'zgarishiga oid umumiy xulosalarni chiqarishlarini yoki o'zlashtirishlarini ham ko'zda tutadi. Bu xulosalar talaba tomonidan mustaqil ravishda keltirib chiqarilsa, uning qiymati yanada oshadi, o'qitishning samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Aniq ob'ektlarni jadvallar, grafiklar, diagrammalar yoki tuzilmalar orqali tahlil qilishga qaratilgan grafik organayzerlar bilan ishlash talabaning mustaqil ishini tashkil qilishni yengillashtiradi. Grafika bu holda o'quvchining fikrlarini tartibga solish va yo'naltirish uchun xizmat qiladi va o'rganilayotgan yoki tahlil qilinayotgan ob'ektlarning tavsifiga shakl beradi.

Grafik organayzerlar - bu ma'lumotlarni eslab qolish, o'zlashtirish, tahlil qilish yoki qo'llashni o'rgatish, bilimlarni tartibga solish, umumlashtirish, muammolarni hal qilish uchun yordam beradigan shakl yoki vosita[1]. Ular - bu bilimlar, tushunchalar, g'oyalar va ular o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni ifodalash uchun grafik belgilardan foydalanadigan yozma aloqa vositalari. Tasviriy, kommunikativ va kognitiv funksiyalarni bajaradigan didaktik vosita sifatida grafik organizatorlar nafaqat ma'lumot tashuvchisi, balki o'quv loyihalarini rejalashtirish, muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish va tadqiqot o'tkazishda talabalar

faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun ham qo'llaniladi[4].

Talabalar axborotni qayta ishlash: tahlil qilish, baholash, umumlashtirish, tizimlashtirish, muammolarni hal qilishga qo'llash usullarini o'zlashtiradilar. Grafik organayzerlar talaba va o'qituvchilar uchun qanday imkoniyatlar beradi?

O'qituvchiga:

katta yoki murakkab tushunchalar yoki g'oyalarni kichikroq va soddaroq qismlarga bo'lish orqali ma'lumotni tasavvur qilish va tushunish osonroq tarzda taqdim etish;

talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil qilish;

o'qitishni kerakli yo'nalishda tashkil qilishni osonlashtirish.

Talabalarga:

o'quv jarayoniga faol ishtirok etish;

aqliy hujum, tanqidiy va ijodiy fikrlash, toifalarga ajratish va ustuvorliklarni aniqlash, mulohaza yuritish va boshqalar kabi kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish;

mavzu bo'yicha bilimlarni yangilash, takrorlash, tartiblash va uni yangi ma'lumotlar bilan boyitish.

Grafik organayzerlardan foydalanish talabalarni eslatmalarga e'tiborli bo'lish, o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilish yo'llarini o'rganish, guruh bilan birgalikda fikrlash va ishlashga o'rgatadi va o'quv materialini o'zlashtirilishini ancha osonlashtiradi[2].

Mashg'ulotlarda grafik organayzerlardan foydalanganda bir nechta maslahatlarni yodda tutish kerak. Birinchidan, mashg'ulotning maqsadi va mazmuniga eng mos keladigan grafik organayzerni tanlash. Ikkinchidan, grafik organayzerdan qanday foydalanishni loyihalashtirish. Talabalarga uni qanday to'ldirish yuzasidan ko'rsatma berish va fikrlash jarayonini tushuntirish. Bundan tashqari, grafik organayzerni talabalar, auditoriya, vaqtning imkoniyatlariga qarab tanlash. Nihoyat, grafik organayzerdan muhokama qilish va mulohaza yuritish uchun vosita sifatida foydalanish. Talabalar o'zlari to'ldirgan grafik organayzerlari haqida gapirib berishlari, mulohazalarini tushuntirishlari, savollarga javob berishlari yoki savollar berishlari kerak. Bu jarayondan talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun asos sifatida ham foydalanish mumkin. Talabalarimizni grafik organayzer ularga fikrlarini tartibga solishda qanday yordam bergani va ular nimani yaxshilashlari mumkinligi haqida fikr yuritishga undash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi fani mashg'ulotlari misolida grafik organayzerlardan foydalanish tajribasidan ayrim namunalar keltiraylik.



Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish kursining asosiy mavzusi natural sonlar, nol soni va ular ustida arifmetik amallardan iborat. Masalan, nomanfiy butun sonlarni nomerlashni olaylik. Nomerlash bu sonlarni hosil qilish, nomlash, yozish va taqqoslashdan iborat. Bu vazifa har bir konsentr bo'yicha alohida o'rganiladi. Uni bajarish barcha kontsentrlarda deyarli bir xildek tuyuladi, lekin agar siz masalani Venn diagrammasida ko'rib chiqsangiz, kontsentrlar bo'yicha masalaning o'xshash va turli tomonlarini topasiz.

Venn diagrammasi ikki yoki undan ortiq ob'ektlarni taqqoslash va ularning o'xshash va farqlarini topish imkonini beradi [3]. Bunday taqqoslash o'zaro bog'langan ob'ektlarning ilgari sezilmagan tafsilotlari, tomonlari va xususiyatlariga e'tiborni jalb qilishga yordam beradi.


Keling, doiralar o'rniga jadvalni olaylik va u orqali bir xonali va ikki xonali sonlar konsentridagi sonlarni nomerlashning o'xshashliklari va farqlarini topamiz.

«O'nlik» konsentri	«Yuzlik» konsentri	
Farqli tomoni	O'xshash tomoni	Farqli tomoni
<p>1 xonali sonlar predmetlar to'plami, rasmlar orqali tushuntiriladi. Ko'p ko'rgazma qo'llanadi. Yozish o'rgatiladi.</p> <p>Songa predmetlar to'plami mos qo'yiladi. Son va raqam tushunchalari aralashib ketadi.</p>	<p>0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar ishlatiladi</p> <p>Sonlarni hosil qilishda sanoq cho'plaridan foydalaniladi.</p> <p>Sonlar hosil qilinadi, yoziladi, o'qiladi va taqqoslanadi.</p> <p>Son qatori hosil qilinadi. To'g'ri va teskari tartibda sanash, 1 talab yoki guruhlab sanaladi.</p> <p>Sonlar alohida birlardan tashkil topadi.</p> <p>Son tarkibi o'rganiladi.</p>	<p>Yangi sanoq birligi – 10 bilan tanishtiriladi.</p> <p>2 xonali sonlar abakda tasvirlanadi</p> <p>2 xonali son birliklar va o'nliklardan tashkil topadi.</p> <p>Sonning qisqa va xona birliklari ko'rinishdagi yozuvi o'rganiladi.</p> <p>Son va raqam farqlanadi.</p>


Masalan 4+3 yig'indini topish uchun 2 ta kesishmaydigan A va B to'plamlarni olamiz:



To'plamlarni birlashtiramiz va elementlar sonini sanaymiz:



II. Aksiomatik nazariya bo'yicha 4+3 ning natijasini topish son o'qida bajariladi:



Batafsil tahlil qilish, taqqoslash va solishtirish fikrlash uchun ozuqa beradi, fikr yuritish usullaridan, masalan analiz, sintez va analogiya kabilardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xuddi shu mavzuda siz ko'rgazmali vositalardan foydalanish bo'yicha "T-sxema" organayzeri ustida ishlashni ko'rib chiqishingiz mumkin. "T-sxema" bitta ob'ektni ikki tomondan, ehtimol qarama-qarshi yoki qo'shni tomondan ko'rish imkonini beradi. Mantiqchilar bahslashishni yoqtirganidek: "Bir tomondan, bu shunday, lekin boshqa tomondan ...".

«T-sxema»

«Nomanfiy butun sonlarni nomerlash» mavzusini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish

Predmetli modellar faqat «O'nlik» konsentrida qo'llanadi Boshqa konsentrlarda ularni qo'llash qulay emas, ko'p sondagi predmetlarni ko'rsatish va sanash kerak bo'ladi

"Abak" dan faqat ikki va uch xonali sonlarni nomerlashda foydalaniladi Ko'p xonali sonlar uchun sonlarning xona birliklari va sinflar yozilgan "Sonlar jadvali" qo'llanadi

Sanoq cho'plaridan «O'nlik» va «Yuzlik» konsentrlarida foydalaniladi Ko'p xonali sonlarni nomerlash uchun xonali sonlar haqidagi bilimlarga asoslanadi va ko'rgazmali qurollardan foydalanishni talab qilmaydi

"Nomanfiy butun sonlarni nomerlash" mavzusidagi barcha ma'lumotlarni umumlashtirishni "Nilufar guli" grafik organayzerida amalga oshirish mumkin. U ko'p qirrali bo'lib, bir mavzuni turli tomonlardan ochib berishga yordam beradi, asosiy mavzuga aloqador atamalarni sakkiztagacha tomonini ochib berish yoki tahlil qilish imkoniyatiga ega. Organayzer murakkab, chunki u ko'p qirrali. Markaziy katakka asosiy tushunchani joylashtirish, unga bog'liq barcha tushunchalarni topish va ularni ham har tomonlama ochib berish qiyin. Boshlang'ich ta'lim talabalari tomonidan to'ldirilgan "Nilufar guli" ga misol keltiraylik. Markaziy katakni ko'raylik:

Arifmetik amaliy ifoda O'qish usuli	Qo'shish $a+b$	Ayirish $a-b$	Ko'paytirish $a \cdot b$	Bo'lish $a:b$
Belgi nomi bo'yicha	a plus b	a minus b	a kara b	a taqsim b
Amal nomi bo'yicha	a qo'shuv b	a ayiruv b	a ko'paytiruv b	a bo'lub b
Ifoda nomi bo'yicha	a va b ning yig'indisi	a va b ning ayirmasi	a va b ning ko'paytmasi	a va b ning bo'linmasi
Amal mazmuni bo'yicha	a ni b ta orttir	a ni b ta kamaytir	a ni b marta orttir	a ni b marta kamaytir
Hadlar nomi bo'yicha	1- qo'shiluvchi a , 2- qo'shiluvchi b	kamayuvchi a , ayriluvchi b	1-ko'paytuvchi a , 2- ko'paytuvchi b	bo'linuvchi a , bo'lubchi b
Qo'shimcha mazmun bo'yicha		a va b ning farqi		a va b ning nisbati

«T-sxema»

«Nomanfiy butun sonlarni nomerlash» mavzusini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish	
Predmetli modellar faqat «O'nlik» konsentrida qo'llanadi	Boshqa konsentrlarda ularni qo'llash qulay emas, ko'p sondagi preqdmatlarni ko'rsatish va sanash kerak bo'ladi
“Abak”dan faqat ikki va uch xonali sonlarni nomerlashda foydalaniladi	Ko'p xonali sonlar uchun sonlarning xona birliklari va sinflar yozilgan “Sonlar jadvali” qo'llanadi
Sanoq cho'plaridan «O'nlik» va «Yuzlik» konsentrlarida foydalaniladi	Ko'p xonali sonlarni nomerlash uch xonali sonlar haqidagi bilimlarga asoslanadi va ko'rgazmali qurollardan foydalanishni talab qilmaydi

Mashqlar tizimi	Konsentrlar	Sinflar
Masalalar	NOMERLASH	Nomerlashning mazmuni
Talabalarning BKMLari	Ko'rgazmali vositalar	Asosiy tushunchalar

Namuna uchun “Asosiy tushunchalar” gulini ochaylik:

8. Sonning o'nlik yozuvi	1. Natural son	2. Raqam
7. Sinf	ASOSIY TUSHUNCHALAR	3. Xona birligi
6. Yuzliklar	5. O'nliklar	4. Birliklar

Yoki “Nomerlashning mazmuni” gulchasiga e'tibor qilamiz:

8. Sonlarni bo'lish	1. Sonni hosil qilish	2. Sonni nomlash
7. Sonlarni ko'paytirish	NOMERLASHNING MAZMUNI	3. Sonni yozish
6. Sonlarni ayirish	5. Sonlarni qo'shish	4. Sonlarni taqqoslash

“Sinflar” guli yana davom ettirilishi mumkin.


8. Sikstilonlar	1. Birlar	2. Minglar
7. Kvintilonlar	SINFLAR	3. Millionlar
6. Kvadril'onlar	5. Trillionlar	4. Milliardlar (Billionlar)

(Billionlar)

Shu tariqa hamma kataklarga oid tushunchalar jamlanadi. Umumiy qilingan ish yakunlanadi, xulosalanadi. Talabalarni grafik organayzer va uning fikrlarni tartibga solishda qanday yordam bergani haqida fikr yuritishga undash mumkin.

Yuqorida ta'kidlangandek, "Mental xarita" grafik organayzerini biror muammoni hal qilishda foydalanish mumkin, lekin mavzuga oid tushunchalarni tartiblash, guruhlariga ajratish va bog'lanishlar o'rnatish uchun ham qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ikkinchi maqsadda "Mental xarita"ning yaratilishi "Nilufar guli"ni to'ldirish jarayoniga o'xshash bo'ladi. Mazmuni o'xshash, lekin shaklan turlicha. Ishni guruhlarda tashkil qilib, ba'zi guruhlariga "Mental xarita"ni, ba'zi guruhlariga "Nilufar guli"ni to'ldirish topshiriladi va ish natijalari taqqoslanadi. "Skalyar miqdorlar" mavzusining mental xaritasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

"Skalyar miqdorlar" mavzusining mental xaritasi quyidagicha bo'lishi mumkin:



Aytilgan fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, grafik organayzerlarning talabalarining o'rganilgan mavzu bo'yicha tahliliy, qiyosiy, mustaqil fikrlashini tashkil qilishda imkoniyatlari katta ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alan Zolman. Students Use Graphic Organizers to improve Mathematical Problem. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ868542.pdf>

2. Айматова Ф.Х. – Использование графических органайзеров в высшей математике. Вестник науки и образования, 2020 - cyberleninka.ru

3. Бобоева М.Н. Метод графического органайзера при изучении темы «Множество неотрицательных целых чисел». Проблемы науки, 2021 - cyberleninka.ru.

4. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. Iqtisod-moliya. 2018. 432b.

5. Xamedova N.A., Z.Ibragimova, T.Tasetov. Matematika. Toshkent., Turon-Iqbol. 2007. 310 b.

6. Xamedova N.A., Методика организации лекционного занятия на основе технологии перевернутое обучение. ТДПУ ахборотномаси. №11 2020й. 181-185-b.

7. Xamedova N.A., «Инновационные подходы в обучении математике на основе учета психологических факторов» Узлуксиз таълим. Махсус сон. 03.2021й. 28-32-b.

INKLYUZIV TA'LIMNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA SHAXSIGA TA'SIRI

Xamidova Muborak Ubaydullayevna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti. Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.067>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida, alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy faolligini oshirishga, nuqsonlarini korreksiyalashga va bartaraf etishga, ularning yaqin rivojlanish doirasiga ta'sir etishga, emotsional soha doirasini yaxshilashga, shaxslararo munosabatlarida ijobiy qobiliyatlarni, individual-psixologik hamda shaxs xususiyatlarini ijobiy shakllantirishga va maktab ta'limiga tayyorlashga doir tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: individual, korreksiya, integratsiya, abilitatsiya-adaptatsiya, terapiya, emotsional, inklyuziv, texnologiya, emotsional, rehabilitatsiya

ВЛИЯНИЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЛИЧНОСТЬ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНИКА

Хамидова Муборак Убайдуллаевна
доктор философских наук по педагогическим наукам, доцент кафедры методики дошкольного и начального образования. Ташкентский международный университет имени Кимё

Абстракт: В данной статье в целях подготовки детей с ограниченными возможностями дошкольного возраста к социальной жизни, повышения социальной активности детей, нуждающихся в специальной помощи, коррекции и устранения их недостатков, воздействия на их непосредственное развитие, улучшения эмоциональной сферы, развивать положительные навыки межличностных отношений, даются индивидуально-психологические и личностные рекомендации по формированию положительных характеристик и подготовке к школьному обучению

Kalit so'zlar: individual, korreksiya, integratsiya, abilitatsiya-adaptatsiya, terapiya, emotsional, inklyuziv, texnologiya, emotsional, rehabilitatsiya

Ключевые слова: личность, коррекция, интеграция, абилитация-адаптация, терапия, эмоциональная, инклюзивная, технология, эмоциональная, реабилитация.

INFLUENCE OF INCLUSIVE EDUCATION ON THE PERSONALITY OF PRESCHOOL CHILDREN

Khamidova Muborak Ubaydullaevna
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor of the Department of Methods of Preschool and Primary Education. Tashkent International University names Kimyo

Abstract: In order to prepare preschool children with disabilities for social life, this article aims to increase the social activity of children with special needs, correct and eliminate their defects, influence their immediate development, improve the emotional sphere, develop positive skills in interpersonal relationships, individual-psychological and recommendations on positive formation of personal characteristics and preparation for school education are given.

Key words: individual, correction, integration, habilitation-adaptation, therapy, emotional, inclusive, technology, emotional, rehabilitation

Hozirgi kunda respublikada rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ta'lim tarbiyasining yangi tashkiliy shakllarini yaratish, yangi korreksion texnologiyalarni ishlab chiqish, nogironlikning oldini olish, ilk yosh davridan aniqlash, to'g'ri tashxis qilish, maxsus

yoki umumta'lim tashkilotlarida ta'lim olishini ta'minlash, ularning teng huquqlik sharoitini yaratish, ijtimoiy qo'llab – quvvatlashning samaradorligini oshirish maqsadida davlatimiz tomonidan keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Bizga ma'lumki ta'limdagi eng dolzarb muammo, bu rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni ijtimoiy jamiyatga moslashtirish, ularni barcha qatori teng huquqlarini ta'minlash, kelajakda o'z-o'ziga to'laqonli xizmat qila olish, jamiyatning faol ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritish imkonini beradi. Bu bolalarni ijtimoiy jamiyatda moslashtirish iishlari ilk yosh davridan boshlab integratsiyalash asosida amalga oshirilsagina samarali kechadi.

Hozirgi kunda O'zbekikstonda bir qancha integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lib ularda bir qancha imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim tarbiya olishmoqda. Bu ta'lim o'zining ijobiy natijalariga erishmoqda. Undan tashqari integratsiyalashgan maktabgacha ta'limning inklyuziv guruxlarida ta'lim olayotgan bolalarda sezilarli darajada o'zgarishlar kuzatilib ularning bilish jarayonlari bo'lmish xotira, diqqat, tafakkur operatsiyalari, tasavvuri, sezgilari, idroki, faoliyati va shaxsiy sifatlarida bir qancha ijobiy natijalarga erishilayotgan ekan.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti ishining mazmuni. Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotida har xil yoshdagi (3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan) bolalar qabul qilinadi. Bu bolalar sarasiga me'yorida rivojlangan bolalar, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishida engil darajadagi nuqsonlari bo'lgan, zaif eshituvchi bolalar, zaif ko'ruvchi, ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar va tayanch harakat a'zolari shikastlangan bolalar kiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalarga korreksiya va integratsiya ishlarini samarali tashkil qilish, ularni ijtimoiy moslashtirish uchun har bir bolaning "Psixologik-tibbiy-pedagogik tashxis" komissiyasi tomonidan to'g'ri diagnostika ishlarini amalga oshirish talab etilib, ularning ko'rsatmalari bo'yicha alohida individual dastur tuziladi. Abilitatsiya-adaptatsiya jarayonida mashg'ulotlarni har xil shakllaridan (individual, kichik guruhli, frontal mashg'ulotlardan) foydalaniladi. Mashg'ulotlardan tashqari kun davomidagi faoliyatlar davomida (erkin, o'yin, ovqatlanish, sayr) ham tashkil etiladi.

Frontal mashg'ulotlarda asosiy tarbiyachi bilan bir yoki undan ortiq (bolalar soniga qarab) "yordamchi" pedagoglar ham ishtirok etadilar. Bu yordamchi pedagoglar mashg'ulotlarda qiyinchiliklarga duch kelayotgan barcha bolalarga yordam beradilar. Mashg'ulotlar vaqtda yordamchi va asosiy pedagoglarning o'rni almashib turishi mumkin.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har xil shakldagi davolash usullaridan ham foydalaniladi: musiqa terapiyasi, harakatlar terapiyasi, san'at ijodiyoti terapiyasi, o'yin terapiyasi va boshqalar. Hamma mashg'ulotlarning maqsadi bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishga, nuqsonlarini korreksiyalashga va bartaraf etishga, ularning yaqin rivojlanish doirasiga ta'sir etishga, emotsional soha doirasini yaxshilashga, shaxslararo munosabatlarida ijobiy qobiliyatlarni, individual-psixologik hamda shaxs xususiyatlarini ijobiy shakllantirishga, shuningdek maktab ta'limiga tayyorlaniladi.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va inklyuziv guruhlari mutaxassislarining vazifalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- nuqsonidan va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har bir bola uchun alohida korreksion pedagogik ishlarni olib borish;

- nogiron farzandlari bor oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish;

- integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti ish mazmunini amalga oshirish va takomillashtirish va boshqalar.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalarini amalga oshirish oila bilan chambarchas bog'liqlikda samarali kechadi. Mazkur tashkilotda mutaxassislari har bir bolaning ota-onalariga doimiy ravishda bolalarining ta'limini o'ziga xos tomonlari, uni oilada amalga oshirish yo'llari, oilada korreksion ishlarni davom ettirish masalalari, bolaning psixologiyasiga salbiy ta'sir etuvchi sabablar xususida ma'lumotlar beradilar. Ota-onalar ham faol ravishda o'z farzandi xususida uzluksiz maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislariga ma'lumotlar berib, yordam beradilar.

Oilada bola biror bir nohush voqea ta'sirida qolsa (masalan: bolaning qattiq qo'rqib ketishi,

qattiq yiqilishi yoki uyda bolani judayam injiq bo'lib qolishi va boshqalar) bu bola bilan olib borilayotgan korreksion-pedagogik-reabilitatsiya ishlarining samarasini pasayishiga, nuqsonlarini yanada og'irlashishiga, ikkilamchi nuqsonlarning kelib chiqishiga olib keladi. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun ota-onalar bevosita mutaxassislariga bola to'g'risidagi ma'lumotlarni berishlari kerak. Bunday ma'lumotlarni olgan integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari o'z vaqtida salbiy ta'sirlarning oldini olgan holda, lozim bo'lgan choralarni ko'radilar.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida oilaviy psixolog ham faoliyat yuritishi lozim. Uning vazifasi ota-ona va mutaxassislarning o'zaro aloqalarni o'rnatishga, ular o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratishdan iborat.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va inklyuziv guruhlari mutaxassislarning faoliyati. Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va inklyuziv guruhlari pedagoglar (tarbiyachilar, logopedlar, defektologlar) ning, ya'ni psixologlar, shifokorlar (nevropatolog, bolalar psixiatri) ning o'zaro hamkorligi, birgalikdagi ish yuritishlari talab etiladi.

Birgalikdagi mutaxassislar faoliyatini amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- integratsiyalash bu nuqsonli bolani reabilitatsiyalash va rivojlantirish uchun eng samarali yo'l ekanligi;
- mutaxassislar malakasini doimiy ravishda har tomonlama rivojlantirib borishligi;
- ish faoliyatida o'z hamkasb hamkoriga nisbatan yuqori darajada hurmat bilan qarash, uni qo'llab quvvatlash va ko'maklashishi;
- hamkorlik faoliyatining natijalarini samarali bo'lishiga ishonishi;
- har bir mutaxassis hamkorlikning aniq vazifalarini belgilash;- bolaga ta'sir etishda o'zaro qo'llaniladigan usullar almashib borish tamoyili va boshqalar [1,101].

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining jamoasi bir butun guruhni tashkil etadi. Uning tarkibiy qismi quyidagi uchta kichik guruhchalardan iborat: maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari, maslahatchi mutaxassislar va ma'muriyat.

Pedagogik jamoada quyidagi mutaxassislar bo'lishi maqsadga muvofiqdir: tarbiyachi-pedagog, logoped, defektolog (surdapedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog), psixolog, tarbiyachi, musiqa va jismoniy tarbiya instruktoriga, kuzatuvchi-yordamchi pedagog-defektolog kabi. Har yilning boshida maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan ularning har birini aniq vazifasi va o'zaro hamkorlik ish faoliyatining mazmuni hamda yo'nalishi belgilab beriladi. Masalan: logoped bolalarning nutqini frontal mashg'ulotlarda rivojlantirish, individual mashg'ulotlarda nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish ishlarini olib boradi.

Bolalardagi nuqson turiga ko'ra har bir defektolog nuqsonni korreksiyalash va bartaraf etish, tarbiyaviy-ta'limiy ishlarni olib borish vazifalarini bajaradi.

Psixolog bolalar ruhiyatini o'rganadi, ruhiyatdagi chegaralanish yoki buzilishlarni, orqada qolish sabablarini aniqlaydi, emotsional, his-tuyg'ularga ijobiy ta'sir etish, o'zaro do'stona munosabat muhitini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini amalga oshiradi. Bolalarning maktabga tayyorgarligini tekshiradi, ota-onalarga maslahatlar beradi, oila terapiyasini olib boradi. Bolalar bilan yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etadi, o'yin terapiyasini olib boradi. Doimiy ravishda o'z faoliyati doirasida barcha mutaxassislariga maslahatlar berib, psixologik yordamni tashkil etadi.

Tarbiyachi nutq o'stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, qurish-yasash, fazoviy tasavvurlarni hosil qilish, applikasiya, loy ishi, tasviriy faoliyat kabi mashg'ulotlarni tarbiyachi olib boradi, bolalarning bo'sh vaqtini, dam olishini, ovqatlanishini, sayr qilishini tashkil etadi.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari shifokorlari bolalarning jismoniy salomatligini ta'minlash vazifasini amalga oshiradi.

Ta'lim jarayonini rejalashtirish. Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar integratsiya va inklyuzivlik asosida to'plangan bo'lib, ta'lim jarayoni bir necha dasturlar yordamida olib boriladi. Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limiy, korreksion, pedagogik ishlar, tevarak-atrof bilan tanishtirish, elementar matematik

tushunchalar berish, jismoniy va musiqa tarbiya, qurish-yasash, nutq o‘stirish mashg‘ulotlari shaklida tashkil etiladi [2, 71].

Integratsiyalashgan maktabgacha ta’lim tashkilotida va inklyuziv guruhlarida har yilning boshida mashg‘ulotlar jadvali ishlab chiqiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining inklyuziv guruhlarini faoliyatining maqsad, vazifalarini. “Imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlar uchun inklyuziv ta’lim muvaqqat Nizomi”da maktabgacha ta’lim tashkilotining inklyuziv guruhlarining maqsad va vazifalari quyidagi tartibda belgilangan:

- umumiy maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadi maxsus vosita va metodlarni qo‘llash, resurs pedagoglarni jalb qilish asosida, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarga sog‘lom bolalar bilan bir qatorda umumiy ta’lim berish;

- inklyuziv ta’lim tashkiloti alohida ta’lim olishga ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam ko‘rsatadi;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bir qator maxsus vazifalarni ham hal etilishini nazarda tutadi:

- ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ularning rivojlanishi va muloqot qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan holda sog‘lom bolalar orasida ijtimoiy integratsiyalash;

- ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik, tibbiy, psixologik, ijtimoiy moslashtirish ishlarini olib borish;

- rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarga kerakli korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatish;

- alohida yordamga muhtoj bolalar ota-onalari (yoki qonuniy vakillari)ni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, unda pedagogik texnologiyalarni, ta’lim metod va vositalarini qo‘llashni xabardor qilish, psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

Integratsiyalashgan bog‘chaning maqsad vazifalari umumiy va inklyuziv maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsad vazifalaridan farqli ravishda alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlari hamda ularning shaxsiy-psixologik xususiyatlari nuqson turlari va uning darajalarini hisobga olgan quyidagicha belgilanadi:

- jismoniy yoki ruhiy rivojlanishning darajalari va holatlaridan qat’iy nazar barcha bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, bolalardagi mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va har tomonlama rivojlantirish, maktab ta’limiga tayyorlash;

- barcha maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarini emotsional-axloqiy jihatdan tarbiyalash;

- ota-onalarga nuqsonli bolalarni oilada ijtimoiy-psixologik yo‘nalishda tarbiyalashga va ularni jamiyatga integratsiyalashga oid tavsiyalar berish;

- rehabilitatsiya markazlari va integratsiyalashgan turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasida aloqa o‘rnatish.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta’lim tashkilotining vazifalari

- Rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan bolalarni samarali intergatsiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- maxsus ehtiyojli bolalarni maktabgacha yosh davridan boshlab sog‘lom rivojlangan bolalar qatori har tomonlama tenglashtirish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotining integrativ muhitiga rivojlanishda nuqsonlari bo‘lgan bolalarni abilitatsiyalash (ijtimoiy muhitga moslashtirish, mavjud nuqsonlarini korreksiyalash va moslashtirish) ishlarini amalga oshirish;

- maxsus yordamga muhtoj bolalarning oilalariga ijtimoiy psixologik yordam ko‘rsatish;

- integratsiyalashgan turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan rehabilitatsion markazlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va boshqalar.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va guruhlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari Integratsiyalashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va guruhlarida amalga oshiriladigan ta’limiy jarayonni tashkil etishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish tavsiya etiladi:

Shaxsiy yondashish tamoyili. Bu tamoyil asosida bolaning rivojlanish darajasidan

va holatidan qat'iy nazar uning shaxsiga hurmat bilan yondashish lozimligi talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog xodimlari o'z ishida bolaning hohishi va istagiga ko'ra faoliyatini rag'batlantirib borishlari, uning xotirjam bo'lishini ta'minlashlari kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayoni ota-onalarning talablari, har bir bolaning qiziqishlari hamda qobiliyatlariga ko'ra tashkil etilishi lozim. Bu tamoyil asosida "Baxtli ota-onalar va baxtli bolalar" sharoitini yaratish nazarda tutiladi.

Shaxsiy yondashish tamoyiliga asoslanish, individual rivojlantirish dasturida har bir maxsus ehtiyojli bolaning shaxsiy holati qayd qilinadi. Individual rivojlantirish dasturi asosida bolaning nuqson turi, uning darajasi, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish sabablariga ko'ra psixolog-pedagogik ta'sir etiladi.

Shaxsiy yondashish tamoyilining mazmunida "abilitatsiya" tushunchasi ham yotadi. Abilitatsiya bu-hozirgi zamon olimlarining neyropsixologik reabilitatsiya qilish (L.S.Svetkova) va miya faoliyati rivojlanishining o'ziga xosligi (A.R.Luriya) kabi qarashlariga, qonuniyatlariga ko'ra bolaga psixologik-pedagogik jihatdan ta'sir etishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ishni birgalikda yuritish tamoyili. Bu tamoyilning mohiyatini maktabgacha ta'lim tashkiloti mutaxassislari (pedagoglar, defektologlar, psixologlar va shifokorlar) o'z ish faoliyatida turli xildagi jarayonlar oqali bolaga ta'sir etishda belgilangan yagona tizimida ishlashlari lozimligini talab etilishidir.

Bolalarning ijtimoiy ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish tamoyili. Psixologik-pedagogik yordam bolaning bosh miya faoliyatining holatini (o'yin faoliyatini) hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Bolaga berilayotgan aqliy topshiriqlar bolaning emotsional qarshiligiga sabab bo'lib, uning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga salbiy ta'sir qilmasligi lozim.

Tashkil etiladigan psixologik-pedagogik holat bolaning ish faoliyatini oshiradigan, o'rtoqlari bilan munosabatini kuchaytiradigan va qobiliyatlarini rivojlantiradigan bo'lishi kerak.

Integratsiyalashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan ish jarayoni yuqorida keltirilgan maxsus tamoyillar bilan birga umumdidaktik tamoyillarga ham asoslangan holda tashkil etiladi. Bundan ko'rinib turibdiki inklyuziv ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarning barkamol shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishlari uchun juda katta ahamiyatga ega ekan. Ayniqsa bolalarning bilish jarayonlarining ya'ni (xotira, diqqat, tafakkur, iroda, sezgi, tasavvur, idrok) xususiyatlarining yanada mukammal rivojlanishiga yordam berar ekan [3, 18]

Maxsus ehtiyojli bolalarga umumta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya berilar ekan, ya'ni inklyuziv ta'limning joriy etilishi kelajakda alohida yordamga muhtoj bolalarning imkoniyatlari yanada kengayadi, ijtimoiy jamiyatning to'laqonli va teng huquqli a'zosi aylanadilar, ularning ijtimoiy himoyasi mustahkam kafolatlanadi, jamiyatda o'z o'rinlariga ega bo'ladilar. Jamiyat orasida imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan do'stona munosabat shakillanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

L.R.Muminova, R. Shomaxmudova. «Imkoniyati cheklangan bolalarni individual koreksion rivojlanish dasturining metodologik asoslari». Uslubiy tavsiyanoma. T. 2007.

У.Иноятов. Основные аспекты и перспективы социальной инклюзии народного образования Республики Узбекистан. Международная конференция на тему: Социальная инклюзия: новые ориентиры социализации детей. Т., 2017.

Ture Yonson. Inklyuziv ta'lim. T.: Opereyshin Mersi, 2003.

SPORT O'YINLARINING TARIXIY RIVOJLANISHIGA DOIR AYRIM NAZARIY VA ESTETIK QARASHLAR

Xamroyev Behruz Xalimovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti dotsenti v.b.
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.068>

Annotatsiya: Hozirgizamonfanixalqo 'yinlarini ilmiy jihatdan va insoniyatsivilizatsiyasining madaniy merosi sifatida saqlab qolish, tarixiy pedagogik muammolar doirasida o'rganish naqadar dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Ijtimoiy modernizatsiya jarayonlarida xalq o'yinlarining rivojlanish tendensiyalari, mifologiyasi, transformatsiyasi, tarixiy-madaniy va etnik xususiyatlarini etnografik aspektda tadqiq etish hamda dunyo ilmiy jamoatchiligiga va yoshlarga targ'ibot etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ushbu maqolada, Sport o'yinlarining tarixiy genezisi, taraqqiyot tamoyillari va zamonaviy sport o'yinlari takomillashuvidagi ahamiyati asosida ta'lim-tarbiya tizimi omillari va ularning yangi avlod sport madaniyati taraqqiyotiga ta'siri qiyosiy-tipologik pozitsiya nuqtai-nazaridan aniqlashtirilgan:

Kalit so'zlar: Sport o'yinlari, tarixiy genezis, modernizatsiya, rivojlanish tendensiyalari, mifologiya, transformatsiya, etnografiya, taraqqiyot tamoyillari, zamonaviy sport o'yinlari, ta'lim-tarbiya, tizim, sport madaniyati, qiyosiy-tipologik pozitsiya, nuqtai-nazar.

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СПОРТИВНЫХ ИГР

Хамроева Бехруза Халимовича
Бухарский государственный педагогический институт
доцент факультета физической культуры

Аннотация: Современная наука показывает, насколько актуальны научное и культурное наследие народных игр, изучение их в рамках исторических педагогических проблем. В процессе социальной модернизации возникает необходимость изучения в этнографическом аспекте тенденций развития, мифологии, трансформации, историко-культурных и этнических особенностей народных игр и пропаганды их мировой научной общественности и молодежи. В данной статье на основе исторического генеза, принципов развития и совершенствования современных спортивных игр определены факторы системы образования и воспитания и их влияние на развитие спортивной культуры нового поколения с точки зрения сравнительно-типологической позиции:

Ключевые слова: спортивные игры, исторический генезис, модернизация, тенденции развития, мифология, трансформация, этнография, принципы развития, современные спортивные игры, образование, система, спортивная культура, сравнительно-типологическая позиция, точка зрения.

SOME THEORETICAL AND AESTHETIC VIEWS ON THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF SPORTS GAMES

Khamroev Bekhruz Khalimovich
Bukhara State Pedagogical Institute
Associate Professor, Department of Physical Education

Abstract: Modern science shows how relevant the scientific and cultural heritage of folk games is, their study within the framework of historical pedagogical problems. In the process of social modernization, there is a need to study in the ethnographic aspect the trends in development, mythology, transformation, historical, cultural and ethnic characteristics of folk games and the propaganda of their world scientific community and youth. In this article, based on the historical genesis, principles of development and improvement of modern sports games, the factors of the education and upbringing system and their influence on the development of a

new generation of sports culture from the point of view of a comparative typological position are determined:

Key words: sports games, historical genesis, modernization, development trends, mythology, transformation, ethnography, development principles, modern sports games, education, system, sports culture, comparative-typological position, point of view.

KIRISH: Jahon xalqlari qatorida o'zbek millatining ham o'ziga xos yashash tarzi, etnografiyasi va etnomadaniy xususiyatlar i mavjud. Xalq o'yinlarida ma'lum bir xalqning folklori, milliy kiyim-kechaklari, raqs-harakatlari, xo'jalik-madaniy an'analari va shu kabi qator etnopedagogik belgilari aks etgan. Xalq o'yinlari sirasiga bir necha o'yinlarning o'nlab shakllari, ularni etnopedagogik tahlili milliy urf-odat, tamoyillarga ko'ra tartib-qoidalari, etikasi, ramziy shakllari, sovrin va ularni topshirish tartiblari, har bir tamoshabin, mehmonlarga ko'rsatiladigan ehtirom bilan bog'liq udumlar tahlil qilinar ekan, bu yo'nalishda sport o'yinlarining usullari va tarbiyaviy mohiyatini yoritish alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta bugungi kunda yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga a'lohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, PF-5368-son, 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish chor- tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son farmonlari, 2020-yil 3-noyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4877-sonli qarorlari va sport faoliyatini takomillashtirishga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishda dasturil amal bo'lib xizmt qilmoqda.

O'zbek milliy davlatchiligining turli tarixiy bosqichlarida o'qitish va ta'lim-tarbiya jismoniy madaniyat va sport sohasi masalalarini o'rganish pedagogika fanida hamma vaqt qiziqarli mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Bugungi kungacha ushbu mavzuga birmuncha yaqin tadqiqotlarni dunyo va rus olimlaridan Yu.S.Shodomiskiy, A.B.Sunik, V.Ya.Nepomnin, P.F.Lesgaft, N.V.Zismanlar amalga oshirgan[21; c-25., 22; c-32., 17; c-103., 8; c-120.].

Shuningdek o'zbek olimlaridan R. Abdumalikov, X.A. Eshnazarov, A. Abdiyev, M.S.Axmatovalar [2; 3-13-b.] ushbu mavzu yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Lekin ushbu olimlar hozirgi milliy sport o'yinlarining kelib chiqish tarixi, etnografik xususiyatlari, har bir sport turiga asos bo'luvchi omillar tahlili va tasnifi yetarlicha qilinmagan.

ISHNING MAQSADI: Sport o'yinlarining tarixiy genezisi, taraqqiyot tamoyillari va zamonaviy sport o'yinlari takomillashuvidagi ahamiyatini tahlil qilish.

TADQIQOT METODLARI: maqolani yozishda xronologik tizimlilik, davriylik, mantiqiy yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy tahlil va adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy(tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik(so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar(ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash kabi).

NATIJARLAR VA MUNOZARA: Xalq o'yinlarini ilmiy jihatdan o'rganish masalalari dastlab XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida tavsifiy xarakterda bo'lgan bo'lsa-da, o'sha davr mualliflari voqeliklarni bevosita o'zlari kuzatganliklari, guvoh bo'lganliklari sababli ular tomonidan yozib qoldirilgan asarlar hozirgi davr ilmiy tadqiqotlari uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Sovet davridagi olimlar o'zlaridan oldingi tadqiqotchilarning ilmiy yutuqlariga tayangan holda yangi materiallar yig'ib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Mustaqillik davridagi tadqiqotlarda esa tom ma'noda milliy qadriyatlarini, an'analarni tiklash, jahondagi turli ilmiy maktablarning ilg'or tajribalaridan foydalanib, muammoga yangicha ilmiy-nazariy jihatdan yondashish kuzatiladi.

Qadimgi davrlarda ham ibtidoiy odamlar turli-tuman jonivorlar holati, hatti-harakatlariga taqlidqilib, muayyan o'yinlarni o'ylab topganlar. Bu davrdagi ovchilik o'yinlari odatda totemistik va animistik qarashlar bilan aloqador bo'lgan. Dastlab, ibtidoiy marosimlarning tarkibiy

qismi bo‘lgan totemistik raqs va o‘yin harakatlari keyinchalik ananaviy o‘yin hamda tomosha sanati asariga aylanib ketgan. Demak, ananaviy xalq o‘yinlarini tadqiq etish orqali qadimgi davrlarda yashagan ajdodlarimiz dunyoqarashini o‘rganish mumkin bo‘ladi. Xalqimizning ruhiy kechinmalari, moddiy va manaviy turmushi, milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi ananaviy o‘yinlar uch ming yillik tarix davomida sayqallanib kelgan manaviy qadriyatlarni avaylab-asrash borasidagi umumxalq harakatining tarkibiy qismidir. Xalqimizning ommaviy sayl-tomoshalari, marosimlari ham o‘yinlarsiz o‘tmaydi. Shu bois ananaviy xalq o‘yinlarini o‘rganish xalq ruhiyati va madaniy hayotining o‘ziga xos jihatlarini anglashga imkon beradi. O‘yinlarining tarixiy-genetik asoslari ochib berilmaganligi tufayli o‘yinlarning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti tamoyillari ham haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Ananaviy xalq o‘yinlarining genetik tasnifi, o‘yinlarning ijtimoiy hodisasi sifatidagi yuzaga kelish tarixi va tadrijiy rivoji, o‘yin tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy elementlarning xususiyatlari va o‘yinlarning estetik tarbiya vazifalarini alohida ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurligi mavzusining dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

O‘yinlarining tarixiy-genetik asoslari ochib berilmaganligi tufayli o‘yinlarning shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti tamoyillari ham haligacha to‘liq o‘rganilmagan. Ananaviy xalq o‘yinlarining genetik tasnifi, o‘yinlarning ijtimoiy hodisasi sifatidagi yuzaga kelish tarixi va tadrijiy rivoji, o‘yin tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy elementlarning xususiyatlari va o‘yinlarning estetik tarbiya vazifalarini alohida ilmiy jihatdan tadqiq etish zarurligi mavzusining dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan, tarixan bir muhitda yashab, o‘tmish madaniyati bir zaminda vujudga kelgan, biroq ayni paytda mustaqil davlat bo‘lib yashayotgan respublikalarning tarixiy ildizlarini qidirib topish, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini qaytadan tiklash borasidagi intilishlarini hayotning o‘zi zaruriyat darajasiga ko‘tarmoqda.

Xalq o‘yinlari juda qadimiy va boy tarixga egadir. Ularning ildizlari insoniyat paydo bo‘la boshlagan ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Xalq o‘yinlarining genetik asosi ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo‘lgan ibtidoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Davrlar o‘tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o‘yinlar o‘zining rituallik xususiyatini yo‘qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko‘ngilochar vositaga aylangan.

Taniqli olim U.Qoraboev o‘yin qadim zamonlardanoq insoniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin egallab kelganligini ijtimoiy turmush tarzi bilan bog‘lab, mehnat tajribalari bilan birga o‘yin-musobaqalarga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqanligini quyidagicha izohlaydi [16; 6-7-b.].

Xalq o‘yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamning o‘z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi xalq o‘yinlarining kelib chiqishiga asos bo‘lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Turmush tarzi ajdodlarimizdan o‘z farzandlarini yaxshi chavandoz, “qirag‘ay mergan”, kuragi erga tegmaydigan pahlavon qilib tarbiyalashni taqazo etar edi. Shuning uchun, ot poyga, tirandozlik musobaqalari, olishuv-kurash, shuningdek, tuya, qo‘chqor, xo‘roz urishtirish qadimdan keng rasm bo‘lgan edi. Ana shu an‘analar asosida asrlar davomida xalq o‘yinlari mukammal tizimi shakllangan deb, aytish mumkin. Ishlab chiqarish kuchlarining tobora rivojlanishi, mehnat quollarining takomillashuvi ibtidoiy jamoa tuzumining so‘nggi bosqichlarida bolalarning ana shu mehnat quollaridan oddiy turmush va unumli mehnatda kattalardek foydalana olmasligi ularga xos va mos bo‘lgan o‘yin turlarining shakllanishiga sabab bo‘lgan. Shu tufayli bolalar mehnat quollariga o‘xshagan o‘yinchoq yasay boshlagan. Bolalar o‘yining vositasi – o‘yinchoqlar ehtimol ana shu tariqa vujudga kelgan bo‘lishi mumkin.

O‘tmishda ota-bobolarimiz juda qadimgi davlatchilik an‘analariga ega bo‘lgan boy ma‘naviy va moddiy yodgorliklarni meros qoldirishgan. Dovon (Farg‘ona) davlatini bir necha marta kelib zabt eta olmagan xitoyliklar bu yerdagi shaharlar, boy dehqonchilik madaniyati va

“samoviy ot”larni maqtab yozishgan. Ular chavandozlik, merganlik va yakka kurash usullarini yaxshi egallagan edilar [20; c-479.].

Shu o'rinda N.Azizovning “Belbog‘li Turkiston kurashi” nomli asarida vengriyalik mashhur yozuvchi L.Kunning fikriga tayanib, farg‘onacha kurashning shakllanishi miloddan avvalgi III ming yillikka borib taqalishi haqidagi ma'lumotni keltirib o'tish kerak. Olim Mesopotamiya hududidan topilgan bronzadan yasalgan ikki odamning kurashayotgan haykalchasini dalil qilib ko'rsatar ekan, bu haykalning ko'rinishi Farg‘ona kurash turida kurashayotganga o'xshaydi, deb ta'kidlaydi [3; 5-6-b.].

Xalq o'yinlaridan ov o'yinlari ham o'ziga xos tarixga ega bo'lib, bunday o'yinlarning tarixiy ildizlari ibtidoiy odamlar turmush tarziga va hayotiga borib taqaladi. Bunday o'yinlar ov oldi mashqi vazifasini o'tab, o'sha davrga xos kichik jiddiy tadbir shaklida uyushtirilgan [16; 24-25-b.].

Ovchilik asosida chorvachilik shakllangan, keyinchalik bu o'yinlar chorvador qabilalar orasida an'anaga aylanib qolgan. Ov o'yinlarining bayram marosimlarida ruhiy va jismoniy tayyorgarlik, ko'tarinki kayfiyatni vujudga keltirish mashqi sifatida an'anaga aylanib borganligi ilk madaniyat va san'atning rivojlanishi uchun turtki bo'lib xizmat qiladi.”Qobusnomada “Shikor qilsang ikki tariqada qilg'ilkim, podshohlar ikki tariqada qilurlar; ba'zilar o'z qo'llari bilan qush solurlar va ba'zilar o'z qo'llari bilan qush solmaslar. Podshohlarning shikor qilishdan maqsadlari go'sht emas, tomoshadir” [12; 109-111-b.]. Bayram ishtirokchilarining diqqatini tadbirlarga jalb qilish ularni faollashtirish maqsadida ov o'yinlari ommaviylashtirilib, qo'shiq, viktorina, ko'rik tanlov, sport musobaqalari kabi bir necha kompleks tadbirlarni qamrab olgan. Bizning fikrimizcha, eng qadimgi davrlardan boshlab turli hayvonlarni ovlash, ularni tutib olish kabi ishlar o'tni nihoyatda tez choptirish, tezlik bilan ketayotgan otning ustida turli mashqlarni bajarish uchun epchil, baquvvat bo'lish va tez harakat qilish zarur bo'lgan. Bunday xususiyatlarni rivojlantirish uchun esa, doimiy tarzda sport musobaqalarida o'ynab, chiniqish talab etilgan. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, uloq-ko'pkari, poyga kabi ot o'yinlari mashqlarning natijasi o'laroq vujudga kelgan.

Xalq o'yinlari haqidagi yozma ma'lumotlarni XI asrda yashagan taniqli turkiyshunos olim Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” [15; 447-454-b.] asaridan ham olish mumkin. Mazkur asarda keltirilgan ma'lumotlar xalq o'yinlarining yuzaga kelish tarixi va evolutsiyasini o'rganish imkonini beradi. Jumladan, turkiy qavmlar orasida to'p bilan o'ynaladigan qadimiy o'yinlardan biri – “chavgon” juda ommalashgan edi. “Devonu lug'otit turk”da bu o'yinga taalluqli bo'lgan quyidagi atamalar keltiriladi: “Tanguq”- chavgon o'yinida koptokni tortilgan o'tovdan o'tkazganga beriladigan ipak kiyimlik, “tasal”- chavgon o'yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq, “tobiq”- chavgon bilan uriladigan koptok, to'p. Kattalarning chavgon o'yini asosida “O't bandal” nomli bolalar o'yini yuzaga kelgan.

“Bandal” so'zining ma'nosi “bosh qismi cho'qmoqli yog'och” deb izohlanadi. Odatda, bunday cho'qmoqli tayoq bilan chavgon o'yinida koptok urilgan. Bolalar esa bunday cho'qmoqli tayoqlarning uchini yondirib, kechki paytda bir-birlariga tayoqlar o'qtalib o'ynaganlar, shu tufayli bir qadar xavfli bo'lgan, o'ta ehtiyotkorlikni talab qilgan bu o'yin “O't bandal” deb atalgan. O'yinda faqat o'g'il bolalar ishtirok etib, ularning qo'rqmas, jasur bo'lib ulg'ayishlari nazarda tutilgan. Qadimgi ajdodlarimiz bosqinchi qabilalar hujumini qaytarib, o'zlarini himoya qilishlari uchun jangu jadal sirlarini puxta egallashlari talab qilinardi. Shuning uchun qilichbozlik, nayzabozlik, o'q otish-tirandozlik sirlarini o'zlashtirish maqsadida turli tuman jangovar o'yinlarni ham o'ylab topganlar.”Agar tomosha uchun bir-ikki martaba chavgon o'ynasang ravodir va lekin ko'p otlig' bilan chiqib izdihom qilmag'ilkim, sakkiz otliqdan ziyoda bo'lishg'a hojat yo'q. Sen maydonning bir boshida turg'il, yana bir kishi maydonning oxirida tursin. Olti kishi maydonda to'pni ursin, Har vaqt to'p sening tarafingga kelsa, to'pni urg'il va maydonning oxirig'a surg'il, ammo olomonning ichig'a otmag'il. Chavgon o'yinining yo'li shudir. Shu bilan birga marraga yetirishg'a muvaffaq bo'l. Ammo urush maydonig'a kirsang, sustkashlik qilmag'il, darang, sustkashlik yaxshi emasdir” [12; 111-b.].

Kaykovus “Qobusnoma”da qadimgi chovgon o'yinining umumiy qoidalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Har bir guruhda sakkizta otliq a'zolar bo'lishi, maydonni ikki tomonida ikki kishi turishi kerak ekanligini uqtiradi. Chavgon o'yini ishtirokchilardan juda chaqqon va

serharakat bo'lishni talab qilishini ta'kidlaydi. Ot bilan o'ynaladigan xalq o'yinlaridan biri uloq (ko'pkari) ham mifologik tasavvurlar bilan bog'liq, ya'ni turkiy xalqlarda azal-azaldan bo'ri muqaddas jonivor sifatida e'zozlangan. Ko'kbo'ri qadimgi turklarning bobokaloni O'g'izxonga rizq-ro'z berish to'g'risida yo'llarni ko'rsatganligi, shundan buyon bo'ri bilan uchrashgan kun Navro'z, Ko'kbo'ri kuni ro'shnolikka chiqqan kun bo'lib qolganligi afsonada o'z ifodasini topgan. Ikkinchidan, "Ko'kboru" o'yini "muqaddas bo'ri" sharafiga uyushtirilganligi obrazli tarzda unga totem sifatida qaralganligini ko'rsatadi [5; 32-b.].

Shuningdek, "Ko'k yolli bo'ri" chaqqon, epchil va engil harakat qilganligi, o'z o'ljasiga favqulodda tashlanib, imkon qadar uni qo'ldan chiqarmasligiga ramziy ma'no berilib, uloq o'yini unga qiyoslangan. Bu xalqlarning totemizm e'tiqodi zamirida shakllangan bo'lib, hatto turkmanlarning qadimgi odatlarida "Ko'k bo'ri" to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lib [11; 19-b.], bugungi kunga qadar "salar" va "sariq" urug'larida yaxshi saqlangan. To'y kuni uylanmagan yosh yigitlar, ya'ni kuyovning do'stlari xo'jayin oldiga borib, "Bizga Kok bo'ri ber" deb talab qilishgan. "Ko'k bo'ri" ramziy ma'no ifodalab, o'rniga sovg'a sifatida pul, qo'y va echkilar berilgan.

XI asrda yashagan turkiy qavmlar orasida yong'oq bilan o'ynaladigan o'yin ham bo'lgan. Bu o'yin "Ko'chirma o'yin" deb ataladi. Mahmud Koshg'ariy ayrim qabilalar tilida bu o'yin "O'n to'rt" deb ham atalishini qayd etadi. Olimning yozishicha, bolalar erga qo'rg'onchaga o'xshatib to'rt chiziq tortib, unga o'nta eshik qilishgan. Ana shu shaklga tosh yoki yong'oq tashlab o'ynaganlar. To'rt chiziq va o'nta eshik chizilganligi sababli o'yin nomi "O'n to'rt" deb atalgan bo'lsa kerak.

Yong'oq o'yini hozirgi kunda ham o'zbek bolalarining kuz-qish fasllarida o'ynaydigan mavsumiy o'yinlaridan biri hisoblanadi. Nazarimizda, "Ko'chirma o'yin" aslida yumaloq tosh vositasida o'ynalgan. Keyinchalik bu predmetli o'yinda tosh o'rniga yong'oqdan foydalanish an'anasi yuzaga kelgan.

Bizningcha, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilgan bolalar o'yinlari turi hamda bolalik davri o'yinlari jismoniy va aqliy kuchini hamda uning tafakkurini takomillashtirib, irodasini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan o'yinlarning genezisini yoritishda muhim manbaa hisoblanadi.

Bolalar o'yinlari qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin, loy-tuproq bilanmi, yog'ochu kaltakmi, ipu arqon bilanmi, qaysinisi bo'lsa ham bolani turmush ikir-chikirlari, uy-ro'zg'or va xo'jalik ishlari, umuman katta hayotga tayyorlashda o'ziga xos hunar maktabi rolini o'ynagan [9; 249-b.]. Ajdodlarimiz farzand tarbiyasida jismoniy mashqlarning muhim ahamiyat kasb etishini, jismonan chiniqqan bola ijtimoiy hayotning har qanday qiyinchiliklariga sabr-bardoshli bo'lib, hayotga tayyor bo'lishini yaxshi anglashgan. Qadimdan Sharq xalqlarining turkiy qabilalari va urug'lari turli jismoniy o'yinlar asosida bolalarda jamoaviylik va ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyatlarini shakllantirish muhim omili ekanligini teran anglashgan. Shuning uchun ham qadimda bolalar o'yinlarining turli-tuman bir nechta turi mavjud bo'lgan. G'.Jahongirovning ta'kidlashicha, "Devonu lug'otit turk" asarida 150 taga yaqin milliy o'yinlar haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, 20 dan ortiq bolalar o'yini tavsif qilingan [6; c-27-29.].

Xalq o'yinlari va ularning turlari haqida fikr yuritilar ekan, ko'p ming yillik tarix davomida moddiy va ma'naviy yodgorliklarning ma'lumotiga ko'ra, ular biror mifologik qarash va tasavvurlar bilan bog'liqligi ayon bo'ladi [10; 32-6.]. Ayniqsa, ot hayvoni ishtirokida uyushtiriladigan o'yinlar insoniyatning ilk diniy e'tiqodlari: totemizm, animizm, fetishizm tasavvurlariga borib taqalashi bilan xarakterlanadi. Xorazmdagi Qo'yqirilgan qal'a yodgorligidan topilgan sopol xumning bir tomoniga ot choptirib ketayotgan massagetning nayza bilan hayvonga hamlasi tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi xumda qanotli otning tasviri tushirilgan [11; 19-b.].

Xuddi shunday tasvirlar, ya'ni otni choptirib ketayotib sher, kiyik, qoplon kabi hayvonlarni o'ldirish, ularga hujum qilish kabi sahnalarni ilk va rivojlangan o'rta asr tasviriy san'at asarlarida ko'plab uchratish mumkin [4; c-46-49.]. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, O'rta Osiyo xalqlarida ot bilan bog'liq bunday marosimlar to'g'risida tarixiy va badiiy asarlarda ham ko'p marotaba tilga olingan. Jumladan, Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub ming yillik tarixga

ega "Shohnoma" dostonida ham mazkur odat to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Qadimiy xalq o'yinlaridan kurashning ham xalq mifologik qarashlar ta'sirida vujudga kelganligi bilan bog'liq afsona va rivoyatlar mavjud [7; c-59-62.].

Akademik A.A. Asqarov turkiyzabon aholining o'yin-musobaqalarini qadimiy turlaridan bo'lgan kurashni va ot bilan bog'liq mifologik qarashlarni quyidagicha tahlil qiladi: "Ordos to'qasi tasvirdagi ikki pahlavon kurashining sershoh daraxtlarga bog'langan otlar, polvonlar ustida parvoz qilayotgan qushlar manzarasi mifologik tasavvurlar zamiridan kelib chiqqan. Bir qarashda kurash jarayonidagi egarlangan otlar tasviri ortiqcha tuyulsa-da, ijodiy tahlil asosida yondashilsa, masalaga oydinlik kiritish mumkin. Ya'ni ot uning barcha sarguzashtlarida doimiy ajralmas hamrohi, beminnat yordamchisidir. Shuning uchun qadimgi dostonlarda pahlavon bilan bir safda doimo uning oti hozir turgan [2; 3-13-b.].

Ayrim xalq o'yinlari genezisi O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi yozma manbasi "Avesto"ga borib taqaladi 81. Ma'lumki, "Avesto"da zardushtiyalarda to'rt unsur - suv, havo, tuproq va olov muqaddas sanalishi e'tirof etilgan. Qadimdan bolalar o'yini hisoblangan "Mung'us-mung'us" o'yini suvni muqaddas sanab poklanish uchun unga sho'ng'ish tufayli shakllangan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ot-it-turk" asarida ushbu suv bilan bog'liq o'yinlarga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Qalinguladi- kishi suv ustida qalqib turdi, bu oyoqlarini, tizzalarini harakatlantirib, suv uzra turishdir-qalingular. Suv bilan bog'liq suvda suzish o'yini qadimda chapsar deb atalishini ta'kidlaydi [15; 420-463-b.].

Elshunos olim Qoshg'ariy ushbu asarida bolalarni hozirjavoblikka, tez fikrlashga, tafakkur doirasini kengaytirish bilan bog'liq qadimiy bolalar o'yini bo'lgan mo'ng'uz-mo'ng'uz haqida shunday qimmatli ma'lumotni keltiradi: "mo'ng'iz-mo'ng'iz deyilgan bolalarning bir turli o'yini. Bu shunday; bolalar tiz cho'kib, dengiz labida o'tiradilar. Sonlari orasiga ho'l qum solib to'ldiradilar. So'ng qo'llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (ona boshisi) mo'ng'iz-mo'ng'iz deydi. Qolganlari-ne mo'ng'iz?- nimaning mo'ng'iz (shohi)? deb so'raydilar. U birin- ketin shohli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So'ng ona boshi ular orasida tuya, eshak singari shoxi yo'q hayvonlar otini aytib, chalg'itadi. Bolalarning birortasi uning ketidan shoxsiz hayvonni otini aytib yuborsa, u suvga itarib yuboriladi" [15; 446-b.]. Bolalar o'yinlari qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin, loy-tuproq bilanmi, yog'ochu kaltakmi, ipu arqon bilanmi, qaysinisi bo'lsa ham bolani turmush iker-chikirlari, uy-ro'zg'or va xo'jalik ishlari, umuman katta hayotga tayyorlashda o'ziga xos hunar maktabi rolini o'ynagan. Chunki, bolalar ham o'z ota-onalari qatorida turib, ijtimoiy-maishiy hayotda, xususan, ishlab chiqarishning talay jabhalarida o'z imkoniyatlari va iqtidorlari doirasida qadim zamonlardan buyon qatnashib kelganlar. Xullas, kattalar uyushtirgan turli-tuman marosimda qatnashganlar, ular qo'shiq kuylasa, jo'r bo'lganlar, birgalikda raqs tushganlar. Bunday aralashuv bolalarning hayot voqealariga o'z munosabatlarini ifodalash yo'sinini ham ola boshlagan. Bu jarayon bolalar uchun goh o'yin tarzida kechsa, goh majburiy mehnat shaklida kechgan, o'yin tarzida kechganida bolalar ehtiroslarga to'lib-toshib, o'z zavqlarini jo'shqin va samimiy ohanglarda kuylaganlar; majburiy mehnat tarzida kechganida esa, og'ir mehnat tufayli horg'in va alamli tuyg'ularini g'amgin shaklda ifoda etganlar. Qadimda faqat qizlar uchun ham maxsus o'yinlar bo'lgan; "yanqu- joriyalar o'ynaydigan bir turli o'yin nomi. Tartibi shundayki, arqonning ikki uchi bir daraxtga yoki ustunga bog'lanadi. So'ng ularning biri arqon o'rtasiga o'tiradi, oyoqlarini sakratib, ba'zan yuqori, ba'zan quyi tushib uchadi" [15; 420-463-b.]. Ushbu o'yinning yana bir turi mavjud bo'lib, yalingular deb atalgan. Bu o'yin ham qizlar uchun bo'lib, ikki tomoni ikki narsaga bog'langan arqonda o'ynaydi, arg'imchoq uchadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR. Xulosa qilib aytganda xalq orasidagi o'yinlar doimiy, mavsumiy, hatto shahar-qishloqlarga, katta va kichik yoshlarga, kunduzgi va tungi xarakterga egadir. Bundan tashqari o'yinlarni ularda ishtirok etadiganlar sirasiga qarab, bolalar, o'smirlar, yoshlar, qizlar, ayollar va erkaklar o'yini kabi turlarga ajratish mumkin. O'yinlar, shuningdek, ifoda vositalariga qarab so'zli, qo'shiqli, raqsli, harakatli, musobaqaviy etnografizm sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p o'rinlarda o'yinlarni bolalar va o'smirlar hamda katta yoshdagi kishilar uchun mo'ljallangan o'yinlarga ajratish taomilga kirgan. Katta yoshdagi kishilar uchun uloq (ko'pkari) va shavqi baland o'yinlardan qo'chqor, it, xo'roz urushtirish, oshiq o'yini kabilari

mansubdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеев Н.М. Организация работы в объединенных коллективах физической культуры. Москва. Наука. 1971. С-132.
2. Asqarov A.A. O'zbek milliy kurashining arxeologik materiallarda aks etishi. Markaziy Osiyoda an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar. // Karim SHoniyozov o'qishlari turkumidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2-qism. – Toshkent: 2005. – B. 3-13
3. Azizov N.X. Belbog'li Turkiston kurashi. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – B. 5-6.
4. Беленский А.М. Монументальное искусство Панжкента. Москва. Искусство. 1973. с-46-49.
5. Душекеев Т. Кок бору кылымадарды кариткан ойин, Кок бору кылмдарды карытаар ойин. Кок бору. 1999. № 5. 24-август.
6. Джахангиров Г. Узбекский детский игровой фольклор. // Фольклор, литература и история Востока. Материалы III всесоюзной тюркологической конференции. – Ташкент, 1984. – С. 27-29.
7. Жикиев А. Традиционные Туркменские праздники, развлеченение и игры. Ашхабад: Ылым, 1983. С-59-62.
8. Зисман Н.В. Физкультура и спорт в Узбекистане. Ташкент 1956. С-120.
9. Ishoqov V.V. Bolalar o'yinlarining etnografik xususiyatlari // O'zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent-Namangan, 2007. – B. 249.
10. Йўлдошев С.В. Фарғона водийси аҳолисининг халқ ўйинлари. Тарих фан бўй. фалс докт. дисс. автореферати. Тошкент. 2019.
11. Йулдошев С.В. Узлуксиз таълим-тарбия жараёнида халқ ўйинларининг илмий-педагогик асослари. Монография. Фарғонаю 2020. Б-19.
12. Kaykovus. Qobusnoma. Toshkent. O'qituvchi. 2018. b-109-111.
13. Ковалов Ю.А. Физическая культуры и спорта. Ташкент. 1956. С-120.
14. Култура и исскуствуво деревного Узбекистана. Каталог виставки Т.1.-Москва; 1991. рис.275: Т. 2.-с.58. рис.456.
15. Qoshg'ariy M. Devoni-lug'otit-turk. Toshkent. G'afur G'ulom 2017. B-420, 463, 446, 452, 463.
16. Qoraboev U. O'zbek xalq o'yinlari. – Toshkent: San'at, 2001. – B.6-7., 24-25.
17. Лесгофт П.Н. Руководство по физическому образованию дети школьного возраста 2-е. изд. 1909. С.103.
18. Непомнин В.Я. Очерки по истории социалистического строительство в Узбекистане. (1917-1937). Ташкент 1957. С- 218.
19. Суник А.Б. Развитие физической культуры в общеобразовательных школах Узбекистана за 50 лет. Автореф. Дисс. канд. пед. наук. Львов 1963.
20. Фирцов В. Туркистан и Туркистанский породи лошаей. Туркистанский сборник. 1895. Т. с-479.
21. Шодомиский Ю.С. Физическая культура и спорт в Узбекистана за 40 лет советской власти (1917-1957гг.) Автореф. Дисс. канд. пед. наук. Ташкент 1960. С-25.
22. Шодомиский Ю.С. Физическая культура и спорт в Советской Средней Азии и сопредельных страна. Автореф. Дисс. докт. пед. наук. Ташкент. 1972. С-32.

JAMMU VA KASHMIR XOTIN – QIZLAR TA'LIMI GENEZESI, EVOLUTSIYASI VA BUGUNGI HOLATI

*Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti
<https://orcid.org/0009-0004-2694-4293>
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.069>*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hindistonning shimoliy qismida joylashgan Jammu va Kashmir ittifoq hududida istiqomat qiluvchi xotin-qizlar, jumladan musulmon ayollar ta'limi ahamiyati to'g'risida so'z yuritiladi.

Ushbu tadqiqot ikkinchi darajali manbalarga asoslangan bo'lib, biz buyerda Jammu va Kashmir tarixi, an'anaviy ta'lim tizimi evolutsiyasi, musulmon hukmdorlar davrida xotin-qizlar ta'lim sistemasi, zamonaviy ta'lim tizimida xotin-qizlar qamrovini tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Muslima ayollar ta'limi, savodxonlik darajasi, Gulab Singh, xristian missionerlari, zamonaviy britanacha ta'lim tizimi.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ, ЭВОЛЮЦИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДЖАММУ И КАШМИРЕ

*Хайруллаева Ирода,
аспирант Ташкентского государственного университета востоковедения*

Аннотация: В данной статье говорится о важности образования для женщин, в том числе мусульманок, проживающих на союзной территории Джамму и Кашмир, расположенной в северной части Индии.

Это исследование основано на вторичных источниках, и мы обсудим историю Джамму и Кашмира, эволюцию традиционной системы образования, система женского образования в период мусульманских правителей, включение женщин в современную систему образования.

Ключевые слова: Образование мусульманских женщин, уровень грамотности, Гулаб Сингх, христианские миссионеры, современная британская система образования.

THE GENESIS, EVOLUTION AND PRESENT STATUS OF WOMEN'S EDUCATION IN JAMMU AND KASHMIR.

*Khayrullayeva Iroda Fakhridonovna,
PhD student of Tashkent state university of oriental studies.*

Abstract: This article talks about the importance of education for women, including Muslim women, living in the Union Territory of Jammu and Kashmir, located in the northern part of India.

This study is based on secondary sources and we will discuss the history of Jammu and Kashmir, women's education system during the period of Muslim rulers, evolution of traditional education system, inclusion of women in the modern education system.

Key words: Muslim women's education, literacy level, Gulab Singh, Christian missionaries, modern British education system.

KIRISH

Ta'lim inson taraqqiyotining asosiy vositasi bo'lib, uning ahamiyati xalqaro va milliy darajadagi asosiy huquq, tamoyil hamda nizomlar orqali ta'minlanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26 moddasida asosiy huquqning bir qismi sifatida ta'limning ahamiyati ta'kidlangan (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.1948.). Ushbu huquq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari konvensiyasining 28 moddasida ham o'z tasdig'ini topgan (BMT Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya.1989.). Hindiston mamlakatida ham ayollar uchun ta'lim olish imkoniyatlari "Ta'lim olish huquqi" bilan kafolatlanadi. 2009 yil Hindiston davlati Konstitutsiyasining 21A moddasida har bir bola majburiy ta'lim olish

huquqi belgilandi (Hindiston konstitutsiyasi (111-o'zgartirish) qonun loyihasi, 2009.).

Ta'limga bo'lgan bunday e'tibor zamonaviy dunyoda ta'limga iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy o'zgarish va inson resurslarini safarbar etishning muhim hamda kuchli vositasi sifatida qaralmoqda. Millat va jamiyatning taraqqiyoti, farovonligi ta'lim darajasi bilan belgilanadi. Ta'lim zamonaviy qarash, qadriyat, yondashuvlar va dunyoqarashni tarqatishda muhim rol o'ynaydi. Ta'limning ushbu ajoyib modernizatsiya salohiyati har bir shaxs yoki ijtimoiy jamiyat tomonidan amalga oshirilishi va bunga intilishi kerak (Ahmad. I. 1987.201).

Ta'lim ayollarning turli xil ko'rinishdagi ijtimoiy kamsitishlarga qarshi kurashish uchun ularning huquqiy, ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy huquq, qoida va imtiyozlari haqida xabardorligini oshirishga yordam beradi. Bu ularga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ko'nikmalarni rivojlantirish, ish izlab topish, sog'liq sharoitlarini yaxshilash va shu kabi yana ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ta'lim ayollarga jamiyatdagi jaholat va asrlar davomida shakllanib kelgan noto'g'ri qarashlar, an'analar ta'sirini kamaytirishga, ularni zamonaviy hayotda ijtimoiy-siyosiy o'rnilarini topish uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim va ko'nikmalar bilan tanishtiradi (Akhtar.J.1992.75). Shuning uchun xotin-qizlarga ta'lim berish nafaqat ularning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini kafolatlaydi, balki ularning hamda ular orqali butun oila a'zolari, keyinchalik esa butun jamiyat hayoti sifatini oshirishga ko'maklashadi.

Turli ilmiy tadqiqotlar orqali ta'lim xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z o'rnilarini topishga ulkan hissa qo'shganligi tasdig'ini ko'rsatadi. Xotin-qizlar ta'limi jamiyatdagi erkak va ayollar o'rtasidagi gender notenglikni kamaytirish hamda xotin-qizlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'rin topish, rivojlanish sohasidagi birlamchi muhim richag hisoblanadi. Xotin-qizlarga ta'lim berish orqali mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va ularning jamiyatning asosiy oqimiga kirishiga erishiladi. Biroq, ta'limning ijtimoiy-siyosiy kamchiliklarni bartaraf etishdagi sa'y-harakatlarga qaramay, xotin-qizlarning ta'limdagi roli qoniqarli emas (Fayaz Ahmad Bhat. 2011.).

Hindiston mamlakatida erkaklar va ayollar savodxonlik ko'rsatkichlari o'rtasida kattagini tafovut mavjud bo'lib, turli diniy jamoalar o'rtasidagi tengsizlik ta'limdagi nomutanosiblikni keltirib chiqarayotgan hodisalardan biri hisoblanadi. Hindiston jamiyatidagi musulmon va boshqa turli din vakillari o'rtasida ta'lim borasida sezilarli tafovut mavjud. Musulmonlar, asosan ayol musulmonlarning ta'lim sohasidagi ishtiroki past. Hasan Zoya va Menon Rity o'zlarining "Unequal Citizens: A Study of Muslim Women in India" ("Teng bo'lmagan fuqarolar: Hindistondagi musulmon ayollarni o'rganish") kitoblarida butun mamlakat bo'ylab musulmon xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda musulmon ayollarning qariyb 60 foizi o'zlarini savodsiz deb bilishlarini aniqladilar. Musulmon ayollarning ta'lim sohasida qoloqligi ularning mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va modernizatsiya qilishdan chetda qolishiga olib keladi (Fayaz Ahmad Bhat. 2011.).

Xotin-qizlar ta'limi ahamiyati ushbu tadqiqotning diqqat markazidagi asosiy masala hisoblanib, unda ayollar, jumladan, Jammu va Kashmirdagi musulma xotin-qizlar ta'limini o'rganish, ularning o'tmish tarixidagi ta'lim rivojlanishini, shtatdagi ta'limning hozirgi holatini kuzatishga qaratilgan. Maqolada shuningdek, o'rganilayotgan geografik hududdagi savodxonlik darajasidagi mavjud gender tengsizligi musulma ayollarga, shuningdek, xotin-qizlar ta'limi rivojlanishidagi ta'siriga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqot ikkinchi darajali ma'lumotlar asosida o'rganilib, tahlil qilinadi. Ta'limning turli ko'rsatkichlari bo'yicha kerakli ma'lumotlar Jammu va Kashmirning 2001 va 2011 yillardagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari, Davlat statistika to'plami hamda boshqa nashr etilgan resurslardan ham to'plangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jammu va Kashmir xotin-qizlar, xususan musulmon ayollar ta'limi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tadqiq qilish jarayonida tarixiylik, xronologik usul, qiyosiy va kontent tahlil metodlari qo'llanilgan. Taqdim etilayotgan tadqiqotning yangiligi sifatida Jammu va Kashmir ta'limida xotin-qizlarning ishtirokiga oid xorijiy tadqiqotlar asosida alohida tahlil qilinganligini ko'rsatishimiz mumkin.

MUHOKAMA

Jammu va Kashmir Hindiston tomonidan boshqariladigan ittifoq hudud hisoblanib, u mamlakatning shimoliy qismida joylashgan. Jammu va Kashmir Jammu, Kashmir, Ladax va 22 ta tumandan iborat. Shuningdek, u Pokiston tomonidan boshqariladigan Ozod Kashmir va Gilgit-Baliston, Aksay Chin va Trans-Qorakoram traktining Xitoy tomonidan boshqariladigan hududlarini o'z ichiga olgan kattaroq hududni ham bildiradi. Jammu va Kashmir ittifoq hududi o'zining boy tarixiga ega hisoblanadi. Bu hududda odamlar neolit davridan istiqomat qilib kelishganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi (Christopher Snedden, 2015:22).

I-ming yillikning birinchi yarmida Kashmir hududi hinduizm, keyinroq, Maurya va Kushanalar hukmronligi ostida buddizmning muhim markaziga aylanadi. Ashoka hukmronligi davrida (mil.avv. 304-232) Kashmir Mauriya imperiyasining bir qismiga aylandi va Kashmirda buddizm dini joriy etiladi. Bu davrda Shivaga bag'ishlangan ko'plab stupa va ziyoratgohlar qurilib, aynan shu davrda Ashoka tomonidan Shrinagar shahriga asos solinadi (Encyclopedia Britannica.2019).

VII-XIV asrlarda hind sulolalarining ketma-ketligi mintaqada hukmronlik qilgan (Encyclopedia Britannica.2022.9). VII asrdan keyin Kashmir hinduizmida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Keyingi asrlarda Kashmirda sanskrit adabiyoti va hind diniga hissa qo'shgan ko'plab shoirlar, faylasuflar va rassomlar yetishib chiqdi (Pal.1989.52). Bu davrning taniqli olimlari orasida Vasugupta (taxminan 875-925 yillar) Shiva Sutralarini yozgan bo'lib, u Kashmir shaivizmi deb nomlangan monistik Shaiva tizimiga asos solgan (Flood.1996.7-166). Kashmir shaivizmi Kashmirning xalq ommasi tomonidan qabul qilingan va Janubiy Hindistondagi shaivizmga kuchli ta'sir ko'rsatgan (Flood.2008.213).

XI asrda Mahmud G'aznaviy Kashmirni bosib olishga ikki marotaba urinadi. Biroq, uning ikkala yurishi ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi (Freya.1975.178).

Jammu va Kashmirda islomlashtirish XIII asrda boshlangan, XIV-XV asrlarda musulmonlar hukmronligi ostida bu jarayon tezlashdi va Kashmirda Kashmir shaivizmining yakun topishiga zamin yaratildi (Bose.2005.9-268).

XVI asr o'rtalariga kelib hind ruhoniylarining roli pasayib ketdi, chunki musulmon missionerlar O'rta Osiyo va Forsdan Kashmirga ko'chib kelishdi va rasmiy til sifatida sanskrit tili fors tiliga almashildi (Asimov & Bosworth.1998.313).

Jammu va Kashmir Boburiy hukmdor Buyuk Akbar hukmronligiga qadar bevosita Boburiylar tomonidan boshqarilmagan bo'lib, Buyuk Akbar davrida Kashmir ustidan to'liq nazorat o'rnatiladi. Kashmir hududida Boburiylar davrida ko'plab mashhur bog', masjid va saroylar qurilgan (Chadha.2005.38). 1658 yilda Avrangzeb taxtga o'tirgach, diniy murosasizlik va jizya solig'i undirish yana boshlanadi. Uning o'limidan keyin Jammu va Kashmir hududida Boburiylar hukmronligi ta'siri pasayadi (Houtsma.1993.793). Nodirshohning 1738 yilda Hindistonga bostirib kirishi Boburiylarning Kashmir ustidan nazoratini yanada zaiflashtirdi (Schofield.2010.4).

Keyingi besh asr davomida musulmon hukmdorlari Kashmirni o'z taasarruflarida saqlashdi, jumladan, 1586 yildan 1751 yilgacha Boburiylar, 1747 yildan 1819 yilgacha Afg'on Durroniylar imperiyasi tomonidan boshqarilgan.

Besh asrlik musulmonlar hukmronligidan so'ng, Jammu va Kashmir 1819 yil Shopyan jangidan keyin panjoblik Ranjit Singh qo'l ostiga o'tdi. 1846 yilda birinchi Angliya-Sikh urushida sikhlar mag'lubiyatga uchragach, Lahor shartnomasi imzolandi va Amritsar shartnomasiga binoan mintaqani inglizlar nazorati ostida Gulab Singh boshqardi (Madan.2008.15). Uning avlodlari Britaniya mustamlakachiligi ostida Kashmirda 1947 yilgacha hukmronlik qildi.

1947 yilda Jammu va Kashmir aholisi 77%i musulmonlar va 20%ini hindlar tashkil qilib, hudud hind Maharaji tomonidan boshqarilar edi (Stein.1998.368). Maharaja Hindiston tarkibida qolish to'g'risidagi shartnomani imzoladi (Stein.1998.368) va shundan so'ng, hind askarlari Kashmirga kirib, Pokiston homiyligidagi tartibsizliklarni o'z nazoratlariga oldilar. Hindistonga qo'shilishni vaqtinchalik qabul qilish deb hisobladilar. Kashmir rahbari Shayx Abdulla a'zolikni vaqtinchalik ma'qulladi (Sheikh Abdullah.1993.97). Pokiston hukumati zudlik bilan a'zolikka e'tiroz bildirdi va bu soxta ekanligini, Maharaja bosim ostida harakat qilgani va Pokiston bilan to'xtatib turish shartnomasi hali ham amalda bo'lganida Hindiston

bilan shartnoma imzolashga haqqi yoʻqligini aytadi.

Hindiston va Pokiston davlatlari Jammu va Kashmir masalasida bir toʻxtamga kelaolmadilar. Oxir-oqibat 1965, 1971 va 1999 yillarda Kashmir ustidan yana uch marotaba Hindiston va Pokiston urushi yuz beradi. Hozirda Hindiston sobiq knyazlik shtati Jammu va Kashmir hududining qariyb yarmini; Pokiston mintaqaning uchdan bir qismini nazorat qiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buyuk Britaniya, Afgʻoniston va Rossiya oʻrtasida Kashmirning shimoliy chegaralari boʻyicha baʼzi chegara shartnomalari imzolangan boʻlsa-da, Xitoy bu kelishuvlarga xech qachon rozi boʻlmagan va 1949 yildagi kommunistik inqilob bilan ham Xitoyning rasmiy pozitsiyasi oʻzgarmagan. 1950 yillarning oʻrtalariga kelib, Xitoy armiyasi Ladaxning shimoli-sharqiy qismiga kirdi (Encyclopedia Britannica.2007). Xitoy 1962 yilda Aksay Chinni bosib oldi va qoʻshimcha ravishda unga qoʻshni hudud boʻlgan Trans-Qorakoram trakti 1965 yilda Pokiston tomonidan Xitoyga berildi.

2019 yil avgust oyida Hindiston hukumati Hindiston konstitutsiyasining 370-moddasiga binoan, Jammu va Kashmirga berilgan maxsus maqomni bekor qildi va Hindiston parlamenti shtatni tarqatib yuborish va uni qayta tashkil etish qoidalarini oʻz ichiga olgan Jammu va Kashmirni qayta tashkil etish toʻgʻrisidagi qonunni qabul qildi. Shunday qilib, Jammu va Kashmirning shtat maqomi ittifoq hududga oʻzgartirildi (The Times of India.2019).

Jammu va Kashmir taʼlim tizimi evolutsiyasi. Qadimdan Kashmir sanskrit tilini oʻrganish markazi boʻlgan va bu kichik vodiya tarix hamda falsafaga oid ajoyib asarlar yaratilgan. U asrlar davomida Abhinav Gupta, Kalhana, Jonaraja, Shrivara, Kshemendra, Bilhana, Suka va Prajyabhata kabi buyuk sanskrit olimlarining maskani boʻlib kelgan. Kashmirliklar haqida Ser Jorj Greirson shunday yozadi: “Oʻz yurtlarining buyuk shon-shuhratlari bilan faxrlanadilar” (G.Greirson. 241-251).

Kashmir hududida qadimdan taʼlim maskanlari mavjud boʻlib, hudud sanskrit tili, madaniyati, sanʼatini oʻrganish markazi sifatida eʼtirof etilgan. I ming yillikning birinchi yarmida Kashmir oʻlkasi avval hinduizm, keyinchalik esa buddizm markaziga aylangan (Ministry of Foreign Affairs.Kashmir through ages). Miloddan avvalgi III asrda to milodiy VI asrgacha boʻlgan davrda hududda buddizm ravnaq topdi hamda shu yerdan Tibet, Xitoy va Oʻrta Osiyoga tarqaldi (Ministry of Foreign Affairs.Kashmir through ages).

Qadimgi davrda yuqori tabaqaga mansub ayollar oʻqitilgan va falsafiy munozara va munozaralarda qatnashishga ruxsat berilgan boʻlsa, quyi tabaqadagi bir jinsdagilar oʻzlarining iqtisodiy mavqeyi va ijtimoiy mavqei tufayli rasmiy taʼlim tizimidan deyarli chiqarib tashlangan (P.N. Bazaz.1959.5-6).

Milodiy VI-VII asrda Vasugupta tomonidan Shaiva falsafasi yaratilib, XIV asrgacha ushbu falsafa Kashmir vodiysida amalda boʻldi. Aynan shu davrda buyuk tarixchi, shoir Kalxon Patanjali yaratdi. Bu davrda bir qator ilm markazlari jumladan, Sharda va Harvan gullab-yashnadi (Schooling in 1947).

Musulmon hukmdorlar davrida xotin-qizlar taʼlimi. Islom dini XIII-XV asrlarda Kashmirda ildiz ota boshlagan va oxir-oqibat shaivismning tanazzuliga sabab boʻlgan. 1339 yilda Shoh Mir Kashmirning birinchi musulmon hukmdori boʻlib, Shoh Mir sulolasini tuzdi. Yana bir xalq manbalarida Bulbulshoh nomi bilan mashhur boʻlgan Sayid Bilol Shoh va Shoh Hamdan kabi musulmon hukmdorlari XIV asrda Forsdan kelib, oʻzlari bilan Islom dinini olib kelishgan, deb hisoblashadi (Schooling in 1947). Bulbulshoh taʼsirida oʻsha paytdagi Kashmir podshohi Rinchan 1324 yilida islom dinini qabul qilgan birinchi sulton boʻladi. U keyinchalik Gʻani va Mohsin Foni kabi olimlarni yetishtirgan taʼlim muassasasiga asos soldi. Mohsin Foni “Dabiston-Majib” nomi bilan mashhur dinlar haqidagi buyuk kitobini avlodlarga qoldiradi (Schooling in 1947).

Shtatda gʻarbiy taʼlim tizimi joriy etilgunga qadar ibodatxonalar va masjidlarda joylashgan mahalliy maktablar - Pathshala va Madrasa aholiga taʼlim berib kelgan. Madrasalarda musulmon talabalarga Qurʼonni oʻqishlari uchun birinchi navbatda arab tilidan bilim berildi. Xuddi shunday Pathshalalarda sanskrit tili hindlarga oʻz oyatlarini oʻqish imkoniga ega boʻlishlari uchun oʻrgatilgan (Kashmir through ages.2017).

XIV asr oʻrtalarida musulmonlar hukmronligining paydo boʻlishi ayollarning jamiyatdagi

mavqeyiga deyarli ta'sir o'tazmadi. Asta-sekin purda tizimi odatiy holga aylandi va ayollarning uy ishlari bilan mashg'ul bo'lishi eng maqbul ish deb hisoblandi. O'rta asrlarda Kashmir ayollari orasida ta'lim keng tarqalmagan. Shubhasiz, yaxshi oiladaan kelib chiqqan ayollar ta'lim olishgan, ammo kambag'al va oddiy ayollar uchun ta'limning foydasi yo'q edi (Schooling in 1947).

Keyingi besh asr davomida musulmonlar Kashmirda hukmronlik qiladilar. 1596 yilda Akbar Kashmirda egallaganida so'fiylik hali barhayot edi. Keyinchalik Dara Shikoh davrida Oxund mulla Shoh Badaxshoniy boshchiligida tasavvuf universiteti tashkil etildi. Upanishadlar va boshqa bitiklar aynan shu yerda fors tiliga tarjima qilingan. Ushbu universitet binosi bugungi kungacha Dal ko'liga qaraydigan tog'ning etagida joylashgan bo'lib, u Pari Mahal nomi bilan mashhur (Amar Singh Chohan.1998).

Biroq, bu mahalliy maktablarning asosiy maqsadi savodsizlikni yo'q qilish bo'lsa-da (A.S.Chohan. 1998. 5-6), lekin ko'p omillar ta'sirida umumiy ta'lim va ayniqsa, ayollar ta'limi tarixan jamiyatning juda kichik qismi bilan chegaralanib qolganligini inkor etib bo'lmaydi.

Boburiylar 1586 yildan 1751 yilgacha Kashmirda hukmronlik qilganlar. 1747 yildan boshlab 1819 yilgacha Afg'on Duroniylar emperiyasi Kashmirda o'z taasarruflariga oladilar. Afg'onlar hukmronligida davrida ilm-fan ravnaqi tanazzulga duchor bo'ldi. Kashmir afg'on, sikh va nihoyat Dogralar qo'liga o'tgani sababli jamiyatdagi ayollar ahvoli yanada ayanchli bo'lib qoldi. Asrlar davomida davom etgan qatag'on va yovuz hukmdorlarning zulmi xotin-qizlarning aqliy takomillashishdan ancha orqada qolishiga olib keldi (P.N.K.Bamzai.1994.518-519).

Jammu va Kashmirda zamonaviy britancha xotin-qizlar ta'lim tizimining joriy etilishi. 1819 yilda Maharaja Ranjit Singh Kashmirda so'nggi afg'on gubernatori ustidan g'alaba qozondi va bu shtatni o'z hukmronliklariga qo'shib oldi. Sikhlar 1819 yildan 1846 yilgacha Kashmirda inglizlar zabt etguniga qadar hukmronlik qildilar. 1846 yil birinchi ingliz-sikh urushida sikhlar mag'lubiyatga uchrach, Amritsar shartnomasiga muvofiq inglizlar Kashmirda Maharaja Ranjit Singh qo'l ostida xizmat qilgan Jammu Rajasi Dogra Gulab Singhga topshirdilar. Uning avlodlari Kashmirda Britaniya hukmronligi ostida Hindiston mustaqillikni qo'lga kiritganiga, ya'ni 1947 yilgacha boshqardilar.

Dogra sulolasi hukmronligining dastlabki yillarida ta'lim tizimi hech qanday yaxshilanish sodir bo'lmadi va hukumatning umuman ta'limga, xususan, ayollar ta'limiga nisbatan siyosatida deyarli hech qanday o'zgarish bo'lmadi. Garchi Maharaja Gulab Singh ilm homiysi hisoblansa-da, lekin Kashmirda u ilg'or hukmdor sifatida faoliyat yuritilmadi va buning o'rniga mahalliy aholiga mustamlakachi munosabatida ish yuritdi. Darhaqiqat, u xalqning ta'lim-tarbiya va jismoniy farovonligiga befarq bo'lgan va u hukmronlik qilgan davrda madrasa va maktablarda ta'lim olish davom etgan. Bu kabi ta'lim muassasalarga moddiy va ma'naviy yordam ham ko'rsatilmagan bo'lib, bu muassasalarni nazorat qilish tizimi ham mavjud emas edi (P.N.Bazaz.1959.209). Shunga qaramasdan ta'lim tizimida Gulab Singh avlodlari tomonidan biroz yaxshilanish kuzatiladi. Uning o'g'li Ranbir Singh sharqshunoslikning katta homiysi edi. U Jammu shahrida Sanskrit Pathshalaga asos soldi va 1882 yilda Panjob Universitetiga birinchi stipendiat sifatida o'qishga kirdi (Schooling in 1947).

Shunday qilib, zamonaviy ta'lim Kashmirda birinchi navbatda xristian missionerlarining sa'y-harakatlari orqali kirib keldi. Ular kashmirliklarni Yevropa ta'limi namunasi bo'yicha o'qitish uchun sa'y-harakatlarni amalga oshirdilar. Bu ta'limdagi modernizatsiya davriga xos bo'lib, kashmirliklar o'zlarining og'ir ahvollarini anglab, keyinchalik o'z taqdirleri uchun kurashishga majbur qildilar. Maharaja Ranbir Singh maktabi 1874 yilda shtat tomonidan boshqariladigan yagona maktab edi (B.P.Husayn.2022). Birinchi ingliz maktabi 1880 yilda Shrinagarda Angliya cherkov missionerlik jamiyati tomonidan ochilgan. 1890 yilda Jammuda o'rta maktab, Shrinagarda o'rta maktab va sakkizta boshlang'ich maktab ochdi (Schooling in 1947). Madrasa va Pathshala deb nomlanuvchi ta'lim muassasalari asta-sekin unutila boshladi. Dastlab hindlarning diniy qarashlari va pravoslav musulmonlarning antipatiyasi tufayli ayollar ta'limi sezilarli muvaffaqiyatga erishmadi, ammo missionerlarning tibbiyot va ta'lim sohalaridagi muvaffaqiyatlari liberal qatlam o'rtasida ta'limning o'sishiga olib keldi. Missionerlar jamiyatdagi hindlarni ham, musulmonlarni ham Kashmirdagi ayollarni ta'lim olish ishini boshlashga undadilar. Missionerlar uchun qizlarning ta'lim olishi eng muhimi edi,

chunki qizlar kelajak avlodning onalari edi (Tyndale Biscoe.1951.257).

Missionerlar odamlarga ayollar ta'limi muhimligini tushunishga majbur qilishdi. Shrinagarda qizlar ta'limi rivojlanishiga hissa qo'shgan shaxslar orasida Miss Cherchill, Teylor, Miss Robinson, Miss Fitze va Miss Mallinson bor edi. Chet ellik missionerlarning erkaklar takaburligi va ishonchsizligiga qarshi kurashi tarixi Kashmirning madaniy uyg'onish tarixida ajoyib bobni tashkil etadi (P.N.Bazaz.1959.218-219).

1893-1895 yillarda Angliya cherkovi "Zenan Missionerlik jamiyati" tomonidan Shrinagan shahrining Fateh Kadal tumaniida birinchi qizlar maktabini ochdi (Mohd Ishaq Khan.1999.153-154.). Biroq, aholi tomonidan qizlar maktabi ochilishi tanqid uchradi va bir muddat bu maktab o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ladi. Oradan bir necha hafta o'tgach maktab qayta ochiladi va hayratlanarli darajada maktabga qabul qilinuvchi o'quvchi qizlar soni ko'payadi. Bu muvaffaqiyat Fateh Kadalni qiz va o'g'il bolalar birga tahsil oladigan maktab ochishga undadi. Maharaja Pratap Singh xayriyachi va jamoatchi Amie Besant xonimni vodiya oliy ta'limni rivojlantirishga undadi va natijada 1905 yilda Shrinagarda kollej ochilishiga muvaffaq bo'ldi. Kollej dastlab hindlar kolleji deb atalib, so'ng Shri Pratap nomiga o'zgartirildi. Majburiy ta'lim (faqat o'g'il bolalar uchun) birinchi marta 1931 yil aprel oyida Shrinagar va Jammu shaharlarida joriy etildi (Mohand Ishaq Khan.1999.153).

XIX asr Kashmir vodiysida sotsial-islohot harakatlarining tug'ilishiga guvoh bo'ldi, bu esa provardida jamiyatda inqilobiy o'zgarishlarga olib keldi. Garchi shtatdagi bu harakatlar uchun musulmonlar ham, g'ayri din vakillari ham birdek mas'ul bo'lsalar-da, aynan xristianlar bu borada yetakchilik qildilar (Glancy commission report. 38.).

Shunday qilib, Britaniya mustamlakachiligi ostidagi Dogra sulolasi hukmronligining so'nggi yillarida xotin-qizlar ta'limi sezilarli muvaffaqiyatga erishdi. Turli davlat idoralari va maktablarning mavjudligi shtatda olib borilgan ta'lim faoliyatining yetarli isboti edi. Hukumat tomonida davlat va xususiy maktablarning ochilishini rag'batlantirish uchun grant tizimini joriy qilish, ta'lim qo'mitalarini tayinlash va o'quv konferensiyasining tashki etilishi hukumatning avvalgi ta'lim siyosati o'zgariganidan dalolat berardi. Missionerlar ham o'z maktablariga mahalliy xotin-qizlarni jalb qilish borasida deyarli barcha to'siqlarni olishga erishayotgandilar (Ganga Nath report.192).

Zamonaviy davrda Jammu va Kashmir musulmon ayollar ta'limi holati. XX asrning boshlarida qizlar maktablari sonining ko'payishi va bu maktablarda tahsil oluvchi qizlar sonining ko'payishi kuzatildi. Mahalliy ayollar orasida tahsil olishga ishtiyoq tug'lsa-da, ularning aksariyati kollejda o'qishlarini davom ettira olishmaganlar. Bu asosan ayollar uchun oliy ta'lim muassasasining yo'qligi bilan bog'liq edi.

1970 yillarga kelib ayollar ta'limi sohasida o'zgarishlar yuz berdi. Faqat xotin-qizlar uchun oliy ta'lim muassasalari tashkil etilishi bilan ularning ongi yuksalib, dunyoqarashi o'zgardi. Ayollar kengroq ijtimoiy kontekstda o'z huquqlari haqida o'ylay boshladilar. Zamonaviy ta'limning kengayishi tufayli Kashmir ayollarida keng ko'lamli ijtimoiy uyg'onish va siyosiy ongning o'sishi kuzatildi. Ayollar endi o'z pozitsiyalaridan xabardor bo'lishdi. Xuddi shunday jamiyatning xotin-qizlar ta'limiga bo'lgan munosabatining muntazam o'zgarib borishi tufayli maktab va kollejlarda muslima ayollarning soni asta-sekin o'sib bordi va ularning zamonaviy ta'limdagi ishtiroki sekin sur'atda bo'lsa ham oshdi (F.A.Khan.2005.228-229).

NATIJALAR

Jammu va Kashmir jamiyatida xotin-qizlar ta'limiga e'tibor qaratilsa-da, biroq ta'limdagi gender tafavutni bartaraf etishning imkoni bo'lmadi. Bunga misol tariqasida 1 jadvaldagi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 1961-2011 yillardagi savodxonlik darajasi gender bo'yicha o'sgan, biroq erkak va ayollar savodxonlik ko'rsatkichlari o'rtasida uzluksiz tafavut doimo saqlanib qolgan.

1-jadval. Jammu va Kashmirda gender bo'yicha savodxonlik darajasi tendensiyalari (%)

Yillar	1961	1971	1981	2001	2011
Umumiy	12.95	21.71	30.46	54.46	68.74
Erkaklar	19.75	31.01	41.46	65.75	78.26
Ayollar	5.05	10.94	18.73	41.82	58.01

Manba: Hindiston aholisini ro'yxatga olish 1961 yildan 2011 yilgacha (Census of India from 1951 to 2011).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Jammu va Kashmir hukumati savodxonlik darajasida sezilarli yutuqqa erishgan. Savodxonlik darajasi 1961 yildagi 12.95% dan 2011 yilda 68.74 %ga ko'tarilgan. Jadvalning keyingi tahlili shuni ko'rsatadiki, keltirilgan yillarda erkaklar savodxonlik darajasi xotin-qizlarniki bilan solishtirganda doimo dominantlikni saqlab kelmoqda. Erkaklar savodxonlik darajasi 2011 yilda 78.26 %ga oshgan, bu ko'rsatkich 1961 yilda atigi 19,75 %ni tashkil etgan bo'lsa, ayollar savodxonlik darajasi 5.05 % dan 2011 yilda 58.01 foizga oshdi. Bu raqamlarni tahlil qilish orqali shuni aytishimiz mumkinki, xotin-qizlar savodxonlik darajasi joriy yillarda sezilarli yutuqqa erishdi, biroq ayollar va erkaklar savodxonlik darajasi o'rtasida mavjud tafovut saqlanib qolavergan.

2-jadval. 2001 va 2011 yillardagi Jammu va Kashmir xotin-qizlar savodxonlik ulushi

Hudud	Umumiy aholi		Erkaklar		Ayollar	
	2001	2011	2001	2011	2001	2011
Umumiy	55.52	67.16	66.60	76.75	43.00	56.43
Shahar	72.17	77.12	78	84	62.22	69
Qishloq	48.22	63.18	67	74	35.09	52

Manba: Hindiston aholisini ro'yxatga olish 2001-2011. (Census of India 2001-2011)

Yuqorida keltirilgan 2-jadvalda ko'rinib turibdiki, qishloq aholisi savodxonlik ko'rsatkichi shahar aholisining savodxonlik ko'rsatkichidan ancha orqada. Shunga qaramay, keltirilgan vaqt mobaynida savodxonlik darajasi har ikkala hududda ham o'sish qayd etilgan.

3-jadval. Jammu va Kashmirdagi musulmonlar savodxonlik darajasi (%)

Hudud	Musulmonlar		
	Aholi	Erkaklar	Ayollar
Kupvara	41.59	53.71	28.56
Baramulla	44.19	55.59	31.73
Shrinagar	57.69	66.95	47.45
Badham	41.55	52.18	30.22
Pulvama	48.76	59.54	37.4
Anantnag	45.85	56.62	34.25
Ladah	68.74	81.82	52.7
Kargil	60.99	76.26	43.65
Doda	42.98	57.9	26.49
Udhampur	9.89	92.48	79.15
Punch	47.65	61.98	32.28
Rajauri	47.2	60.13	32.76
Jammu	59.5	69.6	47.11
Kathua	41.14	54.58	26.15

Manba: Hindiston aholisini ro'yxatga olish 2001 (Census of India 2001).

Musulmon din vakillarining savodxonlik ko'rsatkichi pastligi Jammu va Kashmirning deyarli barcha hududlarida aks etmoqda. Ushbu jadvalda Jammu va Kashmirning 14ta tumanida musulmonlarning savodxonlik ko'rsatkichi ko'rsatilgan. Erkaklar va xotin-qizlar savodxonlik darajasida kattagina farq mavjud bo'lib, deyarli barcha tumanda erkaklar savodxonlik darajasi dominant bo'lib kelmoqda.

Musulmonlar o'rtasida ta'lim sohasidagi gender tafovut eng yuqori Kargilda (32.61) bo'lsa, Udhampur tumanida bu ko'rsatkich eng past ko'rsatkich (13.33)ni qayd etadi. Shuningdek, musulmonlar Udhampur tumanida savodxonlik ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori darajani egallaganlar.

XULOSA

Yuqoridagi tahlildan xulosa qilish mumkinki, Jammu va Kashmir hududida ta'limga bo'lgan e'tibor ilk asrlardan oq shakllangan. Musulmonlar kirib kelishi bilan jamiyatdagi mavjud din, an'ana, urf-odat, boshqaruv shakli, shuningdek, ta'lim tizimi ham o'zgarishga duchor bo'lgan. Aholining aksariyati, pathshala va madrasalarda tahsil olib boshlashgan. Xotin-qizlarning aksariyat qismi uy xo'jalik yumushlari bilan band bo'lib, jamiyatda o'z mavqeyiga ega bo'lgan xonadon vakillari tahsil olishga musharraf bo'lishgan.

Musulmon ayollarning ta'lim darajasi va dinga asoslangan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha juda kam tadqiqotlar mavjud, bu bizga musulmon ayollarning ta'lim holatini yaxshiroq tushunishga yordam berishi mumkin edi. Ammo shunga qaramay, hozirgi vaqtda musulmon ayollarning ta'lim darajasi o'tmishdagiga qaraganda yaxshiroq ekanligini ta'kidlash mumkin. Musulmon ayollarning ta'limdagi qoloqligi, odatda, Islomning ba'zi tamoyil va me'yorlari bilan bog'liq deb taxmin qilinadi, ammo bu to'g'ri emas. Chunki Islom erkak va ayollarning jamiyatdagi maqomini teng belgilaydi, bu Qur'on va Hadislar orqali ham tasdiqlanadi.

Musulmon ayollarning ta'lim sohasida qoloqligi konservativ feodalistik jamiyat bosimining oqibati edi. Diniy pravoslavlik hamda patriarxal xurofot ayollarni ta'lim olish huquqidan mahrum qilib, ularni tazyiq va zulmga duchor qildi. Xristian missionerlari nafaqat zamonaviy ta'limni joriy etganlar, balki savodsiz ayollarga ilm olishning asoslarini ham o'rgatganlar. Keyinchalik shtat hukumati Ayollar Nizomi qoidalariga muvofiq ayollarning ta'lim olishi

uchun maxsus choralar ko'rdi. Bularning barchasiga qaramay, umuman musulmonlarning, xususan, musulma ayollarning savodxonlik darajasi bo'yicha davlatdagi umumiy mavqeyi qoniqarli emas edi. Ta'limning barcha bosqichlarida qizlarni jalb etilishi o'g'il bolalar bilan solishtirganda ancha past. Shu sabab ham davlat va ham ko'ngilli tashkilotlar tomonidan xotin-qizlar ta'limini rivojlantirishga qaratilgan turli siyosat va dasturlar amalga oshirilmoqda. Hukumat va ta'lim sohasidagi nodavlat tashkilotlarning sa'y-harakatlariga qaramay, Jammu va Kashmir shtatida ayollar aholisining asosiy qismi savodsiz. Savodxonlik darajasida hali ham gender farqlari mavjud. O'rganilayotgan hududdagi ta'limning muammoli holatini tegishli forum va kontekstda hal qilinishi kerak. Shunday qilib, markaziy hukumat hududda ta'lim berishga katta e'tibor qaratishi, "Ta'lim huquqi to'g'risida"gi qonunni Jammu va Kashmir hududida tatbiq etish bo'yicha asosiy ish bilan amalda shug'ullanishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, oqilona siyosat va yaxshi boshqaruv davlatni xotin-qizlar ta'limining tezroq va sifatliroq rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

REFERENCES

- Christopher Snedden.(2015). Understanding Kashmir And Kashmirs. United Kingdom. p.22.
- Encyclopedia Britannica. (2022). Kashmir: region, Indian subcontinent.
- Pal Pratapaditya. (1989). Indian sculpture: 700-1800. University of California Press. ISBN 978-0-520-06477-5.
- Flood Gavin D. (1996). An Introduction to Hinduism. Cambridge University Press. ISBN 978-0-521-43878-0
- Flood Gavin D. (2008). The Blackwell Companion to Hinduism, Wiley. ISBN 978-81-265-1629-2
- Singh Upinder. (2008). A history of ancient and early medieval India: from the stone age to the 12th century. Pearson education India. 2008.
- Bose Sumantra. (2005). Kashmir: roots of conflict paths to peace. Harvard University Press. 2005
- Asimov, M.S., Bosworth, C.E. (1998). Age of achievement: A.D. 750 to the end of the fifteenth century. UNESCO. 1998.
- Houtsma, M.Th. (1993). E.J. Brill's first encyclopedia of Islam 1913-1936. BRILL. 1993.
- Chadha Vivek. (2005). Low intensity conflicts in India: An analysis. SAGE. 2005.
- Schofield, V. (2010). Kashmir in conflict: India, Pakistan and unending war. I.B.Tauris. 2010.
- Madan, T.N. (2008). Kashmir, Kashmirs, Kashmiriyat: An introductory essay. The valley of Kashmir: The making and unmaking of a composite culture. Delhi. 2008. 1-36pp.
- Stein, B. (1998). A history of India. I. Oxford. 1998
- Schofield Victoria. Kashmir: The origins of the dispute. BBC news. U.K. edit. 2016.16.01
- Jamal, Arif. (2009). Shadow war: The untold story of jihad in Kashmir. Melville House. 2009. 52-53 pp.
- Stein, B. (1998). A history of India (1sted.). Oxford: Wiley-Blackwell, I. 1998.
- Sheikh, Abdullah. (1993). Flames of the chinar. New Delhi. 1993.
- Robert, Trumbull. (1947). Nehru urges U.N. to poll Kashmir: would have supervides ballot to decide accession-bomb attack by India report. New York Times Archives. 1947.11.3. 1 p.
- Ahmad, I. (1987). Educational Development of Minorities in India: Future Perspective, Educational Planning and Administration, Vol.1, No.2. p.201.
- Akhtar, J. (1992). Muslim Women's Education in India. in Mohini Anjum (ed.). Muslim Women in India, Radiant Publishers, New Delhi, p.75.
- Hasan, Z. and Menon, R. (2004). Unequal Citizens: A Study of Muslim Women in India. Oxford University Press. New Delhi.
- Agrawal, M. (1986). Education and Modernization: A Study of Hindu and Muslim Women. Educresearch Publication. New Delhi. 1986.

- Roy, S. (1979). Status of Muslim Women in north India: A study in dynamics of change. B.R. Publishing Corporation. New Delhi. 1979.
- George Greirson. Linguistic survey of India. Vol. VIII, Part 2; 241-251 pp.
- Kashmir through ages. Ministry of foreign affairs. <https://mofa.gov.pk/kashmir-through-ages/>
- P.N. Bazaz. (1959) Daughters of the vitasta. Pamposh Publications. New Delhi. 5-6 pp.
- Schooling in 1947. <https://kashmirlife.net/schooling-in-1947-vol-14-issue-22-299084/>
- Amar Singh Chohan. (1998) Development of education in the J&K state. – New Delhi: Atlantic Publishers. New Delhi. 5-6 pp.
11. P.N.K. Bamzai. (1995) Culture and Political History of Kashmir, Vol. II, MD Publications New Delhi. 1994. pp. 518-519.
- Prem Nath Bazaz. Daughters of the vitasta: A history of Kashmiri women from early times to the present day. New Delhi. 1959. –P. 209.
- Bhat Parvaiz Husayn. (2022) Modern education in Kashmir – I. Greater Kashmir. 2022.01.26.
- Tyndale Biscoe. (1951) Autobiography. London: 1951. –p. 257
- Mohd Ishaq Khan. (1999) History of Srinagar (1846-1947). Cosmos publications. India. 1999. 151-153 pp.
- Government of India (GOI). (2008). Department of School Education and Literacy (MoHRD), New Delhi, Retrieved June 21, 2010 from <http://ssa.nic.in/ssaframework/ssafram.asp#1.0>
- Census of India, Jammu and Kashmir, Reports for 1961, 71, 81, 2001, 2011.
- Fayaz Ahmad Bhat, Fouiza Khurshid and Nazmul Hussain. (2011) Islam, Gender and Education: A case study of Jammu and Kashmir. Asia-Pacific of Social Sciences. India: 2011. 159-187 p.
- Diladan Manzoor. (2011) Female education in rural Kashmir: A historical study of block Pulwama (1947-2000). Dissertation. University of Kashmir Hazratbal Srinagar-190006. 2011.

KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONIDA TALABALARNING TEXNIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xoliqova Nargiza

*Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy
tadqiqot universiteti izlanuvchisi, dosent, PhD*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.070>

Annotasiya. Maqolada kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida fanlar g'oyalari asoslangan holda talabalarning texnik hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli yondashuvlar haqida so'z yuritiladi

Ixtisoslik fanlarni o'qitishda ta'lim oluvchilarda ijodiy-texnologik tafakkur, texnologik qobiliyatlar majmui va shaxsiy sifatlar: ijtimoiy moslashuv, raqobatbardoshlik, kasbiy faoliyatga tayyorlikni rivojlantirish orqali texnologik, ekologik, iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan o'qitish va tarbiyaning tashkiliy jarayoni muhim mezonlardan biri sanaladi.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, o'qitish mezonlar, texnologik qobiliyatlar, texnik kompetentlik, kasbiy mahrat.

РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Xolikova Nargiza

Soiskatel Natsionalnogo issledovatel'skogo universiteta

*“Tashkentskiy institut injenerov irrigatsii i mexanizatsii selskogo xozyaystva”, dotsent,
PhD*

Аннотация. В статье будет рассказано о различных подходах к развитию технической и творческой деятельности студентов на основе идей предметников в процессе подготовки к профессиональной деятельности

Креативно-технологическое мышление, совокупность технологических способностей и личностных качеств в образовании при преподавании предметов специальности: социальная адаптация, конкурентоспособность, организация процесса обучения и воспитания, направленного на формирование технологической, экологической, экономической культуры через развитие готовности к профессиональной деятельности, считаются одними из важных критериев.

Ключевые слова: профессиональная деятельность, критерии профессиональной подготовки, технологические способности, техническая компетентность, профессиональная компетентность.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' TECHNICAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF PREPARING FOR PROFESSIONAL ACTIVITY

Khalikova Nargiza

Candidate of the National Research University

*Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, Associate
Professor*

Abstract. The article will talk about various approaches to the development of technical and creative activities of students based on the ideas of subject students in the process of preparing for professional activity. Creative and technological thinking, a set of technological abilities and personal qualities in education when teaching specialty subjects: social adaptation, competitiveness, organization of the learning and upbringing process aimed at the formation of technological, environmental, and economic culture through the development of readiness for professional activity, are considered one of the important criteria.

Keywords: professional activity, criteria of professional training, technological abilities, technical competence, professional competence.

Kirish. Jahonda ishlab chiqarish vositalarining tobora rivojlanib boraётgan texnik murakkabligi muhandisning kasbiy intellektual fazilatlariga va uning ijodiy qobiliyatlariga katta talablar qo'yadi. Texnik tafakkur yurita olish - muhandis fikrlashining kasbiy muhim sifatidir. Ushbu turdagi tafakkur qilish ko'nikmasining rivojlanishi hamda muhandisning kelajakdagi faoliyatidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan oliy ta'limda kasbiy tayergarlik bosqichidagi o'quv jaraenining sifati bilan belgilanadi. Xususan, rivojlangan mamlakatlar nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarining P. Debrai-Retzen «Talented Student Teacher Model» (Fransiya), US «Merit» (AQSh) kabi ta'lim tizimlarida bu borada samarali faoliyat olib borilmoqda. Shuning uchun texnika yo'nalish talabalarining kasbiy faoliyatga tayèrlashda texnik tafakkurini rivojlantirishning nostandart shakllari, metodlari va vositalaridan majmuaviy foydalanish muhim o'rin egallaydi.

Respublikamizda ta'lim jaraenini modernizatsiyalash maqsadida xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari, qo'shma fakultetlar va ta'lim dasturlari amalda joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi-da «uzluksiz ta'limni yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtièjlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayèrlash sièsatini davom ettirish» va «ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish» vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, bo'lajak muhandislarni tayèrlashning mazmuniy tavsiflari, elektron ta'lim muhiti sharoitida modulli va dasturlashgan o'qitish texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlarini oshirish va tabiiy-ilmiy fanlar negizida malakali mutaxassislar tayèrlash jaraenini takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Metodlar. Ma'lumki, texnik tafakkur - texnik bilim va uning texnik jaraenlarini anglash vositasi. Texnik tafakkur nostandart vaziyatda, muayyan holat èki predmet haqida bilish zarurati paydo bo'lganda yaqqol namoèn bo'ladi. Texnik tafakkurni rivojlantirish - shaxsni aniq mutaxassislik bo'yicha ikki tomonlama rivojlanish dinamikasi bilan muvofiqlikda texnikaning har bir aniq komponentini mantiqan tashqi va ichki jihatlarini ochib berish jaraeni. Mazkur jaraenda texnika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun muhim bo'lgan kasbiy sifatlar, texnik soha mutaxassisiga qo'yiladigan talablarga hamda faoliyatda sub'ektning shaxsiy o'ziga xosligiga e'tibor qaratiladi.

Kasbiy mahoratlilar zamon hodisalari hamda inson tafakkurining erishgan yutuqlari haqida doimo ma'lumotga ega bo'lib, murakkab ob'ektlar axborot almashinuvi va boshqaruvlarini ta'minlanishini, raqamli materialni kabilarni xotiralarida yaxlit saqlay oladilar. Texnik tafakkur refleksiya ob'ektiga bog'liq ravishda, uning quyidagi ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Kommunikativ refleksiya boshqa insonning ichki dunèsi va xatti-harakatlarining sabablari haqidagi tasavvurlar bilan ish ko'radi;

2. Shaxsiy refleksiya o'z xatti-harakatlarini, individuallik sifatida shaxsiy obrazlarini tahlil qiladi; 3. Intellektual refleksiya aniq holatlarda ob'ektlar, shaxsiy xatti-harakat usullari haqidagi bilimlar bilan ish ko'radi.

Texnik tafakkur shaxsning kasbiy faoliyatga nazariy va amaliy nuqtai nazardan tayèr bo'lishida namoèn bo'ladi. U kasbiy faoliyatda shaxsni o'z-o'zini boshqarishiga ko'maklashadi. Aynan insonning refleksiyaga bo'lgan qobiliyati orqali motivatsion darajaga mos bo'lgan kasbiy faoliyatning ta'minlanishi aniqlanadi. U shaxs faoliyatining muvaffaqiyatida èki muvaffaqiyatsizligida namoèn bo'lib, inson kayfiyati va ishlash faoliyatiga tayèrligini aniqlaydi. O'z navbatida tayergarlikning motivatsion va operatsion komponentlari aynan refleksiya orqali ishlaydi.

Texnik tafakkur quyidagi komponentlardan tashkil topadi: tushuncha, obrazli, amaliy natija beradigan komponenti.

Texnik tafakkurning tushunchali komponenti - talabalar tomonidan texnik o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jaraenida rivojlanadi.

Texnik tafakkurning obrazli komponenti - texnik ob'ektlarning obrazlari bilan ishlash jaraenida rivojlanadi. Bu texnik tafakkurlashning ajralmas muhim qismidir.

Ta'lim jaraënida talabalar texnik ob'ektlar bilan obrazlar nuqtai nazaridan boshqarish qobiliyati mavjud bo'lmasa texnikaga oid oliy ta'lim muassasalarida ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi. Kasbiy faoliyatga tayërlash jaraënida talabalarni texnik tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda talabaga kasbiy faoliyatni tahlil qilish jaraënini ko'rsatishga imkon beradi.

Texnik tafakkurning amaliy natija beradigan komponenti - texnik muammolarni hal qilish va nazariy yechimni amalda tekshirish jaraëni amalga oshiriladigan harakatlar (ko'nikmalar) majmuidir.

Ushbu harakatlar maqsadlarga muvofiq tushunchalar va obrazlar ko'rinishida mavjud bo'lgan tafakkur mazmunini o'zgartirishga imkon beradi.

Natijalar. Mulohaza. Amaliy natija beruvchilarni ikkiga ajratish mumkin, ya'ni amaliy (sxemalarni yig'ish, qurilmani o'rnatish va sozlash, detallni dastgohda qayta ishlash va boshqalar) va intellektual (hisobkitoblarni bajarish, muammolarni yechimini topish, o'qilgan matn uchun reja tuzish va h.k.). Texnik «tafakkur»ning ham amaliy, ham intellektual harakatlari maqsadlariga qarab tekshirish - tadqiqotchi, ijro etuvchi, nazorat va korreksion-tartibga soluvchi bo'lishi mumkin. Intellektual qobiliyatga ega bo'lganlar orasida talabalarning bilimlarni o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash, o'zining bilim faoliyatini tashkil qilish bo'yicha harakatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari o'quv jaraënida texnik tafakkurni rivojlantirish tadqiqotimiz predmetiga muvofiq ravishda o'rganib chiqildi. Shuning uchun texnik tafakkurni rivojlantirish jaraëni modelini yaratishda murakkablashgan tasavvurlarning pedagogik jaraën komponentlari haqidagi: maqsadli, tashkiliy, mazmunli va natijaviy baholash kabi murakkablashgan tasavvurlardan foydalanish maksadga muvofiq, deb o'ylaymiz.


Kasbiy faoliyatga tayërlash jaraënida talabalarni texnik tafakkurini rivojlantirishni zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bilan uyg'unlashtirish kerak. Talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirishda o'qituvchining amalda keng qo'llanib kelinaëtgan «Piktogramma», «T-Sxema», «SWOT-tahlil», «Assisment», «FSMU», «To'rt pog'onali», «Insert», «Klaster» kabi interfaol ta'lim metodlaridan o'z o'rnida mahorat bilan foydalanishi ijobiy samara beradi.

Talabalarda texnik tafakkur qilish (analiz, sentiz, taqqoslash, umumlashtirish) imkoniyatini yaratuvchi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilimlarni faol ravishda qayta ishlab borish uchun muhimdir. Ular texnik bilimlarni qabul qilishning nisbiy passiv fazasidan so'ng aktiv faza kelishi uchun imkoniyat yaratib beradi. Amaliy topshiriqlarni bajarish èki mustaqil ravishda ishlash hamda natijalarni taqdim etish texnik tafakkurni samarali rivojlantirish imkonini yaratadi.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish murakkab va ko'p o'lchovli jarayon bo'lib, u o'z ichiga bo'lg'usi talabada motivatsiya va kasbiy nuqtai-nazarni, o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayoniga mustaqil ishni qo'shishni hamda mustaqil ish natijalarini nazorat qilish shakllarini tanlashni oladi.

To'garaklar faoliyatida talabalarning ijodiy faoliyati quyidagi holatlarning amalga oshirilishi uchun ham xizmat qilishi zarurligini ko'rsatdi:

- estetik tarbiyani tashkil etish asosida hissiy madaniyatni, ya'ni, qayg'urish, xayrixohlik, yuqori axloqiy ideallarga intilish kabi sifatlarni tarbiyalash;
- san'atning xilma-xil turlarini o'rganish orqali talabalarning hissiy-qadriyatli va ma'naviy madaniyatini shakllantirish;
- shaxsda ijodiy qobiliyatlar – idrok, tafakkur, xayolot, individuallikni rivojlantirish; texnik tafakkuri asoslarini shakllantirish;
- loyihalash faoliyati, o'qitish, turli faoliyat sohalarida ishlashning amaliy ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish;
- loyihalarni bajarishda milliy yondashuvdan foydalanish.



1-rasm. Talabalarning texnik kompetentligini rivojlantirishga bo'lgan yondashuvlar

To'garaklarda ixtisoslik fanlar g'oyalariga asoslangan holda talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat quyidagi yondashuvlar asosida tashkil etish mumkin.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv – dizayn to'garagi uchun ishlab chiqilgan

o'quv dasturida jamiyatda kechayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, madaniy rivojlanish darajasi hamda ehtiyojlarni inobatga olish g'oyasiga tayanib ish ko'rish zarurligini ifodalaydi.

2. Milliy-aksiologik yondashuv – to'garak mashg'ulotlarida talabalarda texnikaviy, dizayn sohasiga oid milliy g'oyalar, qarashlar to'g'risida ma'lumotlar berish orqali ularda milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishning maqsadga muvofiqligi yoritishga xizmat qiladi.

3. Individual-tabaqaviy yondashuvning mohiyati shundaki, shaxsiy imkoniyatlari, sohaga bo'lgan qiziqishi, soha bo'yicha muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga egaliklari nuqtai-nazardan munosabatda bo'lish, ularni turli murakkablikdagi (faoliyatdagi tabaqalashuvni ifodalovchi) topshiriqlarni bajarishga yo'naltirishgina kutilgan pedagogik natijani kafolatlaydi.

4. Psixologik-estetik yondashuvga ko'ra talabalarning psixologik va xususiyatiga tayangan holda ularda turli estetik sifatlarni rivojlantirish, psixologik va yosh nuqtai-nazardan ularda turli murakkablikdagi nazariy hamda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan topshiriqlarni bajarishga jalb qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

5. Texnologik yondashuv o'ziga xos texnologik jarayon bo'lib, talabalarni bajarishga jalb qilishda ular tomonidan texnologik talablarga rioya etilishini nazorat qilish va ularda jarayonlarni metodik jihatdan bosqichma-bosqich to'g'ri tashkil etishga odatlantirish zarurligini ifodalaydi.

Kreativ yondashuv to'garak a'zolari tomonidan yaratilgan ijodiy mahsulotlarning o'ziga xosligi bilan bir-biridan farqlanishini ifodalashga xizmat qiladi. Sohaning keskin sur'atlar bilan rivojlanishi ijodiy xarakterdagi mahsulotlarni tayyorlashga kreativ yondashish, o'ziga xoslik, bir turdagi ijodiy mahsulotning turlicha, o'nlab xildagi talqinda namoyon etilishi bilan bog'liq. Shunga ko'ra to'garakning a'zolarida ham talabalik yillaridan ijodiy faoliyatga kreativ yondashish malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Talabalar o'z faoliyati natijalarini, ijodiy mahsulotlarni mustaqil ravishda refleksiv baholar ekan, erishilgan yutuqlar omilini anglash, yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklarning sabablaridan xabar bo'lish, kelgusi faoliyatda ularning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi xulosaga kelish va amaliy choralarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan kelib chiqib, talabalarning mustaqil ishini tashkil qilish uni muvaffaqiyatli bajarish bog'liq bo'ladi degan fikr kelib chiqadi. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish ta'limda

uzluksizlik, tartiblilik va ketma-ketlikni ta'minlovchi rejalashtirishni o'z ichiga oladi. Mavzuviy rejani tuzish talabalar mustaqil ishini tashkil qilishning boshlang'ich bosqichi bo'lib, u o'quv materialini tushunib yetish, uning murakkablik darajasiga baho berish, topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt me'yorini aniqlash, ta'lim vositalari hamda talabalar mustaqil ishini tashkil qilishning shakllarini tanlab olishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A.X, Toshpo'latov M.A, Nuridinov B.S. (2001) Kasb—hunar kollejlari uchun modulli o'quv dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyanoma.- T.
2. Abduqudusov O.A, Nuriddinov B.S. (2001). Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari. Monografiya.- T.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M.K.Shirinov , S.Hafizov (2008) «Umumiy pedagogika» . «Fan va texnologiya» nashriyoti T.
4. O'tkir Tolipov, Dilnoz Ro'zieva (2019) «Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat» » Toshkent innovatsiya – Ziyo » T.
5. Bultakova R. (2022) STEAM texnologiyalari maktabgachata'lim tizimini takomillashtirish yo'lida. Журнал «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў», № 6/5

5-6 YOSHDAGI BOLALARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Xolmatova Gulyora Obidovna,

Qo'qon davlat pedagogika instituti Fakultetlararo pedagogika va psixalogiya kafedrasini o'qituvchisi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.071>

Annotatsiya: Katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolaning tasavvuri kattalarning ijodiy tasavvuriga yaqinlashishi mumkin. Biroq, bu ijodkorlik amalga oshirilmaydi, samarasiz, bola buni "o'zi uchun" qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning faol tasavvurining asosi o'yinda amalga oshiriladi. Shu sabab mustaqil fikrlash jarayonida o'yin faoliyati yetakchi o'rinni egallaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, fikrlash, bola, o'yin, ijodiy fikrlash, mantiqiy tafakkur, qiyoslash, analiz, sintez, abstraksiya.

К САМОСТОЯТЕЛЬНОМУ МЫШЛЕНИЮ ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ

Холматова Гулёра Обидовна,

Кокандский государственный педагогический институт, Преподаватель кафедры межфакультетской педагогики и психологии

Аннотация: воображение старшего дошкольника может приблизиться к творческому воображению взрослого. Однако это творчество не реализуется, неэффективно, ребенок делает это "для себя". Основа активного воображения дошкольника реализуется в игре. По этой причине в процессе самостоятельного мышления ведущее место занимает игровая деятельность.

Ключевые слова: дошкольное образование, мышление, ребенок, игра, творческое мышление, логическое мышление, сравнение, анализ, синтез, абстракция.

TO INDEPENDENT THINKING OF CHILDREN 5-6 YEARS OLD PSYCHOLOGICAL TASKS OF TRAINING

Kholmatova Gululya Obidovna,

Kokand State Pedagogical Institute Lecturer at the Department of Interfacult Pedagogy and Psychology

Abstract: the imagination of an older preschooler can approach the creative imagination of an adult. However, this creativity is not realized, it is ineffective, the child does it "for himself". The basis of a preschooler's active imagination is realized in the game. For this reason, gaming takes a leading place in the process of independent thinking.

Keywords: preschool education, thinking, child, game, creative thinking, logical thinking, comparison, analysis, synthesis, abstraction.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashi bugungi kundagi eng muhim talablardan biridir. Bola o'zi mustaqil fikrlay olsagina u kelajakda o'z o'rnini hech qiynalmasdan topa oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev: "Biz yoshlarga oid davlatsiyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohadabo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" degan edilar. Yana, 2020-yil 1-oktabrda "Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g'oya, eng muhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlari kerak" Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga

munosib, mustaqil fikr qarashiga ega, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjida tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo'lib kamol topishida adabiyot va san'atning roli beqiyosdir. Shu sababdan ham maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, kelajakda ularni yetuk, barkamol shaxs bo'lib yetishishiga, yurtimizni yanada ravnaq toptirishiga zamin yaratadi.

Yoshlarning aqliy jihatdan yetukligi hamda zakovatining rivojlanishida ularning tug'ma qobiliyat va iste'dodining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tug'ma qobiliyatga ega bo'lgan yoshlarimiz kattalarning har bir ta'limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta'limotlarini tez ilg'ab oladilar va tez o'zlashtirib hayotga tadbiiq eta oladilar. Lekin bu qobiliyat va iste'dod, barcha yoshlarimizga tug'ma talant nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste'dodini oshirib borish birinchi navbatda pedagoglarimizga va keng jamoatchilik zimmasiga ya'ni oila, mahalla, o'quv muassasalari va korxonalar, tashkilot, ustaxonalar boshqaruvchilari zimmasiga tushadi.

Iste'dod tushunchasining asosiy mazmuni «qobiliyat» degan tushunchani ham anglatadi. Bizningcha, amaliyotda qo'llaniladigan «qobiliyat» tushunchasi uchta asosiy qismga ega.

Birinchi, qobiliyat psixologik o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lib, bir odamni boshqasidan farqlaydigan qobiliyat tushuniladi, barcha odamlar xos bo'lgan qobiliyat haqida gap ketganda hech kim bu iborani ishlatmaydi. «Qobiliyat» so'zi marksizm-leninizm asoschilari bashora qilganidek bu - «Har kim qobiliyatiga yarasha» degan shiorda qo'llanilgan, xolos.

Ikkinchi, qobiliyat iborasi umuman olganda odamdagi o'ziga xos har qanday turli xususiyatlarni anglatmay, balki faqat turli faoliyatlarni bajarishda erishgan muvaffaqiyatiga bog'liq bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, ba'zi odamlar shubhasiz o'ziga xos fazilatlariga ega: jizzakilik, lanjlik, yalqovlik kabi xususiyatlarni odatda qobiliyat deb bo'lmaydi, chunki har qanday faoliyatda ham har doim muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Uchinchi, «qobiliyat» tushunchasi ayrim shaxslarda, ya'ni uning bilimi yoki bilarmonligiga qarab belgilanmaydi. Ko'pincha, pedagog o'quvchining faoliyatidan uncha qoniqmasada, lekin shunga qaramay yaxshi o'zlashtirilmayotgan bola boshqa o'rtoqlaridan ortda qolmay fanlarni yaxshi o'zlashtirishga harakat qilishi bilan o'qituvchini xursand qiladi. Pedagog o'zining noroziligini o'quvchi bilan etarlicha shug'ullanmasligini asoslab: o'quvchining «qobiliyatiga e'tibor berib», o'quvchi bilan ko'proq shug'ullansa bilimni yaxshi o'zlashtira olish qobiliyati bor degan xulosa keladi.

Har qanday yosh ishchini tashkiliy ishga nomzodlikka ko'rsatib va bu ko'rsatishni «yaxshi tashkiliy qobiliyat» bilan asoslashadi, albatta, «tashkiliy qobiliyat»ga ega bo'lish bu – «tashkiliy mahorat va bilarmonlik»ga ega degani emas ekanligi haqida o'ylashmaydi. Balki aksincha bo'lib chiqishi ham mumkin: hali tajribaga ega bo'lmagan yosh xodimni «tashkiliy qobiliyati»ni asoslab nomzodlikka ko'rsatishganda balki u hali shu davrda etarli malaka va tajribaga ega bo'lmashligi mumkin-u, lekin o'zining bilimdonlik qobiliyati tufayli tez orada malaka va tajriba orttirib, muvaffaqiyatga erishishi ham mumkin.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, hayotda qobiliyat tushunchasi ostida odatda mavjud bo'lgan bilim, mahorat va malakadan iborat bo'lgan, lekin, bu bilim va mahoratlarga tez va oson erishishni anglatadigan o'ziga xos xususiyatlar ko'zda tutiladi.

Biz qobiliyatni shaxsni tabiiy imkoniyatlari deb tushunishimiz mumkin emas, chunki, qobiliyatni biz «har bir insonning o'ziga xos psixologik xususiyatlari» deb aniqladik, shuning

uchun bu har qanday shaxsda mavjud bo'lgan tabiiy xususiyat deb xulosa chiqarish aslo mumkin emas. Tabiiy bo'lib faqat anatomo - fiziologik hususiyatlar, ya'ni qobiliyatning rivoji asosida yotgan iste'dod bo'lishi mumkin, qobiliyatning o'zi ham doimiy rivojlanish natijasida paydo bo'ladi.

Bunday turdagi terminologiyaning to'g'ri va aniq emasligi asosiy ma'noni bildiradi. «Meros bo'lib qolgan» termini daliliy aniq tushunchasiga ega, shuning uchun ham bu termini katta ehtiyotkorlik bilan, faqat aynan shunday tushunchani keltirish mumkin bo'lgan jiddiy asoslar bor joyda qo'llaniladi.

Ta'kidlash lozimki, qobiliyat o'zining mavjudligi bilan dinamik tushunchadir. Qobiliyat faqat harakatda, faqat rivojlanishda paydo bo'ladi. Psixologik jihatdan qobiliyat haqida, o'zining rivojlanishdan oldin mavjud bo'lganligidek, hamda qobiliyat o'zining to'la rivojiga etib, o'zining rivojlanishi to'xtashi haqida so'zlash aslo mumkin emas. Chunki qobiliyat doimiy rivojlanishda bo'lishi kerak.

Qobiliyat faqat rivojlanishda mavjud deb, biz bu rivojlanishni u yoki boshqa amaliy yoki nazariy faoliyat jarayonida amalga oshirishini nazardan chetda qoldirishimiz mumkin emas, albatta. Bundan xulosa qilinadiki, qobiliyat aniq faoliyatdan tashqarida paydo bo'lmaydi. Faqat uni psixologik tahlil yo'li bilan biz ularni bir-biridan ajrata olamiz. Qobiliyatni aniq faoliyat boshlanishidan oldin mavjud va faqat uning yakunida qo'llaniladi degan xulosaga kelish aslo mumkin emas. Go'dakda absolyut eshitish qobiliyati tovush balandligini bilish birinchi bor dunyoga kelishidan oldin mavjud emas. Ungacha faqatgina anatomo-fiziologik haqiqatdek iste'dod nishonasi mavjud bo'lgan. Gap qobiliyat faoliyatda namoyon bo'lishida emas, balki ularning shu faoliyatda yaratilishidir.

Qobiliyatning rivojlanishi, umuman har qanday rivojlanish ham to'g'ri o'tmaydi: uning harakat kuchi ziddiyatlikning kurashidir, shuning uchun rivojlanishning har xil bosqichida qobiliyat va qiziqishlar o'rtasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Lekin, bo'lishi mumkin bo'lgan bunday ziddiyatlarni tan olish, qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi qobiliyatdan mustaqil yoki aksincha, qobiliyat – qiziqishlardan aslo paydo bo'lmaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, qobiliyat deb faqatgina u yoki boshqa faoliyatning bajarilishida muvaffaqiyatga erishishdan iborat bo'lishdangina emas, balki o'ziga xos psixologik qobiliyatni tan olish kerak. Biroq, to'g'ridan-to'g'ri qandaydir faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilish imkonini aniqlaydigan, o'zgacha bo'lgan qobiliyat emas, balki faqat bu shaxsda mavjud bo'lgan qobiliyatning o'ziga xos birligidir.

Qobiliyat - odam psixikasining eng muhim hususiyatlaridan biri bo'lib, bu xususiyatlarni xaddan tashqari keng to'ldirish imkoni oqibatida qandaydir bir qobiliyatning nisbiy zaifligi hattoki shunday bu qobiliyat bilan hammasidan ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liq faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilish imkoni aslo yo'q emas. Bir shaxsda qobiliyatning etishmasligi keng rivojlangan boshqa bir shaxs bilan o'rtalarida juda katta chegara qoplangan bo'lishi mumkin.

Aynan chegaraning qoplashning imkoniyati har hil: masalan, musiqiy iste'dod va musiqaga yoki biror bir shunga o'xshash sohaga bo'lgan qobiliyat bilan bog'langan faoliyat iste'dod bo'lmasa har qanday urinishlar oqibatda omadsizlikka olib kelishi muqarrar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabul qilmay, biroq biz ko'p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba'zi insonlarda tabiiy hususiyat, ya'ni iste'dod ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Ba'zida «haqiqiy», «tabiiy», «tabiatdan berilgan» va shunga o'xshash so'zlar bilan aytilganda - «tabiiy» tushunchasi, - qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlilda bir-biriga bog'liq.

Ko'p hollarda biz tabiiylikni iste'dod rivoji asosida yotgan qobiliyatni tushunamiz. Balki kimdir biror joyda amaliy so'z ishlatishda, u yoki boshqa biror narsani - tabiiy xususiyatni

qobiliyat deb ta'kidlashi mumkindir. Go'dak tug'ilgan vaqtda mavjud bo'lgan «garmonik his» yoki «musiqaga bo'lgan tuyg'u» haqida o'ylash dargumon. Ehtimol, har qanday idrokli inson, tug'ilgan daqiqadan boshlab, muzikaga bo'lgan tuyg'u yoki o'zaro his-tuyg'uning rivoji asosida faqat iste'dod nishonalari, qiziqish yoki shunga o'xshash tuyg'u mavjud deb o'ylash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, tabiiy iste'dod nishonalari haqida gap ketganda, biz hali meros bo'lib qolgan iste'dod nishonalari haqida so'zlaganimiz yo'q. Bu ikki tushunchani bir-biriga tenglashtirishdagi yakuniy xulosa xatto haddan tashqari keng tarqalgan. «Tabiiy» tushunchasi bilan «meros bo'lib qolgan» tushunchasi bir xil ma'noni anglatishi tahmin qilinishi, albatta, noto'g'ri. Chunki bola tug'ilishdan oldin ona qornida rivojlanadi. «Meros» va «meros bo'lib qolgan» tushunchalari, psixologik adabiyotda, faqat ko'rsatilgan b ajdodlari belgisi meros bo'lib qolgan deb o'ylasakda, o'shanda ham, tarbiya va o'qitishning to'g'ri natijasi emasligini ko'rsatmoqchi bo'lishsa ham, yoki, ba'zi organizmning fiziologik yoki biologik hususiyatlari bu belgi bilan jamlanishini tahmin qilishga haqiqiy asos bo'ladi. «Meros bo'lib qolgan» tushunchasi, shunday qilib, nafaqat «tabiiy» so'zini, balki «biologik», «fiziologik» va shunga o'xshash so'zlarning sinonimidir.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Маҳкамжонов К.М. Тайёрлов синфларида жисмоний тарбия дарслари. – Т.: «Ўқитувчи», 2011. -94-б.
2. Насриддинов Ф.Н., Шатерников Э.К. Инсон омилини шакллантиришда жисмоний тарбия ва спорт. – Т.: «Ўқитувчи», 2003. -102-б.
3. Abdurashid N. Classification of Healthy Factors and Healthy Exercises in the Process of Physical Education //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 103-105.

TEKNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA MODULLI TA’LIMNING RO‘LI

Zaripov Lochin Rustamovich

*Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi boshqarma boshlig‘i
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.075>*

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologiya o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modulli ta’limning metodik tizimini mazmuniy-texnologik va tashkiliy-uslubiy ta’minlashni amalga oshirish jarayoni haqida ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha talabalarni modulli o‘qitishning uslubiy tizimini loyihalash to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: texnologiya, innovatsiya, novatsiya, texnik-texnologik, kredit-modul, kasbiy-metodik, kompetensiya, modulli ta’lim, kasbiy mobillik, modulli texnologiya, didaktika.

РОЛЬ МОДУЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЙ

Zaripov Lochin Rustamovich

*При Министерстве высшего образования, науки и инноваций
Руководитель Исследовательского центра развития высшего образования доктор
педагогических наук, профессор в.б.*

Аннотация: В данной статье представлены научные сведения о процессе внедрения методической системы модульного обучения в профессиональную подготовку будущих учителей технологии. Также речь шла о разработке методической системы модульного обучения студентов по направлению «Технологическое образование».

Ключевые слова: технология, инновация, новаторство, технико-технологический, кредитно-модульный, профессионально-методический, компетентность, модульное образование, профессиональная мобильность, модульная технология, дидактика.

THE ROLE OF MODULAR EDUCATION IN PROFESSIONAL TRAINING OF TECHNOLOGY TEACHERS

Zaripov Lochin Rustamovich

*Under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation
Head of the Higher Education Development Research Center
doctor of pedagogic sciences (DSc), acting associate professor*

Abstract: This article presents scientific information about the process of introducing a methodological system of modular education into the professional training of future technology teachers. They also discussed the development of a methodological system for modular training of students in the direction of «Technological education».

Key words: technology, innovation, novation, technical-technological, credit-module, professional-methodical, competence, modular education, professional mobility, modular technology, didactics.

Respublikamizning barcha pedagogok kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar, “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)” magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrilar tahsil oladi.

“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi bo‘yicha “Oliy ta’limining davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” hamda mazkur yo‘nalishning malaka talabida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar tahlil qilingan holda mutaxassislik bo‘yicha o‘quv rejasi tuziladi. Umumiy va kasbiy kompetensiyalari bo‘yicha o‘xshash konseptual va terminologik apparatga

ega bo'lgan fanlar mazmunini birlashtirish uchun o'qituvchilarning muvofiqlashtiruvchi kengashlari tashkil etilishi lozim.

Demak, talabalarda kasbiy-metodik mahoratni shakllantiruvchi fan o'qituvchilari ("Psixologiya", "Pedagogika", "Mutaxassislikka kirish", "Texnologik ta'lim metodikasi" fanlari, h.k.) - kasbiy – metodik mahorat fanlari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashlarni tuzish orqali o'qituvchilar o'z fanlari uchun asosiy tushunchalar va atamalar bazasini to'ldirishadi. Shundan so'ng, muvofiqlashtiruvchi kengashda ularning umumiy faoliyati tartibga solinib, ya'ni ularni o'rganishning umumiy shartlari va muddatlari belgilanadi. Har bir fan bloki uchun fanlararo asosiy atamalar va tushunchalarning yagona banki yaratiladi. Ayrim tushunchalar, atamalar, mavzular, bo'limlar o'rgatish ketma-ketligi takrorlanmasligi uchun belgilanadi. Ularni o'zlashtirish tartibi jadvalga oldindan kiritiladi hamda fanlar bo'yicha umumiy atama va tushunchalar lug'atini yaratadi. Bunday lug'at bilan doimiy ishlagan holda talaba ushbu fanlarning mazmunini yaxshiroq o'zlashtiradi.

O'qituvchilar o'xshash ob'ektlar va o'rganish predmetlariga ega bo'lgan fanlar bo'yicha talabalar tomonidan ilgari o'rganilgan tushunchalar va atamalar bo'yicha bilimlarning nazorati testlarini tuzishda asosiy fanlararo atamalar va tushunchalar bazasidan foydalanadilar.

Kasbiy-metodik mahoratni muvofiqlashtiruvchi kengash alohida mavzularni o'rganishni quyidagi tarzda tartibga soladi. Masalan, "Ta'lim tamoyillari" mavzusi "Pedagogika" va "Texnologik ta'lim metodikasi" fanlarida o'rganiladi. Faqat "Pedagogika" fanida umumiy masalalar, o'rganish tamoyillari va qonuniyatlari tushunchalari, masalaning tarixi, tamoyillar tasnifi, olimlarning qarashlari va boshqalar o'rganiladi. "Texnologik ta'lim metodikasi" fanida esa masalaning tarixiga, tamoyillar tasnifi bo'yicha turli olimlarning qarashlariga to'xtalmasdan maktabda "Texnologiya" fanini o'qitishning o'ziga xos tamoyillari o'rganiladi. Xuddi shu narsa boshqa mavzularda ham sodir bo'ladi, masalan, "Ta'lim usullari", "Ta'lim shakllari", "O'quv jarayonining tuzilishi" va boshqalar. Bunday integratsiya natijasida boshqa mavzu va bo'limlarni chuqurroq o'rganishga vaqt ajratiladi.

Har bir o'quv fani bo'yicha modulli o'qitish bilan modullarning soni va mazmuni, ularning har biridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar nisbati, ularning ketma-ketligi, modul nazoratining mazmuni va shakllari, loyiha topshirig'ini bajarish jadvali (agar u rejada nazarda tutilgan bo'lsa), yakuniy nazoratning mazmuni va shakllari belgilanadi [6, 327].

Modulli ta'limda fan mazmunini o'zlashtirish uchta elementni o'z ichiga oladi:

- birinchisi, kursning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumot beruvchi muammoli va yo'naltiruvchi ma'ruzalarni o'qish. Fanlar bo'yicha ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari asosida qurilgan;

- ikkinchisi - talabalarning mustaqil ishi - bu ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qish, tegishli ma'ruzaning asosiy sxemasi bilan tanishish, berilgan topshiriqlarni bajarish va modulga kerakli yozuvlarni kiritish;

- uchinchisi - seminarlar va laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar ma'ruzalar bilan birgalikda ishlab chiqiladi, ularning mazmuni yangi materialni o'rganish va muayyan amaliy ko'nikmalarni egallash bilan to'ldiriladi.

Modulning o'quv elementlaridan biri suhbat o'tkazishni o'z ichiga olishi mumkin. Suhbat - bu o'quvchilarni qiziqtirgan mavzuni muhokama qilish va tahlil qilishga jalb qilishning savol-javob usuli. Evristik suhbat usuli o'z nomini "evristikani" (topish, ochish, qidirish) o'qitish usulidan oldi. O'z tabiatiga ko'ra, evristik suhbat muammoga javob izlash sifatida jamoaviy fikrlash yoki suhbatdir. Pedagogikada bu usul muammoli ta'lim usuli deb ataladi.

Aqliy hujum modulning yana bir o'quv elementidir. Usulning asosiy maqsadi - ishtirokchilarni bo'shashgan muhitda fikrlash inersiyasi va stereotiplardan ozod qilish natijasida iloji boricha ko'proq g'oyalarni to'plash. Ish quyidagi guruhlarda amalga oshiriladi: g'oyalar yaratish, muammoli vaziyatni tahlil qilish va g'oyalarni baholash, qarshi choralarni ishlab chiqish. Keyin guruhlarda olingan fikrlar tizimlashtiriladi, umumiy tamoyillar va yondashuvlar bo'yicha birlashtiriladi. Bundan tashqari, tanlangan g'oyalarni amalga oshirishdagi turli to'siqlar ko'rib chiqiladi. Bildirilgan tanqidiy xulosalar baholanadi. Tanqidiy mulohazalar va qarama-qarshi fikrlar tomonidan rad etilmagan g'oyalargina tanlab olinadi [6, 413].

Masalan, o'quv elementlaridan birida siz mini-loyihalarni (loyihaga asoslangan o'qitish texnologiyasi) amalga oshirishni rejalashtirishingiz mumkin. Loyiha tom ma'noda "oldinga tashlangan" prototip bo'lib, har qanday ob'ektning prototipi, faoliyat turi va dizayn loyihani yaratish jarayoniga aylanadi [4, 79].

Loyihaga asoslangan ta'lim muammoli ta'limni amalga oshirishning mumkin bo'lgan usullaridan biridir. O'qituvchi vazifa qo'yganda, u rejalashtirilgan ta'lim natijalarini va dastlabki ma'lumotlarni belgilaydi. Talabalar qolgan hamma narsani o'zlari bajarishlari kerak: oraliq vazifalarni belgilash, ularni hal qilish yo'llarini izlash, harakat qilish, solishtirish, olingan narsani talab qilinadigan narsa bilan solishtirish, o'z faoliyatini muvofiqlashtirish [1, 83].

Loyiha ustida ishlash algoritmi:

1. Tayyorgarlik bosqichi (loyiha mavzusini tanlash, loyiha turini tanlash, guruhlarini shakllantirish, muammoni belgilash, vazifalarni guruhlariga taqsimlash).

Loyihalarning turlari: tadqiqot, ijodiy, rolli o'yinlar (o'yin), tanishish va yo'naltirish (ma'lumot), amaliyotga yo'naltirilgan (amaliy), mono-loyihalalar.

2. Asosiy bosqich (axborot yig'ish, axborotni qayta ishlash, loyihani ishlab chiqish, loyihani amalga oshirish).

3. Yakuniy bosqich (loyihani himoya qilish, xulosa qilish, aks ettirish).

Loyihaga asoslangan ta'limdan foydalanishda quyidagi talablar hisobga olinadi [7, 203]:

1. Loyiha mavzusida integratsiyalashgan bilimlarni, uning yechimini izlanishni talab qiladigan ijodiy muammoning mavjudligi.

2. Kutilayotgan natijalarning amaliy, nazariy, kognitiv ahamiyati. Loyiha faoliyati natijasi ma'lum qiymatga ega bo'lishi, jamiyat va biror shaxs uchun foydali bo'lishi kerak.

3. Talabalarining mustaqil (yakka, juftlik, guruh) ijodiy faoliyati.

4. Loyihaning mazmunini tuzish (bosqichma-bosqich natijalarni ko'rsatgan holda).

5. Tadqiqot usullaridan foydalanish: muammoni, undan kelib chiqadigan tadqiqot vazifalarini aniqlash, ularni hal qilish uchun gipoteza qo'yish, tadqiqot usullarini muhokama qilish, yakuniy natijalarni loyihalash, olingan bilimlarni tahlil qilish, umumlashtirish, tuzatish, xulosalar.

Loyiha agar uni amalga oshirish natijalariga ko'ra talabalarining ma'lum o'quv materialini o'zlashtirishlari baholansa yakuniy, o'z-o'zini o'qitish va loyiha faoliyati uchun o'quv mazmunining faqat bir qismi kursdan chiqarilgan bo'lsa joriy bo'lishi mumkin [4, 142].

"Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabalariga o'qitishning loyiha texnologiyasini qo'llashda, texnologik fanlarni "Ishlab chiqarish texnologiyalari" bo'limini o'rganishda talabalar 5-6 kishidan iborat guruhlarda ish olib boradilar. O'qituvchi turli xil loyiha mavzularini taklif qiladi, bu yerda talabalar ular uchun eng muhim yoki qiziqarli mavzuni tanlashadi. Keling, "O'z korxonasini tashkil etish" kabi mavzu misolida guruh ishining algoritmini ko'rib chiqamiz. Talabalar o'z korxonalarini tashkil etishga da'vat etiladi, bu yerda ular:

korxonaga haqida umumiy ma'lumot berish (joylashuvi, aloqa vositalari va boshqalar);

korxonaga moddiy-texnika bazasining asosiy ko'rsatkichlari (hududi, ishlab chiqarish xodimlari va asosiy vositalar soni) bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlarni berish;

korxonaga tarkibi to'g'risida ma'lumot berish (korxonaning barcha ustaxonalari va fermer xo'jaliklari, ular egallagan binolar va maydonlarning ro'yxati, o'rnatilgan asbob-uskunalar va har bir sexdagi barcha xodimlarning ish haqi fondi);

ushbu korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish (ushbu aniq mahsulotni chiqarish zarurligini isbotlash uchun).

Keyin talabalar guruhning har bir a'zosi uchun vazifani aniqlaydilar:

1. Korxonaning bosh rejasini, korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasini tuzish (korxonaga sexlarining tarkibi, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda ularni hamkorlik qilish tartibi va shakllari).

2. Hududning xaritali rejasini tuzish.

3. Sexlar joylashgan binolarning (korpuslarning) sxematik rejalari va uchastkalarini qurish.

4. Sexning ishlab chiqarish tuzilmasini tuzish (sex uchastkalarining tarkibi, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda ularning hamkorlik qilish tartibi va shakllari).

5. Texnologik yoki shakliy tamoyillari bo'yicha asbob-uskunalar sxemasini qurish.
6. Mahsulotni qayta ishlashning texnologik marshrutini ishlab chiqish.
7. Mahsulotni chiqarish rentabelligi.

Talabalar loyiha ustida ishlashlari kerak bo'lgan vaqt belgilanadi, ish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda talabalarga loyiha mavzularini tanlash taklif etiladi, guruhlar tuziladi, vazifalar guruhlarga taqsimlanadi. Talabalar guruhlarga bo'lingan holda mahsulotlar ro'yxati, korxonasi turi, joylashgan joyi va boshqalar haqida o'ylashadi.

Ikkinchi bosqichda guruhning har bir a'zosi axborot to'playdi, uni qayta ishlaydi va o'z vazifasini bajaradi (diagramma chizadi yoki texnologik marshrutni ishlab chiqadi). Keyin butun guruh loyihani yakunlash uchun birgalikda ishlaydi. Guruh ichidagi har bir ishtirokchining ishi muhokama qilinadi, uni to'ldiradi, bir-biriga yordam beradi, o'z loyhasini himoya qilishga tayyorlanadi.

Uchinchi bosqich - loyihani himoya qilish. O'z korxonasini tashkil etishga qaror qilgan guruh ushbu korxonani ochishning maqsadga muvofiqligini, uning rentabelligini, aynan shu mahsulotni ishlab chiqarish zarurligini va hokazolarni isbotlashi kerak. Ushbu guruhga kiritilmagan qolgan ishtirokchilar tinglaydilar, savollar beradilar, baholaydilar va loyihani qabul qilish (yoki qabul qilmaslik) to'g'risida qaror qabul qiladilar. Loyihani baholashda ko'p qirralilik, xavfsizlik, estetika, iqtisodiy samaradorlikni hisobga olish zarur.

Talabalarni loyiha asosida o'qitish - bu kognitiv faoliyatni faollashtirish, ijodkorlikni rivojlantirish va shu bilan birga ma'lum shaxsiy fazilatlarni shakllantirishning didaktik vositasi. Loyiha usuli sizga ba'zi shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga imkon beradi: jamoada ishlash qobiliyati, tanlov uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, qaror qabul qilish, mas'uliyatni taqsimlash, faoliyat natijalarini tahlil qilish.

O'quv materialining asosiy tarkibiy-mantiqiy diagrammalari tasviriga murojaat qilgan holda shuni ta'kidlash kerakki, modulli o'qitishda modulni o'qitish mazmunini aks ettiruvchi blok-sxema bilan boshlash hamda modulning barcha nazariy materiallarini ixcham va o'rganish uchun qulay shaklda tasvirlangan umumiy diagramma bilan yakunlash maqsadga muvofiqdir. Modulni o'zlashtirish samaradorligi nafaqat o'quv materialini taqdim etish usuliga, balki o'qituvchining vazifalar to'plamini (o'quv elementlarini) qanchalik to'g'ri ishlab chiqish va tuzishiga ham bog'liq. Vazifa har qanday o'quv fani mazmunining asosiy tarkibiy birligidir. Talaba uchun u nazariyaning illustratsiyasi, amaliy vaziyatni hal qilish imkoniyati, hal qilishning muayyan usullarini ishlab chiqish, o'quv va kognitiv faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Balli reyting tizimidan foydalanish ham talabalar o'rtasida sog'lom raqobatni rag'batlantirishning yaxshi usuli bo'lib, tizimli mustaqil ishlarni tartibga solish kerak. Har bir modul uchun har bir talaba tomonidan ballar jadvali tuziladi. Keyin ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan to'planadi va asosiy jadvalga kiritiladi. Barcha o'quv elementlarini to'plangan ballar bilan to'ldirgandan so'ng, har bir talaba uchun o'rtacha arifmetik ball ko'rsatiladi va reyting amalga oshiriladi. Eng ko'p ball soni 1-darajali, bir oz kamroq 2-darajali va hokazo. Bunday tizim talabalarining kundalik ishini rag'batlantiradi, o'qishdagi raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradi va imtihonlarni topshirishda muammoli hodisalarni bartaraf etadi.

Ta'limning kredit-sinov (kreditno-zachetnaya sistema) va reyting tizimi o'rtasidagi farqni ko'rib chiqamiz. Fanni o'rganishni muvaffaqiyatli tamomlagan talaba ushbu fan bo'yicha ajratilgan kreditlar sonini oladi [2, 116]. U ushbu kreditlardan keyingi o'qish uchun foydalanadi (bakalavr yoki magistr darajasi). Talaba muvaffaqiyatining farqi bahoga qarab belgilanadi, kredit o'quv jarayonining tuzilishini ko'rsatadi, lekin talabaning bilim darajasini bildirmaydi. Boshqacha qilib aytganda, kredit faqat ma'lum bir fanga sarflangan vaqtni ko'rsatadi, bu shaxs tushunchasi yoki ushbu fanning qiyinligi bilan bog'liq emas.

Talaba tegishli kredit miqdorini faqat ushbu kurs, fan yakuni bo'yicha ijobiy attestatsiyadan o'tgan taqdirda oladi, ya'ni agar u ko'rsatilganidan past ball olgan bo'lsa (bu "qoniqarli" baho). Hujjatlardagi ball (oxir-oqibat diplomga qo'shimchada) olingan kreditlar miqdori bilan parallel ravishda ko'rsatiladi. Mamlakatimizda 5 baholi baholash tizimi mavjud; boshqa

mamlakatlarda ko‘proq kasrli shkalalar qo‘llaniladi (o‘n, yigirma yoki yuz ball). Yevropa oliy ta‘lim muassasalarida har bir kurs oxirida berilgan umumiy ball odatda bir nechta komponentlardan iborat (uchdan to‘rtgacha). Masalan, umumiy bahoning 30 foizi talabaning darsdagi faolligiga, yana 30 foizi oraliq nazorat natijalariga, qolgan 40 foizi esa imtihon bahosiga qarab qo‘yilishi mumkin.

Reytinglar ko‘plab oliy ta‘lim muassasalarida talabalarni o‘rganishni qo‘shimcha rag‘batlantirish vositasi sifatida, talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish usuli sifatida o‘zini yaxshi isbotladi [3, 55]. Reytinglar orqali talabalarining o‘quv ishlari sifatini sezilarli darajada oshirishi, ularning eng qobiliyatli va faollarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Shunday qilib, “Texnologik ta‘lim” yo‘nalishi bo‘yicha talabalarni modulli o‘qitishning uslubiy tizimini loyihalash - bu o‘qituvchi tomonidan o‘quv tarkibiga asoslanib talabalarni o‘quv faoliyati maqsadiga yo‘naltirish, uni qabul qilishga undash, talaba shaxsining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini-o‘zi baholash tizimini belgilash orqali o‘quv jarayonini modellashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аношкин, А.П. Педагогическое проектирование систем и технологий обучения: Учеб.пособие / А.П. Аношкин. - Омск: Издво ОмГПУ, 1997. - 140с.
2. Zaripov L.R. Key approaches to professional preparation of future technology teachers. International bulletin of applied science and technology. Vol.3, No.1, 2023. 116-120 pgs.
3. Zaripov L.R. Theoretical basis of professional training of future technology teachers. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. Vol.2, No.2, 2023. 55-61 pgs.
4. Морозова, О.П. Педагогический практикум: Учебные задания. Задачи и вопросы / О.П. Морозова. - М., 2000. - 320 с.
5. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб, пособие для студ. пед. вузов / Е. С. Полат, М. Ю. Бухаркина, М. В. Моисеева, А. Е. Петров; под ред. Е. С. Полат. - 3-е изд., испр. и доп. - М.: Академия, 2008. - 268 с.
6. Педагогика: Большая современная энциклопедия / Сост. Е.С. Рапацевич - Мн.: «Соврем. Слово», 2005. - 720 с.
7. Педагогические технологии: Учебное пособие для студентов педагогических специальностей / Под общей ред. В.С. Кукушина. — Серия «Педагогическое образование». - М.: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2004. □336 с.

IMPROVEMENT ON STUDENTS' SPEAKING SKILL

Shodmonova Mukhayyo Kurbanovna

Gulistan State University

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.076>

Abstract. This article explores the various strategies and approaches employed to enhance students' speaking skills in the language learning process. Recognizing the critical role of speaking proficiency in effective communication and language acquisition, educators and researchers have focused on implementing innovative techniques to foster speaking confidence and competence among students. The study examines the impact of interactive activities, real-world simulations, and feedback mechanisms on students' speaking abilities. Additionally, it delves into the influence of classroom environment, teacher-student interactions, and peer collaboration on improving speaking fluency and accuracy. The findings suggest that a combination of structured practice, authentic communication opportunities, and supportive learning environments significantly contributes to the enhancement of students' speaking skills. The article concludes with recommendations for educators to integrate these effective strategies into their teaching practices to facilitate meaningful and engaging speaking experiences for students.

Key words: speaking skills, oral communication, language fluency, pronunciation, vocabulary, listening comprehension, speaking practice, interactive activities, peer feedback, public speaking, presentation skills, confidence building, conversation practice.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАЗГОВОРНОГО НАВЫКА СТУДЕНТОВ

Шодмонова Мухайё Курбановна

Гулистанский государственный университет

Аннотация. В этой статье исследуются различные стратегии и подходы, используемые для улучшения разговорных навыков учащихся в процессе изучения языка. Признавая решающую роль владения разговорной речью в эффективном общении и овладении языком, преподаватели и исследователи сосредоточили внимание на внедрении инновационных методов, способствующих повышению уверенности и компетентности учащихся в разговорной речи. В исследовании изучается влияние интерактивных занятий, моделирования реального мира и механизмов обратной связи на разговорные способности учащихся. Кроме того, в нем рассматривается влияние среды в классе, взаимодействия учителя и ученика и сотрудничества сверстников на улучшение беглости и точности речи. Результаты показывают, что сочетание структурированной практики, аутентичных возможностей общения и благоприятной среды обучения значительно способствует улучшению разговорных навыков учащихся. Статья завершается рекомендациями для преподавателей интегрировать эти эффективные стратегии в свою педагогическую практику, чтобы обеспечить учащимся содержательный и увлекательный разговорный опыт.

Ключевые слова: разговорные навыки, устное общение, свободное владение языком, произношение, словарный запас, понимание на слух, разговорная практика, интерактивная деятельность, обратная связь со сверстниками, публичные выступления, навыки презентации, укрепление доверия, разговорная практика.

TALABALARNING SO'ZLASHUV MAHORATINI OSHIRISH

Shodmonova Muhayyo Qurbonovna

Guliston davlat universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada til o'rganish jarayonida o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini yaxshilash uchun foydalaniladigan turli strategiya va yondashuvlar o'rganiladi. Samarali muloqot va tilni o'zlashtirishda og'zaki nutqni bilishning muhim rolini e'tirof etgan holda, o'qituvchilar va tadqiqotchilar o'quvchilarning nutqiy ishonchi va malakasini oshirish uchun

innovatsion usullarni joriy etishga e'tibor qaratadilar. Tadqiqot interaktiv faoliyat, real dunyo simulyatsiyasi va qayta aloqa mexanizmlarining talabalarning nutq qobiliyatiga ta'sirini o'rganadi. Bundan tashqari, u og'zaki ravonlik va aniqlikni oshirishda sinf muhiti, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabati va tengdoshlar hamkorligining ta'sirini o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tuzilgan amaliyot, haqiqiy muloqot imkoniyatlari va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhiti o'quvchilarning nutq qobiliyatlarini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi. Maqola o'qituvchilarga ushbu samarali strategiyalarni o'quvchilarga mazmunli va qiziqarli nutq tajribasini taqdim etish uchun o'qitish amaliyotiga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: nutqiy ko'nikmalar, og'zaki muloqot, tilning ravonligi, talaffuz, so'z boyligi, tinglab tushunish, nutq amaliyoti, interfaol mashg'ulotlar, tengdoshlarning baholashi, ommaviy nutq, taqdimot ko'nikmalari, ishonchni mustahkamlash, nutq amaliyoti.

Introduction. In today's interconnected world, effective communication skills, particularly speaking skills, have become increasingly important for success in both academic and professional settings. The ability to express ideas clearly, articulate thoughts, and engage in meaningful conversations is essential for personal development, collaboration, and building relationships. However, many students often struggle with speaking confidently and fluently in their second language, leading to challenges in expressing themselves and participating actively in class discussions.

This article aims to explore various strategies and approaches that can be employed to enhance students' speaking skills. By identifying common obstacles faced by students and providing practical tips, techniques, and activities, educators can create a supportive learning environment that fosters confidence, improves pronunciation, expands vocabulary, and encourages fluency in speaking. Through targeted interventions and consistent practice, students can develop the necessary skills to communicate effectively and become more confident speakers in their second language.

Methods

The study involved 60 undergraduate students from a public university in Gulistan, Syrdarya region. The participants were enrolled in an English-speaking course and were at an intermediate level of proficiency.

Materials

Speaking Assessment Rubric: A detailed rubric was developed to evaluate students' speaking skills based on pronunciation, fluency, vocabulary usage, grammar accuracy, and content relevance.

Lesson Plans: A series of structured lesson plans focusing on various speaking activities, including role-plays, debates, presentations, and discussions.

Audio-Visual Aids: Multimedia resources, such as videos, audio clips, and interactive online platforms, were used to supplement classroom instruction and engage students in authentic speaking tasks.

Procedure

Pre-Assessment: Before the intervention, students' speaking skills were assessed using the speaking assessment rubric. This served as a baseline measure of their proficiency level.

Intervention: Over a period of eight weeks, the participants engaged in weekly speaking activities based on the structured lesson plans. Each lesson was designed to target specific speaking sub-skills and provide ample opportunities for practice and feedback.

Peer Assessment: Students were encouraged to peer-assess each other's speaking performances using the same assessment rubric. This peer feedback aimed to promote self-awareness, critical reflection, and collaborative learning.

Teacher Feedback: Instructors provided constructive feedback and guidance to students during and after speaking activities, focusing on areas of improvement and strategies for enhancement.

Post-Assessment: At the end of the eight-week intervention, students' speaking skills were

reassessed using the same speaking assessment rubric to measure improvement.

Data Analysis

Quantitative data collected from the pre-assessment and post-assessment were analyzed using descriptive statistics, including mean scores, standard deviations, and paired-sample t-tests, to determine the effectiveness of the intervention on students' speaking skill improvement. Qualitative data from peer and teacher feedback were analyzed to identify common strengths, weaknesses, and areas for improvement in students' speaking performances.

Ethical Considerations

All participants were informed about the purpose of the study and provided their voluntary consent to participate. Confidentiality and anonymity were maintained throughout the study, and participants had the right to withdraw from the study at any time without any consequences.

Results

The implementation of the speaking skill improvement program yielded promising outcomes, demonstrating a significant enhancement in students' speaking abilities across various proficiency levels. A pre-test and post-test analysis revealed a notable increase in students' confidence, fluency, and accuracy in spoken English.

Quantitative data collected from the assessments indicated a statistically significant improvement in students' speaking scores, with an average increase of 25%. Moreover, qualitative feedback from both students and instructors highlighted a noticeable enhancement in pronunciation, vocabulary usage, and grammatical accuracy.

Furthermore, classroom observations and student engagement metrics reflected a positive shift in students' participation levels during speaking activities and discussions. Students demonstrated increased motivation, enthusiasm, and willingness to communicate in English, indicating a positive impact on their overall speaking proficiency.

In conclusion, the speaking skill improvement program effectively enhanced students' speaking abilities, fostering a supportive learning environment that encouraged active participation, collaboration, and continuous growth in spoken English proficiency. These results underscore the importance of targeted intervention strategies and consistent practice in facilitating meaningful improvements in students' speaking skills.

Discussion

The article «Improvement on Students' Speaking Skill» presents valuable insights into enhancing speaking skills among students, a crucial aspect of language learning that often requires focused attention and innovative approaches. The findings and recommendations presented in the article offer a significant contribution to the field of language education, particularly in terms of pedagogical strategies and classroom practices aimed at improving oral proficiency.

One of the key takeaways from the article is the effectiveness of incorporating interactive and communicative activities in the classroom. Engaging students in dialogues, debates, role-plays, and group discussions not only enhances their speaking skills but also fosters critical thinking, collaboration, and interpersonal communication skills. These activities create an authentic language-learning environment where students can practice using the target language in meaningful contexts, leading to improved fluency and accuracy.

Additionally, the article emphasizes the importance of providing students with constructive feedback and opportunities for self-assessment. By receiving regular feedback on their speaking performance, students can identify areas for improvement, set learning goals, and monitor their progress over time. This reflective practice not only motivates students to actively participate in their learning but also empowers them to take ownership of their language development.

Furthermore, the article highlights the role of technology in enhancing speaking skills through the use of digital tools and multimedia resources. Integrating technology into language instruction can make learning more engaging, interactive, and accessible, allowing students to practice speaking in various contexts and receive immediate feedback on their pronunciation, intonation, and fluency.

However, it is essential to acknowledge the potential challenges associated with improving students' speaking skills, such as varying proficiency levels, cultural differences, and classroom

dynamics. Teachers need to adopt differentiated instruction strategies and create inclusive learning environments that cater to the diverse needs and backgrounds of all students.

The article underscores the importance of adopting a multifaceted approach to improving students' speaking skills, combining interactive activities, constructive feedback, technology integration, and differentiated instruction. By implementing these strategies effectively, educators can create a supportive and stimulating learning environment that promotes linguistic competence, confidence, and communicative competence among students. Further research and collaboration among educators, researchers, and policymakers are needed to explore innovative pedagogical approaches and best practices in language instruction to meet the evolving needs of today's learners.

Conclusion

In conclusion, the enhancement of students' speaking skills is a vital component of language learning and development. By implementing effective teaching strategies, incorporating interactive activities, and providing ample opportunities for practice and feedback, educators can significantly improve students' speaking proficiency.

Furthermore, creating a supportive and inclusive learning environment where students feel comfortable expressing themselves freely is crucial. Encouraging students to engage in meaningful conversations, collaborate with peers, and explore various topics of interest can foster confidence and fluency in spoken language.

As educators, it is essential to recognize the individual strengths, challenges, and learning styles of each student and tailor instruction accordingly. By addressing the unique needs of our students and continuously adapting our teaching methods, we can create a more engaging and effective learning experience that promotes lifelong language skills and communication abilities.

Ultimately, investing in the improvement of students' speaking skills not only enhances their academic performance but also equips them with valuable communication skills that are essential for success in their personal and professional lives.

Reference

- Brown, H. D. (2018). *Principles of language learning and teaching* (6th ed.). Pearson Education.
- Bygate, M. (2001). *Speaking*. Routledge.
- Ellis, R. (2008). *The study of second language acquisition* (2nd ed.). Oxford University Press.
- Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL listening and speaking*. Routledge.
- Nunan, D. (2003). *Practical English language teaching*. McGraw-Hill.
- Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
- Thornbury, S. (2005). *How to teach speaking*. Pearson Education.
- Ur, P. (1996). *A course in language teaching: Practice and theory*. Cambridge University Press.
- Willis, J., & Willis, D. (2007). *Doing task-based teaching*. Oxford University Press.
- Zohrabi, M. (2012). Mixed method research: Instruments, validity, reliability and reporting findings. *Theory and Practice in Language Studies*, 2(2), 254-262.

Jurnal Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan 2020 yil 6 oktyabrda o'tgan.
Jurnal har oyda bir marta o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.
Jurnalning hajmi 60x84, 1/8, A-4;

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2020 yil oktyabrdan nashr etilmoqda.

Pedagogika, psixologiya, filologiya va tilshunoslik, matematika, fizika va mexanika, texnika fanlari, tabiatshunoslik, tarix va falsafa, turizm va iqtisodiyot, axborot kommunikatsion texnologiyalari, geografiya sohalardagi ilmiy va ilmiy-uslubiy materi-allarni o'z ichiga oladi. Nashr qilingan materiallar mualliflari O'zbekiston Respublikasi hamda yaqin va uzoq xorijning yetakchi olimlari, tadqiqotchi-izlanuvchilari.

Jurnalning kalit so'zlari:

Oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyoti; umumiy va maxsus pedagogika va psixologiya, pedagogika va innovatsiya, integratsiya, O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimi; ta'lim jarayoni; ko'p madaniyatli va mintaqaviy ta'lim; III Renessans, XXI asrdagi ta'lim; ta'lim va tarbiya sohasidagi milliy va qadriyat ustuvorliklari; ta'lim sifatini monitoring qilish; uzluksiz pedagogik ta'lim tizimi; ta'lim dasturlari; umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari; o'qituvchilarni tayyorlash tizimidagi ta'lim texnologiyalari.

Guvohnoma raqami № 8882

Bosh muharrir: B.B.MA'MUROV

Bosishga ruxsat etildi: 10.05.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324

«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar.

<https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

